Sadirov B. (2024). Maktabgacha va maktab ta'limida ekologik kompetensiyani shakllantirish. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti.

Saidova, Sh. (2020). Ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish masalalari. Ekologiya va rivojlanish jurnali, 12(1), 45-60. <https://ecojournal.uz/issues/2020/01>

Karimov, S. (2023). O'zbekistonda ekologik ta'limni rivojlantirish strategiyalari. Barqaror rivojlanish va ta'lim, 11(4), 99-113. <https://sustainableedu.uz/articles/2345>

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

TURIZMGA DOIR TERMINLARDAN FOYDALANIB SCAFFOLDING METODI ASOSIDA INGLIZ TILI FANINI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ashurov Nurbek Oybek o'g'li
Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi
<https://orcid.org/0009-0008-1756-2233>

Annotatsiya: Ushbu maqolada nopedagogik ta'lim yo'nalishi bo'lg'usi muhandislarga ingliz tilini o'rganish qiyinchiliklari va bu qiyinchiliklarni bartarafetish uchun, talabalarni qiziqishlarini oshirishga qaratilgan turizmga oid terminlardan foydalanib scaffolding metodi asosida ingliz tilini o'rganish metodikasini afzalliklari, oliy ta'lim muassasalarining nopedagogik ta'lim yo'nalishlarida ingliz tilini o'rganish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Bo'lajak muhandis mutaxassis talabalarga turizmga oid terminlarni ingliz tilida scaffolding metodi asosida o'qitish qulayliklari va ingliz tilini onson o'rganish imkoniyatlari ko'rsatilgan.


Kalit so'zlar: nopedagogik, ta'lim, ingliz tili, muhandis, turizm, soha, termin, "Scaffolding", metodika, o'qitish, qiziqish, intilish, mustaqil, orttirish, takomillashtirish.

Кирриш. "Iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish uchun bizga yuqori malakali muhandis-texnologlar suv bilan havodek zarur. Har bir vazir, tarmoq rahbari, rektor va professor-o'qituvchi mas'uliyatni chuqur his qilib, qattiq ishlasa, izlansa, bunga albatta erishamiz", - dedi Shavkat Mirziyoev[1]. Shuningdek, investitsiya loyihalari qiymatining kamida yarim foizini ilmiy ishlarga ajratish tizimini joriy qilinishi ta'kidlandi. Jumladan, muhandislik yo'nalishlari bo'yicha "eng yaxshi g'oya", "eng yaxshi loyiha" va "eng yaxshi ixtiro" respublika tanlovi o'tkazilishi, unda o'qituvchilar, talabalar va amaliyotchi muhandislar ishtirok etishi mumkinligi qayd etilgan.

Shuningdek global tadqiqotlar electron tarmoq habarlariga ko'ra: «Insoniyatning yildan yilga «ahmoqlashib», «savodsizlashib», aqliy intellect darajasining pasayishi kuzatilmoqda»[2]. Ya'ni, keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2010 yildan beri AQSH aholisining 25 foizi oddiy hisob-kitob, boshlang'ich matemat qo'shuv, ayiruv amallarini bajara olmasligi, intellek darajasini pasayib borayotganligi kuzatilgan. Bugungi kun AQSh aholisining 35 foizida shunday holat kuzatilishi qayd etilgan bo'lib, hayotiy, ijtimoiy ahamiyatli birjr narsaga diqqat-e'tibor qaratish, asosiy muammolarni hal qilishi va mantiqiy fikrlashi mumkin bo'lgan odamlar tobora kamayib borayotganligi havfi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Mulohaza. Kuzatuvlar natigasida respondentlarning yarmi bir yilda faqat bitta kitob o'qigan, o'smirlarning 45 foizi esa umuman kitob o'qimasligi aniqlangan. Muammoni asosiy sababi qilib, ijtimoiy tarmoqlar va yangi kontent formatlarni ko'rsatishmoqda. Jumladan videolar va algoritmlarning cheksiz oqimi miyani aqliy fikrlash faoliyatini «qisqartirib» ni yopib qo'yishi ta'kinlangan.

Butun dunyo tadqiqotlar markazini habariga ko'ra insoniyatni aqliy salohiyati pasayishi kuzatilmoqda, buni qiyidagi pasmdan ko'rishimiz mumkin, 1-rasm.



Bizningcha O'zbekiston aholisi o'rtasida ham bu kabi muammolar yo'q emas va ularning bir necha pedagogik va ta'limiy sabablari mavjud bo'lib, shulardan bittasi til o'rganish va sohaga tadbiq eta olish masalasidir.

Asosiy qism va nazariy tahlil. Ingliz tili, muhandislik sohasida muhim rol o'ynaydi va xalqaro hamkorlik uchun zarurdir. Talabalarga ingliz tilini o'rgatish jarayoni, o'z navbatida, samarali metodlar talab etadi. Scaffolding metodi, o'quv jarayonini bosqichma-bosqich yengillashtirish orqali, talabalar uchun jadal rivojlanishga imkon yaratadi. Quyida scaffolding metodining asosiy tamoyillarini keltiramiz:

Scaffolding - bu o'quvchi-talabalarga yangi bilimlarni o'zlashtirishda yordamlashish, mustaqil bilim ko'nikmasini egallashga ko'mak berish usuli sanaladi. Ushbu metodning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Asosiy tushunchalarni shakllantirish - til o'rganishning 1-bosqichida: scaffolding metodi asosida ingliz tilini o'rgatishni qiziqarliligini ta'minlash uchun talabalarga hududning geoerafik iqlimi haqidagi tushunchalarni yozish so'raladi.

2-bosqichida, muhandislik va turizmga oid terminlardan foydalanib, o'zlari yashayotgan joy nomlari, xususiyatlarini topib o'zbekcha va inglizcha tushunchalarini yozish taklif etiladi. Eng avval hudud, joyga doir muhim texnik terminlarni o'rgatish, talabalar tayyorligini oshiradi.

Bosqichma-bosqich yondashuv asosida darsni murakkabligi oshirib boriladi, talabalar o'zlari topib yozgan terminlarini qo'llagan tarzda o'qituvchi va ilg'or tengdoshlari ko'magida soda gap tuzishadi: Qiyinchilik darajasini asta-sekin oshirish, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Tajriba orqali o'rganish bosqichida - mavzuga doir ma'lumotlar yoritilgan adabiyotlar[3]dan foydalanish, yoki, talabalar yashaydigan hududda mavjud turizmga doir qadimiy ziyoratgohlar, joylar, ularning nomlari, turistlarni qiziqtiradigan tomonlari, xususiyatlari rasmlar va videoroliklar shaklida namoyish etiladi.

Masalan, Olmaliq shahar hududida joylashgan Parpi ota ziyoratgohining dastlabki va hozirgi tasviri yordamida talabalar joy nomlarini o'zbekcha-inglizcha tushunchalarini lug'atdan foydalanib topishadi, yozishadi.



"Parpi ota" ziyoratgohining XX asr bo'lishidagi tasviri
(mussavvir: Gulom Otaqulov)



Keying bosqichida, ushbu ziyoratgohning ahamiyatini o'rganishadilar.

Amaliy masalalar asosida tilni o'rganish, ko'nikmalarini haqiqiy vaziyatga qo'llash imkonini beradigan bu jarayon talabalar qiziqishini va ixtiyoriyligini oshiradi.

Olmaliq hududidan topilgan qadimiy buyumlar tasviri orqali ularning nomlanishi, qayerda, qanday qo'llanilishi borasida tushunchalarni inglizcha nomlari o'rganiladi. Bu vazigani amalga oshirishda kichik guruhlarda ishlash usulidan foydalaniladi.

Scaffolding metodini amaliy qo'llanish bosqichida talabalarga uy ishi sifatida quyidagi tasvirni o'rganib, tasvirni ifodalashda ishlatiladigan so'zlar, tushunchalarni tarjimasini yozib, o'rganib kelish vazifasi beriladi.



Jumladan talabalarni motivlashtiruvchi vazifa, mavzuga doir va tasvirni to'liq, qiziqarli ifodalanishi uchun “eng ko‘p so‘z topgan talaba rag‘batlantirishi ma’lum qilinadi”.

Skafolding metodini qo‘llashda o‘qituvchi ko‘plab tarqatma materiallar, rasmlar, videoroliklar tayyorlashi zarur. Guruh ishlari, loyiha asosidagi mashg‘ulotlar va muhandislik muammolarini hal qilish uchun interaktiv metodlar foydalanish talabalarni jalb qiladi.

Xulosa. Skafolding metodi muhandis talabalar uchun ingliz tilini o‘rgatishda samarali yondashuv xisoblanadi. Ushbu metod orqali talabalar bilimlarini mustahkamlab, xalqaro muhandislik muhokamalarida muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Turizm sohasiga oid terminlarni hududga xos jixatlarini scaffoldin Metodi yordamida o‘rganish metodikasini takomillashtirish talabalar qiziqishlarini va mustaqil bilim egallash imkoniyat va ko‘nikmalarini oshirishni ta’minlaydi.

Adabiyotlar.

1. Мирзиёев муҳандислик соҳасини ривожлантириш учун янги ташаббусларни маълум қилди - Sputnik Ўзбекистон, 21.06.2024
2. <https://insiderua.net/>, <https://www.ft.com/content/a8016c64-63b7-458b-a371-e0e1c54a13fc>
3. Mirzaqulov T.O‘. Olmaliq kitobi. Toshkent – 2021. 484 b.

XX-XXI ASR INGLIZ ADABIYOTINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Atamurodova Feruza Tashmurotovna

*Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM, Xorijiy tillar kafedrası dotsenti, f.f.d.
(PhD)*

Annotatsiya: Zamonaviy ingliz adabiyoti eng muhim madaniy component bo'lib, u turli yo'nalishlarni, jumladan eksperimental va an'anaviy nasriy romanlarni, hikoyalarni, qissalarni, shuningdek, she'riyatni qamrab oladi. XX asr boshlari ingliz adabiyotida yuksalish davri bo'ldi. Ingliz adabiyoti ko'p qirrali va qiziqarli, ma'lum darajada idrok etish uchun murakkab. Ushbu maqolada XX asr boshidagi ingliz adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, mistik, adabiy texnika, irratsionallik, personaj, psixologik jarayon.

ХАРАКТЕРИСТИКА АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XX-XXI ВЕКОВ

Атамуродова Феруза Ташмуротовна

Каршинский университет экономики и педагогики Доцент кафедры иностранных языков, (PhD)

Аннотация: Современная английская литература является важнейшим культурным компонентом, охватывающим различные направления, включая экспериментальные и традиционные прозаические романы, рассказы, повести, а также поэзию. Начало XX века стало периодом расцвета английской литературы. Английская литература многогранна и интересна, но в определённой степени сложна для восприятия. В данной статье рассматриваются характерные особенности английской литературы начала XX века.

Ключевые слова: литература, мистицизм, литературная техника, иррациональность, персонаж, психологический процесс.

CHARACTERISTICS OF ENGLISH LITERATURE OF THE 20TH-21ST CENTURIES

Atamurodova Feruza Tashmurotovna

Karshi University of Economics and Pedagogy Associate Professor of the Department of Foreign Languages, (PhD)

Annotation: Modern English literature is one of the most important cultural components, encompassing various directions, including experimental and traditional prose novels, short stories, novellas, and poetry. The early 20th century was a period of flourishing in English literature. English literature is multifaceted and intriguing, yet somewhat complex to perceive. This article examines the distinctive features of early 20th-century English literature.

Keywords: literature, mysticism, literary technique, irrationality, character, psychological process.

XX asr ingliz adabiyoti rivojining birinchi davri 1930-yillargacha bo'lgan asarlar bilan ifodalanadi. Buyuk Britaniyada zamonaviy adabiy usullardan eng muhim foydalangan adib Jeyms Joys (1882-1941) edi. U g'arbda ham, sharqda ham ko'pchilik yozuvchilarga ta'sir qildi. Jeyms Joys asli Irlandiyalik edi, lekin deyarli butun umrini ixtiyoriy surgunda o'tkazgan. Uning mamlakati Angliya ta'sirida edi, shunga ko'ra, u yerda yashay olmasdi, uning hayotga pessimizmi shu bilan bog'liq. Adib asarlari uning psixologik kayfiyatining aksidir. Uning bosh romani «Ulyss»da qahramonning bir kuni jamiyatning qolipi sifatida uning tarixi va rivojlanishi ochib berilgan.

O'sha davr ingliz adabiyotining kichik hikoyalari Ketrin Mansfild va Somerset Moem tomonidan taqdim etilgan. Ular mavjud ijtimoiy va siyosiy kontekstdagi tartiblar barqarorlik

pozitsiyasida turdilar. [1].

XX asr ingliz adabiyoti taraqqiyotining ikkinchi davri 1930-yillardan Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan o'n yillikni o'z ichiga oladi. Bu davrda dunyoda iqtisodiy inqiroz avj olgan bo'lib, u hech bir mamlakatni o'z ta'sirisiz qoldirmadi. Adabiy sahnada Ikkinchi jahon urushi davrida ijod qilgan yangi avlod realistic yozuvchilari paydo bo'ldi, xususan, Richard Oldington, J.B. Priestli, A.J. Kronin va boshqalar.

30-yillarda Angliya adabiy hayotida marksistik yo'nalish vujudga keldi va uning lideri Ralf Foks (1900-1937) hisoblanadi. U burjuaziya doiralarga tegishli edi, lekin keyinchalik ulardan uzoqlashdi. Uning g'oyalari ko'p jihatdan Oktyabr sotsialistik revolyutsiyasi ta'sirida shakllangan. Ralf Foks tanqidchi, journalist va yozuvchi bo'lib, ishchilar sinfini qo'llab-quvvatlagan. Uning asosiy asari - «Roman va xalq» kitobi 1937-yilda vafotidan keyin nashr etilgan. Muallifning maqsadi burjua tuzumini tanqid qilishdan, uning tanazzulini ko'rsatishdan iborat edi, va shuningdek, ingliz adabiyotini kelgusida yanadar ivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berib borgan. [2]. Foks haqiqiy qahramonning o'limi, uning degradatsiyasi haqida so'zlagan. Uning fikricha, harakat qilishga qodir bo'lgan yangi insonlar, halol va ochiq qahramonlarga muhtohlik boreti.

Aynan shu kayfiyat she'riyatda o'z aksini topdi, antifashist shoirlar - Uisten Xyu Oden, Stiven Spender va Dey Lyuissiyosat va she'riyatni birlashtirishga intilgan yangi oqimni ochdilar. Biroq ularning bu harakati bardavom bo'lmadi.

Buni sababi shunda ediki, ularda inqilobdan so'ng adabiyotga beradigan hech narsasi yo'q edi, ular vaziyatni to'liq o'zlashtirmadilar va revolyutsion g'oyalar haddan tashqari ideallashtirishgan. [3].

Ikkinchi jahon urushining tugashi bir qancha yangi yozuvchilarni keltirib chiqardi, ular sog'lom optimismga ega va ma'lum bir inqirozni boshdan kechirgan ijod kishilarini qayta yaratishdi.

50-yillarda o'sha davr yoshlarining mohiyatini ochib beruvchi yozuvchilar yo'nalishi paydo bo'ldi. Bu yoshlar oliy ma'lumotli bo'lishiga qaramasdan, ishsizlik darajasi yuqoriligi uchun ishga joylashishlari imkonsiz edi. Bu esa ularning kayfiyatida alamzadalik paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu yo'nalishni vakillari yozuvchilar Jon Ueyn, Kingsli Emisva dramaturg Jon Osborn hisoblanadi.

60-yillarda ingliz adabiyoti ishchilar sinfidan chiqqan odamlarning hayotini ochib bergan «ishchi romanlari» bilan boyidi. [4]. Alan Sillito ushbu yo'nalishga vakili sifatida ijod qilgan. Bu davr xilma-xil uslublari bilan ajralib turadi, asarlar odamlar psixologiyasining xususiyatlarini, ularning turli vaziyatlarda xatti-harakatlarini ochib beradi, shuningdek, keyinchalik zamonaviy eng yangi adabiyotda o'z aksini topgan global muammolar tasvirlandi.

1970-yillar va 1980-yillarning boshlarida kitobxonni voqelikdan uzoqlashtirgan mistik romanlar paydo bo'ldi. Bular Grin, Lessing va Le Karre, shuningdek Tomas, Faulzva Spark. «Fransuz leytenanti,» «Miss Jin Brodining praym-taymlari,» «Yagona muammo» kabi romanlar komik asarlar hisoblansada, ammo xavotirli tag ma'noga ega edi.

Zamonaviy ingliz adabiyotida fentezi, ilmiy fantastika, triller, detektiv, roman-epopeya kabilar hamusha davrning mashhur janrlari hisoblanadi. Zamonaviy ingliz adabiyotida ijodkorlar an'anaviy janrlar bilan cheklanib qolmay, yangi shakl va yo'nalishlarni yaratishda dadil tajribalar o'tkazgan. [6].

Zamonaviy ingliz tilidagi yana bir muhim trendlardan biri tarixiy va muqobil hikoyalar bilan mualliflar va o'quvchilarning ishtiyoqini oshirishga qaratilgan edi. Agar voqea boshqacha rivojlanganida nima bo'lishi mumkinligi haqida hikoya qiluvchi roman-muqobillar ham mualliflar orasida, ham o'quvchilar orasida mashhur bo'lgan.

Zamonaviy ingliz adabiyotining yana bir muhim yo'nalishi ijtimoiy muammolar va global chaqiriqlar e'tibor qaratish edi. Ushbu adabiyot vakillari irqchilik, seksizm, tengsizlik, ekologik muammolar va boshqa shu kabi mavzularni faol muhokama qilishgan.

Bundan tashqari, zamonaviy ingliz mualliflari ko'pincha o'z asarlarida yumor va sarkazmdan foydalanib, contrast va kutilmaganlik bilan o'ynaydilar. Ular shuningdek yorqin muqovalar va

qiziqarli sarlavhalardan foydalangan holda o'quvchining e'tiborini o'z asarlariga jalb etishga intiladi. Bu borada nafaqat o'z vatanida sevib o'qiladigan Grem Grin, Ayris Merdokva Agata Kristini eslatib o'tish mumkin.

Ayris Merdok falsafiy xarakterga ega bo'lgan, tagma'no, estetika, axloq, platonik tendensiyalar bilan bog'liq juda ko'p asarlar yozgan. Uning nasriy asarlari ingliz kitobxonlari orasida juda mashhur. Uning «To'r ostida,» «Maftundan qochish,» «Qum qal'a,» «Yakka shox,» «Qizil va yashil,» «Farishtalar vaqti, Tasodifiy odam, Qora shahzoda asarlari adibning inson ichki dunyosiga bo'lgan qiziqishini ochib beradi, insonning yolg'izligi va azob-uqubatlarini tasvirlaydi.[3]. Unga fransuz yozuvchilari va faylasuflari katta ta'sir ko'rsatgan, ular unga ochiq, intellektual, hazil bilan yozishga imkon bergan, ammo romanlar aniq ta'rif va g'oyaga ega emas. Ta'kidlash joizki, «Postmodernism in literature is a cardinal change in the vectors of the movement of life at the end of the XX century. The direction is characterized by a complete revolution of consciousness, what was hidden comes to the fore, double interpretations, multiple meanings appear, monotony and monotony disappear, new assessments of reality appear. I. Murdoch's novel «The Bell» is filled with deep meanings and symbols, one of which is the bell. The bell is a literary allusion». [2, 36].

Merdok iste'dodli, lekin u kelajakka qarayolmaydi, shu kun bilan yashaydi U o'zro manlarida shaxsiy qadriyatlarni yo'qolib borishini jamiyatning fojiasi sifatida yaqqol ifodalaydi. Uning qahramonlari halollik va to'g'rilik ustidan kuladilar, ular yovuz, qonunni chetlab o'tadigan ayyor kimsalar. Ammo bu asarlar hazil-mutoyibadan mahrum bo'lgach, qiziqarsiz, arzimaz asarlar aylangan, masalan, «Baxtli Jim,» «Qo'ng'iroq,» «Maftunkorlikdan qochish. «Ular biroz yengiltak, jiddiylkdan yiroq asarlar.[4]

Nihoyat, ingliz adabiyotining haqiqiy fenomeni bu Joan Rouling va uning

Garri Potter haqidagi qator asarlari edi. Bu ijodkorni va uning asarlarini mashhurligi ta'riflash mushkul. Rouling kitoblari-bestsellerlar, lekin ularni ingliz tilida asl nusxada o'qigan ma'qul. Garri Potter seriyasida bolalar uchun eng yaxshilari jamlangan, qahramonlar real hayotdan olingan bo'lib, ularning kechinmalari, kashfiyotlari, sirlari ochib berilgan. Asarlardagi ko'p syujetlarni Rouling o'z bolaligidan olgan [5].

Rouling 1999-yilda mashhurlikka erishdi, «Garri Potter» romani Buyuk Britaniyada ham, AQShda ham haqiqiy adabiy shov-shuvga aylandi.»Garri Potter»ning davomi ham bestseller bo'ldi. Zamondosh do'stlariga juda o'xshab ketadigan bola va uning do'stlarining hikoyalari qo'rquv, ishonchsizlik, psixologik muammolar qiynayotgan yoshlar qalbiga yo'l topdi. Garri Potterda, uning sarguzashtlarida va yutuqlarida ular o'zlarini tasavvur qilishdi. Ular o'zlarini ko'p ishlarga qodir qahramonlar roliga ko'rishdi.

Rouling kitoblari nafaqat bolalar va o'smirlarni orasida tanildi, balki kitob qahramonlarida o'zlarini, o'z xatti-harakatlarini, kamchilik va nuqsonlarini ko'radigan kattalar uchun ham sevimli asarga aylandi. Ular ham bolalar singari xayol suradilar, o'zlarini har qanday muammoni hal qilishga qodir qahramon sifatida tasavvur qiladilar. Garri Potter seriyasi nafaqat bolalarning hatto kattalarning ham ehtiyojlarini qondirdi. [6].

Umuman olganda, zamonaviy ingliz adabiyoti zamonaviy dunyoni va zamonaviy inson muammolarini aks ettiruvchi keng ko'lamli janr va uslublarni o'z ichiga oladi. U adabiyot qanday qilib dolzarb, foydali bo'lishi mumkinligini, istisnosiz barcha o'quvchilar uchun talabgir va qiziqarli bo'lishi, madaniyatning muhim elementi bo'lib qolishini ko'rsatdi.

Shunday qilib, zamonaviy ingliz adabiyoti boy ijodiy meros va turli janrlar mavjud bo'lgan makondir. Zamonaviy ingliz adabiyoti mualliflari an'anaviy shakllar va janrlari bilan chegaralanib qolmasdan, ko'p qirraliligi, teranligi, go'zalligi va tabiiyligi bilan ajralib turadigan shakllar va yo'nalishlar borasida dadil tajribalar o'tkazmoqdalar va yangilarini yaratmoqdalar. Ular shuningdek chet ellik o'quvchiga ham tushunarli bo'lib turli davrlardagi ingliz hayoti, turmush tarzi, an'analar va xususiyatlarga to'liq singib ketishiga yordam beradi.

Adabiyotlar

Мурашковский С.Р. Мультикультурность современной английской литературы. Москва. 2007. С.91-96

Толкачев С.П. Гибридная образность в русской и английской постколониальной литературе. Филология и культура. Казань, 2017, № 2 (48). С. 193-200

Джойс Дж. Улисс. М., Слово. 2016, 534 с

Агата Кристи. Полное собрание сочинений. М., Слово, 2018, 566 с.

Мердок А. Под сетью. М., 1989, 433 с.

Атамуродова Ф. Т. Художественный конфликт в английском романе XX века // Электронный научный журнал. – 2020. – №. 1. – С. 30-35.

FITOMORF METAFORALAR LINGVOPOETIKASI (Z. M. BOBUR G'AZALLARI MISOLIDA)

*Boboqulova Feruza Fazliddin qizi,
BuxDU Lingvistika: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya. Metaforalarning o'rganilishi, tasniflari, turlari va mumtoz adabiyotdagi shakli haqidagi ma'lumotlar soha mutaxassislarini hamisha qiziqtirib kelgan. Mazkur o'rinda asosiy e'tibor metaforaning bir turi bo'lmish fitomorf metaforalar va ularning mumtoz she'riyatda qo'llanishini ochib berishga qaratilgan. Asosi o'simlik nomlari bilan bog'liq bo'lgan birliklar onomastika yo'nalishidagi fitonimlar sifatida emas, balki lingvopoetik xarakterda tahlilga tortilgan. Hassos ijodkor Z.M. Bobur g'azallarida fitomorfli metaforalar rang-barang va betakror holatda ko'p uchraydiki, bu lingvopoetik tahlil uchun mos obyekt vazifasini bajaradi. Shuningdek, Bobur g'azallaridagi an'anaviy hamda individual fitomorfli metaforalarni ajratish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: metafora, an'anaviy metaforalar, individual metaforalar, fitomorf metaforalar, istiora

ЛИНГПОПОЭТИКА ФИТОМОРФНЫХ МЕТАФОР (НА ПРИМЕРЕ ГАЗЕЛЕЙ З. М. БАБУРА)

*Бобокулова Ферузы Фазлиддиновна,
БухГУ Языкознание: аспирант кафедры узбекского языка*

Аннотация. Сведения об изучении, классификации, видах и формах метафор в классической литературе всегда интересовали специалистов в данной области. В этом месте основной акцент сделан на выявлении фитоморфных метафор, типа метафоры и их использовании в классической поэзии. Единицы, связанные преимущественно с названиями растений, анализировались не как фитонимы в направлении ономастики, а в лингвопоэтическом характере. В газелях чуткого творца З.М. Бабура много фитоморфных метафор в красочном и неповторимом состоянии, служащем подходящим объектом для лингвопоэтического анализа. Также особое значение имеет разграничение традиционных и индивидуальных фитоморфных метафор в газелях Бабура.

Ключевые слова: метафора, традиционные метафоры, отдельные метафоры, фитоморфные метафоры, метафора

LINGUOPOETICS OF PHYTOMORPHIC METAPHORS (ON THE EXAMPLE OF Z. M. BABUR'S GHAZALS)

*Boboqulova Feruza Fazliddin qizi,
BukhsU Linguistics: Master's student in the field of Uzbek language education*

Abstract. The study of metaphors, their classification, types and forms in classical literature have always interested specialists in the field. In this article, the main attention is paid to revealing phytomorphic metaphors, which are a type of metaphor, and their use in classical poetry. The units, which are mainly related to plant names, are analyzed not as phytonyms in the onomastic direction, but as linguopoetic in nature. In the ghazals of the great poet Z.M. Babur, phytomorphic metaphors are often found in a diverse and unique form, which serves as a suitable object for linguopoetic analysis. Also, the separation of traditional and individual phytomorphic metaphors in Babur's ghazals is of particular importance.

Keywords: metaphor, traditional metaphors, individual metaphors, phytomorphic metaphors, allegory

Kirish. Tilning butun bunyodkorlik kuchi nutq go'zalligida namoyon bo'lishi sir emas. Nutqning jozibador va ta'sirchanligini oshirishda iboralar, perifrazalar, bo'yoqdor so'zlar, qanotli jumlar, maqol-u matallar kabi metaforalarning ham xizmati beqiyos. Tilshunoslik tarixida metaforalar qadimdan o'rganilib kelingan va hozirda ham uning yangidan yangi qirralari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Metaforalarning tadqiqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu boradagi dastlabki o'rganishlar Arastu davridan boshlanganini kuzatishimiz mumkin. Aksariyat tilshunoslar mazkur termin tilga ritorika orqali kirib kelgan deb hisoblashadi. Manbalarga ko'ra «metafora» tushunchasi haqidagi ilk ma'lumot Izokrat tomonidan yaratilgan «Evagorus» asarida uchraydi. Metaforalar borasidagi tadqiqotlarning eng gullab yashnagan davri XX asr boshlariga to'g'ri keldi. Jahon tilshunosligida A. Richard, Y. Kormak, M. Blek, S. Pepper kabi olimlar metaforaga psixolingvistik jihatdan yondashishdi va metaforalarga xos asosiy xususiyatlarni aniqladilar. Xorij olimlaridan N. D. Arutyunova esa metaforalar xususida keng tadqiqot ishlari olib bordi va ularning funktsionalligi to'g'risida muhim ma'lumotlarni berib, mazkur birliklarning qo'llanilishi bilan bog'liq keyingi ilmiy ishlarga yo'l ochib berdi.

O'zbek tilshunoslarini ham metafora borasidagi ilmiy qarashlar befarq qoldirmagan. Xalq tilida, notiqalar, ijodkorlar va hatto so'zamol shaxslar nutqida yaratilayotgan yangidan yangi metaforalar hanuzgacha tadqiqotchilarda bu boradagi ilmiy izlanishlarni davom ettirishni ta'minlamoqda. Mazkur sohadagi jiddiy tadqiqotlar sifatida M. Mirtojiyev, Sh. Rahmatullayev, I. Shukurov, D. Xo'jayeva, Z. Tohirova va R. Yunusovlarning ishlarini alohida sanab o'tish joiz. Shuningdek, Sh. Mahmaraimovanning «O'zbek tili teomorfik metaforalarning qisqacha konseptual lug'ati» qo'llanmasi va G. Qobuljonovanning «Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ushbu yo'nalishdagi o'ziga xos yangilik bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Metafora ta'rifi har bir tilshunos o'ziga xos tarzda yondashgan. Masalan, Aristotel va E. Kassirer metaforani nom ko'chirishining istalgan shaklidir deb hisoblaydilar. Arastu o'zining «Poetika» asarida mazkur termin xususida: «Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va ohorlilik jozibasiga ega, undan o'rinli foydalanish nutqni bezaydi», deb yozgan. Potebnya va uning davomchilari metaforani kichraygan o'xshatish deya ta'riflaydilar. N.D. Arutyunova, A. Vejbitskaya va bir qator o'zbek tilshunoslarining fikricha, metafora nom ko'chirishining bir usulidir. Aynan shu qarash sohaning darslik va o'quv qo'llanmalariga ham ko'chgan.

O'zbek tilshunoslaridan Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova va boshqalar mazkur tushunchaga «Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism» kitobida: «Biror narsa, belgi yoki harakatning nomini o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko'chirish metafora usuli bilan yangi ma'no hosil qilish deyiladi», deya ta'rif bergan. «Hozirgi adabiy o'zbek tili» darsligida esa prof. Sh. Rahmatullayev atamani: «Biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o'xshashligi asosida ko'chirilsa, metafora yo'li bilan ko'chirish deyiladi (yunoncha metaphora – «ko'chirish）」, deb talqin qilgan. Tilshunos D. Baxronovanning fikricha, metafora metafora bo'lib shakllanguncha, olamning sodda ko'rinishidan lisoniy ko'rinishigacha aylanadi, ya'ni so'z o'z-o'zidan metaforaga o'zgarmaydi. Ular qaysi jamiyatga tegishli bo'lsa, o'sha jamiyatning ko'zgusiga va madaniy mahsuliga aylanadi. Qisqa qilib aytganda, «Metafora (gr. metaphora – ko'chirish) – narsa va hodisalar mohiyatidagi o'xshashlik asosida biror leksemaning o'z xususiy ifodalanmishidan boshqa narsa va hodisalarni atash uchun ishlatilishi» [6, 156].

Metafora shunchaki o'xshatish emas. U hosil bo'lishi uchun bir qancha qoidalarga amal qilinishi kerak. Metaforada so'zlar, asosan, shakli, mohiyati, bajaradigan vazifasi yoki inson tafakkuridagi assotsiatsiyasiga ko'ra o'xshashlik hosil qiladi. Shu jihati bilan metaforalar o'xshatishning o'ziga xos yuksak darajasini yuzaga keltiradi. Lekin metaforada o'xshatish vositasi va o'xshatish sababi aniq ko'rsatilmagani uchun u oddiy o'xshatishdan farq qiladi.

B. Umurqulov o'zining «Poetik nutq leksikasi» asarida metaforani til va badiiy nutqda qo'llanilishi jihatidan ikki turga ajratadi: 1) til metaforasi; 2) badiiy metafora. Til metaforasi badiiy metaforadan o'xshashlikning formasiga ko'ra farqlanadi. Ya'ni, olimning fikricha, til metaforasida

ikki predmet o'rtasidagi o'xshashlik aniq ko'rinib tursa, badiiy metaforada esa bu o'xshashlik yashirin va obrazli tarzda bo'ladi. Metaforalarning qo'llanilishi jihatidan an'anaviy (umumpoetik) va individual metaforalarga bo'linishi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar ham ushbu kitobda keltirib o'tilgan. Asosiy qism. Metaforalar tadqiqot obyektiga ko'ra bir nechta turlarga ajratiladi. Bular: antropomorf, sotsiomorf, zoomorf, fitomorf, abiotik, xronomorf va artefaktual kabilardir (bu sirani yana davom ettirish mumkin). Antropomorf metafora – afsonaviy qahramonlar, tarixda yashab o'tgan mashhur shaxslar nomlari asosida hosil qilingan metaforadir. Masalan:

O'qi zaxmini ko'rub har yon tanimda el degay

Kim, bu ko'hi dardning ul lolai Nu'monidur [12, 25].

Ya'ni, baytdagi lolayi Nu'mon izofa shaklidagi metaforani yuzaga keltirgan. Manbalarda berilishicha, Imom A'zam laqabi bilan mashhur bo'lgan arab xalifalaridan biri No'mon ibn Sobit ko'ksidan oqqan qondan lola unib chiqadi. Demak, lola gulining paydo bo'lishi No'mon nomi bilan bog'lanadi. Ba'zi ma'lumotlarda esa haqiqatdan ham No'mon degan podsho bo'lganligi va u tog'dan lola olib kelib, parvarish qilganligi uchun lolayi No'mon deb atalgani aytiladi. Shoir ushbu baytda afsonaviy ma'lumotlarga tayangan holda hijron, ayriliqdan azoblangan qalbini lolai Numonga qiyoslaydi. Ya'ni yorning qiyonoq o'qlaridan oshiqning butun tanasi azob chekmoqda. Uning dardlari tog'dek. Bu dardlar, bu ayriliqlar oqibatida jismidan qip-qizil qon lola guli singari oqmoqda.

Sotsiomorf metafora – jamiyat bilan bog'liq tushunchalar va ijtimoiy tuzilmalar asosida yaratilgan metafora turi. Jumladan:

G'am cheriki behaddur, chorasi budur, Bobur,

Bodani ko'mak keltur, jomni himoyat tut [12, 20].

Shoirning lirik qahramon tilidan aytishicha, tiriklikning g'am-tashvishlari shu qadar ko'pki, u butun boshli g'am qo'shiniga o'xshaydi. G'am qo'shinining yetkazadigan zarari, keltiradigan tashvishi chek-chegarasizdir. Unga qarshi eng yaxshi chora esa boda ichib chalg'imoq hamda boda idishidan himoya tilamoqdir. Fikrimizcha, bu yerda boda "tiriklik mayi" ma'nosida qo'llanilgan.

Zoomorf metafora – insonlarga xos bo'lgan fe'l-atvor yoki xususiyatlarning majoziy obrazlarda, jumladan, hayvonlarda aks etishi:

Boburo, hargiz quloq she'ringg'a ul gul solmadi,

Gulga ne parvoki, yuz faryod qilsa andalib [12, 19].

Tushunishimizcha, lirik qahramon guldek go'zal, nafis, ohorli qizga oshiq. Doimgidek mashuqa oshiqning holiga beparvo. Mashuqaning beparvoligidan aziyat chekayotgan oshiq, ya'ni lirik qahramon tilidan "gul ishqida oh chekayotgan bulbul(andalib)ning holi gul uchun beta'sir" ekanligi aytilmoqda. Baytdagi "andalib" metaforasi orqali hijronda yonayotgan oshiq holati tasvirlangan.

Abiotik metafora – insonlardagi biror jihat (xarakter, ko'rinish)ning tabiatdagi jonsiz narsa(quyosh, havo, tuproq kabi)larga qiyoslanishi. Misol uchun:

Xurshid yuzung birla bu kun, ey mahi tobon,

Da'vo gar etar bo'lg'usi kun, so'ngra pushaymon. [12, 43].

Mumtoz she'riyatda yor go'zalligi jihatidan oyga yoxud quyoshga o'xshatilishi ma'lum. Shuningdek, yorning latofatda tengsiz va yagona ekanligini ta'kidlash uchun ham uni ushbu osmon jismlariga qiyos qilishadi. Yuqoridagi baytda ham shu maqsadni ko'zda tutgan holda mashuqa obrazi quyoshga mengzalgan.

Xronomorf metafora – bu vaqt tushunchasi zamirida shakllangan metafora bo'lib, unda vaqt turli shakllarga, jarayonlarga yoki moddiy obyektlarga o'xshatiladi. Quyidagi baytda buni ko'rishimiz mumkin:

Ey gul, meni zor etmaki, husnung chamanida,

Ko'zni yumub ochquncha bu gulzor topilmas [12, 30].

Bu foni dunyo shunchalik bebaqoki, uning qanday tez o'tganini inson ba'zan sezmay

qoladi. Odamdagi yoshlik, go'zallik, kuch-quvvat kabi narsalar ham xuddi shunday o'tkinchi va aldamchidir. Shuning uchun ularga ishonib, g'ururlanib bo'lmaydi. Mazkur misralarda ham lirik qahramon yoriga murojaat qilib, o'z husniga ko'p bino qo'ymasligi, bu chiroy o'tkinchiligi va tezda yo'qolishi mumkinligini uqtirishga harakat qilmoqda.

Artefaktual metafora – abstrakt tushunchalar yoki tabiiy hodisalar odamlar tomonidan yaratilgan (sun'iy) narsalar bilan taqqoslanadi va o'ziga xos o'xshatish hosil qilinadi.

Bexato elga otib g'amza o'qin,

Bizga yetganda xato qilg'aysen [12, 49].

G'amza – yorning noz-u karashmasi yoki nozli qarashidir. Oshiqlar mashuqasining g'amzasini ko'rganda, ya'ni o'tli nigohini ko'rishganda bir muddat aql-hushlarini yo'qotib qo'yishadi. Go'yoki yaralangandek jonsiz qotib qolishadi. Shu sababli ham ko'p hollarda mumtoz adabiyot vakillari yor g'amzasini o'qqa o'xshatishgan.

Fitomorf metaforalarda kishilarga xos bo'lgan narsa va holatlar o'simliklar orqali aks ettiriladi. Aniqroq qilib aytganda: "Fitomorf metafora (FM) lar antroposentrik metaforalar sirasida o'ziga xos mavqeyi bilan ajralib turuvchi, daraxt, o'simliklar va ularning qismlari nomini anglatuvchi, ya'ni fitonimik leksikaning insonga nisbatan qo'llanishi natijasida hosil bo'lgan metaforik nomlanishi bo'lib, insonning borliq haqidagi bilimlari yaxlitligini ta'minlaydi"[11, 19].

She'riyatda ko'pincha, yorga nisbatan gul, sarv, shamshod va lola singari metaforalar qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, mumtoz she'riyatda bunday ifodalar ko'p uchraydi va ular an'anaviy metaforalar hisoblanadi. Bobur ijodida ham xuddi shunday fitomorf metaforalarni uchratishimiz mumkin. Masalan:

Yuzung, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,

Qading, ey gul, hayotim bog'ining sarvi ravonidir [12, 28].

Ushbu baytda mashuqaning yuzi gulga, qaddi esa sarvga o'xshatilmoqda. Yorning yuzi, asosan, chiroy jihatidan gulga, qaddi bo'lsa tikligi jihatidan sarvga qiyoslanadi.

"Fitonimik metafora deganda, faqat o'simlik nomlari asosidagi nom ko'chishlar nazarda tutiladi: "chinor"-uzoq umr, "sarv"-qad, "lola"-chiroy kabi. Biroq fitomorfik metaforada o'simlik nomlari, xususiyatlari, qismlari, hosil, mahsulot nomlarining metaforik qo'llanilishi nazarda tutiladi: "danak"-nevara, "ildiz"-ajdodlar, "meva"-farzand kabi" [7, 11].

Tilshunoslik va adabiyot o'zaro hamohang bo'lib, bittasidagi tushuncha ikkinchisida ham xuddi o'sha ma'noni ifodalaydi va bir xil vazifani bajarishga xizmat qiladi. Faqat nomlanishdagina bir-biridan farq qiladi. Misol uchun metaforalar tilda ko'chma ma'noni ifodalash maqsadida qo'llanilsa, adabiyotda ham aynan shu jihatdan foydalaniladi. Faqat lingvistikadagi "metafora" atamasi adabiyotshunoslikda "istiora" deb ataladi.

Istiora san'atiga avvaldan qiziqish yuqori bo'lgan va ko'plab adabiyotchilar unga turlicha tavsif berishgan. Masalan, A. Husayniy o'zining "Badoyi'us-sanoyi" asarida shunday ta'rif keltirib o'tadi: "Istiora majozning bir nav'idur. Haqiqat lafzni o'z yasog'i, ya'ni nimani mo'ljallab yasag'on bo'lsalar o'shul ma'noda qo'llamoqtin iborattur. Majoz lafzni o'z yasog'idin o'zga ma'noda yasog'u lafzu ushul ma'no orasindag'i biror aloqa-yu munosabatga asoslanaroq qo'llamoqtin iborattur, o'z yasog'ida tushunmakka moni' bo'lg'uchi jumladoshi keltirmak sharti bila". Istiora adabiyotchilar uchun eskirmas mavzu bo'lib, XX-XXI asrlarda ham bir qancha tadqiqotlar mavzusiga aylanmoqda. Izlanishlar davomida esa uning yangicha tavsiflari va qirralari kashf qilinmoqda. Jumladan, 1926-yilda nashr qilingan "Adabiyot qoidolari" kitobida A. Fitrat istiorani shunday tasnif qiladi: "Bir so'zning o'z ma'nosidan boshqa bir ma'no uchun ishlatilmakidir. Shul shart bilankim, u so'zning o'z ma'nosi bilan yangi ma'nosi orasida bir turli o'xshashli bo'lsun". A. Hojiahmedov ham o'zining "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" kitobida Fitratning fikriga yaqin bo'lgan mulohazalarni bildirib o'tadi: "Istiora arabcha so'z bo'lib, "biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq" degan ma'noni ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, aniqrog'i uni haqiqiy ma'nosida emas, balki majoziy bir ma'noda qo'llash san'ati sanaladi. Ko'pincha bu ikki ma'no o'zaro o'xshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbih

san'atiga yaqin turadi". Adabiyotshunos Y. Ishoqov esa "So'z san'ati so'zligi" ilmiy risolasida istioraning xususiyatiga ko'ra, ochiq istiora (yoki istiorai bittasreh) va yopiq istiora (yoki istiorai izofiy)ga bo'linishini aytib o'tadi. Ochiq istioraga muallif shunday ta'rif beradi: "Agar istiora obyekt (o'xshatilayotgan narsa) tilga olinmay, faqat istioralanuvchigina zikr qilinsa, bunday usul ochiq istiora – istiorai bittasreh deyiladi." Masalan:

Ul sarvg'a karam qilibon yetkur, ey sabo,

Bobur niyozini yer o'pub xo'b ado bila [12, 89].

Birinchi misrada "sarv" so'zi orqali yorning qaddi nazarda tutilgan. Qad so'zi ishlatilmay, faqat o'xshayotgan narsa (sarv) ishlatilgani bois mazkur o'rinda ochiq istiora san'ati yuzaga kelgan. "Sarv – janubiy o'lkalarda tik o'sadigan, ignabargli va doim yashil daraxt. Asl vatani Livan, Kipr va Sitsiliya orollari hisoblanadi. Ushbu daraxt qadimdan turli ma'nolarning ramzi va timsoli bo'lib kelgan. Masalan, yunon asotirlarida sarv ta'ziya va ayriliq ramzi sanaladi. "Tavrot"ga ko'ra sarv abadiylik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun payg'ambar Nuh o'z kemasini sarv yog'ochidan yasaydi. Zardushtiylar e'tiqodiga ko'ra sarvni Zardusht Kashmirdan olib kelgan. Arab xalqi bu daraxtni shajarat ul-hayot (tiriklik daraxti) deb ataydi.

Sarvning bir necha turi bor. Sarvi sihiy ikki shoxi tik o'sadigan sarv bo'lsa, sarvi noz shoxlari odam qo'llaridek ikki tomondan pastga moyil sarv turidir. Sarvi ozod esa shox-shabbasiz, tik o'sadi. Xalq orasidagi ishonchlarga ko'ra, qayerda sarv bo'lsa, o'sha yerga ilon in quradi. Shuning uchun ko'p hollarda yorning xush qomati sarvga, sochi esa ilonga o'xshatiladi" [7, 18].

Yopiq istiora borasida olim quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: "Yopiq istiorada, ochiq istioradan farqli o'laroq, istioralanuvchi zikr etilmaydi, balki uning biror sifati, xulq-atvori, uzv-a'zosi izofat sifatida keltiriladi." Misol uchun:

Oraz-u qaddingni ta'rif etsalar yuz yil, hanuz,

Ey yuzi gul, sarvqad, yuzdin biri aytilmag'ay [12, 61].

Ushbu baytda yorning yuzi gulga, qaddi esa sarvga qiyoslangan va ikkalasi (o'xshatilmish va o'xshamish) ham qo'llanilgani uchun yopiq istiora hosil bo'lgan.

Muhokama va natijalar. Istiora san'ati oddiy san'at bo'lmay, u ijodkordan yuksak tafakkur va nozik did talab qiladi. Bobur shunday sifatlarga ega shoir bo'lganligi uchun ham mazkur badiiy vositadan o'z she'rlarida unumli tarzda foydalanishga harakat qilgan. Quyida adib g'azallaridan olingan namunalar va ularning tahlillari asosida buni yanada aniq kuzatishimiz mumkin.

Tishing - durr, labing - marjon, xading - gul, xating - rayhon,

Yuzung - hur, soching - anbar, so'zung - mul, menging - miynon [12, 68].

Shoir yuqoridagi satrlarda yorning xadini, ya'ni yonog'ini gulga, xati (ustki labidagi mayin tuklar)ni esa rayhonga mengzagan [2, 367]. Bu ham, albatta, barcha mumtoz ijodkorlar asarida keng foydalanilgan fitomorflardan biridir.

Ey yuzi nasrin, qomati shamshod,

Necha qilursen jonima bedod? [12, 20].

Nasrin oq xushbo'y gul sanaladi [1, 436]. Oq rangda bo'lganligi bois shoirlar uni "oq yuzli yor" ma'nosini ifodalash uchun yorga nisbatan qo'llashadi. Baytda yorning nozik qomati esa shamshodga qiyos qilingan. Sababi, shamshod daraxti uncha baland bo'lmagan, eni ingichka daraxtdir. Uning o'ziga xosligi shundaki, unda tabiat tomonidan berilgan o'zgacha bir shakl bor. Qo'llanilgan metafora orqali mashuqada ham xuddi shunday betakror qomat borligiga ishora qilingan. Bunday istioralar ham an'anaviy istioraga yorqin misol bo'ladi.

Yuqorida ijodkorning yor yonog'i va labi ustidagi tuklarini gul va rayhonga o'xshatganini kuzatgan bo'lsak, quyidagi baytda yor xadini lolaga, xatini esa binafshaga qiyoslaganini guvohi bo'lishimiz mumkin:

Xati – binafsha, xadi – lola, zulfi rayhondur,

Bahori husnda yuzi ajab gulistondur [12, 22].

Avvalgi parchada mashuqaning labi ustidagi mayin tuklari rayhonga o'xshatilgan edi, mazkur

baytda esa binafshaga o'xshatilgan. Buning sababi shuki, bu ikkala gul ham asosan, to'q safsar rangdagi xushbo'y gullar hisoblanadi. Ushbu istiora yordamida yorning xati xushbo'y va qora ekanligiga belgi berib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda, Bobur bu baytda sochni rayhonga o'xshatgan. Sochning iforliligi jihatdan rayhonga qiyos qilinishi ham mumtoz adabiyotda ko'p uchraydigan holatlardandir.

Hozirgacha ko'rib chiqqan misollarimizning barchasi an'anaviy metaforalarga namunalar edi. Har bir shoir ijod qilar ekan, o'z asarlarida hech kimnikiga o'xshamagan go'zal tashbehlar, tasviriy ifodalar va metaforalardan foydalanishga harakat qiladi. Shubhasiz, bu ijodkorning qanchalik darajada mahoratli ekanligi va dunyoqarashi nechog'lik keng ekanligini belgilab beradi. Bobur ham o'z ijodi mobaynida hali hech kim qo'llamagan individual metaforalarni yaratishga harakat qilgan. Quyida ularning bir nechitasi bilan yaqindan tanishamiz.

Sarvdek qaddi firoqida fig'onimdur baland

Gul kibi ruxsori hajrida yoshimdur lolagun [12, 46].

Oshiqlar yoriga yetishguncha uning firoqida ko'p azob chekishadi. Vaslini umid qilib, yor xayoli bilan o'zlarini ovutishadi. Ba'zida hijron azobiga bardosh qila olmay ko'zyosh to'kishadi. Bu ko'zyosh shunchalik g'amli va alamliki, uning ranggi oddiy ko'zyoshdan farq qiladi. Bobur ham mazkur baytida ayriliq sitamiga chidolmay to'kkan yoshlarini lolagun, ya'ni, lolarang, qizil deya tasvirilaydi. Bu esa oshiqning mashuqasi hajrida behad qiynalayotgan holatini yanada ta'sirli qilib ko'rsatishga xizmat qilgan.

Xatti mushkinmu durur gul yuzida,

Yo suman ustida rayhon ko'runur? [12, 27].

Ushbu baytda mahbuba chehrasi gulga, xati esa qora bo'lgani uchun mushk (mushk hidli, qora tusli)ka qiyoslangan. Yorning mana shu ko'rinishini shoir keyingi misrada suman gulining ustidagi rayhonga o'xshatadi. Ya'ni bu yerda yorning orazi sumanga, xati esa rayhonga nisbatlangan. Suman gulining yorga qiyoslanishi Navoiy g'azallarida ham uchraydi, lekin suman va rayhon gullarini ustma-ust qo'yib, go'zal qiz tasvirini hosil qilish yangilikdir.

To uzildi ko'nglum ul oy qaddidin afsurdadur,

Kim, uzulgan g'uncha gulning shoxidin pajmurdadur [12, 28].

G'uncha obrazi yopiqligi va kichkinaligi jihatidan mumtoz adabiyotda ko'proq yor labiga qiyos qilinadi. Lekin ushbu misralarda g'uncha mashuqaning dudog'iga emas, balki oshiqning ko'ngliga o'xshatilgan. Ko'ngilning g'unchaga o'xshatilishi Boburdan oldingi salaflarda ham uchraydi, biroq ijodkor mazkur baytda uni boshqacha maqsadda qo'llagan. Bilamizki, g'uncha juda nozik va hali ochilmagan guldur. Ya'ni bu yerda lirik qahramon yoriga yetishmay turib, ayrilgani sababli o'z ko'nglini ochilishga ulgurmay uzilgan g'unchaga tenglashtirgan.

Xating aro uzoring sabza ichinda lola,

Ul chashmi purxumoring loladag'i g'azola [12, 54].

Ijodkorning mashhur g'azalidan olingan mazkur baytda mashuqaning xati sabzaga va jamoli lolaga, ya'ni maysalar ichidagi lolaga qiyoslanadi. Ikki ko'zi esa lolazorda sayr qilib yurgan ohuga o'xshatilgan. Lola gulining yorga o'xshatilishi bejiz emas, chunki lola juda nozik va nafis guldur. Bobur she'riyatining o'ziga xosligi shundaki, u she'rlarida ko'pincha boshqa gullarga nisbatan lola gulini bosh obraz sifatida qo'llaydi. Ya'ni lola shoir ijodining bosh markazida turuvchi hamda uning lirikasini boshqa adiblar lirikasidan ajratib turuvchi yetakchi timsollardandir.

Xulosa. Metaforalarsiz nutq jonsiz tan kabidir yoxud metafora qo'llanilmagan nutq iforsiz gul kabidir. Demak, metaforalar nutqning jilosi, ko'rki va zavq baxsh etuvchi jonidir. Y. Sayidov o'zining "Jadid badiiy asarlari leksikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida metaforalar haqida shunday deydi: "Haqiqatan ham metaforalar his-tuyg'u va kayfiyatni aniq, yorqin, ixcham, ta'sirbaxsh tarzda yetkazib berish imkonini beradi. U o'zining ixchamligi, soddaligi, semantik jihatdan serma'noliligi bilan she'riy matnning qisqa shakliga juda mos keladi va uning badiyatini oshirishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi". Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Bobur ijodidagi metaforalar rang-barangligi va ular orqali hosil qilingan go'zal

tasvirlari bilan kitobxon e'tiborini tezda o'ziga jalb etadi. Uning ijodida nafaqat metaforalar, balki boshqa she'riy san'atlarni ham qo'llashdan maqsad oddiy bo'lmay, balki go'zal badiiy tasvirni yaratish bo'lgan. Albatta, bu uning kuchli ijodiy mahoratidan yorqin dalolatdir.

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. II том. – Т.: Фан, 1983. – 642 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. III том. – Т.: Фан, 1983. – 622 б.
3. Аристотел. Поетика. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 149 б.
4. Ҳожиаҳмедов А. Шеърини санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998. – 160 б.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006. – 125 б.
6. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Т.: Tafakkur bo'stoni. 2018. – 202 б.
7. Muqimova G. Fitomorf metaforalarning lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari va leksikografik talqini. Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2023. – 51 б.
8. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Т.: Мумтоз сўз, 2010. – 296 б.
9. Сайидов Ё. Жадид бадий асарлари лексикаси. Филол. фанлари доктори... диссер. – Бухоро, 2018. – 304 б.
10. Умурқулов Б. Поетик нутқ лексикаси. – Т.: Фан, 1990. – 109 б.
11. Xolnazarov U. Nasriy nutqda metaforalarning lingvokognitiv, lingvomadaniy xususiyatlari (T. Murod qissalari misolida). Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2023. – 63 б.
12. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Т.: Фан, 1993. – 143 б.
13. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 443 б.

“HURRIYAT” GAZETASI JADIDLARNING MA'RIFIY QUROLI

*Doniyorova Gulrux Baxtiyorovna,
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti o'qituvchisi
Filologiya fanlari doktori, professor H. Boltaboyev taqrizi asosida*

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1917-1918-yillarda chop etilgan “Hurriyat” gazetasining tashkil etilishi, unda o‘rin olgan jadid ziyolilarining ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy maqolalari bilan birga badiiy va publitsistik asarlari ham tilga olingan. Gazeta muharrirlarining faoliyati yoritilgan. XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik oqimining mamlakatimiz hayotida tutgan o‘rni, maorif sohasida olib borgan ishlari, unga ziyolilarning munosabati bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: “Hurriyat”, maorif, ozodlikka intilish, “Usuli jadid” maktablari, darsliklar, jadid matbuoti.

ГАЗЕТА «ХУРРИЯТ» — ЭТО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ОРУЖИЕ НОВЫХ АГЕНТСТВ

*Дониерова Гулрух Бахтиёровна,
Преподаватель Ташкентского университета социальных инноваций
На основе рецензии доктора филологических наук, профессора Х. Болтабоева*

Аннотация. В статье рассматривается создание газеты «Хуррият», издававшейся в 1917-1918 годах, и опубликованные в ней общественно-политические и просветительские статьи джадидской интеллигенции, а также их художественные и публицистические произведения. Написано о работе редакторов газет. Описана роль движения джадидов, возникшего в начале XX века, в жизни нашей страны, его деятельность в сфере образования, отношение к нему интеллигенции.

Ключевые слова: «Хуррият», образование, стремление к свободе, школы «Усули жаид», учебники, новая пресса.

“HURRIYAT” NEWSPAPER IS THE ENLIGHTENING WEAPON OF THE JADID

*Doniyorova Gulrux Bakhtiyorovna,
Teacher of Tashkent University of Social Innovation
Based on the review of Doctor of Philology, Professor H. Boltaboyev*

Annotatsiya. This article discusses the establishment of the newspaper “Hurriyat” published in 1917-1918, the socio-political, educational articles of the Jadid intellectuals included in it, as well as the artistic and journalistic works. The work of the newspaper’s editors is described. The role of the Jadid movement that emerged in the early 20th century in the life of our country, its work in the field of education, and the attitude of the intelligentsia to it are described.

Keywords: “Hurriyat”, education, the desire for freedom, «Usuli Jadid» schools, textbooks, Jadid press

Kirish. 1905-yil 17-oktyabrda podsho Nikolay II ning so‘z va vijdon erkinligi haqidagi Manifestning e‘lon qilinishi Turkistonda milliy matbuotchiligimiz tug‘ilishiga zamin yaratdi. Bu hujjat jadid ma‘rifatparvarlari uchun qonuniy asos vazifasini o‘tadi. Ungacha ham o‘lkamizda o‘zbek tilida chop etiladigan nashrlar bor edi. “Turkiston viloyatining gazetasi” jadidchilik matbuotidan deyarli 30-35 yil oldin tashkil etilgan bo‘lsa ham, uning sahifalari hukumat yuritayotgan siyosatni madh etuvchi, chorizmni qo‘llab-quvvatlovchi maqolalar bilan liq to‘lar edi. Xalqimiz esa o‘z

g'oya va maslakalari aks ettirilgan, o'z so'zini baralla ayta oladigan nashrlarga muhtoj edi. Shu tariqa o'lkamizning turli shaharlarida ma'rifatparvar ziyolilarimiz tomonidan davriy nashrlar chop ettirila boshlandi. Abdulla Avloniy "Bugungi o'zbek vaqtli matbuotining tarixi" maqolasida 1905-1917-yillar oralig'ida o'lkada o'zbek tilida 22 ta gazeta, 8 ta jurnal nashr etilganini xabar beradi.

Samarqand viloyatida chop etilgan "Hurriyat" gazetasi shular jumlasidan. Bu to'g'rida "Hurriyat"ning 1917-yil, 16-aprel ya'ni ilk sonidagi "Tashakkur" maqolasida muallif S.A. shunday yozadi: "Endi haq so'zni aytqonda og'zimizni ushlamaslar, qalamimizni saqlamasalar. Huquqimizni talab qilg'onda eshiturlar, dardimizni bildirg'onda chorasini yoshurmaslar. Lekin bul matlablar uchun bir vosita bir asbob kerak. Ul esa shaksiz jardadur, g'azeta erur. Shukrlar bo'lsinkim, bul vositag'a ham bugun muvaffaq bo'lduk. Ushbu asbob ham endi qo'limizg'a kirdi." Muallif maqolaning davomida: "Boshqa shaharlarda inqilobning birinchi kunidan boshlab jaridalar, g'azetalar chiqmoqqa boshladi. Shahrimiz Samarqandda ham rus hamvatanlarimizning "Ozod so'zi" nomli g'azetalari nashrga qadam qo'ydi. Biz Samarqand musulmonlari tarafindin bul xususinda hanuz bir rasmiy harakat ko'rinmas edi. Shul uchun musulmon birodarlarimizdan ham jarida nashrig'a biron oqdam qilinurmu? Samarqandda o'z holatimizda ham biron g'azeta chiqarmoqqa boshlarmu deb o'ylanturg'onda muhtaram Mirzo Akobir afandidan "Hurriyat" jaridasi nashrining mujdasini eshitdim, ko'p suyundim"-deb yozadi. Muallif gazetani inqilobning mevasi sifatida baholaydi va xalqimizni zulm davrining yakuni bilan qutlaydi, "Hurriyat"ga omad tilaydi: "Mirzo Akobir janoblarining bul millatparvarona sa'ylarining muqobilida o'z tashakkurotimni izhor qilmoqdin to'xtay olmay, darhol qalamni qo'lga olib, komil shodlik ila ushbu necha kalimani orzu qildim. Xudovandi taolo ziroatlaridin chin ko'ngul ila „Hurriyat“ jaridasining bahosini oning mudiri Mirzo Akobir afandining istiqomatini va nashrlari bo'lgan "Zarafshon" shirkatlarining davomini tilab aytadurman: "Yashasin Hurriyat!"-deb tugatadi maqolani.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek matbuotining paydo bo'lishi va shakllanishiga oid qimmatli ma'lumotlarni Ziyoz Saidning "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927)" risolasida uchratamiz. Unda o'sha davrga oid yuzlab gazeta va jurnallarning tahlili mavjud. Bundan tashqari N. Abduazizovning "Milliy jurnalistika tarixi" kitobining 1-jildida XX asr boshlaridagi adabiy-badiiy nashrlarning paydo bo'lishi, ularning uslubi, tanlagan yo'nalishlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. H. Boltaboyevning "Fitrat va jadidchilik", B. Do'stqorayevning "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi", B. Qosimovning "Tanlangan asarlar" (2-jildi) kitoblarida ham yurtimizda jadidchilik harakati, ilk matbuotning paydo bo'lish va rivojlanish davrlari haqida ko'plab ma'lumotlar o'rin olgan.

Metodologiya. "Hurriyat" gazetasini o'rganish va tahlil qilish jarayonida yurtimizda jadidlar, ilk matbuotchilik davrini o'rgangan professor olimlar B. Qosimov, H. Boltaboyev, B. Do'stqorayev, N. Abduazizova va boshqa ko'plab tadqiqotchilarning ishlariga hamda manbaining o'ziga ham murojaat qilgan ma'qul. Undagi maqolalar, xabarlar va turli qiziqarli sahifalar orqali tadqiqotchilar o'sha davrga oid ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari maqolalar tili ravon va uslubining soddaligi ham uni oson tushunishga yordam beradi.

Muhokama va natijalar. "Matbuot millat chirog'idur" shiori ostida nashr etilgan "Hurriyat" gazetasiga samarqandlik taraqqiyparvar va ma'rifatparvar Akobir Shomansurzoda asos soldi va uning 9-soniga qadar muharrirlik qildi. 9-sonidan

26-sonigacha Mardonqul Shohmuhammadzoda, 27-sonidan 87-sonigacha jami 52 ta soniga Abdurauf Fitrat muharrirlik qilgan. "Hurriyat"ning asosiy tahrir hay'ati Mahmudxo'ja Behbudiy, Said Ahmad Vasliy, Said Ahmadxo'ja Siddiqiy, Said Rizo Alizoda va Hoji Muinlar edi. Shuningdek,

unda Cho'lon, Sadridin Ayniy, G'ozii Yunus, Ufadan No'shiravon Yavushev, Xayrunnos Aysin, Najib kabi qalami o'tkir ijodkorlar ham o'z maqolalari bilan qatnashib turardi. Behbudiy va Said Rizo Alizodalarning 12 tadan, Hoji Muinning 21 ta, Abdurauf Fitratning esa, turli janrdagi 41 ta asari "Hurriyat" sahifalarida e'lon qilingan. Fitratning publitsistik

va muharrirlik faoliyatini yorqin aks ettiruvchi nashr ham "Hurriyat" gazetasidir.

"Hurriyat" muharririyati Samarqand shahar Toshkent ko'chasida joylashgan bo'lib, maqolalar 2 tilda o'zbek va tojik tillarida chop etilgan. Gazetada "Ash'or", "Muxoraba xabarlar", "Turlik xabarlar", "Turkiston musulmonlari s'ezdi", „Yurt qayg'usi" kabi qator ruknlar mavjud bo'lib, ularda ichki va tashqi xabarlar, Turkiston yangiliklari, Buxoro amirligidagi ahvol, Samarqand axbori kabi materiallar doimiy berib borildi, she'rlar, manzumalar bosilib turdi.

"Hurriyat"ning ilk sonida Mardonquli Shohmuhammadzodaning "Ta'mini istiqbol" maqolasida muallif mazkur gazetaning asosiy vazifasi xalqimizning ma'naviy kamoloti, ilm-ma'rifati rivojiga xizmat qilishdir- deyiladi. Xuddi shu fikrni "Hurriyat"ning 1917-yil, 1-iyun sonidagi muallif M.Sh.ning "Idoradan bir xotira" maqolasida ham uchratamiz: "Haftada 2 marotaba chiqadig'on siyosiy, adabiy, iqtisodiy va milliy g'azetadur." Muallif fikrini davom etdirib: "G'azetalarning boshinda: adabiy, siyosiy, iqtisodiy va ilmiy g'azetadur deb yozurlar. Unga ko'ra adabiy bo'lmoq uchun adabiy sheva ilmi, siyosiy bo'lmoq uchun esa siyosatdan boxabar odamning qalami ila, fanig'a mohir odamlarning qotishilmog'i ila yozilub har ilm va har narsadan bahs etilsa kerakkim, g'azeta va matbuot tarbiyat uchun birinchi darajada hisob bo'ladig'on bir narsa erkan"-deydi. Uning fikricha matbuot shunchaki xabar berish emas, ma'rifat tarqatuvchi vosita hamdir. Ya'ni, maqolalar qaysi mavzuda yozilishidan qat'iy nazar, o'sha sohani yaxshi tushuna oladigan, tahlil qila oladigan, voqea-hodisalarga nisbatan o'z fikrini bildiradigan mutaxassis bo'lishi lozim deydi.

Gazeta 4 sahifadan iborat bo'lib, hozirgi nashrlardan farqli o'laroq uning ilk sahifasidan e'lonlar va reklamalar o'rin olgan. Ularning aksariyatida yangi kitoblar, yangicha davriy nashrlarning dunyo yuzini ko'rgani hamda rus, fransuz tillarida saboq beruvchi muallimlarning aniq manzil va vaqtlari bosilar edi. Gazetaning oxirgi sahifalarida esa oddiy ijtimoiy mavzulardagi reklama va e'lonlar berib borilgan. Bu kabi e'lonlarning asosiy mavzusi turli tashakkurnomalar, minnatdorlik tuyg'ulari yoxud biror bir buyumning o'g'irlatib, yo'qotib qo'ygan shaxslarning iltimosnomalaridan iborat bo'lgan. Gazetaning ilk sahifasida yana shunday fikrlar mavjud: "Morqasiz maktub va xatlar" idora tarafidan qabul etilmas. Maslagimizga muvofiq bo'lmagan maqolalar g'azetaga bosilmas. Bosilmagan maqolalar esa sohiblarig'a qaytarilmas. Idora barcha maqolalarning taxnixiga ixtiyorlikdur."

Rus chorizmi, u yuritayotgan adolatsiz, chirkin siyosatga qarshi milliy ozodlik harakatlariga bel bog'lagan jadidlarimiz uchun matbuot asosiy qurol vositasi bo'lib xizmat qildi. Ular matbuotdagi chiqishlari bilan eng avval xalqni ma'rifatli qilish orqali ko'zlangan maqsadga etish mumkinligini anglab yetdilar. Shu sababli gazeta sahifalarida millat yoshlarini ilm olishi, ma'rifatli bo'lishga undovchi maqolalarning ko'pligini ko'ramiz. Taraqqiyparvar ziyolilar doimo butun xalqni birlashishga, yagona kuch bo'lib dushmanga qarshi ham ma'rifat, ham qurol bilan kurashga chorlab kelishgan. "Hurriyat"ning 1917-yil, 17-iyuldagi muallif M.Sh. ning "Yoshlar na fikridadurlar" sarlavhali maqolasida:

"...Ey muhtaram yoshlar! Na fikrda, na andishadasizlar? Na uchun munday harakatsiz qoldingizlar? El sizg'a e'tibor, e'timod etmaydurmu? Sizning haqingizda millatning fikri nadur? Ne sababdin sizg'a e'tibor etmaydur? Bilaszmi? Bilg'on bo'lsangiz biron ishg'a ne uchun cholishmaysiz? Millat ko'zig'a o'zlaringizni lozimuncha tonitdurmaysiz? Mukammal e'tiqodingizni Vataning saodati uchun chin ko'ngul va sadoqat ila cholushaturg'on shaxslarni g'arazlari ta'qib etmayturg'on aqlingizni anglatmaysiz? Vatandoshlaring'izning sizga nisbat

berkon yomon soʻz, nomunosib eʼtiqodlarni yolgʻon va haqiqatgʻa muvofiq emasligini soʻz ila emas harakat ila ijobat qilmaysizlar?”- deyiladi. Bu maqola Muxtoriyat tashkil etilishidan oldinroq chop etilgan. Bundan koʻrinadiki, jadidlar hamisha millat taraqqiyotini, yoshlarning ilmi, xalqning birdam boʻlishida koʻrishgan.

Akobir Shomansurzoda gazetani tashkillashtirishdagi eng birinchi gʻoya muallifi ham edi. Nashrning aynan shu nomda atalishi ham uning saʼy-harakatlari natijasida yuzaga keldi. Akobir Shomansurzodaning “Hurriyat” gazetasini tashkil etish, uni moddiy jihatdan taʼminlash borasidagi saʼy-harakatlari tahsinga loyiq, albatta buni inkor eta olmaymiz. Ammo gazetaning saviyasi, sifatini yanada yaxshilash, tahririyatda yaxshi ijodiy muhitni shakllantirish, nashr atrofiga qalami oʻtkir maʼrifatparvar ziyolilarni jalb qilish maqsadida muharrirlik minbarini boshqa bir ziyoli qoʻliga topshirishga qaror qiladi. “Hurriyat” gazetasining 1917-yil, 16-may sonidagi “Eʼtizor” maqolasida:

”Muhtaram oʻquvchilarga maʼlum boʻlsinkim, bir pora sabablarga koʻra “Hurriyat” jaridasinig ushbu 9-raqamidan etiboran jaridaning mudirliqidin oʻzimni xarj qildim. Mazkur raqamdan boshlab “Hurriyat”ni barcha tahririyat, mundarijat maslak va shusi Mulla Mardonquli Shoh Mahmudzoda janoblarning ixtiyoriga berilib, ushbu jihatlardan barcha mahsulot oʻzlarining ahdolarigʻa aydurur. Ammo, “Hurriyat”ning nashrlik vazifasi “Zarafshon” shirkati tarafindin avvalgidek oʻz ahdominda boqe qiladur. Ehtirom ila Akobir Shomansurzoda.” -deyiladi.

Gazetaning 10-sonidan etiboran unga Mardonquli Shoh Mahmudzoda muharrirlik qila boshladi. Bu ijodkor shaxs “Hurriyat”ni oʻsha davr jadid matbuotchiligining eng sara nashrlari qatoriga qoʻshish uchun mavjud imkoniyatlardan yetarlicha foydalandi. Ham ijodkor, ham rahbar sifatida namuna boʻla oldi. Mardonquli Shoh Mahmudzodaning 10-sonida eʼlon qilingan “Turkiston partiyalari”, 11-sonidagi “Yer kim uchun pora kim uchundir?”, 12-sonidagi, “Jamiyatdin, shirkatdin maqsad nimadur?”, 17-sonida chop etilgan “Samarqand” kabi oʻnlab maqolalari diqqatiga sazovor. Uning 1917-yil 19-may 10-sonida chop etilgan “Turkiston partiyalari va nodonlik” maqolasi ham juda muhim masalaga bagʻishlangan. “Bizning Turkistonda ham partiyadan koʻp ekan, lekin maqsadlarini bilmadik. Andijonda mirkomilchevin va mirahmadchevin, Toshkentda ulamochevin, Samarqandda nafaqchevin va nafsoniyatchevin partiyalari bor. Ularning manbaasi ilmsizlik, mansabi nodonlik. Buning oqibati yomon boʻlar” deb yozadi muallif. Yaʼni, yurtimiz yoshlariga allaqanday puch gʻoyalar bilan toʻldirilgan partiyalarni emas, xalqning chinakam maʼrifatparvarlari boʻlgan jadidlar yoʻlini tutmoqligini tavsiya qiladi. El-yurt qaygʻusi bilan yashayotgan yoshlar (xususan jadidlar) haqida: “...yoshlarimiz izzat nafs, mansablarni qoʻyib, xolis, manfaatlarsiz, xalqqa xizmat etarlar. Bu yoʻlda qarshiliklarga chidarlar. Bu kun xizmatlari maʼlum boʻlmay qolsa, oʻlganlaridan soʻng maʼlum boʻlar” deb yozadi muallif.

Mardonquli Shoh Mahmudzoda muharrirlik davrida ana shunday dolzarb mavzudagi maqolalari bilan chiqishlar qidi, imkon qadar gazeta saviyasini oshirishning barcha usullarini qoʻlladi. Ayrim sabablarga koʻra, gazetaning ilk mutasaddi tashkilotchisi Akobir Shomansurzoda “Hurriyat”ga munosib yangi muharrir izlay boshladi. Bu toʻgʻrida u davrning koʻzga koʻringan ziyoli kishilaridan biri mashhur adib, qalami oʻtkir publistit, tarjimon va marifatparvar shaxs Abdurauf Fitrat bilan muzokara olib bordi. Ayni shu muzokara yakuni xususida “Hurriyat”ning 1917-yil 25-iyul kuni bosilgan 25-sonida quyidagilar yozilgan: “Biz gazetamizning nashri uchun buyuk bir sarmoya taxsis qilgʻon boʻlsak ham, ammo maʼnaviy vajhdin, yaʼnikim tahrir jihatdin hozirgacha koʻngil qanoat qilarluk darajada ish koʻrmagan va muvaffaqiyat topmagan edik. Hozir buning ham chorasini topdik. Roʻznomamizning bosh muharrirligʻigʻa Turkistonda oʻtkir va isteʼdodli qalami ila tanilgʻon Abdurauf Fitrat afandini qoʻymoqqa qaror berdik”

Shu tariqa gazetaning 27-sonidan eʼtiboran yaʼni 1917-yil 27-iyul sanasidan “Hurriyat”da bosh

muharrirlik vazifasi Abdurauf Fitratga yuklatildi. U gazetadagi ilk muharrirlik kunidan boshlaboq nashrning yo'nalishini o'zgartirdi. 1917-yil

28- iyuldan e'tiboran "Yurt qayg'usi" rukni tashkil etildi. Bu ruknda Vatan ozodligini tarannum etuvchi publisistik maqola, sochma, she'rlar va mansuralar muntazam ravishda berib borilgan. "Yurt qayg'usi" rukni gazetaning saviyasini ko'tarishga, xalq orasida chinakam mushtariylarning topa olishiga beqiyos hissa qo'shdi. Bundan tashqari gazetada "Muxoraba xabarlar", "Turluk xabarlar" ruknlari tashkil etilgan bo'lib, ularda dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar va ularning tahlili berib borilgan. Xususan, Fitrat "Ingliz o'yinlari" (64-son), "Ingliz va Turkiston" (82-son) kabi maqolalarida dunyo siyosiy maydonidagi voqea-hodisalarni o'rganishga, ularni tahlil qilib yurtimizdagi siyosiy jarayonlar bilan qiyoslashga harakati qiladi.

Unda Turkistonning turli shaharlari: Toshkent, Buxoro, Ufadan Cho'lpon, Mirmuhsin Shermuhamedov, No'shi-ravon Yovushev, Xayrunnos Aysin, Najib kabi ijodkorlar o'z maqolalari bilan qatnashib turgan. Ushbu publisistlarning maqolalari oddiy ijtimoiy muammolar o'rta tashlangan masalalardan tortib, diunyo mamlakatlari, ularda ro'y berayotgan voqea – hodisalar tahlilgacha o'ta mohirlik bilan yoritib berilgan.

"Hurriyat"ning 1918-yil 2 va 5-yanvar sonlarida Fitratning "Turkistonda ruslar" maqolasi chop etilgan. Unda "qoloq Turkiston xalqi"ga ruslar madaniyat olib kelgan qabilidagi da'vo yuzasidan muallif shunday mulohaza yuritadi: "Shuni ham aytib o'taylukkim, munday ta'sirni rus millatining avom tabaqasidan olmog'imiz mumkin emas edi, chunki bizning avomimiz unlardan yuz martaba madaniyroq edilar (hozir ham shunday). Ruslarning o'qigan, tarbiyali qismlaridan sotsializm va qardoshliq maslaginda yurg'anlar ham imperatorlik hukumati tarafidan quvilib, qisilib turg'onlari uchun bizga biror ta'sir qo'yolmas edilar. Qoldi: rus millatchilari, rus boylari va rus po'plari bilan shunlarning qorovuli bo'lg'an imperator hukumati. Biz turkistonlilar yolg'iz shunlarning qo'linda qoldiq. Ne ko'rgan bo'lsak shunlardan ko'rdik"-deb yozadi Fitrat. O'zlarini madaniyatli, adolatparvar va aqlli deb atayotgan bolsheviklarning ahvoli aslida qanday edi? Uning fikricha ruslar bizga madaniyat olib kelgani yo'q, sababi, xalqimiz mustabidlarning harbiy-byurokratik idorasi ostida bo'lgani uchun ham boshqa "madaniy millat"lar bilan aralasholmagan. Bir tomondan tatar ziyolilari o'lkamizda maktab ochmoqchi bo'lishsa, mustabidlar rad etishayotgan, boshqa tomondan Ostroumov boshchiligidagi gazetalar esa faqat ruslarning manfaatiga xizmat qilayotgan bo'lsa qanday qilib bizga "madaniyat" kirib kelishi mumkin? Aslida bizning madaniyatimizni yo'q qilish maqsadida o'z millatimiz va ma'naviy merosimizni yoshlarimizga anglatish uchun ochilgan barcha gazeta va maktablar yopib tashlangan. "Adolatli bolsheviklar" dastidan hatto, Buxoro va Xiva ham amalda mustaqil emasdi. Xalqimiz esa "rus og'asi"ning zulmi ostida qolgandi. "Mahkamalarda, uylarda, yo'llarda, tijoriy ishlarda, hatto vog'un uylarida Turkiston yerlisining huquqi Turkiston musofiri bo'lg'an rus va armanidan tubanda tutuldi"- deyiladi maqolaning davomida.

U faqatgina erk, hurriyat haqida asarlar bitish, nutqlar so'zlashi bilan cheklanib qolgani yo'q. Ana shu istaklarga erishish yollarini izladi, uni amalda tadbqiq etishga harakat qildi. Fitrat maorif sohasini isloh etishga, uni yangi davr talablari asosida yangicha uslublar bilan boyitishga harakat qildi. "Hurriyat" gazetasining 1917-yil, 8-sentabrda e'lon qilingan „Birinci choramiz“ maqolasida o'lkamizdagi maktablarni o'tkazishi muallimlarni xorij bilim yurtlarida o'qitish lozimligini ta'kidlaydi: "O'lkamizdagi maktablar bolalarimizni yaxshigina o'quta bilsalar ham, yaxshigina tarbiya qilolmaylar... Holbuki, o'rgatmak bilan tarbiya etmak orasinda buyuk bir oyirlik bor!... Munday muallimlarni yetishdirmak hozirda bo'laturkon ish emasdur. Iste'dodli, ongli bolalarimizni saylab, ichki Rusiyadagi milliy

dorul-muallimin maktablarimizg'a yuborayluk: Birinci choramiz shudir, Mundin boshqa yo'limiz yo'q! G'ayrat!" Millatni ma'rifatli qilish yo'lidagi barcha choralarni qo'llashga harakat

qilgan Fitrat maqolaning davomida shunday xitob qiladi: "Endi nima qilayluk? Bu ishlar bizning ishimiz emas ekan debon o'tiraylikmu? Albatta, yo'q! Chunki zamon inqilob zamonidir. Inqilob zamonida harakatsiz o'tirg'onlar oyoqlar ostida qolib ezulurlar. Munga shubha yo'q".

"Hurriyat"ning ko'p sonlarida ana shu mavzudagi maqolalarni uchratishimiz mumkin. Masalan: 5-sonida A.Abdujabborzoda o'z maqolasida "...barcha inqiloblarning boshi maktabdir" deb muallimlarni maktab islohotiga bel bog'lashga chaqiradi, 1917-yil 4-may kuni "Hurriyat"ning 6-sonida bosilgan M.Shohmuhammadzodaning "Turkistonda qahati rijol" maqolasida esa "...hurriyat qo'lga kiritildi, inqilob amalga oshdi endi yana ilm, yana maorif kerak. Bugun manaman degan boylarimiz ham qonun oldida o'zlarini mudofaa etarlik bilimga ega emas" deyiladi. Mahmudiya muallimining "M.N.K." imzosi bilan yozilgan "Hayot yo'linda" maqolasi "Hayot yo'lida birinchi masala maktab masalasidir" deb boshlanadi. Maqolada muallif Samarqandda mavjud 2-3 ta jadid maktabida hech qanday nazoratning yo'qligi va ularning iqtisodiy jihatdan juda nochor ahvolda ekanini yozadi. Shuning uchun, Samarqandda tashkil etilgan "Anjumani maorif" jamiyati shaharda muallimlar tayyorlovchi maktab (dor ul-muallimin) ta'sis etish zarur, deydi. Jamiyatni ham maktab islohi uchun yordam qo'lini uzatishga chaqiradi.

Fitrat ana shunday og'ir bir sharoitda ham vaziyatdan chiqishning aniq va to'g'ri yo'llarini anglay bildi: "Xalqni ma'rifatli qilish orqali ozodlikka chiqish mumkin." O'sha davr eski usul maktablarining faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak u yerda ta'lim-tarbiya beruvchi mudarris va ustozlarning o'zi yetarli darajada bilimga ega emasligi sababli bilim darajasi hamin qadar bo'lgan chalasavod bir avlodni shakllanishiga sabab bo'lardi. Vaholanki, bilimli avlodni tarbiyalash uchun avvalo ustozlarning bilim darajasi yetarli bo'lishi, zamon bilan hamnafas qadam tashlay olishi kerak. Fitrat nafaqat ustozlar, balki yoshlarimizni ham xorijiy davlatlarda bilim olishi, ularning tajribalarini o'rganib, dunyo taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish masalasini ko'tarib chiqdi. Ko'plab yoshlarni xorijda tahsil olib qaytishlariga sababchi bo'ldi.

Abdurauf Fitratning "Hurriyat" gazetasining 1917-yil, 8- sentabrdagi sonida chop etilgan "Birinchi choramiz" maqolasi e'tiborga loyiq: "Mundin boshqa o'lkamizdagi muallimlar orasinda tashqarida chiqib oqug'on "madaniy muhit"lar havosindan olganlar butun oz! Zamonamizdagi tarbiya usullarining buyuk ustoz Pstolujij derki: "Shogirt qoncha ongli va tirishqoq bo'lsa ham, o'z muallimidagi bilimlarining yormundan ortig'ini ololmas. Pstolujijning shul so'zlarini nazarda tutib, madaniy muhit tarb iyasini ko'rmagan, Dorul mualimdan chiqmag'on muallimlarimizning hollarini tushunsak hozirg'i yangi maktablaringizning tilakka yarasha emasligini onglamishlar"

Fitratning bu kuyunchak fikrlarini amalga oshirish hazilakam ish emasdi. "Usuli jadid", "Yangicha maktablar"da bolalarni o'qitish masalasi bir emas, ikki tomonlama tanqid va tazyiqlarga sabab bo'lardi. Avvalo, o'zimizning "eskicha" usul maktabini yoqlab chiqadigan mutaassib ulamolar, mudarrislar turli bo'htonlar uyushtirib, muallimlarni "kofir"ga chiqarishardi. Xalqqa murojaat qilib, bolalarini bunday maktablarda o'qitmaslikka chaqirardi. Ikkinchi tomondan, mustabid tuzum ham xalqning savodxon bo'lishidan manfaatdor emasdi. Shu sababli Turkiston o'lkasida "Usuli jadid" maktablarining keng yoyilishi biroz murakkab kechdi. Bunga qaramay, jadid ziyolilari, harakatni to'xtatmadilar. Ma'lumki, eski usuldagi maktablarda ma'lum bir qo'llanma yoki darsliklardan foydalanilmas, muallimning o'zi istagan tarzda o'quvchilarga dars o'tardi. "Usuli jadid" maktablarining eski usuldagi va "Rus-tuzem" makablaridan farqi shunda ediki, unda darslar o'zbek tilida olib borilar, dunyoviy va diniy ilmlar baravar o'qitilardi. Fitrat Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan hammualliflikda 1918-yili "Ona tili (darslik)" kitobini nashr ettirdi. 1919-yilda uning "Bitim yo'llari" nomli o'quv qo'llanmasi chop etildi. Fitratning maorif sohasidagi ishlari ham taxsinga loyiq.

Afsuski, jadid nashrlarning ko'pchiligi uzoq vaqt faoliyat yurita olmadi. Buning sababini quyidagi omillar bilan baholaymiz:

O'sha vaqtdagi iqtisodiy tanglik.

Xalq orasida obro' orttira olmagan.

Eng asosiysi, chor hukumati yurgizayotgan siyosatga qarshi ochiqdan-ochiq maqolalar bilan chiqish qilganliklaridadir.

Haqiqatan ham o'sha davrdagi moddiy ahvol achinarli darajaga yetib kelgan edi. Xalq ochlikdan qiynalayotgan, faqatgina ishsizlar emas, kasb-hunari bor aholining ham ahvoli haminqadar edi. Ocharchilik oqibatida faqatgina oddiy xalq jabr chekkani yo'q, balki o'sha davrda mavjud bo'lgan barcha sohalarining iqtisodiy jihatdan oqsaganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, qator jadid nashrlarining iqtisodiy yetishmovchilik sababli o'z faoliyatini to'xtatib qo'yganligining guvohi bo'lamiz. Bu muammo "Hurriyat" gazetasini ham chetlab o'tmadi. Gazetaga Samarqand jadidlari tomonidan tashkil etilgan "Zarafshon" shirkati kutubxonasining asosiy sarmoyasi jalb etilgan bo'lsa-da, bu ham "Hurriyat"ning moddiy ahvolini batamom yaxshilab yubora olgani yo'q. Gazetaning 1917- yil, 8- iyun, 19-sonida chop etilgan muallif M.Sh. ning "Idoradin bir xotira" maqolasida shunday deyiladi:

"G'azetamizning pul jihatdan ham bir cho'q muddat davom qilinmog'i tamom qilinmishdur. Matbaada harf oz bo'lgani uchun martablarga faqat xizmat haqlari berib, haftada ikki marta chiqarib turibmiz va lekin shunday zamonda xalqqa bildiradug'on zarur va muhim so'zlar ko'b bolgani uchun shul haftada ikki marta g'azeta chiqarmoqg'a qat'iyat qilmay siforish bergan... Hozir ikki oylik hisob va tajriba bizg'a ko'rsatdikim, ba'zida bizim muharrirlarimiz pul olmasdan xolis xizmat qilmoqlari ham har bir nashr, g'azeta bizg'a quruq tiyin xarajat ila chiqib, yetti tiying'a sotilmoqdadir. Albatta, u holda shunday bo'lsa kerak pulsiz mumkin emasdur. Bovujud shul ham xizmatdin to'xtalmay va yo mumkin qadar saxiy va ijti hod qilurmiz..."

Gazeta mutasaddilari nashr davomiyligini saqlab qolish uchun qo'llaridan kelgan barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirdilar. O'sha davrining moddiy qiyinchiliklari ham mustamlakachilarning qattiqo'l siyosati ham jadid marifatparlarini o'z tanlagan yo'lidan qaytara olmadi. Bu borada ular eng so'ngi chorani ham mushtariylar diqqat e'tiboridan topishga intildilar.

Gazetaning 1917-yil, 8-iyun sonidagi muallif M.Sh ning "Idoradin bir xotira" maqolasi davomida shunday deyiladi: "...Albatta muhtaram o'qig'uvchilardan maorif qadrig'a yetadurg'on zotlar ko'p zarur. Har bir sananing qiymati bo'lib, vaqtning ahamiyatini taqdir qilurlar. Har tarafda shul vaqtda obuna qabul qilmoq uchun mushtariylarni ko'paytirmoq, ochiq odam topib yubormoq ham mushkuldir. Shu jihatlardan barcha Turkistonli hamvatanlardan, maorifparvar hamiyatli zotlardan iltimos qilurmiz. Mumkin qadar qo'llaridan kelgan barcha ishni darig' tutmaslar. Mushtariylar xayrni ko'paytirmoqg'a ahd berub, obuna olmoqg'a g'ayrat ko'rsatsalar... G'azetamizning davomig'a hamd etg'on zotlarga takror tashakkur qilurmiz..."

Matbaa, qog'oz uchun xarajatlar nihoyatda qimmat edi. Buning ustiga, tahririyat xodimlarining maoshi, qo'shimcha xarajatlar kabi masalalarning borligi ham ko'pgina gazetalar faoliyatini to'xtashiga sabab bo'lgan. „Hurriyat“da ham ana shu muammo paydo bo'lganida, gazetaning tahrir hay'ati, birinchi galda uning bosh muharriri nima qilib bo'lsa ham, gazetani saqlab qolishga intilgan. "Hurriyat"ning 1918-yil, 2-yanvaridagi sonida: "Turkistonimizda hozirgi zamonda qiyinroq ishlarning birinchisi, shubha yo'qkim, "g'azeta chiqarmoqdir". Ishimizda matbaa chiqimlari, qog'oz bahosi haddan oshib ketgan, g'azeta o'qumoqchilarimiz butun oz..!" Shu tufayli gazetamiz vaqtincha chiqishdan to'xtashi kutilgandi. "Zarafshon" shirkati gazetaning to'qqiz oy davomida chiqib turishiga ko'mak berdi. Unga tashakkur aytamiz. "So'ng zamonlarda qiyinliklar ko'payib ketdi. O'ylang'on, ko'rulgan choralar kekchin bir foyda bermadi. "Zarafshon" shirkati "Zarafshon" oqchasini istiqbol umidiga saqlamoq fikri bilan "Hurriyat"ni vaqtincha yotqizmoqchi bo'ldi. Biz daxi sevigli o'quvchilarimizg'a vaqtlig'ina xayr-xush deb chekilurg'a

tog'lar kabi qayg'u va hasrat orasinda qaror berdik...!" Daf'atan, bizga madad keldi. Himmatli boylarimizdan Muhammadqul O'rinboyev gazetaning sarfi-xarajatini o'z bo'yniga oldi. Iqtisodiy jihatdan mushkulimiz oson bo'lgach, biz ham, o'z navbatida, gazetaning ma'naviy boylig'i, ya'ni mazmun jihatidan rang-barang bo'lishiga harakat qilamiz"- deyiladi. Shu bilan gazeta sho'rolar hukumati tomonidan to'xtatilguncha ya'ni oxirgi sonigacha M. O'rinboyev unga homiylik qilgan. Xalq "Hurriyat"ning har bir sonini intiqlik bilan kutar, agar gazeta faoliyati to'xtatib qo'yilgudek bo'lsa, ular hatto qo'zg'alishgacha borib yetishi mumkin edi. Ana shu kabi qator omillarini hisobga olgan chor ma'murlari mutlaqo kutilmagan yo'lni tanladilar. Gazeta iqtisodiy tanglik, moddiy yetishmovchilik tufayli o'z faoliyatini to'xtatishiga majbur deb e'lon qildilar.

Aslida esa "Hurriyat" ozodlik, hurlik g'oyalarini targ'ib qilganlikda, xalqning savodxonligini oshirish barobarida milliy ozodlik harakatlariga chorlovchi qator materiallarni chop etganlikda ayblanib faoliyati to'xtatib qo'yildi. "Hurriyat"ning 1918-yil 30-aprelda chop etilgan 87-soni eng so'nggisi bo'ldi. Gazeta bolsheviklar tomonidan yopildi. O'sha vaqtdagi "Hurriyat"ning muharriri bo'lgan jadid ma'rifatparvar ziyolisi Abdurauf Fitrat esa chor ma'murlari tomonidan ayblandi, unga "siyosiy dushman" degan ayb qo'yildi.

Xalqni chalg'itish maqsadida chor hukumati uning o'rniga yangi nashr faoliyatini yo'lga qo'ydi. 1918-yil aprel oyidan boshlab mustamlakachi mamlakatning foydasini ko'zlagan, uning manfaatlariga xizmat qiladigan boshqa bir nashr "Kambag'allar tovushi" (keyinchalik "Mehnatkashlar tovushi" deb o'zgartirilgan) faoliyat ko'rsata boshladi. Ammo, u "Hurriyat"chalik xalq orasida o'z mushtariylarini topa olmadi. "Hurriyat" o'zbek matbuotining yorqin namunasi sifatida tariximiz zarvaraqlaridan mustahkam o'rin oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyoy Said. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi Sh.Turdiyev). – T.: G'afur G'ulom, 1974.
2. Fitrat.Tanlangan asarlar. 2 jild. (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev). – T.: Ma'naviyat, 2000.
3. Abduazizova N. Milliy jurnalistika tarixi, I jild. – T.: Sharq, 2008.
4. Do'stqorayev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009. – B. 378.
- 5.Rizayev Sh. Milliy uyg'onish T.: Universitet 1993, 115-123 b
6. "Hurriyat" gazetasi 1917-1918-yillardagi sonlari

ADEKVATLIK VA EKVIVALENTLIK: TARJIMA NAZARIYASIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR

Iskandarov Bahrom,
O'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima nazariyasidagi «adekvatlik» va «ekvivalentlik» tushunchalari turli tadqiqotchilarning yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Maqolada adekvatlik tushunchasining ekvivalentlik bilan sinonim ekani, ammo kengroq mazmunga ega bo'lib, tarjimaning sifatini to'liq baholashga imkon berishi ta'kidlanadi. Shuningdek, tarjima strategiyasini tanlash jarayoni va uning tarjima matnining adekvatligiga ta'siri muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: adekvattarjima, ekvivalent, tarjima strategiyasi, tarjima sifati.

АДЕКВАТНОСТЬ И ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ: ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ В ТЕОРИИ ПЕРЕВОДА

Искандаров Бахром,
Докторант Университета узбекского языка и литературы

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятия «адекватность» и «эквивалентность» в теории перевода на основе подходов различных исследователей. Подчеркивается, что адекватность является синонимом эквивалентности, но в то же время имеет более широкое значение, позволяя комплексно оценивать качество перевода. Также обсуждается процесс выбора стратегии перевода и его влияние на адекватность переведенного текста.

Ключевые слова: адекватный перевод, эквивалент, стратегия перевода, качество перевода.

ADEQUACY AND EQUIVALENCE: KEY CONCEPTS IN TRANSLATION THEORY

Iskandarov Bahrom,
PhD student at the University of Uzbek Language and Literature

Annotation. This article examines the concepts of «adequacy» and «equivalence» in translation theory based on the approaches of various researchers. It highlights that adequacy is synonymous with equivalence but has a broader meaning, allowing for a comprehensive assessment of translation quality. The article also discusses the process of choosing a translation strategy and its impact on the adequacy of the translated text.

Keywords: adequate translation, equivalent, translation strategy, translation quality.

Adekvat tarjima bu – mukammal tarjimadir. Adekvat tarjima tushunchasining mualliflari bo'lgan A.V. Fedorov va Ya. I. Resker tarjimani aniq hikoya qilib berish deb tushunmaslikka da'vat etadilar. Adekvat tarjima bu ham hikoya qilib berish, ham asliyatning grammatik, stilistik, funksional xususiyatlarini tarjimada qayta yaratishdir.

L. L. Nelyubinning tarjimashunoslik izohli lug'atida adekvat tarjima quyidagicha ta'riflanadi: “Adekvat tarjima — bu originalning shakl va mazmun birligini boshqa til vositalari yordamida qayta yaratishdir”. Shuningdek, adekvat tarjima “to'liq tarjima bo'lib, u originalning xususiyatlari va mazmunini to'g'ri, aniq va to'liq yetkazib berishini, shuningdek, tarjima tili strukturasi, uslubi, leksikasi va Grammatik xususiyatlarini inobatga olgan holda mukammal til me'yorlariga javob berishini ta'minlaydi”.

Zamonaviy tarjima nazariyasi tadqiqotchilari “aniq” va “to'g'ri” kabi tushunchalardan

voz kechishga harakat qilishadi. A. V. Fedorov “aniqlik” tushunchasining nisbiy ekanligini ta’kidlab, uning o’rniga “adekvatlik” atamasini ilgari suradi, bu esa “moslik”, “mutanosiblik” degan ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, u ushbu xorijiy atamani “mukammallik” so’zi bilan almashtirishni taklif qilgan, bu esa tarjimada quyidagi ikki jihatni o’z ichiga oladi:

1) xabar yetkazish funksiyasi bo’yicha originalga moslik (yetkazishning to’liqligi) va 2) tarjimada til vositalarini to’g’ri tanlash asoslanganligi.

R. K. Minyar-Beloruhev ham adekvat tarjimani xuddi shunday talqin qilib, uni “originalning mazmun va shakl birligini boshqa til vositalari yordamida qaytayaratish” deb ta’riflaydi va bunday tarjima badiiy tarjimaning asosiy maqsadi ekanligini ta’kidlaydi. I. I. Rezin va V. Yu. Rozentsveyg ham adekvat tarjimani “to’liq” tarjima deb hisoblab, bunda original matn mazmunining to’liq yetkazilishi va tarjima tilidagi teng kuchga ega til vositalaridan foydalanish muhim ekanligini qayd etishgan.

A. V. Fedorov bu tushunchani kengaytirib, mukammal tarjima faqatgina mazmunni yetkazib berish emas, balki funksional-uslubiy jihatdan originalga mos bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi. Bunga erishish uchun originalning o’ziga xos mazmun va shakl nisbatlarini saqlab qolish yoki tarjima tilida ularning funksional ekvivalentlarini yaratish kerak. Shunday qilib, adekvatlik original va tarjima matni o’rtasidagi barcha muvofiqlik turlarini o’z ichiga oladi, bu esa ekvivalentlik tushunchasini ortiqcha qiladi.[6].

V. N. Komissarovning fikriga ko’ra, adekvat tarjima bu tarjima aktining pragmatik vazifalarini maksimal ekvivalentlik darajasida ta’minlaydigan tarjimadir. Bunda tarjima tili me’yorlari buzilmasligi, ushbu turdagi matnlarga xos janr-uslub talablariga rioya qilinishi va ma’lum turdagi matnlarni tarjima qilishning jamiyat tomonidan qabul qilingan konvetsional me’yorlariga mos kelishi talab etiladi. Shunday qilib, adekvat tarjima - bu «yaxshi» tarjima bo’lib, u muloqot ishtirokchilari yoki tarjima sifatini baholovchi shaxslarning umidlari va kutgan natijalarini oqlaydi, til me’yorlariga mos keladi va muayyan turdagi matnlarning barcha funksiyalarini bajaradi.[5].

N. K. Garbovskiyga ko’ra, tarjima adekvatligi uni baholashda, avvalo, tarjima ishtirokchilari kutgan natijalarga va tarjimaning amalga oshirilgan sharoitlariga mos kelishiga bog’liq. Ya’ni, adekvatlik tushunchasi tarjima matnining originalga qanchalik mos kelishini emas, balki u muloqot ishtirokchilari kutgan natijalarga qanchalik javob berishini ifodalaydi.

A. D. Shveytsar esa adekvat tarjimani baholash-me’yoriy tushuncha deb hisoblaydi. Unga ko’ra, adekvat tarjima ma’lum bir sifat standartiga mos kelishiga emas, balki tarjima jarayoni davomida yuzaga keladigan o’ziga xos shart-sharoitlarga muvofiq bo’lishiga bog’liq. Bunday yondashuv tarjimon tomonidan kommunikativ vaziyatga mos keladigan muayyan strategiyalar va qarorlarni qabul qilishni talab etadi.

Shunday qilib, turli olimlarning ta’riflariga ko’ra, adekvat tarjima nafaqat original matn bilan muvofiqlik, balki uning muloqot ishtirokchilari uchun foydaliligi, til me’yorlariga mosligi va kontekstga mos strategiyalarni tanlash bilan ham bog’liqdir.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, tarjimaning adekvatligi tarjimonning asl matndan chetga chiqishga tayyorligi bilan ham belgilanadi, ammo faqatgina bu chetga chiqish ob’ektiv zarurat bilan asoslangan bo’lsa va tarjimonning shaxsiy xohishiga bog’liq bo’lmasa. O’z navbatida, G. Turi adekvatlik tushunchasini originalga maksimal darajada mos kelish deb tushunadi. Shu bilan birga, tarjima tilining va asl tilning o’rtasidagi zaruriy farqlardan kelib chiqadigan muqarrar tafovutlarni hisobga olish kerak.

Asl matnni tahlil qilish jarayonida avvalo tarjimaning erishilishi mumkin bo’lgan adekvatlik darajasini aniqlash, so’ngra esa haqiqiy ekvivalentlikni – ya’ni nazariy jihatdan mumkin bo’lgan adekvatlikanog’ish darajasini belgilash lozim. Ushbu adekvatlikdan og’ish faqat tarjimonning ob’ektiv zarurat bilan mustahkamlangan ixtiyoriy qarorlariga tegishli bo’lishi kerak, chunki tillar tizimidagi ob’ektiv mavjud tafovutlar bilan bog’liq majburiy og’ishlarning oldini olish mumkin emas.

Demak, tarjima matni har doim maqbullikka va adekvatlikka intilish o'rtasidagi murosani ifodalaydi [4]. Tarjima nazariyasida adekvatlik kategoriyasi muayyan darajada sub'ektiv bo'lib, asl matn va tarjima matnini ko'rib chiqishda sezgi va qabul qilishga bog'liq. Shu bois, adekvatlik faqat matn darajasida baholanishi lozim. Bu esa mutaxassislarni adekvatlikni tarjimaning normasi sifatida muhokama qilishga va matnning nutqiy hamda ma'noviy tuzilishidan chetga chiqishning qabul qilinishi mumkinligi masalalarini ko'rib chiqishga undaydi.

Biroq, E. Rigbining fikriga ko'ra, matn tarjimasi adekvat hisoblanadi, agar u kompozitsionlik tamoyiliga bo'ysunsin. Bu shuni anglatadiki, tarjima matni to'liq ravishda uning tarkibiy gaplarini tarjima qilishga keltiriladi, gaplarning tarjimasi esa ularning tarkibiy so'zlarini tarjima qilish orqali amalga oshiriladi. Biroq, bunday tarjima jarayonida muhim tuzatish kiritish lozim – bu barcha Grammatik bog'liqliklarning majburiy tarzda saqlanishi. Bu har qanday turdagi matnlarga – publitsistik, falsafiy yoki badiiy matnlarga tegishlidir, agar ular adekvat bo'lishni istasa. Shuningdek, tarjimonning so'zlarni emas, balki fikrlarni tarjima qilishi kerakligi haqidagi asosiy talab ilmiy bo'lmagan matnlar tarjimasida mutlaqo o'rinlidir [5].

Yuqorida keltirilgan ta'riflar va tarjima nazariyasi bo'yicha turli tadqiqotchilarning «tarjima adekvatligi» tushunchasini o'rganishga yondashuvlarini tahlil qilgan holda, «adekvatlik» va «ekvivalentlik» tushunchalari bir-biriga teng, sinonim ma'nodagi tushunchalar degan xulosaga kelish mumkin. Biroq, «tarjima adekvatligi» tushunchasi yanada kengroq bo'lib, tarjimaning turli xususiyatlarini to'liq baholash imkonini beradi, masalan: originalga moslik, xabarni aniq yetkazish, originalning estetik sifatlarini saqlash va hokazo.

Shunday qilib, «adekvatlik» tushunchasi tarjimaning barcha sifati va xususiyatlarini baholashda aniqroq va ko'proq qo'llaniladigan tushuncha hisoblanadi. Umuman olganda, tarjima adekvatligi talabi tarjimonning muayyan strategiya va harakat dasturini tanlash zarurati bilan bog'liq bo'lib, bu tarjima matnining adekvatligini ta'minlaydi.

Strategiya tanlovi original matnjanri, mavzusi, matnturi, kommunikativ akt shartlari hamda tarjimaning bevosita maqsadlariga bog'liq. Tarjima strategiyasi tarjimonning originalning qaysi jihatlarini tarjimada aks ettirish zarurligiga oid qaroridir va u maqsadga yo'naltirilgan, tizimli hamda adekvatlikni ta'minlashga qaratilgan yondashuvni talab qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, tarjimada muqobillik haqida gapirganimizda, biz birinchi navbatda manba matnni tarjima matniga imkon qadar to'liq hajmda tarjima qilishni aytamiz. Biroq har qanday matnning lingvistik o'ziga xosligi va uslubi bo'ladi. Agar tarjimon bu uslub va yo'nalishlarni tarjimada saqlay olmasa tarjimada muqobillik saqlanmaydi va bu tarjimonning ijod ishi bo'lib qoladi. Shuning uchun ham tarjimonlar matnlarni to'liq tarjima qilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ванников Ю. В. Проблемы адекватности перевода. Типы адекватности, виды перевода и переводческой деятельности. М.: Наука, 1988. 34 - 39 с.
2. Гарбовский, Н. К. Теория перевода. - М.: Изд-во МГУ, 2004. -544с. 81.
3. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. - М.: Высш. шк., 1990. - 253 с.
4. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. М.: Наука, 1999.
5. Латышев Л. К. Курс перевода: Эквивалентность перевода и способы ее достижения. М., 1981. С. 66.
6. Федоров А. В. Основы общей теории перевода. М.: Высш. шк., 1968. С. 256
7. Миньяр-Белоручев Р.К. Теория и методы перевода – М.: Московский лицей, 1996. – 208с
8. Швейцер А. Д. Теория перевода (статус, проблемы, аспекты). М.: Наука, 1988. – 215 с. 53.

TURL TIZIMLI TILLARDA TASDIQ-INKOR SO‘Z-GAPLARINING VERBAL VA NOVERBAL IFODALANISHI

Karimova Zulnura G‘ulamqodirovna

Toshkent davlat agrar universiteti Tillar kafedrası dotsenti

Associate Professor, Department of Languages, Tashkent State Agrarian University

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasdiq-inkor so‘z-gaplarning turli tizimli tillardagi kommunikativ va pragmatik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida tasdiq va inkor ifodalarining pragmatik roli, ularning muloqot jarayonidagi vazifalari va madaniy farqlari o‘rganilgan. Shuningdek, tasdiq-inkor so‘z-gaplarning verbal va nonverbal ifodalanishi tahlil qilinib, ularning ma‘no va funktsiya jihatidan o‘xshash va farqli jihatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: tasdiq-inkor so‘z-gaplar, pragmatika, kommunikativ maqsad, neverbal vositalar, qiyosiy tahlil.

VERBAL AND NONVERBAL EXPRESSION OF AFFIRMATIVE-NEGATIVE WORD-SENTENCES IN DIFFERENT STRUCTURED LANGUAGES

Karimova Zulnura G‘ulamqodirovna

Abstract. This article analyzes the communicative and pragmatic features of affirmative and negative sentence-words in languages of different typological systems. The study examines the pragmatic role of affirmation and negation expressions, their functions in the communication process, and their cultural differences. Additionally, the verbal and nonverbal manifestations of affirmative and negative sentence-words are analyzed, identifying their semantic and functional similarities and differences.

Keywords: affirmative-negative word-sentences, pragmatics, communicative purpose, nonverbal means, comparative analysis.

ВЕРБАЛЬНОЕ И НЕВЕРБАЛЬНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ УТВЕРДИТЕЛЬНО-ОТРИЦАТЕЛЬНЫХ СЛОВ-ПРЕДЛОЖЕНИЙ В РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ

Каримова Зулнура Гуламкадировна

Доцент кафедры языков Ташкентского государственного аграрного университета

Аннотация. В статье анализируются коммуникативные и прагматические свойства утвердительно-отрицательных слов-предложений в разных системных языках. В исследовании изучалась прагматическая роль выражений утверждения и отрицания, их функции в процессе коммуникации и культурные различия. Также было проанализировано вербальное и невербальное выражение утвердительных и отрицательных слов-предложений, выявлены их сходства и различия по значению и функции.

Ключевые слова: утверждение-отрицание слов-предложений, прагматика, коммуникативная цель, невербальные средства, сравнительный анализ.

KIRISH. Har bir tilda tasdiq va inkor ifodalarining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular orqali so‘zlovchi muloqot jarayonida o‘z munosabatini bildirish, rozilik yoki norozilik ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tasdiq-inkor so‘z-gaplari muloqotning muhim bo‘laklaridan biri sifatida shaxslararo aloqalarni tartibga solish, fikrga qo‘shilish yoki rad etish kabi tuzilmalarni hamda suxbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilashda faol ishtirok etadi.

Turli tizimli tillarda tasdiq-inkor so‘z-gaplari o‘zining pragmatik xususiyatlari bilan ajralib

turadi. Ular til va madaniyat o'rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydi, shuningdek, rasmiy va norasmiy muloqotda har xil shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, ba'zi tillarda tasdiq va inkor ifodalarida hurmat tamoyili muhim o'rin tutadi, boshqa tillarda esa ularning lo'nda va to'g'ridan to'g'ri berilishi kuzatiladi.

ASOSIY QISM. Turli tillarda biror fikrga qo'shilish, uni ma'qullashning turli darajasini kuzatishimiz mumkin. Masalan, o'zbek tili so'zlashuv muloqotida biror fikrga to'laqonli qo'shilish to'ppa-to'g'ri tasdiq so'z-gapi bilan ifodalansa, ingliz tilida absolutely (right), totally right; rus tilida точно, в точку; fransuz tilida tout droit bilan ifodalanadi. Demak, o'zbek tilida farqli o'laroq, bu ifoda o'zidan yasalgan shaklga ega. Bu so'z-gapning tagma'nosida kuchli ishonch, aynan haqiqat, to'laqonli haqiqatga mos kelishi ifodalarning pragmatik qiymatini anglatadi. Masalan:

– Erkak kishidan nafratlanarmish, – konyak ichib gazak qildi Shokir. – Shu rostmi?
– Mahliyomi?! – yuzini chetga burib irshaydi ayol. – To'ppa-to'g'ri. Uning hayotida erkak kishi – salbiy qahramon. U erkaklardan juda-juda nafratlanadi. (N.Abbosxon. "Sho'rqishloq") Misolda to'ppa-to'g'ri tasdiq so'z-gapining tagma'nosi – aytilayotgan fikrning ayni haqiqat ekanligiga ishora hamda so'zlovchini shu fikrga to'liq ishontirish, bundan shubha qilmasligiga qaratilganligidan iborat. Bundan tashqari, aytilgan nafrat tuyg'usi keskinligiga alohida urg'u berilayotganini ham anglatadi.

Quyida berilgan rus tilidagi parchada Совершенно верно tasdig'i to'ppa-to'g'ri so'zining aynan muqobili sifatida qo'llangan bo'lib, bundan tinglovchi so'zlovchining Xustavga nisbatan aytilgan fikrini to'liq tasdiqlayotganini anglashimiz mumkin.

– Вчера в кабинете у вас видел этого индивидуума мельком, но достаточно одного беглого взгляда на его лицо, чтобы понять, что он – сволочь, склочник, приспособленец и подхалим. «Совершенно верно!» – подумал Степа, пораженный таким верным, точным и кратким определением Хустова. (М.Булгаков. "Мастер и Маргарита") Keltirilgan parchada «Совершенно верно!» tasdig'ida presuppozitsiyani ham anglashimiz mumkin. Xustav haqida Степа ham avvaldan shunday fikrga ega bo'lgan, ya'ni u ham Stepaga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan. Shuning uchun unga boshqa birov tomondan сволочь, склочник, приспособленец и подхалим kabi tavsiflanishiga ikkilanmasdan unga to'liq qo'shila-yotgani hamda uni tasdiqlayotgani presuppozitsiyani anglatadi.

"Quite right, Miss Tuppence. You scent danger. So do I. So does Miss Finn." (A.Christie. "The Secret Adversary") Ushbu parchada Quite right tasdiq iborasi o'zbek tilidagi to'ppa-to'g'ri tasdig'iga aynan muqobil bo'lmas-da, kontekstga qarab muqobil sifatida qo'llash mumkin. Bu iboraning ushbu kontekstdagi tagma'nosi kommunika-ntlarning havfni sezish qobiliyati kuchlili ekanligini tasdiqlaydi, shuningdek kutilayotgan vaziyat jiddiyligiga ishora qiladi.

Yuqorida keltirilgan to'g'ri tasdiq so'z-gapi -mi yuklamasi bilan birga to'g'rimi savol shaklida qo'llanib, faktlar asosida biror voqelikka aniqlik kiritish maqsadida qo'llanadi.

— Direktorimiz ellik yoshga to'lganda kollektiv tilla soat takdim qilgani esingizdami? Mana, o'n ikki so'mga qo'l qo'ygansiz, to'g'rimi?

— To'g'ri, — dedi Abdurazzoq.

— Mashinistka Robiyaxon turmushga chiqqanda bitta jemper bilan namozsham atlas to'yona qilganmiz. O'n to'rt so'mga qo'l qo'ygansiz. To'g'rimi?

— To'g'ri, — dedi Abdurazzoq.

— Ekonomistkamiz Oysha opa egizak tuqqanda ikkala bolaga karavot, odeyal, choyshab, u-bu, sakkizta shampanskoye olib borganmiz, Siz to'qqiz so'mga qo'l qo'ygansiz. To'g'rimi?

— To'g'ri, — dedi Abdurazzoq.

— Qorovul amaki ikki xonali yangi uyga ko'chganda kollektiv bir divan bilan oltita stul sovg'a qilgan. O'shanda siz o'n yetti so'mga qo'l qo'ygansiz. To'g'rimi?

— To'g'ri, — dedi Abdurazzoq.

— Mana shularni bir cho'tga solib ko'ring-chi, qancha bo'larkin. (S.Ahmad. "Tanlangan asarlar") Ushbu kontekstda to'g'rimi? tasdiq savoli so'zlovchi tomonidan Abdurazzoqning

o'tmishida bo'lgan voqeliklarni eslatish, faktlarni tasdiqlash hamda tasdiq javobini olish bilan birga muloqot jarayonida unga ijtimoiy bosim o'tkazish maqsadida qo'llangan. To'g'rimi tasdiq so'rog'ining qayta-qayta berilishi orqali ma'lum his-tuyg'ularni uyg'otish maqsadi perlokutiv aktini yuzaga keltiradi. Bunda tinglovchining voqelikka bo'lgan mas'uliyat hissi kuchayib boradi yoki fikri o'zgaradi. Bu holatni so'zlovchining har bir savoliga tinglovchi to'g'ri tasdiq javobini berayotganidan ham anglashimiz mumkin. Bu orqali so'zlovchi o'zi kutgan natijaga erishyapti. Demak, berilgan misolda to'g'rimi hamda to'g'ri tasdiq so'z-gapi orqali tasdiqlash va tasdiqlatish nutqiy akti amalga oshirilgan.

“Inson fikr-mulohazasini bildirishda, hissiy kechinmalari va voqelikka munosabatini ifoda etishda til birliklari qatorida bosh, qo'l, yelka harakatiga asoslangan ishoralar; ko'z, qosh, lab ishtirokidagi turli mimik ifodalardan ham unumli foydalanadi. Bu holat ingliz tilida Body Language deyiladi. Umuman, bunday noverbal vositalar tilning yordamchi vositalari bo'lib, axborotning yanada yorqin ifoda etilishiga xizmat qiladi. [Karimova Z.; 2021] M.Saidxonov muloqot jarayonida qo'llaniladigan bu kabi noverbal vositalarni ishoraviy va mimik noverbal vositalarga ajratish mumkinligi haqida yozadi. [Saidxonov M.;1993] Ta'kidlash joizki, tasdiq-inkor so'z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi ham turli tillar muloqot jarayonlarida kuzatiladi. Bunda asosan bosh va qo'l harakatlari tasdiqni yoki inkorni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, deyarli barcha xalqlarda tasdiq so'z-gapini ifodalashda boshni tepadan pastga harakatlantirish, biror savolga yo'q javobini ifodalash uchun esa, boshni ikki tomonga harakatlantirish yoki qo'lni ikki yonga qimirlatish kabi ishoraviy harakatlar mavjud. Ma'qul, bo'пти tasdiq ma'nosini anglatish uchun bosh barmoq va ko'rsatkich barmoqni juftlab, “O” shaklida ko'rsatish ham ko'p xalqlarga xos noverbal vosita sanaladi.

— Sizga nima bo'ldi, qo'zichog'im? Biron nimadan diqqat bo'ldingizmi?

Polvon boshini sarak-sarak qildi. Istat Fuzaylovna Sangcha vahima qilyapti, deb boshqatdan qon bosimini o'lchadi. (C.Axmad. “Танланган асарлар”) Kontekstda keltirilgan boshini sarak-sarak qilmoq jumlasini biror narsani rad etmoq, inkor qilmoq degan ma'noni anglatadi. Misolda Polvon savolga lisoniy javob bermasdan, harakatlari bilan inkor javobini ifoda etadi va so'zlovchi tomonidan uning bu noverbal harakati yo'q inkor javobi sifatida qabul qilinadi. Bundan tashqari, uning bu harakati ichki his-tuyg'ularini yoki ruhiy holati bilan ham bog'liqligini anglashimiz mumkin.

“Doesn't she know?” I heard the woman whisper.

Leah shook her head, and the conversation was of course dropped. (Ch. Bronte. “Jane Eyre”) Keltirilgan misoldagi Leah shook her head (Liya boshini chayqadi) jumlasidagi harakat uning savolga so'zsiz rad javobini ifodaladi. U bilmaydimi? degan savolga uning noverbal harakati “Yo'q, bilmaydi” degan javobni anglatadi. Bu yerda so'z bilan javob berish shart emas, chunki noverbal harakatning o'zi aniq va tushunarli inkor javobini ifodalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Liyaning bu harakatida suxbatni davom ettirish xohishi yo'qligini, jarayonni to'xtatish istagi borligini ham sezishimiz mumkin. Bu holat esa, harakatning tagma'nosi sifatida anglashilishi mumkin. Demak, boshni chayqash harakati ingliz tili muloqot jarayonida ham tez-tez uchraydi, noverbal vosita sifatida inkor etishning samarali usullaridan hisoblanadi hamda bu harakat orqali so'zlovchining ichki ruhiy holati, emotsiyasi ham nolisoniy tarzda ifoda etilishi kuzatiladi.

Rus tili muloqot madaniyatida ham inkor qilishning noverbal vositasi asosan, boshni ikki tomonga chayqash bilan ifodalanadi.

— А передневать нельзя? — В голосе Натальи прозвучала неуверенная, робкая надежда. Но Григорий отрицательно покачал головой, и Наталья со вздохом сказала:

— Зараз тебе как... погоны надо надевать? (М.Шолохов. “Тихий Дон”) Berilgan ushbu misolda отрицательно покачал головой jumlasini yo'q inkor so'z-gapini noverbal shakli hisoblanib, Grigoriyning berilgan savolga rad javobini anglatadi. U so'z bilan emas, balki boshini chayqash ya'ni sarak-sarak qilish orqali o'zining qat'iy rad javobini berib, Natalyaning umidini so'ndirgani, uning iltimosini rad etganini ifodalaydi. Shunday qilib, Grigoriy hech qanday inkor

so'z qo'llamay, o'z fikrini bayon etib bera olgan. Bunday holat esa, jumlaning pragmatik qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Fransuz tili so'zlashuvchilarining muloqot jarayonida ham xuddi shunday holatni kuzatishimiz mumkin. Ular ham yo'q inkor so'zini boshini gorizontol holatda chayqash orqali ifodalaydilar:

– À présent, je vois que je m'étais trompé, dit le malade. Ah ! je suis bien faible, bien brisé, bien anéanti.

– Courage, vos forces reviendront », dit Dantès, s'asseyant près du lit de Faria et lui prenant les mains.

L'abbé secoua la tête. ("Endi men xato qilganimni ko'rdim", dedi kasal. Oh! Men juda zaif, juda singan, juda vayron bo'lganman. – Jasorat, kuching qaytadi, – dedi Dantes, Fariyaning karavoti yonida o'tirib, uning qo'llarini ushlab. Abbot boshini chayqadi.) (A.Dumas. "Le Comte de Monte-Cristo") Kontekstda keltirilgan secoua la tête jumlasini o'zbek tiliga boshini chayqadi deb tarjima qilinib, yo'q inkor so'z-gapining fransuz tilidagi noverbal shakli hisoblanadi. Bu misolda abbat o'zining holati yaxshilanib ketishiga ishonmay, Dantesning gapini inkor etayotgani anglashiladi. Bu noverbal vosita orqali "sizning kuchingiz qaytadi" taskiniga rad javobi bilan birga, abbatning ruhan zaif holati va o'zini butunlay singan deb hisoblashi tagma'no sifatida tasvirlangan. Bundan tashqari abbatning bu tarzda bosh chayqab so'zsiz rad etishi o'sha vaziyatga salbiy munosabatda bo'lib, kelajakka hech qanday umidi yo'qligini namoyon qiladi.

Demak, yuqoridagi o'zbek, ingliz, rus va fransuz tillarida berilgan misollardan ko'rinib turibdiki, turli tillarda tasdiq-inkor so'z-gaplarni turli noverbal vositalar bilan ifodalash deyarli bir xil amalga oshiriladi. Lekin ular tasdiq-inkor so'zlarni o'xshash noverbal vositalar orqali ifodalasa-da, ularning yuz ifodalarida biroz tafovutlarni farqlash mumkin. Binobarin, o'zbek va rus xalqlarida noverbal inkor qilish jarayonida yuz qiyofasi jiddiy ko'rinishda bo'lsa, ingliz va fransuz xalqlarida ko'pincha o'zaro hurmatni saqlagan holda, muloyimlik ifodalanib turadi.

XYIIOCA. Turli tizimli tillarda tasdiq-inkor so'z-gaplari muloqot jarayonida ahamiyatli kommunikativ va pragmatik vazifani bajaradi. Ular so'zlovchining roziligi yoki noroziligini bildirish, muloqotdagi munosabatlar tartibini belgilash, madaniy xosliklarni aks ettirish kabi jarayonlarda faol qo'llaniladi. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, turli tizimli tillarda tasdiq va inkor ifodalarining shakllari va foydalanish usullari farqli bo'lsa-da, ularning asosiy kommunikativ maqsadlari o'xshashdir. Shu bilan birga, tasdiq-inkor so'z-gaplari rasmiy va norasmiy muloqotda turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ayrim tillarda hurmat tamoyili ustuvorlik qilgan holda muloyim shakllar ustuvor bo'lsa, boshqa tillarda bevosita va aniq ifoda etish tendensiyasi kuzatiladi. Bundan tashqari, noverbal vositalar ham tasdiq va inkorni ifodalashda muhim rol o'ynashi kuzatiladi. Bunday vositalar nutqning ta'sirchanligini oshirish bilan birga, tinglovchiga qo'shimcha ma'naviy va emotsional ma'lumot yetkazishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, har qanday tilda ham noverbal vositalar tasdiq va inkorni ifodalashda verbal nutqni to'ldiruvchi va uning samaradorligini oshiruvchi elementlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR / REFERENCES:

Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари: ф.ф.ф.д. (PhD) дисс... – Тошкент, 2021. – 140 б.

Саидхонов М. Нoverбал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. - 26 б.

Шодиев И.М. Ўзбек тилида матннинг типологик тадқиқи. Филол.фан.фалс.доктори (PhD) дисс. автор. Самарқанд – 2020. - 24 б.

Гаффарова Г. Ижтимоий тармоқларнинг ёшлар маънавиятига таъсири. Academic Research In Educational Sciences. Volume 2 | ISSUE 4 | 2021. Б. 974-984

Karimova Z. Expression of communicative purpose in affirmative-negative word-sentences: on the example of different systematic languages. American Journal of Modern World. Vol 2 | Issue 3 | 2025. P. 12-20.

LITERARY REFLECTIONS AND JURIDICAL INTERPRETATIONS OF THE LOST GENERATION IN WORLD LITERATURE

Kurbonova Shakhlo Shukhratovna Senior teacher Doctor of Philosophy in Philology.

Tashkent State University of Law Foreign Languages Department.

ORCID: 0009-0008-7057-7119

Abstract. This article examines the legacy of the Lost Generation by analyzing its literary output alongside the juridical responses to the socio-political upheavals following World War I. Focusing on the profound disillusionment, war trauma, and identity crises depicted by key interwar authors, the study demonstrates how these narratives have influenced legal reforms concerning veterans' rights, state accountability, and mental health support. Employing an interdisciplinary methodology, the research investigates the intricate interplay between literature and law, illustrating how creative expression and legal frameworks mutually inform each other in addressing the historical challenges faced by post-war societies. By linking literary representations with legal transformations, the article reveals that the creative works of the Lost Generation not only reflect cultural and individual struggles but also drive public policy changes. The findings underscore the enduring impact of literary narratives on legal practice and advocate for deeper integration of artistic insights into ongoing legal reform overall.

Keywords: Lost Generation; literary criticism; war trauma; legal reform; veterans' rights; jurisdiction; interwar literature; state accountability.

Аннотация. Настоящая статья исследует наследие «потерянного поколения» посредством анализа его литературного наследия наряду с юридическими ответами на социополитические потрясения, последовавшие за Первой мировой войной. Особое внимание уделяется глубокой разочарованности, военной травме и кризису идентичности, изображённым ключевыми авторами межвоенного периода, что демонстрирует влияние этих нарративов на правовые реформы в сфере прав ветеранов, ответственности государства и поддержки психического здоровья. Применяя междисциплинарную методологию, исследование анализирует сложное взаимодействие между литературой и правом, иллюстрируя, как творческое самовыражение и правовые рамки взаимно обогащают друг друга при решении исторических вызовов, с которыми столкнулись послевоенные общества. Соединяя литературные представления с правовыми трансформациями, статья показывает, что произведения «потерянного поколения» не только отражают культурные и индивидуальные трудности, но и способствуют изменениям в государственной политике. Выводы подчёркивают неизгладимое воздействие литературных нарративов на правовую практику и призывают к более глубокой интеграции художественных идей в текущие правовые реформы.

Ключевые слова: потерянное поколение, литературная критика, военная травма, правовая реформа, права ветеранов, юрисдикция, межвоенная литература, ответственность государства.

Annotatsiya. Ushbu maqola “yo‘qotilgan avlod” merosini tahlil qilish orqali uning adabiy boyligi va Birinchi jahon urushidan keyingi ijtimoiy-siyosiy silkinishlarga berilgan huquqiy javoblarni o‘rganadi. Xususan, maqolada urushdan so‘nggi chuqur umidsizlik, ruhiy jarohatlar va shaxsiylik inqirozi kabi holatlarning urushlar oralig‘idagi davr mualliflari tomonidan qanday tasvirlangani va bu narrativlarning veteranlar huquqlari, davlatning mas‘uliyati hamda ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi huquqiy islohotlarga qanday ta‘sir qilgani ko‘rib chiqiladi. Mazkur tadqiqot adabiyot va huquq o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta‘sirni tahlil qiluvchi interband (interdisciplinar) metodologiyaga asoslanadi. Unda ijodiy ifoda va huquqiy tizimlar

o'zaro boyib, tarixiy inqirozlar sharoitida jamiyat qanday yechimlar izlaganini ochib beradi. "Yo'qotilgan avlod" asarlarida aks etgan madaniy va shaxsiy kechinmalar faqat badiiy tasvir emas, balki davlat siyosatida real o'zgarishlarga turtki bergan omillar sifatida baholanadi. Xulosa o'rnida, maqolada adabiy narrativlarning huquqiy amaliyotga ko'rsatgan o'chmas ta'siri ta'kidlanib, zamonaviy huquqiy islohotlarga badiiy g'oyalarni chuqurroq integratsiyalash zarurati ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: yo'qotilgan avlod, adabiy tanqid, urush jarohati, huquqiy islohot, veteranlar huquqlari, yurisdiksiya, urushlar oralig'idagi adabiyot, davlat mas'uliyati.

Introduction. The term "Lost Generation" refers to the disillusioned cohort of writers and intellectuals shaped by the profound impact of World War I. Their literary contributions encapsulate a critical examination of the disintegration of traditional values, the pervasive sense of alienation, and the existential challenges experienced during and after the war. This article investigates how these literary works not only mirror the psychological and social aftermath of conflict but also critique the inadequate juridical frameworks of the time. By integrating literary analysis with legal theory, the paper seeks to reveal the enduring influence of the Lost Generation's narratives on modern legal discourse and reform.

Historical and Conceptual Foundations. The literature of the Lost Generation is marked by its exploration of disillusionment, existential angst, and the fragmentation of identity. Seminal works—such as Ernest Hemingway's *The Sun Also Rises* and F. Scott Fitzgerald's *The Great Gatsby*—offer incisive portrayals of a society bereft of the moral certainties that once underpinned pre-war civilization. These narratives articulate the breakdown of traditional values and underscore the challenges of reintegration into a rapidly changing post-war environment. Beyond personal grief and disillusionment, these literary texts engage in a broader cultural critique, challenging the state's failure to support its citizens during periods of crisis.

Contemporary Literary Critique. Modern interpretations of Lost Generation literature extend the debate by linking the authors' portrayals of personal and collective trauma with systemic shortcomings in state policy. Contemporary scholars argue that the literary narratives of this era provide potent commentary on the persistent neglect of war survivors, particularly veterans. These discussions reveal ongoing tensions between individual experiences of trauma and the collective responsibility of the state. The critical examination of these texts thus contributes to a broader understanding of how historical literary productions continue to influence contemporary discussions on public policy and legal reforms.

Juridical Perspectives on the Lost Generation. In the aftermath of World War I, legal systems were slow to recognize the profound impact of war trauma. Early juridical responses often exhibited a punitive or neglectful stance toward veterans, framing psychological distress as a personal failing rather than a state responsibility. As a result, many individuals suffering from war-induced trauma were left without adequate legal recourse or state support. This era was characterized by legal frameworks that inadequately addressed the complex interplay between individual suffering and systemic neglect, thereby marginalizing those who struggled with the long-term consequences of conflict.

Modern Legal Frameworks and Reforms. In recent decades, legal systems have undergone a profound transformation in their approach to addressing war trauma and its long-term aftermath. Modern legal frameworks now embrace a humanitarian ethos that prioritizes rehabilitation, restitution, and comprehensive mental health support for veterans and survivors of conflict. Legislative reforms increasingly draw upon interdisciplinary insights from psychology, psychiatry, sociology, and social work, leading to the development of nuanced legal provisions that emphasize both early intervention and sustained support as essential to mitigating the impacts of trauma.

Novel judicial approaches now incorporate principles of restorative justice and trauma-informed care, which actively involve victims, communities, and other stakeholders in the legal

process. These approaches challenge traditional punitive models by framing legal redress as a means to repair and restore rather than solely punish. Courts and policymakers have expanded the conceptualization of harm to include not only physical injuries but also the psychological and emotional consequences of conflict, thereby integrating comprehensive compensation measures and community-based reparative initiatives into the legal framework.

Concurrently, the evolution of human rights law has spurred a rigorous re-examination of state accountability in post-conflict contexts. Influenced by emerging international legal norms and standards on transitional justice, domestic legislation now increasingly reflects the imperative for state responsibility in addressing historical injustices and preventing future neglect. These reforms underscore the need for legal systems to proactively safeguard vulnerable populations by ensuring that robust accountability mechanisms are in place. This includes the implementation of legal safeguards and ongoing monitoring practices aimed at protecting individuals and communities affected by systemic injustices.

Innovative judicial practices are further enhancing modern legal frameworks through the integration of predictive analytics and data-driven decision-making. Such technological advancements enable legal authorities to better identify at-risk populations and optimize the allocation of resources for mental health and social support services. This dynamic and adaptive approach to legal policy reflects a commitment to evidence-based reforms that are responsive to the complex realities of post-conflict trauma.

The enduring insights derived from Lost Generation literature provide a critical cultural and historical perspective that continues to enrich legal discourse. These literary narratives, which vividly portray the psychological and societal impacts of war, serve as a valuable reference point for understanding the interplay between collective memory, individual suffering, and juridical reform. By bridging the gap between cultural reflection and legal innovation, modern legal frameworks have the potential to foster a more holistic and empathetic approach to addressing the enduring consequences of conflict.

Intersections of Literary Narratives and Legal Discourses

The relationship between the literary expressions of the Lost Generation and modern juridical practices is both profound and multifaceted. Literary works from the interwar period serve as cultural artifacts that critically examine the failures of state institutions in addressing the repercussions of war. These narratives have, in turn, influenced legal reform by highlighting the human cost of systemic neglect.

The dialogue between literature and law is particularly evident in discussions surrounding veterans' rights and the recognition of psychological trauma. By foregrounding personal testimonies of loss, displacement, and enduring grief, Lost Generation texts provide a powerful impetus for legal change. This interdisciplinary perspective reveals that both legal and literary frameworks are engaged in the ongoing task of reinterpreting state-citizen relationships in the context of historical trauma. It is through this synthesis that modern legal and cultural narratives continue to evolve, reflecting an enduring commitment to human dignity and social justice.

Conclusion

The legacy of the Lost Generation extends far beyond its immediate literary impact, reaching into the realms of legal and social reform. The disillusionment, trauma, and existential inquiries captured by interwar writers have shaped modern legal interpretations of war trauma, veterans' rights, and state accountability. As contemporary legal frameworks continue to evolve, the interconnection between literary critique and juridical reform remains essential for understanding and addressing the complex consequences of conflict. Ultimately, the enduring resonance of the Lost Generation's work not only enriches our cultural heritage but also informs ongoing debates over the rights and responsibilities inherent in state governance.

References:

- Smith, J. A. (2015). *Revisiting the Lost Generation: The Intersection of Literature and Law*. New York: Academic Press.
- Hemingway, E. (1926). *The Sun Also Rises*. New York: Scribner's.
- Fitzgerald, F. S. (1925). *The Great Gatsby*. New York: Charles Scribner's Sons.
- Brown, L. M. (2009). *War, Trauma, and the Law: The Case of World War I Veterans*. Oxford: Oxford University Press.
- Davis, R. (2018). *Legal Reform and Mental Health: Modern Approaches to War Trauma*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Martinez, P. (2020). *State Accountability and Human Rights in Post-Conflict Societies*. London: Routledge.
- Thompson, E. (2022). *Literature as a Catalyst for Legal Change: The Legacy of the Lost Generation*. Chicago: University of Chicago Press.

Список литературы:

- Smith, J. A. (2015). *Переосмысление потерянного поколения: пересечение литературы и права*. Нью-Йорк: Academic Press.
- Hemingway, E. (1926). *И солнце встает*. Нью-Йорк: Scribner's.
- Fitzgerald, F. S. (1925). *Великий Гэтсби*. Нью-Йорк: Charles Scribner's Sons.
- Brown, L. M. (2009). *Война, травма и право: случай ветеранов Первой мировой войны*. Оксфорд: Oxford University Press.
- Davis, R. (2018). *Правовая реформа и психическое здоровье: современные подходы к военной травме*. Кембридж: Cambridge University Press.
- Martinez, P. (2020). *Государственная ответственность и права человека в постконфликтных обществах*. Лондон: Routledge.
- Thompson, E. (2022). *Литература как катализатор правовых изменений: наследие потерянного поколения*. Чикаго: University of Chicago Press.

ONA TILI DARSLARIDA DIALOG, MONOLOG SHAKLIDA SO‘ZLASHISH USTIDAGI ISHLAR ORQALI OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQ O‘STIRISH

Najimova Aysara Duysenbaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti v.a.,

Annotatsiya: Maqolada ona tili darslarida dialog va monolog shaklida so‘zlashish ishlari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rgatish, muloqot madaniyatiga rivojlantirish masalalari yoritilgan, samarali usullari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: grammatik, og‘zaki va yozma nutq, imlo, analogiya, topishmoq, tezaytish

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы развития устной и письменной речи учащихся начальных классов на уроках родного языка посредством работы над диалогической и монологической речью. Проанализированы эффективные методы формирования у школьников навыков мышления, свободного выражения собственного мнения, культуры общения и письменного изложения через диалогическую и монологическую речь.

Ключевое слово: грамматика, устная и письменная речь, орфография, аналогия, загадка, ускорение

Annotation: The article discusses methods for developing oral and written language skills of primary school students through dialogue and monologue exercises in native language lessons. It explores ways to teach independent thinking, encourage free expression of thoughts, and enhance communication culture. The paper also analyzes effective techniques for achieving these goals.

Keywords: grammar, oral and written speech, spelling, analogy, riddle, acceleration

Bugungi kunda boshlang‘ich ta‘lim jarayonida ona tili darslarining maqsadi faqatgina grammatik bilimlarni o‘rgatish emas, balki bolalarda nutqiy faollikni rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqni talab darajasida shakllantirishdan iboratdir. O‘quvchilar o‘zaro so‘zlashuvda (dialogik nutqda) va fikrni bog‘lanishli bayon etishda (monolog nutq) savodxonlikni va nutq madaniyatini egallashlari muhim o‘rin tutadi.

Ona tili darslariga nutq o‘stirishga nisbatan joriy qilinayotgan yondashuvlardan biri kommunikativ kompetentsiya hisoblanadi: og‘zaki nutq asosan kim yoki kimlar bilandir muloqot jarayonida sodir bo‘ladi, bunda ovoznining baland-pastligi, munosabatning samimiyligi va boshqa alomatlar singdirilgan aniq hayotiy vaziyatda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutq yozuvchining kim yoki kimlar bilandir bavosita (yozuv orqali) muloqoti sanalib, undan axborot manbai sifatida foydalaniladi. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, «...nutq xarakterining bir qator kommunikativ belgilarini rivojlantirishga yordam beradi hamda shaxsning barqaror xususiyatlari ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi» [2].

Bundan tashqari, “Nutq o‘stirish deganda nutqiy faoliyatning to‘rtala turi (so‘zlash, o‘qish, nutqni tinglab tushunish, yozish, ya‘ni fikrni yozma ifodalash)ni o‘rgatish tushuniladi. Og‘zaki nutq o‘stirish deganda esa nutqiy faoliyatning bir turi – so‘zlash (gapirish)ni o‘rgatish nazarda tutiladi. Nutq o‘stirishni yuqori daraja deb olsak, og‘zaki nutqni o‘stirish ana shu yuqori darajadan (sathdan) keyin turadigan, tasnif bo‘yicha avvalginining tarkibiga kiruvchi daraja deb hisoblashimiz to‘g‘ri bo‘ladi” [1].

Til hodisasini kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, qo‘llash izchilligida ketma-ket kelgan, ba‘zan o‘zicha mustaqil vazifaga ega bo‘lgan mashqlarni bajarish jarayoni grammatika va imloga doir yangi bilimlar ustida ishlash uchun xizmat qiladi, ammo bunday dars o‘quvchilar nutqini o‘stirish vazifalariga kam darajada mos keladi. Shu bois har bir darsga gap tuzish, matn mazmunini

qayta hikoya qilish, soʻzlash, matn tuzish talab etiladigan ijodiy xarakterdagi mashqlardan birini kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu mashq turlari mavjud vaziyatni oʻnglash imkonini beradi. Oʻz navbatida oʻqituvchi bunday darslarga ijodiy yondashishi kerak boʻladi. Zero, bir tomondan, oʻquvchi oʻz nutqida erkin qoʻllagan yangi til birligi mustahkam oʻzlashadi, ikkinchi tomondan, yozma ravishda tuziladigan matn oʻquvchini fikr bayon qilish izchilligi bilan tanishtirib borish, shu orqali ogʻzaki nutqiga ham ana shu izchillikni olib kirish, tegishli malakalarni egallashga harakat qiladi,

Nutq oʻstirish uchun nimalarni oʻrgatish lozim degan anʼanaviy savol turadi. Maʼlumki, amaliyotda bayon ham, insho ham, qayta hikoya qilish va hikoya qilishlar ham oʻquvchilarga nimanidir oʻrgatish maqsadi bilan oʻtkazilmaydi. Masalan, sayrdan soʻng «Bogʻda sayr qildik» mavzusida insho yozdirildi, deylik. Obrazli tasvir unsurlari boʻlgan hikoya hosil boʻladi. Oʻqituvchi xatolarini tuzatgan holda tekshiradi. Bir qarashda bu foydali ish: oʻquvchi sayrdan olgan taassurotlarini aks ettirgan holda soʻz yuritadi, tafakkuriga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, ichdan ogʻzaki tuzgan gaplarini qogʻozga tushiradi, ushbu nutqiy faoliyat jarayonida mustaqil fikrlashga oʻrganadi. Lekin oʻqituvchidan oʻquvchilar nimani oʻrgandilar, deb soʻralsa, u aniq javob bera olmaydi.

Har bir mashqni oʻtkazishdan koʻzlanadigan aniq bir maqsad boʻlishi kerak. Oldin nutq qanday ediyu, endi qanday boʻldi? Maqsad fikrni ilgarigi yozma ishda yoʻl qoʻyilgan xatolarga takror yoʻl qoʻymasdan yana ham izchilroq bayon qilish boʻlsa, bir fikr tugallanmasdan boshqasiga oʻtish, xayoliga kelgan gaplarni yozaverish kabi kamchiliklar tobora kamayib borishini koʻrish va boshqa shu kabi nutqiy vazifalarning qanday bajarilayotganligini kuzatish, bir gal oddiy tasvir, keyingi gal murakkabroq tasvir aks etganligi va hokazo.

Ogʻzaki nutq oʻquvchining biror voqeani hikoya qilishi boʻlsa, u monolog, biror voqeani biri ikkinchisidan soʻrab bilish tarzida oʻtsa, dialog shaklida boʻladi. Yozma nutq kimdandir nimanidir soʻrash mazmunida boʻlsa, dialog sanaladi; biror voqeani bayon qilish mazmunida boʻlsa, monolog hisoblanadi. Bugungi kunda Telegram orqali yozishmalar keng qoʻllanayotganligi dialog shaklining yozma nutqqa ham xosligini ayon qiladi. Mavzuviy tugallik, qatʼiy grammatik shakllanganlik, mantiqiy barkamollik bogʻlanishli (monologik) nutqqa xos. Monolog shaklidagi yozma nutq, bir tomondan, logik izchillikka rioya qilgan holda, ayrim til birliklarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yoʻl qoʻymay bayon qilishni, ikkinchi tomondan grammatik va imloviy savodxonlikni talab etadi, shuning uchun yozma nutq ancha murakkab hisoblanadi.

Ogʻzaki monologik nutq oʻstirish biror mavzuda yoki taassurotlar asosida, shuningdek rasmga qarab hikoyalash mashqlari sifatida tashkil etiladi. Ushbu mashqlar muayyan tayyorgarlik koʻriladigan bosqichdan keyin oʻtkaziladi. U soʻz va grammatik vositalar boyligini oshirish, faollashtirish, soʻz birikmalari yoki gaplar tuzish mashqlaridan tashqari, faktik materiallar toʻplashni oʻz ichiga olib, bu ishlarga darsning uchdan bir qismi ajratiladi.

Bundan tashqari, quyidagi ish turlariga ham eʼtibor beriladi: savollarga kengaytirib javob berish; jumladan, bir savolga bir nechta gap bilan javob qaytarish;

– kuzatish asosidagi qaydlar; berilgan gapdagi fikrni davom ettirish; berilgan yakuniy gap asosida fikrni boshidan boshlash;

- ertaklarni improvizatsiyalash, adabiy-badiiy ijod kurtaklarini rivojlantirish;
- berilgan matnni qaytadan tartiblash;
- dialogik shaklni saqlagan holda qayta hikoya qilish,
- oʻquvchilar orasidagi mustaqil dialoglar (ogʻzaki);
- sahnalashtirish turlari,
- ogʻzaki (soʻz bilan) rasm chizish;
- oʻqilgan asarlarni tasavvur qilish asosida oʻz hikoyalarini yaratish, ularni ekranlashtirish;
- insholar;
- gazetaga maqola yozish, oʻqilgan kitob, koʻrilgan spektakl, kino haqida mulohaza bildirish;
- xatlar;

– ish qog‘ozlari: ariza, e‘lon, manzil yozish, telegramma va b.

Ayon bo‘ladiki, monologik nutq o‘stirishga qaratilgan mashqlar rang-barang. Ular ham og‘zaki, ham yozma tashkil etiladi. Mashqlar faktik materiallariga ko‘ra kuzatishdan olingan taassurotlar, qaydlar (kundalik yozuvlari), ijod mahsullaridan iborat bo‘ladi.

Dialogik nutq o‘stirishda esa bevosita muloqotdan tortib to sahnalashtirishgacha ish turlari qamrab olinadi.

Nutq o‘stirishga kirishishdan avval tayyorgarlik sifatida bajariladigan barcha ish turlari (so‘z va grammatik vositalar boyligini oshirish, faollashtirish, so‘z birikmalari yoki gaplar tuzish mashqlari) nazariy ma‘lumotlarsiz amaliy usullar bilan taqdim etiladi. Bunday darslarni tadrijiy takomil asosida o‘tkazish uchun istiqbolli reja tuzish kerak. Shunda takrorlardan qutulish, zarur til birliklarining, muhim mavzularning tushib qolishidan saqlanish mumkin.

Yozma ish yozilayotgan paytda o‘qituvchi o‘quvchilarga yordam berish usullaridan to‘g‘ri, bilib foydalanishi zarur. Yordam to‘rt xil masalada bo‘lishi mumkin:

- 1) boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan imlo lug‘atidan foydalanishga ruxsat berish;
- 2) imlo xatosiga ishora qilish;
- 3) so‘z ishlatishdagi xatoni ko‘rsatish;
- 4) gaplarning izchil, bog‘lanishli tuzilishi kerakligiga ishora qilish;
- 5) mavzuning yoritilishi bilan bog‘liq kamchilikka ishora qilish.

O‘qituvchi yozma ish yozilayotgan paytda har bir o‘quvchining oldiga keladi, bo‘shroq o‘quvchining yoniga ikki-uch marta boradi. Ayniqsa, tortinchoq bolalar yordamga ko‘proq muhtoj bo‘ladilar.

O‘qituvchi o‘quvchi yo‘l qo‘yayotgan xatoni o‘zi payqay olmaydigan, tuzata bilmaydigan holatlarda o‘z maslahatlari bilan yordam berishi to‘g‘ri bo‘ladi. U bu ishni o‘quvchi sha’niga tegmaydigan qilib tashkil etadi. M.R.L’vov aytgandek, o‘qituvchining yordami «didaktik yordam» bo‘lmog‘i lozim [3].

O‘qituvchining bayon, insho kabi yozma ishlarni o‘tkazishdan asosiy maqsadi imlo savodxonligini tekshirib, baho qo‘yish emas, o‘quvchilar yo‘l qo‘yayotgan imlo xatolarini ularning o‘zini ishlatib tuzatish ham emas. Asosiy maqsad ularga o‘z fikrlarini bog‘lanishli tarzda bayon qilishni o‘rgatish, yaratayotgan yozma ishini shu nuqtai nazardan tekshirib borish odatini asta-sekinlik bilan shakllantirishdir. Bunda boladan o‘tilgan qoidani so‘rash, uni imlo lug‘atiga murojaat ettirish ham foydadan xoli emas.

Yozma ish yozib bo‘lingandan keyin o‘quvchilarni bir-birlarining ishini bog‘lanishlik jihatidan tekshirishga undash maqsadga muvofiqdir. Yozma ishdagi gap tuzish, gaplar izchilligini ta‘minlash bilan bog‘liq kamchiliklarni, yo‘l-yo‘lakay imloviy xatolarini tuzatish ishlari shunchaki bajarilmaydi. Xato ustida bu tarzda ishlashdan maqsad «o‘quvchilarni o‘z xatolarini va o‘zgalar xatolarini mustaqil ravishda topish va tuzatishga o‘rgatishdir» [3].

Gapni tahrir qilish jarayonida o‘quvchi rivojlanadi, nutqi barkamol bo‘lib boradi, adabiy til me‘yorlariga amal qilish uchun etarli bilim shakllana boshlaydi.

Ona tili darsliklarida bir xil mavzularning darsdan darsga, sinfdan sinfga ko‘chib yurishi tufayli ushbu ayni syujet takrorlari bir xil jumlar, konstruktsiyalarni, bir xil oborotlarni, shablon ko‘chirmalarni takrorlashga sabab bo‘ladi.

Ona tili darslarida quyidagi ish turlariga ham o‘rin ajratiladi:

- 1) bir nechta matndan bitta hikoya tuzadi (berilgan mavzuda);
- 2) matnga o‘zidan biror narsa qo‘shib davom ettiradi;
- 3) o‘zgartirish kiritadi;
- 4) analogiya bo‘yicha hikoya tuzadi;
- 5) rasm, kartina asosida hikoya qiladi;
- 6) matnga doir rasm, kartinani matn bilan taqqoslaydi;
- 7) shaxsiy kuzatishlar asosida hikoya tuzadi.

Tevarak-atrof haqidagi bilimlarga bilim qo'shilib borar ekan, o'quvchilar nutqi ham shunga yarasha jadal o'sishda bo'ladi.

Chuqur bilim olishdagi zamonaviy didaktika yo'nalishiga ko'ra ta'limdan ko'zlanadigan asosiy maqsadni belgilash, unga monand natijani rejalashtirish, umumiy maqsaddan kelib chiqib ta'lim startegiyasini belgilash, vazifalarni modellashtirgan holda ta'lim taktikasini aniqlashtirish, o'quv-tashkiliy, o'quv-aqliy, o'quv-axborot, o'quv-kommunikativ, aqliy mehnat ko'nikma va malakalari asosida o'quvchilarning bilish faolligini, o'z-o'zini tashkil etish, nazorat qilish, tartibga solish (boshqarish) layoqatini shakllantirish ko'zda tutiladi. «...o'quv jarayonining o'zi o'quvchilarning ta'lim sub'ekti sifatidagi faol faoliyatisiz bo'lishi mumkin emas» [4]. O'quvchi o'zi gap tuzganda fikrlash faol bo'lib, nutq sezilarli darajada rivojlanadi.

Nutq o'stirish til birliklarini harakatda o'rganish imkonini beradi: «Bilimlarni egallash bolaning ichki o'quv-biluv harakatlarini – aqliy harakatlar va operatsiyalarni shakllantirishga olib keladigan jarayonga aylanadi. Bu narsa, o'z navbatida, tushunchalarni ularning aloqadorligida, harakatida egallash uchun zamin bo'lib xizmat qiladi» [5].

Harakatdagi til birligi faol bo'ladi. Shunga ko'ra «...o'quvchiga o'zi o'qigan, kuzatgan, bilgan narsalar yoki voqea va hodisalar xususida yozish vazifasi topshirilmog'i lozim» [6].

Boshlang'ich maktab o'z oldiga o'quvchilarga tilning obrazli ifoda vositalari haqida nazariy ma'lumotlar berish maqsadini qo'ymaydi. Barcha ish turlari tafakkur va nutqni rivojlantirish tizimiga bo'ysundirilib, amaliy tusda bo'ladi. Masalan, sinonimlar tahlili so'zni aniq ma'noda o'rinli ishlatish ustida olib boriladigan ish sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari iboralar, tasviriy ifodalar ma'nosini tushunadilar, lekin o'z nutqlarida kamdan-kam ishlatadilar. Gap shunday topshiriq berishda. Topshiriq berilsa, o'quvchilar uni qoniqarli bajara oladilar.

Muloqot voqea-hodisani yaqqol anglatish, ishontirish jihati bilan kommunikativ yo'nalishni oshiradi. Bunda bir emas, bir necha o'quvchining bamaslahat fikr yuritishiga asoslangan guruhlar o'rtasidagi bahslashuv katta rol o'ynaydi.

Sinf ikki guruhga bo'linadi. 1-guruh – tarafdorlar, 2-guruh – qarshilar. O'qituvchi biror fikrni aytib, isbot, dalil keltiradi. O'quvchilar o'zlarining tarafdor yoki qarshi ekanliklarini aytib, o'z asoslarini keltiradilar. Natijada ular asta-sekin bahs yuritish malakasini egallay boshlaydilar. Masalan, bahorning ijobiy va salbiy tomonlari aytiladi. Fikr to'g'ri deb topilsa, «Ha», noto'g'ri deb topilsa, «Yo'q» degan javob aytiladi, guruh o'z variantini beradi. Guruhlarga kim kattaroq, tezroq matn tuzadi, degan topshiriq beriladi. Bu kabi o'yinlarni tashkil etishda topishmoqlar, tezyatishlar va boshqalar tuzishda sinkveyndan foydalanish mumkin.

Yumoristik matnlar tuzilsa, ular nazariy qoidalarni tushunishga yordam beradi. Masalan, uslubiy bo'yog'i maqsadiga mos kelmaydigan matn berish mumkin. (A.Qahhorning «Qopqoq» hikoyasi). O'quvchilar noto'g'ridan to'g'ri xulosa chiqaradilar. Agar matn kulgi qo'zg'otsa, o'quvchilarning kulib olishlari uchun vaqt berish lozimki, xato keyin aniqlanib, tuzattiriladi. Shunda ham o'quvchilardan o'z fikrlarini dalillash talab etiladi [7].

Nutqning rivojlanganligi – kishi nutq madaniyatining, aqliy o'sish, dunyoqarash ko'rsatkichidir. Nutqiy malakalar kommunikativ madaniyatning tarkibiy qismidir. Boshlang'ich sinf o'quvchisining nutq madaniyati tengdoshlari, o'qituvchilar, ota-onalar, qo'ni-qo'shnilar, begona odamlar bilan muloqotida bilinadi. «Kommunikativ madaniyat» tushunchasiga aniqlik, obrazlilik, ifodalilik bilan xarakterlanuvchi xoh og'zaki, xoh yozma kommunikativ-maqsadga muvofiq nutq ham kiradi. Boshlang'ich sinf ona tili o'qituvchisining vazifasi ana shunday nutqni shakllantirishdir [8].

E.A.Bogachenko olimlarning bosh miyadagi miyacha (mozjechok) harakatlarni muvofiqlashtirgan holda boshqarishdan tashqari, insonning o'quv-biluv faolligini taqsimlash vazifasini ham bajarishi: xotira, diqqat va makonni idrok etishni boshqarishi haqidagi keyingi davrda chiqargan xulosalariga asoslangan holda o'quvchilar o'yinlarda ishtirok eta olsalar, ta'lim muvaffaqiyatli bo'ladi, deb ta'kidlaydi [9].

Shunga ko'ra ham boshlang'ich sinflar ona tili darslarida og'zaki va yozma nutqni o'zaro

aloqadorlikda o‘stirish, retseptiv, reproduktiv va mahsuldor (ijodiy) mashqlar o‘rtasida oqilona nisbat o‘rnatish, shu maqsad yo‘lida mahsuldor (ijodiy) mashq turlarini ko‘paytirish printsiptini ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy printsiplardan biri deb hisoblamoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev R.A. Ta’lim rus tilida olib boriiladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi: Monografiya. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2015. – B. 156
2. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg‘ulotlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. –
3. Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников: Пособие для учителя. — 2-е изд., перераб.— М.: Просвещение, 1985.— 176 с.
4. Педагогика / Под ред. Ю.К.Бабанского. – И., 1983. – С. 137.
5. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения. В двух томах. Т. 1. – М.: Педагогика, 1983. – 392 с.
6. Гуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулотлари: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 160 б.
7. Йигирма биринчи асрда ўзбек тили таълими масалалари: Ўзбек тили доимий анжумани тўққизинчи йиғинининг материаллари (2007 йил 19–20 апрель). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 286 б.
8. Неусыпова Н. М. Развитие речи младших школьников в условиях сельской малокомплектной школы: Книга для учителя.— М.: Просвещение. 1990.—95 с
9. Богаченко Е.А. Игра как современный метод воспитания // Начальная школа. – 2010. № 6. – С. 16-18.

O'ZBEK XALQ IJODIDA USTOZ - SHOGIRD AN'ANALARI

*Primov Rashid Toshkulovich
Qarshi Davlat universiteti dotsenti*

*Anvarova Rushana Sherzod qizi
Qarshi Davlat universiteti talabasi
<https://orcid.org/0009-0001-7189-5097>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq musiqa ijodida dostonchilik sa'natining o'ziga xos xususiyatlari va ustoz - shogird munosabatlari haqida fikr mulohazalar bildirilgan. Dostonlarning yaratilishi xalqimizning ma'naviy qiyofasi, siyosiy qarashlari, axloqiy estetik tarbiya, adolat va xaqqoniyat, ozodlik va tenglik, qaxramonlik va vatanparvarlik xaqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar mavzusi g'oyaviy mazmunni, voqelikning mohiyatini belgilaydi. Dostonlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, mazmunlarining umumiylikiga binoan ma'lum turkumlarga birlashadi. Masalan, «Go'ro'g'li» dostonlar turkumi qirqdan ortiq to'la tugallangan hamda mustaqil ijro etiladigan ishqiy-romantik dostonlardan iborat bo'lib, ularda didaktik mavzu ham alohida ahamiyat kasb etishi maqolada keltirib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: folklor, baxshi, doston, terma, doston tirkumi, tasnif, tipologiya, noma, ichki ovoz, ustoz-shogird, «Go'ro'g'li», o'zbek milliy qadriyatlari, insoniyat.

НАРОДНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ УЗБЕКИСТАНА ТРАДИЦИИ УЧИТЕЛЬ-УЧЕНИК

*Примов Рашид Тошкуллович
доцент, Каршинский государственный университет*

*Анварова Рушана Шерзод кизи
студентка Каршинского государственного университета*

Аннотация: В статье рассматриваются особенности искусства эпической поэзии и взаимоотношения учителя и ученика в узбекской народной музыке. Создание эпосов тесно связано с духовным обликом нашего народа, его политическими взглядами, нравственным и эстетическим воспитанием, идеалами справедливости и честности, свободы и равенства, героизма и патриотизма. Тема многовековой борьбы и идеалов определяет идейное содержание и суть действительности. Элегии тематически разнообразны и объединяются в определенные категории на основе общности их содержания. Например, в статье отмечается, что эпический цикл «Горугли» состоит из более чем сорока полностью завершенных и самостоятельно исполненных романтических эпосов, в которых особое значение имеет дидактическая тема.

Ключевые слова: фольклор, бахши, эпос, термин, эпический ряд, классификация, типология, нoma, внутренний голос, учитель-ученик, «Героглу», узбекские национальные ценности, гуманизм.

TRADITIONS OF TEACHER-DISCIPLINE IN UZBEKISTAN FOLK LITERATURE

*Primov Rashid Toshkulovich
Associate Professor, Karshi State University*

*Anvarova Rushana Sherzod kizi
student of Karshi State University*

Annotation: The article examines the features of the art of epic poetry and the relationship between teacher and student in Uzbek folk music. The creation of epics is closely linked to the

spiritual image of our people, their political views, moral and aesthetic education, ideals of justice and honesty, freedom and equality, heroism and patriotism. The theme of centuries-old struggle and ideals determines the ideological content and essence of reality. Elegies are thematically diverse and are united into certain categories based on the commonality of their content. For example, the article notes that the epic The cycle «Gorugli» consists of more than forty fully completed and independently performed romantic epics, in which the didactic theme is of particular importance.

Key words: folklore, bakhshi, epic, term, epic series, classification, typology, noma, inner voice, teacher-student, “Geroglu”, Uzbek national values, humanism.

Kirish (Introduction). O‘zbek milliy qadriyatlarining yuksak darajada taraqqiy etishida uning xalq og‘zaki badiiy ijodi an‘analaridan oziqlanganligi, ya‘ni folklor va ma‘naviy qadriyatlarimiz orasidagi izchil davom etib kelgan o‘zaro aloqadorlik ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “Xalqning ma‘naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma‘naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevishtiruvchi tuyg‘usi bilan birgalikda yetilgan. Ma‘naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi”.

“Ma‘naviyat –insonni ruhiy poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baqquvat, iymon -e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini o‘yg‘otadigan beqiyos kuch , uning barcha qarashlarining mezonidir”. Musiqa insoniyat ma‘naviy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Musiqa mohiyatiga ko‘ra inson omilini tadqiq qilish va dunyoni badiiy o‘zlashtirishning muhim usullaridan hisoblanib, inson ruhiy, axloqiy kamoloti va ma‘naviyatining shakllanishida, yoshlarning ma‘naviy tarbiyasida yetakchi omillardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining “Baxshichilik va dostonchilik san‘atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 26.04.2018 yildagi 304-son qaroriga asosan xalqimizning yuksak badiiy ijodiyoti asosida yaratilgan nomoddiy madaniy meros durdonalarini dostonchilar, o‘zbek baxshichilik san‘atini yanada rivojlantirish va targ‘ib etishga hissa qo‘shgan ustoz baxshilar, xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli tanlovlarda yuqori o‘rinlarni egallagan yosh baxshilar va doston ijrochilariga, dostonchilar ijodining eng yaxshi namunalarini targ‘ib qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dostonlar mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, mazmunlarining umumiyligiga binoan ma‘lum turkumlarga birlashadi. Masalan, «Go‘ro‘g‘li» dostonlar turkumi qirqdan ortiq to‘la tugallangan hamda mustaqil ijro etiladigan ishqiy-romantik dostonlardan iborat bo‘lib, ularda didaktik mavzu ham alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda badiiy adabiyotimizda asrlar davomida xalq og‘zaki ijodida baxshilar tomonidan og‘zaki tarzda kuylab kelingan “Alpomish”, Go‘ro‘g‘li turkumidagi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Malikai Ayyor”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon”, “Avazxon”, “Oshiq G‘arib” va boshqa ko‘pgina dostonlar keng tarqalgan.

Uning yaratilishi xalqimizning ma‘naviy-maishiy qiyofasi, siyosiy qarashlari, axloqiy estetik tarbiya, adolat va xaqqoniyat, ozodlik va tenglik, qaxramonlik va vatanparvarlik xaqidagi ideallari bilan chambarchas bog‘liqdir. Asriy kurashlar va ideallar mavzusi g‘oyaviy mazmunni, voqelikning mohiyatini belgilaydi.

Eposshunos olimlarimiz qayd etganidek, o‘zbek dostonchiligida asrlar bo‘yi tarixiy-folkloriy jarayonda professional tayyorgarlik, ustoz-sho-girdlik munosabatlari, uning hosilasi bo‘lgan dostonchilik maktablari mavjud bo‘lgan. Ammo ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi dastlabki taqib baxshilarning o‘z ustozlarini aytmasliklari va bu ko‘pgina xalqlar dostonchiligi uchun tipologik hodisa ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xalq og‘zaki poetik ijodi va ijrochilik orasidagi badiiy-estetik aloqadorlikning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan folklorizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi va tipologiyasi masalalari B.Sarimsoqov, I.Yormatov kabi olimlar

tomonidan ma'lum bir ilmiy qarashlar qilingan. "Doston kuylash jarayonida baxshilar ma'lum bir marosim, urf-odatlar, qoidalarga amal qilishgan, auditoriyaning ijtimoiy tarkibini hisobga olishgan", – deydi T.Mirzayev.

Shunisi diqqatga sazovorki, O'zbekistonning Xorazm vohasidan tashqari deyarli barcha mahalliy tumanlarida dostonlar maxsus bo'g'i ovozda do'mbira jo'rligida rechitativ deklamatsion ohanglar bilan ijro etiladi. Xorazmda esa kuychan ovozda dutor yoki an'anaviy ansambl jo'rligida ijro etiladi. Bu, ayniqsa, hozirgi kunda ham doston aytib kelayotgan Qashqadaryo va Surxondaryoning yirik baxshilari va ular maktabiga sodiq yosh iste'dodlar ijrosida yorqin ko'rinadi.

Surxondaryo-Qashqadaryo voha dostonchiligi juda qadimiy, ayni paytda hozirga qadar yaxshi saqlangan mahalliy udum va an'alariga ega. U o'ziga xos adabiy-nasriy, she'riy, shuningdek, musiqiy-ijodkorlik xislatlar bilan ta'riflanadi. Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida eng keng tarqalgan tarixiy, bahodirlik, ishqiy dostonlardan "Alpomish", "Avazxon", "Rustamxon", "Go'r o'g'li" va boshqalarni tilga olish mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Har bir doston o'nlab turlicha holat va kayfiyatlarni ifodalovchi noma va kuylardan tuziladi. Ijrochi muayyan voqelik vaziyatidan kelib chiqib, o'z ijro bisotida bor musiqiy namunalarni tanlab, o'rinli ishlatadi.

Doston voqealarining bosqichma-bosqich, salobatli bayon etilishi jarayonida so'zli va sof cholg'u kuylar katta o'rin tutadi. Shuningdek, uning ijrosi davomida muntazam ravishda aytiluvchi har xil mazmundagi qo'shiqsimon namunalar "noma" deb yuritiladi. Nomalar dostonchi tomonidan do'mbira cholg'usi jo'rligida yo'g'on, bo'g'iq tabiatli, shu boisdan "ichki" deb ataluvchi ovozda ijro etiladi.

Folklorshunos olimlar qayd etganlaridek, o'zbek dostonchiligida dostonchi tayyorlashda, asosan, ustoz-shogirdlik munosabatlari orqali quyidagi bevosita va doimiy bo'lgan shartlarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'lgan.

1. O'zlaridagi iqtidorni homiy ruhlardan deb bilgan shomon-baxshilar o'z kasbini, albatta, kimgadir qoldirishlari shart bo'lgan. Odatda, xuddi shomonlikdagi kabi baxshilik ham avloddan-avlodga o'tgan. Shu bois ko'pgina yetuk xalq baxshilari, masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'li o'zining yetti ajdodi baxshi bo'lganini olimlarga faxr bilan so'zlab bergan. Baxshilar o'zlariga shogirdlik uchun iste'dodli yoshlarni qidirib yurganlar. Biroq an'anada xalq baxshilarining o'z ustozlarini aytmassliklari so'z san'atiga nisbatan qadimiy qarashlardan kelib chiqqan urf-odatlari bo'lishi mumkin.

2. Ta'lim og'zaki ravishda va bepul olib borilgan. Biroq shogird o'zi mustaqil kuylashga fotiha olguncha ustoz oilasida barcha yumushlarni qilib yurgan. Aytish mumkinki, ustoz so'zlari shogird uchun qonun bo'lgan.

3. Dastlab do'mbira chertish, termalar, dostonlarning tipik o'rinlari yod olingan.

4. Ustoz doston aytish uchun qayerga bormasin, shogirdini o'zi bilan birga olib yurgan. Buni ta'limning o'ziga xos ko'rgazmaviy, amaliy shakli deb baholash mumkin.

5. Keyingi bosqichda alohida bir doston to'liq o'rganilgan. Olimlar-ning kuzatishlaricha, Qo'rg'on dostonchilik maktabi uchun "Yakka Ahmad", Janubiy O'zbekiston epik an'alarini uchun "Ollonazar Olchinbek" dostonlari dasturiy hisoblangani uchun, o'tmishda har bir maktab uchun shu tipdagi asarlar majburiy xarakterda bo'lgan deyish mumkin.

6. Shogird ma'lum bir darajaga yetgach, ustoz unga davralarda terma, dostonlardan parchalar kuylashga ijozat bergan. Undan keyingi bosqichda ustoz-shogird bir dostonni navbatma-navbat aytishgan.

7. Shogird ustoz repertuaridagi dostonlarning bir qismini to'liq o'zlashtirgach, ustoz maxsus marosim kechasini o'tkazib, kishilar oldida unga fotiha bergan. Mavzumiz uchun muhim bo'lgan jihat shundaki, ustoz-shogird munosabatlari termalarda ham o'z badiiy ifodasini topgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ustoz-shogird munosabatlari orqali davom etib kelayotgan dostonchilik san'ati xalqimizning dunyo madaniy, ma'naviy xazinasiga

qo'shgan munosib hissasi sifatida bebaho san'at turi bo'lib, yuqori badiiy qimmatga ega bo'lgan o'zbek xalq dostonlari milliy iftixor va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ustoz va shogird munosabatlari haqida insonlarning tarixida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar taraqqiyotning asosiy devorini tashkil etuvchi bir munosabatdir. Bu munosabatlar, asosan, ilm, bilim, odob, axloq, ma'naviyat va malaka ko'nikmalarni o'zaro almashish orqali shakllanadi va rivojlanadi. Ustozning shogirdga o'rgatgan har bir so'zi, har bir harakati, uning hayotiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ustozning shogirdiga bergan bilimi, tarbiyasi tahsinga sazovor hisoblanadi barcha mamlakatlarda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev. SH. Xalq so'zi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir. T., 1980. – 4-son.
3. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. T., 2000
4. Ёрматов И. Типология фольклоризмов в современной узбекской литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 1985.

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA XORIJIY TILNI O'QITISHNING NAZARIY-AMALIY JIHATLARI

*Raxmatova Marjona Uktamovna
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Maqolada aksilogik yondashuv asosida xorijiy tilni o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Aksilogik yondashuv ta'lim jarayonida talabalarning shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Maqolada xorijiy tillarni o'qitishda aksilogik yondashuvni joriy etishning metodik tamoyillari va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: aksilogik yondashuv, xorijiy til, ta'lim metodikasi, qadriyatlar, kommunikativ kompetensiya.

ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

*Рахматова Маржона Уктамовна.
Базовый докторант Кариинского государственного университета.*

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты обучения иностранному языку на основе аксиологического подхода. Аксиологический подход отличается ориентацией на формирование личных и социальных ценностей учащихся в образовательном процессе. В статье анализируются методологические принципы и эффективность внедрения аксиологического подхода в преподавание иностранных языков. По результатам исследования даны практические рекомендации.

Ключевые слова: аксиологический подход, иностранный язык, методика обучения, ценности, коммуникативная компетенция.

THEORETICAL-PRACTICAL ASPECTS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE ON THE BASIS OF AN AXIOLOGICAL APPROACH

*Rachmatova Marjona Uktamovna
Qarshi State University base doctoral student*

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of teaching foreign language based on the axiological approach. The axiological approach focuses on shaping students' personal and social values in the educational process. The paper analyzes the methodological principles and effectiveness of implementing an axiological approach in foreign language teaching. Based on the research findings, practical recommendations are provided.

Key words: axiological approach, foreign language, teaching methodology, values, communicative competence.

Kirish. Hozirgi kunda chet tilini o'qitish jarayonida nafaqat lingvistik bilimlarni berish, balki ta'lim jarayonini shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aksiologik yondashuv ta'lim jarayonini insoniy, madaniy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratadi. Ushbu maqolada che tilini o'qitishda aksilogik yondashuvning ahamiyati, uning metodologik asoslari va samaradorligi o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Aksiologik yondashuv nazariy jihatdan XX asr falsafasi va pedagogikasida rivojlangan bo'lib, uning asoschisi V. Frankl, J. Dewey va boshqa olimlar hisoblanadi. Xorijiy tillarni o'qitishda aksilogik yondashuv o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lim tizimidagi zamonaviy tadqiqotlar aksilogik yondashuvning lingvodidaktik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib,

ular til o'rganish jarayonini shaxsiy va madaniy kontekst bilan bog'laydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda aksilogik yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishning metodik asoslari, samaradorligi va ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilindi. Ushbu metodologiya chet tili ta'limida shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish orqali o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi.

1. Tadqiqot modeli: Tadqiqot eksperimental va nazariy-metodik tahlil asosida olib borildi. Ushbu model quyidagi bosqichlardan iborat:

- Adabiyotlarni tahlil qilish – aksilogik yondashuv bo'yicha ilg'or tadqiqotlar va nazariy manbalar o'rganildi.

- Eksperimental tadqiqot – aksilogik yondashuv asosida dars tashkil etilgan tajriba guruhining natijalari an'anaviy metodlar asosida ta'lim olgan nazorat guruhi bilan solishtirildi.

- So'rov va intervyu o'tkazish – o'rganuvchilar va o'qituvchilar bilan aksilogik yondashuvning ta'lim jarayoniga ta'siri bo'yicha fikr-mulohazalar yig'ildi.

- Tahlil va natijalarni umumlashtirish – to'plangan ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

2. Tadqiqot usullari:

- Nazariy tadqiqot usullari:

Adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish – aksilogik yondashuv, lingvodidaktika va madaniyatlararo kompetensiya bo'yicha mavjud ilmiy manbalar o'rganildi.

Taqqoslash va umumlashtirish – aksilogik yondashuv va boshqa o'qitish metodikalarining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi.

Kontent-tahlil – ingliz tilini o'qitishda foydalanilayotgan o'quv materiallari va darsliklar aksilogik tamoyillar asosida baholandi.

Empirik tadqiqot usullari

Eksperiment – aksilogik yondashuv asosida tuzilgan darslar o'tkazilib, o'quvchilarning til o'rganish jarayonidagi faolligi va natijalari baholandi.

So'rovnoma va intervyu – eksperimentda ishtirok etgan o'rganuvchilar va o'qituvchilar bilan suhbatlar o'tkazildi, ularning yondashuvga bo'lgan munosabati va tajribasi o'rganildi.

Diagnostika va test sinovlari – tajriba va nazorat guruhlari o'rganuvchilari o'rtasida bilim va kompetensiyalar darajasini baholash uchun maxsus testlar o'tkazildi.

3. Dastlabki baholash – til o'rganuvchilarning boshlang'ich bilim darajasi test sinovlari orqali o'lchandi.

Aksiologik yondashuv bo'yicha darslar tashkil etildi – madaniyatlararo muloqot, ahloqiy qadriyatlar va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar qo'llanildi.

Oraliq baholash – darslar davomida talabalarning rivojlanishi kuzatildi va motivatsion so'rovlar o'tkazildi.

Yakuniy baholash – eksperiment natijalariga ko'ra, tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasidagi farqlar o'lchandi.

4. Tadqiqot natijalarini baholash mezonlari

Natijalar quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi:

- Til kompetensiyasi – so'z boyligi, grammatika, talaffuz va yozma nutq qobiliyatlari baholandi.

- Kommunikativ qobiliyat – o'rganuvchilarning og'zaki nutqdagi erkinligi, ifodaviyligi va muloqot madaniyati tahlil qilindi.

- Motivatsiya darajasi – o'rganuvchilarning darslarga qiziqishi va ishtirok darajasi so'rovnomalar orqali o'rganildi.

- Madaniyatlararo kompetensiya – ingliz tilida gapiruvchi mamlakatlar madaniyati va qadriyatlari haqida bilimga ega bo'lish darajasi baholandi.

5. Tadqiqot natijalari va tahlili. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki:

Tajriba guruhi o'rganuvchilari til kompetensiyasi va kommunikativ ko'nikmalari bo'yicha nazorat guruhidan yuqori natija ko'rsatdi.

Talabalarning motivatsiyasi aksilogik yondashuv asosida ta'lim olgan guruhda yuqoriroq bo'ldi.

Madaniyatlararo kompetensiya tajriba guruhida ancha rivojlangan bo'lib, o'quvchilar ingliz tilida gapiruvchi mamlakatlarning madaniyati va qadriyatlariga katta qiziqish bildirishdi.

Bu yondashuv shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirish orqali til o'rganish jarayonini samarali qilishini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi aksilogik yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlash imkonini berdi. Olingan natijalar ushbu yondashuv: Til o'rganish motivatsiyasini oshirishga, shaxsiy va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga, kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlashga, o'quvchilarning til o'rganishga ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazardan yondashuvini shakllantirishga ijobiy ta'sir qilishini isbotladi. Shu sababli, ushbu metodikani kengroq tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqotda aksilogik yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishning samaradorligi tahlil qilindi. Eksperiment natijalari o'rganuvchilarning nafaqat lingvistik bilimlari, balki madaniyatlararo muloqot qobiliyatlari va shaxsiy qadriyatlari shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi. Quyida tahlil va natijalar turli jihatlar bo'yicha batafsil bayon etiladi.

1. Til kompetensiyasi tahlili.

Eksperiment jarayonida tajriba guruhi va nazorat guruhining til kompetensiyasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- So'z boyligi va leksik kompetensiya;
- Grammatik bilimlar va amaliy qo'llash;
- Talaffuz va fonetik aniqlik;
- Yozma va og'zaki nutq qobiliyati.

«Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot va aksiologik yondashuv o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi» (Bahodirov 60). Aksiologik yondashuv asosida o'qitilgan o'rganuvchilar so'z boyligi va grammatik bilimlarni chuqurroq o'zlashtirgan. Sababi shundaki, ular ingliz tilini o'rganishda shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq matnlar ustida ishlaganlari sababli, tilni tabiiy va mantiqiy yo'llar bilan o'zlashtirishgan. Xorijiy tilni o'qitishda o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlari, ya'ni til vositasida fikr almashish, o'z fikrini tushunarli ifodalash, muomala etiketidan foydalanish qobiliyatlari o'rganildi. Aksiologik yondashuv asosida o'qitilgan o'quvchilar o'zaro muloqot qilish va real hayotiy vaziyatlarga oid muhokamalar orqali o'z fikrlarini erkin ifoda etishni o'rgangan. Natijada ularning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi oshib, chet tilini o'rganishda yanada faol ishtirok etishgan. O'rganuvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan munosabatini aniqlash uchun so'rovnomalar o'tkazildi. O'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshirishda aksiologik yondashuv asosida o'quv materiallarini shaxsiy qadriyatlar bilan bog'lash katta ahamiyat kasb etdi. Til o'rganish jarayoni faqat grammatik qoidalarga emas, balki hayotiy ma'noga ega matnlar va muloqot holatlariga asoslanganligi sababli talabalar tilni yanada tezroq va ishonchliroq o'zlashtirishdi. Kramshning ta'kidlashicha, «til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasiga bevosita ta'sir qiladi» (Kramsch 112). Aksiologik yondashuv faqat til bilimlarini emas, balki shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni ham shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar chet tilini o'rganish jarayonida axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlangan shaxs sifatida shakllanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

■ Aksiologik yondashuv asosida o'qitilgan o'rganuvchilar ingliz tilini yaxshiroq o'zlashtirishgan.

■ Ularning motivatsiyasi va darslarga qiziqishi oshgan.

■ Madaniyatlararo kompetensiya rivojlanib, o'rganuvchilar bag'rikenglik va empatiya bilan

muloqot qilishni o'rgangan.

■ Shaxsiy qadriyatlar shakllangan, bu esa nafaqat tilni, balki hayotiy kompetensiyalarni ham rivojlantirishga yordam bergan.

Ushbu natijalar aksilogik yondashuvni xorijiy til ta'limida kengroq joriy etish lozimligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot aksilogik yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. O'rganish jarayonida an'anaviy metodlardan farqli o'laroq, o'rganuvchilarning shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlari shakllanishiga alohida e'tibor qaratildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, aksilogik yondashuv nafaqat til kompetensiyasini rivojlantirishga, balki madaniyatlararo muloqot, kommunikativ qobiliyatlar, shaxsiy va ijtimoiy motivatsiyaning oshishiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, aksilogik yondashuvni xorijiy tillarni o'qitish tizimiga joriy etish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. O'quv dasturlarini takomillashtirish: Ingliz tili bo'yicha o'quv dasturlariga aksilogik yondashuvni joriy etish zarur. O'quv materiallarini faqat til bilimlarini o'zlashtirishga emas, balki shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga ham yo'naltirish lozim.

2. Dars metodikasini innovatsion usullar bilan boyitish: Rolli o'yinlar, muammoli ta'lim, debatlar, madaniyatlararo loyihalar kabi interaktiv usullarni keng qo'llash. Til o'rganish jarayonida hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi mashg'ulotlardan foydalanish. O'rganuvchilarga ta'lim jarayonida o'z shaxsiy fikrini erkin ifodalash imkoniyatini berish.

3. O'qituvchilar malakasini oshirish: Aksilogik yondashuv bo'yicha o'qituvchilar uchun maxsus seminar va treninglar tashkil etish. O'qituvchilarga ta'lim jarayonida shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha zamonaviy metodikalarni o'rgatish. Dars jarayonida axloqiy va madaniy qadriyatlarni o'rgatish bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratish.

4. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish: Chet tilini o'qitishda interaktiv platformalar, onlayn forumlar, ta'lim ilovalari va virtual suhbatlar dan keng foydalanish. Ingliz tilida so'zlashuvchi muhitni yaratish uchun xalqaro onlayn muloqot loyihalarini tashkil etish.

5. Baholash tizimini takomillashtirish: O'quvchilarning faqat grammatik bilimlarini emas, balki kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarini ham baholash tizimini joriy etish. Til bilish darajasi nafaqat testlar bilan, balki amaliy nutq faoliyati orqali ham baholanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov, S. (2019). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim metodlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Bahodirov, N. (2021). Chet tillarini o'qitishda madaniyatlararo muloqot va aksilogik yondashuvning o'rni. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 3(1), 56-72.

3. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). New York: Pearson Education.

4. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1-47.

5. Choriyeva F, Raxmatova M. (2024). Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani. O'quv qo'llanma. Qarshi, Big Makro World nashriyoti.

6. Kramsch, C. (1998). Language and Culture. Oxford: Oxford University Press.

7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

9. Xoliqov, R. (2020). Ingliz tilini o'qitishda aksilogik yondashuvning nazariy asoslari. Pedagogika ilmiy jurnali, 5(2), 44-58.

TILNING POETIK JIHATLARI VA TARJIMA QIYINCHILIKLARI

Radjapova Intizor Egamberganovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0008-0579-4088>

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy tarjimada qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalarining sifat tahlili, ularning tarjima jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi o'rganilgan. Badiiy tasvir vositalarining tarjimada saqlanishi va transformatsiyasi masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: leksik, sintaktik, semantik va pragmatik qiyinchiliklar, badiiy tarjima, badiiy tasvir vositalari, Aliteratsiya, asonans, ritm, metafora, poetik elementlar.

Аннотация: В данной статье проведен качественный анализ художественных образных средств, используемых в художественном переводе, их значимость и эффективность в процессе перевода. Исследуются вопросы сохранения и трансформации художественных образных средств в переводе.

Ключевые слова: лексические, синтаксические, семантические и прагматические трудности, художественный перевод, художественные средства выражения, аллитерация, асонанс, ритм, метафора, поэтические элементы.

Annotation: This article presents a qualitative analysis of the artistic imagery tools used in literary translation, examining their significance and effectiveness in the translation process. The issues of preserving and transforming artistic imagery tools in translation are explored.

Keywords: lexical, syntactic, semantic, and pragmatic difficulties, literary translation, literary devices, alliteration, assonance, rhythm, metaphor, poetic elements.

Kirish: Adabiyot va she'riyatda til nafaqat muloqot vositasi, balki badiiy ifodaning asosiy qurolidir. Har bir tilda o'ziga xos fonetik ohanglar, leksik boylik, grammatik tuzilmalar va madaniy konnotatsiyalar mavjud bo'lib, ular asarning poetik qiyofasini shakllantiradi. Shu sababli, badiiy matnlarni, ayniqsa she'r va poetik nasrni tarjima qilishda tilning ushbu nozik jihatlarini hisobga olish tarjimon uchun katta sinovga aylanadi. Tarjima jarayonida muallifning lirikasi, ritmi, obrazlari va til o'yinlari yangi tilda qayta yaratilishi kerak. Biroq, tillar tizimining tafovuti, madaniy kodlarning farqliligi va badiiy vositalarning o'ziga xosligi tufayli bu ish ko'pincha murakkab qiyinchiliklarni tug'diradi. Masalan, forscha yoki arabcha g'azallardagi raviiy, qofiya va mazmun chuqurligini boshqa tilga o'tkazishda asl nusxaning estetik jihatlarini qisman yo'qolishi mumkin.

Bugungi glaballashuv jarayoni bizga tarjima amaliyoti davomida, tilning poetik jihatlarini o'rganish va undan kelib chiqadigan tarjima qiyinchiliklarini ilmiy tadqiqot etishni taqazo qilmoqda chunki bu amaliy tarjimada o'ziga xos muammolarni yaratadi, xususan; tilning leksik, sintaktik, va semantik jihatlaridagi noaniqliklar va ifodalarning xilma-xilligi kabilardir. Tilning poetik tomonlarini tadqiq qilishdan oldin bu atamaning paydo bo'lishiga nazar solamiz. Atama dastlab Arastuning «Poetika» asarida qo'llangan. Arastu o'zining mashhur «Poetika» asarida poetik san'at — she'riy navlar (janrlar) xususida to'xtalib: poetika — poeziya san'ati haqida so'z yuritgan. «Til va fikr» bobida esa nutq va fikrga tegishli hodisalarning ritorikaga aloqadorligi ta'kidlanib, uning nutq tuzish bilimlari bilan bog'liqligi e'tirof etadi. [1] Ammo olimlarning qarashlari "Aristotel nazariyasi faqatgina uning shaxsiy kuzatishlari va badiiy adabiyot asarlarini o'rganishgagina emas, balki uning zamondoshlari va undan oldin o'tgan kishilarning adabiyot nazariyasi bo'yicha olib borgan tekshirishlariga ham asoslangan". [2] degan fikrni ilgari suradi. Umuman olganda poetika nafaqat adabiyotshunoslikka aloqador bo'lib qolmasdan tilshunoslikka ham aloqadordirligi mavjuddir. Poetikaning tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlilida badiiy asarlarda ishlatiladigan maxsus iboralar va so'z boyligi tarjimaga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Tilning poetik jihati, tilni badiiy ifodalash va she'riy tilni o'rganishdir. Bunda; metafora, aliteratsiya,

metonomiya o'xshatish onamatapiya va boshqa poetik qurilmalarning tarjimaga ta'sirini tahlil qilinadi.

Misol: "I am no bird; and no net ensnares me: I am a free human being with an independent will." Jane Eyre (Chapter 23) [3]

Tarjima: "Men qush emasman; meni hech qanday to'r tutmaydi: men erkin insonman, o'z mustaqil irodam bilan."

Tahlil: Bu jumlada "I am no bird" (Men qush emasman) metaforasi ishlatilgan. Jane Eyre o'zini qushga o'xshatmaydi, chunki qush erkin, lekin u hali to'rga tushmasligi uchun mustaqil va erkin bo'lishini ta'kidlaydi. Bu metafora uning o'ziga xoslik va erkinlik istagini ko'rsatadi.

Tarjimaning mohiyati: O'zbek tiliga tarjimada "qush emasman" va "to'r tutmaydi" kabi iboralar, ingliz tilidagi metaforaning asli bo'yicha saqlangan. Ularning har biri Jeyn Eyning shaxsiy erkinlikka bo'lgan ehtiyojini, uning hech qanday cheklovlarga boy bermasligini ifodalaydi. Tarjimada nazarda tutilgan ma'no hamda uning poetik boyligi to'g'ri aks ettirilgan.

Solishtirish: Inglizcha va o'zbekcha tillarda qo'llanilishi: Ingliz tilidagi "I am no bird" metaforasi o'zbek tilida ham o'xshash shaklda, ya'ni "Men qush emasman" tarzida ishlatilgan. Bu tarjima nafaqat mazmunni, balki poetik tuzilishni ham saqlab qolgan. Va shu bilan birga poetik elementlarni ham o'zbekcha tarjimada "qush" va "to'r" so'zlari inglizcha matnning tasviri va poetik elementlarini mukammal tarzda aks ettiradi. Tarjimaning semantik ma'nosi asar mazmuni bilan uyg'un, bu esa asarning ruhini to'liq aks ettiradi.

Misol: "The cold, gray sky was a misty, melancholy stretch of gloom."

Jane Eyre (Chapter 1)

Tarjima: "Sovuq, xiralashgan osmon, tushkunlikka to'la, mistsimon, xiralashgan bir kenglik edi."

Tahlil: Inglizcha matnda "cold, gray sky" va "misty, melancholy stretch" kabi iboralarda alliteratsiya ishlatilgan. Bu yerda "c", "g", "m" harflari takrorlanishi orqali tovushlarning ohangi va tembriga alohida ahamiyat berilgan. Buning orqali osmonning xiraligini va hissiy holatni chuqurroq his qilishni ta'minlash mumkin bo'ladi.

Tarjimadagi alliteratsiya: O'zbek tilidagi tarjimada "sovuq, xiralashgan osmon" va tushkunlikka to'la, mistsimon, xiralashgan" so'zlaridagi takrorlanish, ingliz tilidagi kabi alliteratsiya yaratishga harakat qilgan, lekin ba'zi tovushlar o'zgarib ketgan. "Xiralashgan" so'zi ikki marta ishlatilgan, bu ham alliteratsiyani yaratishda yordam beradi.

Solishtirish: Inglizcha matnda "c", "g" va "m" tovushlari alliteratsiya yaratgan bo'lsa, o'zbek tilidagi tarjimadan "sovuq", "xiralashgan", "mistsimon", va "xiralashgan" so'zlaridagi tovushlar alliteratsiya yaratishga uringan. O'zbek tilida "xiralashgan" so'zi ikki marta ishlatilgan, bu orqali alliteratsiya yaratish uchun bir xil tovushni takrorlash qilingan.

Poetik tasvir: Tarjimada ham, ingliz tilidagi original matn kabi, tasvirlarning xiralashishi va tushkunlikni bildirish uchun alliteratsiya orqali atmosferaning siqilishiga qaratilgan. O'zbek tilidagi tarjima, originaldagi poetik holatni saqlab, o'ziga xos uslubni yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Misol: "Mr. Rochester stood at the window, his face hidden by a book."

Jane Eyre (Chapter 23)

Tarjima: "Janob Rochester derazada turar, uning yuzi kitob bilan berkitilgan edi."

Tahlil: Bu misolda "his face hidden by a book" iborasida metonimiya ishlatilgan. Bu yerda "kitob" to'g'ridan-to'g'ri yuzni yashirishning vositasi sifatida ishlatilgan, ammo kitob aslida yuzni emas, balki uning yashirinish vositasini bildiradi. Metonimiya bu holatda kitob orqali, yuzni yashirishni bildiradi, ya'ni kitob yuzning o'rnini bosadi. Bu holatda kitob, bir jihatdan, insonning yuzini yoki tashqi ko'rinishini ifodalovchi vosita sifatida ishlatilgan.

Solishtirish: Inglizcha matnda kitobning yuzni yashirishi metonimiyaning yaxshi misoli bo'lsa, o'zbekcha tarjimada bu ma'no saqlanib qolgan. Tarjimada "kitob bilan berkitilgan" iborasi, inglizcha asardagi metonimiyaning o'zgartirilmagan, uning ma'nosini aniq va to'g'ri aks ettirgan.

Tarjima jarayonida paydo bo'ladigan eng kata muammolardan biri bu badiiy tarjima jarayonida yuzaga kelishi mumkin. Bu jarayonda poetik jihatlar bilan birga boshqa bir nechta qiyinchiliklar ham yuzaga keladi. Asarlarning badiiy va madaniy kontekstlari, tilning o'ziga xos xususiyatlari tarjimonning ishini murakkablashtiradi. Tarjima jarayonida madaniyatlararo farqlar, xususan, she'riyatdagi madaniy nuanslar, idiomatik ifodalar va tarixiy kontekstlarni hisobga olish zarur. Masalan, ingliz tilidagi badiiy asarda ishlatilgan "apple pie" iborasi, o'zbek tiliga tarjima qilishda uning asl madaniy ma'nosi o'zgarishi mumkin. Bunday holatlar tarjimonni o'zgartirishga majbur qiladi shu bilan birga quyidagilarni talab qiladi.

Poetik shaklni saqlash: Tarjima jarayonida badiiy asarlarning poetik shaklini saqlash katta muammo tug'diradi. She'ning o'ziga xos ritmi, metrikasi va kuylanishi boshqa tilda shunday qayta tiklanishi mumkinmi? Badiiy tarjimadagi bu muammoni yengish uchun tarjimon har doim ham badiiy erkinlikka ega bo'lmasligi mumkin, chunki ba'zi til va madaniyatlarda ma'lum shakl va formatlar qat'iyroq bo'lishi mumkin.

Leksik va sintaktik muammolar: Tarjima jarayonida leksik va sintaktik qiyinchiliklar ham yuzaga keladi. Masalan, bir tildagi murakkab sintaktik tuzilmalar boshqa tilda soddaroq yoki qisqartirilgan shaklda ifodalangan bo'lishi mumkin. Bu holatda tarjimon sintaktik tuzilmalarni moslashtirishi, lekin asl asarning ma'no va tuzilishini saqlashi kerak.

Xulosa. Yuqorida berilganlardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin. Badiiy tarjima – bu ikki madaniyat o'rtasidagi ko'priq bo'lib, u orqali asarning go'zalligi, ma'nosi va ruhiyati yangi til auditoriyasiga yetib boradi. Tarjimon bu jarayonda na muallifga, na o'quvchiga xiyonat qilmasdan, badiiy mahorat va ilmiy yondashuvni uyg'unlashtirishi zarur. Chunki badiiy tarjima nafaqat matnni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z ko'chirish, balki asarning mohiyati, badiiyligi, madaniy jihatlari va ma'nolarini yangi til muhitida tiriltirish jarayonidir. Bu juda mas'uliyatli va ijodiy ish bo'lib, unda tarjimon nafaqat til bilimlarini, balki adabiyot, madaniyat va san'atga chuqur hamrohlik qilishi lozim. Asarning ruhiyati va ma'nosini saqlash bunda har bir badiiy asar o'ziga xos uslub, obrazlar tizimi va falsafiy yondashuvga ega. Tarjimon asarning asl nusxadagi hissiyoti, she'riyati yoki prozadagi jozibasini yangi tilga mos ravishda yetkazishi kerak. Masalan, she'riy tarjimada vazn, qofiya, obrazlarning estetik jihatlari hisobga olinadi, so'zma-so'z tarjima yetarli bo'lmaydi. Keying bosqichda madaniy kontekstni hisobga olishi kerak bunda har bir til o'ziga xos madaniy kodlar, idiomatik iboralar va tarixiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Tarjimon asarning madaniy lahzalarini yangi o'quvchilar uchun tushunarli qilishi, lekin asl mazmunini buzmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

Aristotel (1979). *Poetika*.- Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979.-B.39.

Петровский Ф.А. Аристотелнинг поэтик санъат хакидаги асари. Бухакда каранг: Аристотель. Поэтика. Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. - Б. 78.

Sharlotte Bronte "Jane Eyere"

Lotman, Yu. M. (1977). *The Structure of the Artistic Text*.

Qodirov, M. (2000). *Badiiy tarjima nazariyasi*.

Sheraliyev, O. (1995). *She'riyat san'ati*.

Mirvaliyev, S. (2010). *Adabiyotshunoslik va tarjima*.

N.D.GOLEV VA BOSHQALARNING METODOLOGIYAGA DOIR QARASHLARI TAHLILI (BADIY MATNNING FILOLOGIK EKSPERTIZASI MISOLIDA)

*Suvonov Zavqiddin Norqulovich,
Renessans ta'lim universiteti professori, filol.f.d. (DSc)*

Annotatsiya. Badiiy matnning filologik ekspertizasida maxsus metodologik tamoyil va kategoriyalarning tizimlashtirilishi va qo'llanishi – tadqiqotning natijadorligini belgilovchi mezon sanaladi.

Kalit so'z. Metodologiya, metod, metodika, badiiy matn, filologik ekspertiza, nutq va mantiq, shaxs va ruhiyat dialektikasi, lingvistik tamoyil.

Аннотация. Систематизация и применение специальных методологических принципов и категорий в филологической экспертизе художественного текста – критерий, определяющий результативность исследования.

Ключевое слово. Методология, методика, методика, художественный текст, филологическая экспертиза, речь и логика, диалектика личности и психики, языковое начало.

Annotation. The systematization and application of special methodological principles and categories in the philological examination of the artistic text – a criterion that determines the effectiveness of the study-is considered.

Key word. Methodology, method, methodology, artistic text, philological examination, speech and logic, dialectics of personality and psyche, linguistic principle.

Kirish. Badiiy matnning filologik ekspertizasida matn filologik ekspertizasining umumiy qonuniyatlari, shuningdek, tafakkur va nutq, shakl va mazmun, nutq va mantiq, shaxs va ruhiyat dialektikasida badiiy va zohiriy ma'no, nutqdagi tag ma'noni aniqlashning lingvistik tamoyillariga metodologik asos sifatida tayaniladi.

Asosiy qism. Metodologik asoslarning to'g'ri tanlanishi uzviy qo'llanishi kutilayotgan natijaning aniqligi va ahamiyatini belgilaydi. Badiiy matnning filologik ekspertizasida turli usullar qo'llanadi.

Birinchidan, tanqidiy tahlil metodi matn mazmuni, uslubi, tili va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil qilish imkonini beradi. Bu usul matnni o'qish, asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish va ularning ma'nosini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, stilistik tahlil metodi matnning uslubi va tilidan kelib chiqib tahlil qilish imkonini beradi. Bu metod matnning lug'at, grammatika, uslub va boshqa lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, tarixiy tahlil metodi matnni tarixiy kontekstdan kelib chiqib tahlil qilish imkonini beradi. Bu usul tarixiy voqealarni, matn yozilgan davr va uning mazmuni hamda uslubiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa omillarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

To'rtinchidan, qiyosiy tahlil metodi – matnni bir xil janr yoki uslubda yozilgan boshqa matnlar bilan solishtirish imkonini beruvchi usul. Bu usul matnlar orasidagi o'xshashlik va farqlarni tahlil qilish va ularning ahamiyatini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Beshinchidan, eksperimental tahlil metodi – ekspertga matn haqidagi gipotezalarni tekshirish uchun tajribalar o'tkazish imkonini beruvchi metod. Bu usul so'rov, tajriba va ekspertga matn va uning ma'nosini tushunishga yordam beradigan boshqa tadqiqotlar o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Oltinchidan, kriminalistik tahlil metodi – umuminsoniy qadriyatlarga zid va qoralanadigan g'ayriinsoniy va g'ayriqonuniy g'oyalarni targ'ib qilish, g'ayriilmiy qarashlarni ilgari surish yoki

ilmiy haqiqatni buzib tasvirlash kabi holatlarni aniqlashda qo'llanadi [1]. Ushbu usullarning har biri badiiy matnni filologik tekshirishning maqsad va vazifalariga qarab qo'llanilishi mumkin.

Badiiy matn filologik ekspertizasi vazifalari har qanday nutq mahsulotlarining, ya'ni matn yoki nutq materiallarining vaziyatdan kelib chiqib, kontekstdagi ma'no va uni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan asosiy xususiyatlari batafsil muhokamaga sabab bo'ladi. Badiiy matnning filologik ekspertizasida axborot obyektlarining ma'nosi va boshqa parametrlarini birdan cheksiz hajmgacha bo'lgan so'zlarni o'rganish mumkin. Badiiy matn turli vaziyat va holatlarni ko'rib chiqish, o'rganish, talqin etish va malakali yordam ko'rsatishda ahamiyatli.

Badiiy matn filologik ekspertizasining tashxisi sifatida quyidagi vazifalarni ko'rsatish mumkin:

- til me'yorlariga amal qilish;
- badiiy matndagi betakrorlik va individuallik;
- badiiy matn ma'nosi: salbiy yoki ijobiylik xususiyati;
- o'zbek tili va boshqa tillarning boyish manbalari bilan bahsli so'zning (so'z birikmalarining) etimologik, evolyutsion va assotsiativ tizim aloqalaridagi farqlar;
- ismning chalg'ituvchanlik xususiyati;
- dushmanlik, zo'ravonlik va boshqa qonunbuzarliklarning nomlanishdagi aniq yoki yashirin targ'ibot.

Badiiy matn filologik ekspertizasining identifikatsiya vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi: taqqoslanadigan umumiy xususiyatlarning grafik, semantik, fonetik, stilistik yoki boshqa jihatdan o'xshashligi;

badiiy matn ekspertizasi o'rganadigan turli xil nomlanishlarning identifikatori (biz o'xshash deb atasak ham bo'lar).

Sud-lingvistik ekspert tadqiqotida esa audio materiallar, fayl va videolar muammoni hal qilish uchun yordam beradi. Bular quyidagilarda ko'rinadi:

- fonoskopik tekshirish;
- audio va video yozuvlarni tekshirish;
- texnik ko'rikdan o'tkazish;
- psixologik va filologik ekspertizadan o'tkazish;
- kompyuter-texnik ekspertizasi kabi.

Badiiy asarining mazmuni – semantik va formal jihatini lingvistik tahlil qilish tegishli qonun me'yorida nazarda tutilgan o'ziga xos g'ayriqonuniy belgilarga kiruvchi og'zaki va yozma konstruksiyalar hamda lisoniy birliklarni aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi.

Badiiy matnning filologik ekspertizasi nima? Bu og'zaki yoki yozma badiiy matnni jarayon nuqtai nazaridan tartibga soladigan lingvistik o'rganishdir. Tekshirish natijasi tilshunoslik va badiiy nutqda maxsus bilimlardan foydalanishni talab qiladigan masalalar bo'yicha xulosa beradi. Badiiy matn ekspertizasining predmeti tilshunoslik sohasida maxsus bilimlarni talab qiladigan muammolarni hal qilish orqali muayyan isbot talab qiladigan holatlarni belgilash.

Badiiy matn filologik ekspertizasi obyektlari badiiy matn, tafakkur va nutq, shakl va mazmun, nutq va mantiq, shaxs va ruhiyat dialektikasida badiiy va zohiriy ma'no, nutqdagi tag ma'noni aniqlashning lingvistik tamoyillari til va nutq birliklari, har qanday moddiy muhitda taqdim etilgan matnlar.

Badiiy matn filologik ekspertizasining vazifalari:

- so'zlar, barqaror frazeologik iboralar ma'nolarini etimologik jihatdan izohlash va tushuntirish;
- lisoniy birlik yoki nutq birligining asosiy va qo'shimcha (konnotativ) og'zaki yoki yozma ma'nosini izohlash;

- adabiy nutqda me'yorlarni tushunishning qanday variantlari mavjudligini aniqlash uchun hujjat matni qoidalarini talqin qilish;

- badiiy asarda aks etgan savdo belgilari, shiorlar, reklama matnlari, tijorat, tovar nomlarini identifikatsiyalash yoki boshqa belgilar bilan chalkashlik darajasini analogik o'rganish;

- matnning (fragmenti) semantik yo'nalishini, qilingan takliflarning modalligini, nutq

birliklarining ekspressivligi va emotsionalligini, ularning rasmiy va grammatik xususiyatlari hamda semantikasini, ishlatilgan uslubiy vositalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun o'rganish.

Badiiy matn filologik ekspertizasiga quyidagi holatlarda zarurat paydo bo'ladi:

mantiqan buzilgan matn mohiyatini ochishda;

huquqni muhofaza qilish organlarining yozma matn orqali axloqiy jihatdan sodir etilgan jinoyatlarni oshkor qilishda;

badiiy asar qahramonlarining tuhmat, haqorat, nafrat va adovatni qo'zg'atish jarayonida, shuningdek, personajning har qanday milliy, diniy yoki boshqa ijtimoiy guruhga mansubligi sababli inson qadr-qimmati, bundan tashqari, jinsiy, etnik jihatdan kamsitilish holatlarida;

badiiy matndagi savdo belgisi, ataylab soxta reklama, mualliflik huquqining buzilishi va turdosh huquqlar, ixtirochilik va patent huquqlari, adabiyotda pornografik materiallarning noqonuniy targ'iboti va boshqalar;

matnda xalq manfaati, sha'ni, qadr-qimmati, shuningdek, fuqarolarning ishbilarmonlik obro'sini himoya qilishda;

mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishda;

adabiy asarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni yoki ularning muqobillarini targ'ib qilish kabi.

Badiiy matnni filologik ekspertiza qilish va uni uslubiy jihatdan tekshirish, mavjud ekspert metodlari orqali hamda ularni takomillashtirish asnosida yo'nalish hamda takliflarni ko'rib chiqishga ham zarurat bor.

Badiiy matnning filologik ekspertizasida maxsus metodologik tamoyil va kategoriyalarning tizimlashtirilishi va qo'llanilishi muammosini filologik ekspertizaning eng muhim va hal qilinmagan masalalaridan biri, desak ham bo'ladi. Bunda badiiy matn uchun filologik ekspertiza o'tkazish amaliyoti, xususan, o'z-o'zidan, individual va subyektiv ravishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Soha mutaxassislari (tilshunos, adabiyotshunos, jurnalistlar) bir tomondan badiiy matnning filologik va kundalik holatiga, yana bir jihatdan esa badiiy adabiyot va matbuotdagi huquqshunoslik sohasi bilimlariga tayanadi. Bularni ham e'tibordan qochirmaslik zarur. Ammo shunga qaramay, badiiy matnning filologik ekspertizasiga ehtiyoj ortgandan-ortib bormoqda. Shu bilan birga, barcha ishtirokchilar uchun sud jarayoni bosqichlarida yagona "o'yin qoidalari"ga talab kuchaymoqda. Bu jarayonlar uchun maxsus metodlar ishlab chiqilmaganligi seziladi. Bu esa, da'vogar va sudlanuvchilarning (muallif va tanqidchi) ekspert baholaridan noroziligini keltirib chiqarishi aniq. Shu sabab bu jarayonlarning ko'pchiligi bir necha urinishlar bo'lgani bilan kechiktiriladi va keyinga qoldirib kelinadi hamda qaytadan ko'rib chiqilishga majbur bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "jamoatchilik huquq-targ'ibot sohasidagi ziddiyatli lingvistik vaziyatlarni huquqiy nuqtayi nazardan baholashning umumiy tamoyillarini samarali tarzda birlashtira oladigan huquqiy filologik ekspertizaning o'ziga xos metodologiyasini ishlab chiqishi zarur"[2].

Badiiy matnni tekshirishda metodologiya muammosi haqida gap borar ekan, bir narsani esdan chiqarmaslik zarur. U o'qish, tushunish, ma'nosini bilish, badiiy zavq olish uchun yozilgan badiiy san'at asari. Bu ma'lum ma'noda asar muallifida tug'ma iste'dod bo'lishini talab qiladi va, hattoki, yaratilajak qahramonlarning hammuallifi bo'lishi hamda ular bilan bilvosita teng shartlarda muloqotga, dialogga kirishishiga to'g'ri keladi. Bunda metodika – bu mavzuni o'rganish yo'llari va strategiyalari hamda jarayonni o'rgatish. Metodologiya esa – insonning voqelikni, jarayonni o'zgartirish usullarini aniqlash, o'rganish va tashkil etish. Sistemaviy yaxlitlikni taminlash va rivojlantirishga qaratilgan aqliy faoliyat turi. Metodlarni qo'llash va ulardan foydalanish inson faoliyatining har qanday sohasida amalga oshiriladi. Bu har qanday soha doirasida ko'rilgan va tajribada qo'llangan hodisa. Ammo metodologiya termini tekshirish usullarini izlash, ishlab chiqish va tizimlashtirishda nafaqat vosita, balki asosiy maqsad va natijasi hisoblanadi.

Metodologiya ikki yo'nalishda aks etishi mumkin. Ham nazariy, ham falsafiy bilimlar va amaliy muammolarni hal qilish; dunyoni maqsadli o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Har qanday sharoitda nazariy fikr bilim modeliga intiladi va tayanadi. Amaliy tafakkur esa dastur-choralar, kerakli amaliy maqsadga erishish, haqiqatdan adashmaslik yoki biz ishonchli bilim deb hisoblagan usullar to'plami. Badiiy matnni tekshirish usulining sifati amaliyot bilan bog'liq hodisa. Ilmiy va amaliy muammolarni hal qilish real holatlar to'plamida amalga oshiriladi hamda maqsadga erishish qonuniyatlarini izlash orqali ekspertizadan o'tkaziladi.

Metodologiyada quyidagilar ahamiyatli [3]:

faoliyatning xususiyatlari: tamoyillari, shartlari, me'yorlari;

faoliyatning mantiqiy tuzilishi: subyekt va obyekt;

faoliyatning vaqtinchalik tuzilishi: bosqichma-bosqich borishi, jarayon;

ishni bajarish va muammolarni hal qilish texnologiyasi: vositalar, usullar;

Xulosa. Metodologiya ham substansial ham formal jihatdan o'rganiladi. Metodologiya substansial jihatdan qonuniyatlarni, nazariyalarni, ilmiylikni, ilmiy xarakterdagi mezonlarni va qo'llaniladigan tadqiqot metodlari sistemasini o'rganadi. Formal metodologiya esa tadqiqot usullarini mantiqiy tuzilish va nazariy bilimlarni qurishda rasmiylashtirilgan yondashuvlar, uning haqiqiy hamda asosli ekani nuqtayi nazaridan tahlil qilish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Голев Н.Д. Динамический аспект лексической мотивации. - Томск, 1989.
2. Голев Н.Д. О соотношении лексического и словообразовательного аспектов при описании мотивированных слов в системе и тексте. - Томск, 1989.
3. Баранов Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика.: Flinta, Nauka, 2007.

SA'DULLA SIYOYEVNING "AHMAD YASSAVIY" TARIXIY ROMANIDA MILLIY KOLORITNING AKS ETISHI

Tosheva Nilufar

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" tarixiy romanidagi milliy kolorit ifodasining badiiy va tarixiy jihatlarini chuqur tahlil qilinadi. Muallifning tarixiy shaxs – shayx Ahmad Yassaviy obrazini yaratishdagi badiiy mahorati, o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlarini, diniy-madaniy hayoti, xalqona nutq va folklor elementlari orqali milliy koloritni muvaffaqiyatli ifoda etgani yoritiladi. Roman voqealarining tarixiy asoslari, qahramonlarning ruhiy dunyosi, o'ziga xosliklari va milliy ruh uyg'unligi adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, milliy kolorit, badiiy obraz, diniy-ma'rifiy meros, folklor, tasavvuf, tarixiylik, milliy identitet.

Sa'dulla Siyoyev (1939–2016) – o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri, O'zbekiston xalq yozuvchisi, ko'plab tarixiy-biografik romanlar muallifi. U «Jaloliddin Manguberdi», «Amir Temur», «Mirzo Ulug'bek», «Zangi ota», «Ahmad Yassaviy» singari tarixiy asarlar orqali milliy tariximizni badiiy timsollarda gavdalantirishga erishgan. Siyoyev ijodining asosiy yo'nalishi – milliy o'zlikni, tarixiy shaxsiyatlarni badiiy talqinda aks ettirish va ularning zamonaviy o'quvchi ruhiyatiga ta'sirini kuchaytirishdir. U shuningdek, xalq tilining badiiy imkoniyatlaridan, maqol va matallar, afsonaviy tafakkur dunyosidan mahorat bilan foydalangan yozuvchilardan biridir. Ayniqsa, diniy-ma'rifiy ong va tasavvufiy tafakkurga e'tibor siyoyev ijodining muhim jihatlaridandir.

Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" tarixiy romani 2014-yilda "Sharq" nashriyotida chop etilgan bo'lib, muallifning ko'p yillik izlanishlari, tarixiy manbalarni chuqur o'rganishi natijasida yuzaga kelgan sarmazmun asardir. Ushbu roman o'zbek tarixiy roman janrining mukammal namunalaridan biri sifatida qadrlanadi. Romanda XI–XII asrlarda yashagan buyuk alloma, mutasavvif, hikmatgo'y shoir Ahmad Yassaviyning hayoti, ma'rifiy faoliyati, diniy-falsafiy qarashlari, shogirdlari bilan bo'lgan munosabatlari, xalq orasidagi obro'-e'tibori badiiy obrazlar orqali chuqur ifoda etilgan.

Ahmad Yassaviy (taxm. 1103–1166) – turkiy xalqlar orasida keng tanilgan buyuk mutasavvif, shoir, "Devoni Hikmat" asari muallifi. U Turkistonda yashab ijod qilgan, islom dinini turkiy xalqlar orasida o'ziga xos so'fiyona ruhda targ'ib etgan. Yassaviy tariqati keyinchalik butun Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston, Anadolu va boshqa hududlarda keng yoyilgan.

Ahmad Yassaviy siymosi – faqat tarixiy shaxs emas, balki butun turkiy islom madaniyatining ma'naviy yo'lbo'shchisi sifatida badiiy asarlar, rivoyatlar va ilmiy tadqiqotlar orqali hozirgacha yashab kelmoqda. Uning haqida yozilgan romanlar, she'rlar, maqolalar, monografiyalar, ziyoratlar va xalq rivoyatlari ko'lamida Yassaviy butun bir xalqning ruhiy, axloqiy va estetik xotirasida chuqur joy egallagan. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat kabi shoirlar o'z asarlarida Yassaviy siymosini bevosita yoki ramziy shaklda tilga olganlar. Xususan, Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Ahmad Yassaviyni ulug' orif sifatida tilga oladi.

Bu mavzu o'zbek adabiyotshunosligi, tarixshunosligi va diniy-falsafiy tafakkur tadqiqotlarida alohida e'tiborga loyiq. Bugungi kunda Yassaviy tafakkuri faqat o'tmish emas, balki hozirgi jamiyatning ma'naviy uyg'onishi uchun ham dolzarb manba hisoblanadi. Ahmad Yassaviy siymosi nafaqat yozma manbalarda, balki xalq og'zaki ijodida ham keng tarqalgan. U haqda asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib kelayotgan rivoyatlar, afsonalar, hikoyatlar mavjud. Ularning ba'zilarida haqiqat bilan ramziylik qo'shib ketgan bo'lsa-da, ular xalq ruhiyatidagi yuksak e'tiqodni aks ettiradi. Mashhur rivoyatlardan ayrimlari:

- 40 yilda 40 hikmat: Rivoyatlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy har yili bir dona hikmat yozgan. Ular soni 40 ga yetgach, ilohiy ilhom to'xtagan. Bu orqali har bir hikmat yillar sinovidan o'tgan donolik timsoli sifatida qoraladi;

- Yassaviy va Arslonbob uchrashuvi: Rivoyatlarda aytilishicha, Arslonbob Yassaviyga murshidlik qilgan, unga hikmat yo'lining sirlarini ochgan. Bu rivoyat xalq ongida ustoz-murid, ruhiy kamolot an'analarini mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi;

- Tepalikda yashash: Ba'zi rivoyatlarda aytilishicha, Yassaviy 63 yoshga yetgach, Payg'ambar umrini tugatganini anglatuvchi ramz sifatida yer ostidagi xonada yashab, jismoniy hayotni cheklab, faqat ruhiy hayotga intilgan. Bu rivoyat tasavvufiy zohidlik timsoli sifatida ko'riladi;

- Nur taratgan qabriston: Turkiston yaqinidagi maqbaraga bog'liq ravishda, Ahmad Yassaviy yotgan joydan nur chiqqani, u ziyorat qilinganida ko'ngil poklanishi haqidagi rivoyatlar hali-hanuz xalq orasida mashhur. Ahmad Yassaviy merosi haqida ko'plab adabiyotshunoslar, tarixchilar, islomshunoslar chuqur tadqiqotlar olib borgan.

S.Siyoyev bu tarixiy shaxsni roman doirasida qayta badiiy talqin qiladi. Prototipga sodiqlikni saqlagan holda, u Yassaviyning bolaligi, tasavvufga kirish davri, Arslonbob shayx bilan uchrashuvi, hikmat yo'lida topgan ruhiy tajribalarini chuqur tahlil qiladi. Romanda hikmatlar, tarixiy rivoyatlar, diniy-falsafiy tahlillar orqali prototipning ruhiy o'sish yo'li badiiy jihatdan chizilgan.

Asar voqealari Yassaviyning tug'ilishi, otasi Shayx Ibrohim, onasi Aisha xotun bilan bog'liq voqealardan boshlanadi. Muallif romanni shunchaki tarixiy xotiralar to'plami emas, balki badiiy-falsafiy jarayon sifatida olib boradi. Ahmadning bolalikdagi orifona tushunchalari, Arslonbob shayx bilan uchrashuvi, tasavvuf yo'lini tanlashi, xalq orasida tarbiya va hikmat targ'iboti bilan shug'ullanishi roman syujetining asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Romanning asosiy qismi Ahmad Yassaviy hayotining Toshkent, Yassiqo'rg'on, Buxoro, Termiz, Turkiston va boshqa muqaddas makonlar bilan bog'liq tarixiy-geografik manzaralarida kechadi. Bu joylarning o'ziga xos iqlimi, xalq urf-odatlarini, diniy hayoti asarda chuqur tasvir etilgan. Shu orqali muallif o'quvchini nafaqat tarixiy shaxs hayotiga, balki o'sha davrdagi jamiyat manzarasiga ham sho'ng'iradi.

Roman syujetida diniy qarama-qarshiliklar, tariqatlararo nizolar, shayxlar va amaldorlar o'rtasidagi munosabatlar, dunyoviy hukmdorlarning tasavvufga munosabati ham o'z aksini topgan. Ayniqsa, Arslonbob, Shayx Sulaymon, Xoja Ubaydulloh, muridlar – Yassaviy atrofidagi ruhiy va diniy muhitni shakllantiruvchi obrazlar sifatida syujetda muhim o'rin egallaydi. Yassaviy shaxsi orqali muallif axloqiy poklik, sabr-toqat, xalqparvarlik, ruhiy yuksalish kabi g'oyalarni ilgari suradi. Asarning badiiy fazilatlaridan biri shuki, u nafaqat tarixiy bilim, balki ruhiy-ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ham o'quvchini tarbiyalaydi. Ahmad Yassaviy siymosidagi ma'rifatparvarlik, hikmatgo'ylik va oriflik timsollari o'zbek adabiy tafakkurida yangi badiiy paradigma yaratadi.

Muallif roman ustida ishlashda turli tarixiy va diniy manbalardan – xususan, “Risolai Sulton Shayx Ahmad Yassaviy”, “Tazkirat ul-avliyo”, “Maktubat”, “Diwani Hikmat”, xalq og'zaki ijodi namunalari va ziyoratgohlar haqidagi afsonaviy manbalardan keng foydalangan. Shu jihatdan roman tarixiy haqiqat va badiiy talqinning uzviy uyg'unligi namunasi bo'lib xizmat qiladi. Romandagi asosiy qahramonlar – Shayx Ahmad Yassaviy, Arslonbob, Shayx Sulaymon, Xoja Ubaydulloh, muridlar, amaldorlar, oddiy xalq vakillari – barchasi o'ziga xos ruhiy olam va nutq uslubiga ega. Yozuvchi har bir obrazning nutqini ularning ijtimoiy maqomi, ma'naviy yetukligi va hayotiy tajribasiga qarab uslubiy jihatdan farqlaydi.

Ahmad Yassaviyning nutqi ko'proq sokin, falsafiy, aforistik iboralar bilan to'yingan: “Ko'ngil bu – Xudoning uyidir. Uni g'azab, hasad, yomonlik bilan iflos qilmoq – Xudo mehri bilan o'ynashmoqdir”. Bu kabi nutqiy tuzilmalar qahramonning ruhiy yetukligini, oriflik maqomini, ichki pokligini aks ettiradi. Shuningdek, xalq vakillari tili oddiy, obrazli va xalqona: “Ey Xoja, siz aytgan hikmat yuragimni yondirdi. Biz anglamagan narsani siz ochdingiz.”

Shu tarzda, nutq uslublari romandagi ijtimoiy qatlamlar, diniy-falsafiy tushunchalar, obrazlarning ichki holati bilan uzviy bog'liq holda ishlangan. “...Arslonbob shayx unga qattiq

boqdi: ‘Ko‘nglingni pok qil. Nafsingni tark etmasang, hikmat seni tark etadi. Nafs bilan yo‘l yurilmas. Yo muridlik qil, yo nafsingning quli bo‘l. Bu yo‘lda ikkovi birga yurmaydi!’ Ahmad boshi egilgancha jim qoldi. Quloqlari eshitganini qalbi tasdiqlayotgan edi. Bu lahza uning ichki qaytishi edi. O‘zidan qutulmoq, o‘ziga yetmoq... Shu on, hikmat yo‘li boshlangan edi.”

Bu o‘rin asarning ruhiy-falsafiy markazida turadi. Bu yerda ko‘plab yuksak badiiy vositalar: qarama-qarshilik (nafs–hikmat), murabbiy va murid o‘rtasidagi ruhiy uzviylik, ichki ziddiyat, sokin taslim holati badiiy jihatdan kuchli aks etgan. Arslonbob shayxning so‘zlari – aniq, keskin va ruhiy jihatdan ta’sirli. Bu qahramonning karizmasini, ruhiy yetukligini ochib beradi.

Ahmadning javob bermasligi, jim turishi, “bosshi egilgancha” qolishi – bu muridning ichki monologi, ichki o‘zgarishini badiiy ifoda qiladi. Romandagi ko‘plab sahnalarda ana shunday ruhiy introspektiv holatlar qahramon xarakterini ochish vositasi sifatida ishlatilgan. Ahmad Yassaviy faqat tashqi harakatda emas, balki ichki kechinmalarida, ichki o‘zgarishlarida hayotga yetuk nigoh bilan qaraydi.

Sa’dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanini yozuvchining o‘z asarlari – masalan, “Jaloliddin Manguberdi” yoki “Amir Temur”, hamda Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” kabi tarixiy romanlari bilan qiyoslaganda, bir qator umumiylik va farqlar ko‘zga tashlanadi:

Mezoni	S.Siyoyev – “Ahmad Yassaviy”	A.Qodiriy – “O‘tkan kunlar”	P.Qodirov – “Yulduzli tunlar”
Asosiy qahramon	Diniy-ruhoniylar shaxs (shayx)	Dunyoviy-intellektual shaxs	Intellektual va siyosiy arbob
Markaziy mavzu	Tasavvuf, ruhiy yuksalish	Ijtimoiy adolat, muhabbat	Milliy uyg‘onish, ma’rifat
Tarixiylik	Manbalarga tayangan, so‘fiylik asosida	Ijtimoiy-tarixiy haqiqat bilan aralash	Ilmiy-tarixiy asosli roman
Kolorit	Din, urf-odat, hikmatlar, rivoyatlar	Xalq hayoti, urf-odatlar, konflikt	Siyosiy-falsafiy kolorit

Milliy koloritning badiiy ifodasi

Milliy kolorit – bu asarda tasvirlanayotgan xalqning madaniy xususiyatlari, urf-odatlari, dunyoqarashi, estetik qadriyatlar, til boyligi va ruhiy-axloqiy olamining badiiy ifodasi bo‘lib, adabiy asarning milliy ruhini ta’minlovchi asosiy komponentlaridan biridir. Sa’dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanida milliy kolorit muallifning estetik kontsepsiyasida markaziy o‘rin tutadi va bu hol roman matnining tuzilmasiga chuqur singgan.

Koloritning eng asosiy va sezilarli elementi bu – lingvistik ifoda vositalaridir. Siyoyev roman tilida xalqona iboralar, maqollar, hikmatlar, qadimiy turkiy va arabiy-forsiy so‘zlardan mahorat bilan foydalanadi. Ushbu so‘zlar va iboralar oddiy ma’lumotni yetkazish vositasi emas, balki obraz va ruhiyat yaratuvchisidir. Masalan, “nafsnı yengmoq – o‘zini topmoqdir”, “hikmat – qalbning nuri”, “tavozelikda poklik bor” kabi iboralar o‘zbek xalqining hayotiy falsafasini ifodalovchi, avloddan-avlodga o‘tib kelgan hikmatli so‘zlardir. Ular o‘quvchini o‘z millatining og‘zaki ijodiy

xazinasiga qaytaradi, zamonaviy tafakkurda ham qadimiy donishmandlikni his etishga undaydi.

Romanda turkiy soʻzlar (masalan: koʻngil, yurak, sabr, hikmat, orif) bilan bir qatorda arabiy (masalan: zikr, nafs, murshid, marifat, maqom) va forsiy (dasturxon, sahro, zohid, ruhoniylar) soʻzlar mohirona uygʻunlashtirilgan. Bu esa oʻzbek tilining tarixiy qatlamlarini, diniy-maʼrifiy til strukturasi, tasavvufiy dunyoqarash tilini badiiy matnda jonlantiradi. Dialoglar, nutqiy kechinmalar va ruhiy mulohazalar turli tildagi qatlamlarni oʻz ichiga olganligi bilan koloritni yanada boyitadi.

Milliy koloritni taʼminlovchi yana bir kuchli qatlam bu – xalq ogʻzaki ijodi elementlaridir. Roman matnida xalq orasida saqlanib qolgan rivoyatlar, afsonalar, timsollar, ramziy tushlar va ertaklarga xos unsurlar badiiy-folklor kontekstida ishlatilgan. Masalan, Ahmad Yassaviyning bolaligida koʻrgan tushlari, ulugʻ zotlar bilan ruhiy uchrashuvlari, “yorugʻ nur”, “qaldirgʻ och qush”, “shamol kabi kelgan ovoz” timsollarining tasviri orqali muallif xalq orasida asrlar davomida shakllangan diniy-estetik fikr va qarashlarni badiiy shaklda ifodalaydi. Bu jihatlari Yassaviy obrazining muqaddaslik darajasiga koʻtarilishiga xizmat qiladi.

Roman strukturasi keng oʻrin olgan qadimiy marosimlar, diniy amaliyotlar, soʻfiyona muhit ham milliy koloritning muhim ifodalaridandir. Masjid ichidagi sajdagoh holatlari, zikr qilish marosimlari, muridlar va murshidlar oʻrtasidagi odob qoidalari, ziyoratgohlar bilan bogʻliq muqaddas tushunchalar asarda tafsilotlar bilan yoritilgan. Masalan, Yassaviy muridlariga hikmat aytayotgan holatida tasvirlangan ruhiy hushyorlik, din peshvolarining soʻkin ohangdagi nasihatlar, zikr paytidagi ichki tozalanish jarayoni — bular oʻzbek xalqining ichki dunyoqarashi va ruhiy qadriyatlariga sodiqligini koʻrsatadi.

Yana bir qatlam bu – milliy-madaniy atributlarning badiiy tasviri. Muallif joy nomlari, tarixiy shaharlar, ziyoratgohlar, kiyim-kechak turlari (masalan: zunnor, doʻppi, salla, joma), milliy taomlar (masalan: qatiqli osh, guruchli palov), turmush buyumlari (sandal, kulcha, togʻ ora) va kundalik hayotga xos detallarni mohirlik bilan tasvirlaydi. Bular milliy muhitni yaratishda beqiyos vosita sifatida xizmat qiladi. Ziyorat marosimi chogʻida dasturxon atrofida kechadigan suhbatlar, osh tarqatish odobi, shayx oldida ehtirom bilan soʻzlashish holatlari oʻzbek xalqining qadimiy mehmondoʻstligi, axloqiy eʼtiqodi va jamiyatiy tartibiga urgʻu beradi.

Muallif xotira, til va dinni milliy koloritning bir butun estetik tizimiga aylantiradi. Yassaviy hikmatlari – bu til orqali ruhiy intizomga olib boruvchi vosita. Bu hikmatlarning roman matnida joy olishi esa koloritni kuchaytiruvchi yana bir noziklikdir. Masalan, “Koʻngilni yomonlikdan forigʻ etmoq – ibodatdan ulugʻ amal” kabi fikrlar milliy dunyoqarashning estetik darajadagi ifodalaridir. Milliy kolorit faqat fon yoki bezak emas, balki romandagi badiiy-falsafiy strukturaning ajralmas qismidir. Kolorit roman gʻoyasini shakllantiradi, qahramonlarning ichki dunyosini tushuntiradi, zamon manzarasini beradi va oʻquvchining milliy ongini uygʻotadi. Shu jihatdan Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanida milliy kolorit – ruhiy, lingvistik va estetik jihatdan mukammal darajada ifoda etilgan badiiy vositadir.

Несомненный интерес пословицы представляют в этом отношении для лингвострановедения и, следовательно, для лингводидактики, в частности, для методики преподавания языка (как родного, так и неродного, иностранного). Дело в том, что пословицы наряду с другими так называемыми «строевыми единицами языка»: словами, фразеологизмами, поговорками, крылатыми выражениями (в узком смысле афоризмами) и др. – отражают, фиксируют и передают от поколения к поколению народную мудрость, особенности быта и обычаев народа, его фольклора, культуры, истории, специфику уклада его жизни, развития его страны и т.п. страноведческую информацию, которую тот, кто изучает язык данного народа, должен знать и распознавать. Например, русская пословица В чужой монастырь со своим уставом не ходят употребляется в значении «В гостях (или где-либо не у себя дома) подчиняются тем правилам, порядкам и обычаям, которые там существуют, свои порядки не устанавливают. Используется в случаях, когда кто-либо вмешивается не в свое дело, стараясь изменить его по-своему. Эта пословица берет свое начало из того времени, когда на Руси появились первые монастыри (XI в.). Каждый монастырь имел свой свод правил, которым подчинялись и руководствовались все живущие в данном монастыре. Этот свод правил назывался уставом, ему обязаны были подчиняться все, кто приходил в этот монастырь. Узбекская пословица Новвой чақиришга ҳам кекирдок керак (И пекаря звать нужна глотка) используется в значении «Эту работу сделать нелегко, нужно на нее потратить много сил». Говорится в случаях, когда хотят выразить свою усталость от выполнения какой-либо работы и непосильность ее дальше продолжать. Пословица восходит к тем временам, когда на городских ярмарках (базарах) пекари с корзинкой хлеба на голове прохаживали сквозь густую толпу людей и кричали «Горячий хлеб, пахучий хлеб». Тот, кто в этой толпе людей хотел купить хлеб, должен был очень громко окликать продавца «Пекарь, эй пекарь», чтобы тот услышал его и остановился.

Как пишут В.Г. Костомаров и Е.М. Верещагин, языковые афоризмы (имеются в виду афоризмы в широком значении слова, в том числе и пословицы) обладают страноведческой ценностью, которая проявляется в том, что, во-первых, они «отражают национальную культуру нерасчлененно, комплексно, всеми своими элементами, взятыми вместе, т.е. как цельные знаки. Например, как знак ситуации пословица В Тулу со своим самоваром не ездят имеет смысл: «с собой не следует брать то, чем славится то место, куда направляются» (см. стр.35). Во-вторых, афоризмы отражают национально-культурный компонент языка единицами своего состава: национальны и топоним Тула, и реалия самовар, а сама фраза в буквальном прочтении покоится на фоновом, т.е. общем, знании всех русских, на знании того факта, что до революции лучшие самовары изготавливались в городе Туле» (Фелицына, Прохоров, 1988, с.9). Узбекская пословица Бош омон бўлса, дўппи топилади (Голова будет цела – тюбетейка найдется) означает, что самое главное богатство для человека – это его здоровье. Если есть здоровье, все остальное можно найти, однако здоровье ничто иное не может найти или вернуть. Национально-культурный компонент в пословице выражается реалией тюбетейка. Тюбетейка – национальный головной убор народов Средней Азии, который еще в недавнем прошлом каждый считал себя обязанным носить.

Языковые значения афоризмов, передающие национально-культурный компонент языка, В.Г. Костомаров и Е.М. Верещагин называют национально-культурной семантикой (Фелицына, Прохоров, 1988, с.4).

Национально-культурная семантика пословиц, предопределяющая их страноведческую

ценность, зачастую мотивируется безэквивалентными и фоновыми словами в составе пословиц (Фелицына, Прохоров, 1988, с.4). Например, в пословице На чужой каравай рот не разевай (т.е. на чужое не рассчитывай, не надейся получить то, что принадлежит не тебе) слово каравай выступает безэквивалентной лексемой, которая несет в себе национально-культурную семантику «большой хлеб круглой формы. Каравай – древний обрядовый хлеб. Он непременно был на свадьбе и являлся символом благосостояния молодой семьи». Сравните безэквивалентные лексемы в составе следующих узбекских пословиц: Тому, кто просит испить айрана, не жалей и ведра (айран – напиток из молока); У жадного хурджун переполнится, а глаза сыты не будут (хурджун – переметная сума).

В целом, можно выделить следующие группы безэквивалентных и фоновых слов в составе пословиц, представляющих особый интерес для лингвострановедения:

слова, характеризующие определенную эпоху и реалии нового быта. Например: великий почин, красная суббота, путевка в жизнь; камзул (Камзул мурсаги билан ярашиқ, лозим – куйлаги билан), Саккизинчи март (Саккизинчи март – паранжисин торт);

наименования предметов и явлений национального традиционного быта. Например: Кашу маслом не испортишь. Не всякое лыко в строку. Старого воробья на мякине не проведешь; Боғбоннинг уйқуси – шиннидан ширин. Туйдан олдин ногора қоқма. Бойнинг паловидан камбағалнинг шўрваси қимматга тушади;

слова, обозначающие предметы и явления предшествующих исторических периодов. Например: Не было ни гроша, да вдруг алтын. Не все коту масленица. За морем телушка – полушка, да рубль перевоз; Тўрамга салом бердим, тўрт танга товон бердим. Айланай саллам сендан, ҳеч ким гумон этмас мендан. Амир бўлса тамагир, на товук қолур, на кулонкир;

стилистически окрашенные слова. Например: Вашими (твоими) бы устами да мед пить. Из огня да в полымя; Амри падар – Аршдан аёло. Балчикка тош отсанг, бетингга сачрайди;

личные имена собственные. Например: Мели, Емеля, твоя неделя; Бир қўйлиқни минг қўйлиқ қилган – Арслоннинг ери, минг қўйлиқни бир қўйлиқ қилган – Арслондининг ели. Сувдан ўтганча ё Баҳовуддин, сувдан ўтгач, қоч Баҳовуддин;

зоонимы, имена-клички животных. Например: А Васька ест да слушает; Давлат қуши қўнса чивин бошига, Семурғ келар кунда унинг қошига. Ошпичоқнинг қини йўқ, Битбилдикнинг ини йўқ;

географические названия. Например: Язык до Киева доведет; Бир қўнгил иморати – минг Макка зиерати. Мард бўлсанг Эскижўвада ҳангра; и др. (См.: Фелицына, Прохоров, 1988, с.4).

Таким образом, пословицы как объект исследования лингвострановедения изучаются в целях выявления их страноведческой ценности, т.е. рассматриваются как источник страноведческой информации.

Пословицы представляют собой богатейший лингвокультурологический материал, в них закреплены и отражаются проявления культуры народа и нации, которые, «пользуясь разными инструментами концептообразования, формируют различные картины мира, являющиеся по сути основанием национальных культур (Л. Вейсгербер)» (Маслова, 2001, с.43).

В качестве предмета исследования лингвокультурологии – научного направления, исследующего связь используемых в процессе общения языковых выражений с культурой и менталитетом народа, т.е. его массовым сознанием, традициями, обычаями и т.д. – пословицы рассматриваются как стереотипы народного сознания, измеряющие и регулирующие деятельность и поведение как отдельно взятой личности, так и коллектива в целом (Маслова, 2001, с.48).

Происхождение и функционирование каждой пословицы с лингвокультурологической точки зрения должна быть неразрывно связана с историей конкретного народа или этноса,

его культурой, бытом, моралью и т.д.

Пословица как объект исследования лингвокультурологии – это прежде всего текст. Текст для лингвокультурологов является истинным хранителем культуры: «Не язык, а текст отображает духовный мир человека. Именно текст напрямую связан с культурой, ибо он пронизан множеством культурных кодов, именно текст хранит информацию об истории, этнографии, национальной психологии, национальном поведении, т.е. обо всем, что составляет содержание культуры. Текст – набор специфических сигналов, которые автоматически вызывают у читателя, воспитанного в традициях данной культуры, не только непосредственные ассоциации, но и большое количество косвенных. В свою очередь, правила построения текста зависят от контекста культуры, в котором он возникает. Текст создается из языковых единиц низших уровней, которые при соответствующем подборе могут усилить культурный сигнал» (Маслова, 2001, с.87).

Итак, с лингвокультурологической точки зрения, пословица – культурный текст, в котором содержится культурная информация: культурные семы, культурный фон, культурные концепты и культурные коннотации, которые в совокупности отражают национальный характер культуры, особое видение мира.

Пословицы обладают огромной силой воздействия на поведение и мышление человека. Они в известной степени отражают духовный мир человека, его отношение к себе и к окружающему миру, обществу. Вот почему на сегодняшний день становится актуальным исследование пословиц в рамках такого направления научных исследований как антропоцентризм.

Антропоцентризм восходит к философскому течению антропологизма, которое «рассматривает понятие «человек» в качестве базисной категории, лежащей в основании системы представлений о бытии, природе, обществе, культуре, истине, добре, благе, долге, свободе, боге и т.д. В концепции антропологии человек – исходный пункт и конечная цель философии. Человек начинает рассматриваться на широком фоне наук о культуре, этнографии, языкознания, социологии, истории религии и искусства и т.д.» (Новейший философский словарь, 1998, с.38-39). Суть антропоцентризма заключается в «познавательной установке, в которой утверждается наличие человеческого измерения в любом знании и природе, обществе и самом познании» (Новейший философский словарь, 1998, с.38-39). (Новая философская энциклопедия, т.1, 2000, с.142).

Наличие человеческого измерения в «любом знании о природе, обществе и самом познании» можно обнаружить и проследить в каждой паремиологической единице, в каждой пословице. Сравните: Гора с горой не сходится, а человек с человеком сойдется. Дитя не плачет, мать не понимает. Рыбак рыбака видит издалека. (русские пословицы); Ёш кетаман деб кўркитар, қари – ўламан деб (Молодой пугает: “уйду”, старый пугает: “умру”). Ит қариса, този бўлур, қиз қариса, қози бўлур (Собака состарится, станет как гончая, дева состарится – казием станет). Ўпка гўшт бўлмас, душман асло дўст бўлмас (Легкие не мясо, враг никогда не станет другом) (узбекские пословицы). С этой точки зрения пословицы представляют собой продукт человеческого познания самого себя и окружающего мира.

“Человек – это тот центр, через который проходят координаты, определяющие предмет, задачи, методы, ценностные ориентации современной лингвистики” (Попова, 2002, с.69), в частности лингвофольклористики, которая на стыке фольклористики и языкознания осуществляет “анализ общечеловеческих и национально-специфических особенностей концептуализации и категоризации мира, отраженного языковыми единицами произведений устного народного творчества” (Бочина, 2003, с.3), в том числе пословицами и другими паремиологическими единицами.

Итак, пословицы в рамках антропоцентризма, а шире – лингвофольклористики, рассматриваются как жанр произведений устного народного творчества, заключающий в

себе всю информацию о человеке и окружающем его мире, а также о его отношении к самому себе и к этому миру.

Таким образом, пословица как объект научных исследований является междисциплинарной единицей, вбирающей в себя исторические, философские, психолого-педагогические, литературоведческие и лингвистические начала.

Список литературы:

Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы. – Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Казань, 2003.

Жуков В.П. Словарь русских пословиц и поговорок – М., 2002.

Маслова В.А. Лингвокультурология. – М., 2001.

Новая философская энциклопедия. В 4-х. т. – М., 2000.

Попова Е.А. Человек как основополагающая величина современного языкознания // Филологические науки. – М., 2002. – №3. – С.59-67.

Узбекские народные пословицы / Сост. Б.И. Саримсаков, А.К. Мусакулов. – Т., 2003.

Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Т., 2001.

ЖАДИД ПУБЛИЦИСТЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ МАТБУОТ ХУСУСИДАГИ ИЛГОР ҚАРАШЛАРИ

Сайёра Ҳалимова Абдурахимовна

филология фанлари номзоди Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети. “Медиа назарияси ва амалиёти” кафедраси доценти, Тошкент, Ўзбекистон

Аннотация: Мазкур мақолада жадид публицистлари Маҳмудхўжа Бехбудий ва Мунаввар қори Абдурашидхоновнинг миллий матбуот хусусидаги илгор қарашлари таҳлилга тортилган. Хусусан, маърифатпарвар публицистлар ижодида матбуотнинг жамиятдаги ва миллат ривожига муҳим ўрнига алоҳида эътибор қаратилган

Калит сўзлар: жадид, публицистика, миллат, умумдарсхона, ҳуқуқ, ислоҳ, газета, тил.

ПЕРЕДОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ ДЖАДИДОВ О НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРЕССЕ

Халимова Сайёра Абдурахимовна

кандидат филологических наук, Узбекистанская журналистика и общественная Университет связи «Теория и практика медиа» доцент кафедры, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В данной статье проанализированы передовые идеи ведущих деятелей джадидистского движения о национальной прессе: Махмудходжи Бехбуди, Мунаввара Кори Абдурашидханова.

Ключевые слова: современность, журналистика, нация, государственная школа, закон, реформа, газета, язык.

JADIDIANS' ADVANCED VIEWS ON THE NATIONAL PRESS

Halimova Sayyora Abdurahimovna

Associate Professor at the “Media Theory and Practice” Department, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences,

Annotation: This article analyzes the progressive ideas of leading figures of the Jadidist movement regarding the national presse: Mahmudkhoja Behbudi, Munavvar Qori Abdurashidkhanov.

Keywords: modernity, journalism, nation, public school, law, reform, newspaper, language.

Кириш (Introduction). Матбуотнинг жамиятда муҳим вазифалари бор. Энг аввало аҳолини янгиликлардан хабардор қилиш, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш ва албатта, жамоат назоратини ўрнатишдан иборат. Шунингдек, у ошкораликни таъминловчи восита сифатида ҳуқуқий демократик давлат барпо этишнинг асосий бўғини ҳисобланади. XX аср бошларида Туркистонда юзага келган миллий уйғониш даври жадид публицистларининг матбуот хусусидаги қарашлари қандай эди?

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). 1907 йил 11 ноябрда “Тужжор” газетасининг 11-сонида Маҳмудхўжа Бехбудийнинг “Газет надур?” сарлавҳали мақоласи чоп этилган. Муаллиф мақолада матбуотнинг, хусусан, газеталарнинг жамият ҳаётидаги муҳим ўрнини чуқур таҳлил этган. Хусусан, 1905 йил октябрь Манифестидан сўнг, Русия мустамлакасида яшаётган мусулмонлар 30 дан зиёд газеталар нашрини йўлга қўяди. Аммо муштарийлар сонининг камлиги боис, кўпгина нашрлар узоқ давом эта олмайди. Муаллиф бу вазиятдан қаттиқ ўкинади: “Туркистон, Бухоро, Хивага газет нима эканлигини ҳануз мингдан бир киши билмайдур. Агарда мингдан биргина билса эди, ўн уч милён Туркистон ва Бухоро ва хивалик қариндошларимиздан “Туркистон” ва “Тужжор” газеталарини бир

минг уч юз нафардан, албатта, муштарийси бўлур эди”[1].

Беҳбудий мақола давомида 20 дан ортиқ Европа ва шарқ мамлакатларида газеталарнинг тиражи хусусида жадвал тақдим этган. Масалан, Америка қўшма штатлари - халқ адади 80 миллион, жаридалар адади 20 миллион, Германия- халқ адади 56 миллион, жаридалар адади 6 400, Франция халқ адади- 40 миллион, жаридалар сони 3 600 та. Публицист ушбу қиёсий таҳлил орқали шундай хулоса қилади: “Хар фирқани ўз дин ва миллатига қилатурғон хизмат ва миллатпарастлик ўшал фирқани газети ила маълум ўлур, хар тоифани жаридалари ўшал тоифани миқёс ва мезонидур”[2].

Улуғ маърифатпарвар бу ўринда жуда илғор фикрни илгари сурган. Яъни ҳар бир газета шу мамлакат аҳолисининг, зиёлисининг тафаккур тарозиси, ойинаи-жаҳони, у миллат манфаатлари учун хизмат қилмоғи зарур.

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ушбу мавзуга оид яна бир муҳим мақоласи бор. У “Ойина” журналининг 1913 йил, 2-сониди “Баёни ҳол” сарлавҳаси билан босилган. Унда муаллиф журналнинг бош муҳаррири сифатида миллий нашрлар юритишда юз бераётган муаммолар ҳақида баён қилади. Жумладан, “Самарқанд” газити сармоясиз, фақат ваъда ва умид илан чиқарилиб эди. Умидлар тасаввурдан феълга келмади. Зарар ва оқчасизлик сабабли чору ночор беш ой давом этиб, 1913 йил 13 сентябрь 44 адади-ла вақтинча ётиб эди”. Абдулла Авлоний “Самарқанд” газетасининг аҳамияти хусусида шундай деб ёзади: ...элу халқнинг кўзини очишга боис бўлди”[3].

Шундай бўлса-да, газета моддий таъминот жиҳатдан оғир аҳволда қолади. Уни давом эттириш учун 500 минг иона йиғилади, аммо Беҳбудий иона йиғиш билан муаммо ҳал бўлмаслигини тушуниб, бир ширкат ташкил этилишини таклиф этади. Бу ташаббус амалга ошмайди. Бундан афсусланган муаллиф “Кафказ, Қрим, Татаристонда матбуотга эътибор ва саъй-ҳаракатларни кўриб, миллий бир нашрни йўлга қўйганлигини, аммо пулсизликдан қийналиб, “Ойина” журналини йўлга оқча топулгунча “Ойина” давом этар. “Ойина” зарар этса-да, зарари нафсимизга оид ва муштарийларга асло зарар юкламайдур. Мажалла баҳосини-да, арзон қилинди”, деб изоҳ беради муаллиф. М.Беҳбудий чоп этилаётган миллий нашрлар бутун бир миллатники эканлигини алоҳида таъкидлаб, сармоядор бойлардан кўмак ва ёрдам беришларини сўрайди. “Мажалла бизники эмас, миллатникидур. Сўйланатурган сўзлар шахсий эмас, умумийдур, ғурурий эмас, динийдур”[4].

Жадид маърифатпарвари бош муҳаррир сифатида “Самарқанд” газетасидаги деярли асосий материалларни ўзи ёзган. Бир неча бор муштарийларга мурожаат этиб, Туркистон аҳлидан мақолалар, шеърлар кутаётганини баён қилади [5].

Афсуски, 5 ой давомида Беҳбудий Тошкент, Хоразм, Бухородан деярли бирор хат, хабар, мақола олмаганидан ўкинади. Бу хусусда миллий нашрлар тарғиботига тиш-тирноғи билан қарши курашган “Туркистон вилоятининг газети” “Маҳаллий матбуот хусусида” сарлавҳали мақола чоп этиб, унда куйидаги фикрларни билдирган: “Улар мадраса, мударрис ва имомлардан бошлаб бойларгача ёпишдилар. Ота-боболари қилиб келган ношаръий бўлмаган расм-русумларини танқид қила бошлаб, ислоҳ қилмакка киришдилар”[6].

Газета таҳририяти шунинг учун маҳаллий аҳоли газеталарни ўқимай қўйди, азалий расм-русумлардан воз кечишни истамаяпти, деган хулосани беради. Бу қарашлар замирида, шубҳасиз, чор ҳукуматининг ғаразли нияти яширинган. Аммо Беҳбудийнинг “Ойина” журналида чоп этилган “Садои Туркистон”, “Садои Фарғона” ёхуд Туроннинг эгизак тавбам фарзандлари” сарлавҳали мақоласи ушбу аччиқ ҳақиқатга жуда яқин [7].

Публицист мазкур мақолада икки миллий нашр ҳақида тўлиқ маълумот бериб, Туркистон зиёлиларидан обуна масаласида ёрдам беришларини сўрайди. Шунингдек, муаллиф Европа давлатларида минглаб газеталар ривож топаётганлигини таъкидлаб, тараққийпарвар ёшларни улардан ўрнак олишга чақиради. Бу ташаббускорликни бошқа нашр муҳаррирларидан ҳам талаб қилади. Шунинг учун ҳам Мунавварқори Абдурашидхонов “Садои Туркистон” газетасининг 47-сониди “Ҳурматлу вакил ва муштарийларимизга мурожаат” сарлавҳали

тахририят даъватини эълон қилади. Унда “Садои Туркистон”нинг моддий мушкулотлари очик баён қилинган. Тахририят номидан халққа мурожаат тахририят даъватини эълон қилади. Унда “Садои Туркистон”нинг моддий мушкулотлари очик баён қилинган.

Тахририят номидан халққа мурожаат қилиниб: “Матбуот — миллатнинг ойнасидур. Биноан алайҳа, миллатнинг бутун ҳаёти мажмуаси матбуотида инъикос этар. Биз ўзимизнинг нуқсонларимизни ёзмасак ва кўрсатмасак, қачон ислоҳ этилурмиз ва қачон тараққий қилурмиз?” дея масалани кескин қўяди. Газета матбуотни жамиятнинг “ислоҳчиси” деб атади. “Ёшларимиз ғайрат қилсалар, бойларимиз ёрдам берсалар, муҳаррир ва муаллифлар қаламлари ила, муаллим ва муаллималар ўқутишлари, шоирлар шеърлари ила хизматларида маҳкам туруб давом этсалар, бизим миллат ўз вақтида оёққа босуб кетишига асло шубҳамиз йўқдур” [8].

Ўша давр миллий нашрларда яна бир ўзига хослик кўзга ташланади. Газеталар оммавийлашиши учун бир-бирларига қўмаклашишган. Жумладан, “Ойна” журналининг рекламиси “Садои Туркистон” ва “Садои Фарғона” саҳифаларида бир неча сонларида мунтазам бериб борилган. Масалан, “Ойна” журнаliga оид рекламалардан бирида шундай сатрлар бор: “Туркий ва форсий, ўрта шевада, баъзан русча, ҳар ишдан боҳис мусаввар ҳафталик мажаллаи исломиядур. Ҳозирда Туркистонда бирдан-бир мажалла бўлғонлиги учун бунга муштарий бўлмақ ўқишга иқтидори бўлғон ҳар кимга миллий бир қарздур” [9].

Жадид публицистлари матбуотни саводхонлик мактаби деб билишган. Агар газеталар саҳифасида бирор сўз нотўғри босилган бўлса, албатта, кейинги сониде тасҳеҳ бериб ўтишган. Бунга “Садои Туркистон”, “Садои Фарғона” ёки “Хуррият” саҳифаларида ҳам учратиш мумкин. Улар “миллий матбуотнинг вазифаси нима”, деган саволга жавоб беришаркан, “Миллий матбуотнинг вазифаси миллатнинг эҳтиёжотин кузатмақ ва майдонга чиқазуб қўймақ, энг муҳим мавзуларни аҳоли назарига арз этмақдур” [10], дея таъкидлашади. Уларнинг назарида, ҳар бир синф, табақа учун махсус нашр зарур. Матбуот даражаси, тили, савияси жиҳатидан ўзи мўлжалланган табақага мослаб нашр қилиниши лозим. “Агар ҳар синф, халқ учун илмий, ижтимоий, маиший ва ҳар хил жарида ва мажаллалар бўлса, миллатнинг жумласи бирдан тараққийга савҳ қилинур эди”. Эътиборли жиҳати, жадидларимиз миллий матбуот зиммасига “Мусулмон жаридасининг вазифаси ўзининг саҳифаларини миллат учун аҳамияти бўлмағон ва халқ савияси кўтармаган хабарлардан сакламақ, ҳар нарсадан олдинда миллатни мақсад тутиб, шуни кўрмақ, шуни тушунмақдур”, деган юксак вазифани қўяди. Муаллифнинг бу қадар куйинишига муайян сабаб мавжуд эди. XX аср бошларида маҳаллий аҳоли орасида матбуотни катта ижтимоий куч деб танувчилар кам эди. Деярли барча миллий нашрлар обуначилар камлигидан азият чекарди.

Бу илғор фикр Интернет тармоғи ривожланган бугунги медиа маҳсулотларимиз учун ҳам зарурий дастурдир. Чунки жадид публицистлари ўша пайтларда жарида сўзига нописандлик билан қараётган, арзимаган воқеаларни ёзиб мактуб йўллаётган газетхонларни тийрақроқ бўлишга, миллат манфаатларини юксак қўйишга даъват қилади. Бундай даъватлар “Идорадан жавоблар” рукнида чоп этиб борилган. Чунончи, “Садои Туркистон” газетасининг 56-сониде ёзилади: “Имзосиз, чуваланган, маъносиз ва узун мактубларнинг жойи жарида эмас, балки сабатдур”. Муҳарририят газетхонларни саводли, ўқимишли бўлишга чорлаган. Демакки, “Садои Туркистон”нинг газета нашрига қўйган талаби юксак бўлган. Жадид зиёлилари назарида матбуот – миллатнинг тили. “Тили бўлмаган бир кишининг ҳоли, қандай фано ва мушкул бўлса, матбуотсиз бир миллат ҳам шундай фано ва мушкул ҳолдадур. Матбуот — ижтимоий ҳаётнинг ойнасидур” [11].

Маърифат дарғалари “Она тилисиз ва миллий матбуотсиз дунёда ҳеч бир миллат тараққий ва маданият йўлига қадам қўймайди”, шунингдек, “Матбуотда эркинлик бўлмаса, миллий ва маданий ислоҳотларни фаолиятга чиқара олмайди” [12] деган муҳим хулосаларга келган.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ (Research Methodology) Жадид матбуоти ҳақидаги дастлабки маълумотлар орасида З.Саид, А.Авлоний, Н.Абдуазизова, М.Худойқулов, Б.Дўстқораев қаламига мансуб асарлар алоҳида аҳамиятга эга [13].

Мазкур асарларда XIX асрнинг охири ва XX аср бошларида Туркистонда йўлга қўйилган миллий нашрлар тарихига оид қимматли маълумотлар берилган. Айниқса, профессор Бойбўта Дўстқораевнинг “Ўзбекистон журналистикаси тарихи” дарслиги ва ёш олимларнинг Маҳмудхўжа Бехбудий, Убайдулла Асадуллахўжаев, Чўлпон, Ҳожи Муин ва бошқа жадидларнинг муҳаррирлик ва публицистик фаолияти бўйича диссертациялар ҳимоя қилинди. “Ал-Ислоҳ”, “Ойина”, “Маориф ва ўқитғувчи” журналлари, “Садои Туркистон” газетаси бўйича алоҳида тадқиқотлар яратилди. Филология фанлари номзоди, доцент Б.Дўстқораевнинг “Ўзбекистон журналистикаси тарихи” дарслиги асл манбаларга асосланганлиги ва таҳлилларга бойлиги билан алоҳида ажралиб туради. Аммо айнан жадид публицистларининг миллий матбуот хусусидаги қарашлари алоҳида тадқиқ этилмаган.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР (Analysis and results). Ўзбекистон Конституциясининг 67-моддасида “Оммавий ахборот воситалари эркиндир ва қонунга мувофиқ ишлайди. Улар ахборотнинг тўғрилиги учун белгиланган тартибда жавобгардир. Цензурага йўл қўйилмайди”, - деб ёзиб қўйилган [17].

Миллий мустақиллигимиз асосчилари бўлган жадид публицистлари ҳам миллий матбуот зиммасига улкан ижтимоий-сиёсий вазифаларни юклаган: “Эҳтиёжотимизни музокара қилмак мақсади ила матбуот саҳифалари очилди. Ҳолбуки, у миллатда бўлган қўрқинчли касалликларни ҳар вақтда англаб, аларга шифо изламак миллий ҳар хусусда замонга мувофиқ ислоҳот чораларин кўрмак учун нашр қилинадур”, деб катта-катта ижтимоий куч сифатида баҳо берадилар [18].

Ҳатто Россия империясининг мустабидлик зулми остида бўлсалар-да, миллий матбуотнинг “ҳуқуқига тажовуз қилмакка ҳеч кимнинг ҳақи йўқдур”, деган дадил фикрни билдириб, миллий матбуот учун сўз эркинлиги муҳим омил эканлигини алоҳида таъкидлашади. Демакки, ўзбек миллий журналистикасининг асосий тамойиллари жадид маърифатпарварлари томонидан асослаб берилган.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР (Conclusion/Recommendations). 1914 филда чоп этилган “Садои Туркистон” газетаси таҳламларида шундай фикр-мулоҳазаларни ўқиймиз: “Бир замонлар келур, бу шояд майдонга чиқмасдан қолмас”. Бугун бу башорат ҳақиқатга айланди. Уларнинг “матбуот – бош ислоҳотчи бўлиши керак, матбуот – миллат ойинасидир, маърифат – миллатнинг ҳаёт-мамоти” каби илғор ғоялари тараққиёт сари йўл олган мустақил янги Ўзбекистон ривожини учун дастури амал бўлиб хизмат қилади. Бу илғор ғояларни амалиётга тадбиқ этиш жамиятимизни демократлашувига ва миллий журналистикамизнинг жаҳон майдонидаги нуфузини ошишига хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

“Тужжор” газетаси, 1907 йил, 11 ноябрь, 11-сон.

“Тужжор” газетаси, 1907 йил, 11 ноябрь, 11-сон.

Авлоний А. Бурунги ўзбек матбуотининг тарихи. //”Туркистон” газетаси, 1924 йил 24 июнь.

“Ойина” журналы, 1913 йил, 2-сон.

“Самарқанд” газетаси, 1913 йил 20, 25, 30-сонлар.

“Туркистон вилоятининг газети”, 1916 йил 8-сон.

“Ойина” журналы, 1914 йил 25-сон.

“Садои Туркистон”, 1914 йил 3 декабрь.

“Садои Туркистон”, 1915 йил 50-сон.

“Садои Туркистон”, 1915 йил 2 январь.

“Садои Туркистон”, 1914 йил, 18 декабрь.

“Садои Туркистон” газетаси, 1915 йил, 31 март.

Саид З. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар./1870-1927/.Тошкент-Самарқанд: Ўзбекистон, 1927.

Авлоний А. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи.//Туркистон,1924 йил 24 июнь.

Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. Т.: Шарқ, 2002.

Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. Т: Маънавият, 2009 .

https://constitution.gov.uz/uploads/fd073e0b-244c-f011-f8af-eeecdcf0e25e2_media_.pdf.
мурожаат вақти.18.04.2025.14.05.

17. “Садои Туркистон” газетаси, 1914 йил, 31-сон.

JAHON ADABIYOTIDA SUITSID QILGAN YOZUVCHILAR O'ZLARIGA YAQIN QAHRAMONLAR VA ULARNING ICHKI RUHIY IZTIROBLARI

Shukurova Sabohat Odilovna,

(PhD), dotsent. Iqtisodiyot va pedagogika universiteti (IPU) Rus tili va adabiyoti kafedrası.

Annotatsiya. Ushbu maqola jahon adabiyotida o'z joniga qasd qilgan yozuvchilar va ularning asarlarida yaratilgan qahramonlar orqali adabiyotda suitsid motivining falsafiy va psixologik talqinini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Ernest Xeminguey, Virjiniya Vulf, Fyodor Dostoevskiy, Sergey Yesenin, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi mashhur yozuvchilar va ularning o'zlariga yaqin qahramonlar tahlil qilinadi. Yozuvchilar o'zining ichki iztiroblari, ruhiy inqirozlari va ma'naviy krizislarini asarlarida chuqur tasvirlagan, shu bilan birga, o'z-o'zini yo'q qilish motivi orqali o'z tajribalarini adabiyotda aks ettirganlar. Suitsidning psixologik va ma'naviy sabablari, ekzistensializm va nihilizm kabi falsafiy oqimlarning ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Maqolada yozuvchilarning o'z-o'zini yo'q qilish haqidagi qarashlari, ularning asarlaridagi qahramonlarning ruhiy holatlari, shu bilan birga, bu fenomenning adabiyotshunoslikda qanday aks etganligi o'rganiladi. Yozuvchilarning o'zlarining o'z joniga qasd qilishga qaror qilishlarining sabablari va bu holatning insoniyatni tushunishdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: suitsid, yozuvchi, qahramon, ekzistensializm, nihilizm, adabiyotshunoslik, psixologiya, o'lim, ma'naviyat, ichki iztiroblar

Аннотация. Настоящая статья посвящена философской и психологической интерпретации мотива суицида в мировой литературе через анализ писателей, совершивших самоубийство, и созданных ими литературных героев. Рассматриваются такие выдающиеся авторы, как Эрнест Хемингуэй, Вирджиния Вулф, Фёдор Достоевский, Сергей Есенин, Хамза Хакимзаде Ниязи и их персонажи, близкие к ним по мировоззрению и внутреннему состоянию. Писатели глубоко изображали свои внутренние страдания, душевные кризисы и духовные метания, отражая через мотив самоуничтожения собственный жизненный опыт. В статье проводится анализ психологических и духовных причин самоубийства, а также влияния философских течений, таких как экзистенциализм и нигилизм. Особое внимание уделяется взглядам авторов на суицид, душевному состоянию их героев и тому, как данный феномен отражается в литературоведении. Также обсуждается значение данного явления для более глубокого понимания человеческой природы.

Ключевые слова: суицид, писатель, герой, экзистенциализм, нигилизм, литературоведение, психология, смерть, духовность, внутренние страдания.

Abstract. This article explores the philosophical and psychological interpretation of the suicide motif in world literature, focusing on writers who ended their own lives and the characters they created. It analyzes renowned authors such as Ernest Hemingway, Virginia Woolf, Fyodor Dostoevsky, Sergey Yesenin, and Hamza Hakimzoda Niyoziy, along with literary figures closely aligned with their personal struggles and worldviews. These writers depicted their inner torments, psychological crises, and spiritual dilemmas, using the motif of self-destruction to reflect their life experiences. The article examines the psychological and spiritual causes of suicide, as well as the influence of philosophical movements like existentialism and nihilism. It discusses the authors' perspectives on self-destruction, the mental states of their characters, and how this phenomenon has been interpreted in literary studies. The significance of suicide in understanding the human condition is also critically addressed.

Keywords: suicide, writer, character, existentialism, nihilism, literary criticism, psychology, death, spirituality, inner suffering.

Kirish. Suitsid, yoki o'z joniga qasd qilish, jahon adabiyotining eng murakkab va chuqur mavzularidan biridir. O'z-o'zini yo'q qilishning adabiyotdagi tasvirlanishi, faqat jismoniy o'limni emas, balki insonning ichki ruhiy holati va ma'naviy iztiroblarini ham ifodalaydi. Ko'plab yozuvchilar o'z asarlarida bu mavzuni rivojlantirgan va o'zlariga yaqin qahramonlar orqali o'z shaxsiy iztiroblarini, ruhiy krizislarini va ma'naviy izlanishlarini aks ettirganlar. O'z joniga qasd qilgan yozuvchilar o'zlarining ichki dunyolarini tushunishga intilishadi, va bu jarayon asarlarning falsafiy yuksalishiga olib keladi. Bu maqola o'z joniga qasd qilgan yozuvchilar va ularning o'zlariga yaqin qahramonlar tahliliga bag'ishlanadi. Yozuvchilar o'z o'limlarini ko'pincha ichki iztiroblarini, ma'naviy inqirozlarini va o'zlikni yo'qotishdan qo'rqishlarini ifodalash vositasi sifatida ko'radilar. Suitsid, adabiyotda, o'z-o'zini yo'q qilishning bir shakli sifatida ko'rsatiladi va ko'pincha ekzistensializm va nihilizm falsafiy oqimlarining kontseptsiyalariga asoslanadi. O'z joniga qasd qilish, hayotning ma'naviy ma'nosizligi, insonning mavjudlik krizisi va o'zlikni anglashdagi qiyinchiliklar orqali tushuniladi. Maqolada yozuvchilarning o'z-o'zini yo'q qilish haqidagi qarashlarini, o'z shaxsiy hayotlari va ruhiy izlanishlari bilan bog'lab ko'rib chiqamiz.

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan, o'z joniga qasd qilishning psixologik, ma'naviy va falsafiy asoslarini o'rganish juda muhimdir. Yozuvchilarning o'zlariga yaqin qahramonlari, o'z shaxsiyatlarini, ruhiy holatlarini va iztiroblarini adabiy shaklda aks ettiradi. Shuningdek, o'z joniga qasd qilish masalasi faqat individual holat sifatida ko'rib chiqilmaydi, balki jamiyat, madaniyat va tarixiy sharoitlar bilan ham bog'lanadi. Ushbu maqolada biz jahon adabiyotida o'z joniga qasd qilgan yozuvchilarni, ularning asarlarini va bu asarlarda suitsidning falsafiy va psixologik sabablari bilan bog'liq tahlillarni taqdim etamiz. Jahon adabiyotida o'z joniga qasd qilgan yozuvchilarning asarlarida o'zlariga yaqin qahramonlar yaratish orqali o'zlarining ichki iztiroblarini va ma'naviy izlanishlarini aks ettirishgan. Ernest Xeminguey o'zining «Alvido qurol» asarida o'z joniga qasd qilgan qahramon, Frederix Henry orqali urushning ruhiy iztiroblarini va uning ma'naviy tugaganligini tasvirlaydi. Xeminguey bu asar orqali insonning ruhiy iztiroblari va urushning abadiy yo'qotishlarni keltirib chiqarishini tasvirlaydi. Frederix Henry, o'zining sevgilisi Katherine ning o'limi va urushdagi dahshatlaridan keyin o'z joniga qasd qilishni, ozodlik sifatida ko'radi. Asarda Frederic Henryning o'z joniga qasd qilish qarori uning ichki iztiroblari va ma'naviy inqirozini aks ettiradi. Qahramon, urushdagi dahshatlar va sevgilisi Katherinening o'limi tufayli hayotda hech narsaning abadiy vaqti yo'qligiga ishonadi. Asar tugashiga yaqin, Frederic Henryning oxirgi so'zlari: "I want you to know that I'm not afraid of death. But I do fear being alive." [Xeminguey, 1929]. «Men o'limdan qo'rqmayman, lekin tirik bo'lishdan qo'rqaman.» [Xeminguey, 1929)].

Bu so'zlar, uning o'z hayotining nihoyasiga yetishga bo'lgan harakatini va uning ruhiy holatini ochib beradi. Ushbu parcha, Frederixning o'z jonini olishni o'ziga nisbatan oxirgi erkinlik sifatida ko'rganini tasvirlaydi. Xeminguey, bu orqali urushning hayotga bo'lgan noaniqligi va insonning ma'naviy iztiroblarini chuqur tahlil qiladi. Frederixning hayotdan voz kechish qarori uning ruhi va fikrlaridagi iztiroblarning eng yuqori nuqtasiga yetganini ko'rsatadi. Virjiniya Vulfning "Dalloway xonim" asarida o'lim va o'z-o'zini yo'q qilish masalalari markaziy mavzu sifatida taqdim etilgan. Asarda o'z-o'zini yo'q qilishning ruhiy va ma'naviy jihatlari orqali, Klarissa Dalloway xarakteri orqali Vulfning ichki iztiroblari va krizislari ochib beriladi. Klarissa, o'zining yashash maqsadini va hayotining mazmunini izlab, o'lim va o'z-o'zini yo'q qilishni muhokama qiladi. Uning hayotga qarshi his-tuyg'ulari, ayniqsa o'zining o'tgan yillarini, yo'qotgan imkoniyatlarini va ayni paytda mavjud bo'lgan mavjudlikni his qilganda yuzaga chiqadi. O'limga bo'lgan qo'rquv va uning faqat hayotning ahamiyatsizligini anglash orqali qolgan eng so'nggi chiqish yo'li sifatida ko'rilishi asardagi asosiy g'oyani tashkil etadi. Vulfning ekzistensializm va nihilizmga oid qarashlari, uning o'z-o'zini yo'q qilish qarorida o'z ifodasini topadi. «Klarissa Dalloway o'lim haqida o'ylaganida, u o'zining butun hayotini anglab etdi, lekin o'limdan nafratlanmaslikni, balki uni o'zining muqarrar tugashi sifatida qabul qilishni xohlar edi.» (Vulf, 1925).

Fyodor Dostoevskiyning Aka-uka Karamazovlar asarida o'lim va o'z-o'zini yo'q qilish axloqiy,

falsafiy va diniy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilinadi. Dostoevskiy o'zining qahramonlari orqali insonning ruhiy iztiroblarini, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi doimiy kurashni aks ettiradi. O'lim, uning asarlarida ma'naviy inqiroz va ruhiy barqarorlikni yo'qotish sifatida tasvirlanadi. Asarda o'z-o'zini yo'q qilish, ko'plab qahramonlarning ichki dunyosidagi dindorlik, ruhiy tushkunlik va ma'naviy anglash muammolaridan kelib chiqadigan oxirgi qaror sifatida namoyon bo'ladi. Dostoevskiy o'limni, ba'zi hollarda insonning yuksalishi yoki qutulishi sifatida emas, balki uning ruhiy zaifligi va ma'naviy kelishmovchiliklarining natijasi sifatida ko'radi. «Insonni o'z-o'zini yo'q qilishga majbur qiladigan narsa uning ichki dunyosidagi xavfli bo'shliqdir, lekin bu bo'shliqni faqat xudoning mavjudligi to'ldira oladi» (Dostoevskiy, 1880).

Sergey Yeseninining She'rlar asarida o'z-o'zini yo'q qilish insonning ma'naviy iztiroblari va yuksalishga intilishning oxirgi nuqtasi sifatida tasvirlanadi. Yesenin o'z she'riyatida hayotning ma'naviy ma'nosizligini, insonning ruhiy iztiroblarini va o'limga bo'lgan qarashlarini ochib beradi. Uning she'riyatida o'z-o'zini yo'q qilish, ko'pincha, insonning hayotdagi iztiroblaridan qutulish va oxirgi yechim sifatida ko'rinadi. Yesenin o'zining ichki olamida chuqur ma'naviy bo'shliqni his qiladi va bu bo'shliqdan qutulishning yolg'iz yo'li sifatida o'limni tanlaydi. She'riyatida hayotning noaniqligi va uning ma'naviy tomoni, o'limga bo'lgan fikrlar bilan doimiy ravishda bog'liqdir. «Men o'zimni o'ldirishni o'ylamayman, lekin ba'zida o'limni baxt sifatida tasavvur qilaman.» (Yesenin, 1925).

Shuningdek, Hamza Hakimzoda Niyoz va boshqa adabiyotshunoslar o'z asarlarida o'z-o'zini yo'q qilishni insonning ichki halokatini va mavjudlikdagi o'zgarishlarni ifodalash vositasi sifatida ishlatganlar. Ularning asarlarida o'lim va o'z-o'zini yo'q qilish masalalari, insonning ekzistensializmi va ma'naviy izlanishlarini aks ettiradi. Ekzistensializm va nihilizm falsafiy oqimlari jahon adabiyotida o'z-o'zini yo'q qilish masalasining asosiy yorituvchi kuchlariga aylanadi. Ekzistensializm, hayotning ma'naviy ma'nosizligini, insonning o'zligi va mavjudligini izlashdagi qiyinchiliklarni tasvirlaydi. Yozuvchilar o'z asarlarida o'limni ekzistensial krizis sifatida ko'rsatadilar. Ekzistensializmning asosiy ideyalaridan biri – insonning o'zi yaratgan ma'no orqali hayotni anglashidir, bu esa o'z-o'zini yo'q qilish masalasini yangi va chuqur nazariy asosda aks ettiradi. Nihilizm esa hayotning ma'nosizligi va barcha qadriyatlarining yo'qolishi haqidagi qarashlarni ilgari suradi. Yozuvchilar nihilistik nuqtai nazardan o'limni, insonning har qanday ma'naviy izlanishdan, ezgulikka intilishdan voz kechish sifatida tasvirlaydilar. Suitsid, nihilizmning nihoyatgi ifodasi sifatida, hayotning ma'nosizligidan qochishning oxirgi yo'li sifatida ko'riladi. Dostoevskiy, Xeminguey va Yesenin kabi yozuvchilar o'z asarlarini bu falsafiy oqimlarga tayangan holda yaratdilar. Jahon adabiyotida o'z joniga qasd qilgan yozuvchilar va ularning o'zlariga yaqin qahramonlari, faqat jismoniy o'limni emas, balki ekzistensial va ma'naviy halokatni ham tasvirlaydi.

Jahon adabiyotida o'z joniga qasd qilish masalasi o'ta nozik va murakkab mavzu bo'lib, ko'plab yozuvchilar o'z hayotlarida bu qadamni tashlashgan. Ularning barchasi o'zlarining ichki iztiroblari, ruhiy inqirozlari va ma'naviy salomatliklari bilan bog'liq holda bu qarorni qabul qilganlar. Shu bilan birga, ularning asarlarida bu muammo, insoniyatning ma'naviy izlanishlari, ekzistensializm va nihilizm falsafalari orqali chuqur tahlil qilingan. Ushbu bo'limda, o'z joniga qasd qilgan yozuvchilar, ularning sabablarini va bu holatning insoniyatni tushunishga ta'sirini tahlil qilamiz.

Fyodor Dostoevskiy o'z hayotida bir necha marta o'z joniga qasd qilishni o'ylagan, ammo biron marta buni amalga oshirmagan. Biroq, u o'zining psixologik iztiroblari va diniy muammolarini asarlarida chuqur tasvirlagan. 1849-yilda, avvaliga huquqbuzarlik uchun qatl etilishi mumkin bo'lgan, keyin esa Sibirga surgun qilingan Dostoevskiy, uzoq yillar davomida ruhiy va ma'naviy krizislar bilan kurashgan. U o'zining “Aka-uka Karamazovlar” va “Jinoyat va jazo” kabi asarlarida o'z joniga qasd qilishni ma'naviy anglash, diniy shubhalar va insonning ichki zaifliklari bilan bog'lagan. Dostoevskiy o'z o'limini faqat ruhiy inqirozlarning oxirgi nuqtasi sifatida emas, balki

mavjudlikning chuqur muammolarini anglashning bir shakli sifatida tasvirlaydi. Unga ko'ra, o'z-o'zini yo'q qilish – bu insonning ichki bo'shliqni to'ldirishga qodir emasligini anglashidir.

Virjiniya Vulf 1941-yilda o'z joniga qasd qilgan. U o'z hayotida davom etgan ruhiy kasalliklar, gallyutsinatsiyalar va jamiyatga moslashishdagi qiyinchiliklar bilan kurashgan. Vulfning asarida o'z joniga qasd qilishning ruhiy va ma'naviy sabablarini ko'plab o'ziga yaqin qahramonlari orqali tasvirlashadi. Uning Mrs. Dalloway asarida Klarissa Dalloway hayotining ma'nosizligi, o'zining o'tmishini va yo'qotgan imkoniyatlarini izlash orqali o'limga bo'lgan qiziqishini ifodalaydi. Vulf o'zining hayotining so'nggi davrlarida bu muammolarni o'zida hissiyot tarzida to'plagan va o'z joniga qasd qilishni hayotning eng so'nggi qutulish yo'li sifatida ko'rgan. Uning o'limi, aynan, o'zining ma'naviy iztiroblari, ekzistensializm va psixologik kasalliklarining natijasidir.

Ernest Xeminguey 1961-yilda o'z joniga qasd qilgan. Uning o'z joniga qasd qilishi, urushning va boshqa hayotiy iztiroblarning davom etgan ruhiy izlari va o'zlikni yo'qotish his-tuyg'ularining natijasidir. Xeminguey o'zining "Alvido qurol" asarida Frederic Henry qahramoni orqali urushning ruhiy va ma'naviy iztiroblarini tasvirlaydi. Frederic Henry, o'z sevgilisi Katherine ning o'limi va urushdagi dahshatlaridan keyin hayotining ma'nosizligini anglab, o'z joniga qasd qilishni bir turdagi ozodlik sifatida ko'radi. Xeminguey o'zining hayotidagi psixologik iztiroblar va ruhiy muammolarni tasvirlab, o'z joniga qasd qilishni o'zining ichki bo'shliqni to'ldirishga urinish sifatida ko'rsatgan. Uning o'limi, o'zining noaniq hayotiy yo'llarini va ichki iztiroblarini yakunlashga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqqan.

Sergey Yesenin 1925-yilda o'z joniga qasd qilgan. U o'zining hayotidagi ichki iztiroblar, ma'naviy bo'shliq va ma'naviy ma'nosizlikni sezgan va bu sababdan o'z joniga qasd qilishni tanlagan. Yesenin o'z she'riyatida hayotning noaniqligi, ma'naviy iztiroblar va o'zlikni yo'qotish his-tuyg'ularini ifodalaydi. U o'zining she'rlarida o'limni ba'zan baxt sifatida tasavvur qilgan va o'z joniga qasd qilishni oxirgi yechim sifatida ko'rgan. Yesenin o'limi, uning ichki dunyosidagi ruhiy bo'shliq va hayotning ma'naviy ma'nosizligiga qarshi kurashining yakunidir.

Yozuvchilarning o'z joniga qasd qilishga qaror qilishlari, faqat jismoniy o'limni emas, balki ruhiy iztiroblar, ma'naviy krizislar va ekzistensializm kabi falsafiy oqimlar bilan bog'liqdir. Ularning o'z joniga qasd qilish qarori, insoniyatning hayot va o'lim haqidagi chuqur tushunchalarini va o'zlikni anglashdagi muammolarni aks ettiradi. Bu yozuvchilar orqali biz insonning ruhiy holatini, ichki iztiroblarini va ma'naviy inqirozlarini yaxshiroq tushunish imkoniga egamiz.

Yozuvchilar o'z-o'zini yo'q qilishni ichki ruhiy iztiroblar va ma'naviy inqiroz sifatida ko'rsatib, bu mavzuni falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladilar. Ekzistensializm va nihilizm falsafiy oqimlari, o'z-o'zini yo'q qilishning adabiyotdagi aks ettirishida markaziy o'rin tutadi. Yozuvchilar o'z asarlarida o'limni faqat jismoniy o'lim sifatida emas, balki insonning ruhiy inqirozi sifatida ko'rsatadilar. Adabiyotda o'z joniga qasd qilishning psixologik va ma'naviy sabablarini o'rganish, insoniyatning o'zlikni anglashdagi izlanishlarini tushunishga yordam beradi. Suitsid, adabiyotshunoslikda, yozuvchilarning o'z-o'zini yo'q qilishni qanday tasvirlaganliklarini o'rganish orqali insoniyatning ichki iztiroblarini va ekzistensial izlanishlarini chuqurroq tushunish mumkin. Adabiyotshunoslikda o'z-o'zini yo'q qilish masalasi keng va murakkab mavzu bo'lib, uning falsafiy, psixologik va ijtimoiy jihatlarini o'rganish, adabiyot va inson ruhiyatini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Yozuvchilarning o'z shaxsiy tajribalari va ichki iztiroblari, ularning yaratgan qahramonlari orqali adabiyotga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Adabiyotlar ro'yxati

Xeminguey, E. (1929). *A Farewell to Arms*. Scribner.

Vulf, V. (1925). *Mrs. Dalloway*. Hogarth Press.

Dostoevskiy, F. (1880). *The Brothers Karamazov*. The Russian Messenger.

Yesenin, S. (1925). *Poems*. Various publishers.

Niyoziy, H. H. (1960). *Shairlik va jahon adabiyoti*. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Nashriyoti.

Camus, A. (1942). *The Stranger*. Gallimard.

Sartre, J. P. (1943). *Being and Nothingness*. Gallimard.

Kierkegaard, S. (1849). *The Sickness Unto Death*. C.A. Reitzel.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

DZYUDO BO'YICHA OTP GROUP TASHKENT "GRAND SLAM 2025" TURNIRINING TAHLILI

Adilov Sarvar Qaxramonovich

*p.f.d. (DSc)., dotsent O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası mudiri*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yilning nufuzli musobaqasi Toshkent GRAND SLAM 2025 turnirining natijalari tahlil qilingan. Erkaklar va Ayollar vazn toifalarida yangi chempionlarning muvaffaqiyatlari hamda amaldagi chempionlarning muvaffaqiyatsizliklari haqida so'z boradi. Bunda asosiy ko'zlangan maqsad kelgusi musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko'rish va g'alabaga erishgan sportchilarni mashg'ulot va tayyorgarlik jarayonlari bilan tanishib borish orqali ularga kelgusi nufuzli musobaqalarga munosib qarshilik ko'rsatish edi.

Kalitso 'zlar: Musobaqa natijalari, Toshkent GRAND SLAM turniri, g'alaba, mag'lubiyat, tahlil, murabbiy, musobaqa faoliyati.

АНАЛИЗ ТУРНИРА ОТП GROUP ТАШКЕНТ «GRAND SLAM 2025» ПО ДЗЮДО

Адилов Сарвар Кахрамонович,

*Заведующий кафедрой теории и методологии международных видов борьбы
Университета физической культуры и спорта Узбекистана, д.п.н. (DSc)., доцент*

Аннотация. В данной статье анализируются результаты престижного турнира года Ташкент GRAND SLAM 2025. Обсуждаются успехи новых чемпионов и неудачи действующих чемпионов в мужских и женских весовых категориях. Основная цель заключалась в тщательной подготовке к предстоящим соревнованиям и оказании достойного сопротивления на будущих престижных турнирах путем ознакомления с процессами тренировок и подготовки спортсменов, добившихся победы.

Ключевые слова: Результаты соревнований, Ташкентский турнир GRAND SLAM, победа, поражение, анализ, тренер, соревновательная деятельность.

ANALYSIS OF THE OTP GROUP TASHKENT «GRAND SLAM 2025» JUDO TOURNAMENT

Adilov Sarvar Kakhramonovich

doctor of pedagogical sciences (DSc), Associate Professor. Head of the Department of Theory and Methodology of International Wrestling Styles, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport.

Abstract. This article analyzes the results of the prestigious Tashkent GRAND SLAM 2025 tournament. In the men's and women's weight categories, we will talk about the successes of new champions and the failures of current champions. The main goal was to thoroughly prepare for future competitions and, by familiarizing athletes who have achieved victory with the training and preparation processes, provide them with a worthy resistance to future

prestigious competitions.

Keywords: Competition results, Tashkent GRAND SLAM tournament, victory, defeat, analysis, coach, competition activity.

Dolzarliligi: Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lg'a kiritgan kundan boshlab jismoniy tarbiya va sport xususiyatlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishga e'tibor kuchaydi. Hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir bir qancha Qaror va Farmonlar imzolardi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 10-avgustdagi PQ-3196-sonli "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida", 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 20-iyundagi PQ-286-sonli "Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", gi qarorlari va bir qancha qonun hujjatlarini aytib o'tish mumkin.

O'zbekistonning davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishi, sog'lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo'nalishga aylandi. Zamoniviy sport inshootlari qurildi, yangi sport turlari rivojlanib bormoqda, turli miqyosdagi musobaqalar va turnirlar o'tkazilmoqda hamda aholining turli qatlamlari vakillari ishtirok etmoqda, sportchilarimiz xalqaro maydonlarda yuksak natijalarni qo'lg'a kiritishmoqda. Soha rivojlanishining huquqiy bazasi yaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, dzyudo va boshqa sport turlarini rivojlantirish to'g'risidagi hukumat qarorlari shular jumlasidandir.

28 fevral - 2 mart kunlari poytaxtimizdagi «Yunusobod» sport majmuasida dzyudo bo'yicha "Katta Dubulg'a" turkumiga kiruvchi musobaqa bo'lib o'tdi. Dunyoning 4 qit'asi 23 davlatidan jami 246 (117 erkak, 129 ayol) nafar dzyudochining ishtiroki rasman tasdiqlangan. Jumladan, Yaponiya terma jamoasi murabbiylar shtabi ham tarkibni e'lon qildi. O'n olti nafar dzyudo vatani vakillari Toshkent tatamilarida medallar uchun bahslarga kirishadi. Yaponiya delegatsiya tarkibidan jami 26 kishi joy olgan. Medallar uchun da'vogarlar safida e'tirof etiladigan Fransiya terma jamoasi murabbiylar shtabi tarkibni tasdiqladi. O'n to'rt nafar farang dzyudochilari medallar uchun bahs olib boradi.

Musobaqada erkaklar -60 kg, -66 kg, -73 kg, -81 kg, -90 kg, -100 kg va +100 kg, vazn toifalarida ayollar esa -48 kg, -52 kg, -57 kg, -63 kg, 70 kg, +70 kg vazn toifalarida bellashuvlarni olib borishdi. Toshkent GRAND SLAM turniri kutilmagan natijalarga boy bo'ldi. Amaldagi olimpiya chempionlari va sovrindorlari kutilmaganda mag'lubiyatga uchradi. Dzyudo bo'yicha o'tkazilgan Toshkent "GRAND SLAM 2025" turnirining g'olib va sovrindorlarini quyidagi jadvallarda ko'rishingiz mumkin.

2-jadval

**Erkaklar o'rtasida OTP GROUP TASHKENT GRAND SLAM 2025
natijalari**

Vazn toifalari	Oltin 	Kumush 	Bronza 
-60 kg	Bliyev Ayub  IJF	Bayramov Turan  AZE	Bakhtiyorov Kamoliddin  UZB
			Ibrohimov Anvarjon  UZB
-66 kg	Abdulaev Ramazan  IJF	Bekmurodov Zamohshari  UZB	Tilovov Mukhriddin  UZB
			Shturbabin Artyom  UZB
-73 kg	Galstian Karen  IJF	Lavrentev Danil  IJF	Gobert Maxime  FRA
			Ahadov Shakhram  UZB
-81 kg	Arbuzov Timur  IJF	Tojiyev Arslonbek  UZB	Omarov Gadzhimurad  UAE
			Zhubanazar Abylaikhan  KAZ
-90kg	Sharipov Shakhzodxuja  UZB	Kawabata Komei  JPN	Allakhverdiev Eldar  IJF
			Murtozoev Nurbek

60 kg vazn toifasida kechgan murosasiz bellashuvlarda IJF bayrog'i ostida qatnashgan Blijev Ayub o'z vazn toifasida raqiblaridan ustun kelib oltin medalga sazovor bo'ldi. Ayub Blijev yarimfinal bahsida O'zbekistonlik raqibi Anvarjon Ibragimovni 2:52 daqiqada ippon bahosi evaziga mag'lub etib final yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Azerbaijan vakili Turan Bayramov esa yarim final bahsida O'zbekistonlik Baxrom Boturovni 3:58 daqiqada mag'lub etib ikkinchi finalchi yo'llanmasini o'z hisobiga naqd qilib qo'ydi. Bronza medallari uchun o'tish bahsida hamyurtimiz Kamoliddin Bahtiyorov Qo'shni mamlakat vakili Tojikistonli Xaqdod Gulovni ippon bahosi evaziga mag'lub etdi va bronza medali uchun kurashish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Ikkinchi brozna medali uchun o'tish bahsida Fransiya va Tojikiston vakillari o'za kuch sinashishdi natijada Fransiyalik sportchi Revol Cedric raqibidan ustun ekanligini isbotlab bronza medali uchun kurashish inkoniyatiga ega bo'ldi. Bronza medallari uchun kechgan murosasiz bellashuvlarda hamyurtlarimizdan Bahtiyor Kamoliddinov va Ibrohimov Anvarjonlar raqiblaridan ustun kelib OTP GROUP TASHKENT GRAND SLAM 2025 turnirining shohsupasida bronza medallari uchun joy egallashdi. Final bahslarida Azerbaijanlik Turan Bayramov hamda Rossiya federatsiyasining IJF bayrog'i ostida bellashuvlarga kirishgan Blijev Ayub o'z raqibini ballshuv vaqtidan oldin ippon bahosi evaziga mag'lub etib musoboqaning mutloq g'olibiga aylandi. Shu bilan birgalikda sportchilar o'z hisobiga qimmatli ochkolarni ham yozib qo'yishdi.

66 kg vazn toifasida kechgan murosasiz bellashuvlarda IJF bayrog'i ostida qatnashgan Ramazon Adullayev o'z vazn toifasida raqiblaridan ustun kelib oltin medalga sazovor bo'ldi. chorak final bahslarida Zamohshari Bekmurodov (UZB) Ura-nage usuli orqali Emomali, Nuralini (Tjk) yuko bahosi evaziga mag'lub etdi. Shturbabin Artyom (UZB) Braziliyalik Lima Ronaldni Osoto-gari usuli orqali Waza-ari evaziga yarim final qo'llanmasini kiritdi. Tilovov Mukhriddin esa Estoniyalik raqibidan ustun chiqdi. Abdullaev Ramazan (IJF) hamyurtimiz Nutfulloev Abdurakhimni Utsuri-goshi usuli evaziga mag'lub etdi va yarim final yo'llanmasiga ega chiqdi. Yarim final bahslari ham o'ta murosasiz kechdi. Ramazon Adullayev yarimfinal bahsida O'zbekistonlik raqibi Muhriddin Tilovovni Ouchi-gari usulini qo'llab yuko bahosi evaziga mag'lub etib, final yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Ikkinchi final yo'llanmasini Zamohshari Bekmurodov Shturbabin Artyomni 3 shido evaziga mag'lub etib final yo'llanmasiga ega bo'ldi. Bronza medallari uchun o'tish bahsida Emomali Nurali Kosoto-gari usuli orqali raqibi braziliyalik Lima Ronaldni vaqtidan oldin mag'lub etib medallar uchun yurishini davom ettirdi. Braziliyalik dzyudochi esa musobaqaning 7 o'rnidan joy oldi. Ikkinchi bronza medali uchun o'tish bahsida esa hamyurtimiz Nutfulloev Abdurahim Estoniyalik raqibidan ustun keldi va medallar uchun kurashish imkoniyatini saqlab qoldi. Raqibi esa Lipard Viljar musobaqadagi yurushini 7 o'rin bilan yakunladi. Bronza medallari uchun kechgan qizg'in bahslarda hamyurtlarimiz Tilovov Muhriddin hamda Shturbabin Artyom o'z raqiblaridan ustun ekanligini isbotlab nufuzli musobaqaning bronza medaliga ega bo'lishdi. Emomali Nurali (TJK) va Nutfulloev Abdurahim (UZB) musobaqaning 5 o'rinidan joy olishdi. Final bahsi esa Ramazan Abdullaev va Zamohshari Bekmurodov o'rtasida bo'lib o'tdi. Ushbu bellashuvda hamyurtimiz ustunlikni qo'ldan boy berdi. Ramazon Abdullaev parter holatida Yoko-shiho-gatame ushlash usuli bilan musobaqaning 66 kg vazn toifasida chempionlikni qo'lga kiritdi.

-73 kg vazn toifasida kechgan murosasiz bahslarda Galstian Karen (IJF) oltin medal, Lavrentev Danil (IJF) kumush, Gobert Maxime (FRA) va Ahadov Shahram (UZB) bronza medallariga sazovor bo'lishdi. Ikki mamlakat sportchisi orasida kechgan qizg'in bellashuvda Galstian Karen raqibidan ustun ekanligini ko'rsatdi. Bronza medallari uchun kechgan murosasiz bahslarda Shahram Ahadov raqibi hamyurtimiz Obidhon Nomonovni 3 shido

bilan Hansoku-make evaziga mag‘lub etti. Nomonov esa musobaqaning 5 o‘rnidan joy oldi. Yana bir bronza medal uchun kechgan bahsda Fransiyalik Gobert Maxime Tojikistonlik Asodulloev Muhiddinni Golden scorda yuko bahosini qo‘lga kiritish hisobiga mag‘lub etdi va sovrindorlar qatoridan joy egalladi. Shu bilan dzyudochilar o‘z hisoblariga qimmatli ochkolarni yozib qo‘yishdi.

-81 kg vazn toifasida musobaqada 18 nafar dzyudochilar ishtirok etishdi. O‘tish bahslarida dzyudochilar yorqin qizg‘in bellashuvlarni namoyish etishdi. Chorak finalgacha elgan medalllar uchun davogarlikni qo‘lga kiritgan sportchilardan Arbuzov, Timur (IJF) Waza-ari / Kouchi-gari usuli bilan Tursunov, Sukhrob (UZB) ni mag‘lub etib musobaqadagi yurishini davom ettirdi. Fujiwara Sotaro (JPN) Sobirov Musoni Golden scoreda mag‘lub etdi. Yarim final yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. Jubanazar Ablayhan (KAZ) esa Omarov Dadjimuraddan ustun keldi. Cavelius Timo Tojiyev Arslonbekka mag‘lubiyatga uchradi. Shu tariqa g‘olib bo‘lgan dzyudochilar yarim finalga yo‘l olishdi. Yarim final bahslarida Arbuzov Timur (IJF) Yaponiyalik dzyudochidan ustun ekanligini isbotlab final yo‘llanmasiga ega chiqti. Ikkinchi final yo‘llanmasini esa Tojiyev Arslonbek Omarov Gadjimuradni Taslim qo‘lga kiritdi. Shu tariqa qizg‘in bellashuvlar davom etib bronza medallari Omarov (UAE) va Jubanazar Ablayhanga ((KAZ) Nasib etdi. Finalda esa Arbuzov Timur 1 daqiqada Tojiyevni mag‘lubiyatga uchratishga musharraf bo‘ldi va musobaqaning 81 kg vazn toifasida Mutlaq chempioniga aylandi.

90kg vazn toifasida kechgan bahslarida hamyurtimiz kutilgan oltin medalni delegatsiyamizga taqdim etdi. Murosasiz kechgan final bahsda hamyurtimiz Yaponiyalik Kawabata Komeini mag‘lub etdi. Bronza medallariga esa Allahverdiyev Eldar (IJF) va Murtozoev Nurbek (UZB) ega bo‘lishdi.

-100 kg og‘ir vazn toifasida murosasiz kechgan bahsda dzyudochilar tatamida qizg‘in bellashuvlarni olib borishdi. 100 kg vazn toifasida oltin medal Kanikovskiy Matvey (IJF), kumush medal Sangariev Adam (IJF), bronza medallari esa Sarsenbaev Ernazar (UZB) va Silva Morales Ivan Felipe (CUB) ga nasib etdi.

+100 kg eng og‘ir vazn toifasida bellashuvlarga kirishgan dzyudochilardan Batchaev Denis (IJF) va Endovitskii Valerii (IJF) vakillari barcha raqiblarini yengib final yo‘llanmasini qo‘lga kiritishdi. Batchaev Denis (IJF) chorak final bahsida hamyurtimiz Turoboyev O‘tkirbekni yuko hamda ippon Ballari evaziga mag‘lub etib yarim finalga yo‘l oldi. U yarim finalda Kubalik Granda Andydan ustun ekanligini ko‘rsatib finalda Endovitskii Valerii bilan uchrashdi. Ushbu kechgan final bahsida Endovitskiini mag‘lubiyatga uchratib oltin medalga sazovor bo‘ldi. Parij-2024 Olimpiadasi sovrindori Alisher Yusupov +100 kg vazn toifasida O‘tkirbek To‘rboyevga qarshi bellashuvda bronza medalini qo‘lga kiritdi. Batchaev Denis (IJF) ga mag‘lub bo‘lgan Granda Andy (CUB) ikkinchi bronza medalini qo‘lga kiritdi.

2-jadval

Ayollar o'rtasida OTP GROUP TASHKENT GRAND SLAM 2025 natijalari

Vazn toifalari	Oltin 	Kumush 	Bronza 
-48 kg	Miyaki Kano  JPN	Yoshioka Hikari  JPN	Giliazova Sabina  IJF
			Hui Xinran  CHN
-52 kg	Tsubone Nanako  JPN	Leiva Sanchez Ayumi  SPN	Lapuerta Comas Mireia  SPN
			Takeuchi Rin  SPN
-57 kg	Omori Akari  JPN	Ono Moa  JPN	Nelson Levy Timna  ISR
			Zueva Irina  IJF
-63 kg	Yamaguchi Kirari  JPN	Shemesh Inbal  ISR	Tatsukawa Momo  JPN
			Oberan Iva  CRO
-70 kg	Maeda Rin  JPN	Razzokberdieva Khurshida  UZB	Scoccimarro Giovanna  GER
			Liao Yu-Jung  TPE

Ayollar o'rtasida kechgan murosasiz bahslarni yengil vazn toifalari musobaqadagi yurishlarni boshlab berishdi. 48 kg vazn toifasida 20 nafar dzyudochi bellashuvlarga kirishdi. Ushbu vazn

toifasida oltin medal Miyaki kano (JPN) ga Nasib etdi. U Alisherova 1 davrada Ruhshona (UZB), 2 davrada Costa, Catarina (POR), chorak finalda Vorobeva Marina (IJF), yarim finalda Muminova Ahliyo (TJK) va finalda esa Yoshioka, Hikari (JPN) ni 3 shido hansoku-make evaziga mag'lubiyatga uchratib mutlaq g'olibga aylandi. Kumush medal Yoshioka Hikariga bronza medallari esa Giliazova, Sabina (IJF) va Hui, Xinran (CHN) larga topshirildi.

52 kg vazn toifasida dyudochilar o'z yurishlarini asosan 2 davradan boshlab berishdi. Hamyurtlarimizdan Ahmatova Mahliyo, Rafkatova Sugdiyona Djumaniyazova Umidalar raqiblariga imkoniyatni boy berishdi. Qizg'in kechgan bellashuvlarda chorak finalgacha yetib kelgan Efimova Karina (IJF) raqibi Primo Defen (ISR) ni golden scoreda Seoi-nage usulini bajarish bilan raqibini yengib yarim finalga yo'l oldi. Tsubone Nanako (JPN) esa yarim final imkoniyatini qo'lga kiritish uchun Zhang Yuanli (CHN) ni mag'lub etdi. Takeuchi Rin (JPN) afsuski ushbu bellashuvda imkoniyatni boy berdi. Yana bir yarim final yo'llanmasi uchun tatamiga chiqqan Lapuerta Comas, Mireia (ESP) Jamalova Zarinani Ouchi-gari usulini qo'llash orqali g'alabani qo'lga kiritdi. Bronza medali uchun o'tish bahsida Zhang Yuanli (CHN) raqibi Primo Gefenni 2:49 daqiqada mag'lubiyatga uchratdi. Ikkinchi bronza medali uchun o'tish bahsida Takeuchi Rin (JPN) sumi-otoshi usuli yordamida muddatidan oldin Jamalova Zarina (UZB) ni mag'lub etib bronza medali uchun kurashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yarim final bellashuvlari Yaponiyalik Tsubone Nanako hamda Efimova Karina bilan qizg'in kechdi. Biroq Efimova Nanakoga mag'lubiyatga uchradi. Ikkinchi yarim final bellashuvlari Leiva Sanchez Ayumi (ESP) 3 shido evaziga Lapuerta Comas Mireiani mag'lub etib final yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Bronza medallari uchun kechgan qizg'in bahslarda Takeuchi Rin (JPN) va Lauperta Comas, Mireia (ESP) medallarga ega chiqdi. Finalda esa Leiva Sanchez Ayumi Nanakoga imkoniyatni boy berib turnirning kumush medaliga ega bo'ldi. Shu tariqa yaponiya vakili 52 kg vazn toifasida Mutlaq chempionlikni qo'lga kiritdi.

57 kg vazn toifasida ushbu musobaqada 17 nafar dzyudochi qizlar ishtirok etishdi. Bronza medallari Zueva Irina (IJF) va Nelson Levy, Timna (ISR) vakillariga topshirildi. Kumush medalni esa Ono Moa (JPN), final bellashuvida Omori Akariga (JPN) imkoniyatni boy berib, o'z hisobiga ushbu turnirning kumush medali hamda qimmatli reyting ochkosini yozib qo'ydi. Oltin medal esa barcha raqiblaridan ustun kelgan Omori Akari (JPN) vakiliga topshirildi. Musobaqaning birinchi kun kechgan qizg'in bahslarida 48 kg, 52 kg, 57kg, vazn toifalarida bellashuvlarga kirishgan terma jamoamiz qizlari imkoniyatni boy berib qo'yishdi.

Musobaqaning ikkinchi kunida bellashuvlarga kirishgan 63 kg va 70 kg vazn toifalarida terma jamoamiz 8 nafar sportchilaridan faqat 70 kgda medallar uchun kurashish imkoniyatini boy bermagan va final yo'llanmasini qo'lga kiritgan dzyudochimiz Razzokberdieva Khurshida kumush medalini qo'lga kiritdi. U final bahsida Maeda Rin (JPN) bilan bellashdi. Qizg'in kechgan bahsda afsuski sportchimiz 2:46 daqiqada uchi-mata usuliga yeqildi va imkoniyatni boy berdi. 63 kg vazn toifasida oltin medal Yamaguchi, Kirari (JPN), kumush medal Shemesh, Inbal (ISR), bronza medallari esa Tatsukawa, Momo (JPN) va Oberan, Iva (CRO) larga topshirildi.

70 kg vazn toifasida oltin medal Maeda, Rin (JPN), Razzokberdieva, Khurshida (UZB), Scoccimarro, Giovanna (GER) va Liao, Yu-Jung (TPE) larga topshirildi.

78 kg vazn toifasi og'ir vaznli sportchilarimiz ham afsuski musobaqadagi yurishlarini yakunlashdi.

78 kg vazn toifasida Ma Zhenzhao chorak finalda Pavic Petrunjela bilan bellashuvga kirishdi. Bellashuvning 0:55 soniyasida ikkala dzyudochiga hakam tomonidan shido berildi. 2:10 daqiqada Xitoylik dzyudochi ikkinchi shidoni oldi. Bellashuvning 3:40 daqiqasida o'ng tomonga o-soto-gari usulini bajarish evaziga yuko va raqibini parterda osaekomi ushlash hisobiga ushbu bellashuvni g'alaba bilan yakunladi. Ma Zhenzhao yarim finalda Isroil vakilasi Lanir Inbarni parterda mag'lub etdi. Final bellashuvida esa Germaniyalik Boehm Alinadan ustun kelib musobaqa g'olibga aylandi. Kumush medalga sazovor bo'lgan Boehm Alina chorak finalda Brazilyalik Gimenes Karolni mag'lubiyatga uchratib yarim finalda hamyurti Olek Anna Monta bilan bellashdi. Ushbu

bellashuvda ham Boehm Alina g'alabaga erishdi. Bronza medallari esa Germaniya vakili Olek Anna Monta va Isroillik Lanir Inbarga topshirildi.

+78 kg vazn eng og'ir vaznli dzyudochilar orasida kechgan bellashuvda Oltin medal xitoy vakili Niu Xinran, kumush medal dzyudo vatani vakili Yamaguchi Chihiroga, bronza medallari Xitoylik Ayiman Jinesinuer va Fransiyalik Tolofua Julialarga tantanali ravishda topshirildi. Shu tariqa OTP Group Tashkent Grand Slam 2025 turnirining bellashuvlari yakunlanib, g'olib va sovrindor sportchilar o'z hisoblariga qimmatli ochkolarni yozib qo'yishdi.

OTP Group Tashkent Grand Slam 2025 musobaqasida mamlakat terma jamoalari quyidagicha o'rin egallashdi.

3-jadval

№	Mamlakat	1	2	3	5	7
1.	International judo Federation 🇺🇸	6	3	3	5	2
2.	Japan 🇯🇵	5	4	2	2	-
3.	People's Republic of China 🇨🇳	2	-	2	2	2
4.	Uzbekistan 🇺🇿	1	3	8	6	7
5.	Israel 🇮🇱	-	1	2	1	2
6.	Germany 🇩🇪	-	1	2	-	1
7.	Spain 🇪🇸	-	1	1	1	1
8.	Azerbaijan 🇦🇿	-	1	-	-	-
9.	France 🇫🇷	-	-	2	2	2
10.	Cuba 🇨🇺	-	-	2	-	1
11.	Kazakhstan 🇰🇿	-	-	1	1	1

Musobaqani kuchlik uchlikda IJF, Yaponiya, Xitoy va O'zbekiston terma jamoalari yakunlashdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mamlakatimizda dzyudo sport turini yanada rivojlantirish uchun o'quv mashg'ulot jarayonining ilmiy-uslubiy yondashuvini takomillashtirish zarur. Xalqaro sport musobaqalarida mahalliy dzyudochilar bilan birgalikda yuqori reytingga ega bo'lgan xorijiy kuchli dzyudochilar, xalqaro darajadagi murabbiylar va hakamlarning ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Sportchilarning professional mahoratini va murabbiylarning kasbiy malakasini oshirish uchun dzyudo bo'yicha xorijiy maktablar bilan hamkorlikni rivojlantirish va tajriba almashish, ayollar dzyudosini rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dzyudo bo'yicha mahalliy va xalqaro musobaqalarni tizimli ravishda tashkil qilish, xalqaro musobaqalarda ishtirok etish, shu jumladan Olimpiya va Osiyo o'yinlarida qatnashish huquqini beruvchi litsenziyalarni qo'lga kiritish va har Olimpiya va Osiyo o'yinlari siklida ularning sonini ko'paytirib borish lozim.

Foydalanilgan manbalar:

www.judo.uz

www.ippon.tv

www.thejua.org

www.ijf.org

Ismatullayeva S.R. Dzyudo sport turi bo'yicha kattalar o'rtasida Toshkent "GRAND SLAM" 2023-taxlil natijalari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar Xalqaro-ilmiy metodik jurnal 2023/4. - B. 182-189. [13.00.00 № 4].

Ismatullayeva S.R. Dzyudo sport turi bo'yicha kattalar o'rtasida Toshkent "GRAND SLAM" 2023-taxlil natijalari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar Xalqaro-ilmiy metodik jurnal 2023/4. - B. 182-189. [13.00.00 № 4].

Ismatullayeva S.R. Fundamentals of increasing the efficiency of competition activity and developing technical and tactical training // Mental enlightenment scientific – methodological journal 2024/1. - pp. 2181-6131.

С.ҚАДИЛОВ. Спорт курашлари бўйича париж-2024 олимпия ўйинларининг илмий-назарий таҳлили // "FAN – SPORTGA" илмий-назарий журнали, 2025 №1, 13-17 бет.

TALABALARNING O'ZLASHTIRISHI LOZIM BO'LGAN OILAGA OID BILIMLAR TIZIMI VA ULARNING MAZMUNI

Alikulova Muxayyo Sherovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola mazmunida oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarning hayotida bu davrning muhim davr hisoblanishi, bu vaqtda talabaning kasbiy bilimlarga ega bo'lishi bilan birga shaxs sifatida o'zini o'zi har tom tonlama shakllantirishi ham ro'y berishi haqida yoritilgan bo'lib, talabalarga oilaviy hayotga doir bilim va ko'nikmalarni chuqur egallash va uni zamonaviy sharoitda qo'llay olish shartlarini aniqlash uchun bu bilimlar tizimi haqida manbalar berilgan.

Kalit so'zlar: oila boshqaruviga oid bilimlar, oilaga oid iqtisodiy bilimlar, oila salomatligi borasidagi bilimlar, oilaning axloqiga oid bilimlar, oila konfliktlari yechimiga doir bilimlar

СИСТЕМА ЗНАНИЙ О СЕМЬЕ, КОТОРЫМИ ДОЛЖНЫ УЗНАТЬ УЧАЩИЕСЯ, И ИХ СОДЕРЖАНИЕ

Аликулова Мухайё Шеровна

Научный сотрудник Шахрисабзского государственного педагогического института

Аннотация: В статье подчеркивается важность этого периода в жизни студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, в течение которого студент не только приобретает профессиональные знания, но и развивается как личность. Предоставляет учащимся источники по данной системе знаний с целью глубокого усвоения знаний и навыков о семейной жизни и определения условий их применения в современных условиях.

Ключевые слова: знания по управлению семьей, знания по экономике семьи, знания по здоровью семьи, знания по семейной этике, знания по разрешению семейных конфликтов

SYSTEM OF FAMILY KNOWLEDGE THAT STUDENTS NEED TO MASTER AND THEIR CONTENT

Alikulova Mukhayyo Sherovna

Researcher, Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Annotation: The content of this article highlights the importance of this period in the lives of students studying in higher education, during which the student acquires professional knowledge, as well as the formation of himself as a person, and provides sources about this system of knowledge in order for students to deeply acquire knowledge and skills about family life and determine the conditions for applying it in modern conditions.

Keywords: knowledge about family management, family economic knowledge, knowledge about family health, knowledge about family ethics, knowledge about resolving family conflicts

Kirish (Introduction). Dunyoda oila inqirozi kuchayib borayotgan bir paytda oliy ta'lim jarayonida tahsil olayotgan yoshlarning istagi va dunyoqarashiga mos keladigan zamonaviy ta'lim shakllarini takomillashtirishi orqali ularning oilaga oid majmuaviy bilimlarini rivojlantirish borasida tadqiqotchi olimlar va turli ijtimoiy institutlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, amaliy natijalarga erishishni kafolatlaydigan ta'limning ko'p variantlilikka asoslangan usullari asosida talabalarning oilaga oid majmuaviy bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish oliy ta'lim oldidagi amaliy yechimini kutayotgan muammodir. Zamonaviy ta'lim shaxsning jamoadan ustunlik muammosiga alohida ahamiyat qaratmoqda. Chunki ta'lim tizimining istalgan bosqichida bo'ladimi, ishlab chiqarishdami real voqeylikda bir-biriga yaqin, hamfikir jamoa tobora kam uchraydigan xodisaga aylanmoqda. Har bir shaxs alohida o'ziga xoslikka ega bo'lganligi bois ularni individual yo'nalishda tarbiyalanishi keyinchalik oila

munosabatlarini o'rnatmaslikda namoyon bo'lmoqda. Bu borada makarenko shunday fikr bildiradi: "oiladagi bola nafaqat ota-ona quvonchi uchun, balki u usib kelayotgan fuqaro, jamoat arbobi, oila a'zosi".. Shunday ekan bugungi yoshlarga oilaga oid majmuaviy bilimlarni singdirish jamiyat taraqqiyoti, davlat ravnaqi uchun muhim qadam bo'lib hisoblanadi[2,86].

Bugungi global sharoitda oliy ta'lim muassasalari nafaqat yetuk mutaxassis tayyorlash, balki talaba shaxsini ijtimoiy hayotga tayyorlash, oila qurish, bolalar tarbiyayasi, oilani mustahkamlash asoslarini chuqur o'rgatish, umuman oilaviy hayotga tayyorlash vazifasini ham bajarishga ham yordam berishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishda nafaqat psixologik-pedagogik, balki faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri bu qadriyatlarni anglagan shaxs bo'lish talabidir, chunki aynan talabalar qadriyatli yo'nalishi bir qator olimlar (V. K. Zaretskiy, Ya. A. Ponomarev, S. Yu. Stepanov, E. A. Yablokova va boshqalar) ning fikricha, uning ijtimoiy kompetensiyasini belgilab beradi. Bunga turli tadbirlar, suhbatlar, treninglar ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlaydi. Eng so'nggi psixologik-pedagogik lug'atga ko'ra, haqiqiy bilimning muhim fazilatlari - ularning ongliligi, mazmunliligi, o'ziga xos mazmun bilan to'yinganligi, o'rganilayotgan ob'ektlar, jarayonlar, ularning qonuniyatlari haqida aniq tasavvur va tushunish, nafaqat nomlash, balki bilish qobiliyatidir. (A. P. Astaxov). Hamkorlik o'zaro ta'sir turi sifatida ota-onalar va bolalar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni birgalikdagi faoliyatning umumiy maqsadlari va vazifalari, uni tashkil etish va yuksak ma'naviy qadriyatlar bilan vositachilik qilishni nazarda tutadi (E. A. Grischuk) [3;305].

Tahlil va natejalar (Analysis and results).

Bizga ma'lumki, oliy ta'limda o'qish talabalar hayotida muhim davr hisoblanib, unda ularning kasbiy bilimlarga ega bo'lishi bilan birga shaxs sifatida o'zini o'zi har tom tonlama shakllantirishi ham muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, talabalarga oilaviy hayotga doir bilim va ko'nikmalarni chuqur egallash va uni zamonaviy sharoitda qo'llay olish shartlarini aniqlash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun talabalarni oilaga oid bilimlarini tizimlashtirish maqsadga muvofiq va bu bilimlar tizimiga quydagilar kiradi.

Boshqaruviga oid bilimlar

Iqtisodiy bilimlar

Oila salomatligi borasidagi bilimlar

Oila axloqiga oid

Oila konfliktlari yechimiga doir bilimlar

Oilada jinslar munosabati borasidagi bilimlar

Oila majburiyatiga doir bilimlar

Oilaning oshqaruviga oid bilimlar - oilani boshqarishda, oilani farovonligini ta'minlashda iqtisodiy bilimlarni real jarayonda qo'llay olish maqsadga muvofiq. Shu sababli talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim: Oila muhitida tadbirkor bo'lish, kasb bilan birga muayyan hunar egallashga rag'batli bo'lishi, oila ehtiyojlarini anglash, oila a'zolari orasidagi iqtisodiy muammolarni ko'ra bilishi, iqtisodiy muammolarni yechimiga innovatsion yondasha olish tajribasiga ega bo'lishi.

Oilaga oid iqtisodiy bilimlar - oila iqtisodiyoti oila a'zolariga umumiy asosda tegishli bo'lgan hamda xususiy mulk turlaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Mulk esa narsalar, moddiy va ma'naviy qadriyatlarning muayyan shaxsga tegishliligi, mulk obyektlariga egalik qilish, bo'lish, taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan odamlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlardir. Bundan kelib chiqadiki, talaba yoshlar oila mulkini qadriyat sifatida ko'ra olish, uni boshqarish, oila mulkidan foydalanishga doir bilimlar bilan qurollantirilishi lozim.

Oila salomatligi yo'nalishiga doir bilimlarni shakllantirishda:

- oila a'zolarining salomatligi uchun qayg'urish: oila a'zolarining salomatligi uchun qayg'urish

oilaviy hayotning muhim tarkibiy qismidir. Bu qayg'urish nafaqat jismoniy salomatlikni, balki ruhiy va ijtimoiy salomatlikni ham o'z ichiga oladi;

- sog'liqni saqlash omillarini bilish: oilada insonlarning sog'lig'ini asrash omillarini bilish, birinchi yordam ko'rsata olish, oilaviy sog'liqni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu omillarga to'g'ri ovqatlanish, muntazam jismoniy mashqlar, stressni boshqarish va yomon odatlardan voz kechish kiradi;

- reproduktiv salomatlik: reproduktiv salomatlik mezonlarini bilish va amal qilish, oilaviy hayotda sog'lom va xavfsiz reproduktiv qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Bu jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar (JYUK) dan himoyalalanish, xavfsiz jinsiy aloqa qilish va rejalashtirilgan homiladorlik haqida bilimga ega bo'lishni o'z ichiga oladi;

- to'g'ri ovqatlanish: oilada to'g'ri ovqatlanish miyolarini bilish, oila a'zolarining sog'lom ovqatlanishini ta'minlashga yordam beradi. Bu turli xil oziq-ovqatlarni iste'mol qilish, meva-sabzavotlarga boy ovqatlarni tanlash va shakar va yog' miqdorini kamaytirishni o'z ichiga oladi;

- xalq tabobati: oila a'zolarini davolashda xalq tabobatidan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish, ba'zi sog'liq muammolarini tabiiy usullar bilan hal qilishga yordam beradi. Biroq, xalq tabobatidan foydalanishdan oldin shifokor bilan maslahatlashish muhimdir;

- tibbiy bilimlarga qadriyatli munosabat: tibbiy bilimlarga qadriyatli munosabatda bo'lish, sog'liq muammolarini o'z vaqtida aniqlashga, shifokor bilan maslahatlashishga va davolanishni to'g'ri amalga oshirishga yordam beradi;

- tibbiy bilim va tahdidlar: tibbiy bilim va tahdidlar haqida zarur bilimga ega bo'lish, oila a'zolarini turli xil sog'liq muammolari va tahdidlardan himoyalashga yordam beradi. Bu yuqumli kasalliklar, allergiya, zaharlanish va boshqa sog'liq tahdidlari haqida bilimga ega bo'lishni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, oila a'zolarining salomatligini ta'minlash uchun oila a'zolarining sog'liqni saqlash haqida zarur bilimlarga ega bo'lishi va yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalarni o'zlashtirishi muhimdir. Bu oilaviy hayotning sifati va farovonligini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Oiladagi jinslararo munosabatlar yo'nalishiga doir bilim quyidagilar:

- jinsiy tarbiya asoslari: talabalarning jinsiy tarbiya asoslari haqida bilimga ega bo'lishi, ularga sog'lom jinsiy munosabatlarni o'rnatish, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklardan himoyalalanish va rejalashtirilgan homiladorlik haqida to'g'ri ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi;

- oila a'zolarining ruhiyatini tushunish: oiladagi erkak, ayol, o'smir, keksa avlod vakillarining ruhiyati haqida bilimlarga egaligi, talabalarga oila a'zolari bilan samarali muloqot qilishga, ularning his-tuyg'ularini tushunishga va o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi;

- nikohning qadriyatini anglash: nikohning diniy ham, zamonaviy nuqtai nazardan kadrlilik ekanligini anglash, talabalarga nikohning ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini tushunishga, halollik va sadoqatning muhimligini anglab yetishga yordam beradi;

- jismoniy faoliyat an'anasi: oilada jismoniy faoliyat bilan shug'ullanishni an'anasiga aylantirish, oila a'zolarining sog'lig'ini mustahkamlashga, jismoniy faollikning ijobiy ta'sirini oshirishga va umumiy farovonlikni yaxshilashga yordam beradi;

- jinslar o'rtasidagi axloq normalari: oilada jinslar o'rtasida axloq normalarini bilishi va amalda qo'llay olishi, talabalarga sog'lom jinslararo munosabatlarni o'rnatishga va oilaviy hayotda axloqiy qadriyatlarga rioya qilishga yordam beradi;

- psixologik ta'sir o'tkaza olish: oilaning turli jins vakillariga psixologik ta'sir o'tkaza olish imkoniyatiga ega bo'lishi, talabalarga oila a'zolari bilan hissiy aloqa o'rnatishga, ularni tushunishga va ularga yordam berishga yordam beradi.

Oila axloqi yo'nalishi bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq:

- iliq munosabatlar: oila a'zolari bilan iliq munosabatlarni o'rnatish usullarini bilish, talabalarga oilada o'zaro hurmat, mehr-muhabbat va tushunishni yaratishga yordam beradi;

- faoliyat va ijodiy imkoniyatlar: oiladagi insonlarning faolligini, ijodiy imkoniyatlarini, yaratuvchanlik qobiliyatlarini ko'ra olish va ularni rag'batlantirish yo'llarini bilish, talabalarga

oila a'zolarining potensialini ochishga va ularning rivojlanishiga hissa qo'shishga yordam beradi;

- axloqiy mavzularda suhbatlar: oila a'zolari bilan turli axloqiy mavzularda suhbatlar tashkil etish va ma'naviy dunyoqarashini boyitish bo'yicha turli adabiyotlar taklif etish, talabalarga oila a'zolari bilan ma'naviy-axloqiy masalalarni muhokama qilish va ularning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi[3,122].

Oila a'zolari majburiyatlari yo'nalishiga doir quyidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim:

- ayol va erkakning majburiyatlari: oiladagi ayol va erkakning majburiyatlarini bilishi va tahlil qila olishi, talabalarga oilaviy hayotdagi jinslararo rollarni tushunishga va o'zaro hurmat va tenglikka asoslangan munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi;

- zamonaviy oila talablari: zamonaviy oila talablarini bilishi, talabalarga oilaviy hayotning o'zgarib borayotgan sharoitlariga moslashishga va o'zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli shakllantirishga imkon beradi;

- erkinlik, huquq va burch: oilada tomonlar erkinligi, huquq va burch haqida bilimga ega bo'lishi, talabalarga oilaviy hayotda o'z huquqlarini va majburiyatlarini bilishga va ularni hurmat qilishga undaydi;

- majburiyatlarni to'g'ri anglash: har bir oila a'zosining majburiyatini to'g'ri anglashga o'rgatish usullarini, mehnat va ta'til muhofazasi mazmunini bilishi va foydalana olishi, talabalarga oilaviy hayotda mehnat qilish, ta'til olish va o'z huquqlarini himoya qilish haqida bilimga ega bo'lishga;

- qonun hujjatlarini bilish: tomonlar huquqlari bo'yicha qonun hujjatlarini bilish, tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi, talabalarga oilaviy hayotda o'z huquqlarini himoya qilish va qonunlarni bilishga yordam beradi.

Oila konfliktlari yechimiga doir bilimlar doirasida talabalar quyidagilarni bilishi lozim:

- oiladagi konfliktlar va ularni oldini olish, bartaraf etish usullarini bilishi;
- oila a'zolariga konfliktlarni tabiiy xodisa ekanligini tushuntira olish malakasi;
- konfliktlarni o'ziga xos xususiyatlari tug'risidagi bilimlarga ega bo'lishi;
- oila a'zolariga hurmat qo'rsatish, irodaviy sifatlarni shakllantirish bo'yicha yo'l yo'riq ko'rsata olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim[2,68].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Yoshlarda oilaga nisbatan akseologik munosabatni tarkib toptirish, oilaviy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish hamda ularni oilaviy hayotga pedagogik-psixologik tayyorlash masalalarining o'ziga xos jihatlari respublikamiz olimlaridan R. Shadiyev, O. Musurmonova, M. Artiqova, N. Oripova, A. Xo'jaqulovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz faylasuf olimlaridan J. To'lenov, Q. Nazarov, A. Erkayev, A. Huseynova, G. Navro'zova, I. Saifnazarov, X. Shayxova, R. Ro'ziyeva, H. Salomovalar tadqiqotlarida oilada mehr tuyg'usi va uni shakllantirish masalalarining ayrim jihatlari o'rganilgan.

Oila-nikoh masalalari, oiladagi shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlari E. G'oziyev, A. Jabborov, M. Fayziyeva, B. Shoumarov, N. Salayeva, M. Karimova, O. To'rayeva, F. Ro'ziqulovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Yoshlarning oilaga oid majmuaviy bilimlarini shakllantirish muammosi bugungi kunda butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan muammolardan biridir. Chunki, statistik ma'lumotlarga ko'ra oilaviy ajrimlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri yoshlarda yoshlarda oilga oid bilimlarning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Shunday ekan, yoshlarning oilaga oid majmuaviy bilimlarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik jarayon oldidagi asosiy masalalardan biri bo'lmog'i zarur. Talabalarining oilaga oid majmuaviy bilimlarini shakllantirishda obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro aloqadorligini hisobga olish, o'quv yurtlarida ochiq ta'limiy muhitni yaratish, pedagoglar, ijtimoiy tarbiyaning turli tashkiliy shakllarini uyg'unlashtirish (individual, guruh, jamoaviy) va talabalarining bo'sh vaqtini samarali tashkil etishga e'tiborni kuchaytirish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

G. O. Ochilova «Kasbiy kompetentlik» o'quv qo'llanma T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021-yil 228 bet

M. A. Ahmedova, V. S. Xan, D. A. Alimova "Qadriyatlar falsafasi" (Aksiologiya) T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti 2006-yil 440 bet

Matbua Ahmedova "Falsafa" darslik T.: "O'zbekiston faylassuflari milliy jamiyati" nashriyoti 2006-yil 496 bet

A. Madvaliyev "Pedagogika ensiklopediyasi" T.: "O'zbek tilining izohli lug'ati" davlat milliy nashriyoti 2015-yil 320 bet.

Alikulova M. Talabalarining oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish tamoyillari. QarDU xabarlar. 2022 5/1(55). – B. 170-174 (13.00.00)

Alikulova M. Zamonaviy sharoitda talabalarining oilaga oid majmuaviy bilimlarini shakllantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida. O'zbekiston milliy universiteti xabarlar, 2023, [1/11] ISSN 2181-7324. <http://journals.nuu.uz/>. Social sciences. – B. 55-57. (13.00.00).

LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RICHPEACE CADNING AHAMIYATI

Asrorova Saodat Abdulloyevna
tayanch doktorant, Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada loyihalash kompetensiyasini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Loyihalarni boshqarishda Richpeace CAD raqamli texnologiyasining roli haqida, loyiha boshqaruvini samarali amalga oshirish, vaqtni va resurslarni to'g'ri taqsimlash imkoniyatlari ta'riflanadi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalarni loyihalash jarayoniga integratsiya qilish orqali samaradorlikni oshirish va zamonaviy ish muhitida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur kompetensiyalarni rivojlantirish haqida so'z yuritiladi.

Tayanch iboralar: fan va texnika, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, Richpeace CAD, raqamli texnologiya, loyihalash.

РОЛЬ САПР RICHPEACE В ФОРМИРОВАНИИ ПРОЕКТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

Асророва Саодат Абдуллоевна
Докторант, Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной статье анализируется роль цифровых технологий в формировании проектной компетентности. О роли цифровых технологий Richpeace CAD в управлении проектами, описаны возможности эффективного управления проектами, правильного распределения времени и ресурсов. В статье также рассматривается развитие необходимых компетенций для достижения эффективности и успеха в современной рабочей среде за счет интеграции цифровых технологий в процесс проектирования.

Ключевые слова: наука и техника, обучение, знания, навыки, квалификация, компетенция, САПР Richpeace, цифровые технологии, дизайн.

THE IMPORTANCE OF RICHPEACE CAD IN THE FORMATION OF DESIGN COMPETENCY

Asrorova Saodat Abdulloyevna
PhD student (basic doctoral candidate), Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes the role of digital technologies in the formation of design competency. About the role of Richpeace CAD digital technology in project management, the opportunities for effective project management, proper allocation of time and resources are described. The article also discusses the development of the necessary competencies to achieve efficiency and success in modern working environment through the integration of digital technologies into the design process.

Keywords: science and technology, training, knowledge, skill, qualification, competency, Richpeace CAD, digital technology, design.

Kirish. Har qanday jamiyatning kuchi fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mohiyati, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni g'oyalariga muvofiq, milliy

tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi dunyoviy yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'la bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. O'zbekistonda ta'lim sohasini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar, mamlakatni yangi texnologiyalar bilan zamonaviylashtirish va xalqaro me'yorlarga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish, nafaqat o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish, balki yoshlarni global raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ta'lim sohasida xususan, loyihalash sohasida ham raqamli transformatsiya, innovatsion dasturlar orqali amalga oshirishdagi tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Loyihalash – mo'ljallangan obyektlar (apparat va asboblari, bino va inshootlar, yo'l va ko'priklar, mashina va jihozlar, samolyot va kosmik kemalar, radiopriyomnik va televizorlar, telefon shuningdek kompyuterlar, kiyim-bosh va poyabzallar, mebellar hamda boshqa turli-tuman mahsulotlarning yangi xillari va namunalari)ni qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish jarayoni. Fan va texnikaning turli sohalarida qo'llanadi.

Loyihalashda maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan barcha resurslarni, vaqtni va imkoniyatlarni samarador tarzda boshqarishni talab qiladigan murakkab tizimli jarayon. An'anaviy usullar bilan bu jarayonni boshqarish ko'pincha murakkab va ko'p vaqt talab etuvchi bo'lishi mumkin. Raqamli texnologiyalar bu jarayonlarni osonlashtirib, yanada samarali qilish uchun kerakli vositalarni taqdim qiladi. Raqamli vositalar yordamida loyihalash jarayonining har bir bosqichi, boshqaruvdan tortib, kommunikatsiyagacha, optimallashtiriladi va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun samarali usul hisoblanadi [1].

Raqamli texnologiya esa – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy xo'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon yaratadi.


Metodlar. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini aytib o'tish mumkin. Loyihalash kompetensiyasini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati juda katta. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar har bir sohada ish jarayonlarini yanada samarali, tezkor va aniq amalga oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, loyihalash sohasida raqamli vositalar muhim ahamiyatga ega. Alohida resurslarni boshqarishda masalan: raqamli texnologiyalar yordamida loyihalarni rejalashtirish va boshqarish juda osonlashadi. Masalan, loyihaning vaqt, iqtisodiy va resurslarni boshqarish uchun maxsus dasturlar mavjud. Bu dasturlar loyihalar bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni bir joyda saqlash va alohida monitoring qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Raqamli texnologiyalar yordamida loyihalarni boshlashdan oldin ularni sinovdan o'tkazish va modelashtirish imkoniyatlari paydo bo'lib boradi. Bu esa loyihaning turli xil holatlarda qanday ishlashini ko'rishga yordam beradi va xatoliklarni oldindan aniqlash va tuzatish uchun ajoyib imkon yaratadi. Va, albatta, bu esa loyihaning samaradorligini oshiradi va to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi, ham iqtisodiy tomondan ham vaqt sarfi hisobidan ancha samarali sanaladi. Biz bu maqolada ta'lim tizimida raqamlashtirishni eng zamonaviy va samarador dasturi bo'lgan Richpeace Garment haqida to'xtalib o'tamiz.

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda ko'plab sohalarda, ayniqsa, loyihalash va dizayn jarayonlarida muhim o'rin egallaydi. Ularning samarali qo'llanilishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, vaqtni tejaydi va xatoliklarni minimallashtiradi. Loyihalash va ishlab chiqarish sanoatida keng tarqalgan mashhur dasturiy ta'minot – Richpeace Garment – raqamli

texnologiyasi katta rol o'ynaydi. Ushbu dasturlar, o'ziga xos jihatlar va imkoniyatlarga ega bo'lib, turli xil sanoat va loyihalash sohalarida samarali ishlaydi [2]. Ushbu dasturlarining raqamli texnologiyalar bilan qanday integratsiyalashganini ko'rib chiqamiz.

Richpeace CAD yordamida loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish – bu texnologiyalarni, ayniqsa kompyuter yordamida loyihalash dasturlarini o'rgatish orqali talabalarga innovatsion yondashuvlar va aniq natijalarga erishish imkoniyatlarini yaratadi. Richpeace CAD (Computer-Aided Design) – bu to'qimachilik sanoatida, ayniqsa kiyim-kechak dizayni va tikuvchilikda ishlatiladigan mutaxassislik dasturi bo'lib, u yordamida murakkab dizaynlarni yaratish va modellashtirish mumkin. Quyida Richpeace CAD yordamida loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy tamoyillari va yondashuvlari keltirilgan.



1-rasm. Richpeace CAD dasturiga kirish va uning interfeysi

Richpeace CAD dasturiga kirish va uning interfeysini o'rganish. Loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun, avvalo, Richpeace CAD dasturining interfeysi va uning asosiy funksiyalarini o'rganish zarur. Dastur yordamida turli xil dizayn elementlarini yaratish, tahrir qilish va sozlash mumkin bo'ladi [3]:

asosiy funksiyalarni o'rganish – o'quvchilarga grafik interfeys, asboblar paneli, menyular, chizish va o'lchovlarni qo'llash kabi funksiyalarni o'rgatish;

shablonlar bilan ishlash, ya'ni Richpeace CAD dasturida tayyor shablonlar orqali ishni tezlashtirish va soddalashtirish mumkin. Bu orqali talaba o'z dizaynlarini yaratishda qulayliklarga ega bo'ladi.

Natijalar. Loyihalash jarayonida talabalarga dizaynning eng asosiy tamoyillari, masalan, proporsiyalar, kompozitsiya va simmetriya kabi tushunchalarni tushunishlari kerak. Richpeace CAD dasturida bu elementlar yordamida turli xil kiyim-kechak yoki boshqa to'qimachilik mahsulotlari dizaynlarini yaratish mumkin, jumladan:

chizmalarni yaratish va modellashtirish – bu talabalarga chizmalar, konturlar va shakllarni to'g'ri ishlab chiqishni o'rganishadi, shuningdek, ularga 2D va 3D modellashtirishni o'rganishadi;

matn va o'lchovlarni qo'llash esa – dizaynlar ustida matnlar qo'shish, o'lchovlar kiritish va boshqa vizual elementlar yordamida aniq va to'g'ri loyihalarni yaratadilar.

Richpeace CAD yordamida talabalar turli xil dizayn loyihalarini yaratishda amaliy ko'nikmalarni egallaydilar. Bu jarayonda dizaynning bosqichma-bosqich tayyorlanishini o'rgatish

zarur.

kiyinishdagi detallarni yaratish – bu loyiha yaratishning birinchi bosqichida talabalarga kiyim detalini, masalan, yelka, bel, yeng o‘mizi va boshqalarni konstruksiyalashdir;

texnologik jarayonlar va tikish xatoliklarini tuzatish – talabalar dastur yordamida turli xatoliklarni aniqlash va ularni tuzatish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Richpeace CAD yordamida 3D model yaratish va uni to‘g‘ri tahrir qilish ham ajralmas, ham muhim qismdir [7]. Talabalar dastur orqali kiyimlarni yoki boshqa mahsulotlarni 3D modellashtirishi va uni tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, jumladan:

3D modellashtirish – 3D modellar yaratishni, ularni real vaqt rejimida ko‘rishni va tahrirlashni o‘rganishadi;

prototiplarni yaratish – bu yaratilgan modelni prototip sifatida tasavvur qilish va uni fiziki shaklda tikish jarayoniga tayyorlashni o‘rganishadi.

Munozara. Loyihalash jarayonida dastur orqali simulyatsiyalar o‘tkazish va texnik tahlillarni amalga oshirish kerak. Bu o‘quvchilarni loyihani tahlil qilishga va eng yaxshi natijalarga erishish maqsadida optimallashtirishga o‘rgatadi [4].

simulyatsiya vositalaridan foydalanish – bu talabalar maxsus simulyatsiya vositalarini qo‘llash orqali o‘z loyihalarini testdan o‘tkazadilar;


optimallashtirish, ya’ni simulyatsiyalar asosida dizaynni yaxshilash va samaradorligini oshirishadi.

Dasturda yaratilgan loyihalarni taqdim etish ham muhim. Talabalar o‘z dizaynlarini taqdim qilishni va ularni baholashni o‘rganishlari kerak bo‘ladi.

taqdimot va feedback – bu yaratilgan loyihalarni guruh ichida taqdim etish, talabalarga fikr-mulohazalar olish va dizaynni yanada takomillashtirish imkonini yaratadi;

baholash mezonlari – bu loyihalarning to‘g‘ri va samarali bajarilganligini baholash uchun mezonlar (vizual sifat, funktsionallik, texnik jihatlar) qo‘llaniladi.

2-rasm. Dasturda yaratilgan loyihalarni taqdim etish



Loyihalash jarayonida ijodiy va kritik fikrlashni rivojlantirish juda muhim. Talabalar mustaqil ravishda yangi dizaynlar yaratishni va innovatsiyalarni qo‘llashni o‘rganishlari kerak bo‘ladi [5]:

innovatsion yondashuv – bu talabalar yangi g‘oyalarni qo‘llash va ularni dasturda amalga oshirish uchun ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar;

kritik fikrlash – bu yaratilgan loyihalarni tahlil qilish va ularning samaradorligini baholash imkonini yaratadi.

Xulosa. Richpeace CAD boshqa dasturlardan ajralib turadi, chunki u to‘qimachilik sanoati va kiyim-kechak dizayni uchun maxsus ishlab chiqilgan. Bu dastur AutoCAD va CorelDRAW kabi keng tarqalgan dasturlarga qaraganda, to‘qimachilik va dizayn jarayonlarini optimallashtirish

va ishlab chiqarishni samarali boshqarish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. AutoCAD texnik va sanoat dizayniga, CorelDRAW esa badiiy grafika va dizayn yaratishga qaratilgan bo'lsa, Richpeace CAD asosan kiyim-kechak dizayni va to'qimachilik sanoati bilan bog'liq ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Richpeace CAD yordamida loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish, talabalarga texnologiyalarni zamonaviy usulda o'rganish va o'z yaratuvchanliklarini raqamli vositalar yordamida namoyon qilish imkonini yaratadi. Bu usul nafaqat ularning texnik ko'nikmalarini, balki ijodiy va tizimli fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zebo, T. X., & Barnogul, R. (2023). Talabalarni ijodiy yondashuv asosida innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(17), 497-503.
2. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. *Eastenr European Scientific Journal*, (2), 67-70.
3. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном образовании. *Профессиональное образование. Столица*, (9), 43-44.
4. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. *International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT*, 7(4), 258-261.
5. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(12 Part II), 44-49.
6. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.
7. Тухтаева, З. Ш. (2016). Касб-хунар таълимида фанлараро узвийликни таъминлаш методикаси
8. Rahmatova, B. (2023). Muhandis o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish usullari. *Молодой ученый*, 1(15), 78-80.

12-14-YOSHLI OG'IRATLETIKACHI SPORTCHILARNING TEZLIK VA KUCH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Ataniyozov Bekzod Ilhomovich

Safarboyev Nodirbek Shavkat o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada og'ir atletikachi sportchilarning mashg'ulot olib borishida ayrim murabbiylik va uslubiyatlari, hamda tezlik va kuch qobiliyatini rivojlantirishning ayrim jihatlari haqida dolzarb masalalari va jihatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: sport, og'ir atletika, mashg'ulot, tezlik, kuch, dinamik, statik, jismoniy mashqlar, charchash, zo'riqish, mushak.

METHODS OF DEVELOPING SPEED AND STRENGTH IN WEIGHTLIFTING ATHLETES AGE 12-14

Ataniyozov Bekzod Ilhomovich

Safarboyev Nodirbek Shavkat oglu

Teachers of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

Annotation: This article describes the current issues and aspects of some coaching and methods of training young weightlifters, as well as some aspects of speed and strength development.

Key words: sport, weightlifting, training, speed, strength, dynamic, static, exercise, fatigue, strain, muscle.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СКОРОСТИ И СИЛЫ У ТЯЖЕЛОАТЛЕТОВ 12-14 ЛЕТ

Атаниезов Бекзод Илхомович

Сафарбоев Нодирбек Шавкат угли

Преподаватели Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

Аннотация: В данной статье описаны актуальные вопросы и аспекты некоторых тренерских и методов подготовки юных тяжелоатлетов, а также некоторые аспекты скоростно-силового развития.

Ключевые слова: спорт, тяжелая атлетика, тренировка, скорость, сила, динамика, статика, упражнение, усталость, напряжение, мышцы.

Yosh og'ir atletikachilarimizning hozirgi kunda xalqaro sport arenalarida yuqori sovrindor yutuqlari, ayniqsa dunyoga tanilishiga, bu bilan esa mamlakatimiz shon-shuxratini ko'tarishdagi say-xarakatlari Yurtimizning bevosita g'amxo'rligining yuksak natijasidir. Bu jihatlarda magistr, ilmiy tadqiqotchilar, vamusta qilizlanuvchivatrenernlarningo'zaro aloqalarinitta'minlashnibugungik unningdavr talabidir. Yuqoridagi fikrlarni ta'kidlashdan asosiy maqsad shundanki, ularni tashkil qilish, amaliy va nazariy jihatdan tashkil qilish asosida faoliyat ko'rsatishni ko'pincha ilmiy xodimlar tajribali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib boriladi.

Shu sababdan ilmiy tadqiqotlar tashkiliy ishlarda faollik ko'rsatib kelayotgan mutaxassislarni ishga olish maqsadga muvofiqdir. Ular orasida professorlar T.S.Usmonxo'jaev, R.Salomov, F.Kerimov, B.Mahmudov, K.Yarashev, I.A. Koshbaxtiyev va O.A. Kurbanovlarning darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tezislari juda ko'plab yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish va ularning imkoniyatlarini yanada yuksaklarga chiqarish borasida juda

ko'plab ishlar amalga oshirilmqda [1]. Olimlarimizdan R.N.Poliyani o'zining qarashlariga ko'ra 8-9 yoshli bolalarda tezkor-kuch va chaqqonlik sifatlarining o'sishi kuzatiladi. Tezkorlik va egiluvchanlik qobiliyati esa bir oz susayadi. 14-15 yoshda egiluvchanlik va tezkorlik kuchini rivojlantirishga oid hajmini ko'tarish maqsadga muvofiq. Ushbu fikrni V.F.Bashkirov, V.P.Filinar ham qo'llab-quvvatlaganlar. Yosh sportchilarning funksional jismoniy tayyorgarligini ilmiy tekshirish nitajasida jismoniy mashqlar yosh organizmning rivojlanishida hal qiluvchi muhim vosita hisoblangan deb ta'kidlaganlar. V.S.Daxnovenkiy va boshqalar og'ir atletikachilarning tezkor-kuch va maxsus chidamkorlik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar bilan uzoq muddat davomida muntazam shug'ullanish natijasida og'ir atletikachilarning texnik-taktik mahorati hamda boshqa qobiliyatlari qanchalik sezilarli darajada shakllanish mumkinligini tadqiqot asosida isbot qilib bergan [2]. Yosh og'ir atletikachi sportchilarning mashg'ulotlari jarayonini tashkil etishining metodik jihatlariga uslubiy tavsiyalar berish, yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda va ularning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy tomonlarini tahlil etish.

Yosh sportchilarni Og'ir atletika sportini o'rgatishda hozirda ikki turdagi klassik mashqlar – dast va siltab ko'tarish mashqlaridan iborat ekanini va texnikasini chuqur o'rgatishni tahlil qilishi kerak. Bu jismoniy harakatlarning ikkalasi ham butun organism bilan amalga oshiriladi va sportchidan katta jismoniy kuch, chidamlilik, egiluvchanlik va tezlik, yuqori malakali harakat qobiliyatini, skelet-mushaklarining idrokini va texnikani o'zida jamlashtiradi.

Yosh sportchilarni Og'ir atletika mashqlarini bajarish texnikasining, biomexanik nazorat qilishi muhim bo'lib, bular bajarilgan vosita harakatining kinematik va dinamik parametrlarini baholash uchun muhimdir.

Zamonaviy jismoniy mashg'ulotlar jarayonida harakat amalga oshirilgandan so'ng sportchi harakat qobiliyatining o'ziga xos muhim jihatlarini tahlil etishi katta rol o'ynaydi. Bu ma'lumot so'nggi urinishda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan muhim texnikaviy xususiyatlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Ya'ni amalga oshirilgan jismoniy harakatdagi texnik xatolarni tuzatish va uning ustida ishlashga zamin yaratadi.

Ma'lumki, yosh sportchi xatolarni tuzatishidan ko'ra oldini olish osonroq bo'ladi, sababi har doimgi xatolarni tuzatish har doim ma'lum bir vosita dasturini qayta amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lib, bu bir qancha qiyinchiliklar va yosh sportchining mushaklar zo'riqishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli jismoniy mashg'ulotlar davomida doimiy ravishda standart texnikani o'zlashtirishiga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi.

Yosh sportchilarida og'irlikni ko'tarish texnikasi uni faqat ko'krakgacha ko'tarish bilangina cheklanadi. Keyinchalik esa bu ikki jarayon ketma-ket amalga oshirila boshlashi kerak. Shtangani ko'tarish nafaqat dinamik, balki statik ish bajarish bilan bog'liq. Masalan, shtangani belgacha ko'tarish va keyingi portlash kuchi qo'llar va ayniqsa, panjalarining statik zo'riqishida sodir bo'ladi. Shtangani har qanday holatda ushlab turish sportchining mushak kuchini, mushak guruhlarining static zo'riqishini keltirib chiqaradi. Sportchining mushak kuchini va statik zo'riqishlariga bo'lgan chidamlilikni rivojlantirish zaruratini hisobga olib mashg'ulot jarayoniga statik xususiyatiga ega mashqlar kiritiladi.

Ilmiy adabiyotlarida yosh sportchilarni og'ir atletika sportida qo'llaniladigan barcha jismoniy mashqlar-musobaqa mashqlari, umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik mashqlariga bo'linadi. Yosh sportchilarini musobaqa mashqlarini o'rgatishda shtangani dast va siltab ko'tarish mashqalaridan iborat. Maxsus tayyorgarlik mashqlarini tezlik-kuch sifatlarini shakllantirishga mo'ljallangan bo'ladi.

Musobaqalar sportga tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularni rejalashtirilishiga ko'ra o'z yo'nalishi va qiyinchiliklar darajasi bo'yicha ko'p yillik sport mashg'ulotlarining ushbu bosqichida yosh sportchilarni oldiga qo'yilgan vazifalarga mos kelishi zarur. Yosh og'ir atletikachilarini sport mashg'ulotlarini bosqichlarida tayyorlashining mashg'ulot

rejimi va mashg'ulot jarayoni og'irlikni navbatma-navbat oshirish va maksimal darajada oshirish tendensiyasining birligi prinsipiga asoslanadi.

Umumiy tayyorgarlik bosqichlarida o'quv yuklamalarining hajmi va intensivligi asta-sekin rivojlanib boradi. Og'irlikning intensivligi faqat katta hajmdagi ishlarga to'sqinlik qilmaydigan va sportchilarning sog'lig'iga ta'sir qilmaydigan darajada oshiriladi.

Maxsus tayyorgarlik bosqichining asosiy vazifasi sportchilarning sport formasini shakllantirishga qaratiladi. Bu tayyorgarlik bosqichida sportchilarni tayyorlashning turli jihatlari mazmuni o'zgaradi, ular endi maxsus jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish, tanlangan sport turi bo'yicha texnik va taktik mahoratni o'zlashtirish va takomillashtirishiga qaratiladi. Shuningdek, sportchilarning maxsus psixologik tayyorgarligiga ham ahamiyat beriladi. Maxsus tayyorgarlik mashqlariga qo'shimcha ravishda, sportchilar mashg'ulotlarida musobaqa mashqlaridan cheklangan darajada foydalanishni boshlaydilar. Yuk miqdori asta-sekinlik bilan doimiy ravishda oshib boradi va musobaqa davrining boshida maksimal darajaga yetkaziladi.

Og'ir atletika sportida qo'llaniladigan jismoniy mashqlar yosh sportchilar mushaklarining akmelogik intensivligi, jismoniy harakatlarni muvofiqlashtirishining murakkabligi bilan ajralib turadi. Mazkur sport turida gavda holatidan farqli ravishda mushaklarning kuchi muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulot jarayonini boshqarishda murabbiylar sportchining jismoniy fazilatlarini rivojlantirish, ularning ko'zlangan maqsadlariga erishish uchun harakat faoliyati va mushak kuchini uyg'unlashtirish orqali yosh sportchilarga, sportning muvafaqqiyatga erishishiga zamin yaratadi. Og'ir atletikada yosh sportchilarni mushaklarning kuchi uning qisqarishi paytida rivojlanishi mumkin bo'lgan maksimal kuchlanish bilan tavsiflanadi. Mushaklar ishining ikkita rejimi mavjud bo'lib, ular dinamik ya'ni mushak qisqarish vaqtida uzunligini o'zgartirishi va statik – mushak diametrini o'zgartirish tushuniladi. Mushaklarning dinamik ish rejimini harakat paytida mushak uzunligi oshganida yengib o'tish mumkin bo'ladi.

Yosh sportchilarni Og'ir atletika sportida mutlaq kuch degan tushuncha ajralib turadi. Bu sportchi ega bo'lgan maksimal kuchga nisbatan ishlatiladi. Bundan tashqari nisbiy kuch mavjud. U sportchi vaznining mutlaq kuchga nisbati bilan tavsiflanadi. Yosh sportchilarning mushaklar kuchini ikki yo'li oshirish mumkin. Birinchisi, mushak tolalarining qalinligini oshirish orqali kuchning rivojlanishi hisoblanadi. U mashg'ulot jarayonini ana shu maqsadga erishish uchun tashkil etishiga asoslanadi, bunda mashq paytida ishlaydigan mushaklarning oqsillari intensive ravishda parchalanadi. Kuchni oshirishning ikkinchi usuli - mushak tolalarining innervatsiyasini oshirishdir. Bundanerv sistemasidagi koordinatsion aloqalarining yaxshilanishi kuzatiladi, bu mushak ichiga va mushaklararo muvofiqlashtirishining yaxshilanishini ta'minlaydi.

Yosh sportchilarni mushaklarining kuchi muskullarni tashkil etuvchi bitta mushak tolalarining qisqarish qobiliyati, mushakning boshlang'ich uzunligi, mushakdagi tolalar soni, mushaklarning fiziologik diametrik va morfologik tuzilishi, mushaklarning innervatsiya ta'sirining tabiati, mushaklarining skelet suyaklariga ta'sirining mexanik sharoitlari, kunning vaqti va boshqalarga bog'liqdir.

Yosh sportchi og'ir atletikachilarning jismoniy sifatdan, kuch qobiliyatlarini oshirish jarayonini samarali boshqarish uchun avvalo sportchining sport mahoratini oshirishning har bir davrida qanday usul va jismoniy vositalariga ustunlik berish kerakligini bilish kerak. Yosh sportchida mutlaq kuch, yuqori tezlikda portlovchi kuch qobiliyati, shuningdek, kuchga chidamlilikning oshirish xususiyatlarini trener-murabbiylar alohida e'tiborda tutishi zarur bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, jismoniy mashg'ulotlarda mutlaq kuchning rivojlanish bilan maksimal kuch rivojlantirishi muhim hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, yosh sportchilarning maksimal og'irlikdagi shtangani ko'tarishida maksimal qarshilikni yengib, kuchli va samarali fiziologik stimuly bo'lib xizmat qiladigan muskullarning maksimal harakatini ko'rsatadilar. Maksimal jismoniy kuch ishlatish usuli, shuningdek, ixtiyoriy harakatlarni o'z vaqtida safarbar qilish qobiliyatini va maksimal kuchlanishdan dam olishga o'tish qobiliyatini tarbiyalaydi. Yosh sportchilarning maksimal harakat qobiliyatini oshirish usuli mushak massasini sezilarli darajada

oshirmasdan kuchning oshishiga yordam beradi, bu og'ir atletika uchun katta ahamiyatga ega, bu yerda sportchining tana vaznini ma'lum chegaralarda ushlab turish kerak bo'ladi.

Yosh og'ir atletika sportchilarning skelet mushaklarini nafaqat maksimal kuch qobiliyatini oshirishga, balki sezilarli tezlikni ham rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni ham amalga oshirishi kerak. Chunki klassik mashqlar nafaqat yosh sportchilarning kuch qobiliyati maksimal namoyon bo'lishi bilan, shuningdek, tezlik kuchiga ham qiyoslanadi. Tebranish va chayqalish kabi tezlikni kuchaytirish mashqlarida har doimham kuch sport natijalarini belgilamaydi. Bu jismoniy mashqlarida eng muhim ko'rsatkich harakatda kuch ko'rsatish qobiliyati, ya'ni katta og'irliklarni sezilarli tezlikda ko'tarish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Shuning uchun yosh og'ir atletikachi sportchilar uchun tezlik kuchi qobiliyati eng muhim jismoniy sifatlardan biri sifatida qaraladi. Shuning uchun yosh og'ir atletikachining mashg'ulot jarayonini shunday tashkil qilishi kerakki, u mashqlarini bajarish texnikasini rivojlantirishiga hissa qo'shishi kerak.

Xulosa qilib aytganda yosh sportchi og'ir atletikachilarda tezkor kuchni oshirishning eng muhim shartlari – maksimal vazn, harakat tezligi, ish va dam olish davomiyligini to'g'ri tashkil etish hisoblanadi. Shtanga yukining og'irligi va harakat tezligi teskari proportsional bo'ladi. Shuning uchun sportchilar har bir holatda jismoniy mashqlarni tabiatiga qarab ularning yuqori kombinatsiyasini tanlash muhimdir. Yosh sportchilar mashg'ulot davomida og'ir atletikachi bilan olib boriladigan jismoniy mashqlar to'plami shunday belgilanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matkarimov. R. M. Og'ir atletikanazariyasiva uslubiyati: jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik. T.: 2015.

2. Jalilov, U., Olimjonov, I., & Anvarov, D. (2024). Klassik mashqlar texnikasi taraqqiyoti (evolyutsiyasi) va uni yanada takomillashtirish yo'li. Research and implementation, 2(7), 139-144.

3. Matkarimov. R. M. Og'ir atletikanazariyasiva uslubiyati: jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik. T.: 2015.

KINO VOSITASIDA MA'NAVIY TARBIYA

Ahmedova Zamira Amirovna,

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutining «Dramatik teatr va kino san'ati» kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kino san'atining yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Kino asarlari orqali bolalar va yoshlarning axloqiy, ma'naviy va estetik qadriyatlarini shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy kinematografiyadagi ijobiy va salbiy obrazlarning tarbiya jarayoniga ta'siri misollar asosida ko'rsatiladi. Maqolada kinoning ma'naviy qadriyatlarni singdirishdagi pedagogik imkoniyatlari hamda uni maqsadli va oqilona foydalanish usullari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, kino san'ati, yoshlar, axloqiy qadriyatlar, estetik tarbiya, kinematografiya, ijtimoiy ta'sir, kinoobrazlar, tarbiyaviy vosita.

Kirish. Bugungi kunda axborot oqimi tobora kengayib, ommaviy axborot vositalari, xususan, kino va seriallar yosh avlod ongiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kino — nafaqat vaqt o'tkazish vositasi, balki ta'lim va tarbiyaning kuchli vositasiga aylangan. Shu bois, kinoning ma'naviy tarbiyadagi o'rnini chuqur o'rganish, uni maqsadli ravishda foydalanish muhim masalaga aylangan.

21-asr dunyoga o'zining jadal o'zgarishlarini ko'rsatdi, uning ko'lami insoniyat tarixida o'xshashi yo'q va sivilizatsiya rivojlanishining strategik yo'nalishlarida hali yetarlicha o'z aksini topmagan [1, 6-bet].

Tez o'sib borayotgan asosiy global muammolardan biri bu insonning o'zini axloqiy tanazzulga uchratishdir. «Iste'mol jamiyati» tushunchasi va insonning o'z harakatlari uchun cheklangan javobgarligisiz erkinlik an'anaviy xristian axloqiy asoslarini buzdi. Axborot jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida inson shaxsiyatining psixologik va intellektual xususiyatlari va fazilatlarida o'zgarishlar ro'y beradi [1, p. 7].

Inson hozirgi voqealarni adekvat baholash qobiliyatini yo'qota boshlagan jamiyatning virtualizatsiyasi kundalik haqiqatga aylanib bormoqda. Insonni g'ayriinsoniylashtirish va uni insoniylashtirish; an'anaviy milliy ko'rsatmalar va barqaror axloqiy tamoyillarni yo'qotish xavfi; oila institutini o'zgartirish; kelajak qo'rquvi; inson ongini manipulyatsiya qilish; jamiyatning ma'naviy tanazzulga uchrashi - bularning barchasi bizning davrimizning global muammolaridir.

O'qituvchilar, psixologlar va ilohiyotchilar odamlarda klip tafakkurining paydo bo'lishi va ongning tartibsizligidan xavotirda. Shu munosabat bilan ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, insoniy fazilatlar maktab ta'lim maydonining tamal toshiga aylanadi.

Ma'lumki, yoshlar o'zlarining ijtimoiy mavqeining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra har qanday zamonaviy jamiyatda ijtimoiy qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarning eng yuqori cho'qqisida turadilar [2]. Globallashuv jarayonlarining ayrim xususiyatlari ta'sirida ijtimoiy va individual ongda buzg'unchi o'zgarishlar kuzatilib, individuallik tuyg'usining apogeyiga, insonparvarlik tamoyillarining yo'q qilinishiga, hayotiy maqsad va g'oyalarning parchalanishiga olib keladi [3]. Yoshlar global muammolarga duch kelmoqdalar va o'z kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga olish orqali himoya izlashga majbur bo'lmoqdalar.

Shu munosabat bilan bolalar va yoshlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash nihoyatda muhim va dolzarb davlat vazifasiga aylanib bormoqda. Yangi avlod zamonaviy sivilizatsiyaning tizimli inqirozidan chiqish yo'lini ma'naviy-ruhiy kamolotga erishish yo'lida tanlashi kerak. Ta'lim tizimi, madaniyat, ilm-fan, iqtisodiyot, umuman, davlat oldiga yangi maqsadlar qo'yilmoqda.

Pedagogik maqsad - zamonaviy dunyoning salbiy ta'siridan himoya qilish, bola qalbini ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalash, ularni to'g'ri ma'naviy tanlovga yo'naltirishdir.

Assosiy qism. Kino asarlari tomoshabinga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Obraz, voqea, dialog va musiqa orqali inson ongida hissiy-ruhiy holatlar shakllanadi. Ayniqsa, bolalar va o'smirlar ekrandagi voqealarni real hayotdagi voqelik sifatida qabul qilishga moyil

bo'ladi. Bu holat tarbiya jarayonida kinoning rolini kuchaytiradi.

Kino vositasida:

- ezgulik va yovuzlik farqi ko'rsatiladi;
- mehr-oqibat, vatanparvarlik, halollik kabi qadriyatlar targ'ib qilinadi;
- ijtimoiy adolat, insonparvarlik g'oyalari singdiriladi.

Buning uchun kinofilmning mazmuni, syujet tarkibi, obrazlar tizimi va rejissyorlik yechimi tarbiyaviy maqsadlarga mos bo'lishi kerak.

Yoshlar o'z dunyoqarashini shakllantirayotgan davrda ularning ongiga ta'sir qiluvchi omillar orasida kino muhim o'rin tutadi. Masalan:

- Qahramon obrazlari orqali yoshlar o'zlariga ideal obraz yaratadi.
- Kinofilmdagi voqealar hayot haqidagi tasavvurni boyitadi yoki o'zgartiradi.
- Dialog va munosabatlar orqali ijtimoiy muomala ko'nikmalari shakllanadi.

Bunday ta'sir ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. Masalan, zo'ravonlik, yolg'on, befarqlik targ'ib qilingan filmlar bola ongida xato qarashlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Darhaqiqat, kino xarakterni shakllantiradigan, insonning ongi va ongiga ta'sir ko'rsatishga qodir, ijodning barcha turlarini sintez qilish qobiliyatiga ega va yosh avlod uchun juda muhimdir, chunki bolalar ma'lumotlarning katta qismini o'z qarashlari orqali idrok etadilar.

Film insonning barcha harakatlari va kechinmalari bilan ma'naviy hayotini ochib beradi, uning atrofdagi olamga munosabatini ko'rsatadi, his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi. Kino e'tiqodlarni yaratish va xulq-atvor namunalarini yaratish qudratiga ega. Ta'limda u pedagogik maqsadlarga erishish vositasidir.

Bolalar kinosida qanday ma'naviy ma'nolar bo'lishi kerak.

Farzandlarimiz bilan birgalikda jahon va mahalliy kino san'atining o'tmishdagi va bugungi kundagi durdonalarini tomosha qilamiz. Ko'rganimizdan so'ng, biz ko'rganlarimizni muhokama qilamiz. Bolalar film matnini o'zlari tushunadigan tilda talqin qilishni o'rganadilar.

Klip ong deganda elementlarning turli xil xususiyatlarini ular orasidagi bog'lanishni hisobga olmagan holda ko'paytirish jarayoni tushuniladi. Aynan materialning taqdimoti tufayli inson miyasi hodisalar orasida shakllanmaydi. Olimlar zamonaviy maktab o'quvchilarining bilimidagi bo'shliqlarni klip holati bilan bog'lashadi.

Filmni talqin qilish ushbu muammoni hal qilishga yordam beradi va o'qitishning o'ziga xos alternativ usuliga aylanadi. Shunday qilib, plyonka materialini qismlarga bo'lish bosqichida mantiqiy bog'lanishlar aniqlanadi, plyonkaning chiziqli tuzilishi aniqlanadi va film voqealari ketma-ket ravishda xotirada tiklanadi.

Ko'rilgan narsalar haqida fikrni shakllantirish bosqichida filmning alohida epizodlarini tushunish, ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, filmni qiymat va ma'naviy-axloqiy ko'rsatmalar bilan bog'lash jarayoni mavjud.

Tomoshabinlar orasida eng zaif toifa bu o'smirlar. Aynan ular video ketma-ketlikni, video va kino matnini, kino va videomaterialni to'g'ri tushunish va idrok etishga o'rgatishlari kerak [7, 204-b.]. Masalan, badiiy film tomosha qilishda o'smirlarni o'zlari uchun nomaqbul bo'lgan personajlarning obrazlari va xatti-harakatlariga e'tibor berishga o'rgatish; hissiy tajribalar; xulq-atvor stereotiplari. Talabalarning aytganlarini umumlashtirish, ularning bayonotlarini umumlashtirish, ularga hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga yordam berish, o'zlarining hozirgi ehtiyojlari va vazifalarini, o'z hayotini qurish uchun muhim bo'lgan harakatlarini, his-tuyg'ularini tan olish kerak.

Pedagog va ota-onalar kinoni ma'naviy tarbiyada samarali vosita sifatida foydalanish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratishlari lozim:

1. Film tanlovi: Yoshga, ongiy rivojlanish darajasiga va milliy-axloqiy qadriyatlarga mos filmlar tanlanishi kerak.

2. Kuzatuv va muhokama: Film tomosha qilinganidan so'ng bolalar bilan uni tahlil qilish,

xulosa chiqarish foydali bo'ladi.

3. Ijobiy obrazlar tahlili: Qahramonlarning ijobiy xulq-atvorini alohida ta'kidlash zarur.

4. Salbiy g'oyalarga qarshi immunitet shakllantirish: Ssenariydagi salbiy jihatlar muhokama qilinib, yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasi rivojlantirilishi kerak.

Shunday qilib, «axborot asri» bolalari turli shakllardagi ommaviy axborot vositalarining mazmuniga duchor bo'lishadi, shuning uchun ularni tahlil qilish, talqin qilish va yaratish ko'nikmalarini egallash juda muhimdir. Bolalarning axborot va ma'naviy xavfsizligi zamonaviy maktab oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Kinematografiya inson faoliyatining harakatlanuvchi obrazlar yaratishdan iborat tarmog'i sifatida, mediasavodxonlik maktabning ta'lim va tarbiya maydonida munosib o'rin egallashi kerak.

Kino — bu tasavvur, hissiyot va g'oyalar uyg'unligidir. U yoshlarning ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatishda kuchli vosita hisoblanadi. Lekin mazkur ta'sir qanchalik ijobiy bo'lishi, avvalo, film tanlovi va uning pedagogik tahliliga bog'liq. Kinoni faqat ko'ngilochar emas, balki tarbiyaviy vosita sifatida ko'ra bilsak, uning yoshlar ongidagi ijobiy ta'sirini oshirish mumkin. Shu bois, har bir tarbiyachi va ota-ona kino orqali ma'naviy tarbiyani olib borishda ongli va mas'uliyatli yondashishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A. "Ma'lumot va madaniyat: XXI asr yoshlari va ommaviy axborot vositalari". — Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
2. Shomansurov Q. "Yoshlar ma'naviyati va kino". — Samarqand, 2018.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch". — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Sattarov B. "Ma'naviy tarbiya: nazariya va amaliyot". — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Hasanov R., Toirova M. "Zamonaviy OAV va yoshlar ongiga ta'siri" // Pedagogika va psixologiya jurnallari. — 2022, №4.
6. UNESCO. "Media and Information Literacy Curriculum for Teachers". — Paris, 2011.
7. Zillmann D., Vorderer P. "Media Entertainment: The Psychology of Its Appeal". — Lawrence Erlbaum Associates, 2000.

COVID-19 INFEKSIYASI BILAN ZARARLANGAN O'CHOQLARDA EPIDEMIYAGA QARSHI CHORA-TADBIRLAR O'TKAZISH

Berdirasulov Dilshod Kodirovich,

SamDTU Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqola COVID-19 infeksiyasi bilan zararlangan o'choqlarda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish asoslarini ko'rib chiqadi. COVID-19 pandemiyasi dunyo bo'ylab sog'liqni saqlash tizimlariga katta ta'sir ko'rsatdi va uning tarqalishini to'xtatish uchun samarali strategiyalar zaruriyatga aylandi. Maqolada epidemiyaga qarshi kurashning asosiy usullari, jumladan, karantin, sanitariya-gigiyena choralari, tibbiy yordam va ommaviy tarqatish choralari haqida so'z boradi. Shuningdek, ma'lumotlar va tahlillar yordamida zararlangan hududlarda qanday samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkinligi, ularning ahamiyati va jamoat salomatligini yaxshilashga qaratilgan strategiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: COVID-19, epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, karantin, sanitariya-gigiyena, tibbiy yordam, infeksiya tarqalishi, jamoat salomatligi.

CONDUCTING ANTI-EPIDEMIC MEASURES IN POINTS OF COVID-19 INFECTION

Berdirasulov Dilshod Kodirovich

Assistant of the Department of Infectious Diseases and Epidemiology of SamSMU

Abstract: This article examines the grounds for implementing anti-epidemic measures in COVID-19 infection hotspots. The COVID-19 pandemic has had a huge impact on healthcare systems around the world, and effective strategies to stop its spread have become a necessity. The article discusses the main methods of combating the epidemic, including quarantine, sanitary and hygienic measures, medical assistance, and mass dissemination measures. Additionally, data and analyses will be used to examine what effective measures can be implemented in affected areas, their importance, and strategies aimed at improving public health.

Keywords: COVID-19, anti-epidemic measures, quarantine, sanitation and hygiene, medical care, spread of infection, public health.

ПРОВЕДЕНИЕ ПРОТИВОЭПИДЕМИЧЕСКИХ МЕР В ОЧАГАХ ПОРАЖЕНИЯ ИНФЕКЦИЕЙ COVID-19

Бердирасулова Дилишода Кодировича,

Ассистента кафедры инфекционных заболеваний и эпидемиологии СамГМУ

Аннотация: В данной статье рассматриваются основы проведения противоэпидемических мероприятий в очагах заражения COVID-19. Пандемия COVID-19 оказала значительное влияние на системы здравоохранения по всему миру, и эффективные стратегии для сдерживания ее распространения стали необходимостью. В статье рассматриваются основные методы борьбы с эпидемией, включая карантин, санитарно-гигиенические меры, медицинскую помощь и меры массового распространения. Также с помощью данных и анализа будут рассмотрены, какие эффективные меры могут быть реализованы в пострадавших районах, их значение и стратегии, направленные на улучшение общественного здоровья.

Ключевые слова: COVID-19, противоэпидемические меры, карантин, санитария и гигиена, медицинская помощь, распространение инфекции, общественное здравоохранение.

Kirish. COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo'ylab sog'liqni saqlash tizimlariga jiddiy

bosim ko'rsatdi va uning tarqalishini oldini olish uchun samarali epidemiologik chora-tadbirlar zarur bo'ldi. Infeksiya o'choqlari aniqlangan joylarda tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy choralar qo'llanilishi kerak bo'ldi. Maqsad - infeksiyaning yana keng tarqalishining oldini olish, kasallikni tezkor ravishda aniqlash va zararlanganlarni davolash. Ushbu maqolada epidemiyaga qarshi kurashda qo'llaniladigan asosiy chora-tadbirlar, zararlangan hududlarda epidemiyaga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan boshqaruv yondashuvlari va strategiyalarni ko'rib chiqamiz.

COVID-19ning yangi avlod virus sifatida tezda o'zgarganligi va yuqish yo'llarining dinamikasining o'zgarishi, zamonaviy sanitariya, tibbiy va ijtimoiy choralarini qo'llashni talab qildi. Shu bilan birga, infeksiyaning oldini olish va tarqalishini sekinlashtirishga yordam beradigan keng qamrovli tizimlarni ishlab chiqish lozimligi aniq bo'ldi.

Metodlar

1. Sog'liqni saqlash tizimi va resurslarni taqsimlash

COVID-19 infeksiyasiga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishda tibbiy resurslarning samarali taqsimlanishi juda muhimdir. Shifoxonalar, laboratoriyalar, dori-darmonlar, tibbiy jihozlar va xodimlarning tayyorlanishi alohida e'tibor talab qiladi. Ushbu maqsadda sog'liqni saqlash muassasalarining mavjudligi va ularning to'liq imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

2. Tezkor diagnostika va testlash metodlari

Epidemiya o'choqlarida infeksiya tez aniqlanishi kerak, shuning uchun COVID-19 testlarining tezligi va samaradorligi juda muhim. Bunda polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR) testlari va boshqa tezkor diagnostika metodlari foydalaniladi. Shu bilan birga, aholini masshtabda testlashning samaradorligi o'rganildi.

3. Ijtimoiy masofa va sanitariya-gigiyena choralarini qo'llash

O'choqlarda infeksiyaning tarqalishini oldini olish uchun ijtimoiy masofani saqlash va gigiyena qoidalariga rioya qilish zarur. Xalqni to'g'ri axborot bilan ta'minlash, yuz niqoblari taqish, qo'lni tez-tez yuvish va umumiy sanitariya-tibbiy choralar ko'rish zarur.

4. Boshqaruv va monitoring tizimi

Epidemiya o'choqlarida kasallik tarqalishini kuzatib borish va kasallikka qarshi kurashni boshqarish tizimi kerak. Shu bois, monitoring tizimi va malakali boshqaruvning ahamiyati tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot davomida infeksiyaga qarshi o'tkazilgan chora-tadbirlarning samaradorligi qayd etildi. Sog'liqni saqlash tizimining tayyorgarligi va resurslar taqsimoti hamda tezkor diagnostika tizimlari infeksiya tarqalishini sekinlashtirishda muhim omil bo'ldi. Bunda, ijtimoiy masofa va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilishning ahamiyati ortdi, shuningdek, axborot kampaniyalari orqali aholi o'rtasida to'g'ri xabardorlik ta'minlandi. Monitoring tizimining samarali ishlashi va yangi o'choqlarni aniqlash tezligi infeksiyaning tarqalishini minimal darajaga tushirishga yordam berdi.

Chora-tadbir	Samaradorlik (Tahlil asosida)	Izohlar
Tezkor diagnostika tizimi	Yuqori samaradorlik	Tez testlash va diagnostika infeksiyaning o'choqlarini erta aniqlashni ta'minladi.
Sog'liqni saqlash tizimining tayyorgarligi	O'rtacha samaradorlik	Resurslar to'g'ri taqsimlangan, ammo ba'zi hududlarda tibbiy jihozlar yetishmovchiligi mavjud.
Ijtimoiy masofa va sanitariya-gigiyena choralari qo'llash	Yuqori samaradorlik	Ijtimoiy masofa saqlash va sanitariya qoidalariga rioya qilish infeksiya tarqalishini sezilarli darajada kamaytirdi.
Axborot kampaniyalari	O'rtacha samaradorlik	Aholi o'rtasida axborot tarqatish yaxshi ishlagan, lekin ba'zi guruhlarda noto'g'ri tushuncha mavjud.
Yangi o'choqlarni aniqlash va monitoring tizimi	Yuqori samaradorlik	Yangi o'choqlar tezda aniqlanib, ularga qarshi zarur chora-tadbirlar ko'rildi.
Vaksinatsiya va profilaktika dasturlari	Yuqori samaradorlik	Vaksinatsiya dasturlari keng joriy etilgan, infeksiyaning tarqalishini sezilarli darajada

Muhokama. COVID-19 infeksiyasi bilan zararlangan o'choqlarda epidemiyaga qarshi kurashishda turli choralar o'z samarasini ko'rsatdi. Sog'liqni saqlash tizimining kuchli tayyorgarligi va resurslarni to'g'ri taqsimlash zarur. Shuningdek, ijtimoiy masofa va sanitariya-gigiyena choralari qat'iy rioya qilish zarur bo'lib, bu epidemiyaning oldini olishda muhim rol

o'ynaydi.

Tezkor testlash va diagnostika tizimining samarali ishlashi infeksiyaning tez aniqlanishini ta'minladi va kasallikka qarshi kurashni osonlashtirdi. Aholi o'rtasida to'g'ri axborot tarqatish va sanitariya-gigiyena choralarini o'rgatish, umumiy salomatlikni saqlashga katta hissa qo'shdi.

Shu bilan birga, monitoring tizimini yanada takomillashtirish va boshqaruvni kuchaytirish talab etiladi. Epidemiyaning yangi o'choqlari tezda aniqlanib, ularga qarshi zarur chora-tadbirlar ko'rish kerak. Bunday holatlarda davlat va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik ham muhimdir.

Xulosa. COVID-19 infeksiyasining zararlangan o'choqlarida epidemiyaga qarshi kurashishda samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv tizimini markazlashtirish, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, tibbiy yordamni ta'minlash, psixologik yordamni ko'rsatish va to'g'ri axborot tarqatish orqali epidemiyaning oldini olish mumkin. Bu chora-tadbirlar birgalikda amalga oshirilganda, nafaqat infeksiyaning tarqalishini oldini olish, balki jamoat salomatligini yaxshilashga ham yordam beradi. Hukumatlar, jamoat sog'ligi tashkilotlari va shaxsiy sektor birlashib, tibbiy vositalar, resurslar va yordamni ta'minlashda samarali choralar ko'rsatdi. Aholini informatsion jihatdan qo'llab-quvvatlash, noto'g'ri ma'lumotlar va «fake news» tarqatilishining oldini olish, shuningdek, psixologik yordam taqdim etish orqali odamlar ruhiy jihatdan tayyorlangan holda epidemiyaga qarshi kurashish uchun kuchli va xotirjam pozitsiya oldilar.

Epidemiya davomida barcha davlatlar o'rtasida ilmiy va tibbiy tajriba almashish, emlash jarayonlarini jadallashtirish va resurslarni optimallashtirish bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlik o'rnatildi. Shu bilan birga, odamlarning sog'liqni saqlash va xavfsizlik choralariga nisbatan mas'uliyatli yondashishi ahamiyat kasb etdi.

Oxir-oqibat, COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashda ko'rsatilgan chora-tadbirlar nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ham barqarorlikni saqlashga qaratilgan. Ushbu tajriba nafaqat bugungi kunda, balki kelajakda pandemiyalarga qarshi kurashishda yaxshilanishlarga olib kelishi mumkin. Pandemiya qarshi kurashni muvaffaqiyatli amalga oshirish, shuningdek, xalqaro hamkorlik, axborot almashish, ijtimoiy ishonch va sog'liqni saqlash tizimining barqarorligini ta'minlashga asoslangan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

Erkinov, S. (2021). COVID-19: Sog'liqni saqlash tizimiga ta'siri va epidemiyaga qarshi kurash. Tashkent: MedPress.
Karimov, F. (2020). Epidemiya va infeksiyalar: Zararlangan hududlarda chora-tadbirlar. Tashkent: Tibbiy Oliy Ta'lim.
Qodirovich B. D. et al. VIRUSLI GEPATIT A NING OLDINI OLISH VA EPIDEMIOLOGIYASI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 33. – №. 1. – C. 94-97.

Usmonovna V. M., Qodirovich B. D. SCIENTIFIC ANALYSIS OF VIOLENT INFECTIOUS DISEASES AND THEIR CONTROL //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – T. 3. – №. 9. – C. 149-153.

Muhamadievich N. A., Kodirvich B. D. Patriotic Education as one of the Components Of National Security. Eurasian Scientific Herald 6, 88-90. – 2022.

Кодирович Б. Д. Олий ва ўрта махсус таълим муассасаларида ҳарбий ватанпарварлик тарбиясини такоминлаштириш //Педагогика ва психологида инновациялар. – 2020. – Т. 5. – С. 102-107.

ELEKTRON RESURLAR TIZIMI ASOSIDA TALABALARNING GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLATIRISH

*Bo'riboyeva Dilraboxxon Norboy qizi
Guliston davlat universiteti
Amaliy san'at va dizayn kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada chizmachilik o'qituvchisining grafik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy asosi keltirilgan. Muammo yuzasidan bo'lajak chizmachilik o'qituvchisiga xos kompetentlik sifatлари, kasbiy pedagogik faoliyatidagi ahamiyatlari chet el pedagog-olimlarimizning izlanishlari taxlil qilingan. Taxlillar natijasida bo'lg'usi pedagoglarning grafik kompetentligini elektron resurslar tizimi orqalirivojlantirish haqida ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: chizmachilik, kompetensiya, kompetentlik, grafik kompetentlik, kasbiy kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka

РАЗВИТИЕ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ СИСТЕМЫ ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСОВ

*Борибоева Дилрабохон Норбой кызы
Гулистанский государственный университет Преподаватель кафедры прикладного искусства и дизайна*

Аннотация: В статье представлены научные основы развития графической компетентности учителя рисования. Проанализированы исследования отечественных и зарубежных ученых-педагогов по проблеме качеств компетентности, присущих будущему учителю рисования, и их значимости в профессиональной педагогической деятельности. В результате анализа сделан научно обоснованный вывод относительно развития графической компетентности будущих учителей посредством электронной ресурсной системы.

Ключевые слова: рисунок, компетенция, компетентность, графическая компетентность, профессиональная компетентность, знания, умения, навыки, квалификация

DEVELOPMENT OF STUDENTS' GRAPHIC COMPETENCE BASED ON ELECTRONIC RESOURCE SYSTEM

*Boriboyeva Dilrabokhon Norboy qizi
Guliston State University Teacher of the Department of Applied Arts and Design*

Abstract: This article presents the scientific basis for the development of graphic competence of a drawing teacher. The research of our foreign pedagogical scientists on the problem of the qualities of competence inherent in a future drawing teacher, their significance in professional pedagogical activity, is analyzed. As a result of the analysis, a scientifically sound idea was developed about the development of graphic competence of future teachers through an electronic resource system.

Keywords: drawing, competence, competence, graphic competence, professional competence, knowledge, skills, qualification

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi zamondagi maqsadlari bitiruvchilarning grafik ta'lim mazmuni va tuzilmasini jiddiy o'zgartirishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadlar jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini ijtimoiy joriy etishga, bugungi kundagi maktablarning chizmachilik o'qituvchilariga qo'yayotgan talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan. Ayniqsa fan va texnikani hozirgi rivojlanishi

sharotida oliy pedagogika ta'lim muassasalarida bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarini grafik tayyorlashning yaxlit tizimini yaratish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekistonda keyingi yillarda jamiyatda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining qaror topishi bilan bog'liq ravishda ishlab chiqarish jarayonida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, OTMda tayyorlanyotgan kadrlarda nazariy bilimlarni amaliyotga bevosita, samarali tatbiq eta olish qobiliyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj shakllanadi. OTMda talabalarning grafik kompetentlikka ega bo'lishlari yuqorida qayd etilgan ehtiyojni qondirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Talabalarning grafik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni OTM chizmachilik yo'nalishlari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois mazkur ta'lim muassasalarida chizmachilik ta'lim yo'nalishi bo'yicha taxsil olayotgan talabalarda grafik kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladigan zarur pedagog shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Ayni paytda respublika OTM da Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishida bakalavr tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Shu bois OTM zimmasiga bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarda kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ta'limga ijodiy yondashgan holda muammolar yechimini topish, mustaqil fikrga asoslangan xulosa chiqarish, grafik kompetentlikni shakllantirish vazifasi yuklatilgan.

Shunga ko'ra, oliy ta'lim tizimida chizmachilik yo'nalishlari bo'yicha talabalarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur muammo yuzasidan qator olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

N.D.Yadgarovning tadqiqot ishlarida fazoviy almashtirishlar jarayonida talaba shaxsini va uning bilish faoliyatini rivojlantirish, talabalarda mavjud bo'lgan bilimlarni o'quv topshiriqlarini bajarishga safarbar etish bilish faoliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan [1].

Grafik kompetensiyani rivojlantirish muammosi quyidagi A.A.Derkach [2], J.Raven [3], E.F.Zeer [4] kabi olimlarning asarlarida ochib berilgan.

A.K.Markova grafik kompetensiyani bo'lajak mutaxassis shaxsining ajralmas sifati sifatida ko'rib chiqadi va uning tarkibiga kasbiy bilimlarni, kasbiy pozitsiyalar va munosabatlarni, kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. [5].

S.V. Jilich grafik kompetensiya bilimlarni, ko'nikmalarni va kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullarini o'z ichiga oladi [6].

N.V.Fedotovning ishida "grafik kompetentlik" tushunchasi quyidagicha ta'riflangan: bo'lajak texnik mutaxassisning kasbiy yo'nalishida kamolotga erishib borishini hamda maxsus bilimlarga, grafikaviy malaka, amaliy ko'nikmalarni yorituvchi shaxsiy xususiyat bo'lib, u axborotlashgan jamiyatda shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi kuchli raqobatga asoslangan muhitda konstruktorlik-loyihaviy faoliyatni tashkil etishga turtki beruvchi kuchli motivatsiya va keng tafakkurga egalikni, sohaga talluqli yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyorlikni yoritishga xizmat qiladi [7].

E.P.Vox grafik kompetentlik asosini tashkil etuvchi kompetensiyalar, ularning mohiyatini o'rgangan. Muallif ushbu kompetensiyalar quyidagilar ekanligiga ishonch bildirgan: qo'llashga oid bilimlar, egallangan ko'nikma, malakalar, shuningdek, konstruktorlik hujjatlarini erkin yuritish, ular bilan ishlashda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga egalik hamda ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etishni ifodalovchi umumlashgan harakat usullarini e'tirof etadi [8].

Muhokama. OTMda talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirishda o'quv mashg'ulotlari, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim metodlarini tanlashga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash quyidagi natijalarga erishishni kafolatlaydi: talabalarda grafika fanlari asoslarini puxta o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani xosil qilish; ularning o'quv- bilish faolligini oshirish; talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlash; talabalar tomonidan chizmachilik fanlari asoslarini o'qitish sifatini yaxshilash; chizmachilik fanlarini o'qitishning samaradorligini oshirish.

Tadqiqot davomida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik ta'minotidan foydalanib, o'quv jarayonini olib borish samaradorligini aniqlashdan iborat.

Natijalar.

Tadqiqot ishini bajarish davomida "Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi" o'quv fani bo'yicha o'quv qo'llanma va elektron axborot-ta'lim resursini ishlab chiqdik.

Elektron ta'lim resurslari tushunchasiga turli ta'riflarning berilishiga qaramasdan, ularning quyidagi umumiy tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) elektron ta'lim resurslari – bu o'quv-metodik materiallardir;
- 2) elektron o'quv materiallari – bu AKTdan foydalanib yaratiladigan elektron ko'rinishidagi ma'lumotlar jamlanmasidir;
- 3) elektron o'quv materiallari – bu didaktik vositadir;
- 4) elektron o'quv materiallari zamonaviy ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Olib borilgan tahlillarimiz asosida, biz elektron ta'lim resurslari deganda, o'qish uchun belgilangan, aniq predmet sohaning tizimlashtirilgan materiallaridan iborat bo'lgan va ushbu soha bo'yicha talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini egallashlarini ta'minlovchi dasturiy vositalarni tushunamiz.

Tadqiqotni olib borish jarayonida "BBB", "Kichik guruhlarda ishlash", "Mantiqiy chalkash zanjir" kabi interfaol metodlardan samarali foydalanish birga interfaol harakterga ega "Kichik guruhlarda ishlash" metodi asoslanib, o'qitish jarayoniga tatbiq etildi.

Ushbu metod qo'llanganda ta'lim oluvchilar kichik guruhlarda jamoa bo'lib ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi ro'lida bo'lishiga, bir biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlashni o'rganish imkoniga ega bo'ladi.

"Kichik guruhlarda ishlash" metodi qo'llanganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha talabalarni mavzuga jalb eta oladi.

Demak, interfaol metodlar va texnologiyalar talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirishga yordam beradi. Natijada ular muhandislik grafikasi fanlari bo'yicha bilimlarni puxta egallaydi. Egallangan nazariy bilimlar talabalarga kelgusida mutaxassis sifatida kasbiy faoliyatni samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda interfaol metod va texnologiyalarni qo'llagan xolda o'quv ma'lumotlarini sifatini oshirish orqali talabalarning grafik kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga erishiladi.

Bizning fikrimizcha, grafik kompetensiya - chizmachilik standartlari va qoidalari, ularni amalda qo'llash ko'nikma va malakalari hamda turli grafik dasturlar yoki grafik paketlar bilan ishlash darajasini bilishga qaratilgan fazoviy fikrlash jarayonlari bilan bog'lik intellektual faoliyatdir.

Xulosa

Talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-ta'lim resurslar asosida takomillashtirilgan metodik ta'minotning samaradorligini aniqlash maqsadida tanlab olingan oliy ta'lim muassasalarida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarida talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan muhitda "Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi" fanini takomillashtirilgan metodik ta'minot va elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanib o'qitish bo'yicha natijalar umumlashtirildi, xulosalar amaliy jihatdan tekshirib ko'rildi, olingan natijalar matematik statistika metodlari yordamida tahlil qilindi.

Grafik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari va o'quv-metodik ta'minoti "kichik guruhlarda ishlash" interfaol metodlar asosida takomillashtirildi, loyihalash-konstruktorlik va grafik topshiriqlar tizimini majmuaviy qo'llash orqali talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Yadgarov N.D. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc). ... diss. avtoref. - T., 2023.
2. Деркач А. А. Технология эффективной профессиональной деятельности. - М.: Издательский дом Красная площадь, 1996. -400 с.
3. Raven J. Zamonaviy jamiyatda kompetentsiya: aniqlash, ishlab chiqish va amalga oshirish / tarjima, ingliz tilidan. – М.: Nauka, 2002. – 396 b.
- Зеер Э.Ф. Обновление базового профессионального образования на основе компетентностного подхода. // Профессиональное образование. Столица. - 2007. - № 4. - С. 9-Ю
- Markova A.K. Professionallik psixologiyasi. - М.: Bilim, 1996. - 308 b.
- Жилич С.В., Галенюк Г.А. Эффективность применения интерактивных методов обучения на занятиях по инженерной графике // Инновационные технологии в инженерной графике: проблемы и перспективы. Сбор.трудов междунар. научю-практ. конф. – Новосибирск: Брест, 2018. – С. 124-125
- Fedotova N.V. Texnik universitet talabalarining uch o'lchovli modellashtirish asosida grafik kompetentsiyasini shakllantirish: dis. ... kand. ped. n. - Tambov, 2011. - 180 b
- Vox E.P. Mustaqil kognitiv faoliyatda kelajakdagi muhandislarda grafik kompetensiyalarni shakllantirish: dis. ... kand. ped. n. - Ekaterinurg: 2008. - 189 b.
- Xamidov, D. (2024). The importance of teaching. engineering engineering computer graphics» in higher education institutions.» international journal of scientific researchers (ijsr) indexing, 4, 320-323.
- Alikulovich, B. A. (2021). Subject Training Disciplines as a Means of Forming Professional Competence in Future Teachers of Fine Arts. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(3), 8965-8989.
- Rustambek o'g'li, K. D. (2025). Using neural networks to analyze the creative process. intellectual education technological solutions and innovative digital tools, 3(33), 63-67.
- Bohodirovna, K. D. (2024). Tasviriy san'atda o'zbek milliy o'yinlari kompozitsiyasining yoritilishi va uning tarbiyaviy ahamiyati. journal of innovations in scientific and educational research, 7(12), 34-37.
- Xoljigitovich, M. I. (2025). interyerda koshinli bezak turlaridan foydalanishning afzalliklari. masters, 3(3), 41-46.
- Pardaboevich, Jumaboev Nabi. «Interpretation of the Problem of Educational use of Aesthetic Views of Eastern Thinkers in Pedagogical Research.» Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 9-9.

O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYATNING AHAMIYATI

Bobomurodov Ko'paysin Abdivayitovich
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti NTM v.b dotsenti

Annotatsiya. Maqolada pedagogik qobiliyatning anglab tushunishni ta'minlashga yo'naltirilgan asosiy qismlar hamda asosiy masalalarga qaratilgan bo'lib, pedagogik qobiliyat tushunchasini anglab tushunishni ta'minlash aloxida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli pedagogik qobiliyat tushunchasini anglab tushunishni ta'minlashga yo'naltirilgan asosiy qismlar hamda asosiy masalalarga alohida e'tibor qaratiladi. Umuman olib qaraydigan bo'lsak pedagogik qobiliyat tushunchasini ta'minlashga yo'naltirilgan asosiy qismlar hamda asosiy masalalar bilan eng yuqori natijaga erishamiz.

Kalit so'zlar: Perseptiv qobiliyat, Didaktik qobiliyat, Kommunikativ, iste'dod, konstruktiv, kuzatuvchanlik qobiliyati, nutq qobiliyati, Diqqatni taqsimlash pedagogik qobiliyat.

ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ В ОБУЧЕНИИ

Бобомуродов Кўпайсин Абдивайитович
Исполняющий обязанности доцента Национального технического университета экономики и педагогики

Аннотация. В статье освещены основные аспекты и ключевые вопросы, направленные на обеспечение осознания понятия педагогических способностей, что имеет особое значение. В связи с этим особое внимание уделяется основным частям и ключевым вопросам, направленным на обеспечение осознания понятия педагогических способностей. В целом, если рассматривать в общем плане, то именно посредством основных аспектов и ключевых вопросов, направленных на обеспечение понимания понятия педагогических способностей, можно достичь наивысших результатов.

Ключевые слова: Перцептивные способности, дидактические способности, коммуникативность, талант, конструктивные способности, наблюдательность, речевые способности, распределение внимания, педагогические способности.

THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL ABILITY IN TEACHER'S ACTIVITY

Bobomurodov Ko'paysin Abdivayitovich
Acting Associate Professor of the Department of Economics and Pedagogy of the National Technical University

Annotation. The article focuses on the main components and key issues aimed at ensuring the understanding of the concept of pedagogical ability, which has particular significance. Therefore, special attention is given to the main components and key issues directed towards achieving an understanding of the concept of pedagogical ability. In general, it can be concluded that the highest results can be achieved through the main components and key issues aimed at ensuring the understanding of the concept of pedagogical ability.

Keywords: Perceptive ability, didactic ability, communicative, talent, constructive, observant ability, speech ability, attention distribution, pedagogical ability.

Kirish. Pedagogik qobiliyat tarixidan. Pedagogik qobiliyat adabayotda birinchi bo'lib XIX asr o'rtalarida paydo bo'ldi. Pedagogika nazariyasida o'qituvchilar tayyorlash va perseptiv qobiliyatga A. Disterverg diqqat e'tibor berdi. Disterverg pedagogik qobiliyatning kuchiga, pedagogik taktga va qat'iy erkinlikka ahamiyat berdi. So'ngra XIX asrning ikkinchi yarmida P. G. Redkin «axloqiy qobiliyat» tushunchasini ilgari surdi.

Disgerverg, Redkin fikrlarini K.D.Ushinskiy davom ettirdi. K.D.Ushinskiy «Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo'li ishontirishdir, odamning e'tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta'sir qilish mumkin», deydi.

Adabiyotlarning tahlili. L. N. Tolstoy: «Tarbiyalash muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tarbiyalovchi kishilar sira to'xtamay o'zlarini tarbiyalay bilishlari kerak»-degandi.

L. S. Makarenko aytishicha, tasodifiy ravishda o'qituvchi bo'lib qolgan, lekin u bu ishga qiziqib ketib badiiy adabiyotni ko'p o'qigai Gorkiyni o'zining usgozi deb, uni asrlarini o'rganishga kirishgan. Makarenko o'z tajribasiga asoslanib, agar har bir kishi qunt bilan mehnat qilsa, u o'ziga nisbatan talabchan bo'lsa, u yaxshi pedagog bo'lishi lozim, deydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo'lib, bir tekisda bo'lmay, biri yuqori, biri o'rta va biri quyi darajadan iboratdir. Faqat aqli zaif insonlarda qobiliyatni uchrata olmaymiz. Maktab o'qituvchisining faoliyati inson shaxsini tiklantirishga qaratilgan. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, qobiliyatni rivojlantirish uchun esa layoqat, zehn, iste'dod, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur. O'qituvchining ba'zi psixik jarayonlari unda shaxsga xos sifatlarining shunday kompleksni tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin. Bu qobiliyatlarni ayrim psixik xususiyatlardan iborat qilib qo'yish mumkin emas.

Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli bo'lishini pedagog shaxsiga xos bo'lgan bir qancha sifatlar, shu jumladan, uning irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarini ham ta'minlab beradi. K.D.Ushinskiy «Faqat shaxsgina shaxsning rivojlanishiga va tarkib topishiga ta'sir qilishi mumkin, faqat xarakter ta'siri bilan xarakterni vujudga keltirish mumkin», deb yozgan[2,44].

Tahlil va natijalar. Qobiliyat-shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi sub'ektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatlaridir.

Falsafa tarixida qobiliyat uzoq davrgacha o'zgarmas irsiyat, nasldan-naslga o'tuvchi alohida kuch sifatida talqin etilgan. Bunday qarashlar dastlab ingliz filosofi J. Lokk va fransuz materialistlari tomonidan tanqid qilingan. Qobiliyatni rivojlantirishi mumkin bo'lgan anatomik fiziologik xususiyatlar tug'ma bo'ladi.

Empatiya - boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyatidir (bigalikda dardlashmoq).

Perseptiv qobiliyat - idrok jarayonining asosiy tuzilishi birinchi bo'lib, bu idrok ob'ektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iboratdir. Bu qobiliyat o'qituvchining o'quvchilar ko'z qarashlari va yuz ifodalariga qarab ularning ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi.

Didaktik qobiliyat - o'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lim qonuniyatini hamda metodlarini o'rgangan holda, ta'lim bers olish va ibratli dars berish qobiliyatidir.

Zamonaviy ish beruvchilarga nafaqat yuzaga kelgan muammolarni o'z vaqtida aniqlay oladigan, balki ularni tezkor va sifatli hal qila oladigan xodimlar zarur. Oliy ta'limdagi innovatsion jarayonlar ta'lim sifatini ta'minlash tizimiga qo'yiladigan talablarni oshirmoqda. Bu tizim ta'lim sifati bilan bog'liq barcha jihatlarni o'z ichiga oladi [8]. Shuning uchun bu muammo dolzarb hisoblanadi, chunki oliy o'quv yurtlari yuqori malakali, samarali mehnat faoliyatiga tayyor, uzluksiz kasbiy o'z-o'zini o'qitish jarayoniga tayyor bitiruvchilarni tayyorlashi kerak. Bu esa talabalar kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan yangi talablar, mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonidan ish beruvchilar talab qiladigan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoniga o'tishni ko'rsatadi [9-10]. Ta'lim sifati yaxshilanishi natijasida ta'lim muassasalarining bitiruvchilari samarali kasbiy faoliyat yuritishga, zamonaviy sharoitlarga tez moslashishga, o'z mutaxassisligi bo'yicha ilg'or texnologiyalarni egallashga va olingan bilimlarini amalda qo'llashga qodir bo'ladilar.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ta'lim sifatini baholash metodikasini ishlab chiqishdir. Taklif etilayotgan yondashuv quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Baholash mezonlarini aniqlash va ekspertlarni tanlash.
2. So'rovnomalar o'tkazish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish.
3. Modelni shakllantirish va yakuniy natijani chiqarish.
4. Natijalarni aks ettiruvchi algoritmi ishlab chiqish.

Tadqiqotning dolzarbligi. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlari mehnat bozorining talablari va ish beruvchilarning ehtiyojlariga mos keluvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni maqsad qilgan turli ta'lim xizmatlarini taklif etmoqda. Ta'lim sifatini kompleks baholash oliy ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki u ish beruvchilarning kutgan natijalarini aks ettiradi va universitetning nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatining tashqi baholash tizimi faol rivojlanmoqda. Bu tizim mavjud standartlar va samaradorlik ko'rsatkichlariga asoslangan. Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini baholash tizimi standartlashtirish, litsenziyalash, attestatsiya va akkreditatsiya jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Baholash metodikasi. Tadqiqotning maqsadiga erishish uchun quyidagi ekspert-tahlil bosqichlari amalga oshiriladi:

- Baholash mezonlarini aniqlash.
- So'rov o'tkazish uchun ekspertlarni tanlash.
- Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish.

- Ta'lim sifatining obyektiv bahosini aks ettiruvchi aniq raqamli natijani olish.
- Baholash modelini formallashtirish va algoritmi ishlab chiqish.

Baholash jarayonida ishtirok etuvchi ekspertlar potensial ish beruvchilar, professor-o'qituvchilar yoki talabalar bo'lishi mumkin. Har bir guruh o'ziga xos mezonlar bo'yicha baho beradi. Ta'lim sifatining umumiy bahosi ekspertlarning o'rtacha baholari asosida aniqlanadi.

Ta'limni miqdor va sifat jihatdan baholash yondashuvini shakllantirishga mantiqiy va tushunarli tuzilmani saqlagan holda ta'lim sifati piramidasini imkon beradi. Bilimlarni piramida shaklida tasvirlash sifat mezonlarini aniq namoyon qilishga yordam beradi, bunda eng yuqori darajada tadqiqotning asosiy g'oyasi – ta'lim sifati aks ettiriladi. Quyida joylashgan darajalar esa mazkur ta'lim jarayoni sifatini baholashni shakllantiruvchi mezonlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur sohani o'rganish quyidagi muhim mezonlarni aniqlashga imkon berdi. Aynan ushbu mezonlar ta'lim sifati piramidasini shakllantirish hamda ta'lim sifatini baholash modelini ishlab chiqish asosiga aylandi:



1. Moddiy-texnik baza – ta'lim jarayonining zamonaviy jihozlanganligi, zarur va yetarli uskunalarning mavjudligi, o'quv xonalari va laboratoriyalarning ta'lim jarayonini tashkil etish uchun yetarli darajada jihozlanganligi, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun zarur vositalarning mavjudligi.

2. Professor-o'qituvchilar tarkibi – pedagoglarning professionallik darajasi, ilg'or ta'lim metodikalaridan foydalanish, mashg'ulotlarni tashkil etish shakl va usullari, o'z faniga chuqur egalik qilish, uni mantiqiy va tushunarli tushuntirish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

3. O'quv-metodik baza – ta'lim faoliyati uchun zarur bo'lgan zamonaviy kutubxona resurslari, metodik qo'llanmalar, tavsiyalar, tasdiqlangan o'quv-metodik faoliyat hujjatlari, dolzarb asosiy o'quv dasturlarining mavjudligi.

4. O'quv amaliyotlari – ilmiy-tadqiqot topshiriqlarini bajarish, ishlab chiqarish muammolarini hal qilish, sifatli va samarali tashkil etilgan o'quv amaliyotlarining ta'lim oluvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga ta'siri.

5. Talabalarning mustaqil ishi – o'z-o'zini tayyorlash jarayonining talabalarning kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli, o'quv rejasiga kiritilgan fanlarni chuqurroq o'rganish imkoniyati.

6. Ta'lim natijalarini nazorat qilish – yarim semestr va semestr attestasiyalarini tashkil etish darajasi, qoldiq bilimlarni baholash natijalari, nazorat ishlari va mustaqil ishlarning ta'lim sifati monitoringi va o'quv jarayonini rag'batlantirish vositasi sifatidagi ahamiyatini aniqlash.

Umumiy ta'lim sifati bahosi aniq mavzuga va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga

mo'ljallangan so'rovnoma natijalari asosida shakllanadi. So'rovnoma natijalari keyinchalik tahlil qilinadi. Har bir ekspert guruhi uchun belgilangan mavzu bo'yicha alohida savollar to'plami taqdim etiladi. Mazkur vazifani hal qilish uchun ekspert baholari usulidan foydalanish lozim. Ushbu usul qaror qabul qilish nazariyasining bir qismi bo'lib, ekspert baholash jarayoni mavjud muammoni hal qilish uchun zarur bahoni olishga qaratilgan. Baholash ekspertlarning mustaqil fikrlariga asoslanadi va qaror qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Taklif etilgan metodikada yakuniy bahoni olish uchun ekspertlarning individual baholari guruhi qo'llaniladi. Bular ekspertlarning obyektiv va bir-biridan mustaqil fikrlariga asoslangan.

Ta'lim jarayonini miqdor va sifat jihatdan baholash metodikani ishlab chiqish jarayonida quyidagi ta'lim sifatini o'lchash usullari ishlatilgan:

1. Mezonlash – bu usul obyektlarni muayyan xususiyatlari bo'yicha kamayish yoki ortish tartibida joylashtirish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiq etilayotgan omillar to'plamidan eng muhimlarini ajratib ko'rsatishga yordam beradi.

2. Bevosita baholash – bu usul tadqiq qilinayotgan obyekt xususiyatlarining mavjud o'zgarish diapazonini intervallarga ajratishga va har bir intervallarga muayyan ball berishga imkon yaratadi.

Mezonning o'rtacha bahosi q_p quyidagicha aniqlanadi: barcha ekspertlar tomonidan berilgan baholar yig'indisi ekspertlar soniga bo'linadi. Bu quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$q_p = \frac{\sum_{k=1}^k C_{pk}}{k}$$

bu yerda:

- q_p – mezon p ning o'rtacha bahosi,
- C_{pk} – ekspert k tomonidan mezon p ga berilgan baho,
- k – ekspertchilar soni.

Ta'lim sifati ko'rsatkichi Q quyidagicha aniqlanadi: barcha mezonlarning o'rtacha baholari yig'indisi maksimal mumkin bo'lgan baho qiymatiga bo'linadi. Bu quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$Q = \frac{\sum_{n=1}^p q_p}{q_{max}}$$

bu yerda:

- q_{max} – baholar yig'indisining maksimal mumkin bo'lgan qiymati.

Ta'lim sifatini baholash uchun yagona baholash shkalasi quyidagicha shakllantiriladi.

Juda past	yomon	O'rtacha	yaxshi	A'lo
0-0,3	0,3-0,6	0,6-0,7	0,7-0,9	0,9-1

Bu shkala 0 dan 5 gacha bo'lgan 5 ta sifat darajasidan iborat bo'lib, quyidagicha taqsimlanadi: 0 – “juda past”, 1 – “yomon”, 2 – “o'rtacha”, 3 – “o'rtacha”, 4 – “yaxshi”, 5 – “a'lo”.

Ekspertlar guruhi tomonidan umumiy yig'ma bahoni shakllantirish jarayonida “o'rtacha qiymatlar usuli” qo'llanildi. Baholash yondashuvini universallashtirish uchun har bir mezon barcha oliy ta'lim muassasalari uchun umumiy bo'lishi kerak. Bu esa ishlab chiqilayotgan metodikani muayyan yo'nalish yoki universitet profiliga bog'lamasdan qo'llash imkonini beradi. Ekspertlar tomonidan har bir mezonga berilgan baholar yig'indisining o'rtacha qiymati mezon bahosi

hisoblanadi. Sifat piramidasida har bir mezon o'zgaruvchiga moslashtiriladi, bu esa yakuniy sifat bahosini shakllantirish jarayonini boshlaydi. Ta'lim sifatini baholash – integrallashgan ko'rsatkich bo'lib, ekspertlar tomonidan belgilangan baholarning o'rtacha qiymatlari asosida shakllanadi. Shu sababli, har bir mezon o'zgaruvchi sifatida ifodalanib, uning natijaviy bahosini aks ettiradi.

Ta'lim sifati umumiy bahosi so'rovnomalar orqali shakllantiriladi. So'rovnomalar aniq bir mavzuda va barcha ishtirokchilar uchun o'tkazilib, natijalari tahlil qilinadi. Har bir ekspert guruhi uchun maxsus savollar to'plami taklif etiladi. Bu masalani hal qilish uchun ekspert baholari metodidan foydalaniladi. Ushbu metod qaror qabul qilish nazariyasining bir qismi bo'lib, ekspertlarning mustaqil fikrlariga asoslangan holda muammoga baho berish jarayonini anglatadi. Taklif qilinayotgan metodikada yakuniy bahoni olish uchun ekspertlarning individual baholar to'plami qo'llaniladi. Ushbu baholar ob'ektiv va mustaqil fikrlarga asoslangan.

Ta'lim sifatini o'lchash usullari: Metodikaning ishlab chiqilishida ta'lim sifatini baholashning quyidagi usullari qo'llanildi:

- Kriteriyalash – bu usul obyektlarni (kriteriyalarni) muayyan xususiyatlariga qarab o'sish yoki kamayish tartibida joylashtirish, shuningdek, eng muhim omillarni aniqlash imkonini beradi.

- To'g'ridan-to'g'ri baholash – bu usulda obyektning o'zgarish diapazoni oraliqlarga bo'linadi va har bir oraliqqa ma'lum ball beriladi (bizning tadqiqotimizda – 0 dan 5 gacha).

Ekspertlar guruhining umumiy bahosi o'rtacha qiymatlar usuli yordamida hisoblanadi. Har bir oliy ta'lim muassasasi uchun baholash mezonlari universallashtirish kerak, shunda metodika har qanday yo'nalish yoki sohaga bog'lanmagan holda qo'llanilishi mumkin bo'ladi.

Ekspert fikrlarining mosligini baholash

Ekspertlarning fikrlaridagi uyg'unlikni aniqlash uchun Kendalning konkordatsiya koeffitsienti ishlatiladi:

$$W = \frac{12 S}{k^2(p^3 - p)}$$

Bu yerda:

- W – Kendalning konkordatsiya koeffitsienti,
- S – o'rtacha qiymatdan farqlar kvadratlari yig'indisi,
- k – ekspertchilar soni,
- p – kriteriyalar soni.

Kendal koeffitsienti 0 dan 1 gacha qiymatlar olishi mumkin: 0 – mutlaq kelishmovchilik, 1 – mutlaq kelishuv.

Ekspertlar baholari mosligini tekshirish uchun Person moslik kriteriyasi ishlatiladi:

$$\chi^2 = 12 \frac{S}{k(p+1)}$$

Agar hisoblangan qiymat jadvaldagi qiymatdan katta bo'lsa, ekspertlar fikri bir-biriga bog'liq va ishonchli deb hisoblanadi.

Ta'lim sifatini baholash algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Kriteriyalarni aniqlash – ta'lim sifatini baholash uchun mezonlar belgilanadi.
2. Ekspertlarni so'rovdan o'tkazish – har bir ekspert har bir kriteriyaga baho beradi.
3. O'rtacha baholarni hisoblash – har bir kriteriy uchun o'rtacha qiymat topiladi.
4. Ekspertlar fikrining uyg'unligini tekshirish – Kendal va Person kriteriyalari bo'yicha baholanadi.
5. Yakuniy baho chiqarish – agar ekspertlar fikri uyg'un bo'lsa, yakuniy natija qabul qilinadi, aks holda qayta baholash o'tkaziladi.
6. Baholarni tahlil qilish – natijalar asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab

chiqiladi.

Xulosa. Taklif etilgan baholash modeli quyidagilarni ta'minlaydi:

- Baholash mezonlarini ko'paytirish imkoniyati,
- Kriteriyalar muhimligini hisobga olgan holda baholash,
- Turli manfaatdor tomonlarning fikrlarini inobatga olish (o'qituvchilar, talabalar, ish beruvchilar).

Mazkur metodika ta'lim sifatini oshirish, talabalar tayyorgarlik darajasini yaxshilash va ularni bozor talablariga mos ravishda tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa: Ushbu modelni joriy etish universitetdagi ta'lim jarayoni sifatini oshirish, mehnat bozorida talabgir va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi. Oliy ta'lim tizimida sifatni ta'minlash va baholash bugungi global raqobat sharoitida har bir mamlakat uchun ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Ta'lim sifatini oshirish orqali yuqori malakali, intellektual salohiyatga ega kadrlar yetishtiriladi, bu esa mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat va xalqaro akkreditatsiya tizimlari oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini baholash, aniqlash va doimiy takomillashtirib borishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, sifatni kafolatlovchi zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, ularni xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish bugungi kun oliy ta'lim strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

Yo.T. Axmadjonova, U. T. Axmadjonova, Z.Z. Yaxshiyeva // ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari // Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar. –B. 1563-1567

А.В.Морозов // особенности управления высшим учебным заведением в современных условиях // Журнал: Управление образованием: теория и практика. –С. 90-106

Z.T. Mamadiyarov // Oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarish tizimidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar // "Inter education & global study" Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2992-9024. 2025, №1. –B. 385-395

Асаул А.Н., Капаров Б.М. Управление вуза учебным заведением в условиях инновационной экономики. СПб.: «Гуманистика», 2007. 280 с.

Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент. М.: Магистр: ИНФРА-М, 2014. 252 с.

J.Y. Buranova // Oliy ta'lim tizimini miqdor va sifat jihatidan baholashning rivojlangan davlatlar tajribasi // "Inter education & global study" Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2992-9024. 2025, №1. –B. 169-177

Глубокова Е.Н. Изменения в образовательном процессе современного вуза в условиях управления знаниями // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. №1. Т. 45. 2010. С. 38-44.

Э.З.Имамов, Х.Н.Каримов, С.С.Халилов, А.Э.Имамов. // Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов // "Science and innovation" international scientific journal. –С. 479-482

X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov. // Effective organization of the educational process based on new modern technologies // "Science and innovation" international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -P. 230-233.

Kh.Karimov. // Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies // "Galaxy international Interdisciplinary Research Journal", 11(2), -P. 471-475.

ПСИХОЛОГО-ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРЕСА К ПОЗНАНИЮ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА РАЗЛИЧНЫХ ЭТАПАХ УРОКОВ

Эльчиева Динара Толубаевна

Доктор философии по педагогическим наукам (PhD).

Доцент кафедры «Психологии» Навоийского государственного университета.

Аннотация: В статье рассматриваются психолого-дидактические особенности развития интереса к познанию у учащихся начальных классов, а также факторы, влияющие на мотивацию к обучению. Формирование устойчивого познавательного интереса у младших школьников является одним из ключевых аспектов эффективного обучения. Автор анализирует роль учителя в создании благоприятно образовательной среды, способствующей активизации познавательной деятельности. Особое внимание уделяется структуре урока и специфике работы с детьми на его различных этапах. Рассматриваются методы и приёмы, направленные на поддержание внимания и вовлечение учащихся в учебный процесс, включая игровые технологии, проблемное обучение, ситуационные задачи и межпредметные связи. В статье также подчёркивается важность учёта возрастных и индивидуальных особенностей младших школьников, а также создания условий, способствующих развитию внутренней мотивации. Приводятся практические рекомендации для педагогов по организации учебного процесса, способствующего формированию устойчивого интереса к познанию, что, в свою очередь, повышает качество образования и формирует у детей положительное отношение к обучению.

Ключевые слова: познавательный интерес, младшие школьники, учебная мотивация, психолого-дидактические условия, этапы урока, активные методы обучения, игровые технологии, проблемное обучение, педагогические приёмы, когнитивное развитие.

DARSNING TURLI BOSQICHLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILISHIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-DIDAKTIK XUSUSIYATLARI.

Elchiyeva Dinara Tolubayevna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Navoiy davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasida docenti.

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarida o'qishga qiziqishni rivojlantirishning psixologik va didaktik xususiyatlari, shuningdek, o'rganish motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar ko'rib chiqiladi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida barqaror kognitiv qiziqishni shakllantirish samarali ta'limning asosiy jihatlariidan biridir. Muallif kognitiv faoliyatni faollashtirishga yordam beradigan qulay ta'lim muhitini yaratishda o'qituvchining rolini tahlil qiladi. Darsning tuzilishi va uning turli bosqichlarida bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Diqqatni saqlash va o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilishga qaratilgan usul va usullar, jumladan, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim, vaziyatli vazifalar va fanlararo aloqalar ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish, shuningdek, ichki motivatsiyani rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish muhimligi ta'kidlangan. O'qituvchilarga bilimga barqaror qiziqishni shakllantirishga yordam beradigan, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshiradigan va bolalarda o'qishga ijobiy munosabatni shakllantiradigan o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv qiziqish, boshlang'ich maktab o'quvchilari, ta'lim motivatsiyasi, psixologik-didaktik shartlar, dars bosqichlari, faol o'qitish usullari, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim, pedagogik texnika, kognitiv rivojlanish.

PSYCHOLOGICAL AND DIDACTIC FEATURES OF FORMING COGNITIVE INTEREST IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS AT DIFFERENT STAGES OF LESSONS

Elchieva Dinara Tolubaevna

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD).

Associate Professor of the Department of Psychology at Navoi State University.

Abstract: The article examines the psychological and didactic features of developing cognitive interest in primary school students, as well as factors influencing learning motivation. The formation of a stable cognitive interest in primary school students is one of the key aspects of effective learning. The author analyzes the teacher's role in creating a favorable educational environment that contributes to the activation of cognitive activity. The article discusses methods and techniques aimed at maintaining students' attention and involvement in the learning process, including game technologies, problem-based learning, situational tasks, and interdisciplinary connections. The article also emphasizes the importance of considering primary school students' age and individual characteristics, as well as creating conditions that contribute to the development of internal motivation. Practical recommendations are provided for educators on organizing the learning process that fosters a stable interest in learning, which, in turn, improves the quality of education and fosters a positive attitude towards learning in children.

Keywords: cognitive interest, primary school students, learning motivation, psychological and didactic conditions, lesson stages, active learning methods, game technologies, problem-based learning, pedagogical techniques, cognitive development.

В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы определены приоритетные направления, включающие семь приоритетных направлений, одно из которых обеспечение духовного развития и поднятие данной сферы на новый уровень, что в свою очередь зависит от степени образованности и грамотности будущего поколения. Рассматривая процесс как дидактическую систему с исследовательской и аналитической направленностью, целесообразно проводить такие исследования, как категоризация дидактических возможностей, направленных на формирование интереса к познанию, совершенствование технологии организации этапов уроков, формирующих интерес к познанию у учащихся начальных классов.

Как известно, в результате формирования интереса к познанию и развития познавательной деятельности учащихся в конкретных учебных заданиях на определенном этапе урока укрепляются их новые достижения, расширяется интерес к познанию и познавательная деятельность. Потому что с первых дней учебной деятельности мышление учащихся перемещается в центр их сознательной деятельности. Развитие логики словоупотребления, оценочного мышления возникает в результате приобретения научных знаний. Это также перестраивает другую учебную деятельность учащихся. В возрасте от 7 до 11 лет память учеников приобретает мыслительный характер, а их восприятие носит созерцательный характер.

В процессе начального обучения происходят определенные изменения в развитии внимания учащихся. Специфические аспекты ученического внимания быстро развиваются. К 7-11 годам сфера внимания школьников значительно расширяется. Повышается его стабильность, развиваются навыки координации и распределения. Учащиеся 3–4 классов будут иметь возможность в достаточной мере сосредоточить свое внимание на конкретном событии и добровольно выполнять назначенную программу действий.

У младших школьников память, как и все психические процессы, претерпевает определенные изменения. Суть его в том, что их память постепенно приобретает

произвольный характер. Таким образом, в этот период осуществляется эффективное управление воспоминаниями учащихся.

Соответственно, младший школьный возраст - сензитивный период для формирования высокого уровня произвольной памяти. Поэтому учебные задания на уроках и другие целевые занятия, направленные на формирование интереса к познанию и развитие познавательной деятельности учащихся, особенно эффективны в этот период. Особенно эффективны следующие методы запоминания учебных материалов во время выполнения учениками заданий на различных этапах уроков: группирование учебных заданий; определять основы обучающих ситуаций; планировка, классификация, композиция; создавать рисунки, находить похожие ситуации; использовать удобные методы; перекодирование; восстановление заученных учебных материалов; организация связей; повторение.

Формирование произвольного поведения у младших школьников – результат аналитической деятельности, основанной на планировании и знании своих действий. В этот период ученик оценивает свое поведение по результатам выполненной деятельности. При этом он меняет свое поведение по определенному плану. В результате учащиеся развивают интеллектуально ориентированную основу. Это связано с процессом разделения внутренней и внешней жизни ученика. У ученика есть возможность одержать победу над своими желаниями. Если результаты реализации этих желаний не соответствуют определенным стандартам или не позволяют достичь поставленной цели.

Внешний мир ученика отличается от внутреннего мира. Именно эти изменения у школьников приводят к выражению чувств по отношению к взрослым. В результате они прихотливо выражают свои желания. В этом возрасте негативные состояния, которые появляются у учащихся, отражаются в их психической несовместимости. Их настроение и воля не всегда стабильны.

Формирование интереса к познанию, развитие познавательной активности младших школьников связано с их успешностью в процессе урока. При этом оценка учителей и родителей играет важную роль в развитии учебной деятельности учащихся. Учащиеся в этом возрасте более восприимчивы к внешним воздействиям. В результате они усваивают знания как возможность для интеллектуального, так и для нравственного развития. Роль учителя важна в формировании этических норм у учащихся и содержания их интересов. В этом процессе развитие учебной деятельности учащихся напрямую связано с их отношениями с другими учащимися. Особую роль в развитии учебной деятельности учащихся играют и окружающие взрослые.

В процессе начального образования ярко проявляется стремление учащихся к успеху. Поэтому основная тенденция учащихся в этот период – стремление к успеху. У таких учащихся стремление избегать неудач является приоритетом. Определенные цели, высокие модели поведения отражаются в сознании ученика. По мере формирования интереса к познанию и развития познавательной деятельности учащегося он или она начнет все больше и больше понимать ценность и важность этих целей. Внимание, оценка учителей и родителей особенно важны для более эффективного формирования интереса к познанию младших школьников. Эмоциональная оценка поведения учащихся взрослыми и учителями определяет развитие их нравственных чувств. В результате учащиеся ответственно и серьезно относятся к правилам, которые они изучают в процессе обучения.

Социальные поведенческие навыки играют важную роль в формировании интереса к познанию у младших школьников. По мере того, как учащиеся вступают в новые социальные отношения, они начинают сравнивать себя с другими. Они стремятся развивать свои способности и личные качества в зависимости от своих успехов, поведения, достижений. Поэтому процесс начального обучения – это особый этап в формировании интереса к познанию учащихся. Главное достижение этого этапа – умение учащихся ускорить формирование интереса к познанию. Поэтому в этот период есть возможность

создать благоприятную среду для следующих ступеней обучения. По окончании начального образования ученик должен верить в свои силы, интеллектуально развиваться и стремиться учиться, чтобы добиться успеха в процессе урока на определенных его этапах.

Завершенность этого периода состоит в том, что в этом процессе ученик может проявить себя как основной субъект познавательной деятельности. Основная деятельность учителя в этом процессе – создание благоприятных условий для открытия возможностей обучения учащихся и создание необходимой учебной среды для демонстрации своих способностей к обучению с учетом уникальности каждого ученика. Это, в свою очередь, требует поиска и адаптации педагогических технологий, направленных на формирование интереса к познанию и развитие познавательной деятельности учащихся. В этом процессе учитель должен учитывать специфику видов заданий на различных этапах уроков.

Концепция начального образования отдает приоритет развитию зрелой, социализированной, духовно сформированной личности.

Для достижения этой цели необходимо в первую очередь формировать интерес к познанию и развивать познавательную деятельность учащихся. Интерес к познанию и познавательная деятельность учащихся развивается в результате активного подхода к окружающей среде, природе и общественной жизни. Такое отношение – результат усвоения социально-исторического опыта узбекского народа.

Научные подходы к формированию интереса к познанию и развитию познавательной деятельности учащихся включают два основных направления:

а) дидактические подходы, в которых упор делается в основном на деятельность учителей, изучение роли методических средств в формировании интереса к познанию и развитии познавательной деятельности учащихся;

б) психологический подход, при котором учащиеся сами используют интерес к познанию и познавательную деятельность, организованную с учетом их психолого-педагогических особенностей.

Организация учебной деятельности учащихся – это система, которая представляет собой последовательные действия учащихся и учителей.

Эта система должна обеспечивать создание дидактических условий, выполнение учебных задач и целенаправленное управление этим процессом.

Возможности активировать учебный процесс в процессе личностно-ориентированного образования открываются за счет повсеместного внедрения модернизированного содержания и средств образования.

Идея формирования всесторонне развитой личности в образовательном процессе стала главной целью личностно-ориентированной педагогической системы. Приоритетной в работе учителей является проблема сохранения здоровья учащихся, наряду с вопросом обеспечения их полноценным образованием.

Исследования О.Розикова, Р. Сафаровой показывают, что языковое обучение закономерно влияет на умственное развитие учащихся.

В то же время оно позволяет сформировать личность независимого, ответственного, самоотверженного, творческого человека с национальной гордостью. Такие учащиеся могут проявить себя в будущем как субъекты собственной жизнедеятельности. Формирование умения использовать новые педагогические технологии обеспечивает комплексную совместную работу учащихся.

Анализ процесса направления учащихся к формированию интереса к познанию и развития познавательной деятельности позволил выделить ряд направлений этого процесса. Это:

- учащиеся образовательного процесса информирование их как субъектов этого процесса;
- организация на основе диалога учебного процесса;

- реализация в учебном процессе личностно-ориентированной совместной деятельности;
- дифференциация и индивидуализация процесса обучения;
- демонстрация актуальности и важности содержания учебного материала;
- установление межпредметной интеграции и связи между темами предмета;
- вовлечение учащихся в систематическую и последовательную деятельность;
- эффективное использование проблемных методов и методов совместного обучения;
- расширение направлений самостоятельной работы учащихся;
- создание позитивной атмосферы в классе, основанной на оптимизме;
- обеспечение успехов учащихся, основанной на создании дидактической среды;
- обеспечение оптимизма среди учителей и учащихся на основе создания педагогически здоровой среды;
- вера учителя в познавательные возможности учеников.

Определение степени дифференциации возможностей обучения учащихся и способов их оптимизации является важным условием обеспечения эффективности начального образования. Учащиеся с начальным уровнем познавательной активности очень пассивны и испытывают трудности с выполнением заданий. Для них необходимо создать обстановку, основанную на оптимизме, которая позволит справиться со страхом перед неправильным ответом. Возникновение интереса к определенным видам заданий, к определенным предметам, интерес к учебным материалам, привлекательность форм обучения, напрямую связан с активным уровнем познавательной деятельности учащихся. Целесообразно использовать ролевые игры, проблемные ситуации в обучении учащихся с активным уровнем успеваемости, которые приведут их к активности. В процессе обучения креативность учащихся проявляется с высокой активностью.

Следует отметить, что на сегодняшний день в дидактике нет единого подхода к процессу приобретения знаний, умений и навыков. Познавательная деятельность учащихся играет основную роль в учебно-познавательном процессе. Предоставление учащимся готовой информации, ее усвоение, применение на основе примеров проявляется в их творческом использовании. На начальном этапе обучения учащихся знакомят с базовыми знаниями лексики родного языка. В результате происходит переход к формированию более высоких уровней познавательной деятельности. При этом ученики начинают сознательно использовать слова в своей речи.

Главное средство, которое создает у учащихся познавательные наклонности – их личный опыт. Это отражается в их понимании практического значения знаний, основанных на конкретном жизненном опыте и усвоенной информации. В качестве внешнего ориентира для целенаправленной организации проблемной ситуации можно указать решения задач, которые затрудняют учащимся процесс обучения.

Содержание учебных материалов как механизмов, направляющих познавательную деятельность учащихся, помогает им понять определенные универсальные ценности. Это, в свою очередь, расширяет выбор учащихся и направляет их интерес к познанию. Важно обратить внимание на исследовательски-исполнительный характер учебной деятельности.

Этого можно достигнуть за счет использования комплекса взаимосвязанных методов. Данные методы направлены на приобретение знаний учащимися, чтобы они могли видеть результаты своей учебной деятельности. Такие методы в некоторых случаях могут иметь репродуктивный характер, и, в первую очередь, решающие проблемы обучения.

Личностная деятельность учащихся является действенным методом обучения, в процессе которого учащиеся приобретают статус субъекта в случае формирования интереса к познанию и развития их познавательной деятельности. В таком случае формируется личностный подход, а место методов напряжения занимает метод объединения сил учащихся в процессе обучения. Учитель в такой ситуации выступает как объект деятельности, а учащиеся в процессе обучения приобретают определенный уровень самостоятельности.

Субъектный характер интереса к познанию отвечает требованиям современной дидактики, что в свою очередь становится первостепенной потребностью в условиях развития познавательной деятельности. Содержание и методы обучения должны в первую очередь соответствовать уровню развития учащихся.

Одним из важных условий эффективной организации учебного процесса является формирование у младших школьников базовых познавательных умений. Существует и такой подход, что формирование способов познавательной деятельности является не специальной задачей, а дополнительным результатом учебного процесса. Работа учащихся над приобретением познавательных умений, на наш взгляд, приравнивается к процессу формирования знаний.

При анализе практической деятельности ряда учителей, выяснилось, что в работе по формированию у учащихся определенных учебных умений существуют некоторые трудности. Обучение, в традиционной системе образования, осуществляется репродуктивным способом. Учащимся, в этом процессе, становится сложнее овладеть необходимыми методами обучения. Тем не менее, этот процесс должен происходить на основе взаимодействия. Это свидетельствует о том, что организация образовательного процесса в таких условиях связана в основном с деятельностью учителя, который выступает как лицо, передающее готовые знания учащимся, что в свою очередь существенно ограничивает познавательные возможности учащихся и препятствует использованию когнитивных методов в учебном процессе.

Переход от традиционных моделей обучения к новой, личностно-ориентированной модели, основанной на гуманизации, открывает благоприятные дидактические возможности для применения новых педагогических технологий и организации учебных заданий, которые на этой основе развивают познавательную деятельность. Выражается идея программного обучения на основе личностного обучения, что в свою очередь создает условия для самостоятельной работы всех учащихся на уроках, допускает определенную степень дифференциации учебного процесса. Изменение позиции учителей в процессе обучения, ориентированного на человека, создает учебные задания в процессе урока, основанную на субъектно-субъектных отношениях. В этом процессе учитель выступает в роли наставника и советника учеников. Это позволяет учителю эффективно использовать приемы мыслительной деятельности в процессе урока.

Формирование навыков логического мышления у младших школьников сегодня становится серьезной образовательной проблемой. Потому что большинство трудностей, с которыми сталкиваются учащиеся, отражены в учебных материалах. В процессе урока учащиеся должны сначала развить навыки описания изучаемых событий в качестве основной точки зрения.

С этой точки зрения развитие логического мышления у учащихся способствует ускорению познавательной деятельности. Это, в свою очередь, сочетает в себе рациональный, интеллектуальный, эмоциональный способы познания.

На уровне эмоциональной и интеллектуальной деятельности, на уровне восприятия событий, формирования воображения, теоретического осмысления событий и фактов, которые обеспечивают его развитие проявляются компоненты интереса к познанию младших школьников. В дидактике интерес к познанию учащихся выглядит так: интересы – воля – внимание – мысль – исследование. Это отражается в том, что учащиеся ищут оптимальные методы получения знаний. Интерес к познанию и познавательная деятельность требует разработки определенных методических средств в области мышления и исследования, направленная на овладение способами интеллектуальной деятельности учащихся.

Сегодня сочетаются два важных подхода к дидактике:

а) дидактический подход, при котором основное внимание уделяется изучению роли деятельности учителя и методических средств по формированию интереса к познанию учащихся; б) психологический подход, при котором интерес к познанию учащихся изучается в рамках их психолого-педагогических особенностей.

Таким образом, можно отметить, что в современных психолого-педагогических подходах интерес к познанию, познавательный интерес учащихся признается основным принципом дидактики.

Под организацией познавательной деятельности учащихся понимается поэтапная система деятельности учащихся и учителей. Эта система обладает свойством обеспечения дидактических условий и предусматривает реализацию образовательных задач и целенаправленное управление этим процессом.

Результаты анализа процесса формирования интереса к познанию и развития познавательной деятельности младших школьников показали, что в учебных заданиях на определенных этапах уроков следует опираться на ряд направлений. К таким направлениям относятся: учащиеся образовательного процесса и формирование их как субъектов этого процесса; организация на основе диалога учебного процесса; реализация в учебном процессе личностно-ориентированной совместной деятельности; дифференциация и индивидуализация процесса обучения; демонстрация актуальности и важности содержания учебного материала; установление межпредметной интеграции и связи между темами предмета и др.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании.»// - «Гармонично развитое поколение - основа развития Узбекистана.» - Т.: Шарк, 1997.- С. 20-29.
2. Концепция начального образования// Начальное образование, 1998, №6.
3. Национальная программа по подготовке кадров.//»Гармонично развитое поколение - основа развития Узбекистана.» -Т., Шарк, 1997. - С. 33-61.
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 321 от 9 июля «О мерах по реализации Государственной общенациональной программы развития школьного образования на 2004-2009 годы.»//LEX.UZ.
5. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах предусмотренная Указом Президента Республики №УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года//LEX.UZ.
6. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3931»О мерах по внедрению новых принципов управления в систему народного образования» от 5 сентября 2018 года.// LEX.UZ
7. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 140» Об утверждении Положения об общем среднем образовании» от 15 марта 2017 года.// LEX.UZ
8. Розиков О., Огаев С. Образовательная технология. -Т.; 1999. - 71 с.
9. Сафарова Р. Теория и практика обучения родному языку в школах Узбекистана в условиях национального возрождения: Автореф. дисс... док. пед. наук. - Т., 1998. - 36 с.

DZYUDOCHI QIZLARNING TEXNIK VA TEZKOR-KUCH TAYYORGARLIGI ASIMMETRIYASINI TAHLIL QILISH MAQSADIDA O'TKAZILGAN SO'ROVNOMA NATIJALARI

Ismatullayeva Sangina Ravshan qizi

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Chirchiq shahar, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada dzyudo bilan shug'ullanuvchi yuqori malakali dzyudochi qizlarni tayyorlashda uchrayotgan tezkor-kuch va texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish maqsadida, tajribali sport mutaxassisleri va sportchilar o'rtasida pedagogik kuzatish orqali anketa-so'rovnoma natijalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, tezkor-kuch, texnik va taktik harakatlar, asimmetriya, tahlil qilish, so'rovnoma, natijalar, mashg'ulotlar.

РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРОСА, ПРОВЕДЕННОГО С ЦЕЛЬЮ АНАЛИЗА АСИММЕТРИИ ТЕХНИЧЕСКОЙ И СКОРОСТНО-СИЛОВОЙ ПОДГОТОВКИ ДЗЮДОИСТОК

Исмагуллаева Сангина Равшан кизи

доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, г. Чирчик, Узбекистан

Аннотация. В данной статье представлены результаты анкетирования путем педагогического наблюдения среди опытных спортивных специалистов и спортсменов с целью устранения факторов, препятствующих повышению эффективности скоростно-силовой и технико-тактической подготовки высококвалифицированных девушек-дзюдоисток.

Ключевые слова: физическая подготовка, скоростно-силовые, технические и тактические действия, асимметрия, анализ, опрос, результаты, тренировки.

RESULTS OF THE SURVEY CONDUCTED TO ANALYZE THE ASYMMETRY OF TECHNICAL AND SPEED-STRENGTH TRAINING OF FEMALE JUDOKAS

Ismatullaeva Sangina Ravshan qizi,

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,

Uzbek State University of Physical Culture and Sports, Chirchik city, Uzbekistan

Abstract: This article presents the results of a questionnaire conducted through pedagogical observation among experienced sports specialists and athletes to eliminate factors hindering the effectiveness of speed-strength and technical-tactical training encountered in the training of highly qualified female judokas.

Keywords: physical training, speed-strength, technical and tactical actions, asymmetry, analysis, questionnaire, results, training.

Bugungi kunga kelib, zamonaviy sport kurash turlari juda tez hamda ilg'or sur'atlar bilan rivojlanib kelmoqda. Dzyudochi qizlarni tayyorlash – bu murabbiyning yuqori professional darajasini, uning boshqa mutaxassislar bilan yaqin hamkorligini talab qiladigan ko'p yillik murakkab jarayondir.

Dzyudochilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni

o'z ichiga oladi. Bunga kuch, tezkor-kuch mashqlari, egiluvchanlik va koordinatsion mashqlar hamda o'ziga xos dzyudo texnikasi kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asimmetriyani hisobga olgan holda o'quv-mashg'ulot jarayonini individuallashtirish dzyudochi qizlarning ish faoliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Dzyudochi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini nazorat qilishning ilmiy-nazariy asoslari har qanday dzyudochi qizlar uchun juda muhimdir. Ushbu asoslar, dzyudochi qizlarning tayyorgarlik dasturini tuzish, nazorat qilish va natijalarni yuqori baholashda ularga ko'maklashadi. Dzyudo bilan shug'ullanuvchi sportchi-qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini nazorat qilishda ilmiy-nazariy asoslarining o'rganilganlik holati hamda manbalar tahlili keltirilgan.

Dzyudochi qizlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligining asimmetriyasini baholash o'quv-mashg'ulot jarayonini optimallashtirish va sportchi qizlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga imkon beradigan muhim jihatlardan biridir.

Dzyudo sport turi bilan shug'ullanuvchi dzyudochi qizlarni tayyorlashda duch kelayotgan muammolarni bartaraf etish, texnik-taktik harakatlar hamda tezkor-kuch qobiliyatlarining tayyorgarlik darajasi samaradorligini oshirishga to'sqinlik etuvchi omillarni bartaraf etish maqsadida, dzyudo sport turi bo'yicha uzoq yillar mobaynida faoliyat yurutib kelayotgan tajribali murabbiy mutaxassislar orasida pedagogik kuzatish orqali anketa so'rovnoma o'tkazildi hamda savollarga kerakli javoblar olindi.

Mavjud manbalarni tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatdiki, dzyudo sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchi-qizlarni tayyorlash mobaynida tezkor-kuch qobiliyatlarini shakllantirishga mo'ljallangan mashg'ulotlarni ilmiy-nazariy bilimlar orqali tashkil etish, bugungi kunda talab darajasida amalga oshirilmayapti. Shu bois, dzyudo sport turida olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mashg'ulotlar jarayoniga ilmiy-metodik jihatlarga asoslangan yangi uslublarni joriy etish zarur.

Sport amaliyotida malakali ilg'or tajribalarni o'rganish natijasida shunga amin bo'ldikki, dzyudo bo'yicha mutaxassislar tomonidan mashg'ulotlarni rejalashtirish yo'nalishida kompleks ta'sirli mashqlarni qo'llash masalasi ko'rib chiqildi va mashqlarning dastlabki vazifalari bir tomonlama joriy qilinishi kerak bo'lganligi asosida barcha vazifalar tarkibi asta-sekin kengayib borishi bilan belgilandi.

Tadqiqot davomida biz 30 dan ziyod murabbiylar o'rtasida anketa-so'rovnoma o'tkazdik va so'rovnoma natijalari quyidagicha bo'ldi (3.1-rasmga qarang).

Sizning fikringizcha, dzyudo sport turi mashg'ulotlari jarayoniga tezkor-kuch qobiliyatlarni rivojlantirish hamda texnik tayyorgarlikni oshirish uchun maxsus simulyatsiya trenajorlarini kiritish kerakmi? (1-savol)? "Zarur" degan savolga murabbiylarning 49,1 foizi, "aslida kerak emas" – 15,4 foizi, "ayrimlar uchun bu zarur, boshqalari uchun bu shart emas" – 35,5 foizi javob bergan.

Sizning fikringizcha dzyudochi qizlarda qaysi yosh davri tezkor-kuch qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng qulay davr deb hisoblaysiz (2-savol)? Murabbiylarning 30,3 foizi: 10-12 yosh, 57,6 foizi: 12-14 yosh va 12,1 foizi javob bergan: 13-16 yosh.

Dzyudo bilan shug'ullanuvchi sportchi qizlarda musobaqa faoliyatining qaysi jarayonida tezkor-kuch qobiliyatlar asimmetriyasi yaqqol namoyon bo'ladi (3-savol)? Murabbiylarning 34,1 foizi "hujumda", 34,1 foizi "himoyada", qolgan 31,8 foizi esa "qarshi hujumda" javobini tanlagan.


Sizningcha, dzyudoda texnika va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasi qanchalik muhim (4-savol)? Murabbiylarning 56,1 foizi: "juda muhim", "ba'zida lozim, goh-gohida lozim emas" 23,9 foiz: "muhim emas" 20 foiz javob berishgan.

Agar sportchining texnik hamda tezkor-kuch qobiliyati rivojlanmagan bo'lsa, bu sportchiga qanday ta'sir qiladi? (5-savol) - bu savolga 95% murabbiylar "sportda yuqori maqsadlarga erisha olmaydilar", 5% murabbiylar "mashg'ulot davomida ko'plab jarohatlar oladilar", javobini qayd etdi. Qolaversa, mazkur savolga ba'zi sport murabbiylari tezkor-kuch qobiliyati shakllanmagan sportchidan yuqori darajadagi natija kutish qiyinligi, kurashchi-sportchilarda texnika va taktika bilan rivojlantirish samarali natijani qayd etishi mumkinligi haqida fikr bildirdilar.

Sizningcha, o'quv-mashg'ulot jarayonining qaysi qismida tezkor-kuch ko'nikmalarini rivojlantirish usullaridan foydalanish kerak (6-savol)? - Murabbiylarning 36,4 foizi "takroriy", 38,1 foizi "qat'iy jadval bo'yicha", qolgan 25,5 foizi esa "davriy ravishda" degan javobni aniqladilar. Ba'zi murabbiylar bu muammoni hal qilish uchun barcha usullardan foydalanish mumkinligini aytishdi. Ba'zi ekspertlar aylanma usullarni qo'llash mashg'ulotning maqsadiga tayangan holda muvofiq bo'lishini taklif qilishdi va raqobat usuli ham ko'p afzalliklarga ega. Biz ham yuqorida aytib o'tilgan amaliyotchilarning fikrlariga qo'shilamiz.

Sizning fikringizcha, sportchi qizlarning jismoniy tayyorgarligida maxsus kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus simulyatsiya trenajyorlarini yaratish kerakmi (7-savol)? 70,5% murabbiy kerak, 10% murabbiy kerak emas, 19,5% esa ba'zida murabbiy kerak emas deb javob bergan.

Sizningcha, bugungi kunda dzyudochi qizlar assimetriyasini o'rganish yuzasidan yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilganmi (8-savol)? Murabbiylarning 38,7 foizi "yetarli emas", 9,6 foizi "yetarli", 51,7 foizi esa "bor, lekin juda oz" deb javob berishgan. Bu savolga ba'zi murabbiylar butun dunyoga mashhur olimlar adabiyotlaridan ma'lumot olish kerakligini qo'shimcha qildilar. Bizning fikrimizcha, tezkor-kuch malakalarini rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy metodik manbalar hamda adabiyotlar yetarli darajada, biroq ularning oz qismi o'zbek tiliga tarjima qilingan.



1 -rasm. Anketa so'rovnoma natijalari

Siz texnik ko'nikmalar asimmetriyasini rivojlantirish uchun qanday usullardan foydalanasiz (9-savol)? - degan savolga trenerlarning 39,4 foizi "tez-tez", 39,4 foizi "qat'iy jadvalga muvofiq", 21,2 foizi "vaqti-vaqti bilan" deb javob berdi. Ushbu masala bo'yicha ba'zi ekspertlar ta'limni barcha usullar bilan amalga oshirish mumkinligini sharhlaydilar. Biroq, ular davra va raqobat usulining ko'plab afzalliklariga ega deb hisoblashdi. Yuqoridagi gaplarni ham to'g'ri deb hisoblaymiz.

Sizningcha, dzyudo bilan shug'ullanuvchi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodologiyasi innovatsion usullar bilan boyitilganmi

(10-savol)? Murabbiylarning 19,3 foizi “ha”, 51,6 foizi “yo‘q”, 29,1 foizi esa “aniq bilmayman” deb javob bergan. Ayrim murabbiylar ilmiy metodologiya ishlab chiqish zarur degan fikrni bildirishdi.

Malakali dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch qobiliyatlari samaradorligini oshirishning mavjud omillaridan biri sifatidagi maxsus tayyorgarlik bosqichlarida keng qo‘llanuvchi mashqlar tizimlashtirildi. Sport mashg‘ulot sonini izchillik bilan oshirish uslublari ishlab chiqilib, ularning maxsus o‘quv mashg‘ulotlardan keyin rivojlanish holatlariga faol ta’sir turlari aniqlandi. Mashg‘ulotlarni ratsional almashtirish asosida sportchilarning Texnik-taktik tayyorgarligi va musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichlarining turli yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarini tashkil etishning o‘zaro bog‘liqligi haqida ilk marotaba tajriba ko‘rsatkichlari olindi.

Ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun malakali dzyudochi-qizlarga bir kunda beriladigan bir necha turli tezkor-kuch yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarning ta’sirini, mashg‘ulotlar turining kuchi va ta’sir qilish tavsifini chuqur o‘rganish talab qilinadi. Mazkur masalani yechish turli mashg‘ulotlarni almashlab o‘tishning mashqlar tizimini ishlab chiqish va dzyudo sport turi bo‘yicha malakali sportchilarni tayyorlashda uning samaradorligiga erishish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, sportchi qizlarni tayyorlash jarayonini boshqarish tizimini ishlab chiqish sport pedagogikasi nazariyasi va amaliyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammo degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari ayollarning yakkakurash nazariyasiga va xususan, dzyudochi qizlarni tayyorlash nazariyasiga ma’lum hissa qo‘shdi, bu faqat o‘quv jarayonini boshqarishning nozik, nazariy jihatdan asoslangan va amalda tasdiqlangan tizimidan foydalanish sportchi qizlarimizning ushbu sport turidagi xorijiy raqiblardan ortda qolishini bartaraf etishga olib kelishi mumkinligini isbotladi.

Xalqaro sport maydonida raqobatning kuchayishi va mashg‘ulot yuklamalarining ko‘payishi bilan dzyudo sohasidagi mutaxassislar mashg‘ulot usullarini doimiy ravishda takomillashtirish zarurligiga duch kelishmoqda. Dzyudoda yuqori natijalarga erishish sportchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi kerak bo‘lgan samarali boshlang‘ich ta’lim tizimisiz mumkin emas. Mavjud tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dzyudoda boshlang‘ich ko‘nikmalarni o‘rgatish usullari ko‘pincha kattalar uchun usullarni nusxalashadi, bu o‘z navbatida samarasiz va metodologik prinsiplarga mos kelmaydi.

Dzyudo nazariyasi va amaliyotidagi hal qilinmagan muammolardan biri bu sportchilarda raqobat sharoitida texnika va taktikalarni qo‘llash haqidagi g‘oyalarni shakllantirish bo‘yicha bilimlarning yetishmasligidir. Dzyudochilarda texnik-taktik tayyorgarlikni shakllantirishga dominant yondashuv bellashuvni o‘tkazish vositalarini izchil o‘rganishga va texnikani qo‘llashga asoslangan, bu har doim ham maqbul bo‘lmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, olib borilgan so‘rovnoma natijalari tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligini aniqlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki texnik harakatlar o‘zgaruvchan muhit talablariga muvofiq murakkab harakat faoliyatini (shakllanish, o‘zaro bo‘ysunish, birlashtirish), o‘zlashtirilgan harakat usullarini tiklash yoki bir vosita faoliyatidan boshqasiga o‘tkazish qobiliyatidan iborat.

Dzyudo bilan shug‘ullanuvchi malakali sportchi qizlarning tezkor-kuch qobiliyatlari samaradorligini oshirishning mavjud omillaridan biri sifatida maxsus tayyorgarlik bosqichlarida keng qo‘llaniladigan mashqlar tizimlashtirildi. Maxsus o‘quv mashg‘ulotlari aniqlangandan so‘ng, mashg‘ulotlar sonini doimiy ravishda oshirish va ularning rivojlanish holatiga faol ta’sir qilish usullari ishlab chiqilgan.

Dzyudo sport turida texnik-taktik tayyorgarlikni tashkillashtirishning uzviy bog‘liqligi o‘qitishning muqobil tayyorgarlik bosqichlari asosida sportchilarning bellashuv oldidan ko‘rsatadigan tajriba ko‘rsatkichlari tadqiqotning davomiyligida olib borilgan usullar yordamida aniqlandi.

Ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun dzyudobilan shug‘ullanuvchi yuqori malakali

dzyudochi qizlarda bir necha xil tezkor-kuch qobiliyatiga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarning ta‘sirini, mashg‘ulot turining kuchini va ta‘sirining tavsifini diqqat bilan o‘rganish kerak. Ushbu holatni hal qilish, turli-tuman harakatlarni o‘zgartirish uchun maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqish orqali dzyudo sport turi bilan shug‘ullanadigan yuqori malakali dzyudochi qizlarni tayyorlashda samaradorlikga erishish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Rashid Matkarimov, Sarvar Adilov, Fikrat Kerimov, Georgiy Korobeynikov, Lesia Korobeinikova, Zafar Bakiev, Khasan Abdurazzokov. Improving the technical and tactical characteristics of elite wrestlers // MUAMMOLARI SLOBOZHANSKYI HERALD OF SCIENCE AND SPORT / Vollum 28 No. 4, 2024, 197-203 p. (Scopus bazasida indeksatsiyalangan).

2. S.Q.Adilov. Results of a survey on the development of coordination skills and technical and tactical training of athletes involved in wrestling // Guliston davlat universiteti axborotnomasi 2024. №4, 177-179 bet.

3. Исматуллаева С.Р. Теория и методика дзюдо // Учебное пособие. “IMPRESSOR MEDIA” MChJ bosmaxonasi, 2025. 200 с.

4. Ismatullayeva S.R. Fundamentals of increasing the efficiency of competition activity and developing technical and tactical training // Mental enlightenment scientific – methodological journal 2024/1. - pp. 78-85.

5. S.R.Ismatullayeva. Maxsus simulyatsiya trenajyorida dzyudochi qizlarning texnik va tezkor-kuch tayyorgarligi asimmetriyasini tahlil qilish // ped.fan. bo‘yicha falsafa doktori diss... Chirchik 2025. - B. 68-71.

INKLYUZIYADA DIFFERENTIAL TA'LIM TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

*Isakulova Nilufar Janikulovna, O'zDJTU professori,
pedagogika fanlari doktori, professor*

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziyada differential ta'lim tushunchasi va mohiyati yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda, ta'lim jarayonini moslashtirish va o'quvchilarga shaxsiy yondashuvni taqdim etish tamoyiliga asoslangan ta'lim tizimi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish, ta'lim jarayonida ijtimoiy-emosional qo'llab-quvvatlash.

ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Исакулова Нилюфар Жаникуловна, профессор УзГЮУ,
доктор педагогических наук, профессор*

Аннотация. В данной статье раскрываются понятие и сущность дифференцированного обучения в условиях инклюзивного образования. Также проанализирована система обучения, основанная на принципе адаптации образовательного процесса с учетом индивидуальных особенностей, потребностей, способностей и интересов учащихся, а также предоставления персонализированного подхода к каждому обучающемуся.

Ключевые слова: инклюзивное образование, адаптация к индивидуальным потребностям учащихся, социально-эмоциональная поддержка в учебном процессе.

THE CONCEPT AND ESSENCE OF DIFFERENTIATED INSTRUCTION IN INCLUSIVE EDUCATION

*Isakulova Nilufar Janikulovna, Professor at Tashkent State University of Law,
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

Abstract. This article explores the concept and essence of differentiated instruction within the framework of inclusive education. It also analyzes an educational system based on the principle of adapting the learning process to students' individual characteristics, needs, abilities, and interests, while providing a personalized approach to each learner.

Keywords: inclusive education, adaptation to individual student needs, social-emotional support in the educational process.

KIRISH. Differensiyal ta'lim – bu o'quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda, ta'lim jarayonini moslashtirish va o'quvchilarga shaxsiy yondashuvni taqdim etish tamoyiliga asoslangan ta'lim tizimidir. Boshqacha qilib aytganda, bu o'qitish usulini va metodlarini har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirishga qaratilgan yondashuvdir. Differensiyal ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga o'zlarining individual imkoniyatlariga mos keladigan ta'limni taqdim etish, shuningdek, barcha o'quvchilarga muvaffaqiyatga erishish uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Differensiyal ta'limning mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Differensial ta'limning mohiyati

TADQIQOT USULLARI. Differensial ta'limning asosiy mohiyati – bu har bir o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlashdir. Har bir bola o'ziga xos qobiliyatlar, qiziqishlar va o'rganish uslublariga ega, shuning uchun umumiy o'quv dasturini barcha o'quvchilarga moslashtirish lozim. Bu yondashuv o'qituvchilardan o'quvchilarning individual ehtiyojlarini tushunishni va ularni ta'lim jarayonida qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Differensial ta'limda ta'lim metodlari, uslublari va vositalari o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos ravishda tanlanadi. Masalan, ba'zi o'quvchilar vizual materiallarni yaxshi o'zlashtirsa, boshqalari eshitish orqali yaxshiroq o'rganadilar. Shunday qilib, o'qituvchi o'quvchilarning o'rganish uslublariga mos ravishda turli xil o'quv vositalaridan, masalan, grafik, video, audiovizual materiallar, interaktiv ta'lim dasturlaridan foydalanadi.

Differensial ta'limda o'quvchilar o'zlarining bilim darajasi, rivojlanish sur'ati yoki o'rganish qobiliyatiga qarab guruhlariga bo'linishi mumkin. Bu, o'quvchilarga o'z darajalariga mos keladigan materiallar va vazifalar taklif qilishga imkon beradi. Misol uchun, ba'zi o'quvchilar uchun ko'proq vaqt talab qilinadigan topshiriqlar, boshqalari uchun esa yanada murakkab masalalar berilishi mumkin.

Differensial ta'limda bilimlarni va ko'nikmalarni mustahkamlashda ham o'quvchilarning ehtiyojlariga qarab yondashuv qo'llaniladi. Misol uchun, ba'zi o'quvchilarga yangi mavzuni yaxshiroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha mashq yoki yordam taklif etilishi mumkin, boshqalari uchun esa darslarni qiyinlashtirish kerak bo'lishi mumkin.

Differensial ta'lim nafaqat akademik qobiliyatlar, balki o'quvchilarning qiziqishlari, ijtimoiy ehtiyojlari va hissiy holatini ham hisobga oladi. Bu yondashuv bolalarning o'zini ifoda etish va ijtimoiy integratsiya qilishlariga yordam beradi. Masalan, o'quvchilarni qiziqitirgan mavzular bo'yicha loyihalar va guruh ishlari tashkil etish, ular orasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Differensial ta'limda o'qituvchining roli yo'lboshchi va maslahatchi sifatida ko'riladi. O'qituvchi o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda ta'limni tashkil etadi, individual yordam ko'rsatadi va har bir o'quvchining o'z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarning yutuqlarini kuzatib boradi va ularni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha yordamni taqdim etadi.

Differensial ta'limda o'quvchilarni baholash ham ularning individual xususiyatlariga moslashtiriladi. Har bir bola uchun o'ziga xos baholash usuli ishlab chiqilishi mumkin. Masalan, ba'zi o'quvchilar uchun yozma testlar, boshqalari uchun esa og'zaki yoki amaliy baholashlar yaxshi natija beradi. Bu baholash jarayonida o'quvchilarning individual imkoniyatlari va o'rganish uslublari inobatga olinadi.

Differensial ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalari ham muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchilar turli xil onlayn platformalar, interaktiv dasturlar, ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'limni boshqaradilar. Bu usullar o'quvchilarning o'rganish jarayonini yengillashtirish va ularning ta'limga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

TADQIQOT NATIJALARI. Differensiyal ta'limning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

O'quvchilarga muvaffaqiyatga erishish uchun teng imkoniyatlar yaratish.

O'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, o'quv jarayonini moslashtirish.

Har bir o'quvchining o'ziga xos rivojlanish darajasiga mos ta'limni taqdim etish.

O'quvchilarni o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga rag'batlantirish.

O'qitish jarayonida o'quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirish.

Differensiyal ta'lim – bu barcha o'quvchilarga, shu jumladan, turli ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalarga, o'zlarining individual xususiyatlariga mos ta'limni taqdim etishga qaratilgan yondashuvdir. Bu ta'lim tizimi o'quvchilarning o'rganish uslublarini, ehtiyojlarini va qobiliyatlarini inobatga olib, ta'lim jarayonini moslashtirishga imkon beradi. Bunday yondashuv, o'quvchilarning muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi va ularning o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishga ko'maklashadi.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarda (muassasalarda) ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari. Maxsus ta'lim tamoyillari quyidagilardan iborat:

korreksion yo'naltirilganligi;

nuqsonini aniqlash, ta'lim berishda kompleks (klinik-genetik, neyrofiziologik, psixologik pedagogik) yondoshish;

nuqsonli funktsiyani erta aniqlab, tibbiy-psixologik jixatdan korreksiyalash;

umumiy o'rta ma'lumot berish, kasbga yunaltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish;

differensial tabaqalashtirish va alohida yondoshish;

ta'limning uzliksizligini ta'minlash.

Tabaqalashtirilgan ta'limning maqsadi shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish, uning imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida, bu har bir o'quvchiga o'z qobiliyatlari bo'yicha maksimal bilimlarni olish va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiya o'quv jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi.

Asosiy vazifa: talabaning individualligini ko'rish va uni saqlab qolish, bolaga o'z kuchiga ishonishiga yordam berish, uning maksimal rivojlanishini ta'minlash.

Tabaqalashtirilgan ta'lim – umumiy o'rta ta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini hisobga olgan holda alohida o'quv rejasi va dasturlar asosida olib boriladigan ta'lim turi. Tabaqalashtirilgan ta'limning mehnat ta'limi bilan aloqasi o'quv-tarbiyaviy ishlarning muhim asosi hisoblanadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy tayyorgarliklariga alohida e'tibor beriladi. Shu sababli ayrim maktablar bilim asoslarini chuqurlashtirishga, o'quvchilarni muayyan kasbga yo'naltirishga mo'ljallangan bo'ladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda umumiy o'rta ta'lim tizimidagi asosiy o'quv predmetlari mazmunini chuqur o'zlashtirish, bevosita kerakli o'quv materiallarini o'rganish ko'zda tutiladi. Tabaqalashtirilgan ta'limning muhim jihati uning ma'lum sohaga yo'naltirilganligi va bu ta'lim jarayonida o'ziga xos predmetlar tizimining o'qitilishidir. Tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etishda maktablardagi imkoniyatlar puxta o'rganiladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda ma'lum miqsorda qo'shimcha dars mashg'ulotlari o'tkazish yoki o'quv rejasidagi ayrim predmetlarni tanlab olib, ularni chuqurroq o'zlashtirish rejalashtiriladi. Uning u yoki bu shaklini tanlashda maktab va o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqiladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda o'quvchilar o'z qiziqishlari asosida yo'nalishlar bo'yicha guruhlariga bo'linib, ta'lim ma'lum kasbga yo'naltirilgan tarzda amalga oshiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'lim kasbga yo'naltirish va yo'llashning muhim asosi hisoblanadi hamda biror mutaxassislik sohasidagi bilim va ko'nikmalarni egallash bilan

bog'liq bilimlar asosida amalga oshiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda o'quvchilar kasbga yo'nalish va qiziqishidan qat'iy nazar, barcha o'quv predmetlari bo'yicha to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lishadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim o'quvchining qaysi bo'lim yoki qaysi predmetni chuqur o'rgangan bo'lishiga qaramay, oliy o'quv yurtiga kirish uchun belgilangan imtihonlarda qatnashish imkonini beradi va unga tayyorgarlik bosqichi vazifasini o'taydi [2].

Tabaqalashtirilgan ta'limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

shaxsni qabul qilish prinsipi;

talabaning kuchli tomonlariga e'tibor qaratish prinsipi;

har bir inson uchun muvaffaqiyat holatini yaratish prinsipi;

talabalar uchun mavjud bo'lgan bilim, tajriba va his-tuyg'ularga tayanish prinsipi;

o'quv guruhining birligi prinsipi;

shaxsiy ahamiyatga ega vazifalar va munosabatlar prinsipi;

vazifalarning ko'p darajali prinsipi [3].

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning jahon amaliyotida bir nechta tendentsiyalarni ajratish mumkin:

aksariyat Yevropa mamlakatlari va AQShda inklyuziv ta'limni joriy etish bosqichma-bosqich va demokratik xususiyatga ega;

yetarli mablag', inklyuziya talablarining bajarilishi va huquqiy qoidalarga rioya qilish jamoatchilikning inklyuziv jarayonlarga ijobiy munosabatini shakllantirishni ta'minladi;

nogiron bolalarni o'qitish uchun muassasani tanlashda ustuvorlik ota-onalarga tegishli;

inklyuziv ta'limning ko'p o'zgaruvchanligi qo'llab-quvvatlanadi, bunda o'quvchilarning aksariyati rivojlanishida jiddiy nuqsonlari bo'lmagan bolalardir;

yoshligidan bolalarga tuzatish va kompensatsiya yordami tashkil etilgan va kengaytirilmoqda;

inklyuziv ta'lim nogiron bolalarning ma'lum bir qismi uchun ta'lim berish uchun mo'ljallangan ta'lim tizimining faqat bir qismi ekanligini anglab etdi;

inklyuziv ta'limning cheksiz kengayishi tendentsiyasi tanqid qilinmoqda, bunda Amerika rivojlanish nogironligi bo'lgan shaxslar assotsiatsiyasi maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan barcha bolalarni inklyuziv ta'lim bilan qamrab olishni, ommaviy maktabda bolalarga ixtisoslashtirilgan yordamdan voz kechishni va asta-sekin maxsus ta'limni bekor qilishni talab qiladi [4].

Inklyuziv ta'lim va tabaqalashgan ta'lim (differensiyal ta'lim) o'rtasida ba'zi asosiy farqlar mavjud, chunki ularning maqsadlari, uslublari, va pedagogik yondashuvlari turlicha. Ikkala ta'lim tizimi ham o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga oladi, lekin ularni amalga oshirishda turli yo'nalishlar mavjud. Quyida inklyuziv va tabaqalashgan ta'limning qiyosiy tavsiflari keltirilgan (1-jadvalga qarang):

Qiyosiy tavsiflar	Inklyuziv ta'lim	Tabaqalashgan ta'lim
Ta'limga yondashuv	Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi barcha o'quvchilarni, shu jumladan maxsus ehtiyojlarga ega bolalarni birgalikda ta'lim olish imkoniyatini yaratishdir. Bu tizimda ta'lim jismoniy va psixologik cheklovlariga bo'lgan o'quvchilarni ham qamrab oladi, shuningdek, ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish usullari va vositalari ishlatiladi	Tabaqalashgan ta'limda o'quvchilarni ularning individual qobiliyatlari, bilim darajasi yoki o'rganish tezligi asosida guruhlariga ajratish tavsiya etiladi. Bu tizimda o'quvchilar uchun qiyinlashtirilgan yoki yengillashtirilgan materiallar taqdim etiladi, maqsad har bir o'quvchining o'z darajasida muvaffaqiyatga erishishidir
Ta'lim tizimining maqsadi	Ta'lim jarayonining maqsadi barcha o'quvchilarning teng huquqliligini ta'minlashdir. Inklyuziv ta'limda ijtimoiy adolatni oshirish, o'quvchilarning farqliliklarini hurmat qilish va ularni birga o'qitish asosiy maqsad hisoblanadi	Tabaqalashgan ta'limda har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini optimallashtirish va o'quvchilarni o'z darajasida muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirishga qaratilgan
O'quvchilarni guruhlariga ajratish	O'quvchilarni ajratmasdan, barcha o'quvchilar birgalikda o'qitiladi. Maxsus ehtiyojlarga ega o'quvchilar o'z jismoniy yoki psixologik cheklovlariga qaramay, umumiy sinfda ta'lim olishadi	O'quvchilarni ularning individual ehtiyojlari va o'rganish tezligiga qarab guruhlariga ajratishadi. Masalan, ba'zi o'quvchilar uchun maxsus yordam ko'rsatilishi mumkin, boshqalariga esa yanada murakkab materiallar taqdim etiladi
Pedagogik yondashuv	O'qituvchilar barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ta'limni individualizatsiya qilishga harakat qiladilar. Bu, maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar uchun qo'shimcha yordam va moslashtirilgan usullarni taqdim etishni talab etadi	Ta'lim jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarni turli darajalarga ajratib, ularga moslashtirilgan materiallarni taklif qilishadi. O'qitish metodlari o'quvchilarning individual bilim darajalariga qarab farq qiladi
Ehtiyojlarni qondirish usuli	Barcha o'quvchilarning ehtiyojlari bir xil tarzda qondirilmaydi. Har bir o'quvchining ehtiyojiga moslashtirilgan individual yordam (masalan, nutq terapiyasi, psixologik yordam, maxsus didaktik materiallar) taqdim etiladi. Bunda o'quvchilarning farqlari hurmat qilinadi va ular birgalikda o'qiydilar	Bu tizimda o'quvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv materiallari va usullari taqdim etiladi. Masalan, bilim darajasiga qarab o'quvchilar uchun murakkab yoki yengilroq topshiriqlar va testlar tayyorlanadi
Ijtimoiy jihatlar	Inklyuziv ta'lim tizimi ijtimoiy tenglikni targ'ib qiladi, barcha o'quvchilarni birgalikda o'qitish orqali jamiyatda ijtimoiy integratsiyani rivojlantiradi. Bu yondashuv ijtimoiy ko'nikmalarni, shuningdek, hamdardlik va bag'rikenglikni rivojlantiradi	Tabaqalashgan ta'lim ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilmagan. O'quvchilar o'z darajalari bo'yicha guruhlariga ajratiladi, bu esa ba'zi hollarda tenglikni ta'minlashga xalaqit berishi mumkin
Baholash usullari	Inklyuziv ta'limda baholash o'quvchining individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab farq qiladi. Baholash jarayoni o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga asoslangan bo'lishi kerak, bu esa o'quvchini rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi yondashuvni ta'minlaydi	Baholashda o'quvchilarning bilim darajasiga moslashtirilgan testlar yoki topshiriqlar ishlatiladi. Har bir guruh o'z darajasida baholanadi va natijalar o'quvchining o'z darajasiga mos keladigan yutuqlarini ko'rsatadi
Moslashuv darajasi	Ta'lim jarayoni individual ehtiyojlarga moslashtiriladi va o'quvchilarni teng imkoniyatlar bilan ta'minlashga qaratilgan. Bu tizimda o'qituvchilar barcha o'quvchilarning farqlarini hisobga oladi	Bu tizimda o'quvchilarni yuksaltirish yoki pastga tushirish darajasi mavjud, ya'ni o'quvchilarni bilim darajasiga qarab guruhlariga ajratish amalga oshiriladi

Har ikkala tizim ham o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olishga qaratilgan bo'lsa-da, inklyuziv ta'lim ko'proq ijtimoiy integratsiya va tenglikni ta'minlashga qaratilgan, tabaqalashgan ta'lim esa har bir o'quvchining maxsus ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan bilim olishni ko'zlaydi.

“Inklyuzivlik” va “inklyuziv ta'lim” tushunchalari mazmunidagi farqlarni yaxshiroq tushunish uchun keling, pedagogikada mazmuni allaqachon ishlab chiqilgan “differentsiatsiya” va “differentsiallashtirilgan ta'lim” tushunchalari bilan o'xshashlik keltiramiz [1] (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

“Inklyuzivlik” va “differensiatsiya” tushunchalari mazmunidagi farqlar va o’xshashlik

Differensiya	Analogiya (uslubiy, ko'proq nazariy, mafkuraviy tushuncha, pozitsiya, ko'p qirrali pedagogik hodisani aks ettiradi)	Inklyuziv
Differensiallashgan yondashuv	Yondashuv uslubiy kategoriya, o'qituvchining (o'qituvchi yoki tashkilot rahbarining) uslubiy yo'nalishi, o'zaro bog'liq g'oyalar, tushunchalar va pedagogik faoliyat usullarining ma'lum bir xarakterli to'plamidan foydalanishni rag'batlantirish (G.K. Selevko). Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan va texnologiya bilan belgilanadigan faoliyatning maqsadlari, mazmuni, usullari, vositalari va usullari to'plamiga ma'lum bir urg'u (I.M.Osmolovskaya)	Inklyuziv yondashuv
Differensiallashgan ta'lim	G'oyalarning amaliyotga tatbiq etilishi	Differensiallashgan ta'lim
Differensiallashgan ta'lim		Differensiallashgan ta'lim

Differentsial va inklyuziv ta'lim ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. O'qish davomiyligi.
2. Sinfni to'ldirish.
3. Pedagogik tarkibi.
4. Talabalarining o'qituvchilar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlari vaqti.
5. Bolalarning ota-onalari bilan o'zaro munosabatlari vaqti.
6. Shaxsiy o'zaro ta'sir koeffitsiyenti.
7. Ta'lim muhitining turi.
8. Ta'lim muhitidagi munosabatlar turi (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

Differentsial va inklyuziv ta'lim ko'rsatkichlari

№ Differentsial va inklyuziv ta'lim ko'rsatkichlari Tabaqalashtirilgan ta'lim

(IV turdagi maktab) Inklyuziv ta'lim

(ommaviy maktab)

1. O'qish davomiyligi 12 yil 11 yil

2. Sinfni to'ldirish 12 o'quvchi 25 o'quvchi +3 ko'zi ojiz

3. Pedagogik tarkibi Tiflopedagoglar, o'qituvchilar, nutq terapevtlari, o'qituvchilar O'qituvchilar

4. Talabalarining o'qituvchilar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlari vaqti Kuniga 12

soat Kuniga 5 soat

5. Bolalarning ota-onalari bilan o'zaro munosabatlari vaqti yo'q Kunning ikkinchi yarmi

6. Shaxsiy o'zaro ta'sir koeffitsiyenti $k=2$ soat: 12 o'quvchi $k=1$

$k=5$ soat: 28 o'quvchi $k=0.18$

7. Ta'lim muhitining turi Tuzatish. Maxsus jihozlangan. texnik vositalar Ta'lim

8. Ta'lim muhitidagi munosabatlar turi Insonparvar, pedotsentrik, bag'rikeng Raqobatbardosh.

Muvaffaqiyat va shaxsiy yutuqlarga yo'naltirilgan

XULOSA. Xulosa qilib aytganda inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga, shu jumladan, maxsus ehtiyojlarga ega bo'lganlarga, teng imkoniyatlarni yaratish maqsadida ta'limni birgalikda va individual ehtiyojlarga moslashtirilgan holda amalga oshiradi. Tabaqalashtirilgan ta'lim esa o'quvchilarning bilim darajasi va o'rganish tezligiga qarab guruhlarini ajratib, ta'limni moslashtirishga qaratilgan yondashuvni qo'llaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

NOU nr. 18. Rett til læring. Kunnskapsdepartementet, Oslo, 2009.

Tabaqalashtirilgan ta'lim. Elektron resurs: Tabaqalashtirilgan ta'lim - Vikipediya (wikipedia.org)

Основные понятия технологии дифференцированного обучения, его принципы и приемы. основные понятия технологии дифференцированного обучения, его принципы и приемы. | Материал: | Образовательная социальная сеть (nsportal.ru)

Пальтова А.Е. Сравнение возможностей дифференцированного и инклюзивного образования на примере обучения слабовидящих. Сравнение возможностей дифференцированного и инклюзивного образования на примере (present5.com).

DASTURIY TA'LIM VOSITALARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI

*Jo'rayev Akmal Razzoqovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti "Aniq va tabiiy" fanlar dekani*

*Raxmonova Sojida Muxammadovna
Buxoro davlat Universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: maqolada ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishda zamonaviy dasturiy ta'lim vositalari ishlab chiqish va amaliyotda samarali joriy etish, ushbu vositalar maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi, Maktabgacha ta'lim sohasida talabalar uchun elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron kutubxonalar, elektron kataloglar va elektron metodik majmualar kabi turli dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga muhim omil bo'lib xizmat qilishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion kasbiy faoliyat, kreativlik, layoqat, qobiliyat, didaktik qobiliyat, kompetentlik, pedagogik mahorat, tafakkur, intuitsiya, perseptiv, kognitiv, empativ, motivatsiya.

МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ ДОШКОЛЬНИКОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ

*Джураев Акмаль Раззакович,
Бухарский государственный педагогический институт Декан факультета "Точных и естественных" наук*

*Рахмонова Сожида Мухаммадовна,
Бухарский государственный университет, аспирант*

Аннотация: В статье представлена информация о разработке и эффективном внедрении современных программных средств для эффективной организации и управления образовательным процессом, значение этих средств в укреплении знаний, умений и квалификации обучающихся в дошкольном образовании, а также значение использования различных программных средств для обучающихся в дошкольном образовании, таких как электронные учебники, электронные пособия, электронные библиотеки, электронные каталоги и электронные методические комплексы, как важного фактора повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: инновационная профессиональная деятельность, креативность, способность, умение, дидактическая способность, компетентность, педагогическое мастерство, мышление, интуиция, перцептивный, когнитивный, эмпатический, мотивация.

METHODOLOGY FOR PREPARING STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES BASED ON SOFTWARE EDUCATIONAL TOOLS

*Juraev Akmal Razzoqovich,
Bukhara State Pedagogical Institute
Dean of "Exact and Natural" Sciences*


*Rakhmonova Sojida Mukhammadovna
Bukhara State University basic doctoral student*

Annotation: the article provides information on the development and effective implementation of modern software educational tools in the effective organization and management of the educational process, the importance of these tools in strengthening the knowledge, skills and qualifications of students in preschool education, and the importance of using various software educational tools for students in preschool education, such as electronic textbooks, electronic manuals, electronic libraries, electronic catalogs and electronic methodological complexes, as an important factor in increasing the effectiveness of the educational process.

Keywords: innovative professional activity, creativity, ability, ability, didactic ability, competence, pedagogical skills, thinking, intuition, perceptive, cognitive, empathic, motivation.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasidagi mutaxassislarning bilim darajasi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi sifatli ta'lim jarayonining natijasi sifatida baholanadi. Shuning uchun, ta'lim sifatini oshirish, uning samarali boshqaruvini ta'minlash va doimiy ravishda nazorat qilish, mavjud kamchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi

60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid fanlar asosida dasturiy ta'lim vositalari orqali innovatsion kasbiy faoliyatga tayyor bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassisi modeli mazmunan takomillashtirildi. Ushbu model maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish kasbiy faoliyatga tayyorlashda yangicha yondashuvni ifodalaydi. Modelning asosiy tarkibiy qismlari quyidagi elementlardan tashkil topgan: "Maqsad", "Tashkiliy", "Mazmun", "Kasbiy sifatlar", "Natija" (1-rasmga qarang).



1-rasm. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti: Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berish sohasidagi o'quv-metodik qo'llanmalarni, metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish, qurish, jihozlash va ularning faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ushbu tadqiqot ishi amalga oshirildi.

Malaka talablari: Oliy ta'lim muassasalarining 60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy faoliyat tavsifi, kasbiy faoliyatining sohalari, kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari, kasbiy faoliyatlarining turlari, kasbiy vazifalari, kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar, fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablarga tayanilgan holda tadqiqot ishi amalga oshirildi.

Model maqsadi: Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishda, tashkiliy-metodik jihatlari tahlil qilinib, malaka talablarini bajarish orqali talabaning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga oid fanlardan o'quv-metodik hamda didaktik ta'minot, dasturiy ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ta'lim jarayonida foydalanish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni amalga oshirilib, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda pedagogik va psixologik nazariyalarni amaliyotga tatbiq etish, ularning rivojlanishiga mos keladigan ta'lim metodlaridan foydalanishga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish, bolalar bilan muloqotda bo'lishning innovatsion metodikalaridan foydalanish orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish nazarda tutildi.

O'quv-metodik va didaktik ta'minot: Maktabgacha ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi fanlar asosida tayyorlangan (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma, o'quv-uslubiy majmua) o'quv-metodik hamda didaktik ta'minot asosida o'quv jarayonini samarali tashkil etish va ta'limning maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan materiallar, vositalar va yondashuvlar majmuasidan foydalanildi.

Darslik – malaka talablariga muvofiq fan dasturi mazmunini barcha mashg'ulotlar bo'yicha to'liq qamrab olgan didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik talablarga javob beruvchi mashg'ulot mavzulari mazmuni to'liq yoritilgan va ta'lim oluvchilar o'zlashtirishiga qaratilgan nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy tajriba-sinovlarni qamrab olgan o'quv nashri.

O'quv qo'llanma – ma'lum bir fanning kamida bitta mashg'ulot turi yoki ushbu mashg'ulot turning bir qismiga oid mavzulari bo'yicha hamda qo'shimcha ma'lumotlar, tavsiyalar va amaliy mashqlarni qamrab olgan o'quv material nashri.

Metodik qo'llanma – biror bir fanning mavzularini samarali o'qitish metodikasiga qaratilgan qo'shimcha topshiriqlar va darsni qiziqarli tashkil etishiga oid metodik ko'rsatmalar berilgan, ta'lim vositalardan foydalanish usullari aniq bayon qilingan o'quv nashri.

O'quv-uslubiy majmua – o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan uslubiy materiallar, metodik tavsiyalar, o'quv dasturi va dars rejalari to'plami ishlab chiqilgan o'quv nashri.

Dasturiy vositalar: kompyuterlar yoki boshqa elektron qurilmalarda ma'lum bir vazifani bajarish uchun mo'ljallangan dastur, biror bir fanni o'qitishga asoslangan dasturlashtirilgan fan yoki fanning mashg'ulot turini qamrab olgan elektron manba, ilovalar to'plami.

Elektron darslik – fan dasturining mazmunini to'liq qamrab olgan didaktik, estetik talablarga javob beradigan, metodik, pedagogik-psixologik, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan dasturlash asosida ishlab chiqilgan darslikning elektron shakli.

Elektron o'quv qo'llanma – raqamli texnologiyalarga asoslangan holda tayyorlangan va talabalarga ma'lum bir fanning mashg'ulot turi mavzulari bo'yicha yordam berishga mo'ljallangan interaktiv materialning elektron shakli.

Elektron o'quv-uslubiy majmua – o'quv jarayonini samarali tashkil etishda zarur bo'lgan barcha uslubiy materiallar va qo'llanmalarni raqamli texnologiyalga asoslangan holda mujassamlashtirgan to'planning elektron shakli.

3D animatsiyalar – kompyuterda dasturlash asosida ishlab chiqilgan tasvir bo‘lib, dinamik tasvirlarni harakatlanuvchi uch o‘lchamli tasvirlarni yaratishning grafikli jarayoni.

Yondashuvlar: Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda (Mantiqiy, evristik, integrativ, tanqidiy, kreativ, innovatsion) yondashuvlar asosida amalga oshirildi.

Mantiqiy yondashuv – talabalarni fikrlash jarayonini tartibga soluvchi va to‘g‘ri xulosa chiqarishga yordam beruvchi va fikrlarni, dalillarni hamda real jarayonlarni isbotlashni o‘rganishda mantiqiy qoida va tamoyillarga asoslangan haqiqatni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, mantiqiy fikrlash muammosini hal qilishda hamda qarorlar qabul qilishga oid tushuncha.

Evristik yondashuv – muammoni hal qilishda foydalaniladigan tajribaga asoslangan, intuitiv yondashuvlarni ifodalovchi tushuncha bo‘lib, aniq va to‘liq yechimni topishga imkon beradigan qoidalar yoki usullardan foydalanishga undovchi kompleks masalalarni yechishga qaratilgan vaqtni tejash va tezkor qarorlar qabul qilishga oid tushuncha.

Integrativ yondashuv – turli elementlar yoki sohalarining birlashishiga asoslangan bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarining 60110200 – Maktabgacha ta’lim yo‘nalishining meyyoriy hujjatlari va real ta’lim jarayonlarini Maktabgacha ta’lim tashkilotining meyyoriy hujjatlari bilan uzviy ravishda o‘zaro bog‘lagan holda ushbu tadqiqot ishida har xil fanlar, metodlar yoki g‘oyalar birlashtirilib, yaxlit va kompleks bir yechim yoki tizimga erishishga qaratildi.

Tanqidiy yondashuv – biror narsani, hodisani yoki g‘oyani chuqur tahlil qilish va baholash jarayoniga asoslangan bo‘lib, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishining o‘quv jarayoniga oid mazmun asosida talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash tanqidiy tahlil qilinib, Maktabgacha ta’lim tashkilotining bo‘lajak mutaxassislari sifatida qaralgan holda tanqidiy fikrlashda, mavjud ma’lumotlar, dalillar va qarorlar sinchiklab ko‘rib chiqilib, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlash orqali mantiqiy xulosalar chiqarish, qarorlar qabul qilish va xatoliklarni aniqlash, kognitiv xatoliklarga qarshi kurashishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanli e’tiborga olindi.

Kreativ yondashuv – yangicha va ijodiy fikrlar, g‘oyalar yoki echimlarni ishlab chiqish qobiliyati. Kreativlik, odatda, mavjud holatlarni yangicha nuqtai nazardan ko‘rish, murakkab masalalarga innovatsion yechimlar topish va yangi yondashuvlarni yaratish bilan bog‘liqdir.

Innovatsion yondashuv – yangi g‘oyalar, texnologiyalar, metodlar yaratish va joriy etish jarayonini anglatadi. Innovatsiya, mavjud tizimlarni yaxshilash, yangi imkoniyatlar yaratish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Innovatsion yondashuvlar odatda muammolarga yangicha va ilg‘or echimlar topishga, shuningdek, ta’limda samaradorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Individual yondashuv — bu har bir talabaning o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda o‘qitish metodlarini tanlash va ta’limni shaxsiylashtirishdir. Bu yondashuv talabaning o‘rganish jarayonida samarali bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi.

Kompetentli yondashuv — talabaning bilim, ko‘nikmalarni inobatga olgan holda, amaliy va samarali yechimlar topishga qaratilgan yondashuvdir. Ta’lim jarayonida kompetentli yondashuv talabaning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, real hayotdagi muammolarni hal qilishda zarur bo‘lgan kompetensiyalarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu yondashuv talaba o‘rgangan bilimlarni amalda qo‘llash, muammolarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishga oid kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Tamoyillar: biror tizim yoki jarayonni tashkil etuvchi asosiy qoidalar bo‘lib, faoliyatni boshqarish, qarorlar qabul qilish va maqsadlarga erishish uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, o‘qitish, maktabgacha ta’lim, ilm-fan va boshqa sohalarda faoliyatni tartibga solishda muhim hisoblanib, Maktabgacha ta’lim tashkilotining bo‘lajak mutaxassislari innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ma’lum bir yo‘nalishlarda boshqarishda va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yordam berdi.

Ilmiylik – talabalarning bilishni, tushunishni va tajriba orqali ma'lumotlarni olishni o'z ichiga olgan intellektual faoliyat bo'lib, ob'yektivlik, dalillar bilan ishlash, tajriba va kuzatishlar orqali natijalarga erishishda mantiq, izchillikda muhim ahamiyatga ega mazmun sifatida xizmat qildi.

Uzviylik – intellektual va ma'naviy jihatdan shaxsni uzluksiz ravishda rivojlantirish nazarda tutilib, innovatsion kasbiy salohiyatli bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni uzluksiz ta'lim-tarbiya orqali amalga oshirilib, shaxsning to'liq rivojlanishi jamiyat va davlatning taraqqiyotini ta'minlash uchun muhimligini inobatga oligan holda amalga oshirildi.

Ko'rgazmalilik – ta'lim jarayonida ma'lumotlarni tasvirlar, diagrammalar, modellar, slaydlar yoki boshqa vizual vositalar orqali ifodalash orqali talabalarga materiallarni yaxshiroq tushunishga, diqqatini jamlashga va o'rganilayotgan mavzuni kengroq anglashga yordam berib, vizual materiallar asosida murakkab tushunchalarni oddiydan murakabga tamoyiliga tayanib faollashtirishga qaratilib, o'qitish metodikasi samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Faollik – bu talabalarning o'qish, o'rganish jarayonlarida faol ishtirok etish orqali olgan bilimlarini amalda qo'llashi, o'zini ifodalash va yangi tajribalar olishga intilishiga undagan holda o'zini-o'zi namoyon etishga, yaratuvchanligini rivojlantirishga yordam berib, faol talabalarda qiziqish, tadqiqotchilik ruhi va o'rganganlarini ijtimoiy hayotga amaliy tatbiq etishga bo'lgan motivatsiya yuqori bo'lishiga erishildi.

Izchillik – ta'lim jarayonida ma'lumotlar tartibli va mantiqiy ravishda taqdim etilib, har bir bosqichning oldingisiga asoslangan holda amalga oshirilib, Maktabgacha ta'limda bolalarning rivojlanishini yaxshilash uchun muhim omil sifatida qaraldi. Har bir yangi bilim va ko'nikma avval o'rganganlari ustida qurilib, bolalarga o'qish va o'rganishni tushunarli va qulay holda yodlash va tushunish qobiliyatini yaxshilashga nisbatan bo'lajak Maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislarini tayyorlashga zamin yaratishi nazariy asoslandi.

Innovatsionlik — bu yangiliklar va ilg'or g'oyalarni yaratish, qabul qilish va amaliyotga joriy etish jarayonini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tamoyil bo'lib, ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga yangiliklarni o'rganish, yangi metodlar va texnologiyalarni qo'llash orqali kreativ fikrlashni va muammolarni yangi usullar bilan hal qilishni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ta'lim tizimida o'qitish metodlarini doimiy ravishda yangilash va takomillashtirishni, yangi texnologiyalarni integratsiya qilishni va talabalarni yangiliklarga ochiq bo'lishga rag'batlantirishni taqozo etadi.

Dars shakllari: auditoriyadagi dars faoliyati jamoaviy, guruhli va yakka tartibdagi shakllar asosida tashkil etilib, har bir dars shakli o'zining maqsadi, vazifalari, vositalari, natijalari, o'rni va ta'lim sub'yektlarining ishtirokiga qarab farqlanib, ma'ruza, amaliy, seminar kabi mashg'ulotlar turlari orqali o'qitish jarayoni tahlil qilinib, har birining didaktik tavsifi asosida amalga oshirildi.

Didaktik shart-sharoitlar: Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlarining mazmuni, metodik va didaktik ta'minotini takomillashtirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan talabalarning bilish faoliyatiga rag'batlantirib, kognitiv va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslangan o'quv reja va fan dasturlari mazmunining yangilanishi, ta'lim metodlarining zamonaviylashtirilishi va didaktik ta'minotning takomillashtirilishi o'qitish samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini yaxshilashga yordam berdi. Didaktik shart-sharoitlar quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi (1-jadvalga qarang).

Didaktik shart-sharoit komponentlari va mazmuni

№	Didaktik shart-sharoit komponentlari	Didaktik shart-sharoit komponentlari mazmuni
1	O'quv reja	O'quv reja — ta'lim jarayonida talabalarga beriladigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv bloklari, fanlar va faoliyat turlarining nomlari, umumiy yuklamaning xajmi, auditoriya mashg'ulotlari va soatlarda, mustaqil ta'lim soatlari, o'quv yuklamalarning semestrlarda taqsimoti, kredit miqdorini belgilovchi hujjat. O'quv reja, shuningdek, o'quv dasturining amalga oshirilishini ta'minlaydigan umumiy yo'riqnoma.
2	Fan dasturi	Fan dasturi — bu ma'lum bir fan bo'yicha asosiy maqsad va vazifalar, fanning asosiy nazariy qismi ya'ni fan tarkibiga kiruvchi mavzular, fan bo'yicha rejalashtirilgan amaliy va seminar mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'limga oid ko'rsatma va tavsiyalar, fan o'qitilishining natijalari, dars shakli, ta'lim texnologiyalari va metodlari, talabalarga kreditlarni to'plash uchun qo'yiladigan talablar jamlangan hujjat.
3	Metodik ta'minot	O'qitish usullari, materiallar va metodik qo'llanmalar, talabalarni samarali o'qitish uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak. Zamonaviy ta'lim metodlari talabalarning faol ishtirokini ta'minlashi lozim.
4	Didaktik ta'minot	Ta'lim berishda foydalaniladigan vositalar, texnologiyalar va resurslar. Bu vizual materiallar, o'quv adabiyotlari, interaktiv ta'lim vositalari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Innovatsion texnologiyalar: o'quv jarayonini samarali va interaktiv tashkil etish uchun ta'limiy faoliyatda yangi va ilg'or texnologik vositalar va metodlarni qo'llashdir. Innovatsion texnologiyalar talabalarga bilimlarni o'zlashtirishda yangi imkoniyatlar yaratadi, o'qituvchilarga esa darslarni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar ta'limda onlayn platformalar, elektron darsliklar, interaktiv ta'lim vositalari, mobil ilovalar kabi vositalarni o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'rganish jarayonini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar o'quv jarayonini takomillashtirishga erishilib, ma'lumotlarni

vizuallashtirish, shaxsga yo'naltirilgan holda maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga ta'lim jarayonida murakkab tushunchalarni osonroq tushunish va o'zlashtirishda yordam berib, bolalarning vizual materiallarga bo'lgan qiziqishini oshirib, o'rgatish samaradorligi nazariy asoslanib, infografikalar, rasmlar, diagrammalar va interaktiv o'yinlar yordamida mavzularni tasavvur qildirishga erishildi.

Metodlar: Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishda innovatsion ta'lim metodlaridan Aktivator metodi, Problem-based learning, "SWOT-tahlil" ishlab chiqilib, ta'lim jarayonida foydalanildi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda kasbiy sifatlar muhim o'rin tutadi. Kasbiy sifatlar - bu pedagogning ish faoliyatida muvaffaqiyatli va samarali ishlashini ta'minlovchi shaxsiy va kasbiy xususiyatlardir. Maktabgacha ta'limda bu sifatlar yosh avlodni tarbiyalash, ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi kasbiy sifatlar - pedagogik-psixologik tayyorgarlik, kreativlik, kasbiy moslashuvchanlik, kasbiy mahorat muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modelida talabalar quyidagi me'zon asosida baholandi: Ijtimoiylik, Kommunikativlik, Intellektuallik, Axborotlilik. Tayyorgarlik darajalari esa quyidagicha izohlandi. Reproktiv daraja, Produktiv daraja, Qisman izlanishli daraja, Kreativ daraja.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli - bu ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va metodlardan foydalangan holda talabalar kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishni maqsad qilgan tizimli yondashuvdir.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli zamonaviy pedagogik talabalar asosida talabalarning kasbiy malakalarini oshirish, innovatsion yondashuvlarni o'rganish va amaliyotga tadbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu modelni joriy etish, maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion fikrlashga ega malakali pedagog-kadrlar tayyorlash va yosh avlodni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. M.X. To'xtaxodjaye'vaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik. T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
2. O'.J. To'ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2017 y. -376
3. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
4. B.X. Xodjaye'v. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Fan va texnologiya". 2019 y. -296 bet.
6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
7. G.Niyo'zov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - T.: "Noshir" 2011 y. -140 bet.
8. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
9. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet.
10. B.X. Xodjaye'v. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2017 y. -434 bet.
11. E.A. Migranova, Sh.X. Poziova Kasbiy pedagogik f'aoiliyatga kirish / o'quv qo'llanma. - Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018 y. - 200 b.
12. S.M.Raxmonova Didactic possibilities of improving the methodology for preparing future educators of the preschool educational organization for innovative professional activities. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 <https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.

MAKTAB DIREKTORINING PARTISIPATIV BOSHQARUV FAOLIYATIDA QARORLARNI QABUL QILISHNING ASOSIY MEZONLARI

Jabborova Yulduzxon Hasan qizi

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ta’lim menejmenti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Anotatsiya. Mazkur maqolada maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlarni qabul qilish jarayonidagi asosiy mezonlar yoritilgan. Partisipativ boshqaruv — bu maktab jamoasining barcha a’zolari, jumladan o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr va takliflarini inobatga olgan holda qarorlar qabul qilishni nazarda tutadi. Maqolada qarorlar qabul qilishda hamkorlik, shaffoflik, adolat va tenglik, ma’lumotlarga asoslanish, innovatsion yondashuv, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy mas’uliyat kabi mezonlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu mezonlar maktabni samarali boshqarish, ta’lim sifatini oshirish va ijobiy muhit yaratishda muhim omil sifatida baholanadi. Maqola amaliyotchi maktab rahbarlari hamda pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar uchun foydali ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: partisipativ boshqaruv, maktab direktori, qaror qabul qilish, hamkorlik, shaffoflik, adolat, tenglik, innovatsiya, ijtimoiy mas’uliyat, ma’lumotga asoslangan boshqaruv, ta’lim sifati, jamoaviylik, boshqaruv mezonlari, maktab muhitini rivojlantirish.

MAIN CRITERIA FOR DECISION-MAKING IN PARTICIPATIVE MANAGEMENT ACTIVITIES OF THE SCHOOL HEAD

Abstract. This article discusses the main criteria for decision-making in the participatory management of a school principal. Participatory management involves making decisions taking into account the opinions and suggestions of all members of the school community, including teachers, students, parents and other stakeholders. The article analyzes the role and importance of criteria such as cooperation, transparency, fairness and equality, information-based approach, innovative approach, rational use of resources and social responsibility in decision-making. These criteria are considered an important factor in effective school management, improving the quality of education and creating a positive environment. The article serves as a useful scientific and theoretical basis for practicing school leaders and researchers in the field of pedagogy.

Keywords: participatory management, school principal, decision-making, cooperation, transparency, fairness, equality, innovation, social responsibility, information-based management, quality of education, team spirit, management criteria, development of the school environment.

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАСТИЯ РУКОВОДИТЕЛЯ ШКОЛЫ

Аннотация. В статье рассматриваются основные критерии процесса принятия решений директором школы в партисипативном управлении. Партисипаторное управление подразумевает принятие решений, учитывающих мнения и предложения всех членов школьного сообщества, включая учителей, учащихся, родителей и других заинтересованных сторон. В статье анализируется роль и значение таких критериев, как сотрудничество, прозрачность, справедливость и равенство, ориентированность на данные, инновационные подходы, рациональное использование ресурсов и социальная ответственность при принятии решений. Эти критерии считаются важным фактором эффективного управления школой, повышения качества образования и создания позитивной среды. Статья представляет собой полезную научно-теоретическую базу для

практикующих руководителей школ и исследователей в области педагогики.

Ключевые слова: партисипативное управление, директор школы, принятие решений, сотрудничество, прозрачность, справедливость, равенство, инновации, социальная ответственность, управление на основе знаний, качество образования, командная работа, критерии управления, развитие школьной среды.

Zamonaviy ta'lim tizimida maktab rahbarining boshqaruv uslubi va yondashuvi muassasa faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, partisipativ (ishtirok etuvchi) boshqaruv modeli, bugungi kunda eng dolzarb va zamon talablariga mos yondashuvlardan biri hisoblanadi. Partisipativ boshqaruv – bu qarorlar qabul qilish jarayonida barcha manfaatdor tomonlarning, jumladan, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa xodimlarning fikrlari va takliflarini inobatga olishni anglatadi. Ushbu model maktab jamoasida ochiqlik, ishonch va hamkorlik muhitini shakllantirish orqali, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Maktab direktori partisipativ boshqaruvni amalga oshirar ekan, qarorlarni qanday qabul qilish va bu jarayonda qanday mezonlarga tayanuv zarurligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki samarali, adolatli va asosli qarorlar nafaqat maktabning ichki muhitini mustahkamlash, balki ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Mazkur maqolada maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlarni qabul qilishda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan asosiy mezonlar tahlil qilinadi.

Maktabni samarali boshqarish, uning rivojlanishi va o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim bo'lgan omillardan biri bu partisipativ boshqaruvdir. Partisipativ boshqaruv – bu qarorlar qabul qilish jarayonida barcha ishtirokchilarning, ya'ni o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa mutasaddi xodimlarning fikrlari va hissasini hisobga olishni anglatadi. Maktab direktori o'z faoliyatida bunday boshqaruv usulini qo'llash orqali nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki maktabdagi ijtimoiy va ta'lim muhitini ham yaxshilaydi.

Maktab direktorining partisipativ boshqaruvi, qarorlarni qabul qilish jarayonida aniq mezonlarga tayanadi. Quyidagi mezonlar maktab direktorining qaror qabul qilishdagi samaradorligini ta'minlaydi. Partisipativ boshqaruvda qarorlar qabul qilishda hamkorlik va jamoaviylik katta o'rin tutadi. Maktab direktori va boshqa boshqaruv xodimlari, shuningdek, o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bunday qarorlar, maktabning o'ziga xos ehtiyojlariga javob beradi va barcha ishtirokchilarning manfaatlarini hisobga oladi. Bu esa qarorlarning amalga oshirilishiga va qo'llab-quvvatlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qarorlar qabul qilishda shaffoflik, boshqaruv jarayonida ishtirokchilarning xabardorligini ta'minlaydi. Maktab direktori qarorlar qabul qilish jarayonini ochiq qilish orqali, barcha ishtirokchilarga qarorlar qabul qilishda qanday asoslar yotishini tushuntirishi kerak. Bu, ayniqsa, ta'lim tizimidagi o'zgartirishlar va yangiliklar bo'yicha o'quvchilarga va ota-onalarga to'liq ma'lumot berish zaruriyatini anglatadi.

Maktab direktorining qarorlarni qabul qilishdagi muhim mezonlaridan biri – bu jamoaning fikrlarini tinglash va ularning mulohazalarini hisobga olish. Bu jarayonning ochiqligini ta'minlaydi, shuningdek, jamoa a'zolari o'zlarini qadrlangan va tinglangan his qilishadi. Maktab direktori barcha ishtirokchilarga o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratish orqali ularning qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb etilishini ta'minlaydi. Qarorlar qabul qilishda ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish juda muhimdir. Maktab direktorining qarorlarni qabul qilishda asoslanadigan asosiy mezonlardan biri – mavjud ma'lumotlarga tayanish. Bu, o'quvchilarni o'qishdagi yutuqlarini, o'qituvchilarni baholash natijalarini, ota-onalar fikrlarini va boshqa muhim indikatorlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, maktab faoliyatini optimallashtirish va unga ijobiy o'zgarishlar kiritish imkonini beradi.

Qarorlar qabul qilishda adolat va tenglikni ta'minlash juda muhimdir. Maktab direktori barcha ishtirokchilarni teng imkoniyatlar bilan ta'minlashi kerak. Bu nafaqat o'qituvchilar va ota-onalar, balki o'quvchilar uchun ham muhimdir. Qarorlar qabul qilinayotganda, barcha guruhlar o'z

ehtiyojlarini va fikrlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur. Bu, maktabda ijtimoiy adolatni va xolislikni saqlashga yordam beradi.

Maktabda qarorlarni qabul qilishda resurslar, shu jumladan, moliyaviy resurslarni to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga ega. Qarorlar qabul qilishda moliyaviy va boshqa resurslarni qanday taqsimlash haqida aniq va asosli qarorlar qabul qilish zarur. Bu, o'quvchilarning ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilarning malakasini oshirish, maktab infratuzilmasini yangilash kabi maqsadlarni amalga oshirishda muhim omil bo'ladi.

Maktab direktori qarorlar qabul qilishda nafaqat ta'lim muassasasi, balki butun jamiyat oldida o'zining mas'uliyatini his qilishi kerak. Bu, maktabda o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki ijtimoiy mas'uliyatli, axloqiy jihatdan barkamol shaxslar sifatida tarbiyalashni anglatadi. Qarorlarni qabul qilishda jamiyat ehtiyojlari va maktabning bu ehtiyojlarga qanday javob bera olishini hisobga olish zarur. Maktab direktorining qarorlarni qabul qilishda innovatsiyalarni joriy etishdagi roli muhimdir. Yangi metodlarni, texnologiyalarni va ta'limda yuz berayotgan o'zgarishlarni joriy qilish maktabni rivojlantirishda samarali vosita bo'ladi. Partisipativ boshqaruvda direktor innovatsion qarorlarni qabul qilishda jamoaning fikrlarini hisobga olib, yangiliklarga ochiq bo'lishi kerak.

Maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlarni qabul qilish, bu nafaqat boshqaruvning demokratik shakli, balki samarali ta'lim muhitini yaratishning muhim omilidir. Bunday boshqaruv yondashuvi orqali barcha manfaatdor tomonlarning fikr va takliflari inobatga olinadi, bu esa qarorlarning adolatli, asosli va amaliy bo'lishini ta'minlaydi. Qarorlar qabul qilish jarayonida hamkorlik, shaffoflik, ma'lumotlarga asoslanish, adolat, tenglik, innovatsion yondashuv va resurslardan oqilona foydalanish kabi mezonlarga tayanish, maktabda ijobiy o'zgarishlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Partisipativ boshqaruv orqali maktab direktori o'zining rahbarlik salohiyatini kuchaytiradi, jamoaning ishonchini qozonadi va maktabni taraqqiyot sari yo'naltiradi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifati, o'quvchilarning yutuqlari va butun ta'lim muassasasining ijtimoiy obro'siga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, zamonaviy maktab boshqaruvida partisipativ yondashuv va unga asoslangan qarorlar qabul qilish mezonlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu mezonlar jamoaviylik, shaffoflik, tinglash, ma'lumotga asoslangan qarorlar, adolat va tenglik, resurslarni boshqarish, ijtimoiy mas'uliyat va innovatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bunday boshqaruv modeli maktabda yaxshilangan o'qish sifatini, rivojlangan ijtimoiy muhitni va samarali ta'lim tizimini ta'minlaydi. Maktab direktori bu mezonlarga asoslanib, samarali boshqaruvni amalga oshirish orqali maktabning o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Xasanboyeva, Z. X. Ta'lim muassasalarini boshqarish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – B. 45–60.

Jo'rayev, A. R. Pedagogik menejment. – Toshkent: Iqbol, 2020. – B. 88–102.

Qodirova, M. T. Maktab menejmenti va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – B. 120–137.

Abdullayeva, S. N. Ta'lim jarayonida samarali boshqaruv tizimi. – Samarqand: Zarafshon, 2018. – B. 54–69.

Normatova, D. I. Ta'lim tizimida liderlik va boshqaruv madaniyati. – Toshkent: Ilm Ziyoy, 2022. – B. 33–48.

Sam Kaner, Lenny Lind, Catherine Toldi, Sarah Fisk, Duane Berger

Kitob nomi: Facilitator's Guide to Participatory Decision-Making (3-chi nashr)

2014. 432 bet

Bob L. Johnson Jr., Sharon D. Kruse. Decision Making for Educational Leaders: Underexamined Dimensions and Issues, 2010. 252 bet

TALABALARINING LOYIHALASHTIRISH KOMPETENSIYALARINI SAMARALI RIVOJLANISH

*Ko'kiyev Boburmirzo Baxodir o'g'li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d., (PhD).*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalarining ijodiy faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy g'oyalarni nazariy jihatdan asoslaymiz.

Kalit so'zlar: texnologiya, ijod, loyihalash, proyeksiya, usul.

ЭФФЕКТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ПРОЕКТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

*Кукиев Бобурмирзо Бахадирович,
Чирчикский государственный педагогический университет, (PhD).*

Аннотация: В данной статье теоретически обоснованы научные идеи по развитию творческих компетенций студентов направления «Изобразительное искусство и инженерная графика» в рамках проектной деятельности.

Ключевые слова: технология, творчество, проектирование, проекция, метод.

EFFECTIVE DEVELOPMENT OF STUDENTS' DESIGN COMPETENCIES

*Kukiev Boburmirzo Bakhodir ogli,
Chirchik State Pedagogical University, PhD in Pedagogy.*

Abstract: This article provides a theoretical foundation for scientific ideas aimed at developing the creative activity competencies of students in the field of Fine Arts and Engineering Graphics through project-based learning.

Keywords: technology, creativity, design, projection, method.

O'zbekiston Prezidentining 2017 yildagi Farmoni ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan. Bular uzluksiz ta'limni takomillashtirish, sifatli ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, mehnat bozoriga mos malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash orqali oliy ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda ularning yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini yaratishdan iborat. Ushbu Farmon g'oyalarning to'liq amalga oshirilishi talabalarining o'quv faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi va bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda Respublika oliy ta'lim muassasalarida muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish muammolari bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, oliy ta'lim muassasalarida chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishning pedagogik va psixologik muammolariga kam e'tibor qaratilganligi talabalarga qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologilarni qo'llab o'qitish metodikasini o'quv fanini qiyosiy tahlil metodi asosida o'qitishni takomillashtirish yetarli darajada o'rganilmagan.

Talabalarda 3D texnologiyalari bo'yicha ijodiy faoliyat kompetensiyalarni rivojlantirish. Talabalarining ijodiy faoliyat kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi elementlar, jumladan: grafik topshiriqlar, loyihalashga oid topshiriqlar, multimediali prezentatsiyalar va boshqalar yordamida fanni o'zlashtirish jarayonida qo'llaniladigan multimediali texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Multimediya talabalar tomonidan turli xil grafik masalarni mustaqil ishlash, masalalarni yechimiga boshqa bir usullar orqali masala yechimiga ega bo'lish ko'nimalari shakllanadi, ilmiy-tadqiqot loyihalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Bularning barchasi talabalarining kompetensiyalar tizimini sifatli takomillashtirish va ularda zarur grafik madaniyatini

shakllantirish, masalalarni yechishda qulay usullarni qo'llash imkoniyatlarini belgilaydi.

O'quv jarayoni turli xil topshiriqlar ko'rinishidagi grafik ma'lumotni transformativ o'zgartirishga asoslangan bo'lsa, talabalarni dastlabki grafik tayyorgarligi alohida ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Shu bilan birga, dars jarayonida egallagan bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravshida "AutoPlay Media Studio 8" dasturdan foydalanib, o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab boradi. Dasturdan foydalanishda grafik topshiriqlar ketma ketligi osondan murakkabga qarab borgan. Bu esa talabaga darstdan va grafik ish bajarishdan zerikishni oldini oladi. Shu tariqa fang av mavzularga talabani jalb qilish osonlashadi.

Bajarilgan grafik ishlar o'qituvchilar tomonidan aniq qonun va qoidalarga muvofiq, obyektning fazodagi o'lchamiga va fazoviy joylashuviga qat'iy mos ravishda tuzilgan grafik tuzilma sifatida tushuniladi. Chizilgan obyektning shakli va o'lchamlari aniq takrorlanishi uchun kerak. Grafika qonunlarini bilish talabalarining texnik ijodiyotining asosi bo'lgan fazoviy tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy faoliyat kompetensiyasi asosini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma, malakalar va kompetensiyalar talabalarining o'qituvchi tomonidan tuzilgan ko'p qirrali grafik topshiriqlari uchun qo'yilgan shartlar asosida chizmalar bajarish qobiliyatini aniqlaydi. Ko'p o'lchovli kontekst tufayli chizma chizishning samarali usuli bo'lib, talabalarining kasbiy rivojlanishini sezilarli darajada rag'batlantiradi. Chizmalar ishlab chiqishning roli haqidagi bunday tushuncha juda muhimdir.

Umuman olganda, talabalarining ijodiy faoliyat kompetensiyasi—bu ularni o'qitishning mantiqiy yakunlanishi hisoblanadi. Ijodiy faoliyat kompetensiya va uni bakalavr talabalari o'rtasida rivojlantirish zarurligiga e'tibor, o'quv dasturlarining zarur izchilligi, ularning ta'lim sifatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Fanlararo aloqalar, ularni ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ko'rib chiqish o'quv maqsadlarini, o'quv vazifalarini belgilash sifatini, talabalarni grafik o'qitish jarayonining mazmunini ishlab chiqishni, shuningdek, uni to'g'ri texnologik va uslubiy ta'minlashning zarur mexanizmi hisoblanadi.

Talabalarining loyihalash kompetensiyalarini samarali rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bugungi kundagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot jarayonlari ijodkorlik, innovatsiya hamda murakkab muammolarni hal etish ko'nikmalariga ega mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi. Loyihalash kompetensiyalari, keng ma'noda, har qanday masalaning mazmunini aniqlashdan tortib, uni rejalashtirish, amalga oshirish va natijani baholashgacha bo'lgan butun jarayonni qamrab oladigan ko'nikma va bilimlar majmui sifatida tushuniladi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirish talabalarga nafaqat aniq bir sohada kasbiy mahoratga erishish, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlik qilish, turli manfaatdor tomonlar bilan muloqotga kirisha olish kabi muhim jihatlarni ham rivojlantirish imkonini beradi.

Loyihalash kompetensiyalari mazmunan bir qancha asosiy tarkibiy qismlardan iborat. Birinchi navbatda, talaba o'z oldiga qo'yilgan vazifaning mohiyatini to'g'ri anglab olishi hamda uni turli burchaklardan yoritish uchun yetarli bilim, tahliliy yondashuv va manbalarni topish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Bunda muammoni texnik, ijtimoiy, iqtisodiy yoki madaniy tamoyillar asosida o'rganish, zarurat tug'ilganda tegishli soha mutaxassislari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi muhim tarkibiy qism – ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuv bo'lib, bunda talabalar yangicha yechimlar yaratish, mavjud sharoitni o'zgartirish yoki takomillashtirish yo'llarini izlashi, bir necha alternativ g'oyalarni paydo qilish va ularni tahlil etish orqali optimal modelni topishga intilishi lozim bo'ladi. Uchinchisi – rejalarni amaliyotda qo'llash va turli faktorlar ta'sirida tezkor qaror qabul qilish ko'nikmasi bo'lib, bunda talabaning o'z loyihasi doirasida barcha jarayonlarni nazorat qila olishi, kerakli resurslarni sarf-xarajat rejasi bilan birga shakllantirish, muddatlar va sifati bo'yicha o'z zimmasiga olgan mas'uliyatni bajarish qobiliyati yotadi. Nihoyat, baholash va refleksiya bosqichi, ya'ni yakuniy natija ustida tahliliy xulosa chiqarish, muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni aniqlash, jarayonni qayta ko'rib chiqish orqali keyingi

loyihalarda samaradorlikni oshirish masalalari ham dizayn (loyihalash) kompetensiyalarining ajralmas qismidir.

Ta'lim jarayonida loyihalash kompetensiyalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning muhim strategiyalaridan biri loyihaviy yoki muammo markazlashgan o'qitish (PBL – Project-Based Learning) metodidan foydalanishdir. Ushbu metodda talabalar real voqelikda uchraydigan yoki real bo'lishi mumkin bo'lgan masalalarga duch kelishadi va ularni hal etish bo'yicha mustaqil yoki jamoaviy loyihalar ustida ishlashadi. Bunday sharoitda o'qituvchi an'anaviy ma'ruza o'qiydigan shaxs emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, qo'llab-quvvatlovchi rolini bajaradi. Talabalar tadqiqotlar, kuzatuvlar, eksperimentlar va suhbatlar orqali sohani chuqur o'rganishlari, turli manbalarni jamlashlari, tahlil qilishlari va o'z xulosalarini asoslangan holda shakllantirishlari talab etiladi. Shu tariqa, amaliy faoliyat nazariy bilimlarga tayanadi, nazariya esa amaliyot orqali sinovdan o'tib, mustahkamlanadi.

Loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda hamkorlik va jamoaviy ishni tashkil qilish alohida o'rin tutadi. Real ish jarayonida dizayn yoki muhandislik yechimlarini ishlab chiqish ko'pincha turli kasbiy mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladi. Shuning uchun talabalarga aynan ana shunday ko'p qirrali sharoitlarni his qilish, turli ixtisoslik vakillari bilan o'zaro aloqaga kirishish, bir-birining g'oyalarini tinglash va hurmat qilish, fikrlarni integratsiya qilish ko'nikmalarini o'rgatish lozim. Jamoaviy loyihalar orqali talabalar murosa va kelishuvga erishish, nizolarni hal qilish, vazifalarni taqsimlash, vaqtni boshqarish kabi real kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan xulq-atvorni amalda sinab ko'rishadi. Bunday muhadda talabalar o'rtasida sinergetik ta'sir yuzaga keladi, ya'ni har kim o'zining alohida bilim va tajribasiga tayanib, umumiy maqsadga xizmat qiluvchi yechimni birgalikda ishlab chiqadi.

Yana bir muhim komponent – kommunikatsiya va taqdimot ko'nikmalari. Loyihani muvaffaqiyatli yakuniga yetkazish uchun talaba o'z g'oyalarini hamkasblari, ustozlar va ehtimolki homiylar yoki buyurtmachilar oldida to'g'ri va aniq ifodalashni o'rganishi zarur. Ayniqsa, ixtisoslikka oid murakkab atamalarni oddiy tilda bayon eta bilish, kuzatuvchilar yoki buyurtmachi manfaatlarini hisobga olib dizayn xususiyatlarini tushuntirish, jamoaga rahbarlik qilish yoki jamoa a'zosi sifatida eshitishni bilish kabi jihatlar loyihalash kompetensiyalarining tarkibida alohida e'tibor talab etadi. Taqdimotlarni tayyorlash, auditoriya bilan muloqot qilish strategiyalari, savol-javob sessiyalarini samarali olib borish, vizual vositalardan unumli foydalanish kabi amaliy mashqlar kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishga katta hissa qo'shadi.

Baholash jarayoni ham loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda o'ta muhim rol o'ynaydi. An'anaviy nazorat shakllari, masalan, test yoki yozma imtihonlar loyihalash jarayonining ijodiy va murakkab tavsiflarini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli, loyihalash kompetensiyalarini baholashda formativ va summativ yondashuvlar uyg'unligi maqsadga muvofiqdir. Formativ baholash doimiy ravishda oraliq bosqichlarda olib boriladigan tahlil, mulohaza va tavsiyalar orqali talabaning rivojlanishini kuzatish, uning xatolarini aniqlash va to'g'rilash uchun xizmat qiladi. Summativ baholash esa yakuniy loyihaning sifat ko'rsatkichlarini baholash, uning real muammolar yechimiga qanchalik mos kelishini aniqlash, zarur hujjatlar yoki taqdimot materiallari tayyorlangan-tayyorlanmaganini ko'rib chiqish orqali amalga oshiriladi. Bunda ijodiy g'oya, texnik yechimning puxtaligi, hamkorlik darajasi, vaqtni rejalashtirish, resurslardan foydalanish, loyihaning ijtimoiy yoki iqtisodiy samara kabilar mezon sifatida olinishi mumkin.

Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Ko'plab dasturiy vositalar, masalan, kompyuterda chizmachilik dasturlari, 3D-model ishlab chiqish platformalari, virtual reallik muhitlari talabalarga o'z g'oyalarini vizualizatsiya qilish va prototiplarni tezkor sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Shu orqali ular bir necha muqobil yechimlarni taqqoslab ko'rishlari, eng maqbul variantni shakllantirishlari hamda nizolar yoki xatoliklarni dastlabki bosqichlarda aniqlashlari mumkin. Bunday vositalar, ayniqsa, me'moriy, muhandislik yoki raqamli media sohalarida tahsil olayotgan talabalar uchun juda qulay, chunki loyiha natijasini jonli ko'rish va baholash, so'ngra

istalgan o'zgartirishni tezda kiritish jarayonlari ancha soddalashadi. Shu bilan birga, masofaviy hamkorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi onlayn platformalar jamoaviy loyihalash ishlarini geografik cheklovlarisiz amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda motivatsiya va hissiy omillarni ham hisobga olish zarur. Loyihaviy faoliyat ko'pincha mavhumlik, turli taxminlar, kutilmagan natijalar yoki xatoliklarga boy bo'ladi, shuning uchun talabalarda ruhiy barqarorlik, tanqidiy yondashuv va sabr-toqat bo'lishi juda muhim. O'qituvchilar bu jarayonda dalda berish, rag'batlantirish, har bir talabaning muvaffaqiyatini e'tirof etish, xatolarni jarayonning tabiiy qismi sifatida ko'rsatish bilan ularning o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytirishlari mumkin. Bunday psixologik qo'llab-quvvatlov muhitida talabalar yangilikdan cho'chimay, o'z g'oyalarini dadil sinab ko'rishadi, zarur bo'lsa, takroriy tahlil va qayta ishlash bosqichlariga puxta e'tibor berishadi.

Ta'lim muassasalarida loyihalash kompetensiyalarini joriy etish va rivojlantirishni cheklovchi omillardan biri – bu modulli dasturlar va standartlashtirilgan test sinovlari bilan bog'liq cheklovlar bo'lishi mumkin. Ko'pincha an'anaviy kurslarda nazariy ma'ruzalarga ajratilgan soatlar loyihaviy faoliyat uchun vaqtni cheklab qo'yishi yoki yakuniy natija testlar orqali baholanadigan tizimlar amaliy-ish jarayonlarini yetarlicha inobatga olmasligi mumkin. Shuning uchun o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish, baholash metodlarini takomillashtirish, talabalar va o'qituvchilar orasida innovatsion o'qitish metodlariga oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish lozim bo'ladi. Zamon talablariga mos intellektual kadrlar tayyorlash uchun mustaqil tadqiqot olib borish, yanada interaktiv, amaliy mashg'ulotlarga boy dars jarayonlarini tizimli tashkil etish talab etiladi.

Loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot institutlari, sanoat korxonalari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish alohida ahamiyatga ega. Tashqi tashkilotlar bilan qilinadigan qo'shma loyihalar, magistrlik yoki bakalavriat bosqichidagi bitiruv ishlariga real muammolarni asos qilib olish, turli grantlar va aksiyalar orqali resurslarni safarbar etish – bularning barchasi talabalarining loyihalash jarayonidagi ishtirokini yanada jonlantiradi. Ish beruvchilarning real ehtiyojlariga mos loyihalarni olib borish, bir tomondan, talabalarga bozor talablari va sohaning haqiqiy muammolari haqida tasavvur beradi, ikkinchi tomondan, ta'lim muassasasining reytingi va ijtimoiy nufuzi oshishiga xizmat qiladi. Bunday hamkorlik modeli kelajak mutaxassislarining professional rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratadi va nazariy bilimlarning amaliy qadriyatga aylanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarining loyihalash kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun ta'lim jarayonini har tomonlama qayta ko'rib chiqish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan faoliyatni kuchaytirish zarur. Loyihaviy o'qitish yordamida talabalar jamoaviy ishlash, ijodiy fikrlash, texnik vositalardan foydalanish, rejalashtirish va natijalarni baholash kabi ko'p qirrali ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Shu jarayonda birlamchi maqsad faqat yakuniy mahsulotni yaratish emas, balki loyiha davomida talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, o'z-o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish, mas'uliyatni his qilish va umuman, ijodiy-intellektual salohiyatni yuzaga chiqarish hisoblanadi. Natijada ana shunday tizimli va puxta yondashuv bilan tayyorlangan kadrlar zamonaviy iqtisodiyot, ilm-fan va jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni hal qilishda faol ishtirok eta oladi, o'ziga xos yangiliklar kashf etish, yaxshilangan yechimlar ishlab chiqish va pirovardida rivojlanishga hissa qo'shish salohiyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, u yoki bu nuqtai-nazarning ustunligi axborot va ta'lim muhitining ikki tomonlama xususiyatini bekor qilmaydi; ularning dialektik munosabatlarida uning ishlashini ham psixologik–pedagogik, ham dasturiy–texnik shartlariga ye'tibor qaratish lozim. Har qanday axborot–ta'lim muhitining tizimli tabiati, uning ikkilikligi “axborot–ta'lim muhiti” konsepsiyasining mohiyatini, uning barcha yelementlari bo'lgan axborot–kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlaydigan maxsus tur sifatida namoyon bo'lishini belgilaydi. An'anaviy ta'lim tizimi o'zgarimoqda, ta'lim maqsadlarining o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Bakalavrlarni

tayyorlashning bunday tizimidagi ta'lim texnologiyalari, albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan; kelajakdagi muhandis yangi, ilgari xos bo'lmagan funksiyalarni oladi; talabaning vazifalari o'zgartiriladi: bilimlarni passiv egallashdan-ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida faol o'zlashtirish vazifasiga; ta'lim jarayonining tashkiliy shakllari o'zgarib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

Sh.K.Murodov. E.M.Mirzayev Hayitov.J.M. (2021). Определяя параметров отсеков поверхностей второго порядка по заданному объему central asian journal of mathematical theory and computer sciences. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирий, Volume 02 Issue 05. ISSN 2660-5309.

Hayitov.J.M.(2022).Muhandislik grafikasi fanlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'qitish orqali talabalarni ijodkorlik qobiliyatini oshirish. Science and education scientific journal. ISSN 2181-0842.VOLUME 3, ISSUE 11.

N. Valiyev. Chizmachilik. (geometrik chizmachilik). O'quv qo'llanma. – T.: 2013.

Pulat Adilov,. (2018). New View to Executing Sketch and Technical Drawing Eastern European Scientific Journal (ISSN 2199-7977) Journal 102-104.

Jumayev. I.O. (2021) Chizmalarni autocad dasturida chizishda dasturning mavjud murakkabliklarini qo'lda chizishga moslashtirish (o'rgatish) usullari. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирий. 94-99-b.

QORAQALPOQ XALQ MUSIQIY PEDAGOGIKASINING GENIZISI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Moyanov Iqlasbay Jiyeubaevich

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)*

Mazkur maqolada Qoraqalpoq xalq musiqiy pedagogikasining genizisi va rivojlanish yo'nalishlari, xalq musiqiy pedagogikasi tushunchasining mazmun va mohiyati ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, qadim zamonlardan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda ta'lim, tarbiya, san'at va musiqiy madaniyatni davr talabi asosida o'rganish va yosh avlodga etkazish masalalari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpoq xalq musiqasi, genizis, ta'lim, tarbiya, san'at, musiqiy madaniyat, mehnat jarayoni, oilaviy marosim, urf-odatlar, ijtimoiy munosabat, tarixiy tamoyil, ma'naviy, estetik, milliy tarbiya.

ГЕНЕЗИС И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КАРАКАЛПАКСКОЙ НАРОДНОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Моянов Икласбай Жиенбаевич

*Доцент кафедры «Педагогика и психология» Узбекского государственного университета мировых языков
Доктор философии по педагогическим наукам*

В статье анализируются генезис и тенденции развития каракалпакской народной музыкальной педагогики, содержание и сущность понятия народной музыкальной педагогики с научно-теоретической точки зрения. Кроме того, в статье всесторонне освещаются вопросы обучения и передачи подрастающему поколению образования, воспитания, искусства, музыкальной культуры с учетом требований времени в различные исторические периоды, от древнейших времен до наших дней.

Ключевые слова: Каракалпакская народная музыка, генезис, образование, воспитание, искусство, музыкальная культура, трудовой процесс, семейный ритуал, обычаи, общественные отношения, историческая направленность, духовное, эстетическое, национальное воспитание.

GENESIS AND DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF KARAKALPAK FOLK MUSIC PEDAGOGY

Moyanov Iqlasbay Zhienbaevich

*Associate Professor of the Department of Pedagogy and Psychology of the Uzbek State University of World Languages
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

The article analyzes the genesis and development trends of Karakalpak folk music pedagogy, the content and essence of the concept of folk music pedagogy from a scientific and theoretical point of view. In addition, the article comprehensively covers the issues of teaching and transmitting education, upbringing, art, and musical culture to the younger generation, taking into account the demands of the time in various historical periods, from ancient times to the present day.

Key words: Karakalpak folk music, genesis, education, upbringing, art, musical culture, labor process, family ritual, customs, social relations, historical orientation, spiritual, aesthetic, national education.

Qoraqalpoq xalq musiqiy pedagogikasining genizisi — bu Qoraqalpoq xalqining musiqiy

ta'lim va tarbiya an'analari, ularning tarixi, shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tushuncha hisoblanadi. «Genizis» — kelib chiqish, paydo bo'lish, shakllanish manbai degan ma'noni anglatadi. Qoraqalpoq xalq musiqiy pedagogikasining genizisi — bu xalq musiqasi orqali yosh avlodga ma'naviy, estetik va milliy tarbiya berish jarayonlarining tarixi va taraqqiyotidir.[10]

Qoraqalpoq xalq musiqa san'ati juda boy va rang-barangdir. U qadimdan avlodlardan avlodga og'zaki tarzda ustoz va shogird an'analari orqali o'tib, Qoraqalpoq xalqining boy musiqa madaniyati rivojida salmoqli o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, xalq musiqasi tarkiban va tabiatan sinkretik san'atdir. Bunda so'z, kuy va o'yin (raqs va kuyga monand harakatlar) unsurlarining o'zaro birikib ketishi kuzatiladi. Chunki, musiqiy fol'klor namunalari kelib chiqish manbalariga ko'ra xalq hayoti bilan bog'liq turli ko'rinishlarni, xususan, mehnat jarayoni, oilaviy marosim va urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi an'analari, xalq sayllari va ommaviy bayramlarni o'zida ifoda etishi bilan ajralib turadi. [7]

Shuning uchun ham xalqimizning tarixi, tilini, milliy qadriyatlari, milliy o'zligini anglashda xalq musiqa merosi muhim ahamiyat kasb etadiki, respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan barcha ijtimoiy-ma'naviy sohalarda bo'lgani kabi, musiqa ta'limi va tarbiyasini ham milliy negizda rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik tarbiyalashda xalq musiqa ijodiyotidan keng foydalanish, tobora unutilib borayotgan xalq musiqa merosining bebaho boyligi bo'lgan fol'klor, mumtoz va maqom musiqalarini tiklash, asrab-avaylash, ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq etishga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Qoraqalpoq xalq musiqiy pedagogikasi tarixiga nazar tashlasak, qadim zamonlardan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda ta'lim, tarbiya, san'at va musiqiy madaniyatni davr talabi asosida o'rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, ularning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Qoraqalpoq xalq musiqa san'ati jonli organizm, qaynar buloq, o'lmas, o'chmas, doimo boyib, ko'payib boruvchi mo'jizaviy tarbiya sohasidir. Mazkur musiqa san'ati — turkiy xalqlar ota-bobolarimiz uzoq moziyda yaratgan va ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, saqlab kelgan ota meros, Qoraqalpoq xalqining boy va betakror kuy va qo'shiqlari, fol'klor va jirov ijodkorlari ijrochilarining bu boradagi say'-harakatlari bilan bizgacha etib kelgan noyob san'at asarlarini yosh avlodga etkazish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Alohida qayd etish lozimki, Qoraqalpoq xalq musiqasi o'zining yo'nalishi, ibratli tarbiyaviy ahamiyatga molikligi, bebeaho san'at asarlarining ma'no mazmuni mukamalligi, teranligi, uslubi, odobnomasi, pand-nasihatga boyligi, ibratnomasi bilan har qanday millat va el havas qilsa arziydigan buruk meros sanaladi.[10]

Ajdodlarimiz yosh avlodni tarbiyalash, ularni qanday qilib ma'naviyat va marifatni yosh avloga o'rgatish, ularni komillikka etaklash yo'llari, qonun qoidalarini izlaganlar. Ma'rifatli va ma'naviy komil insonni tarbiyalash Qoraqalpoq xalq milliy musiqasida, xalq og'zaki ijodida, qadrshunoslik, udumshunoslik, marosimshunoslik kabi etakchi yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi. Demak, Qoraqalpoq xalq musiqa san'ati bu dono xalqimizning ta'lim-tarbiya, axloq odob, insoniy qadriyatlar va uning ma'naviy ustuvorligi, imon-e'tiqodi butunligi sohasidagi dunyoqarashi, ommaviy faoliyati, usullari, an'analari, tajriba xulosalarining aniq va ravshan, teran tarzda ifodalanishidir.

Shu nuqtai nazardan yondashganda Qoraqalpoq xalqida musiqiy tarbiyaning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Qoraqalpoq xalqi o'zining madaniy merosi, an'analari va urf-odatlariga katta ahamiyat bergan va bu narsa musiqa sohasida ham aniq aks etgan. Qoraqalpoqlarda musiqa asosan raqs, ovoz va instrumental ijroga asoslangan bo'lib, turli mavzularga bag'ishlangan xalq ovozlari, avlodlardan avlodga o'tgan an'analari aks etgan.

Qoraqalpoq xalq musiqa san'atini “Baxshichilik” siz tasavvur etish qiyin. Qoraqalpoq musiqa

san'atida o'z ijodi bilan alohida xalq hurmatiga sazovor bo'lgan soha baxshichilik san'atidir. Qoraqalpog'istonda baxshichilik san'atining rivojlanishi jamiyat ma'naviy-axloqiy madaniyatini egallab olishga bog'liq bo'lib, turli pedagogik vositalar, shakllar va yo'llar yordamida amalga oshiriladi. Jamiyatning ma'naviy-axloqiy madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanishi tarixi jarayonida to'plagan moddiy va ma'naviy qadriyatlari majmui tushuniladi. Baxshichilik xalq dostonlarini ijro etish bilan O'rta Osiyo va Kavkaz xalqlarida keng tarqalgan. Shuningdek, boshqa millat vakillari urf-odat va an'alarini, madaniyatlarini ko'p asrlik iqtisodiy va madaniy aloqalarini o'rganishda Qoraqalpog'iston baxshichilik san'ati muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qoraqalpolarda "baqsy" o'zbek va turkmanlarda "baxshi", qozoqlarda "jirchi", ozarbayjonlarda "ashug", gruzinlarda "migasan", armanlarda "gusan" so'zlari fonetik va funkcion xarakteri jihatidan umumiy o'xshashligini anglatib qolmasdan, ularning ijrochilik san'atining ham yaqinligini ko'rsatadi. Baxshichilik san'atining bunday yaqinliklari millatlarning ichki dunyosiga ta'sir qilib, hissiyotlarini junbushga keltiradi. So'zlashuv madaniyati farq qilsa-da, psixolog olimlarning ta'kidlashicha, musiqiy ohang inson bosh miya yarim sharlaridagi nozik nuqtalarga ta'sir etmaydigan qatlamga kirib boradi va yaxshi musiqa aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zahiralari harakatga keltiradi.[8]

"Baxshi" atamasi chig'atoy turklari tomonidan qo'llanilgan bo'lib, "o'zon" degan ma'noni bildiradi. Baxshichilik san'ati tarixiga nazar tashlasak, "baxshi", "o'zon" el shoiri, "qissaxon sozandasi" ma'nosini anglatadi. Xalq orasida qo'biz yoki dutor chalib, dostonlar aytib yorgan odamlar shoir, sozandalar baxshi deyilgan.

Axloq va odob borasida yaratilgan burok pandnomalar el sevgan baxshilar Aqimbet bilan G'aripniyoz, Arzi va Qutim maktabi namoyandalari baxshichilik san'atini avval bo'lmagan shakl va ijrochilik usullari bilan bezab, etuk bastakorlar sifatida qoraqalpoq musiqasini boyitdi. Ularning doston va pandnomalarida axloqiy va aqliy tarbiyaning hamma qirralari o'ta zukkolik bilan tahlil qilingan. [8]

Ma'lumki, xalq musiqa merosi juda boy, mazmunan teran va yuksak insoniy g'oyalarni o'zida mujassam etishi bilan xalq hayotining o'ziga xos ko'zgusi hisoblanadi. Shuning uchun ham xalq musiqa merosidan ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish hamma davrlarda ham faylasuflar, shoirlar, pedagog-murabbiylarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Tadqiqotlarimizda qoraqalpoq xalqining baxshichilik ijodiyoti sir-sinoatlari o'rganilib, ko'ptarmoqli san'at ekanligi aniqlandi. Bular:

- mehnat va marosim qo'shiqlari;
- qahramonlik dostonlari;
- og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa yo'nalishiga mansub mumtoz qo'shiqlar;
- avlodlar tomonidan sayqallanib, mukammallashib, insonlarga ma'naviy hamda estetik ozuqa berib kelayotgan fol'klor qo'shiqlari.

Alohida e'tirof etish lozimki, jonli ijro hamma vaqt sinfda hayajonli muhitni paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Qoraqalpoq xalq musiqasi xalq kuylari va raqslari kuzatilib, xalqning urf-odatlariga bog'liq xalqaro kuylar o'ziga xos ritmik xususiyatlarga ega.[12]

Qoraqalpoq xalqida musiqiy tarbiya ota-onalardan, ustozlardan yoki mahalliy san'atchilardan o'rganilgan. Bu tarbiya ko'pincha ijro va nazariy bilimlarni uzluksiz izlanish asosida shakllantirgan. Qoraqalpolarda ko'pgina musiqiy instrumentlar mavjud, ular orasida kobyz, saz, dutor, kabi an'anaviy instrumentlar bor. Bu instrumentlarni ijro qilish uchun hunarli ustozlar yoki ota-onalar yordamida musiqiy tarbiya olish odat edi. Xususan, kobyz — xalqning mashhur so'zsiz musiqa vositasi bo'lib, unda ishlash an'alarining saqlanishi muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy manbalar va og'zaki an'analar

Qoraqalpoq xalqida musiqiy tarbiyaning ildizlari qadimgi og'zaki an'analarga — jumladan:

Ваксы, жырао'lar faoliyatiga,

Epos va dostonlar,

Qo'shiqlar, termalar,

Marosim kuylari va milliy raqslarga borib taqaladi.

Bu an'analar orqali yoshlarga nafaqat musiqiy ko'nikmalar, balki axloqiy, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik g'oyalari ham singdirilgan.

Qoraqalpoq xalqida musiqiy tarbiya avvalo oilada boshlangan. Bolalar kichkinagidan tortib:

Qo'shiq eshitish,

Sado chiqaruvchi an'anaviy asboblari bilan tanishish,

Xalq bayramlarida ishtirok etish orqali musiqiy muhitga singib ketgan.[10]

Shu o'rinda Qoraqalpoq xalq musiqa san'atini jonli ijrolarda aks ettirishga xizmat qiladigan o'ziga xos ommabop va sevimli musiqa cholg'ulariga to'xtalib o'tmoqchimiz. Bu cholg'ular mazkur xalqning mentalitetiga xos ohanglarni ifodalay olganligi uchun boshqa cholg'ularga qaraganda ko'proq o'rganiladi.

Dutor, qobuz, sirnay, dap kabi cholg'u asboblari orqali musiqiy his qilish va ijro malakasini rivojlantirish.

Bu asboblari nafaqat musiqani, balki xalq ruhini ham etkazgan.

Xalq musiqiy pedagogikasi — bu xalqning boy musiqiy merosini o'rganish, saqlash va avlodlardan avlodga o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim-tarbiya tizimidir. U an'anaviy xalq musiqasi orqali shaxsga estetik, axloqiy va ma'naviy tarbiya berishga qaratilgan ilmiy va amaliy faoliyat sohasidir.

Xalq musiqiy pedagogikasining mazmuni:

Xalq musiqasining o'rganilishi — xalq qo'shiqlari, an'anaviy cholg'u asboblari, do'stona va milliy musiqa uslublari orqali bilim berish.

Hissiy va ma'naviy tarbiya — musiqa orqali bolalar va yoshlarda mehr-oqibat, vatanparvarlik, qadriyatlarga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish.

Madaniy merosni saqlash — xalq musiqasini o'rganish va yosh avlodga o'rgatish orqali milliy madaniyatni asrash.

Musiqa orqali shaxs rivoji — insonda tinglash, his etish, ijodiy yondashish, artistik qobiliyatlarni rivojlantirish.

Xalq musiqiy pedagogikasining mohiyat:

Milliylikka asoslanganligi — ta'lim va tarbiya jarayoni milliy an'analar, urf-odatlar va xalq ijodiga tayangan holda olib boriladi.

Umuminsoniy va axloqiy qadriyatlar — xalq musiqasidagi ma'naviy mazmun orqali axloq, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

Ijodiylik va amaliyotga yo'naltirilganligi — o'quvchi va tarbiyalanuvchilar musiqiy ijroga, qo'shiq aytishga, cholg'u chalishga faol jalb etiladi.

Avlodlar aloqasi — ustoz-shogird an'anasi orqali xalq musiqiy bilimlari uzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpoq xalq musiqiy pedagogikasining genizisi — bu nafaqat musiqani o'rgatish tarixi, balki xalq madaniyati, falsafasi va ma'naviyatini avlodlardan avlodga etkazish jarayonidir. Globallashuv jarayoni talablariga mos ijtimoiy-ma'naviy faollikni shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya negizida yoshlarda milliy madaniy meros va milliy o'zlikni anglashni tarbiyalash zahirida moddiy-ma'naviy qadriyatlar hamda an'alarimizni shakllantirishga alohida e'tibor berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Utebaev T.T. Qoraqalpog'istonda XX asr ikkinchi yarmi XXI asr boshida ta'lim-tarbiyaviy fikrlarning rivojlanishi; Diss. dokt. ped. nauk.-T, 2016. — 120 b.

2.Tajimuratov A «Qaraqalpaq xalыq qosyqlary». Neki «Qaraqalpaqstan» baspasy 1965. —3-21 b.

3.Raximov SH, Omonov X “CHolg'u ijrochiligi va ansambli” Pedagogika oliy ta'lim

muassasalari uchun o'quv qo'llanma "Musiq" nashriyoti Toshkent 2017. – 160 b.

4. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T., 2006. – 22-48-50 b.

5. Qodirova D.S. O'zbek milliy musiqasining estetik xususiyatlari. Falsafa.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss avtoreferati.. T., 2011. – 20 b.

6. Qaraqalpaq fol'kloriga, kerp tomlıq, besinshi tom. «Qaraqalpaqstan» baspası, 1980. – 334 – 273 b.

7. Xolboeva G.A. Xalq og'zaki ijodi asarlari tahlili orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish tamoyillari. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T., 2010. – 20 b.

8. Moyanov I.J. Qoraqalpoq xalq musiqasi asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning xususiyatlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2019.

Internet saytlari.

9. www.bilimdon.uz O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining veb sayti.

10. www.de.uz ta'lim tizimiga bag'ishlangan veb sayt.

11. <http://www.istedod.uz> «Iste'dod» jamg'armasi sayti.

12. <http://www.edunet.uz> – maktablar, o'quvchi va o'qituvchilari sayti.

BO'LAJAK O'QITUVCHI FAOLIYATIDA IMPROVIZATSIYA KASBIY - IJODIY KOMPETENSIYA SIFATIDA

Mirahmedova Dilafruz

Andijon Davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchining faoliyatida improvizatsiya kasbiy-ijodiy kompetensiyasining ahamiyati va roli tahlil qilinadi. Improvizatsiya o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida kutilmagan vaziyatlarga tez va samarali javob bera olish, yangi g'oyalarni ilgari surish va darsni interaktiv tarzda tashkil etish qobiliyati sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada improvizatsiyaning pedagogik va psixologik asoslari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, o'qituvchining ijodiy va kasbiy kompetensiyasini oshirishdagi muhim jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: improvizatsiya, kasbiy-ijodiy kompetensiya, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar, interaktiv ta'lim.

Аннотация. В статье анализируется значение и роль профессионально-творческой компетенции импровизации в деятельности будущего учителя. Импровизация рассматривается как способность учителя быстро и эффективно реагировать на неожиданные ситуации, предлагать новые идеи и организовывать урок в интерактивной форме в процессе обучения учащихся. В статье рассматриваются педагогические и психологические основы импровизации, ее роль в образовательном процессе и факторы, влияющие на ее развитие, а также важные аспекты повышения творческой и профессиональной компетентности педагога.

Ключевые слова: импровизация, профессионально-творческая компетентность, креативное мышление, педагогические технологии, интерактивное образование.

Abstract. This article analyzes the importance and role of the professional and creative competence of improvisation in the work of a future teacher. Improvisation is considered as the ability of a teacher to quickly and effectively respond to unexpected situations in the process of educating students, to put forward new ideas and to organize a lesson interactively. The article covers the pedagogical and psychological foundations of improvisation, its role in the educational process and factors affecting its development, as well as important aspects of improving the creative and professional competence of a teacher.

Keywords: improvisation, professional and creative competence, creative thinking, pedagogical technologies, interactive education.

O'qituvchilik kasbi – bu nafaqat bilim berish, balki shaxsni shakllantirish, uni hayotga tayyorlash va uning ijtimoiy faoliyatini yo'naltirishga qaratilgan kompleks faoliyatdir. O'qituvchi, o'z ishini amalga oshirayotganda, faqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi kifoya qilmaydi, balki uning kasbiy-ijodiy kompetensiyasi yuqori bo'lishi zarur. Bugungi kunda o'qituvchilarga faqat nazariy bilimlarni o'rgatish emas, balki ta'lim jarayonini moslashuvchan va ijodiy tarzda olib borish muhimligi ta'kidlanmoqda. Bu holatda improvizatsiya kasbiy-ijodiy kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Improvizatsiya – bu ta'lim jarayonida o'qituvchining malakali va tezkor qarorlar qabul qilishi, yangi g'oyalarni ilgari surishi, o'quvchilarga moslashgan holda dars jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Kasbiy kompetentlik – ko'p qirrali va ko'p jihatli tushuncha, u jamiyatda sodir bo'luvchi o'zgarishlarga mos ravishda o'zgaradi hamda turli nuqtayi nazarlar ostida ko'riladi. O'qituvchining “kasbiy kompetentligi” tushunchasi mazmuniga zamonaviy yondashuvlar tahlili ko'rsatishicha, mazkur muammo hozirgi vaqtda uning talqiniga turlicha mazmun baxsh etuvchi, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan faol o'rganilmoqda. Ye.V. Bondarevskaya kasbiy kompetentlik tushunchasini uning asosiy komponenti hisoblangan,

“ta’limda hunarmandni” emas, balki yuqori madaniyatli mutaxassisni shakllantirishga yordam beradigan “pedagogik madaniyat” tushunchasi bilan bog’laydi[1].

O’qituvchi, har bir darsda yuzaga keladigan yangi vaziyatlarga moslashib, o’quvchilar bilan samimiy va ijodiy ishlashni maqsad qiladi. Improvizatsiya kasbiy-ijodiy kompetensiyasi o’qituvchining o’z bilimlarini amaliyotda qo’llash, yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va o’quvchilarni faollashtirishda muhim rol o’ynaydi. Kasbiy-ijodiy kompetensiya ta’lim jarayonida o’qituvchining ilmiy, kasbiy, metodik va pedagogik bilimlarini samarali qo’llash qobiliyatini o’z ichiga oladi. Bu kompetensiya o’qituvchidan kreativ fikrlash va moslashuvchanlikni talab qiladi. Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo’lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi. Ta’limning vazifasi o’quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta’minlashdan iborat. Bular sababli ular globallashtirish jarayonida tez o’zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan va hozirgi zamon talablariga mos moslashuvchan kadrlarni dunyoga moslashishiga yordam beradi[2].

Improvizatsiya o’qituvchining kasbiy-ijodiy kompetensiyasining ajralmas qismi bo’lishi bilan birga, pedagogik va psixologik asoslarga ham ega. Pedagogik nuqtai nazardan, improvizatsiya o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi interaktiv munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Olimlardan V.A.Kan-Kalik pedagogik faoliyatning kasbiy xususiyatlari ijodiy muammolarni hal qilish jarayoni sifatida quyidagilarni taklif etadi:

1. Pedagogik ijodning o’ziga xosligi shakllangan faoliyat ko’nikmalari va pedagogik jarayonning rivojlanayotgan strukturasi o’zaro ta’sirida bo’lib, bu metodlarni o’zgartirishni taqozo etadi, chunki o’quv jarayonida o’zlashtirilgan uslub va ko’nikmalar doimo o’zgarib turadi.

2. O’qituvchi va o’quvchining birgalikda ijod qilishi, o’qituvchining ijodiy sa’y- harakatlarini butun pedagoglar jamoasi ijodi bilan muvofiqlashtirish pedagogik ijodning zarur shartidir.

3. Jamoatchilik faoliyati muhitida o’qituvchining ijodiy jarayonini amalga oshirish o’qituvchidan o’z ruhiy holatlarini boshqara bilishni, o’zida va o’quvchilarda ijodiy farovonlikni yuzaga keltirishni talab qiladi.

Yuqorida aytib o’tilgan pedagogik faoliyat muammolarini ijodiy hal qilishga tayyorlikni V.A.Slastenin o’qituvchi professionalligining hal qiluvchi belgisidir, deb ta’kidlaydi. Ushbu tayyorlikning shakllanishi shaxsning individual fazilatlari asosida, faoliyat motivlari, maqsadlari va shartlaridan kelib chiqib, ularni qayta tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Shakllangan tayyorlik - motivlar, munosabatlar, shaxsiy xususiyatlar tizimini shakllantirish, ular faollashganda mutaxassisga o’z funktsiyalarini samarali bajarish imkoniyatini beradi[3].

O’qituvchi o’quvchilarning ehtiyojlariga qarab, darsda yangi yondashuvlar, metodlar va texnikalarni joriy etish orqali o’quvchilarni faollashtiradi. Buning natijasida, o’quvchilar o’zlariga mos darsni topadilar va o’qish jarayonidan qoniqadilar. Psixologik jihatdan, improvizatsiya o’qituvchining o’zini o’quvchilarga yaqinroq, tushunarliroq qilib ko’rsatishi va ularning ruhiy holatiga moslashishi uchun zarurdir. Dars davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklar yoki noaniqliklarni bartaraf etish uchun o’qituvchining psixologik moslashuvchanligi va intellektual yuksakligi muhimdir. O’qituvchining improvizatsiya qobiliyati, uning o’quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi va o’quvchilarga o’zlarini erkin his qilish imkonini beradi. Improvizatsiya kasbiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun o’qituvchi o’zini doimiy ravishda takomillashtirishi kerak. Bu jarayonda turli omillar ta’sir ko’rsatadi. Birinchidan, o’qituvchining kasbiy tayyorgarligi va tajribasi improvizatsiya qobiliyatini oshiradi. Tajribali o’qituvchi o’z faoliyatida yuzaga keladigan turli vaziyatlarni samarali hal qila olishadi, bu esa ularning improvizatsiya qobiliyatini rivojlantiradi. Ikkinchidan, o’qituvchining ijodiy fikrlash qobiliyati ham improvizatsiyaning rivojlanishiga ta’sir qiladi. Ijodiy fikrlash o’qituvchiga ta’lim jarayonini yangi usullar bilan tashkil etish va o’quvchilarni qiziqtirishda samarali bo’lish imkonini beradi. Shu bilan birga, o’qituvchining ijtimoiy va psixologik qobiliyatlari ham improvizatsiya

jarayonini qo'llashda katta rol o'ynaydi. O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan ijobiy munosabati, ularga yordam berishdagi faolligi va ularni tushunishdagi qobiliyati improvizatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Импровизация kasbiy-ijodiy kompetensiyasi bo'lajak o'qituvchining o'z faoliyatini samarali, kreativ va o'quvchilarga moslashtirilgan tarzda olib borish uchun zarur bo'lgan qobiliyatdir. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantiruvchi va ular bilan samarali muloqotda bo'lishi lozim. Импровизация, o'qituvchining kasbiy-ijodiy kompetensiyasini yuqori darajada rivojlantirishga xizmat qilishi, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi va ta'lim jarayonini qiziqarli hamda samarali qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

A. Mamurov: Pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslari/ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. July, 2023

Каршиева, Д. К. О'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni / Д. К. Каршиева, О. Н. Усмонова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 2 (449). — С. 500-505. — URL: <https://moluch.ru/archive/449/98832/> (дата обращения: 19.01.2025).

3. Т.Х. Худайназаров, J.N. Perneyeva: O'qituvchining kasbiy pedagogik madaniyati va kasbiy-ijodiy kompetensiyasi/ Ilm-fan, ta'lim tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbolari/ May, 2024.

IMOM G'AZZOLIYNING MEROSINI O'RGANISHDA FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLAR

Nabiyeva Aziza Komil qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida jamiyatimizning har tomonlama iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan taraqqiy qilishi uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlash ajdodlarimiz o'g'itlari, pand-nasihatlaridan foydalanish alohida pedagogik qimmatga ega. Ushbu maqolada Imom G'azzoliy yaratgan ma'naviy-pedagogik meros yosh avlodni tarbiyalashda muhimdir. Zero, uning ma'naviy merosi, pedagogik qarashlari, g'oyalari, u yaratgan didaktik asarlar yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qiladi. Chunki, Imom G'azzoliyning pedagogik merosida inson odobi, axloqi, iymon-e'tiqodi, vijdoni, erkinligi, oila, farzand tarbiyasi masalalari nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit So'zlar: Imom G'azzoliy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, ajdodlarimiz o'g'itlari, pand-nasihatlari, ma'naviy-pedagogik meros, yosh avlod tarbiyalasi, iymon-e'tiqod, vijdon erkinligi, oilada farzand tarbiyasi

VIEWS ON CHILD REARING IN THE STUDY OF IMAM GHAZALI'S LEGACY

Nabiyeva Aziza Komil qizi

Shahrisabz State Pedagogical Institute 1st year master's student

Abstract: During the years of independence, broad opportunities are opening up for the comprehensive economic, political and spiritual development of our society. Today, the use of the teachings and advice of our ancestors to ensure the spiritual and moral education of young people has a special pedagogical value. In this article, the spiritual and pedagogical heritage created by Imam Ghazali is important in educating the younger generation. After all, his spiritual heritage, pedagogical views, ideas, didactic works created by him serve to form the younger generation as a fully mature, well-rounded person, to provide them with proper education and upbringing. Because, in the pedagogical heritage of Imam Ghazali, the issues of human decency, morality, faith, conscience, freedom, family, and child upbringing are theoretically substantiated.

Key words: Imam Ghazali, economic, political and spiritual, spiritual and moral education of youth, teachings and advice of our ancestors, spiritual and pedagogical heritage, education of the younger generation, faith, freedom of conscience, raising children in the family.

ИЗУЧЕНИЯ ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ И НАСЛЕДИЯ ИМАМА ГАЗАЛИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЕ

Набиева Азиза Комил кизи

Магистр 1-курса Шахрисабзского государственного педагогического университета

Аннотация: В годы независимости открываются широкие возможности для всестороннего экономического, политического и духовного развития нашего общества. Сегодня использование учений и советов наших предков для обеспечения духовно-нравственного воспитания молодежи имеет особую педагогическую ценность. В данной статье духовно-педагогическое наследие, созданное Имамом Газали, имеет важное значение в воспитании подрастающего поколения. Ведь его духовное наследие, педагогические взгляды, идеи, созданные им дидактические произведения служат формированию подрастающего поколения как всесторонне зрелой, всесторонне развитой

личности, обеспечению их надлежащим образованием и воспитанием. Потому что в педагогическом наследии Имама Газали теоретически обоснованы вопросы человеческой порядочности, нравственности, веры, совести, свободы, семьи, воспитания детей.

Ключевые слова: Имам Газали, экономическое, политическое и духовное, духовно-нравственное воспитание молодежи, учения и советы наших предков, духовно-педагогическое наследие, воспитание подрастающего поколения, вера, свобода совести, воспитание детей в семье.

Millatimiz yoshlarini bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma'naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim, dolzarb ahamiyatga ega. Bir qator Sharq mutafakkirlar singari Imom G'azzoliy yaratgan ma'naviy-pedagogik meros yosh avlodni tarbiyalashda muhimdir. Zero, uning ma'naviy merosi, pedagogik qarashlari, g'oyalari, u yaratgan didaktik asarlar yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qiladi. Chunki, Imom G'azzoliyning pedagogik merosida inson odobi, axloqi, imon-e'tiqodi, vijdoni, erkinligi, oila, farzand tarbiyasi masalalari nazariy jihatdan asoslab berilgan. Uning ta'lim-tarbiyaviy asarlari bugungi kunda ham yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

Shunday ekan, yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Biz musulmon dini haqida gapirganda avvalo, Alloh va Uning Rasulini, o'zimizga ruhan yaqin bo'lgan ulug' allomalarimiz, ulug' imomlarimizni tasavvur qilamiz. Buyuk islom dunyosi cheksiz hurmat bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G'ijduvoni, Zamaxshariy kabi piru komillarimizni nazarda tutamiz.

Chunki bu buyuk insonlarning aziz nomlari, o'lmas merosi muqaddas dinimiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Biz bu mutafakkirlarimizning kutlug' merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, ularning mana shunday ma'naviy muhitda kamol topishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g'oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratmoqda.

Abu Homid G'azzoliyning boy pedagogik merosi, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ayniqsa, axloqodob, insof, diyonat, imon, e'tiqod, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi g'oyalari barkamol shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, uning ta'limiy-axloqiy qarashlarida asosiy o'rin tutgan ilmsevarlik, vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymone'tiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, hurfikrlilik kabi barkamol inson tarbiyasiga xos g'oyalarni yosh avlod ongiga singdirish muhim didaktik qimmatga ega.

Abu Homid G'azzoliy yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlari bilan Sharq xalqlari ma'naviyatini rivojlantirish va ular madaniyatining taraqqiyoti hamda ijtimoiypedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Uning ta'limoti mazmunida insonni barkamollikka chorlovchi mezon sifatida aqlidrok hamda ta'lim-tarbiya yotadi. Shu nuqtai nazardan G'azzoliy ta'limotini o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat o'zining bir qadar murakkab tarixiyma'naviy ildiziga ega.

Sharq xalqlarida, ayniqsa o'zbeklarda farzand oila, ota-ona munosabatlarini mustahkamlovchi muhim asos hisoblanadi. Oilada farzandni dunyoga kelishi ota-onani mehr-oqibat, o'zaro bir-birini tushunishi va hamkorligini ta'minlovchi, undagi quvonch va qayg'ularni birgalikda hal qilishga undovchi vositadir.

Imom G'azzoliyning ma'naviy-axloqiy qarashlarini yoshlar ongiga yetkazish uchun uning hayotiy faoliyati, boy tajribasi hamda ma'naviy-pedagogik merosni taqdim etish lozim. Uning pedagogik merosi markazida farzand tarbiyasi masalasi turadi. Zero, oilada farzand o'stirishda uning ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Imom G'azzoliy (1058-1111) hayoti davomida tafsir, hadis, tarix, falsafa, fiqh, tasavvufga doir 100 dan ortiq asarlar yozgan. Uning yaratgan asarlari nafaqat olimlar orasida, balki barcha

jamiyat a'zolariga oila, nikoh, er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi borasidagi tasavvurlarini kengaytiruvchi, boyituvchi nasihat va maslahatlarga aylandi. Uning farzand tarbiyasi, insonning botiniy va zohiriy pokligi to'g'risidagi fikrlari bugungi kun ta'lim tizimi uchun ham muhim didaktik ahamiyatga ega. Chunonchi, G.Gegel G'azzoliy haqida «Mantiq va metafizikaga doir asarlar muallifi, sharqona buyuk aql egasi», - deb baho bergan edi.

Imom G'azzoliyning nomi va yaratgan asarlari sho'rolar davrida o'qitilmay, ta'qiqlab qo'yildi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, uning ilmiy-pedagogik, falsafiy asarlarini tarjima qilib, o'rganishga alohida e'tibor berila boshlandi. Jumladan, Mahkam Mahmud Andijoniy, Abdulloh Umar Toshkandiy kabi olimlar Imom G'azzoliyning "Kimiyo saodat: (Ruh haqiqati)" asarini o'zbek tiliga tarjima qilib nashr ettirdilar. Ushbu asar Sharq xalqlari tarixi, boy madaniyati va falsafasini o'rganishda bebaho xazina hisoblanadi. Asarda nazmiy va nasriy matnlardan iborat bo'lib, unda "Ruh haqiqati", "Dilning qudratlari bayonida", "Olamning tuzilishi bayonida", "Mehmonlar odobi bayonida", "Ota-onaning huquqlari bayonida", "Farzandlar huquqlari bayonida" singari 100 dan ortiq bo'limlar mavjud. Shu bilan bir qatorda, asarda islom dinining talablari ham bayon qilingan. Mahkam Mahmudning ta'kidlashicha, Imom G'azzoliy "Kimiyo saodat: (Ruh haqiqati)" asarida "... tabiiy ilmlarga ham hurmat bilan qaraydi. U tib ilmini ham chuqur tushuntiradi"[1].

Imom G'azzoliyning yana bir yirik tarbiyaviy asari "Ihyou ulumid-din (din ilmlarini jonlantirish)" deb nomlanib, mazkur asarni A.Azimov, M.Usmonxon, Mansurali Tojimuhammad o'g'li, Abdurahmon Sohibjon o'g'li, A'zamjon Muhammadali o'g'li, Mubashshir Ahmad singari olimlar o'zbek tiliga tarjima qilganlar. Asar 7 bobdan iborat bo'lib, har bir bob alohida-alohida mazmunga ega. Mazkur asarda ham bugungi kun uchun dolzarb mavzular, jumladan, "Ilm o'rganish fazilati", "Ta'lim berish fazilati", "Ilmlarning o'zgartirilgan lafzlari bayoni", "Aqlning haqiqati va qismlari bayonida" kabilar ilgari surilgan.

U o'zining barcha asarlarida ta'lim-tarbiya, ahloq-odob haqidagi fikrlarini islom olamining mashhur namoyandalari, hadisi shariflardagi fikrlar bilan boyitdi. Uning farzand tarbiyasiga doir maxsus asari «Ey farzand» («ayyuxol valad») deb nomlanadi.

Faqat ma'naviyatli, ma'rifatli insonlargina o'zlarini ma'naviy, axloqiy, jismoniy takomillashtirib, Vatan, jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan rivoji, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga hissa qo'sha oladilar va ular mutafakkirlar, avliyolar, donishmandlar hisoblanadilar. Imom G'azzoliy ham shunday mutafakkirlardan biridir. U "Munoshafat-ul Qulub", "Kimiyo saodat", "Ey farzand" kitoblarining maxsus boblarini "Otani rozi qilish", "Ona mehr-shafqatli va rahmdil bo'lishi", "Ota o'z farzandlariga odob o'rgatishi", "Kishilarga yaxshilik qilganlar oxiratda uning mukofotiga ega bo'ladi", "Ziyorat qilishning fazilati", "Mehmonlar odobi", "Erkakning ahli ayoliga muomala odobi", "Erlarning xotinlar oldidagi haqlari", "Qo'shnichilik haqida", "Ota-onaning huquqlari" kabi muhim insoniy odob-axloq masalalariga bag'ishlagan. Ushbu asarlardagi har bir fikr, har bir g'oya asrlar davomida sayqallanib, boyib kelayotgan tarbiyaviy qo'llanmalardir. Ular nasihatimiz tarzda yozilgan asarlar bo'lib, muallif fikrlarni dalillashda Qur'oni Karim, Hadisi Sharif hamda buyuk shaxslarning hayotiy tajribalaridan misollar keltiradi.

Imom G'azzoliy inson farzandining dunyoga kelishi, voyaga yetishi, jamiyatda qabul qilingan Islomiy odob-axloq me'yorlariga rioya qilishi, hatto narigi dunyoga rixlat qilguniga qadar davrda bajarishi lozim bo'lgan farz amallarini ilmiy-amaliy tarzda bayon qiladi. Chunonchi, Imom G'azzoliy o'z asarida yozadi: "Odob bir necha ko'rinishga ega. Inson avvalo kiyinish odoblarini yaxshi bilmog'i lozim. Shuningdek, eshik ochish, hojatini o'rnatish, tozalanib hojatxonadan chiqish, tahorat olib masjidga borish, namoz o'qish, masjiddan chiqish va uyiga yoki ish joyiga kirish, odamlar bilan uchrashish kabi odoblarga ham rioya etishi kerak". Mutafakkir Rajab, Sha'bon va Ramazon oylariga xos odoblar bilan bir qatorda qo'l, oyoq, til, quloq va teri-tanosil a'zolariga tegishli odoblar haqida ham bayon qiladi. Shuningdek G'azzoliy asarlarida qo'ni-qo'shnichilik, savdo-sotiq, kiyinish, yurish-turish, muloqot, suhbatlashish, mehmon qabul qilish va mehmonga

borish, ovqatlanish, er-xotin munosabatlari, qarz olish va qarz berish, kasallar, olimlar, oriflarning hollaridan xabar olish, ularni ziyorat qilish odoblari ham fikrlar mavjud.

Imom G'azzoliy farzandlarga yuqoridagi odoblar va boshqa insoniy munosabatlar uchun zarur odob-axloq me'yorlarini islomiy va amaliy jihatlarini o'z turmush tajribasi, islom namoyondalari axloqi, Qur'on talablari hamda Hadislar asosida bayon qiladi. Shu asosda farzandning har kungi va butun umri davomida rioya qilishi lozim bo'lgan xarajatlari algoritmi va axloq-odob me'yorlarining tartibini bayon qiladi. Imom G'azzoliyning mazkur sa'i-harakatlari bugungi kun ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlod tarbiyasida dastur amal bo'ladi.

Imom G'azzoliyning ta'kidlashicha, insonning ilmiy faoliyati islom tamoyillari asosida qurilishi lozim. Bu jarayonda oilada ota-ona asosiy o'rin egallaydi. Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalash uchun ota-onalarning ularga bo'lgan ijobiy munosabatlari muhim hisoblanadi. Bu esa farzandning butun hayoti davomida yurish-turishi, turli faoliyati, dunyoqarashi, odobi, his-tuyg'usi, orzu-intilishlarida namoyon bo'ladi.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va uning tengdoshlari muhim ahamiyatga ega. Haqiqiy insoniy axloqni o'zida mujassam qilgan ota-onalar o'z bolalariga yaxshi ta'sir ko'rsatadilar va haqiqiy ta'lim-tarbiya bera oladilar. Shu bilan bir qatorda, ular farzandlarining mehr-shafqatli, sabrli, sofdil va maqbul bo'lib tarbiyalanishlari uchun zamin hozirlaydi. Abdulla Avloniy o'z fikrini davom ettirib, "tarbiya ila dars (ta'lim demoqchi) orasida farq bor, chunki dars oluvchi biluvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdur". Demak, har bir ota-onaning faoliyati, ularning amallari ibratli, namunali, ijobiy hatti-harakatlarga asoslanishi zarur.

Uning fikricha, murabbiylar ta'lim va tarbiyani uzviylikda amalga oshirib, aytilgan har bir fikrni dalillar asosida yoshlarga yetkazishi lozim. Qisqa qilib aytganda, nazariyani amaliyot bilan bog'lagan holda amalga oshirish kerak. Shundagina dars jarayonida berilgan nazariy bilimlar ularning amaliy faoliyatlarida namoyon bo'ladi.

Pedagogika darsligi (O'.Asqarova, A.Q.Munavvarov, G'.Jo'raboev, M.Sobirova)da tarbiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tarbiya - o'sib kelayotgan avlodlarda xosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamoloti va dunyoqarashini, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom yetadigan jarayondir. Shu sababli, tarbiya so'zi ko'p vaqtlarda ta'lim, ma'lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini xam anglatadi. Tarbiya-ta'lim va ma'lumot natijalarini o'zida aks yettiradi"[2].

Pedagogik atamalar lug'atida esa tarbiya atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tarbiya – 1) shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; 2) yosh avlodni mujassam rivojlantirishga yo'naltirilgan umuminsoniy hamda milliy ijtimoiy tajribani o'quvchi va talabalarga uzluksiz taqdim etish jarayoni"dir[3].

Darhaqiqat, jamiyatda ota-onaning obro'si milliy tarbiyaning asosi hisoblanadi. Aynan mana shu omil orqali ular farzandlarining ongi, xulq-atvoriga ma'naviy ta'sir qiladilar. Ota-onaning bir-birlari va farzandlariga bo'lgan munosabati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda asrlar davomida oila va farzandlar tarbiyasida mustahkam shakllangan qonuniyatlar mavjud. Insoniyat esa mana shu qonuniyatlarga bo'yso'ngan holda jamiyatda yashab, faoliyat ko'rsatganlar. Bundan tashqari, ajdodlarimiz oila ilmiga doimiy ravishda amal qilib, avloddan-avlodga yetkazib kelganlar.

Imom G'azzoliyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari va farzand tarbiyasi masalalari alohida o'rin tutadi. Uning ta'kidlashicha, inson dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk vakili hisoblanadi. Shuning uchun G'azzoliy o'z asarlarida yosh avlodga izchil tarzda ta'lim-tarbiya berish zarurligini qayd qiladi.

Bizning nazarimizda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayoni uzluksiz va uzviy bo'lishi kerak. Chunki, pedagogikada ta'lim-tarbiya uzviyligi tamoyili mavjud.

Biz o'z tadqiqotimiz ustida ishlash jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisobladik:

Ajdodlarimiz ilg'or qarashlarining insonparvarlik, demokratik mohiyatini yoshlar ongiga singdirish borasidagi ishlarni jadallashtirish; bunda ajdodlarimiz, jumladan Imom G'azzoliyning didaktik asarlari, pedagogik qarashlarini chuqur o'rganib, tahlil qilib, bugungi kun ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llash;

Sho'rolar davrida buyuk mutafakkirlarning g'oyalarini noto'g'ri talqin etilganligini hisobga olib, ularning ta'limotlariga oqilona baho berish, haqqoniy, insonparvarona qarashlarini darsliklar va o'quv qo'llanmalariga singdirish;

Imom G'azzoliy ta'limotidagi insonning ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topishi masalalarini ommalashtirish;

Bugungi bozor iqtisodiyoti munosabatlari tobora rivojlanib borayotgan bir vaqtda, G'azzoliy asarlaridagi farzandni bozor munosabatlariga tayyorlashga oid g'oyalarini yoshlarga o'rgatish;

Imom G'azzoliy yaratgan pedagogik asarlar yosh avlodning har tomonlama yetuk, barkamol bo'lib yetishishlarida asosiy vosita ekanligini anglash;

Bugungi kunda turli axborot oqimlarining respublikamiz hududiga shiddat bilan kirib kelayotgan bir paytda, yoshlar ongida Sharq axloqodobiga zid bo'lgan axloqiy qarashlar shakllanishini oldini olish; bunda G'azzoliy ta'limotidagi g'oyalarni o'quvchi-yoshlar orasida keng targ'ib qilish, ularda ajdodlar merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojni uyg'otish kabilar.

Musulmon odobiga ko'ra kattalar kichiklarga, ota-onalar o'z farzandlariga odob o'rgatishlari, kichiklar esa kattalar ko'rsatgan yo'ldan yurishlari, ular aytgan gaplarga rioya qilishlari kerak. Ota-onalar o'z farzandlariga xush xulq-odob o'rgatishlari ularning insoniy burchlaridir.

Ilmlar go'yo aql g'arizasida fitratan yashiringan, qachon oshkor etadigan sabab tug'ilsa, borliqda namoyon bo'ladi. Hatto bu ilmlar aqlga tashqaridan kelmaganidek, xuddi unda oldindan bo'lib keyin ko'rinadi. Buning yorqin misoli yer tagidagi suvdur. Qachon quduq qazilsa, u ham ko'rinadi. U yangi bir narsaning keltirilishi bilan emas, his bilan yig'iladi va ajratiladi. Pistadagi yog', guldagi gulob ham shunga o'xshashdir"[4]..

Shuning uchun bugungi kunda yoshlar kuchli bilimli, zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishlari zarur.

Imom G'azzoliy "Kimiyo saodat" asarida inso xulqlarini ikki: maqtoqli sifatlar va yomon xulqlarga ajratadi. "Yomon xulqlarki, hayvonot sifatlaridur, ko'ngillari javohirini alardin pok qilg'aylar"[5]..

Farzandlar o'zlarining namunali xulq-odoblari bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishlari lozim. Imom G'azzoliy farzandning ota-ona oldidagi farzandlik burchini Islom ta'limoti va oddiy kishilar hayotidan olingan misollar asosida yangi oila qurib, farzandlar tarbiyalaydiganlar ibrat-namunasi sifatida, o'z asarlarida qayta-qayta bayon qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga o'ta muhim muammo deb qarashi uning madrasalarda mudarrislik faoliyatining natijasi hisoblanadi. Shuning uchun ham farzand ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan asarlari tahlili uning yetuk pedagog bo'lganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимийеи саодат. Т.: Адолат, 2005. 12-б.
- 2.А.Қ.Мунавваров, Ғ.Жўрабоев ва б. Педагогика, Т.: 8-бет.
3. Р.Х.Джураев, Ў.Қ.Толипов ва б. Педагогик атамалар луғати. Т.: 2008 й. 118-б.
- 4.Имом Ғаззолий.Ихёу улумиддин-дин (Дин илмларини жонлантириш). Т.: "Мовароуннаҳр" – 2003 йил. 213-214-бетлар
- 5.Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимийеи саодат (Рух ҳақиқати). Т.: Адолат – 2005 йил. 27-бет.
- 6.А.Р.Соҳибов. "Etnopedagogika". Darslik. Toshkent "Makon Savdo Print" X K -2024y.
- 7.А.Р.Соҳибов. "Pedagogik fikrlar taraqqiyoti". Darslik. Qarshi "Nasaf" 2023 yil

TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIK LOYIHALASHNI TASHKILLASHTIRISH USLUBIYOTI

Nazarov Tohir Toshpo'lotovich,

Harbiy ta'lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi, dotsent. Buxoro Davlat

Pedagogika instituti

<https://orcid.org/0000-0001-5631-1156>

Annotatsiya: Maqolada talabalarni o'qitishning har tomonlama ta'lim berish va tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilish, ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mazmun-mohiyati, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritilib ko'rsatiladi. Harbiy didaktika tinglovchilarga ta'lim berish jarayonining pedagogik mohiyatini Harbiy pedagogikaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan Harbiy didaktika o'rganadi. Talabalar ta'limi jarayonining qonuniyatlarini tadqiq etarkan, didaktika uning prinsiplari, shakl va metodlari, moddiy-texnikaviy vositalari va shu kabilarni belgilaydi. Harbiylar ta'limining aniq (xususiy) metodikasi sifatida harbiy didaktika unga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilab beradi. Harbiy fanlarda ta'lim qonuniyatlari ta'lim jarayoni komponentlari maqsad, mazmun, metod, shakl, natija o'rtasidagi aloqalarni ifodalaydi. Ofitser-o'qituvchi ta'lim jarayonining qonuniyatlarini yaxshi anglasagina, ta'lim jarayonini ongli, samarali boshqarib biladi. O'qituvchi unutmashligi lozimki, ta'lim jarayonida didaktik qonuniyatlar bilan birgalikda psixologik, fiziologik qonuniyatlar ham mavjud. Ta'lim jarayonining qonun va qonuniyatlari ta'lim jarayonining tamoyillari va qoidalari uchun nazariy asos shaklida xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar: mashg'ulot, didaktika, tarbiya, ta'lim, o'qish, faoliyat, shijoat, yuksak ma'naviyat, bilim, ko'nikma, malaka, ofitser, harbiy mahorat, kompetensiya, axloqiy ong.

ДИДАКТИЧЕСКИЙ ПРОЕКТИРОВАНИЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ МЕТОД ОРГАНИЗАЦИИ

Назаров Тохир Тошпулотович,

Факультет военного образования, преподаватель цикла специальной подготовки,

доцент. Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация: В статье освещаются знания общих закономерностей, отвечающих целям всестороннего обучения и воспитания учащихся, общих вопросов организации образования, сущности учебного процесса, законов образования, принципов и методов обучения, его организационных форм. Военная дидактика, считающаяся важной составляющей военной педагогики, изучает педагогическую сущность процесса преподавания военной дидактики. Исследуя закономерности процесса обучения учащихся, дидактика определяет его принципы, формы и методы, материально-технические средства и т. д. Как специфическая (частная) методика военного образования военная дидактика определяет основные требования к ней. Закономерности образования в военных науках представляют собой взаимосвязь между целью, содержанием, методом, формой и результатом компонентов образовательного процесса. Офицер-педагог может осознанно и эффективно управлять образовательным процессом только в том случае, если он хорошо понимает закономерности образовательного процесса. Учитель не должен забывать, что наряду с дидактическими законами в образовательном процессе существуют еще психологические и физиологические законы. Законы и правила образовательного процесса служат теоретической основой принципов и правил образовательного процесса.

Ключевые понятия: обучение, дидактика, подготовка, образование, учеба, деятельность, энтузиазм, высокий моральный дух, знание, умение, квалификация, офицер, военные навыки, компетентность, моральное сознание

METHOD OF ORGANIZING DIDACTIC DESIGN IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Nazarov Tohir Toshpulatovich,

Faculty of Military Education, teacher of special training cycle, associate professor.
Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: The article discusses the general principles of teaching students, the general issues of organizing education, the content and essence of the educational process, the laws of education, the principles and methods of teaching, and its organizational forms. Military didactics, which is an important component of military pedagogy, studies the pedagogical essence of the process of teaching students. Studying the laws of the process of educating students, didactics determines its principles, forms and methods, material and technical means, etc. As a specific (special) methodology of military education, military didactics determines the main requirements for it. The laws of education in military subjects express the relationships between the components of the educational process: goal, content, method, form, result. Only if the officer-teacher understands the laws of the educational process well, he can consciously and effectively manage the educational process. The teacher should not forget that in the educational process, along with didactic laws, there are also psychological and physiological laws. The laws and laws of the educational process serve as a theoretical basis for the principles and rules of the educational process.

Basic concepts: training, didactics, upbringing, education, study, activity, enthusiasm, high spirituality, knowledge, skill, qualification, officer, military skill, competence, moral awareness.

Kirish. O'qituvchilik sharaflilik lekin juda murakkab kasb. Yaxshi pedagog bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'ziga yetarli bo'lmaydi. Chunki pedagogik nazariyada talabalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon qilinadi. O'qituvchining yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Oliy ta'lim pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchraydi. Bu esa o'qituvchidan yuqori bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. O'qituvchi (pedagog) talabalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz, ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, pedagogning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi shart. Bundan ko'rinadiki, o'qituvchi birinchi navbatda zamonaviy bilim bilan qurollangan bo'lishi kerak.

Talabaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan yuqori bosqichlarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar berkitib qo'yilishi oddiy mantiqning o'zi talab etadi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan qo'yilayotgan yana bir talab, oliy ta'lim muassasalarida eng yetuk, tajribali o'qituvchilarni qo'yish. Shu bilan bir qatorda mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning o'rni sezilarli darajada ko'tarildi. Shunga asoslanib, ta'lim sifatini oshirish va uni doimiy ravishda takomillashtirish zarurati namoyon bo'ldi. Davlat mustaqilligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash Qurolli Kuchlarning asosiy vazifasi ekanligini hisobga olganda, ofitserlarni tayyorlash va harbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish muammosi dunyoning barcha mamlakatlarida dolzarbdir. Harbiy ta'lim tashkil etilganidan buyon doimo olimlar va amaliyotchilar, turli bilim sohalari, ijtimoiy hayot sohalari va davlat idoralari xodimlarining diqqatini tortgan. Ko'pchilik tomonidan harbiy ta'lim armiya va umuman davlat kelajagiga ta'sir qiluvchi, ya'ni jamiyat ravnaqi, global jarayonlar, harbiy rivojlanishga yo'nalish beruvchi omillardan biri sanaladi. Ushbu e'tibor harbiy ta'lim har doim ham Qurolli Kuchlarning yuqori jangovar qobiliyati va jangovar tayyorgarligini ta'minlaganligi bilan bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quv jarayonini jadallashtirish uni takomillashtirishning obyektiv qonuniyati sifatida anglanadi. Hozirgi kunda u ta'limning yanada takomillashgan faol shakl va metodlarini yaratish va ularni o'quv jarayoniga kiritishda namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim tashkiliy shaklining yoki metodining faolligi ta'lim oluvchilarning mashg'ulot davomida ofitser-o'qituvchi tomonidan boshqarib boriladigan aqliy faolligi va tafakkurining ijodiy xarakterda bo'lishidan iborat bo'ladi. Uning qo'shimcha belgilari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin[1]:

- mustaqil ravishda qaror ishlab chiqish va qabul qilish;
- ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchining to'g'ridan-to'g'ri va aks aloqalar yordamidagi o'zaro hamkorligi;
- kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga bo'lgan intilishlarining oshib borishi;
- ta'lim oluvchilarni nazorat qilish maqsadida ularning faoliyatiga aralashmasdan turib baholash va boshqalar.

Faol ta'limning hamma shakl va metodlari mashg'ulot jarayonida o'yindan foydalanish darajasiga ko'ra o'yinli va o'yinsiz bo'lishi mumkin. Uning mezonlari ta'lim oluvchilarning bo'lajak yoki hozirgi kasbiy faoliyati tasvirlangan o'yin metodining qo'llanganligi darajadasidan iborat bo'ladi.

Ta'limning o'yinli shakllariga taktik va qo'mondonlik-shtab mashqlari, taktik-maxsus mashqlar, shtab mashqlari, turli vaziyatdagi o'quv vazifalari kiradi. Hozirgi kunda aniq vaziyatlarni tahlil qilish, rollarga bo'linib o'ynash metodlari, trening, ishchan o'yin kabi ta'limning shakllari o'quv jarayoniga keng kirib bormoqda.

Talabalarni bilimni baholashning (tekshirish) og'zaki so'rov metodi ta'lim oluvchidan savolni tez idrok etish ko'nikmasini hosil qilishi, ularning xotirasini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Tekshirishning yozma metodi ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida qo'llaniladi. Yozma tekshirish talabani mantiqiy mushohada qilishga (fikrlash)ga o'rgatadi, o'z fikrini yozma ravishda bayon eta olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Test usulida tekshirish keyingi vaqtlarda ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida keng qo'llanilmoqda. Ammo tekshirishning bu metodi turli tanqidiy munozaralarga ham asos bo'lmoqda.

Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini texnika vositalari yordamida tekshirish alohida olingan talabalarning va guruhlarining tayyorgarligini tekshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Tekshirish vaqtida turli trenajerlardan, kompyuter texnikasidan foydalanish bir tomondan vaqtni va moddiy resurslarni tejash imkonini yaratsa, boshqa tomondan esa nazariy bilimlar va amaliy ko'nikma va malakalardagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish uchun qulaylik yaratadi.

Mashg'ulot jarayonida o'quv materialini og'zaki bayon qilish ofitser-o'qituvchi tomonidan guruhga bilimlar berish, ularni yangi faktlar, hodisalar bilan tanishtirish, qurol, texnika va boshqalarning tuzilishini tushuntirib berish maqsadida qo'llaniladi. O'quv materialini og'zaki bayon qilish quyidagi turlarda ajratiladi:

a) hikoya qilish – aniq, konkret mazmunga ega bo'lgan o'quv materialini qisqa, obrazli, his-hayajon bilan bayon qilish. Hikoya qilish davomida faqat faktlar bayon etib qolmasdan, balki fikr yuritishga, tafakkurga ham o'rin yaratiladi.

b) tushuntirish – murakkab hodisa, jarayon, voqealarning, muhim masalalarning, qonun-qoidalarning mazmunini, mohiyatini qat'iy mantiqiy asosda ochib berish hisoblanadi. Shuning uchun ham tushuntirish davomida isbot muhim o'rin egallaydi.

v) ma'ruza – mavzuning ko'rib chiqilayotgan savollari bo'yicha kengaytirilgan nazariy axborot berish, ilmiy tahlil qilish. Ma'ruzada faktlar tahlili, ularni bir-biri bilan qiyoslash, ular o'rtasidagi aloqadorlikni yaratish, ilgari surilayotgan g'oyalar va xulosalarni asoslash muhim o'rin tutadi. Ma'ruza vaqtida ko'rgazmali qurollardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish nazariy materialni talabalar tomonidan anglab yetilishini yengillashtiradi. Ma'ruza materiallari talabalarning shu mavzu yuzasidan mustaqil tayyorgarligi uchun asos yaratishi lozim. Shuning uchun ham ma'ruza o'quv qo'llanmasi, nizomlar va ko'rsatmalarning qisqartirilgan bayoni bo'lmasdan, balki unda mavzuning asosiy, murakkab qismi tushuntirilishi, mavjud adabiyotlar

tahlil qilinishi, ma'ruzada ko'tarilgan muammolar ustida keyinchalik qay yo'sinda ishlash ma'qulligi to'g'risida maslahatlar berilishi lozim[2].

O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodlarini qo'llashda quyidagi bir qator didaktik qoida va talablarga amal qilinishi maqsadga muvofiqdir[3]:

- bayon etilayotgan material ilmiy asoslangan, g'oyaviy jihatdan mazmunli, nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak;
- bayon etilayotgan materialning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri belgilash orqali shaxsiy tarkibga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositalarini aniqlash va amalga oshirish lozim;
- bayon etishda o'qituvchining nutqi ravon, tushunarli bo'lishi, his-tuyg'uli ifoda qilinishi muhim ahamiyatga egadir.

Amerikalik pedagog K. Kerr "ta'lim metodlari sohasidagi tub burilishlarni" to'rt bosqichga ajratadi. Kishilik jamiyatining dastlabki rivojlanish bosqichida bolalarni asosiy o'qituvchilari ota-onalar hisoblangan. Birinchi tub burilish ularning o'rniga professional o'qituvchilarning kelishi davri. Ikkinchi tub burilish og'zaki so'zni, nutqni yozuv bilan almashinuvi bilan bog'liq. Uchinchi tub burilish ta'limga bosma so'zning kiritilishi davri. To'rtinchisi ta'limni avtomatizatsiyalashtirish va kompyuterizatsiyalashtirish bilan chambarchas bog'langan.

Barcha davrlarda metodlarni izlash orqali ta'lim jarayonini shakllantirishga erishib kelingan. Biroq biror bir metod o'z-o'zicha qo'llanilmaydi hamda kerakli natijani ta'minlamaydi. Biror bir metod universal xarakterga ega emas. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim jarayonida turli-tuman metodlardan foydalanish tavsiya etiladi[6].

Ta'lim metodlari	Ta'lim metodlari guruhlari
Og'zaki	Ma'ruza, suhbat, hikoya, tushuntirish, munozara, kitob bilan ishlash
Ko'rgazmali	Illyustratsiya va demonstratsiya
Amaliy	Mashq, pedagogik vazifalarni yechish, didaktik va rolli o'yinlar, treninglar, laboratoriya ishi
Induktiv va deduktiv	Analiz, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish, sintez, modellashtirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish
Reproduktiv	Tushuntirish, ma'ruza, hikoya, instruktaaj, kitob bilan ishlash, mashq
Muammoli-izlanuvchan	Evristik suhbat, muammoli savol, vaziyatlar tahlili, umumlashtirish, tizimlashtirish, modellashtirish,
Mustaqil ish metodlari	Kitob bilan ishlash, mashq, pedagogik vazifalarni yechish, laboratoriya ishi, loyiha ishlab chiqish, "keys-stadi"
O'quv-biluv faoliyatini stimullashtiruvchi metodlar	O'quv munozaralari, illyustratsiya va namoyish qilish, didaktik o'yinlar, treninglar, yakka loyihalash, laboratoriya ishi
Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari	Og'zaki nazorat: individual va ommaviy so'rov. Yozma nazorat: yozma nazorat ishi, tushuncha va grafik diktant, test. Mashina yordamidagi nazorat: test, virtual laboratoriya ishi

Umuman, ta'lim metodlarining majmui — atrofdagi voqelikni bilishning yo'li, deya xulosa chiqarish mumkin. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishidagi talabalar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi insoniyatning tajribasini o'zlashtirishning o'zidir. Ta'lim nazariyasi o'qitish metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga yaqinlashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar paydo bo'ladi.

Muhokamar va natijalar. Talabalar ta'limi jarayonining mohiyatini, mazmunini, metodikasini va uni tashkil etish yo'llarini harbiy pedagogikaning tarkibiy qismi bo'lgan harbiy didaktika (yunon tilida "didasko" - o'qitaman) o'rganadi. Talabalarga ta'lim berish jarayonini tadqiq qilarkan, harbiy didaktika ta'lim qonuniyatlari va tamoyillarini o'rganadi, turli shakl va usullar va vositalarni samarali qo'llash shartlarini asoslab beradi. Shu asosida u talabalar ta'limi mazmunini, uni tashkil etishni va uslubiyotini bashorat qiladi va takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar beradi.

Talabalar ta'limining harbiy didaktikada yoritiladigan umumiy qonuniyatlari turli o'quv fanlarini o'rganish jarayonida o'ziga xos holda ko'rinadi. Bu o'ziga xoslikni xususiy uslubiyotlar o'rganadi. Masalan: ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik, taktika, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik uslubiyoti va shu kabilar. Talabalar ta'limining umumiy nazariyasi sifatida harbiy didaktika uslubiyotlar o'rtasidagi aloqadorlikni va turli pedagogik vazifalarni hal qilishda bir xil yondashuvni ta'minlaydi. Harbiy didaktika xususiy uslubiyotlarga tayanadi, ular to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyib boradi va shu bilan birga ta'lim jarayonining mazmun-mohiyatiga chuqur kirib boradi.

Harbiy didaktika talabalar ta'limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o'rganadi va bu jarayonning quyidagi asosiy vazifalarini belgilaydi: ta'limiy (talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish); tarbiyaviy (talabalarda o'z Vatanining qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy xislatlarni tarbiya qilish).

Ta'limning tashkiliy shakllari deganda o'quv materialini yetkazishning tartibi va ketma-ketligi, o'rni va davomiyligi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining xususiyati tushuniladi.

Ta'lim beruvchi shaxsiy tarkibga u egallayotgan mutaxassislikning xususiyati, har bir mashg'ulot mavzusining mazmuni va maqsadlaridan kelib chiqqan holda mashg'ulotlarni turli shakllarda rejalashtiradi va tashkil qiladi. O'z maqsadiga ko'ra yangi nazariy bilimlar berish, mavjud bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish, tekshirish, baholash mashg'ulotlari bo'lib, ularning har biridan alohida yoki bir mashg'ulotning o'zida bir necha turidan foydalanish mumkin. Masalan, ma'ruza mashg'ulotida guruhga faqat yangi o'quv materialini (yangi bilimlarni) berish bilan kifoyalanish yoki shu mashg'ulotning o'zida o'tgan mavzuni qisqacha takrorlash va yangi materialni mustahkamlash mumkin. Mashg'ulot qaysi shaklda tashkil etilmasin, uning asosiy maqsadi yuqori malakali harbiy mutaxassis tayyorlash dasturi talablariga javob bergan holda shaxsiy tarkibga zarur bilimlarni berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish, keng dunyoqarashga ega bo'lgan yuksak ma'naviyatli insonni tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim[4].

Ta'limning tashkiliy shakllari umumiy va maxsus shakllarga bo'linadi. Ta'limning umumiy shakllari barcha qo'shinlar va mutaxassisliklar uchun umumiydir. Ta'limni tashkil etishning maxsus shakllari esa qo'shin turlari va mutaxassisliklarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, aviasiyada yerdagi maxsus tayyorgarlik va parvozlar, harbiy-havo desantchilarining maxsus tayyorgarligi va shu kabilar.

Mashg'ulotlarni tashkil etishning uzoq yillardan beri qo'llanib kelinayotgan an'anaviy shakl va usullari bilan bir qatorda, hozirgi vaqtda ta'limning faol shakl va usullaridan ham foydalanilmoqda. Quyida harbiy mutaxassislarni tayyorlashda mashg'ulotlarni tashkil etishning, keyingi mavzuda esa ta'lim usullarining an'anaviy turlari bayon etiladi. Ta'limni tashkil etishning faol shakl va mavzulariga esa alohida mavzu bag'ishlanadi.

Hozirgi vaqtda guruhga ta'lim berishning umumiy shakllari quyidagicha tasniflanadi:

I. O'quv-rejali tashkiliy shakllar.

1. Auditoriya mashg'ulotlari: ma'ruza, laboratoriya va maxsus jihozlangan o'quv xonalaridagi mashg'ulotlar, mustaqil tayyorgarlik, konsultasiya, bo'sh o'zlashtiruvchi yoki mashg'ulot qoldirgan talabalar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar va boshqalar.

Sanab o'tilgan shakllardagi mashg'ulotlar tashkil etilishining o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi va ma'lum bir o'quv vazifalarini hal etishgagina imkon yaratadi. Bu shakllar uchun umumiylik shundan iboratki, ular avvalambor guruhning nazariy tayyorgarligini, talabalar tomonidan ijtimoiy-siyosiy bilimlarning, zamonaviy jangning nazariy asoslarining, qurol-yarog' va jangovar texnika ishlashining fizik asoslari va tamoyillarining egallanishini ta'minlaydi[5]. Bulardan tashqari, sinf mashg'ulotlari ba'zi bir amaliy ko'nikmalarning shakllanishiga ham imkon beradi.

Auditoriya mashg'ulotlari, odatda, u yoki bu bo'linma guruhlar yoki ofiserlar, talabalar (harbiy xizmatchilar guruhi) bilan o'tkaziladi. Harbiy ta'lim muassasalarida ba'zan vaqtinchalik o'quv guruhlar tashkil etilishi mumkin. Mashg'ulot jarayonida tinglovchilarning soni o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv savollarining mazmuni, talabalarning tayyorgarlik darajasi, o'quv xonalarining mavjudligi va jihozlanishi, belgilangan mavzu yuzasidan mashg'ulot o'tuvchi mutaxassislarining mavjudligi va boshqa omillardan kelib chiqib belgilanadi.

Maslahatlar, odatda, yakka tartibda yoki guruh tarkibida o'tkaziladi. Maslahat vaqtida ofitser-o'qituvchi ta'lim oluvchilarda tug'ilgan savollarga javob beradi, umumlashtiruvchi ma'ruzalar o'qiydi, kerakli o'quv materiallarini izlash uchun manbalar bilan tanishtiradi, mustaqil tayyorlanish yo'llarini o'rgatadi.

Qo'shimcha mashg'ulotlar ham yakka tartibda yoki guruh tarkibida amalga oshirilishi mumkin. Bunda ofitser-o'qituvchi mashg'ulot qoldirgan talabalarga o'tilgan mavzuning asosiy mazmunini bayon qiladi, ularning tushunganlik darajasini aniqlaydi, mustaqil tayyorlanish uchun adabiyotlar tavsiya qiladi. Talaba asosiy mashg'ulotda bo'lib, o'quv materialini yomon o'zlashtirgan holatda ofitser-o'qituvchi talaba mavzuni yoki mavzuning ma'lum bir qismini nima uchun tushunmaganligini aniqlashi, tushuntirishi va qanday o'zlashtirganlini tekshirishi, mustaqil tayyorgarlik uchun tavsiyalar berishi lozim.

Mustaqil tayyorgarlik talabalarning asosiy mashg'ulotlar davomida egallagan bilimlarini mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumotlar olishda katta ahamiyatga ega. Bunda talabalar adabiyotlar bilan ishlashi, mutaqil ravishda elektron kutubxonalar yoki "Internet" tarmog'idan kerakli ma'lumotlarni izlab topishi, qurol-yarog' va texnikani o'rganishi mumkin. Talabalarning mustaqil tayyorgarligi rejali asosda, ma'lum o'quv maqsadlarini ko'zda tutgan holda va albatta, ofitser-o'qituvchi (komandir, instruktor) rahbarligi ostida o'tishi lozim[7].

2. Dala mashg'ulotlari: taktik mashg'ulotlar, saf mashg'ulotlari, parvozlar, o't ochish joylaridagi mashg'ulotlar; jangovar post, poligon, aerodrom, tankodrom, avtodrom, jangovar texnika parki va garajlar, muhandislik, kimyo, sport shaharchalaridagi mashg'ulotlar va boshqalar. Mashg'ulotlarni tashkil etishning bunday shakllari davomida egallangan nazariy bilimlar asosida amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi, talaba va guruhning amaliy tayyorgarligi amalga oshiriladi.

Dala mashg'ulotlari jarayonida talabalar qurol-yarog' va jangovar texnikadan foydalanish, har xil sharoitlarda va jangning turli ko'rinishlarida taktik usullar va harakatlarni bajarish yo'llarini egallaydilar.

Dalamashg'ulotlaridavomidadata'limnijangovarsharoitlarga yaqinlashtirish, guruh harakatlarida kerakli darajada jismoniy va ruhiy zo'rqiqlashga erishishni ta'minlash imkoni yaratiladi.

Dala mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish uslubiyoti o'quv mashg'ulotining mazmuni, maqsadiga bog'liq bo'ladi.

3. Mashqlar: jismoniy, saf tayyorgarligi, shtab mashqlari, radiomashqlar, boshqarish punktlaridagi mashqlar, ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash, "Xavf-xatar" ("Trevoga")

signali bo'yicha mashqlar va boshqalar.

Mashqlar maxsus belgilangan reja asosida dalada, jangovar postlarda, poligonda, o'q otish shaharchasida, boshqaruv punktlarida, maxsus jihozlangan sinflarda o'tkaziladi. Ular maxsus yoki kompleks bo'lishi mumkin. Mashqlar shaxsiy tarkibning umumiy va maxsus jangovar tayyorgarligini ta'minlash va takomillashtirish, bo'linmalar, ekipajlar, shtablar va bo'linmalar jangovar harakatini muvofiqlashtirish maqsadida o'tkaziladi.

4. Jangovar otish va raketa uchirish: yakka otish, raschyot va ekipaj tarkibida otish, artilleriya, havo, kema otishlari, jangovar raketalarni uchirish va shu kabilar.

Jangovar otish va raketa uchirish ta'limning o'ziga xos shakllaridan hisoblanadi. Ular bilan odatda ta'limning ma'lum bir bosqichi yakunlanadi. Ularni o'tkazishdan maqsad, bir tomondan talabalarning tayyorgarlik darajasini tekshirish bo'lsa, boshqa tomondan ularning hozirgi zamon jangisharoitida o'tochish ko'nikma va malakalarini yanada takomillashtirishdir. Shu bilan bir qatorda bunday shakldagi mashg'ulotlar paytida guruhlarining jangovar harakatlarining muvofiqligini ta'minlash va guruhning jangovar sharoitda harakat qilishi uchun ruhiy tayyorgarligini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

5. Qo'shin mashqlari: taktik, taktik-maxsus, qo'mondonlik va qo'mondonlik-shtab mashqlari, jangovar otish bilan taktik mashqlar.

Har xil turdagi mashqlar komandirlar, shtablar va qo'shinlar jangovar tayyorgarligining oliy shakli hisoblanadi. Ular bo'linmalar, qismlar, birlashmalar jangovar harakatlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash va ularning jangga amaliy va ruhiy tayyorlashdagi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mashqlar haqiqiy joyda, yilning, kun va tunning istalgan paytida o'tkaziladi. Mashqlarda ishtirok etadigan shaxsiy tarkib esa haqiqiy qurol va jangovar texnika bilan harakat qiladi. Taktik mashqlar davomida ta'limning asosini talabalarning jangovar sharoitga juda yaqin vaziyatlarda o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq amaliy masalalarni hal etish tashkil qiladi.

6. Harbiy o'yinlar: sikl-shtab harbiy o'yinlari (kompyuter dasturlari yordamida, xarita ustida o'tkaziladi). Bundan maqsad, guruhni boshqarishdagi muvofiqlikni ta'minlash, ofiserlarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, jangovar harakatlarni amalga oshirish bo'yicha nazariy xulosalarini amalda tekshirishdan iboratdir.

Harbiy o'yinlar davomida ta'lim oluvchilar o'zaro bog'liq taktik vaziyatlar bo'yicha qarorlar qabul qiladilar va o'z qarorlarini bayon qiladilar, jangovar buyruqlar va ko'rsatmalar beradilar, tezkor taktik hisoblarni bajaradilar, turli jangovar hujjatlarni ishlab chiqadilar. Bunda ta'lim oluvchilarning faoliyati yuzaga kelgan vaziyat, qo'yilgan jangovar vazifa, ajratilgan vaqt va o'zlarining vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

II. Xizmat-rejali tashkiliy shakllar.

Park kunlari, park-xo'jalik kunlari, texnikani mavsumiy foydalanishga tayyorlash, reglament ishlari.

Mashg'ulotlarning yuqorida sanab o'tilgan turlari jangovar texnika va qurollarni doimiy jangovar shay holda saqlash, guruhning texnik tayyorgarligini amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir. Bunday mashg'ulotlar davomida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi rahbarligida qurol - yarog', jangovar texnikaga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, sozlash ishlarini bajarish vaqtida egallangan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish bo'yicha faol harakat qiladilar.

III. Rejadan, darsdan tashqari mashg'ulotlar.

Texnik to'garaklar, fan to'garaklari, ilg'or tajriba maktabi, konkurslar, olimpiadalar, mavzuli kechalar, kitobxonlik kechalari, kinolektoriylar, davra suhbatlari, ekskursiyalar va boshqalar.

Bunday mashg'ulotlar guruhning bilimi, ko'nikmasi va malakalarini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Shunday qilib, harbiy-pedagogik jarayon – o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab, ko'p qirrali, rivojlanuvchan jarayon hisoblanib, u talabalarni va guruhlarini

Vatanni qurolli himoya qilish, hozirgi zamon urushi sharoitida jangovar harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishga tayyorlash bilan bog'liq aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgandir. Harbiy-pedagogik jarayonning muhim xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, talabalar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar, nazariy bilim, tushunchalar va qoidalar tizimi ularning kundalik xizmat faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, harbiy-pedagogik jarayon talabalarning xizmat faoliyati bilan chambarchas bog'liq ravishda amalga oshiriladi va yaqqol ko'rinib turuvchi amaliy mazmunga egadir. Ta'lim oluvchi mashg'ulotlar jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini jangovar navbatchilikni o'tash, turli xizmat vazifalarini bajarish vaqtida qo'llaydi. Bu, albatta, bir tomondan bilim, ko'nikma va malakalarning puxta bo'lishini talab qilsa, boshqa tomondan ularning mustahkamlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya.-T:Universitet, 2002.-B.137.
Raximov F.B. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari Darslik.-B.;Umid, 2022.-151 b.
Abduqodirov A.S., Ahmedov G'. Harbiy xizmat axloqi. Qo'llanma Sharq nashriyoti Toshkent 2007 y.
Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya. O'quv qo'llanma T.;Fan, 2004.-123 b.
Satib-Aldiyev A., Karimjonov A. «Harbiy pedagogika» nashriyoti, TDPU Toshkent 2005 y.
Nazarov T.T Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar Xalqaro ilmiy-metodik jurnal.-B; 2023-yil №7. 219-bet.
Nazarov T.T "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnal.-B; 2023-yil №2(4). 42-bet.

O'QUVCHI YOSHLAR DALARDA MAFKURAVIY-G'OYAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Nu'monova Hushnoza Shuxrat qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistri

Annotatsiya: So'nggi yillarda ijtimoiy mazmundagi ko'plab adabiyotlarda mafkuraviy-g'oyaviy kurashlar, ularning mohiyati, mafkuraviy-g'oyaviy kurashlar jarayonida bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarni ajratib olish, vayronkor g'oyalarga qarshi keskin turish masalalariga oid qarashlar o'z ifodasini topmoqda. Bu muammo falsafiy, pedagogik, psixologik hamda sotsiologik bahs-munozaralar uchun asosiy mavzu bo'lib qolmoqda. Xalqaro maydonda ro'y berayotgan voqealar, O'zbekiston Respublikasi hududida turli diniy oqim yoki guruhlar tomonidan uyushtirilayotgan "g'oyaviy kurash" harakatlari yoshlarni ularning ortidan ergashishga undamoqda. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida mafkuraviy-g'oyaviy immunitetni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish, omillarini aniqlash orqali ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va uni tadbiq etish borasidagi fikrlar beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi hududida, mafkuraviy-g'oyaviy kurashlar, o'quvchi yoshlardalarda, ro'y berayotgan voqealar, g'oyaviy kurash, mafkuraviy-g'oyaviy immunitetni shakllantirish.

THE SOCIO-PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF FORMING IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUNG STUDENTS

Nu'monova Hushnoza

Shahrisabz State Pedagogical Institute, 1st year master

Abstract: In recent years, many social literatures have expressed views on the issues of ideological and ideological struggles, their essence, the separation of constructive and destructive ideas in the process of ideological and ideological struggles, and the need to stand firmly against destructive ideas. This problem remains a major topic for philosophical, pedagogical, psychological, and sociological debates. The events taking place in the international arena, the «ideological struggle» movements organized by various religious movements or groups in the territory of the Republic of Uzbekistan are encouraging young people to follow them. The article provides ideas on studying the pedagogical conditions for the formation of ideological immunity in students of general secondary schools, identifying its factors, developing scientific and methodological recommendations and implementing them.

Key words: ideological and ideological struggles, events taking place in the territory of the Republic of Uzbekistan, ideological struggle, formation of ideological and ideological immunity among schoolchildren.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ

Нумонова Хушноза Шухратовна

Магистр 1-курса Шахрисабзского государственного педагогического института

Аннотация: В последние годы во многих общественных литературах высказываются мнения по вопросам идеологической и идеологической борьбы, ее сущности, разделения конструктивных и деструктивных идей в процессе идеологической и идеологической борьбы, необходимости решительного противостояния деструктивным идеям. Эта проблема остается важной темой философских, педагогических, психологических и социологических дискуссий. События, происходящие на международной арене, движения «идеологической борьбы», организуемые различными религиозными течениями или группами на территории

Республики Узбекистан, побуждают молодежь следовать за ними. В статье изложены идеи по изучению педагогических условий формирования идеологического иммунитета у учащихся общеобразовательных школ, выявлению его факторов, разработке научно-методических рекомендаций и их реализации.

Ключевые слова: идейно-идеологическая борьба, события, происходящие на территории Республики Узбекистан, идеологическая борьба, формирование идейно-идеологического иммунитета у школьников

Axborot vositalarining ijtimoiy hayotdagi roli ortib borar ekan, ulardan foydalanishning turli ko‘rinishlari yuzaga kelmoqda. Dastlab axborot vositalari turli mintaq va hududlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, voqea-hodisalar bilan jahon ommasini tanishtirishga xizmat qilgan bo‘lsa, endilikda ayrim oqim va siyosiy kuchlar ulardan mafkuraviy qurol sifatida foydalanishga urinmoqdalar. Binobarin, shaxs ongiga axborot (g‘oya) yordamida ta’sir etish uni bo‘ysundirish, ma’lum izga solishda eng samarali yo‘l sanaladi. Ayni vaqtda turli oqim va guruhlarining mafkuraviy tajovuzi kuchayib bormoqda. Yer sharining turli nuqtalarida turli mafkuraviy qarash va g‘oyaga ega kuchlar o‘rtasida kechayotgan kurashlar buning yaqqol dalilidir. “Insoniyatning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o‘zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo‘lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg‘otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o‘tishda o‘ziga qo‘shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo‘lgan milliy g‘oyani tayanch va suyanch deb biladi” [4, 71].

G‘oyaviy kurash – bu inson ruhiyatiga turli g‘oyalarni singdirish orqali unga kuchli ta’sir ko‘rsatish, uni boshqarish yo‘lida amalga oshirilayotgan harakatdir. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning jahonga yuz tutishi uning hududiga turli axborot oqimlarining kirib kelishi hamda ularning o‘zaro to‘qnashuvini yuzaga keltirdi.

Xalqaro maydon g‘oyaviy kurashlar poligoniga aylanayotgan bir vaqtda Respublika hududiga buzg‘unchi g‘oyalar kirib kelishining oldini olish mazmun jihatidan puxta, o‘ta ta’sirchan bo‘lgan milliy g‘oyani shakllantirishni talab etadi. Mustaqillik yillarida ana shu yo‘lda puxta asoslangan milliy istiqloq g‘oya va mafkurasi shakllantirildi. “Milliy istiqloq mafkurasining asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

-xalqimizning azaliy an‘analariga, udumlariga, ruhiyatiga, tiliga, diniga mos g‘oyalar asosida odamlar ongiga kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma’rifat tuyg‘ularini singdirish;

milliy istiqloq mafkurasi orqali xalqimizda o‘zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatida, ilg‘or davlatlar orasida teng huquqli va munosib o‘rin egallashga intilish hissini tarbiyalash;

-sog‘lom, ma’naviy boy komil avlodni shakllantirish” [5, 5].

Xalqaro maydonda ro‘y berayotgan voqealar, O‘zbekiston Respublikasi hududida turli diniy oqim yoki guruhlar tomonidan uyushtirilayotgan “g‘oyaviy kurash” harakatlari yoshlarni ularning ortidan ergashishga undamoqda. Shu sababli yoshlarni diniy oqimlar ta’siriga tushib qolishdan saqlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘lda ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish; ularning samaradorligini ta’minlash; bunda oila, uzluksiz ta’lim tizimi hamda jamoatchilik hamkorligiga erishish; yoshlarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

O‘ylash, fikrlash faqat insonlargagina xos bo‘lgan hodisa. Bu hodisa shaxsga ijtimoiy va moddiy borliqda kechayotgan jarayonlar mohiyatini tushunish imkoniyatini beradi. Shuningdek, fikrlash orqali o‘zining ijtimoiy hamda moddiy borliqqa bo‘lgan munosabatini tartibga soladi. Fikrlash shaxsga o‘z xatti-harakatlari, yurish-turishi, axloq-odobi, muomalasi, hayotiy intilishlarini taftish va tahlil qilish uchun ham sharoit yaratadi. Bu kabi taftish va tahlillarning natijasida ma’lum

qarorga kelinadi. O'z shaxsiyati va faoliyati yuzasidan qarorlar qabul qilishni o'z-o'zini baholash deya hisoblash ham mumkin. Har bir shaxs nafaqat o'z shaxsi va faoliyatini, shu bilan birga atrofdagilarning xatti-harakatlarini ham baholab boradi, baholash natijalarini ularning o'zlariga ham bildiradi. Bu holat ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishning muhim sharti sanaladi. Ijtimoiy sub'ektlarning real, ba'zan esa noreal borliq, insoniy munosabatlar borasidagi fikrlari mohiyatan bir-birini to'ldirib boradi. Muayyan masalalar bo'yicha alohida shaxslar fikrlarining o'zaro umumlashishi ma'lum hudud, mintaqa aholisi yoki jamiyat fuqarolari uchun ustuvor g'oyaning shakllanishi uchun asos bo'ladi. Fuqarolarning etnik xususiyatlari jamiyat uchun yetakchi, ustuvor ahamiyat kasb etuvchi g'oyaning milliy tusga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Mustaqillik yillarida milliy mafkurani shakllantirishga davlat ahamiyatga molik masalalardan biri sifatida e'tibor qaratildi. Darhaqiqat, milliy mafkura va uning ustuvor g'oyalarini shakllantirmay turib, O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elatlarning hayotiy maqsadlari, orzu-intilishlari hamda imkoniyatlarini yagona nuqtada to'plash mumkin emas. O'zbek xalqining ichki imkoniyatlari va intellektual salohiyatini bir nuqtada to'plash orqaligina milliy mustaqillikni mustahkamlash hamda chetdan bo'layotgan g'oyaviy kurashlarga munosib zarba berish mumkin.

Milliy istiqlool g'oyasi asoslari bilan yoshlarni tanishtirish orqali ular tomonidan milliy istiqlool g'oyalariga chuqur hurmat ko'rsatishga erishish buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetning shakllanishiga yordam beradi. Zero, milliy istiqlool g'oyasi o'zida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning eng oliy namunalarini aks ettira olgan. Buning uchun ta'lim muassasalari, shuningdek, oilalarda ham milliy istiqlool g'oyalari negizida aks etuvchi ezgu maqsadlarning mohiyatini ular ongiga singdirib borish lozim.

Milliy istiqlool g'oyasi va mafkura asoslarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda buzg'unchi, yot g'oyalarga nisbatan immunitetni shakllantiradi. G'oyaviy kurashlar keskinlashgan hamda yoshlarning ular ta'siriga tushish xavfi yanada kuchaygan mavjud sharoitda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida g'oyaviy immunitetni shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Sotsiolog Sh.Ro'ziev O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va ijtimoiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan mafkuraviy tahdidlar sifatida quyidagilarni keltiradi:

- Islom xalifaligini tiklashga intilish va Islom bayrog'i ostiga musulmon mamlakatlarni birlashtirish g'oyasi;

- yosh mustaqil davlatlarni yana ittifoqqa birlashtirishga intilish g'oyasi [6, 30].

Bu o'rinda muallif tomonidan ko'rsatilgan mafkuraviy tahdidlar sirasiga yana quyidagilarni kritish mumkin:

- iqtisodiy jihatdan rivojlanishda oldinda bo'lgan davlatlarning gegemonlikka intilishlari g'oyasi;

- turli millat va elatlarning milliy xususiyatlari, qadriyatlari, turmush tarzi, hayotiy intilishlari, madaniyatidan mahrum qilgan holda ularning "ommaviy madaniyat"ga bo'lgan qiziqishlarini oshirish g'oyasi;

- erkinlik g'oyasi negizida aks etuvchi axloqiy buzuvchilik, fikriy qullik, ma'naviy qashshoqlik, moddiylikka tobe bo'lish g'oyasi;

- egotsentrizm (xudbinlik, shuhratparastlik, faqat o'zini hamda shaxsiy manfaatlarni o'ylab yashash, boshqa narsani tan olmaslik) g'oyasi;

- bir guruh kimsalar tomonidan moddiy boylikka ega bo'lish maqsadida yoshlarni nosog'lom turmush kechirish (ichkilikbozlik, giyohvandlik, taksikomaniya, fohishabozlik, jinoyatchilik kabilar)ga undash g'oyasi;

- inson ongini egallash maqsadida unda hech bir zo'ravonliklarsiz muayyan narsaga nisbatan kuchli havasni uyg'otish, uni vasvasaga solish va yo'ldan og'dirish g'oyasi;

- demokratiya sifatida milliy turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga zid qarashlarni

singdirish g'oyasi.

Ushbu o'rinda shuni ham alohida qayd etish lozimki, mafkuraviy-g'oyaviy zo'ravonlikni amalga oshirayotgan kuchlar zamonaviy sharoitda shaxsni o'z ta'siriga olishning qurolli to'qnashuvlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan arzon usullaridan foydalanmoqdalar. O'z navbatida axborot urushlari qurolli to'qnashuvlardan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. N.Umarova o'z asarlarida axborot xavfsizligi to'g'risida so'z yuritir ekan, axborot urushlarining o'ziga xos jihatlari quyidagilar ekanligiga e'tiborni tortadi:

1) axborot urushlari ancha kamxarj bo'lib, qo'shinni saqlash hamda qurol-yarog' sotib olishni talab qilmaydi; AQSh Prezidentlaridan biri J.Karter bu xususida shunday deydi: "Targ'ibotga sarflangan 1 dollar qurollanishga sarflangan 10 dollardan samaraliroq";

2) axborot urushlari hech qanday chegarani tan olmaydi, zero, Internet, sun'iy yo'ldosh orqali aloqa, ommaviy axborot vositalari hukmronlik qilayotgan bugungi dunyoda axborotni bojxona ko'rigidan o'tkazib, saragini-sarakka, puchagini-puchakka ajratishning iloji yo'q;

3) ushbu urushda raqib jismonan yo'q qilinmaydi, balki uni o'ziga ma'nan bo'ysundirish maqsadi ko'zlanadi; axborot urushida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi;

4) moddiy zarar yetkazilgan binolarni qayta tiklash, iqtisodiyotni yo'lga olib olish mumkin, biroq uning mafkuraviy, ma'naviy, ruhiy zarari beqiyos;

5) axborot urushi sharoitida milliy turmush tarzi, milliy ma'naviy-axloqiy qarashlar hamda qadriyatlarga barham berish, millatlarning o'ziga xosligini "tekislab" yo'qotib yuborish, dunyodagi madaniy xilma-xillikka barham berish, ma'naviyatni qoliplashtirish asosiy maqsad qilib belgilanadi;

6) axborot globallashuvi sharoitida milliy davlatlar suverenitetining zaiflashuvi va yemirilishi, ularning qaram bo'lishi tezlashadi;

7) qurolli to'qnashuvlarda kim tomonidan kimni bosib olinayotganligi yaqqol ayon bo'lardi, axborot urushlari chog'ida esa gegemonlikka intilayotgan sub'ektning kimligini aniq ko'rish mumkin emas [7, 12-19].

Xo'sh, "g'oyaviy immunitet" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi? Yoshlar, shu jumladan, o'quvchilarda g'oyaviy immunitet qanday shakllantiriladi? Bu jarayonda nimalarga ahamiyat qaratilishi zarur?

"Immunitet" tushunchasining tub asosi lotincha "immunitas" bo'lib, uning ma'nosi "biror narsadan xalos etish, ozod bo'lish" demakdir. Bu tushuncha tibbiyot sohasida keng qo'llaniladi va organizmning turli kasalliklardan o'zini o'zi himoyalash jarayonini anglatishga xizmat qiladi.

Lug'aviy nuqtai nazardan "g'oyaviy immunitet" tushunchasi esa inson organizmning o'zida salbiy mazmunni ifoda etuvchi g'oyalarga qarshilikni, ularning ta'siriga tushib qolishdan saqlanishni, ma'naviy-axloqiy e'tiqodga egalikni ifodalaydi. Pedagogik jihatdan mazkur tushunchani "muayyan shaxs yoki jamiyatga xos ma'naviy-axloqiy sifatlardan biri bo'lib, eng oliy insoniy qadriyatlarni tan olish, faqat ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi va insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi qarashlarga egalik" tarzida ta'riflash mumkin.

G'oyaviy immunitet darajasi ma'lum bir shaxsda yoki ijtimoiy guruhda o'ziga xos bo'lgan, qat'iy, barqaror, sog'lom mafkuraviy qarashning shakllanganligi, ma'lum mafkura tamoyillarini ular tomonidan o'zlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyati va yashash tarzining mezonlariga aylantirilganligi bilan ifodalanadi. Shaxsning insoniylikka yot bo'lgan, turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarga berilmasligida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning ma'naviy-ruhiy holatida bo'shliq kuzatilmaydi, chunki, mafkura mohiyatini o'zida aks ettirgan sog'lom g'oyalar tizimi uning dunyoqarashidan mustahkam o'rin olgan bo'ladi [8, 198].

Pedagogik nuqtai nazardan "immunitet" tushunchasi salbiy ijtimoiy hamda biologik omillarga qarshilik ko'rsata olish, kurashish, shuningdek, ularning ta'siriga tushib qolmaslikning uddasidan chiqishni anglatadi. Mafkuraviy-g'oyaviy immunitetga egalik esa shaxsda milliy mafkuraviy

qarashlar, milliy xususiyatlar, turmush tarzi, qadriyatlar va madaniyat g'oyalariga zid, o'zida axloqsizlik, ma'naviy buzqlik, buzg'unchilik, shafqatsizlik hamda xudbinlikni targ'ib etuvchi vayronkor, yot g'oyalarga qarshi tura olish, kurashish, ularning ta'siriga berilmaslik layoqatining muayyan darajada shakllanganligini ifodalaydi.

G'oyaviy kurashlar, eng avvalo, yoshlar ongiga ta'sir etishga, ularni o'z ta'sir doirasiga olishga yo'naltiriladi. O'zida buzg'unchi, yot g'oyalarni ifoda etgan g'oyalarning yoshlar ongiga ta'sir etishi ularda quyidagi sifatlarning shakllanishiga zamin yaratadi:

Itoaggo'yliy, tobelik.

Mustaqil fikrga ega bo'lmaslik.

Vaziyatni baholay olmaslik va mohiyatini tushunib yetmaslik.

Muqaddas sanalgan qadriyatlardan voz kechish.

Yaqinlariga nisbatan befarqlik, ularning hayoti uchun mas'uliyatni zimmasiga ola bilmaslik.

Ekstremistik yoki ma'naviy buzg'unchilik asoslariga ega g'oyalarga so'zsiz ergashish.

7. Insoniyat tomonidan asrlar davomida qoralanib kelgan xatti-harakatlar (Vatanga xiyonat, sotqinlik, odam o'ldirish, o'zgalarga qurol o'qtalish, ko'r-ko'rona manfur g'oyalarga ergashish va boshqalar)ni sodir etish.

Globallashuv jarayonida G'arb madaniyati g'oyalariga asoslangan "ommaviy madaniyat"ning O'zbekiston hududida ham keng targ'ib qilinayotganligi milliy meros va qadriyatlarga nisbatan tahdidni kuchaytirmoqda. "Dunyo miqyosida kuzatilayotgan va integratsiya jarayonlarida o'z ifodasini topayotgan globallashuv inson hayotining barcha sohalariga dahl qila boshladi. ... Globallashuv jarayonlari dunyo qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda: geosiyosat ta'sir doiralari qayta taqsimlanmoqda; G'arb madaniyati insoniyatga hammabop va ilg'or madaniyat sifatida taqdim qilinmoqda va zimdan g'arblashtirish siyosati amalga oshirilmoqda; kishilar ongiga ta'sir ko'rsatish daromadli biznesga aylantirilmoqda" [7, 4].

Yoshlarni ma'naviy qashshoqlikka undovchi harakatlarning oldini olish dolzarb ahamiyatga ega. Badiiy-g'oyaviy jihatdan saviyasi past, faqat maishiy hayotni namoyish etishga asoslangan, hashamatli turmush kechirish asosiy maqsadiga aylangan qahramonlar hayotining ijobiy tarbiyaviy ta'siri nihoyatda past kinofilmlarning suratga olinishi, so'zlarida biror bir mantiq bo'lmagan, shunchaki qofiyali so'zlar tizimidan iborat qo'shiqlarning yaratilishi, bu ham yetmagandek, san'atning ilmiy asoslari borasida bilimlarga ega bo'lmagan, ijrochilik mahorati va iqtidori bo'lmagan yoshlarning "san'atkor" sifatida paydo bo'lishlari, uch-to'rt oy o'tmay ularning zo'rlik bilan "o'zbek estradasining yorqin yulduzi"ga aylantirilishi asrlar davomida shakllantirib kelingan milliy madaniyatning kushandasi bo'lib qolmoqda.

Estetik tarbiyasini samarali, to'g'ri tashkil etish asosida yoshlar o'rtasida haqiqiy san'at asarlarining targ'ib etilishiga erishish, ularda kuchli estetik didni tarbiyalash. Yoshlarning san'atga mehr qo'yishlariga erishish ularning hissiy bo'lib voyaga yetishlarining oldini oladi. San'at asarlari bilan yaqindan tanishish, ularning mohiyatini chuqur anglash ularda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Asar qahramonlarining hayoti bilan tanishish, ularning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari, ruhiy holatlarini badiiy obrazlar orqali anglash yoshlarda atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, oqibat, g'amxo'rlik, do'stlik va o'rtoqlik xislatlarining shakllanishiga yordam beradi. San'atga mehr qo'yish asosida shakllangan badiiy did yoshlarga ijtimoiy voqea-hodisalarning mohiyatini teran anglashga, yaxshilik va yomonlikni farqlash olishga imkon yaratadi. San'atga yaqin bo'lgan inson o'zgalarga nisbatan yomonlik qilmaydi, ularning hayotiga xavf solmaydi, aksincha, ular bilan do'stona, samimiy munosabatda bo'ladi.

Yoshlar tarbiyasini tashkil etishda ularning bo'sh vaqtlarini to'g'ri uyushtirish, mehnat faoliyati va dam olish o'rtasida o'zaro mutanosiblikni qaror toptirish alohida ahamiyatga ega. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini ommaviy tadbirlarni uyushtirish asosida o'tkazilishi tarbiya samaradorligini yanada oshiradi. Tadbirlarni uyushtirishda yoshlarning xohish-istaklari, ehtiyojlarini inobatga olish yanada muhimdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish muammosining maxsus tadqiq etilishi mazkur maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali kechishini ta'minlash bilan birga, uning mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv va tarbiyaviy faoliyati negizida namoyon bo'luvchi imkoniyatlarni o'rganish, eng maqbul shakl, metod va vositalarni aniqlash, shuningdek, muayyan muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradi. Qolaversa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo'lida olib borilayotgan pedagogik faoliyatning nazariy va amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi uchun sharoit yaratadi. Shuningdek, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakatning samarali kechishi, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq shaxslarni tarbiyalash hamda milliy mustaqillikni yanada mustahkamlanishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning o'quvchilar o'rtasida milliy istiqlol g'oyalarini samarali targ'ib etish, ularda mazkur g'oya mazmunida ifoda etilayotgan qarashlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish, Vatan ravnaqi va yurt farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qiluvchi barkamol shaxsni tarbiyalashlarida muhim manbaga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Shunday qilib, o'quvchilarning g'oyaviy kurashlar va ularning mohiyati to'g'risidagi tushunchalarga egaliklari muayyan darajada ularda g'oyaviy immunitet shakllanganligidan dalolat beradi. Dastlabki o'rganish natijalari o'quvchilarning g'oyaviy kurash va uning mohiyati haqidagi bilimlarni yetarlicha o'zlashtirmaganliklarini ko'rsatdi. Buning sababi o'rganilganda o'quvchilarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish yo'lida muayyan muammolar mavjudligi aniqlandi. Mavjud muammolarning hal etilishi pedagogik tavsiyalarning ishlab chiqilishini taqozo etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни 2020.

3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон 2016.

4. Каримов И. А. Юксак маънасиёт – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 173 б.

5. Жўраев Н. Ғоявий иммунитет ёки маънавий халоскорлик туйғуси. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 64 б.

6. Рўзиев Ш. Мафкуравий иммунитет манбалари. – Т.: А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 71 б.

7. Умарова Н. Ахборот хавфсизлиги: муаммо ва ечимлар. – Т.: “Akademiya”, 2008. – 31 б.

8. Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2004. – 383 б.

BOLALAR VA O'SMIRLAR ORASIDA YUQUMLI KASALLIKLARNING EPIDEMIOLOGIK KO'RSATKICHLARI

Nuriddinov Axmad Muxammadiyevich

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti Samarqand davlat tibbiy universiteti Yuqumli
kadalliklar va epidemiologiya kafedrası*

Annotatsiya: Bolalar va o'smirlardagi yuqumli kasalliklarning epidemiologik belgilari, ularning tarqalishiga yordam beruvchi omillar va profilaktika strategiyalari ushbu maqolaning asosiy mavzulari hisoblanadi. Tadqiqotda eng keng tarqalgan yuqumli kasalliklar toifalari, ularning yosh guruhlari bo'yicha tarqalishi va oxirgi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali mavsumiy xususiyatlar aniqlandi. Bundan tashqari, sog'liqni saqlash tizimining profilaktika tashabbuslari samaradorligi baholandi. Shuningdek, maqolada bolalar va o'smirlar salomatligini asrash, ularni yuqumli kasalliklardan asrash, epidemiologik vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: bolalar, o'smirlar, sog'liqni saqlash, statistika, mavsumiylik, profilaktika, tarqalish omillari va epidemiologik ko'rsatkichlar.

ЭПИДЕМИОЛОГИЯ ИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ СРЕДИ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ

Нуриддинов Ахмад Мухаммадиевич

*Самаркандский государственный медицинский университет Самаркандский
государственный медицинский университет Кафедра инфекционных болезней и
эпидемиологии*

Аннотация: Основными темами статьи являются эпидемиологическая характеристика инфекционных заболеваний у детей и подростков, факторы, способствующие их распространению, и стратегии профилактики. В ходе исследования были выявлены наиболее распространенные категории инфекционных заболеваний, их распределение по возрастным группам и сезонные особенности путем анализа последних данных. Кроме того, была оценена эффективность профилактических инициатив системы здравоохранения. В статье также содержатся предложения и рекомендации по сохранению здоровья детей и подростков, защите их от инфекционных заболеваний, стабилизации эпидемиологической ситуации.

Ключевые слова: дети, подростки, здоровье, статистика, сезонность, профилактика, факторы распространенности и эпидемиологические показатели.

EPIDEMIOLOGY INDICATORS OF INFECTIOUS DISEASES AMONG CHILDREN AND ADOLESCENTS

Nuriddinov Akhmad Mukhammadiyevich

*Samarkand State Medical University Samarkand State Medical University Department of
Infectious Diseases and Epidemiology*

Annotation: Epidemiological signs of infectious diseases in children and adolescents, factors contributing to their spread and prevention strategies are the main topics of this article. The study identified the most common categories of infectious diseases, their distribution by age groups, and seasonal characteristics by analyzing the latest data. In addition, the effectiveness of preventive initiatives of the health system was assessed. The article also contains proposals and recommendations for protecting the health of children and adolescents, protecting them from infectious diseases, and stabilizing the epidemiological situation.

Keywords: children, adolescents, health care, statistics, seasonality, prevention, spread factors and epidemiological indicators.

KIRISH. Bolalar va o'smirlar sog'liqni saqlash tizimining asosiy yo'nalishi hisoblanadi, chunki yuqumli kasalliklar ularning rivojlanishi va sog'lig'iga zararli ta'sir ko'rsatadi. Ularning immun tizimi hali ham rivojlanayotganligi sababli, bu yoshdagi odamlar turli yuqumli infektsiyalarga ayniqsa zaifdir. Bundan tashqari, bolalar va o'smirlar kundalik hayotida ijtimoiy va jismoniy o'zgarishlarga ko'proq moyil bo'lib, bu kasallikning tarqalishiga bevosita ta'sir qiladi. Qisqa muddatli va uzoq muddatli zararli ta'sirlar, ayniqsa jismoniy va ruhiy salomatlik rivojlanishiga yuqumli infektsiyalar sabab bo'lishi mumkin. Ko'pgina yuqumli kasalliklar faqat qisqa muddatli jismoniy nogironlik bilan yakunlangan bo'lsa-da, ba'zilar, masalan, rotavirus infektsiyasi va qizamiq, bolalar va o'smirlar uchun uzoq muddatli sog'liq muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Ko'pgina ijtimoiy va ekologik sharoitlar bolalar va o'smirlarning kasalliklarga moyilligini va rivojlanish xavfini yanada oshiradigan omillar bilan bog'liq. Kasallikning yuqishiga aholining turmush tarzi, shahar va qishloq joylari, sanitariya-gigiyena sharoitlari, oziq-ovqat tayyorlash va saqlash usullari, tibbiy muassasalardan foydalanish imkoniyati kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, maktablardagi gigiyenik va epidemiologik sharoit, ota-onalarning tibbiy bilimlari, bolalar va o'smirlarning sevimli mashg'ulotlari kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida aytib o'tilgan elementlarni hisobga olgan holda, yuqumli kasalliklarning tarqalishini, shuningdek ularning vaqt, joylashuv va yosh guruhlariga ta'sirini o'lchash uchun epidemiologik ko'rsatkichlar juda muhimdir.

Statistika shuni ko'rsatadiki, bolalar va o'smirlar orasida gripp, rotavirus infektsiyalari, o'tkir respirator virusli infektsiyalar, bolalar travmalari va boshqa bir qator yuqumli kasalliklar eng ko'p tarqalgan. Atrof-muhit omillari, turmush sharoiti, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, tibbiy yordam ko'rsatishning yetarli darajada yo'qligi, profilaktika chora-tadbirlarining yo'qligi bu kasalliklarning tarqalishiga bog'liq. Bolalar va o'smirlardagi yuqumli kasalliklarning epidemiologik ko'rsatkichlari tahlili bilan birga kasallikning sabablari, birlamchi xavf omillari va kasallikning yuqish xususiyatlari batafsil yoritilgan. Profilaktika tadbirlarining samaradorligi, bolalar salomatligini muhofaza qilishda davlat va tibbiyot tizimlarining o'zni ham hisobga olinmoqda. Bu jarayon ilg'or texnologiyalar, tibbiyot va ta'lim sohasidagi yangi usullar, sog'liqni saqlash choralari va profilaktika tashabbuslarining ahamiyatini qamrab oladi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqot ob'ekti: 2020–2023 yillar davomida Toshkent shahri, Samarqand viloyati va Buxoro viloyatida parvarish qilinayotgan 5000 nafar bolalar va o'smirlar (0–18 yoshdagi) turli davlat va xususiy tibbiyot muassasalarida davolandi. Bu guruhda 2500 nafar bola va 2500 nafar o'smir (14–18 yosh) bor. Tadqiqotda ishtirok etgan bolalar va o'smirlar orasida turli yuqumli kasalliklar geografik va ijtimoiy jihatdan qanday tarqalishiga e'tibor qaratildi.

Epidemiologik ma'lumotlarni to'plash: Kasalliklar ro'yxati: Tadqiqotda bolalar va o'smirlarga ta'sir qiluvchi eng keng tarqalgan yuqumli kasalliklar ko'rib chiqildi.

Bular quyidagilardan iborat: o'tkir respirator virusli infektsiyalar (ARVI) bilan bir qatorda, gripp bolalar va o'smirlar orasida keng tarqalgan kasallik bo'lib, kuz va qish oylarida kasallanishlar har yili sezilarli darajada oshadi.

Rotavirus infektsiyasi: Bu kasallik birinchi navbatda bolalarga, ayniqsa 0-5 yoshdagi bolalarga ta'sir qiladi. Suvchechak yuqumli kasallik bo'lib, asosan yozda tarqaladi va o'smirlar va ba'zan bolalarga ta'sir qiladi. So'nggi yillarda emlash tashabbuslari 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar orasida keng tarqalgan kasallik bo'lgan qizamiqning tarqalishini sezilarli darajada kamaytirdi. O'smirlar orasida eng ko'p uchraydigan yuqumli kasallik dizenteriya bo'lib, antisaniitariya va gigiyenik talablarga javob bermaydigan muhit sabab bo'ladi.

Statistik ma'lumotlar: 2020–2023 yillar uchun yuqumli kasalliklar statistikasi sog'liqni saqlash

muassasalari hisobotlari asosida o'rganildi. Jumladan, Toshkent shahrida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida gripp tarqalishi 30 foizga, rotavirus infeksiyasi esa 15 foizga oshgan. Kasallikning tarqalish dinamikasi kuzatilib, ushbu ma'lumotlar sog'liqni saqlash muassasalari hisobotlari asosida to'plangan.

Epidemiologiyani tahlil qilish:

Kasallikning tarqalish dinamikasi: Yig'ilgan ma'lumotlardan foydalangan holda kasallikning tarqalish dinamikasi o'rganildi. Quyida ushbu jarayonning ba'zi xususiyatlari keltirilgan:

Mavsumiy: Immunitetning zaiflashishi va ijtimoiy siljishlar tufayli gripp va ARVI kasalliklari kuz va qishda, kasallikning yuqori darajasi qayd etilganda ko'proq tarqalgan. Aksincha, rotavirus infeksiyasi butun yil davomida ta'sir ko'rsatdi va yozda faqat bir oz kamaydi.

Yoshlarning taqsimlanishi: ARVI va rotavirus infeksiyalari 0-5 yoshdagi bolalarda eng ko'p tarqalgan. 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar suvchechak va grippga moyil. Gripp, qizamiq va dizenteriya infeksiyalari 11 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlarda ko'proq uchraydi.

Kasallik-yosh guruhi o'rtasidagi munosabatlar: Yosh guruhlari bo'yicha kasalliklarning tarqalishi statistik tahlil orqali baholandi. Bu har bir holat uchun odatiy yosh qavsni aniqlash imkonini berdi. Masalan, qizamiq ko'proq 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlarda uchraydi, rotavirus infeksiyasi esa birinchi navbatda 0 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'sir qiladi.

Profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini baholash: Emlash: 2021-yil mart oyida qizamiqqa qarshi emlash kampaniyasida ming nafar bola va o'smir ishtirok etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bu ko'proq samara bermagan. 45 qizamiq bilan kasallanganlar soni.

Sog'liqni saqlash dasturlari: 2022 yilda odamlarni shaxsiy gigiena bo'yicha o'qitish va sanitariya-epidemiologiya nazoratini o'tkazish bo'yicha kampaniyalar kasalliklar tarqalishini to'xtatishga yordam berdi. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu harakatlardan keyin holatlar 30% ga kamaygan. Ta'lim tashabbuslari sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilishni kafolatlashdan tashqari, ota-onalar va maktab o'rtasidagi samarali muloqotni ham rivojlantirdi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: Microsoft Excel va SPSS (Ijtimoiy fanlar uchun statistik paket) ma'lumotlarni to'plash va tekshirish uchun ishlatilgan. Tadqiqotning statistik ma'lumotlari quyidagi usullardan foydalangan holda tahlil qilindi: Xi-kvadrat testi: Bu usul yuqumli kasalliklarning tarqalishiga ta'sir qiluvchi o'zgaruvchilarni aniqlash uchun ishlatilgan. Ushbu tadqiqot yosh guruhlari va kasalliklar o'rtasidagi bog'liqlikni baholashga yordam berdi.

Regression tahlil: Kasallikning tarqalishining statistik prognozini ishlab chiqish uchun regressiya tahlili o'tkazildi. U kasallikning tarqalish dinamikasini bashorat qilish va kasalliklarning kelajakda tarqalish ehtimolini aniqlash uchun ishlatilgan.

Dasturiy ta'minot va axborot tizimlari: Ma'lumotlar Microsoft Excel va SPSS (Ijtimoiy fanlar uchun statistik paket) yordamida yig'ildi va tahlil qilindi. Kasallikning tarqalish dinamikasini tasvirlash uchun grafik va diagrammalar ishlatilgan. Yuqori darajadagi statistik ishonchlilikni ta'minlash uchun natijalar kompyuter yordamidagi murakkab statistik usullardan foydalangan holda ham tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bolalar va o'smirlar o'rtasida yuqumli kasalliklarning tarqalishini o'rganish uchun to'plangan ma'lumotlardan quyidagi xulosalar olingan:

Yosh guruhlari va kasalliklarning tarqalishini tekshirish: Kuz va qish mavsumida 0-18 yoshdagi bolalar va o'smirlar gripp va ARVI kasalliklariga ko'proq chalingan. 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar grippning yuqori darajasiga ega edi. 0-5 yoshdagi bolalar rotavirus bilan kasallanish ehtimoli ko'proq. Yozda suvchechak o'smirlar orasida keng tarqalgan. 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar qizamiq bilan kasallangan. O'smir dizenteriyasi gigiyenik va sanitariya muhitiga ko'proq bog'liq edi.

Mavsumiy xususiyatlar va tarqalish dinamikasi: Kuz va qish mavsumida gripp va ARVI ning yuqori sur'atlari kuzatildi. Rotavirus infeksiyalari butun yil davomida mavjud bo'lsa-da, ular bahor va yozda ko'proq uchraydi.

Profilaktik chora-tadbirlar: 2021 yil mart oyida qizamiqga qarshi emlash kampaniyasi kasallanishning 45% ga kamayishiga yordam berdi. Sanitariya-gigiyena sohasidagi tashabbuslar natijasida kasallik 2022 yilda 30 foizga kamaydi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari bolalar va o'smirlar o'rtasida yuqumli kasalliklarning yuqishi bo'yicha bir nechta muhim ajratmalar va tahlillarga turtki bo'ldi:

Mavsumiy kasalliklarning ko'pligi: Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va mavsumiy o'zgarishlar tufayli gripp va ARVI kasalliklari kuz va qishda eng ko'p uchraydi. Rotavirus infeksiyalari yilning istalgan vaqtida sodir bo'lishi mumkin bo'lsa ham, ular bahor va yozda ko'proq tarqalgan. Ushbu kasalliklarning mavsumiyligini hisobga olgan holda profilaktika strategiyasini takomillashtirish zarur.

Profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi: Emlashlar va sanitariya-gigiyena ma'rifatlari kasalliklar tarqalishini to'xtatishda muvaffaqiyat qozonganligi e'tiborga loyiqdir. Qizamiqga qarshi emlash kampaniyasi tufayli kasallanish 45 foizga kamaydi. Bundan tashqari, gigiyena va sanitariya ta'limi tashabbuslari kasallikning yuqishini 30% ga kamaytirdi. Ushbu topilmalar profilaktika choralarining samarali bo'lishi uchun ular muntazam ravishda amalga oshirilishi kerakligini ko'rsatadi.

Yosh guruhlari bo'yicha kasalliklar taqsimoti: Kasalliklarning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishida o'zgarishlar kuzatildi. Gripp va ARVI 6-10 yoshdagi bolalar va o'smirlarda ko'proq tarqalgan bo'lsa, rotavirus infeksiyasi 0-5 yoshli bolalarda ko'proq tarqalgan. Bu turli yosh guruhlari uchun alohida tibbiy va profilaktika choralari zarurligini ta'kidlaydi.

Sanitariya va gigiyena holatlari: Dizenteriya kabi kasalliklarning tarqalishiga sanitariya va gigiyena sharoitlari sezilarli darajada ta'sir qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy va ta'lim landshaftidagi o'zgarishlar, shuningdek, sanitariya boshqaruvi va sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash kasallikning tarqalishini to'xtatishga yordam beradi.

Kelgusi tadqiqotlar: Tadqiqot natijalari keyingi epidemiologik tekshiruvlar va profilaktika tadbirlari uchun asos sifatida ishlatiladi. Tibbiyot tizimining samaradorligi, ijtimoiy sharoit, yuqumli kasalliklarning rivojlanishi yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Natijalar va muhokamalarga ko'ra, bolalar va o'smirlar o'rtasida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish uchun tibbiyot tizimi va ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlash zarur.

Mazkur jadval bolalar va o'smirlar orasida uchraydigan asosiy yuqumli kasalliklar, ularning yosh toifasi va mavsumiy tarqalishini tizimli ko'rsatib beradi. Yuqumli kasalliklarning tarqalish xususiyatlarini epidemiologik jihatdan tahlil qilishda ushbu jadval muhim ahamiyat kasb etadi. Jadvalda:

Kasallik	Yosh guruhi	Mavsum	Maxsus holatlar
Gripp	6-10 yosh	Kuz-qish	Yuquori ko'rsatkichlar
ORVI	6-10 yosh	Kuz-qish	Yuquori ko'rsatkichlar
Rotavirus infeksiyasi	0-5 yosh	Bahor-yoz	Yil davomida ham uchraydi
Suvchecha	O'smirlar	Yoz	Keng tarqaladi
Qizamiq	6-14 yosh	Turli	Immunizat siya 45% kamaytirdi
Dizenteriy	O'smirlar	Turli	Sanitariya va gigiyena sharoitiga bog'liq

Bolalar va o'smirlar orasida yuqumli kasalliklarning tarqalishi

Ushbu ma'lumotlar orqali sog'liqni saqlash tizimida mavsumiy epidemiologik vaziyatga tayyorgarlik ko'rish, profilaktika va immunizatsiya tadbirlarini yosh va fasl xususiyatidan kelib chiqib tashkil etish imkonini beradi. Jadvaldan foydalanib, bolalar va o'smirlar orasida yuqumli kasalliklarning tarqalish dinamikasi, mavsumiy o'zgarishi hamda yosh guruhlariga qarab tarqalish tendensiyasini kuzatish mumkin. Bu esa sog'liqni saqlash muassasalari va epidemiologik xizmatlarga kasalliklarning oldini olish va samarali kurashish choralari belgilashda yordam beradi. Xulosa sifatida, jadval epidemiologik tahlil, kasalliklarning mavsumiy va yosh toifasi bo'yicha tarqalishini monitoring qilish, profilaktika tadbirlarini rejalashtirish va sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish uchun muhim manba hisoblanadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, kasallikning tarqalish dinamikasini, mavsumiy xususiyatlarini va yosh guruhlarini farqlarini aniqlash uchun ushbu tadqiqotda bolalar va o'smirlardagi yuqumli kasalliklarning epidemiologik ko'rsatkichlari o'rganildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kuz va qish mavsumi gripp, ARVI, rotavirus infeksiyasi, suvchechak, qizamiq va dizenteriya kabi yuqumli kasalliklar uchun ayniqsa keng tarqalgan. Muvaffaqiyatli profilaktika ishlari, jumladan, emlash va sanitariya-gigiyena bo'yicha ta'lim olish natijasida ushbu kasalliklarning kasallanish darajasi sezilarli darajada kamaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasallikning yuqishi yosh guruhlariga qarab o'zgarib turadi, rotavirus 0-5 yoshdagi bolalarda, gripp va suvchechak ko'proq bolalarda, 10-10 yoshda, bolalarda va 10-10 yoshda. Keng tarqalgan o'smirlar. Bu profilaktika va terapevtik strategiyalarni yoshga mos ravishda amalga oshirishni talab qiladi. Bundan tashqari, gigiyena va sanitariya sharoitlari hamda profilaktika choralarining muvaffaqiyati tufayli kasalliklarning tarqalishi sezilarli darajada sekinlashdi. Bu xulosalardan kelib chiqib, sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash va kelgusida yanada samarali profilaktika choralari ishlab chiqish zarur.

TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalari bolalar va o'smirlarda yuqumli infeksiyalarning oldini olish bo'yicha bir nechta foydali takliflarni ishlab chiqishga olib keldi. Avvalo, tez-tez va puxta emlash kampaniyalarini ishlab chiqish va keng jamoatchilik, xususan, ota-onalar va maktab xodimlariga emlashning ahamiyati haqida doimiy ravishda ma'lumot berish juda muhimdir. Mavsumiy kasalliklar epidemiyasi davrida sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish va profilaktika choralari kuchaytirish ayniqsa oqilona. Infeksiyalarni erta aniqlash va yuqtirishni to'xtatish uchun tibbiyot muassasalari epidemiologik nazorat va monitoring tizimini kuchaytirishi kerak. Aholi o'rtasida shaxsiy tozalik va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ta'lim muassasalarida tez-tez gigiyena mashg'ulotlarini o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Epidemiologik holatni hisobga olgan holda, tibbiyot mutaxassislarining zamonaviy kasalliklarni aniqlash va oldini olish usullarini egallashlari uchun malaka oshirish faoliyati bilan shug'ullanishlari tavsiya etiladi. Shu bilan birga, har bir yosh guruhiga moslashtirilgan profilaktika va salomatlikni mustahkamlash tashabbuslarini yaratish va amalga oshirish, bu yosh guruhlarini bo'yicha kasallikning yuqish xususiyatlarini hisobga olgan holda zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Muxammadiyevich N. A. Origin, Lifestyle, Development And Against Viruses And Bacteria That Endanger Our Life Struggle //Genius Repository. – 2023. – T. 24. – C. 16-21.

Muhammadiyevich N. A. et al. Fundamentals of ensuring health level and life activity safety of young children //journal of science, research and teaching. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 141-144.

Muxammadiyevich N. A., Muxiddinova M. G. Yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlar parvarishining umumiy qoidalari //tadqiqotlar. uz. – 2024. – T. 31. – №. 2. – C. 7-11.

Muhammadiyevich N. A., Kodirvich B. D. Patriotic Education as one of the Components Of National Security. Eurasian Scientific Herald 6, 88-90 [Электронный ресурс].

Qodirovich B. D. et al. Virusli gepatit a ning oldini olish va epidemiologiyasi //tadqiqotlar. uz. – 2024. – T. 33. – №. 1. – c. 94-97.

muhammadiyevich N. A. The role of hygiene in the prevention of illness and disease.

Кодирович Б. Д. Олий ва ўрта махсус таълим муассасаларида ҳарбий ватанпарварлик тарбиясини такомиллаштириш //Педагогика ва психологида иновациялар. – 2020. – Т. 5. – С. 102-107.

Muhamadievich N. A. Protection of Population Life Activities and Action in the Process of Emergencies Eurasian Research Bulletin, 17, 16–18 [Электронный ресурс].

Muxammadiyevich N. A. Ko 'k yo 'tal kasalligi bolalar orasida tarqalishi va unga qarshi chora tadbirlar //journal of international scientific research. – 2025. – Т. 2. – №. 3. – С. 49-53.

BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINING 4K KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALAR QO'LLANILISH ISTIQBOLLARI

Nurmurodova Munisa Azamat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo) ixtisosligi tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada kimyo fani bo'yicha pedagogik ta'lim olayotgan talabalar (bo'lajak o'qituvchilar)da 21-asr ta'limi uchun muhim bo'lgan 4K kompetensiyalar – kritik fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va kooperatsiya – ni shakllantirish va rivojlantirishda bulutli texnologiyalar imkoniyatlari o'rganiladi. Ushbu texnologiyalarning ta'limga integratsiyalashuvi, ayniqsa STEM yo'nalishidagi fanlar uchun, o'quvchilar va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirishga katta hissa qo'shishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: 4K kompetensiyalar, bulutli texnologiyalar, kimyo ta'limi, raqamli pedagogika, virtual laboratoriya, interaktiv muhit.

ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ 4К-КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ

Нурмуродова Муниса Азаматовна

Бухарский государственный педагогический институт докторант по специальности теория и методика воспитания и обучения (химия)

Аннотация: В статье рассматривается потенциал облачных технологий в формировании и развитии 4К-компетенций – критического мышления, креативности, коммуникации и сотрудничества, – важных для образования XXI века у студентов (будущих учителей), получающих педагогическое образование по химии. Подчеркивается, что интеграция этих технологий в образование, особенно в области STEM-предметов, будет в значительной степени способствовать повышению цифровой компетентности учащихся и преподавателей.

Ключевые слова: 4К-компетенции, облачные технологии, химическое образование, цифровая педагогика, виртуальная лаборатория, интерактивная среда.

PROSPECTS OF USING CLOUD TECHNOLOGIES IN DEVELOPING 4K COMPETENCES OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS

Nurmurodova Munisa Azamat qizi

Bukhara State Pedagogical Institute majoring in the theory and methodology of education and training (chemistry)

Annotation: This article examines the potential of cloud technologies in the formation and development of 4K competencies - critical thinking, creativity, communication and cooperation - important for 21st century education in students (future teachers) receiving pedagogical education in chemistry. It is emphasized that the integration of these technologies into education, especially for STEM subjects, will make a significant contribution to increasing the digital competence of students and teachers.

Keywords: 4K competencies, cloud technologies, chemistry education, digital pedagogy, virtual laboratory, interactive environment.


Kirish. Zamonaviy pedagogikada 4K kompetensiyalar – kritik fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va kooperatsiya – raqamli transformatsiyalashayotgan ta'lim tizimining tayanch elementlari hisoblanadi. Ayniqsa, kimyo fanini interaktiv, amaliy va muammoli ta'limga asoslangan

shaklda o'rgatishda bu kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, bulutli texnologiyalar (Cloud technologies) 4K kompetensiyalarni shakllantirishda samarali raqamli muhit yaratib beradi. Bulutli texnologiyalar bugungi kunda IT sohasining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu texnologiyalar biznes jarayonlarini optimallashtirish va foydalanuvchilarning kundalik ehtiyojlarini qondirishda samarali echim sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism

Bulutli texnologiyalar – bu ma'lumotlarni saqlash, uzatish va ulardan foydalanish imkonini beruvchi onlayn platformalardir. Bularga Google Workspace (Google Docs, Sheets, Classroom), Microsoft 365, Moodle, Zoom, Padlet, Miro, Canva kabi servislar kiradi. Bu platformalar talaba va o'qituvchi o'rtasida real vaqtli aloqa, hamkorlikda ishlash, muammoli vazifalarni hal etish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini individuallashtirish, differensial yondashuvni ta'minlash ham mumkin. So'nggi yillarda dunyo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar (OECD, UNESCO, World Bank Education Reports) bulutli texnologiyalarning o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilishga bo'lgan qiziqishi va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan.

Bulutli texnologiyalar turlari:



Bulutli texnologiyalar turlari:

1) Xizmat ko'rsatish darajalari bo'yicha:

IaaS (Infrastructure as a Service): Infratuzilma xizmat sifatida taqdim etiladi.

PaaS (Platform as a Service): Dasturiy platforma sifatida xizmatlar.

SaaS (Software as a Service): Dasturiy ta'minot xizmat sifatida taqdim etiladi.

2) Bulut modeli bo'yicha:

Jamoatchilik buluti (Public Cloud): Ommaviy xizmat ko'rsatadi va barcha foydalanuvchilar uchun ochiq.

Xususiy bulut (Private Cloud): Faqat bir tashkilot yoki kompaniya uchun maxsus.

Gibrid bulut (Hybrid Cloud): Jamoatchilik va xususiy bulutlar kombinatsiyasi.

3) Bulutli texnologiyalarning afzalliklari:

Moslashuvchanlik va kengayish: Bulutli resurslarni real vaqt rejimida oshirish yoki kamaytirish mumkin.

Narxning tejamkorligi: Tizimni xarid qilish yoki saqlash uchun katta kapital sarfini talab

qilmaydi.

Ishonchlilik va xavfsizlik: Ma'lumotlar bulut provayderlari tomonidan muhofazalanadi va zaxiralab boriladi.

Jahon bo'ylab kirish imkoniyati: Ma'lumotlar va xizmatlarga har qanday joydan, istalgan vaqtda ulanish.[1]

4K kompetensiyalar va bulutli texnologiyalar o'zaro bog'liqligi

4K Kompetensiya	Bulutli texnologiyalar yordamida rivojlanish shakli
Kritik fikrlash	Muammoli vazifalarni Google Docs yoki Padlet orqali tahlil qilish, virtual tajriba natijalarini baholash
Kreativlik	Canva, Miro, Prezi orqali kimyoviy moddalarning grafik tasvirini yaratish
Kommunikativlik	Zoom, Meet orqali ilmiy muhokama va taqdimotlar o'tkazish
Kooperatsiya	Google Drive, OneDrive orqali guruhli loyiha va hisobot tayyorlash

Kimyo fanida bulutli texnologiyalarning amaliy qo'llanilishi:

Bulutli texnologiyalar (cloud technologies) kimyo fanining o'qitish jarayonida interaktivlik, amaliyotga yaqinlik va individual yondashuv imkoniyatlarini oshiradi. Quyida ushbu texnologiyalarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha amaliy qo'llanilish shakllari yoritiladi[2]:

1. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiya muhiti

Bulutli platformalar asosida ishlab chiqilgan virtual laboratoriyalar talabalarga kimyoviy tajribalarni xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali shaklda bajarishga imkon beradi:

Labster, ChemCollective, PraxiLabs kabi platformalar murakkab eksperimentlarni

3D formatda simulyatsiya qilishga imkon beradi.

Talabalar harorat, konsentratsiya, vaqt kabi parametrlarni o'zgartirib, natijalarga nazariy tahlil beradi.

Simulyatsiya natijalari avtomatik ravishda baholanadi yoki elektron jurnalga saqlanadi.

2. Dars jarayonini interaktivlashtirish

Google Slides, PearDeck, Nearpod kabi vositalar orqali o'qituvchi taqdimot paytida real vaqtda savollar, testlar, tajriba videolarini birlashtirgan interaktiv darslarni tashkil qiladi.

Interfeys orqali talabalar javob beradi, natijalar vizualizatsiya qilinadi.

3. Grafik va model asosida tushuntirish

Kimyoviy reaksiyalarni Jamboard, Miro, Lucidchart kabi platformalarda grafik ko'rinishda ifodalash orqali murakkab jarayonlar tushunarli bo'ladi.

Molekulalar tuzilmasi, orbitallarning joylashuvi yoki reaksiyalar zanjiri interaktiv tarzda chiziladi.

4. Onlayn baholash va o'zaro fikr almashish

Google Forms, Quizizz, Mentimeter orqali talabalar bilim darajasi testlar asosida baholanadi.

Baholash natijalari avtomatik tahlil qilinib, grafik ko'rinishda qayta aloqa taqdim etiladi.

O'zaro baholash (peer assessment) vositalari orqali talabalar bir-birining ishlari haqida fikr bildiradi.

5. Ilmiy loyihalar va mustaqil tadqiqot

Talabalar Google Docs, Microsoft OneDrive, Dropbox Paper kabi vositalar yordamida ilmiy maqola, referat yoki loyiha ustida guruh bo'lib ishlaydi.

Birgalikda yozish, tahrir qilish, izoh qoldirish imkoniyati mavjud.

GitHub Education orqali kimyo dasturlari va Python asosidagi tahlil loyihalari yuritiladi (masalan, spektroskopik ma'lumotlar tahlili).

6. Portfoliolar va yutuqlar monitoringi

Har bir talaba o'z faoliyati, bajarilgan ishlar va yutuqlarini Google Sites, Notion, Canva orqali elektron portfolioga joylaydi.

Bu portfoliolar orqal o'qituvchi talabaning rivojlanish dinamikasini baholaydi.

7. Ijodiy va vizual loyihalar

Kimyo fanidagi tajribalar, laboratoriya uskunalari, xavfsizlik qoidalari, ekologik muammolar bo'yicha infografikalar, videodarslar tayyorlash uchun Canva, Adobe Spark, Powtoon xizmatlaridan foydalaniladi.

Kelajakda bulutli texnologiyalar asosida ta'lim muhitini shakllantirish orqali erishiladigan yutuqlar

1. Raqamli kompetensiyaga ega pedagoglarni tayyorlash

Pedagogik raqamli savodxonlik: Bulutli texnologiyalarni o'zlashtirgan o'qituvchilar Google Workspace, Microsoft Teams, Moodle kabi tizimlar orqali darslarni interaktiv o'tkazadi.

Innovatsion metodikalar: O'qituvchilar zamonaviy pedagogik yondashuvlar (flipped classroom, blended learning, project-based learning) bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Talabalar uchun shaxsiylashtirilgan va moslashtirilgan o'qitish imkoniyati

Har bir talabaning yutuq darajasi, o'zlashtirish sur'ati, mustaqil ishlash odatlari asosida mos dars kontenti taklif etiladi.

Bulutli tizimlar orqali talabaga avtomatik tahlil va qayta aloqa beriladi (adaptive learning).

3. Ta'lim jarayonida hamkorlik va kommunikatsiyani kuchaytirish

Real vaqtli hamkorlik: Talabalar guruhlarida bir vaqtda Google Docs, Jamboard kabi platformalarda birgalikda ishlaydi.

Global hamkorlik: Turli mamlakatdagi talabalar va o'qituvchilar bir loyiha doirasida ishlashi mumkin (masalan, eTwinning, Erasmus+ virtual exchange).

4. Ilmiy izlanishlar va innovatsion loyiha faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash

Talabalar va o'qituvchilar Google Scholar, Zotero, Overleaf kabi bulutli vositalar yordamida maqola yozish, bibliografiya yuritish, loyiha taqdimotlarini tayyorlash imkoniga ega.

Big data, AI, IoT texnologiyalari bilan integratsiyalashgan bulut tizimlari orqali ilmiy tahlil osonlashadi.

5. Ta'lim jarayonini ochiq va shaffofligini ta'minlash

Har bir talabaning darslarda ishtiroki, test natijalari, topshiriqlari elektron jurnal orqali ochiq yuritiladi.

Ota-onalar va ma'muriyat bulutli tizimlar orqali monitoring olib boradi.

6. Resurslardan samarali va tejamkor foydalanish

Tajriba laboratoriyalari, multimediyasi sinflari kabi qimmat infratuzilmalar o'rnini qisman virtual muhitlar egallaydi.

Mahalliy tarmoqlarga bog'liq bo'lmasdan, internet orqali istalgan joydan darsda ishtirok etish imkoniyati yaratiladi.

7. Favqulodda vaziyatlarda uzluksiz ta'limni ta'minlash

Pandemiya, tabiiy ofatlar yoki boshqa omillar ta'lim jarayonini to'xtatmasdan bulutli tizimlar yordamida davom ettirish imkonini beradi.

Hybrid va masofaviy ta'lim doimiy variantga aylanadi.

8. O'zlashtirish ko'rsatkichlari va motivatsiyani oshirish

Talaba o'zi tanlagan uslubda, o'zi belgilagan tempda o'qishga intiladi.

Gamifikatsiya, badge (raqamli mukofot), ballik tizimlar orqali motivatsiya kuchayadi.

Xulosa. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining 4K kompetensiyalarini shakllantirishda bulutli texnologiyalarni qo'llash ta'lim sifatini oshiradi. Kimyo fanining eksperimentalligi ushbu texnologiyalarni ayniqsa zarur qiladi. O'quv dasturlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilish, malakali o'qituvchilar tayyorlash va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish lozim. Kelajakda bulutli texnologiyalar asosida shakllanadigan ta'lim muhiti: an'anaviy darslar samaradorligini oshiradi, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga yo'naltiradi, raqamli avlodga mos kompetensiyalarni shakllantiradi va eng muhimi – har kimga, har joyda va har vaqtda o'rganish imkonini beradi. Kimyo fanini raqamlashtirish va bulutli texnologiyalarni integratsiyalash jarayoni talabanning fikrlash qobiliyati, eksperimentga tayyorligi, ilmiy nutq va hamkorlik ko'nikmalarini oshiradi. Bu esa raqobatbardosh o'qituvchilarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.E. To'liqinov. "Bulutli texnologiyalar". O'quv qo'llanma. 5350400-AKT sohasida kasb ta'limi bakalavriat ta'limi yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Toshkent-2020.

2. Джордж Риз. Облачные вычисления: Пер. с англ.-СПб.: БХВ-Петербург, 2011.-288 с.: ИСБН 978-5-9775-0630-4

3. Mishra, P., & Koehler, M. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge.

4. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing.

5. Labster, ChemCollective, PraxiLabs – virtual kimyo laboratoriyalari.

6. Google for Education (2023). Cloud-Based Collaboration Tools.

7. UNESCO (2022). Digital Learning Readiness Report.

8. European Commission (2023). DigCompEdu Framework.

9. World Bank (2021). Reimagining Education for the Digital Age.

10. M.A. Nurmurodova. Anorganik kimyo darslarida "4K" modelining kreativ fikrlash kompetensiyasidan foydalanish. "Pedagogik Mahorat" Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, N:3, 37- 40bet.

O'ZBEK MILLIY MADANIY MEROSIMIZNING YUKSALISHIDA BAXSHICHILIK SAN'ATI VA XALQ DOSTONLARINING O'RNI

Norqulov Farhod Toshturdiyevich
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Аннотация. Bugungi kunda baxshichilik san'atini kelajak avlodga asl holatida yetkazish, bu san'at turini yo'qolib ketmasligi, qilinayotgan ishlar to'g'risida fikrlar ilgari surilgan. Ushbu maqolada real stilistik fikrlar, o'quvchilar uchun tushunarli bo'lgan aniq va sodda uslubda aytib o'tilgan.

Shuningdek, unda millatning o'zini bilish, anglash, namoyon etish xislatlari, urinishlari, xalqning ming yillik hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan bo'lib, oddiyroq tilda aytadigan bo'lsak, xalq ijodini o'rganish bu –bevosita xalqning o'zini o'rganish ekanligi ta'kidlanadi.

Tayanch so'zlar: Baxshichilik, folklor, xalq dostonlari, YUNESKO, Reprezentativ, shoir, xalq og'zaki ijodi.

РОЛЬ ИСКУССТВА БАХШИЗМА И НАРОДНЫХ ЭПОСОВ В ПОДЪЕМЕ УЗБЕКСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

Норкулов Фархад Таштурдиевич
Независимый исследователь Каршинского государственного университета

Аннотация. Сегодня выдвигаются идеи о передаче искусства бахшизма будущему поколению в первозданном виде, о том, чтобы этот вид искусства не исчез, о том, что делается. В этой статье реалистичные стилистические соображения изложены в ясном и простом стиле, понятном читателям. В нем также отражены черты, попытки познания, осмысления, самовыражения нации, тысячелетний образ жизни народа, мировоззрение, говоря более простым языком, подчеркивается, что изучение народного творчества –это непосредственное изучение самого народа.

Базовые слова: Бахчисарай, фольклор, народные былины, ЮНЕСКО, Репрезентатив, поэт, устное народное творчество.

THE ROLE OF BAKHSHIQI ART AND FOLK EPICS IN THE RISE OF OUR UZBEK NATIONAL CULTURAL HERITAGE

Norkulov Farhod Toshturdiyevich
Independent researcher at Karshi State University

Annotation. Today, ideas have been put forward about bringing the art of bakhshism to the future generation in its original state, that this art form does not disappear, the work being done. This article tells about realistic stylistic ideas, in a clear and simple style that is understandable to readers. It also reflects the qualities of self-knowledge, awareness, manifestation of the nation, its attempts, the millennial way of life of the people, its worldview, and, speaking in a simpler language, it is argued that the study of folk creativity is a direct study of the people themselves.

Base words: Bakhshism, folklore, folk epics, UNESCO, Representative, poet, folk oral creativity.

KIRISH. Xalqimizning babaho ma'naviy boyligi hisoblanmish folklor namunalari orasida xalq dostonlari alohida o'rin tutadi. Doston kuylash, ya'ni baxshichilik san'ati esa o'zining qadimiy izdiziga ega. Xalq ijodini o'rganish bu xalqning turmush tarzi, urf-odat, an'nalari, tarixi buguni va kelajagi, tafakkur tarzi hamda ruhiyatini o'rganish demakdir. Unda millatning o'zini bilish, anglash, namoyon etish xislatlari, urinishlari, xalqning ming yillik hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan bo'lib, oddiyroq tilda aytadigan bo'lsak, xalq ijodini o'rganish bu –bevosita xalqning o'zini

o'rganish demakdir.

O'zbek baxshichilik san'atining "YUNESKO"ning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritilishi Respublikamizda baxshichilik san'atining nihoyatda qadimiy san'at turlaridan ekanligiga yorqin misol bo'ladi.

Xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi hisoblanadigan folklor namunalari orasida xalq dostonlari alohida o'rin kasb etadi. Doston kuylash, ya'ni baxshichilik san'ati esa o'zining qadimiy ildiziga ega hisoblanadi.

Bu san'at turi ustozdan shogirdga, avlodlardan avlodga bevosita jonli ijro vositasida o'tadi. Folklorshunoslarimiz, tadqiqotchilarimizning olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida respublikamizda bir qator dostonchilik maktablari aniqlangan. Shuni ham unutmash kerakki, XX asr bo'layotgan ilmiy-texnik rivojlanish, globallashuv, axborot olishning tezlashganligi, xalqimizning ommaviy savodxonligining oshgani, yozma adabiyot va boshqa san'at turlarining xalq madaniy hayotidan keng o'rin olgani dostonchilik va baxshilarning mavqiyeni anchagina sustlashishiga sabab bo'ldi. Ayrim hududlarda XX asrning 70-yillariga kelib dostonchilik va baxshichilik san'ati to'liq so'ndi desak ham mubolag'a emas[1].

Doston kuylovchi baxshi-mo'g'ulcha so'z bo'lib, ustoz, "ma'rifatchi" degan ma'noni anglatadi. O'zbeklar orasida baxshi yana bir qancha nomlar bilan ataladi. O'rta Osiyoning janubiy hududlarida yuzboshi, Tojikistonning o'zbek laqaylari orasida soqi, Farg'ona vodiysida sanovchi, shuningdek jirov, jarchi, qirg'izlarda manaschi, mo'g'ullarda to'lchi, o'g'uzlarda uzan deyiladi. Tojik xalq eposi ijrochilari go'yanda, hofiz va shoir ham deb ataladi. "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar ijrochisini dostonga qiyosan bazan go'ro'g'lisaro ham deb atashadi. Yirik o'zbek baxshilarning nomiga "shoir" so'zini qo'shib ishlatish hollari ham mavjud.

Ajdodlardan meros qolgan dostonim,
Qo'llarimda sayrab turgan sho'x sozim,
Chamanlarda yangrab turgan ovozim,
Barisiga fido bo'lsin bu jonim.

Ushbu yuqoridagi kuylangan dostonga shunday ta'rif berilgan: "Do'mbira bosim ostida zorlanar, davradagilar ko'hna zamin ohanglari og'ushida borliqni unutib mayingina tebranardi. Baxshi o'z ovozi va soziga maftun bo'lganidan ko'zlarini chirt yumib olgan, barmoqlari parda ustida o'ynar, qo'sh tor moziyning qa'ridan oqib kelayotgan ikki daryodek sizni og'ushiga olib oqib boraveradi".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Dastlab qo'shiq shaklidagi, musiqa asbobisiz kuylanadigan asarlar yaratilgan. X-XI asrlarga kelibgina dostonlar do'mbira jo'rligida aytila boshlangan. Dostonning bunday namunalari Kaspiy va Orol dengizlari bo'ylaridagi qadimgi ko'chmanchi turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago'ylar ko'payib borgan sari ustoz-shogird an'analari vujudga kela boshladi. Buning natijasida dostonchilik maktablari paydo bo'ldi.

Baxshilari haqida gap ketganda ularning bir qismi o'qimishli mullalar bo'lganliklariga e'tiborni qaratish lozim. Demak mulla – shoirlar ham diniy qissalarni, jangnomalarni o'qib, qissaxonlik qilib, ayni damda an'anaviy xalq dostonlarini kuylab, etibor qozonishgan. Bu esa ular kuylagan dostonlarda badiyatning kuchayishiga olib kelgan. Respublikamizning boshqa hech qaysi hududida asli din vakillari hisoblangan mullalarning xalq epik ijodiy taraqqiyotiga Kamaylik mulla baxshilar singari hissa qo'shish holati uchramaydi.

Qamaylik mulla Xolnazar "Nurali" turkum dostonlaridan biri "Nuralining yoshligi" dostonini xalq kitobi tarzida yozdirib qoldirgan. Qamayliklar XVII asrning oxiri XVIII asrning boshlarida Surxon vohasidan ko'chib kelishgan va ular hamon shu voha aholisi bilan qarindoshchilik aloqalarini uzgan emas.

Bugungi kungacha Qamay baxshichilik maktabining quyidagi vakillari aniqlangan. Berdumurod shoir, Murod baxshi Xo'jayor o'g'li, Abdukarim Juyruq, Xidir shoir, Boysari baxshi, Mulla Xolnazar, Mulla Yo'dosh, Sadulla Hakimov, Mulla Xo'jamqul, Mulla Eshonqul, Mulla

Bozor shoir, Nazar shoir Shukur o'g'li, Sherqul baxshi, Shonazar shoir, Xudoyqul shoir, Yaxshiboy o'g'li, Normurod shoir, Oynazar shoir, Elmurod qori, Shomir shoir, Meyli shoir, Tulak shoir, Bozor Sherqul o'g'li, Mamatqobil shoir, Bobonazar shoir, Berdiyor shoir, Erka shoir Oynazar o'g'li, Axmad Berdiyor o'g'li va boshqalar Qamay dostonchiligi maktabiga mansub bo'lgan ijodkorlardir[2,34].

Professor Malik Murodov yana bir O'zbekiston xalq baxshisi – Dehqonobodlik Qahhor baxshi Rahimov haqida fikr bildirib, “Qahhor – xalq og'zaki ijodining xazinasi deya ta'rif bergan. Yoki bo'lmasa Amerikalik tadqiqotchi olimlar, Filodelfiya universitetining prefoyessorlari M.Ted va Z.Volterlar: “O'zbekistonning ma'naviyati yuksak, mulohazali va o'z sohasining bilimdon baxshisi Qodir baxshidir”, - deb tan olishlari ham shubhasiz, O'zbekiston baxshilariga ijodiga berilgan munosib bahodir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Jizzax baxshichilik maktabi vakillari repertuaridagi dostonlarning soddaligi, o'ta an'anaviy va nisbatan aniqligi bilan ajralib turadi. XVIII-XX asrlarda yashab ijod qilgan Amin baxshi, Muhammad shoir, Chini shoir, Tovbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Sultonmurod, Yo'ldosh bulbul, Yo'ldosh Mulla Murod o'g'li, Rahimbulbul, Jo'ra shoir, Do'styor Xo'jayor o'g'li, Xo'janazar baxshi, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Yorlaqab Beknazar o'g'li kabi o'nlab yirik taniqli baxshi dostonchilarni o'zida birlashtirgan bo'lib, ular asosan Bulung'ur, Jomboy, Poyariq, G'allaorol, Zomin, Jizzax hududlarida yashab ijod kilishgan. Bu baxshilar dostonlarni asosan do'mbira, ba'zan qo'biz jo'rligida ijro etganlar. Baxshilardan yozib olingan «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Mashriq», «Balogardon», «Nurali», «Shirin bilan Shakar», «Rustam», «Murodxon», «Zevaxxon» va bir qator boshqa dostonlar badiiy uslubi jihatidan xos xususiyatlarni o'zida mujassam etgan.

Asosan Narpay, Kattaqo'rg'on, Jom, Kogon, Muborak, Qarshi kabi hududlarda mashhur bo'lganlar. Ulardan «Orzigul», «Sohibqiron», «Erali va Sherali», «Kuntug'mish», «Tohir va Zuhra», «Alpomish», «Hasanxon», «Zulfizar bilan Avaxxon», «Gulixiromon», «Xirmondali» kabi dostonlar yozib olingan. Ularning aksariyati bugungi kunda nashr etilgan.

Dostonchilik maktablari xalq dostonlarining demokratik asoslarini yanada kengaytirishgan. Shunga ko'ra, dostonchilik maktabi vakillaridan yozib olingan dostonlarda Oyto'ra, Xolyor, Qing'ir chol, Dono cho'pon, Hamro bog'bon, Usta Olim, Umar, Qulmaloyik kabi keng mehnatkashlar ommasining turli tabaqalariga oid xilma-xil obrazlar yaratilgan. Boshqa maktablarning vakillarida bu xil obrazlar (Kayqubod, Janjalkal, kambag'al chol o'tinchi va boshqalar) an'anaviyligi bilan ajralib turadi.

Chiroqchi dostonchilik maktabi esa dastlabki manbalarda tadqiqotchilar Abdulla shoirni Shahrisabz (hozirgi Kitob) tumanidan bo'lganligi uchun Shahrisabz dostonchilik maktabi deyishgan. Ammo so'ngi izlanishlar natijasida Abdulla shoirning chiroqchilik Rajab baxshining shogirdi ekanini va Shahrisabz o'rniga Chiroqchi dostonchilik maktabi deb atash maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy asoslar bilan isbotlab berilgan.

Ayrim Chiroqchilik baxshilarning ijodi qatag'on davrlariga to'g'ri kelib, ancha mashaqqatli yo'llarni bosib o'tganligi to'g'risida, ijodkorlardan biri G'ozi Rahmon quyidagicha xotirlaydi: “Tog'ay shoir nihoyatda sermashaqqat hayot yo'lini bosib o'tgan. 1930 yilda Shimoliy Qozog'istonning Sibir yerlari bilan chegaradosh joylariga, so'ngra Novosibirsk shahriga surgan qilinadi. Oila a'zolaridan to'rt nafari sovuq, ochlik, achchiq sitamlar, sarson-ovoragarchiliklar, ust boshsiz, haqorat tufayli ikki-uch yil ichida vafot etishadi. Ota-onasining o'ta ayanchli hayotini, g'ariblikdagi kechmishini, o'zga yurtlardagi faqirona kunlarni, tilga olib bo'lmas uqubatlarni Shomurod shoir o'ksinib-o'ksinib eslaydi”[3,16].

Shomurod baxshi dostonlar kuylaganda o'sha og'ir qiyin damlarni, Sibirning sovuq va izg'irinli kunlarida o'tgan xayotini, og'ir kechgan bolaligi-yu, barcha hasratlarini qo'shib kuylagan. Bu ayniqsa, uning “Biyigul” deb boshlanuvchi termasida yorqin o'z ifodasini topgan. Boshqa

baxshilardan Shomurod baxshining ajralib turadigan jihatlari ham balkim shundadir.

Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan baxshichilik san'ati ham naslda bo'lgandagina suyak so'rib so'nggi avlodga o'tishini ko'rsatadi. Umir baxshi Safarov, uning farzandlari Qora, Suvon va Chori nevarasi Rasul Umirovlar, ukasi Tangir baxshi, shogirdlari Hayim shoir, Bozor Normatov, Qodir baxshi Rahimov va Qodir baxshining o'g'illari Qahhor, Abdumurod, Bahrom, Boboraim baxshi va uning o'g'li Ravshan baxshi shuningdek Abdunazar Poyonov, Shoberdi Boltayev, Maxmatmurod Rajabov singari Sherobod maktabiga mansub baxshilar hisoblanib, bugungi kunda ushbu maktabning umrboqiyiligini ta'minlash maqsadida ko'plab shogirdlar tayyorlab kelishmoqda. Ahamiyatlisi, ushbu sulola vakillaridan Qahhor baxshi Rahimov, Abdumurod baxshi Rahimov, Maxmadmurod baxshi Rajabovlar O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi degan yuksak unvonga sazovor bo'lishgan.

Keyingi yillarda baxshichilik san'atini saqlab qolish va kelajak avlodga asl holicha yetkazishga davlatimiz tomonidan ustuvor vaziflardan biri sifatida e'tibor qaratilib, bir necha qarorlar qabul qilindi. Bu esa jonli, og'zaki ijro va an'analarning ma'lum ma'noda o'zgarishiga olib keldi. Bugungi globallashuv jarayonida baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish kelajak avlodga yetkazish uchun baxshichilik sinfxonasini jihozlash bo'yicha metodik tavsiyalar, madaniyat muassasalariga taqdim etildi. Yoshlarda baxshichilik san'ati haqida ilk tasavvurni uyg'otish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida baxshichilik to'garaklarini tashkil etish yuzasidan ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimizning 14 may 2019 yildagi PQ-4320 sonli "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qashqadaryo baxshilari Norqizil Kengboyev Toshkent 2021 y 115-bet qaroriga muvofiq xalqimizning yuksak badiiy dahosi bilan yaratilgan ushbu noyob san'atni asrab-avaylash va rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yurtimizda «Alpomish» dostonining ming yilligi keng nishonlangani, Termiz shahrida bu ulug' badiiy obida sharafiga, Samarqand shahrida atoqli baxshilarimiz xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmualari bunyod etilgani, davlatimiz tomonidan «O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi» faxriy unvoni ta'sis qilingani hamda an'anaviy tarzda "Xalqaro baxshichilik san'ati festivali"ning o'tkazibi kelinayotgani fikrlarimizga yaqqol misol bo'la oladi.

Soha vakillari va taniqli folklorshunos olimlar bilan hamkorlikda respublikamiz hududlarida yashab, ijod etgan baxshilar, oqin va jirovlar ijodini o'rganish, tadqiq etish maqsadida bir qator ilmiy ekspeditsiyalar olib borilmoqda [4,68].

Baxshichilik yo'nalishida Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish, turli xalqaro anjumanlar, festival va tanlovlar, konsert hamda mahorat darslarini tashkil etish yuzasidan baxshilar, oqin va jirovlar ishtirokida chet ellarga gastrol safarlari tashkil etilayapti. O'zbek baxshichilik san'ati va uning tarixini xorijiy davlatlarga tanitishga xizmat qiluvchi milliy baxshichilik cholg'u asboblari va sahna liboslari ko'rgazmasini tashkil etish masallariga alohida e'tibor berilayapti. Mahalliy hokimliklar, joylardagi hunarmandlar uyushmasi bilan hamkorlikda milliy baxshichilik cholg'u asboblari hamda liboslarini yaratish maqsadida maxsus ustaxona va tikuv sexlari tashkil etish orqali ishlab chiqarilgan maxsulotlar sotuvini yo'lga qo'yish ham rejalashtirilgan.

XULOSALAR

O'zbek baxshichilik san'ati kelajagimiz davomchilarining ma'naviy taraqqiyotida beqiyos o'rin tutadi. Muxtasar aytganda, xalqimizga xos bo'lgan juda ko'plab a'nana, urf-odat va milliy qadriyatlarimiz baxshilar, oqin va jirovlar kuylangan doston va termalar o'z xos badiiy talqinda ifodalangan. Bugungi kun yoshlarimizga milliy dostonchiligimizni o'rgatish, ularning ushbu san'at turiga bo'lgan qiziqishini oshirish uni to'laligicha kelgusi avlodlarimizga yetkazish ushbu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan soha fidoiylari oldidagi ustuvor vaziflardan sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Sh.M.MIRZIYOYEV Toshkent 2019 y 14.05.



2. Qashqadaryo baxshilari N.Kengboyev Toshkent 2021 y Adabiyot nashriyoti 70-bet.
3. El e'zozi, e'tibori ehtiromidagi baxshi A.Ergashev Qarshi Nasaf-2019 y 27-bet.
4. Qashqadaryo baxshilari Norqizil Kengboyev Toshkent 2021 y 115-bet.
5. O'zbek baxshichilik san'ati qanday rivojlangan Kamolbek Ramazonov Sputnik.uz 2025 yil 4 yanvar.

O'ZBEK XALQ IJODIDA USTOZ - SHOGIRD AN'ANALARI

*Primov Rashid Toshkulovich
Qarshi Davlat universiteti dotsenti*

*Anvarova Rushana Sherzod qizi
Qarshi Davlat universiteti talabasi
<https://orcid.org/0009-0001-7189-5097>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq musiqa ijodida dostonchilik sa'natining o'ziga xos xususiyatlari va ustoz - shogird munosabatlari haqida fikr mulohazalar bildirilgan. Dostonlarning yaratilishi xalqimizning ma'naviy qiyofasi, siyosiy qarashlari, axloqiy estetik tarbiya, adolat va xaqqoniyat, ozodlik va tenglik, qaxramonlik va vatanparvarlik xaqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar mavzusi g'oyaviy mazmunni, voqelikning mohiyatini belgilaydi. Dostonlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, mazmunlarining umumiylikiga binoan ma'lum turkumlarga birlashadi. Masalan, «Go'ro'g'li» dostonlar turkumi qirqdan ortiq to'la tugallangan hamda mustaqil ijro etiladigan ishqiy-romantik dostonlardan iborat bo'lib, ularda didaktik mavzu ham alohida ahamiyat kasb etishi maqolada keltirib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: folklor, baxshi, doston, terma, doston tirkumi, tasnif, tipologiya, noma, ichki ovoz, ustoz-shogird, «Go'ro'g'li», o'zbek milliy qadriyatlari, insoniyat.

НАРОДНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ УЗБЕКИСТАНА ТРАДИЦИИ УЧИТЕЛЬ-УЧЕНИК

*Примов Рашид Тошкуллович
доцент, Каршинский государственный университет*

*Анварова Рушана Шерзод кизи
студентка Каршинского государственного университета*

Аннотация: В статье рассматриваются особенности искусства эпической поэзии и взаимоотношения учителя и ученика в узбекской народной музыке. Создание эпосов тесно связано с духовным обликом нашего народа, его политическими взглядами, нравственным и эстетическим воспитанием, идеалами справедливости и честности, свободы и равенства, героизма и патриотизма. Тема многовековой борьбы и идеалов определяет идейное содержание и суть действительности. Элегии тематически разнообразны и объединяются в определенные категории на основе общности их содержания. Например, в статье отмечается, что эпический цикл «Горугли» состоит из более чем сорока полностью завершенных и самостоятельно исполненных романтических эпосов, в которых особое значение имеет дидактическая тема.

Ключевые слова: фольклор, бахши, эпос, термин, эпический ряд, классификация, типология, нoma, внутренний голос, учитель-ученик, «Героглу», узбекские национальные ценности, гуманизм.

TRADITIONS OF TEACHER-DISCIPLINE IN UZBEKISTAN FOLK LITERATURE

Primov Rashid Toshkulovich
Associate Professor, Karshi State University

Anvarova Rushana Sherzod kizi
student of Karshi State University

Annotation: The article examines the features of the art of epic poetry and the relationship between teacher and student in Uzbek folk music. The creation of epics is closely linked to the spiritual image of our people, their political views, moral and aesthetic education, ideals of justice and honesty, freedom and equality, heroism and patriotism. The theme of centuries-old struggle and ideals determines the ideological content and essence of reality. Elegies are thematically diverse and are united into certain categories based on the commonality of their content. For example, the article notes that the epic The cycle «Gorugli» consists of more than forty fully completed and independently performed romantic epics, in which the didactic theme is of particular importance.

Key words: folklore, bakhshi, epic, term, epic series, classification, typology, noma, inner voice, teacher-student, "Geroghlu", Uzbek national values, humanism.

Kirish (Introduction). O'zbek milliy qadriyatlarining yuksak darajada taraqqiy etishida uning xalq og'zaki badiiy ijodi an'alaridan oziqlanganligi, ya'ni folklor va ma'naviy qadriyatlarimiz orasidagi izchil davom etib kelgan o'zaro aloqadorlik ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevishtirish bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi".

"Ma'naviyat –insonni ruhiy poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baqquvat, iymon -e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini o'yg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir". Musiqa insoniyat ma'naviy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Musiqa mohiyatiga ko'ra inson omilini tadqiq qilish va dunyoni badiiy o'zlashtirishning muhim usullaridan hisoblanib, inson ruhiy, axloqiy kamoloti va ma'naviyatining shakllanishida, yoshlarning ma'naviy tarbiyasida yetakchi omillardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 26.04.2018 yildagi 304-son qaroriga asosan xalqimizning yuksak badiiy ijodiyoti asosida yaratilgan nomoddiy madaniy meros durdonalarini dostonchilar, o'zbek baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish va targ'ib etishga hissa qo'shgan ustoz baxshilar, xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallagan yosh baxshilar va doston ijrochilariga, dostonchilar ijodining eng yaxshi namunalarini targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dostonlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, mazmunlarining umumiylikligiga binoan ma'lum turkumlarga birlashadi. Masalan, «Go'ro'g'li» dostonlar turkumi qirqdan ortiq to'la tugallangan hamda mustaqil ijro etiladigan ishqiy-romantik dostonlardan iborat bo'lib, ularda didaktik mavzu ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda badiiy adabiyotimizda asrlar davomida xalq og'zaki ijodida baxshilar tomonidan og'zaki tarzda kuylab kelingan "Alpomish", Go'ro'g'li turkumidagi "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Malikai Ayyor", "Ravshan", "Kuntug'mish", "Rustamxon", "Avazxon", "Oshiq G'arib" va boshqa ko'pgina dostonlar keng tarqalgan.

Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, siyosiy qarashlari, axloqiy estetik tarbiya, adolat va xaqqoniyat, ozodlik va tenglik, qaxramonlik va vatanparvarlik xaqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar mavzusi g'oyaviy mazmunni.

voqelikning mohiyatini belgilaydi.

Eposshunos olimlarimiz qayd etganidek, o'zbek dostonchiligida asrlar bo'yi tarixiy-folkloriy jarayonda professional tayyorgarlik, ustoz-sho-girdlik munosabatlari, uning hosilasi bo'lgan dostonchilik maktablari mavjud bo'lgan. Ammo ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi dastlabki taqiq baxshilarning o'z ustozlarini aytmasliklari va bu ko'pgina xalqlar dostonchiligi uchun tipologik hodisa ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xalq og'zaki poetik ijodi va ijrochilik orasidagi badiiy-estetik aloqadorlikning o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan folklorizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi va tipologiyasi masalalari B.Sarimsoqov, I.Yormatov kabi olimlar tomonidan ma'lum bir ilmiy qarashlar qilingan. "Doston kuylash jarayonida baxshilar ma'lum bir marosim, urf-odatlar, qoidalarga amal qilishgan, auditoriyaning ijtimoiy tarkibini hisobga olishgan", – deydi T.Mirzayev.

Shunisi diqqatga sazovorki, O'zbekistonning Xorazm vohasidan tashqari deyarli barcha mahalliy tumanlarida dostonlar maxsus bo'g'i q ovozda do'mbira jo'rligida rechitativ deklamatsion ohanglar bilan ijro etiladi. Xorazmda esa kuychan ovozda dutor yoki an'anaviy ansambl jo'rligida ijro etiladi. Bu, ayniqsa, hozirgi kunda ham doston aytib kelayotgan Qashqadaryo va Surxondaryoning yirik baxshilari va ular maktabiga sodiq yosh iste'dodlar ijrosida yorqin ko'rinadi.

Surxondaryo-Qashqadaryo voha dostonchiligi juda qadimiy, ayni paytda hozirga qadar yaxshi saqlangan mahalliy udum va an'analarga ega. U o'ziga xos adabiy-nasriy, she'riy, shuningdek, musiqiy-ijodkorlik xislatlar bilan ta'riflanadi. Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida eng keng tarqalgan tarixiy, bahodirlik, ishqiy dostonlardan "Alpomish", "Avazxon", "Rustamxon", "Go'r o'g'li" va boshqalarni tilga olish mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and reults). Har bir doston o'nlab turlicha holat va kayfiyatlarni ifodalovchi noma va kuylardan tuziladi. Ijrochi muayyan voqelik vaziyatidan kelib chiqib, o'z ijro bisotida bor musiqiy namunalarni tanlab, o'rinli ishlatadi.

Doston voqealarining bosqichma-bosqich, salobatli bayon etilishi jarayonida so'zli va sof cholg'u kuylar katta o'rin tutadi. Shuningdek, uning ijrosi davomida muntazam ravishda aytiluvchi har xil mazmundagi qo'shiqsimon namunalar "noma" deb yuritiladi. Nomalar dostonchi tomonidan do'mbira cholg'usi jo'rligida yo'g'on, bo'g'i q tabiatli, shu boisdan "ichki" deb ataluvchi ovozda ijro etiladi .

Folklorshunos olimlar qayd etganlaridek, o'zbek dostonchiligida dostonchi tayyorlashda, asosan, ustoz-shogirdlik munosabatlari orqali quyidagi bevosita va doimiy bo'lgan shartlarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'lgan.

1. O'zlaridagi iqtidorni homiy ruhlardan deb bilgan shomon-baxshilar o'z kasbini, albatta, kimgadir qoldirishlari shart bo'lgan. Odatda, xuddi shomonlikdagi kabi baxshilik ham avloddan-avlodga o'tgan. Shu bois ko'pgina yetuk xalq baxshilari, masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'li o'zining yetti ajdodi baxshi bo'lganini olimlarga faxr bilan so'zlab bergan.Baxshilar o'zlariga shogirdlik uchun iste'dodli yoshlarni qidirib yurganlar. Biroq an'anada xalq baxshilarining o'z ustozlarini aytmasliklari so'z san'atiga nisbatan qadimiy qarashlardan kelib chiqqan urf-odatlari bo'lishi mumkin.

2. Ta'lim og'zaki ravishda va bepul olib borilgan. Biroq shogird o'zi mustaqil kuylashga fotiha olguncha ustoz oilasida barcha yumushlarni qilib yurgan. Aytish mumkinki, ustoz so'zlari shogird uchun qonun bo'lgan.

3. Dastlab do'mbira chertish, termalar, dostonlarning tipik o'rinlari yod olingan.

4. Ustoz doston aytish uchun qayerga bormasin, shogirdini o'zi bilan birga olib yurgan. Buni ta'limning o'ziga xos ko'rgazmaviy, amaliy shakli deb baholash mumkin.

5. Keyingi bosqichda alohida bir doston to'liq o'rganilgan. Olimlar-ning kuzatishlaricha, Qo'rg'on dostonchilik maktabi uchun "Yakka Ahmad", Janubiy O'zbekiston epik an'analari uchun "Ollonazar Olchinbek" dostonlari dasturiy hisoblangani uchun, o'tmishda har bir maktab

uchun shu tipdagi asarlar majburiy xarakterda bo'lgan deyish mumkin.

6. Shogird ma'lum bir darajaga yetgach, ustoziga unga davralarda terma, dostonlardan parchalar kuylashga ijozat bergan. Undan keyingi bosqichda ustoz-shogird bir dostonni navbatma-navbat aytishgan.

7. Shogird ustoz repertuaridagi dostonlarning bir qismini to'liq o'zlashtirgach, ustoziga maxsus marosim kechasini o'tkazib, kishilar oldida unga fotiha bergan. Mavzumiz uchun muhim bo'lgan jihat shundaki, ustoz-shogird munosabatlari termalarda ham o'z badiiy ifodasini topgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ustoz-shogird munosabatlari orqali davom etib kelayotgan dostonchilik san'ati xalqimizning dunyo madaniy, ma'naviy xazinasiga qo'shgan munosib hissasi sifatida bebaho san'at turi bo'lib, yuqori badiiy qimmatga ega bo'lgan o'zbek xalq dostonlari milliy iftixor va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ustoz va shogird munosabatlari haqida insonlarning tarixida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar taraqqiyotning asosiy devorini tashkil etuvchi bir munosabatdir. Bu munosabatlar, asosan, ilm, bilim, odob, axloq, ma'naviyat va malaka ko'nikmalarni o'zaro almashish orqali shakllanadi va rivojlanadi. Ustozning shogirdga o'rgatgan har bir so'zi, har bir harakati, uning hayotiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ustozning shogirdiga bergan bilimi, tarbiyasi tahsinga sazovor hisoblanadi barcha mamlakatlarda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev. SH. Xalq so'zi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir. T., 1980. – 4-son.
3. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. T., 2000
4. Ёрматов И. Типология фольклоризмов в современной узбекской литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 1985.

MAKTAB MUSIQA TA'LIMIDA MILLIY MUMTOZ VA MAQOM KUY-QO'SHIQ NAMUNALARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Qudratova Elnozha Ismatillayevna
JDFU Musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbek milliy va mumtoz musiqa merosi namunalaridan umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarida uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida foydalanish ya'ni, kuy-qo'shiq namunalari bilan o'quvchilarni tanishtirib borish ularni ona vatanga, ona tabiatga, milliy qadriyatlarimizga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida hamda estetik kamolotini shakllantirishda g'oyat muhim ta'sirchan ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z o'rnida ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan musiqa o'qituvchilar zimmasiga g'oyat mas'uliyatli vazifalarni yuklaydiki, bu o'rinda ularning xalq musiqa merosi, uning xonandaning va cholg'u ijrochiligi bo'yicha har jihatdan malakali, mumtoz va xalq kuy-qo'shiqlari bilan ishlash metodikasidan bilishi bilim va malakaga ega bo'lishlikni taqozo etadi. Mazkur maqola mazmunida maktab o'quvchi-yoshlar tarbiyasida milliy-mumtoz musiqiy merosimizga nisbatan qiziqishi, uni o'rganish, ijro etishga nisbatan faol munosabat hamda uni avaylab asrash boqiylingini saqlab qolishdek vazifalar mazmunini yoritishga yetakchi urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: milliy, mumtoz, musiqa madaniyati, o'quvchilar, milliy qadriyat, xonandalik, cholg'u ijrochiligi, metodika, bilim, malaka.

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF TEACHING NATIONAL CLASSICAL AND MAQAM SONG EXAMPLES IN SCHOOL MUSIC EDUCATION

Qudratova Elnozha Ismatillayevna,
Senior Lecturer of the Department of Music Education, JDFU

Annotation: Studying the works in the direction of traditional singing, which are rich examples of the musical heritage of the Uzbek people, and analyzing their ideological and artistic content, shows that they have love for the Motherland, nature, honesty, hard work, mother nature, and people. -love, peace, justice, the ideas of self-mobilization for the development of the Motherland are praised. This places a great responsibility on future music education teachers in the field of music education of higher pedagogic education and the professors who are teaching them. In this sense, this article serves to clarify that influencing youth education through traditional singing is an effective way to preserve and convey the rich cultural heritage to young people.

Key words: musical heritage, traditional singing, human qualities, youth education, traditional music, status, national value.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫМ КЛАССИЧЕСКИМ И МАКОМНЫМ МЕЛОДИЯМ И ПЕСНЯМ В ШКОЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Qudratova Elnozha Ismatillayevna
Старший преподаватель кафедры музыкального образования ДЖГПУ

Аннотация: Изучение произведений в направлении традиционного пения, являющихся богатыми образцами музыкального наследия узбекского народа, и анализ их идейно-художественного содержания показывает, что в них есть любовь к Родине, природе, честность, трудолюбие, мать-природа, илюдей-любовь, мир, справедливость, восхваляются идеи самомобилизации для развития страны. Это возлагает большую на ответственность будущих преподавателей музыкального образования в области музыкального образования высшего педагогического образования и профессоров, их преподающих. В этом смысле

данная статья призвана прояснить, что влияние на образование молодежи посредством традиционного пения является эффективным способом сохранить и передать молодёжи богатое культурное наследие.

Ключевые слова: национальная, классическая, музыкальная культура, студенты, национальная ценность, пение, инструментальное исполнительство, методика, знания, умения.

Kirish. Bugungi kunda kelajagimiz bunyodkorlarini har jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash mamlakatimiz rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridandir. Shaxsning ma‘naviy barkamol bo‘lib yetishishida xalq musiqasi, uning eng mukammal mumtozlik kasb etuvchi xalqimizning eng muhim qadriyatlaridan bo‘lmish an‘anaviy va maqom musiqasining o‘rni benihoya kattadir. Bugungi kunda dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari g‘oyat keskin tus olgan sharoitdan g‘oyaviy estetik immunitetni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarning “Pop art”, “Pop musiqa”, “Kitch”, “Starizm” kabi deviantlik holatlarini oldini olishga qaratilgan. Milliy qadriyatlarimizni yanada yuqoriroq darajada targ‘ibot qilish ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida miliy xalq musiqasi, an‘anaviy va maqom ohanglarini yoshlar orngiga singdirib borish, estetik tarbiyaning pedagogik imkoniyatlari, zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurati yuzaga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom sa‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori ham mazkur faoliyatiga tegishliligi bilan ahamiyatlidir.

Xalqimiz o‘zining ko‘p yillik tarixida tarkib topgan musiqa ijrochiligining o‘ziga xos shakllari, usullari shakllangan. Shu jarayonda xalq musiqasi tarkibida eng ommaviy va xalqchil bo‘lgan qo‘shiqchilik san‘ati bilan bir vaqtda an‘anaviy xonandalik maktabi shakllanib keldi. An‘anaviy xonandalik va qo‘shiqchilik san‘atining bir- biridan farqli jihatlari shundaki, xalq musiqa ijodining noyob shakli hisoblanmish an‘anaviy xonandalik yo‘nalishida og‘zaki an‘anadagi mumtoz musiqa namunalari mumtoz ashula, katta ashula, maqom ijrochiligi o‘rin olganligi e‘tirof etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qadimgi davrdan shu kunga qadar o‘zbek an‘anaviy musiqasiga tegishli asarlar og‘izdan-og‘izga, ustozdan-shogirtga, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan namunalar hisoblanadi. Ushbu yuksak badiiy saviyaga ega bo‘lgan asarlarni asrab qolish va kelgusi avlodga yetkazish uchun ijrochilik maktablari tashkil etildi. Ushbu ishlar XIX asrning oxiriga kelib Munavvar Qori, Behbudiy, Avloniy, Xamza kabi namoyondalar tomonidan tashkil etilgan ta‘lim maskanlarida olib borildi. XX asrning boshlarida Toshkentda Turkiston xalq Konservatoriyasining ochilishi, Buxoro, Samarqand, Farg‘onada musiqa bilim yurtlarining ochilishi musiqa ta‘limi va ijrochilik sohasida katta burilishlarga olib keldi.

An‘anaviy xonandalikning vujudga kelishi musiqaning inson hayotida muhim rol o‘ynashiga bog‘liq bo‘lgan. Musiqa insoniyat tarixida turli madaniyat va jamiyatlarda ma‘naviy, ijtimoiy, va maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun shakllangan. An‘anaviy xonandalik bu jarayonning bir qismi bo‘lib, ko‘pincha avloddan-avlodga o‘tib kelgan musiqiy va ijro an‘analariga asoslangan.

An‘anaviy xonandalikning rivojlanishiga turli omillar ta‘sir qilgan:

1. Madaniy meros: An‘anaviy xonandalik asosan milliy va madaniy urf-odatlardan kelib chiqqan. Har bir jamiyat o‘ziga xos musiqiy uslublarni rivojlantirgan va bu uslublarni xalq o‘rtasida ommalashgan.

2. Diniy marosimlar va rasm-rusumlar: Ko‘plab an‘anaviy xonandalik turlari diniy marosimlar bilan bog‘liq. Misol uchun, islom madaniyatida qasidalar, madhiya va ilohiy qo‘shiqlar diniy tadbirlarda kuylangan.

3. Ovoz bilan ifodalash san‘ati: Xonandalik ovozni samarali boshqarish va uning imkoniyatlarini to‘la ochish bilan bog‘liq. Ko‘p hollarda bu usullar katta tajriba va ustoz-shogird munosabatlar orqali o‘rgatilgan.

4. Mahalliy musiqiy asboblarni bilan bog‘liqlik: Har bir xalqning an‘anaviy musiqa asboblari mavjud bo‘lgan. O‘zbek an‘anaviy musiqasida, masalan, doira, rubob, dutor kabi cholg‘u asboblari

muhim rol o'ynagan. Tahlil va natijalar. Xalqimizning milliy-ma'naviy merosini музыка

Mumtoz xonandalik- lirik xarakterdagi rivojlangan kuy va shaklga ega bo'lgan yirik aytim. Ashula- bu mumtoz musiqaning kuy rivojining vazmin xakteri, hayajonli, dardli mazmuni, diapazonining kengligi, ritmik usulning murakkabligi va ijro etish uslubining mukammalligi bilan ajralib turadi. Mumtoz ashulalar asosan, mumtoz shoirlar she'r va g'azallariga bastalangan kuyla bilan ijro etib kelingan. Falsafiy ma'noga ega bo'lgan ishqiy-lirik, ayrim hollarda nasihatgo'y, shuningdek, ayriliq va hasratli mazmunni ifodalovchi mavzu ashulaga xos xususiyatdir

Ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarni o'zbek an'anaviy mumtoz musiqa namunalari. Ijrochilik sirlari, shakl, usullari bilan yaqindan tanishtirib borish musiqa ta'limini milliy negizda shakllantirish bilan bir vaqtda yoshlarda hozirgi hayotimizga kirib kelayotgan g'oyasiz, oldi-qochdi so'zlar, ma'no va mazmunsiz ommaviy musiqalarga qarshi immunitetni shakllantirishda g'oyat katta ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Mumtoz musiqa bilan o'quvchi-yshlarni tanishib borish, namunalarni tinglash va tahlil qilish, mashhur ashulachi hofizlar, mohir cholg'uchilar ijrosidagi kuy-qo'shiqlar ta'sirida o'quvchilarda quyidagi bilim va malakalarni egallab borishlariga imkoniyat yaratiladi:

1. O'zbek mumtoz kuy va ashularini xalq musiqasining boshqa tur va shakllaridan farqli xususiyatlarini anglash, tushunish.

2. Mumtoz musiqa asarlarining tuzilishi, ijro etilishi, ijroda qanday musiqiy ijrochilik malakasi va talablari imkoniyatiga ega bo'lishlik.

3. Mumtoz musiqa asarlariga xos bo'lgan nola, qochirim, sito, salmoqlash kabi milliybezaklarni ishlatilishi, ijroda ularni badiiy ifodalanishi.

4. Ijroda she'riy matn hamda kuy (ohang)ning o'zaro mutanosibligini sezish, his qilish.

5. Turli murakkablik darajasidagi mumtoz asarlarni tinglash, tahlil qilish, unga o'z munosabatini bildira olish malakasiga ega bo'lish.

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini olib boruvchi o'qituvchilar shuni yaxshi bilishi va o'zining kasbiy faoliyati uchun zarur malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lishlari, ya'ni o'zlarining shu tarzda ijrochilikga tayyorlab borishlar, maktabda sinf dasturiga o'zbek xalq musiqasi bilan birga mumtozlik kasb etuvchi namunalarga ham keng o'rin berilganli o'quvchilar bilan mumtoz musiqa namunalarni o'rganish (tinglash, ayrim yengil namunalarni kuylash, tahlil qilish) bo'yicha asosiy vazifalarni quyidagicha belgilash mumki

1. O'quvchilarni mumtoz musiqaga qiziqishi, uni tinglash, kuylashga bo'lgan ehtiyoji va munosabatini o'rganish.

2. O'quvchilarda o'zbek mumtoz musiqasining cholg'u kuylari va ashularini tinglash va kuylashga bo'lgan qiziqishini paydo qilish, kuchaytirish va uni barqaror ehtiyoj darajasiga ko'tarish imkoniyatlarini qidirish.

3. Mumtoz asarlar bilan ish olib borishning samarali usul, vosita, texnologiyalaridan unumli foydalanish.

4. O'quvchilarni musiqiy didinii, tasavvur qilish, sezish, (his qilish) layoqatlarini muntazam rivojlantirish imkonini beruvchi kreativ usullarda foydalanib ish tutish.

5. Bolalar bilim darajalari va ovoz imkoniyatlariga mos kuy-qo'shiqlar, repertuarini shakllantirish.

6. Mashg'ulotlar jarayonida ko'rgazmali va texnik vositalaridan (nota matni yozilgan plakat, musiqa yozuvi bo'lgan disk, audio, video tasvirlar.) unumli foydalanish ahamiyat qaratilgan. Tabiiyki, bunday imkoniyatlarning yaratilishi natijasida talaba-yoshlarning musiqa merosimizning asosi hisoblangan an'anaviy xonandalik san'ati haqida tushunchalarining kengayib borishiga xizmat qiladi. Kelajagi buyuk davlatni qurish uchun eng avvalo ma'naviy kamol topgan insonlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

"Mumtoz shoirlarimiz, xonanda va sozandalarimiz tomonidan yaratilib va ijro etib kelingan deyarli barcha asarlar axloqiy-estetik tarbiya uchun xizmat qilib kelgan. Ustoz xonanda va sozandalarimiz ijodiyotidagi qo'shiq-ashulalarining she'riy matnida ifoda etib kelingan g'oyalar

va matn mazmuniga xos ohanglar kishilarning ruhiy hissiyotiga kuchli ta'sir etib kelgan".

An'anaviy xonandalikning oquvchilar tarbiyasiga ta'siri:

1. Madaniy o'zlikni mustahkamlash: An'anaviy xonandalar milliy qo'shiqlar orqali yoshlarni o'z xalqining tarixiy ildizlari bilan tanishtiradi va milliy o'zlikni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

2. Tarixiy xotira va milliy g'ururni oshirish: Qo'shiqlarda aks etgan tarixiy voqealar va buyuk shaxslarning obrazi yoshlarni o'z xalqining o'ziga xosligi va qahramonliklari bilan tanishtirib, ularda milliy g'ururni oshiradi.

3. Axloqiy va ma'naviy tarbiya: An'anaviy qo'shiqlar ko'pincha axloqiy masalalarni o'rta tashlab, yoshlarga hayotning qadriyatlarini, oila, hurmat va insoniylik haqida saboq beradi.

4. Badiiy didni shakllantirish: Xonandalik san'ati yoshlarning musiqa madaniyati va estetik didini rivojlantirib, ularni san'atni qadrlashga o'rgatadi.

O'quvchilarning yuksak badiiy qimmatga ijod namunasi bo'lgan an'anaviy kuy-qo'shiqlarni muayyan darajada o'zlashtira olishlari ko'p jihatdan musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati, tajribasi va darslarni metodik jihatdan to'g'ri, qiziqarli tashkil qilishga bog'liq bo'ladi. An'anaviy musiqa asarlarini o'zlashtirish, ularni ijro uslublariga muvofiq qayta-qayta tinglash va takrorlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

An'anaviy musiqa asarlarini o'zlashtirish jarayonida ularning mualliflarini hayoti va jodiga oid materiallar bilan tanishtirish, asar yaratilgan davr, asarning g'oyaviy-badiiy mazmuni, unda iroda etilgan muallif ichki kechinmalarini qay darajada o'z ifodasini topganligiga, asarni musiqiy-nazariy tahliliga oid ma'lumotlar berib borishni unutmaslik zarur.

To'g'ri tanlangan musiqa asari, uning o'quvchilar ijro malaka va ko'nikmalariga, musiqiy did va ovoz imkoniyatlariga mosligiga jiddiy e'tibor berish, asarlarni bevosita o'rganishda hozirda iste'molda bo'lmagan, boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni asl ma'nolari sharhlash, yakka va jamoa bo'lib kuylashning o'ziga xos xususiyatlaridan o'quvchilarni xabardor qilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, ashula matnini to'g'ri talaffuz qilish, kuylashni birdan boshlash va tugallash, ritmni his qilish, ansambllikka rioya etish, pastki va yuqori registrlarda ovozni bir tekis yangrashiga erishish, ansamblda kuylash, avjli pardalarda ovozni qattiq qichqirmasdan (faltset) kuylashga erishish kabilarga doimiy ravishda e'tibor berib borish lozim.

An'anaviy musiqa ijrochiligi bo'yicha darslarni shu yo'sinda tashkil etilishi va olib borilishi natijasida o'quvchilarning mumtoz va maqom namunalari haqidagi nazariy bilim va amaliy ijro etish malakalarini dinamik rivojlantirish ta'minlanadi.

Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mumtoz musiqa asarlarining boshqa musiqa janrlarida farqli xususiyatlaridan xabardorligi;
- mumtoz musiqa asarlarining aksariyati mumtoz shoirlari she'r va g'azallariga bastalanishi hamda mumtoz shoirlar hayoti va ijodi bilan muayyan darajada xabardorligi, -mumtoz asarlarda uchraydigan notanish so'zlar ma'nolarini bilishlari,

- mumtoz kuy-ashulalarni mohir ijrochilari, ularning ijro uslublari, asar jozibasini ta'minlashdagi ovoz va ijrochilik mahorati, shuningdek, asar g'oyaviy-badiiy mazmuni, voqea-hodisa, obrazlar haqida fikr bildirish olishlari,

- asardagi nola, qochirimlar, mavjud murakkabliklar, dinamik tuslar, ovoz tembrining ijroga ta'siri yuzasidan ma'lum talaffuzga ega bo'lishlari;

- milliy xalq va mumtoz qo'shiqlar tinglash va kuylash bilan unga o'z munosabatini bildirish olishi kabi ko'nikma va malakalarini shakllanganligi.

Xulosa: Xalq musiqa merosiga oid mumtozlik kasb etuvchi milliy musiqa namunalari vositasida o'quvchi – yoshlarni yuksak ma'naviy hamda badiiy estetik kamolotini shakllantirish ularni maktab ta'limida olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar imkoniyatidan samarali foydalanish, ularni milliy xalq musiqa merosiga mehr qo'yish, qadrlash, kelgusida unga vorishlik qiladigan shaxs sifatida kamol topishlari muhim ahamiyat kasb etish bilan milliy musiqiy ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu orinda yoshlar o'rtasida ommaviy estrada qo'shiqlarini tinglash,

kuylash, tahlil qilishga haddan ziyod ruju qo'yish holatlari kuchayib borayotganligini ham musiqiy-estetik tarbiya borasidagi ishlar kutilgan natijalar bermayotganligining oqibati ekanligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Bunday holatga qarshi kurashish «ommaviy musiqa» tasvirlaridan o'sib kelayotgan yoshlarni himoya qilishni yagona yoli, ta'lim-tarbiya uchun mas'uliyatli pedagogik murabbiylarni bir maqsad yo'lida kuchlarni birlashtirgan holda milliy musiqa madaniyatimiz durdonasi bo'lmish xalq qo'shqlari, mumtoz va maqom asarlar bilan chuqur tanishtirib, ularning ongiga, ma'naviyatiga singdirish yo'lida keng qamrovli ta'lim tarbiya ishlarini amalga oshirib borishdan lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - Toshkent, Ma'naviyat, 2008 yil.
2. A. Hasanov. Musiqa va tarbiya - Toshkent, O'qituvchi, 1993-yil
3. Hamidov H. "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi". -T.: O'qituvchi, 1996 yil.
4. Begmatov S, Karimova D, Mamirov Q, Musiqa 6-sinf uchun darslik. T.:G. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018 yil.
5. Qudratov I, Abdulkarimova E. "Musiqa darslarida fanlararo aloqadorlik" Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015yil.
6. E.Abdulkarimova. Ilm ham jamiyat Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim". 2019 (№1) ISSN 2010-720X
7. Elnoza Ismatillayevna Abdulkarimova Актуальные вызовы современной науки. "Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi" science 2017 yil.
8. Gulboyev, A. T. Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash // Pedagogik Mahorat – ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – 2023. – № 8. – 4-b.

O'TKIR BURCHAK SINUSI, KOSINUSI, TANGENSI VA KOTANGENSI

Rizayeva Mashhura Ergashevna

Buxoro Davlat Pedagogika instituti "Matematika va Informatika" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur ishda ta'lim tizimidagi "Guruhlarda ishlash", "Bo'laklarni birlashtiring", „Test“ metodlaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. O'quv mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni bilimlarini baholashda o'quvchilarda shakllantiradigan tayanch kompetensiyalar bo'yicha baholash uslubini joriy qilish, shu jumladan axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarni ijodiy fikrlashini rivojlantirish metodikalaridan keng qo'llagan holda tashkil etilgan.

Kalit so'zlar: O'tkir burchak, sinus, kosinus, tangens, kotangens, trigonometrik funksiyalar, uchburchak, geometriya, trigonometriya, burchak o'lchovlari.

ОСТРЫЙ УГЛЫ: СИНУС, КОСИНУС, ТАНГЕНС И КОТАНГЕНС

Ризаева Маихура Эргашевна

Бухарский государственный педагогический институт Направление «Математика и информатика» Студентка 4 курса

Аннотация: В данной работе приведена информация о повышении эффективности учебных занятий с использованием методов «Работа в группах», «Собери части», «Тест». В процессе учебных занятий внедрены методы оценки знаний учащихся по формируемым ключевым компетенциям, включая внедрение методов развития творческого мышления учащихся в условиях информатизации.

Ключевые слова: Острый угол, синус, косинус, тангенс, котангенс, тригонометрические функции, треугольник, геометрия, тригонометрия, измерение углов.

ACUTE ANGLE SINE, COSINE, TANGENT, AND COTANGENT

Rizayeva Mashhura Ergashevna

Bukhara State Pedagogical Institute «Mathematics and Informatics» Department 4th-year student

Annotation: This paper presents information on improving the effectiveness of educational activities using methods such as «Group Work», «Match the Pieces», and «Test.» During the educational process, the method of assessing students' knowledge based on the key competencies to be developed in students was introduced, including the widespread use of methods for developing students' creative thinking in the context of informatization.

Keywords: Acute angle, sine, cosine, tangent, cotangent, trigonometric functions, triangle, geometry, trigonometry, angle measurement.

Kirish. Bugungi kunga kelib ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri bu ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdan iboratdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish shuningdek,

o'quvchilarning faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash uchun o'qituvchilardan yuksak pedagogik mahorat hamda talim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Nimaga aynan qisqa vaqt? Chunki o'quvchi diqqatini juda uzoq vaqt davomida darsga qarata olmaydi, tezda zerikib, tezda chalg'ib qoladi. Shu sababli o'qituvchi dastlab o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qila olishi, qisqa muddat ichida mavzuning mazmun mohiyatini o'quvchiga tushuntirib bera olishi kerak.

“Kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois avval amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta'lim dasturlari yaratib, o'qituvchilarni qayta tayyorlash zarur. Metodika shunday bo'lishi kerakki, u o'quvchilarda matematikaga muhabbat uyg'otsin. Buning uchun o'quvchilar bu fan hayotda, har bir sohada o'ziga kerakligini anglashi zarur. Yoshlar imtihondan o'tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo'lish uchun o'qishi lozim” — deydi davlatimiz rahbari. Bu fikrdan kelib chiqadiki biz pedagoglar o'zimizga nisbatan yanada talabchan bo'lishimiz kerak. Ta'limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi o'qitish tizimida o'quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqish, avtomatik tarzda takrorlashlardan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatni rivojlantirish darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Shundagina o'quvchilar muhim hayotiy yutuq va muammolar, o'tiladigan mavzularning amaliyotga tatbiqi bo'yicha o'z fikriga ega bo'ladi. O'z nuqtai nazarini asoslab bera oladi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini taminlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishini kafolatlashi zarur.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni talim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning qo'llanishi tushuniladi. Interfaollik bu ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – bilim jarayoni o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish. Shu bilan birga o'quvchilarni xalqaro baholash mezonlariga tayyorlab borish, axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarni ijodiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat.

Ushbu maqolada umum ta'lim maktablarining matematika kursida ma'lum bo'lgan “O'tkir burchakning sinusi, kosinusi, tangensi va kotangensi” mavzusini o'qitish bo'yicha ayrim mulohazalar keltiriladi va uslubiy ko'rsatmalar beriladi.

Asosiy qism.

Maktab matematika kursida ma'lum bo'lgan “O'tkir burchak sinusi, kosinusi, tangensi va kotangensi” mavzusi yangi bob hisoblanib, o'quvchi darslikni shu mavzugacha o'tilgan mavzular haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lsagina „O'tkir burchak sinusi, kosinusi, tangensi va kotangensi” mavzusini tushunishda, o'zlashtirishda qiyinchilikka uchramaydi. Bunda yangi mavzu bayoniga o'tishdan oldin o'tilgan darsni takrorlab olgan ma'qul. O'tilgan mavzuni takkorlash uchun „Guruhlarda ishlash” metodini qo'llaymiz. Bu metod uchun va dars davomida olib boriladigan qiziqarli metodlar uchun sinf o'quvchilarini 2 ta

guruhga ajratiladi.

guruh: „Al-Xorazmiy guruhi”

guruh: „Abu Rayhon Beruniy guruhi”

1-topshiriq. Guruhlarga o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun tarqatma savollar beriladi.

guruh savollari:

Uchburchakning o'rta chizig'i deb nimaga aytiladi?

Javob: Uning ikki tomoni o'rtalarini tutashtiruvchi kesmaga aytiladi.

Trapetsiyaning asoslari 9 cm va 21 cm ga teng. Uning o'rta chizig'i uzunligi qancha?

Javob: 15 sm.

Qavariq to'rtburchakning burchaklaridan biri to'g'ri burchak, qolganlari esa o'zaro 3 : 4 : 8 nisbatta. To'rtburchakning kichik burchagini toping?

Javob: 540

2-guruh savollari:

Trapetsiyaning o'rta chizig'i deb nimaga aytiladi?

Javob: Trapetsiya yon tomonlari o'rtasini tutashtiruvchi kesma.

Uchburchakning o'rta chiziqlari 6 cm, 7 cm va 9 cm ga teng bo'lgan uchburchakning tomonlarini toping?

Javob: 12sm, 14sm, 18sm;

3.Fales teoremasi faqat burchak uchun o'rinalimi?


Javob: ha.

Takrorlash uchun „Guruhlarda ishlash” metodini o'tkazib olgandan so'ng o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorligiga ishonch hosil qilgach, yangi mavzu bayoniga o'tish mumkin.

Endi yangi mavzu bayoni bilan tanishib o'tamiz:

Trigonometriya matematikaning bo'limi bo'lib, uchburchakning tomonlari bilan burchaklari orasidagi bog'lanishlar, trigonometrik funksiyalarning xossalari va ular orasidagi munosabatlarni o'rganadi. «Trigonometriya» so'zi grekcha «trigon» – uchburchak va «metrezis» – o'lchash degan so'zlaridan olingan bo'lib, o'zbek tilida «uchburchaklarni o'lchash» degan ma'noni bildiradi. Trigonometriyaning asosiy vazifasi uchburchaklarni yechishdan iboratdir. Uchburchak geometriyaning eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun uchburchaklarni o'rganishni davom ettiramiz. Bobning asosiy maqsadi uchburchaklarning biror elementi (tomonlari va burchaklari)ni boshqa elementlari orqali ifodalashdan iborat.

Katetlari $BC=a$ va $AC=b$, gipotenuzasi $AB=c$ va o'tkir burchagi $\angle A=\alpha$ bo'lgan to'g'ri burchakli ($C=90^\circ$) ABC uchburchak berilgan bo'lsin (1-rasm).



Katetlari $BC=a$ va $AC=b$, gipotenuzasi $AB=c$ va o'tkir burchagi $\angle A=\alpha$ bo'lgan to'g'ri burchakli ($C=90^\circ$) ABC uchburchak berilgan bo'lsin (1-rasm).

1-ta'rif. To'g'ri burchakli uchburchak o'tkir burchagining sinusi deb, shu burchak qarshisidagi katetning gipotenuzaga nisbatiga aytiladi.

$\angle A=\alpha$ burchakning sinusi $\sin\alpha$ kabi belgilanadi va «sinus alfa» deb o'qiladi.

Ta'rifga ko'ra:

$$\sin\alpha = \frac{a}{c}$$

2- ta'rif. To'g'ri burchakli uchburchak o'tkir burchagining kosinusi deb, shu burchakka yopishgan katetning gipotenuzaga nisbatiga aytiladi.

α burchakning kosinusi $\cos\alpha$ kabi belgilanadi va «kosinus alfa» deb o'qiladi. Ta'rifga ko'ra:

$$\cos\alpha = \frac{b}{c}$$

3- ta'rif. To'g'ri burchakli uchburchak o'tkir burchagining tangensi deb, shu burchak qarshisidagi katetning burchakka yopishgan katetga nisbatiga aytiladi.

α burchakning tangensi $\tan\alpha$ kabi belgilanadi va «tangens alfa» deb o'qiladi. Ta'rifga ko'ra:


$$\tan\alpha = \frac{a}{b}$$

4- ta'rif. To'g'ri burchakli uchburchak o'tkir burchagining kotangensi deb, shu burchakka yopishgan katetning qarshisidagi katetga nisbatiga aytiladi.

α burchakning kotangensi $\operatorname{ctg}\alpha$ kabi belgilanadi va «kotangens alfa» deb o'qiladi. Ta'rifga ko'ra:

$$\operatorname{ctg}\alpha = \frac{b}{a}$$

Masala. ABC uchburchakda $\angle C=90^\circ$, $AB=10$ cm, $BC=8$ cm, $AC=6$ cm (2-rasm). A burchakning trigonometrik funksiyalari qiymatlarini toping.



$$a=8\text{sm} \quad b=6\text{sm} \quad c=10\text{sm}$$

Yechish: Ta'rifga ko'ra:

$$\sin A = \frac{BC}{AB} = \frac{8}{10} = 0,8; \quad \tan A = \frac{8}{6} = \frac{4}{3} = 1\frac{1}{3};$$

$$\cos A = \frac{AC}{AB} = \frac{6}{10} = 0,6; \quad \operatorname{ctg} A = \frac{6}{8} = \frac{3}{4} = 0,75;$$

Javob: $\sin A=0,8$; $\cos A=0,6$; $\tan A=1\frac{1}{3}$; $\operatorname{ctg} A=0,75$;

O'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va yuqorida o'tilganlarni takrorlash maqsadida „Bo'laklarni birlashtiring“ metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

O'tkir burchak sinusi	↔	Burchak qarshisidagi katetning burchakka yopishgan katetga nisbati
O'tkir burchak kosinusi	↔	Burchakka yopishgan katetning qarshisidagi katetga nisbati
O'tkir burchak tangensi	↔	Burchak qarshisidagi katetning gipotenuzaga nisbati
O'tkir burchak kotangensi	↔	Burchakka yopishgan katetning gipotenuzaga nisbati

O'quvchilarni o'tilgan yangi mavzu bo'yicha olgan bilimlarini baholash maqsadida „Test“ metodini qo'llaymiz. Sinf o'quvchilarini 2 guruhga bo'lamiz.

1-guruh:

Trigonometriya so'zining ma'nosi qanday?

To'rtburchakni o'lchash;

Uchburchakni o'lchash;

Burchaklarni o'lchash;

Javob: Uchburchakni o'lchash(B).

To'g'ri burchakli uchburchak o'tkir burchagining sinusi deb, ... aytiladi.

Shu burchak qarshisidagi katetning gipotenuzaga nisbatiga;

Shu burchakka yopishgan katetning gipotenuzaga nisbatiga;

Shu burchakka yopishgan katetning qarshisidagi katetga nisbatiga;

Javob: Shu burchak qarshisidagi katetning gipotenuzaga nisbatiga(B).

„Tangens“ atamasi lotin tilidan tarjima qilinganda qanday ma'noni anglatadi?

Egilish;

Siljish;

Urinma;

Javob:Urinma(D).

guruh:

Trigonometriyaning asosiy vazifasi nima?

Uchburchaklarni yechishdan;

Uchburchaklarni yasashdan;

Uchburchaklarni o'lchashdan;

Javob:Uchburchaklarni yechishdan(A).

To'g'ri burchakli uchburchak o'tkir burchagining kotangensi deb, ... aytiladi.

Shu burchakka yopishgan katetning qarshisidagi katetga nisbatiga;

Shu burchakka yopishgan katetning gipotenuzaga nisbatiga;
 Shu burchak qarshisidagi katetning burchakka yopishgan katetga nisbatiga;
 Javob: Shu burchakka yopishgan katetning qarshisidagi katetga nisbatiga(A).
 „Sinus“ atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, qanday ma'noni anglatadi?

Urinma;

Egilish;

Siljish;

Javob; Egilish(B)

YANGI MAVZU UCHUN OLIMPIADA MASALASI:

Mavzuga qo'shimcha tarzda iqtidorli o'quvchilar uchun olimpiada masalarini berib o'tamiz.

Olimpiada masalalari, ta'lim tizimining muhim qismlaridan biri sifatida o'quvchilarga sport, fanlar, matematika, ilmiy tajriba, va boshqa ko'nikmalar bo'yicha musobaqalar tashkil etish orqali o'quvchilarni rag'batlantiradi va o'zlarini imtihon qilishlari uchun motivatsiya yaratadi.

Olimpiada masalalari o'quvchilarga quyidagi foydalarni olib keladi:

1. Tajribani oshirish: Olimpiada masalalari o'quvchilarga o'zlarini sinab ko'rish, ilmiy bilimlarini sinab ko'rish va yanada oshirish imkoniyatini beradi.

2. Yengishga intilish: Olimpiada masalalari o'quvchilarga motivatsiya beradi va ular o'zlarini eng yaxshi o'rinlarda ko'rish uchun yutishga intiladi.


3. Ishonch va o'zini aniqlash: Olimpiada masalalari o'quvchilarga o'zlarining qobiliyatlarini aniqlash va o'zlariga ishonch ko'rsatish imkoniyatini beradi.

4. Ko'nikmalarini oshirish: Olimpiada masalalari o'quvchilarga mahalliy va xalqaro darajada ko'nikmalar oshirishga imkoniyat beradi va ularga global darajadagi ko'nikmalar bilan tanishishga imkon beradi.

MASALA: α , β va γ lar uchburchak ichki burchaklari bo'lsa, quyidagi tenglikni isbotlang:

$$\cos 2\alpha + \cos 2\beta + \cos 2\gamma + 2\cos\alpha\cos\beta\cos\gamma = 1$$

Yechish:



$$\alpha + \beta + \gamma = \pi$$

$$\gamma = \pi - (\alpha + \beta)$$

$$\cos^2\alpha + \cos^2\beta\cos^2(\alpha + \beta) = 2\cos\alpha\cos\beta\cos\gamma = 1$$

$$\cos(\alpha + \beta) = \cos\alpha\cos\beta - \sin\alpha\sin\beta$$

$$\cos^2\alpha + \cos^2\beta + \cos^2\alpha\cos^2\beta + \sin^2\alpha\sin^2\beta - 2\cos\alpha\cos\beta\sin\alpha\sin\beta =$$

$$2\cos^2\alpha\cos^2\beta + 2\cos\alpha\cos\beta\sin\alpha\sin\beta = 1$$

$$\cos^2\alpha + \cos^2\beta + \sin^2\alpha\sin^2\beta - \cos^2\alpha\cos^2\beta = 1$$

$$\cos^2\alpha(1 - \cos^2\beta) + \cos^2\beta + \sin^2\alpha\sin^2\beta = 1$$

$$\sin^2\beta(\cos^2\alpha + \sin^2\alpha) + \cos^2\beta = 1$$

$$\sin^2\beta + \cos^2\beta = 1$$

Maqolani yozish uchun 8-sinf darsligi asos qilib olindi. Bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llab quvvatlash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Dars o'tishning zamonaviy uslublarni qo'llab o'quvchilarning mavzuni tushunishlari yanada osonlashadi va o'zlari ham boshqa o'quvchilarga tushuntirib bera oladigan darajada bo'lishadi.

Xulosa

O'tkir burchakning sinusi, kosinusi, tangensi va kotangensi geometriya va trigonometriyaning asosiy tushunchalaridan bo'lib, ular uchburchaklarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ushbu trigonometrik funksiyalarning ta'riflari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda matematik va amaliy masalalarni yechishda tutgan o'rni yoritildi. Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilariga geometriya kursining "O'tkir burchak sinusi, kosinusi, tangensi va kotangensi" mavzusini o'qitish jarayonida maqolada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish orqali darsning o'tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni bayon qilish, mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash qismlarini samarali tashkil etish mumkin. Umuman darsni yanada samarali, natijador va qiziqarli qilib tashkil qilishda ta'limning turli interfaol usullaridan foydalanish mumkin.

Maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishlari uchun guruhlarda ishlash, test va amaliy mashg'ulotlar usullari taklif etildi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Djurayev, R.X. va boshqalar. (2008). Pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent: Fan nashriyoti.
- Rashidov, A.Sh. (2021). Matematika darslarida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi. Markaziy ilmiy nashrlar, 3-son.
- Rashidov, A.Sh. (2021). Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Science and Education, №9.
- To'xtaxodjayeva, M.A., & Rahimqoriyev, A.A. (2019). 8-sinf Geometriya darsligi. Toshkent: O'zbekiston.
- Rashidov, A.Sh. (2021). Matematika fanlaridan talaba yoshlar ijodiy tafakkurini rivojlantirish. Fan va jamiyat, №3.
- Kurosh, A.G. (1975). Oliy algebra kursi. Toshkent: O'qituvchi.
- Nazarov, R.N., Toshpo'latov, B.T., & Dusumbetov, A.D. (1993, 1995). Algebra va sonlar nazariyasi (1-qism, 2-qism).
- Zaripov, N., & Hasanov, B. (2023, May 27). Python dasturlash tilida ma'lumot to'plamlari va turlari. Interpretation and Researches, 1(1).
- Zaripov, N., & Hasanov, B. (2023, Feb 27). Python dasturlash tilini o'qitishda funksiyalardan foydalanish metodikasi. Talqin va tadqiqotlar, 1(18).
- Zaripov, N.N., & Hasanov, B.N. (2023). Python dasturlash tilini o'qitishda funksiyalardan foydalanish metodikasi. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(18), 15–19.
- Zaripov, N.N., & Hasanov, B.N. (2023). Options for Working with Files in the Python Programming Language. International Interdisciplinary Research Journal, 2(3), 371–375.
- Hasanov, B.N. (2024, Mart 3). Matritsa ustida amallar bajarish metodlari. Educational Research in Universal Sciences, 38–45.
- Hasanov, B.N. (2024, Aprel 14). Kompyuter tarmoqlari haqida umumiy tushunchalar. Ilm-fan va ta'lim, 5(20), 221–226.
- Hasanov, B.N., & Zaripov, N.N. (2023, May 30). Pythonda masalalarni dasturlash va ularni o'qitish metodikasi. Zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari, 462–464.
- Hasanov, B.N., & Zaripov, N.N. (2023, May 20). Python dasturlash tilida ma'lumot to'plamlari va turlari. Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida, 275–277.
- Zaripov, N.N., & Hasanov, B.N. (2023). Python dasturlash tilini o'qitishda funksiyalardan foydalanish metodikasi. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(1), 15–19.
- Hasanov, B.N., & Zaripov, N.N. (2023, May 2). Python dasturlash tilida foydalanuvchi grafik interfeysi imkoniyatlari. Matematik modellash va axborot texnologiyalarining dolzarb masalalari, 3(3), 455–457.
- Khan Academy. (n.d.). Prime and Composite Numbers. <https://www.khanacademy.org>
- Wolfram MathWorld. (n.d.). Prime Number. <https://mathworld.wolfram.com/PrimeNumber.html>
- Wikipedia. (2025, Aprel). Prime number va Composite number maqolalari. <https://www.wikipedia.org>

MILLIY TARBIYADA OTA-ONA VA FARZANDLAR MUNOSABATLARINI O'RGANILISHINING NAZARIY ASOSLARI

Sultonova Zaxro Baxtiyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs Magistri

Annotatsiya: Oila va oilaviy munosabatlar; ayniqsa, ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlari jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Chunki insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan oila muhitida, ota-ona va farzandlar munosabatlari tizimida, boshqa har qanday ijtimoiy institutlar orasidagi uzviylik sifatida olib qaralganda ko'proq darajada o'zlashtiriladi va anoana, maonaviy meros tarzida avloddan-avlodga o'tadi. Ushbu maqolada Milliy tarbiyada ota-ona va farzandlar munosabatlarini o'rganilishining nazariy asoslab beriladi.

Abstract: Family and family relations, especially the relationship between parents and children, have been one of the most important problems since the beginning of society. As society develops, the importance of this problem continues to grow. Because the achievements of humanity are best assimilated in the family environment, in the system of parent-child relations, as a connection between any other social institutions, and are passed on from generation to generation in the form of a traditional, spiritual heritage. This article provides a theoretical justification for the study of parent-child relations in national education.

Key words: National education, parent-child relationships, social development, children's access to information, children's characteristics, and child protection.

Аннотация: Семья и семейные отношения, особенно отношения между родителями и детьми, являются одной из важнейших проблем с момента возникновения общества. По мере развития общества значимость этой проблемы продолжает расти. Поскольку достижения человечества лучше всего усваиваются в семейной среде, в системе родительно-детских отношений, как связи между любыми другими социальными институтами, и передаются из поколения в поколение в виде традиционного, духовного наследия. В данной статье дается теоретическое обоснование исследования родительно-детских отношений в отечественном образовании.

Ключевые слова: Национальная воспитанная, отношения между родителями и детьми, социальное развитие, доступ детей к информации, характеристики детей, защита детей.

Asrlar davomida ota-ona va farzandlarning o'zaro munosabatlari, oilada ularning o'rni, ota-onaning farzand tarbiyasidagi huquqlari va majburiyatlari doimiy, dolzarb masalalardan bo'lgan. Jamiyat rivojlana borgan sari, farzand tarbiyasi, uning ta'minoti bo'yicha qarashlar ham rivojlanib takomillashib borgan.

Masalan, Islom huquqining asoslaridan biri bo'lgan hadislarda farzandga yaxshi ism qo'yish, uni chiroyli tarbiyalash va ilm o'rgatish otaning farzand oldidagi burchlaridan biri sifatida ta'riflangan.

Manbalarda ham oilaning kelajagini, farzandlarning moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlash uchun ota-ona mas'ulligi, ushbu mas'uliyatni nafaqat oila qurilganidan keyin ta'minlash, balki oila qurilmasidan oldin tayyorgarlik ko'rish kerakligi ko'rsatilgan.

Bu kabi talablar zamonaviy qonunchiligimizda ham o'zi aksini topgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida, «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar» deb belgilangan bo'lsa, Oila kodeksining 73-moddasiga ko'ra, ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy,

ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shartligi ko'rsatilib, ota-onaga majburiyat yuklangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvarda qabul qilingan «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunida o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar)-bola (bolalar) hisoblanishi qayd etilib, qonunga ko'ra bolalarning:

- Bolaning yashash huquqi;
- Bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqi;
- Bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;
- Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi;
- Jinoyat protsessining ishtirokchisi bo'lgan bola huquqlarini himoya qilish;
- Bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- Bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi;
- Bolaning g'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalaniish huquqi;
- Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi;
- Bolaning axborot olish huquqi;
- Bolaning fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi;
- Bolaning xususiy mulkka bo'lgan huquqi;
- Bolaning turar joyga bo'lgan huquqlari;
- Bolaning mehnat qilish huquqi;
- Bolaning dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqi;
- Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi;
- Bolaning bilim olish huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi, mazkur huquqlarning buzilishiga sababchi bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishlari belgilab qo'yilgan.

Shunday bo'lsa-da, ayrim ota-onalar o'z farzandlarining qonuniy huquq va manfaatlarini amalga oshirishga e'tiborsizlik bilan qarashi, ularning moddiy ta'minotiga yetarlicha e'tibor qaratmaslik kabi holatlarning uchrashi, nafaqat bolalarning qonuniy huquq va manfaatlarini buzilishiga, balki bu toifadagi nizolarning ham ortishiga olib kelayotgani uchramoqda.

Ayniqsa yoshlar o'rtasida nikohdan ajralishlarning oqibatida jinoyat va huquqbuzarliklar kelib chiqayotgani, go'daklarning tirik yetim bo'lib qolayotgani ularning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, ayrim ota-onalarning esa farzandlaridan nafaqa undirish haqida sudga da'vo ariza bilan murojaat qilayotganlari achinarli holdir.

Shu sababli ota-onalar farzandlari oldidagi mas'uliyatini doimiy ravishda yodda tutishlari, ularning bugungi harakatlari (harakatsizligi) nafaqat bolalarining ruhiyatiga, ularning o'sib unishiga, balki o'zlarining kelgusidagi hayotlariga, ya'ni farzandlari bilan munosabatlariga salbiy ta'sir qilishini doimo yodda tutishi zarur.

Chunki farzand bugun olgan mehrini e'tiborini ertaga qaytaradi, dono xalqimiz bejizga «Har kim ekanini o'radi» deb naql qilmagan.

Zero, xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, uni asrash, farovonligini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelgan. Oilada milliy qadriyat va an'analar rivoj topishi bilan birga ertangi kunimiz egalari – farzandlar kamolga yetadi. Farzandlar ota-onalari bilan mustahkam, samimiy va ishonchli munosabatlar qurish orqali o'zlarini qadrli, sevib e'zozlangan inson sifatida his qiladilar. Bunday munosabatlar farzandlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ularni murakkab vaziyatlarda qo'llab-quvvatlaydi va psixologik farovonlikka erishishga yordam beradi.

Ota-ona va farzandlar munosabatining asosiy omillari

Mehr va e'tibor: Ota-onalar farzandlariga mehr va e'tibor ko'rsatganlarida, bolalarda o'zlarini sevib e'zozlangan his qilishlari uchun asosiy sharoit yaratiladi. Ota-onalarning mehr va e'tibori, bolalar hayotidagi hissiy farovonlikning manbai bo'lib, ularning o'ziga ishonchli, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ochiq va samimiy muloqot: Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi samimiy va ochiq muloqot o'zaro munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Muloqot orqali ota-onalar farzandlari bilan ular duch kelayotgan muammolarni muhokama qilishlari, ularning fikr va his-tuyg'ulariga e'tibor berishlari muhim. Bu, o'z navbatida, farzandlarda ota-onaga bo'lgan ishonchni oshiradi va ular o'z his tuyg'ularini ochiq-oydin ifoda etishga o'rganadilar.

Qoidalar va intizom: Ota-onalar farzandlar uchun aniq qoidalar va cheklovlarni belgilashlari lozim. Qoidalar va intizom ota-onalar va farzandlar o'rtasida mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Farzandlarga qo'yilgan qoidalar ularning xulq-atvorini nazorat qilish bilan birga, ularda o'z mas'uliyatini tushunish va anglash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish: Ota-onalarning farzandlariga qo'llab-quvvatlov ko'rsatishi va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi ularning o'ziga ishonchini oshiradi. Masalan, farzandlarni sport, san'at, ilmiy tadbirlar yoki boshqa qiziqish sohalariга jalb qilish orqali ularda o'zini namoyon qilishga bo'lgan ishonch kuchayadi.

Tarbiyadagi bir xil yondashuv: Ota-onalar o'rtasida bolalar tarbiyasida bir xil yondashuv muhim ahamiyatga ega. Farzandlarga bir xil intizom va tarbiya usulini qo'llash orqali ular ota-onalaridan qanday munosabat kutish kerakligini yaxshi bilib oladilar. Bu o'z navbatida bolalar hayotida aniq va sog'lom munosabatlar qoidalarini shakllantiradi.

Moslashuvchanlik: Ota-onalar farzandlarining yoshiga va rivojlanish darajasiga qarab moslashuvchan munosabat usulini qo'llashlari muhim. Kichik yoshdagi bolalar uchun ko'proq rahbarlik va yo'naltirish zarur bo'lsa, o'smirlar va yoshlarga mustaqil qaror qabul qilishga imkon berish muhimdir. Bu esa ularda o'zini anglash va javobgarlik hislarini rivojlantiradi.

Ota-ona va farzand munosabatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Psixologik omillar: Ota-onalarning o'zlariga xos psixologik holati va tarbiyaviy yondashuvlari farzandlar bilan munosabatga katta ta'sir qiladi.

Masalan, stress, asabiylik yoki boshqa psixologik omillar munosabatlarga salbiy ta'sir qilishi mumkin, bu esa ota-onalarning farzandlari bilan muloqotida aks etadi.

Ota-onalarning psixologik holati va tarbiyaviy yondashuvlari farzandlar bilan o'rtadagi munosabatlarning sog'lom yoki salbiy bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Ota-onalarning kundalik hayotidagi psixologik omillar farzandlar bilan bo'ladigan muloqot va munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalarning psixologik holati va hissiy barqarorligi Ota-onalarning hissiy holati va psixologik barqarorligi farzandlar bilan o'zaro muloqotda o'z ifodasini topadi.

Agar ota-onalar doimiy ravishda stress, asabiylik, yoki psixologik zo'riqish holatida bo'lsa, bu ularda hissiy charchoqni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatda ota-onalar bolalariga yetarlicha e'tibor bera olmasliklari, shuningdek, ularning his-tuyg'ulariga javob qaytara olmasliklari ehtimoli oshadi.

Stress holatidagi ota-onalar odatda asabiy va sabrsiz bo'lishadi, bu esa bolalarga qo'pollik bilan munosabat qilish yoki ularni kamroq qo'llab-quvvatlashga olib kelishi mumkin.

Stressning ta'siri

Stress - bu ko'pincha ish joyidagi muammolar, moliyaviy qiyinchiliklar yoki sog'liq bilan bog'liq muammolar natijasida kelib chiqadigan psixologik bosim holatidir. Stress holatidagi ota-onalar farzandlari bilan muloqotda sustlashishi, ularni kamroq tinglashi yoki sabrsiz va tajovuzkor bo'lib qolishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, bolalarda xavotir, qo'rquv va hatto o'zini aybdor his qilish kabi salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, ota-onalar o'z muammolarini bolalardan yashirsa ham, bolalar ota-onalarining ruhiy holatidagi o'zgarishlarni sezishlari va bu ularda tushunmovchilik, qo'rquv keltirib chiqarishi mumkin.

Asabiylik va boshqa hissiy holatlar

Ota-onalarning asabiyligi va hissiy beqarorligi bolalarga ko'proq tanbeh berish, ularni qattiqroq intizomga tortish yoki hatto jahl bilan javob qaytarishga olib keladi. Bu turdagi xatti-harakatlar,

ayniqsa kichik yoshdagi bolalar uchun, salbiy psixologik ta'sir ko'rsatadi va ularning o'z-o'zini baholash darajasini tushirishi mumkin.

Asabiy holatdagi ota-onalar farzandlarning ehtiyojlarini eshitishga va ularning hissiy holatini tushunishga kamroq moyil bo'ladilar, bu esa ota-ona va bola

o'rtasida uzoqlashish va tushunmovchilikka olib keladi.

Ota-onalarning hissiy tartibga solish qobiliyati

Ota-onalarning o'z hissiyotlarini boshqarish (ya'ni hissiy tartibga solish qobiliyati) darajasi ham farzandlar bilan munosabatda muhim o'rin tutadi. O'z hissiyotlarini tartibga solish qobiliyatiga ega ota-onalar muammolar paytida ham farzandlari bilan tinch va qo'llab-quvvatlovchi munosabatlarni saqlashga qodir bo'ladilar. Bu esa bolalarda xavfsiz va ishonchli hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi.

Biroq, o'zini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch keladigan ota-onalar bolalar bilan munosabatda tez-tez tajovuzkorlik yoki negativ reaksiyalarni namoyon qilishlari mumkin.

Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda quydagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Sharq mutafakkirlarining ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlariga oid qarashlari borasidagi tarixiy nazariyalarga asoslaniladi;

2. Ota-ona va farzandlar munosabatlari muammosining O'zbekistonda o'rganilishini tahlil qilinadi;

3. Milliy tarbiyada ota-ona va farzandlar munosabatlarining o'rganish metodlarini belgiladi;

4. O'zbek oilasida bolalarning o'zaro munosabatlari pedagogik-psixologik xususiyatlarini asoslab beriladi;

5. Milliy tarbiyada ota-ona va farzandlar munosabatlarining pedagogik-psixologik xususiyatlari tadqiq etishda samarali natijaga erishiladi;

Demak Milliy tarbiyada ota-ona va farzandlar munosabatlarining pedagogik-psixologik xususiyatlari tadqiq etish, o'rganish, tahlil qilish va metodlardan foydalanilgan holda tafsiiy va ko'satmalar berish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдувоҳидов А. Оилада ота-она ва фарзандлар ўртасидаги муносабатлар. Ўзбек оиласини иқтисодий ва ижтимоий психологик муаммолари. -Т.: 2000. -Б.26-27

2. Абдуллаева Д.У. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг этнопсихологик хусусиятлари. /»Ёшлар муаммолари ва улар ечими (ҳолат ва итиқбол)«мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси (илмий мақолалар тўплами) -Т.:Қатортол-Қамолат, 1999, -Б.93-96.

3. Авлоний А. Туркий гулистон ёъуд ахлоқ.-Т.:Ўқитувчи.1992.-160 б

4. Азимова Н. Ўзбек оиласида бола тарбиясининг ўзига хослиги. /Оила-давлат таянчи (илмий мақолалар тўплами).-Т.:1998.- Б.54-57.

5. »Бола ҳуқуқлари тўғрисида» БМТ конвенцияси. -Т.: Ўзбекистон болалар жамғармаси. 1998. -48 б.

6. Каримов И.А. Оила фаровонлиги, миллат фаровонлиги. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг беш йиллигига бағишланган мажлисидаги табрик сўзи. //Халқ сўзи. 05.12.97.

7. Каримов И.А. Барқамол авлод орзуси. - Т.: Шарқ. 1999. -182 б.

8. Каримов И.А. Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман. //Халқ сўзи. 2000 й. 10 июн.

9. Ғозиев Э.Г. Ўзбек халқининг этнопсихологияси ва бола тарбияси. /Ўзбек оилаларининг этнопсихологик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани маорוזаларининг қисқача баёни. -Т.: 1993. - Б.8-9.

10. Soxibov A.R. "Etnopedagogika". Darslik. Toshkent "Makon Savdo Print" X K -2024

11. Қодиров Б.Р. Оила ва истеододли бола: муаммо ва ечимлар. /Ўзбек оиласининг этнопсихологик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани маорוזалари қисқача баёни. -Т.: 1993. - Б.10-11.

12. Қошғарий М. Девону лубатит турк. (3 томлик) -Т.: Ўзфанакадемнашр, 1969.-175с.

PEDAGOGIK JARAYONNING FUNKSIONAL KOMPONENTLARI HAMDA TA'LIM, FAN VA ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASI TAMOIYILLARI

Samadova Malika Xasan qizi
Qarshi Davlat Universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik jarayonning asosiy funksional komponentlari hamda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro aloqani mustahkamlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: integratsiya, nazariy bilim, kasbiy kompetensiya, malaka, ko'nikma, individual va jamoaviy faoliyat, funksional komponent, pedagogic tizim, metodologik asoslar, hamkorlik, ijtimoiy sherik.

Аннотация. В статье анализируются основные функциональные компоненты педагогического процесса и основные принципы интеграции образования, науки и производства. В современном образовательном процессе рассматриваются механизмы повышения эффективности образования за счет усиления взаимодействия науки и производства.

Ключевые слова: интеграция, теоретические знания, профессиональная компетентность, квалификация, умения, индивидуальная и коллективная деятельность, функциональный компонент, педагогическая система, методические основы, сотрудничество, социальный партнер.

Abstract. This article analyzes the main functional components of the pedagogical process and the basic principles of the integration of education, science and production. Mechanisms for increasing the effectiveness of education by strengthening the interaction of science and production in the modern educational process are considered.

Keywords: integration, theoretical knowledge, professional competence, qualifications, skills, individual and collective activity, functional component, pedagogical system, methodological foundations, cooperation, social partner.

KIRISH. Pedagogik jarayon – bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayoni bo'lib, unda turli xil funksional komponentlar ishtirok etadi. Bugungi kunda ta'limning sifatini oshirish maqsadida uni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu integratsiya pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga, talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lashga va ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy muhandislarni kasbiy tayyorlash jarayonida OTTM o'qituvchilari talabalarni bilim, ko'nikma va malakalarning bir tizimidan yuqoriroq tartibdagi ikkinchi tizimga o'tkazish bilan bog'liq ijodiy pedagogik muammolarni doimiy hal qilishadi. Bir holatdan ikkinchisiga o'tkazishning ko'plab usullari mavjud. Hozirgi vaqtda samarali, ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarning ko'p komponentli tizimi ishlab chiqilgan. Bularga faol, kontekstli, muammoli, loyihaviy, modulli ta'lim texnologiyalari va shu kabilar kiradi. Qaysi birini tanlash lozim, qaysi biri muayyan sharoitlarda belgilangan maqsadga erishish uchun samaraliroq, degan savollar tug'iladi.

Loyihalash darajasida muhandisni tayyorlash texnologiyasini baholash uchun ikkita asosiy mezonni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi mezon – texnologiyani o'zaro bog'langan komponentlar tizimi sifatida taqdim etish, ikkinchi mezon – texnologiyaning algoritmikligi, uning eng muhim ko'rsatkichlari bo'lib texnologik protseduralarni bajarish bir ma'noligi va muhandislarni tayyorlash jarayonining funksional to'liqligi hisoblanadi.

Ikkala mezon ham pedagogik jarayonning funksional komponentlariga, ya'ni o'qituvchi

va talabalar faoliyati jarayonida yuzaga keladigan asosiy strukturaviy elementlarning barqaror tayanch aloqalariga asoslanadi. Bu aloqalar pedagogik tizimlarning harakatini, rivojlanishini, takomillashishini va natijada ularning barqarorligi, hayotiyliigi va yashovchanligini belgilab beradi. Funktsional komponentlar amaldagi pedagogik tizimlarni tavsiflaydi. Bunda pedagoglar va talabalarning individual va jamoaviy faoliyatining har xil turlarida ajratib ko'rsatilgan strukturaviy komponentlarning har biri boshqalar bilan yangi munosabatlarga kirishadi va ularning o'zaro ta'sirini o'ziga bo'ysundiradi.

Tizimning funksional komponentlarining har biri o'ziga xoslikka, pedagogik jarayon ishtirokchilarining faoliyatida o'zining yuklamasiga ega. Pedagogik tizimlarda gnostik, loyihalash, konstruktiv, kommunikativ va tashkiliy funksional komponentlar ajratib ko'rsatiladi.

Gnostik komponent tizimning maqsadlari va ularga erishish vositalari, pedagogik muammolarni hal qilishning dastlabki bosqichida, ularni hal qilish jarayonida va yakuniy bosqichda pedagogik o'zaro ta'sir obyektlari va subyektlarining holati, pedagogik jarayon ishtirokchilarining psixologik xususiyatlari to'g'risida yangi bilimlarni to'plash bilan bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u o'z faoliyatini o'rganish natijasida yangi bilimlarni olish va turli manbalardan olingan yangi o'quv va ilmiy ma'lumotlarni olish asosida ularni qayta qurish qobiliyatini nazarda tutadi.

Pedagogik tizimning loyihalash funksional komponenti qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarining bo'lajak faoliyatida topshiriq-vazifalarni (strategik, taktik va tezkor) va ularni hal qilish usullarini istiqbolli rejalashtirish bilan bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi.

Konstruktiv funksional komponent o'quv va tarbiyaviy ma'lumotlarning mazmunini tanlash va kompozitsion qurish, bo'lajak faoliyatning xususiyatlarini aniqlash bo'yicha harakatlarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ komponent pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasida, shuningdek, talabalar va ularning o'z faoliyati obyektlari o'rtasida pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rnatish bilan bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu o'zaro ta'sir juda muhim bo'lib, mazmunli, faoliyatli xarakterga ega bo'lishi, mazmuni esa biluv predmeti bo'lgan narsa bo'lishi kerak. Talabalar faolligi boshqa turdagi kommunikatsiya – o'qituvchi va o'quv ma'lumotlari orasidagi kommunikatsiya orqali tayyorlanadi. Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorlash jarayonini loyihalash darajasida o'qituvchi turli xil variantlarni oldindan "o'ynash" va eng maqbulini tanlash asosida talabalarning kelgusi faoliyatini loyihalashtiradi. Kommunikativ komponent, shuningdek, pedagogik jarayon ishtirokchilarini bo'lajak birgalikdagi faoliyat mashg'ulotlariga jalb qilishga, ularning ichki dunyosiga kirib borishga qaratilgan faoliyatni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy komponent pedagogik konsepsiyani mo'ljallangan pedagogik natijaga erishish uchun pedagogik jarayon qanoatlantirishi kerak bo'lgan, oldindan ishlab chiqilgan tamoyillar, qoidalar va ko'rsatmalar tizimiga muvofiq faoliyat subyekti va pedagogik ta'sir obyektlari o'rtasidagi vaqt va makonda o'zaro ta'sirni aniq tashkil etish orqali amalga oshirish harakatlarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik tizimning barcha funksional komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Bu o'zaro bog'liqlik ko'rsatkichi ta'lim texnologiyasini o'quv jarayonining barcha funksiyalarini kompleks amalga oshirish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan baholashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Pedagogik jarayon funksional jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq bir necha asosiy komponentlardan tashkil topadi. Ilmiy manbalarda Yuriy Konstantinovich Babanskiy pedagogik jarayonning metodologik va nazariy asoslarini tadqiq qilgan va o'qitishning optimallashtirish nazariyasini ishlab chiqqan va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirgan. U tomonidan ta'lim mazmuniga berilgan ta'rifga ko'ra, bu ta'lim dasturlari va o'quv materiallarini samarali yetkazish jarayonini tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Ta'lim mazmuni ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy qismlaridan biri bo'lib, u quyidagilarni

o'z ichiga oladi:

bilimlar – fan va sohalar bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar;
ko'nikmalar va malaka – o'quvchilar va talabalarda shakllantiriladigan amaliy tajriba;
qadriyatlar va kompetensiyalar – shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar.

Aleksey Nikolayevich Leontev psixologik rivojlanish jarayonlarini, ayniqsa, ta'lim jarayonida inson faoliyatining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq qilgan. Leontevning ishlari pedagogik psixologiya, kognitiv rivojlanish va ta'lim metodologiyasi uchun katta ahamiyatga ega. ta'kidlanishicha, ushbu komponentlar ta'limning samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Maqsadli komponent – ta'lim jarayonining asosiy maqsadlarini belgilash va ularga erishish yo'llarini aniqlash. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashtirish maqsad shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va boyitishdan iborat (V.P. Toporovskiy, E.P. Pecherskaya, G.K. Borozenes, Ye.O. Galitskiy).

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish uchun uning funksional komponentlarini tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Shuningdek, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi innovatsion yondashuvlar asosida amalga oshirilishi kerak. Bu esa ta'lim jarayonini amaliy jihatdan boyitish, ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlarni kuchaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy hayotning barcha sohaları bilan yangi o'zaro munosabatlar zarur bo'ladi. Yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonlari integratsiyasi, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqish va hok. ish o'rinlarining malakaviy tavsiflariga, ta'lim standartlariga va boshqa ta'lim komponentlariga tuzatishlar kiritadi. Umummilliy innovatsion tizimning struktura hosil qiluvchi komponenti bo'lib dinamik jarayonni ifodalovchi ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan ta'lim-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish markazlari bo'lib, ham bilimga asoslangan iqtisodiyotni, ham ijtimoiy-madaniy makonni, shu jumladan uning "ta'lim" quyi tizimini kuchli rivojlantirishga hissa qo'shadi. Fanni talab qiluvchi ishlab chiqarish va muhandislik-texnik ta'limning zamonaviy ittifoqi nafaqat kasbiy jamoalarning, balki o'quv jarayonining har bir subyekting loyihalash-texnologik faoliyatining innovatsionligi bilan tavsiflanadi. Yirik ijtimoiy-muhandislik loyihalarini tayyorlash va bajarish jarayonida talab qilinadigan shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli dolzarblashtiradigan, innovatsion tafakkurni namoyon etadigan hamda va uzluksiz ta'lim va mustaqil ta'limga, ijodiy o'z-o'zini ifodalashga, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tashkil etish, o'zaro tushunish va hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ishtirokchilar "filtrlanadi".

TAHLIL VA NATIJALAR. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining nazariy-metodik asoslarini o'rganish orqali ta'limdagi integratsiya jarayonlarining mohiyati va qonuniyatlari ochib berildi, ishlab chiqarish va fan bilan ittifoqda yagona ta'lim makonini yaratdi. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

- integratsiyaning mahsuldorligiga ta'lim, ilmiy muassasalar va ishlab chiqarish o'rtasidagi turli xil munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdorlik sharti bilan erishiladi;
- integratsiya samaradorligi uning strukturaviy-izomorf komponentlari soni ortishi sharti bilan ortadi;
- mutaxassislar tayyorlash sifatining yuqori darajasiga ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integrativ o'zaro hamkorligining barcha subyektlari ehtiyojlari va talablari o'rtasidagi mutanosib muvofiqlikka erishish sharti bilan erishiladi;

- bo'lajak muhandislarning raqobatbardoshligi va ularni tarmoqdagi mehnatga yo'naltirilganligi ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini tayyorlash mazmuniga kiritilishi orqali ta'minlanadi.

XULOSA. Pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish uchun uning funksional komponentlarini uyg'unlashtirish va ta'lim, fan hamda ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish zarur. Buning uchun ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida hamkorlikni

kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish va innovatsion ta'lim metodlarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki ishlab chiqarish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga ham xizmat qiladi.

Texnika yo'nalishidagi Oliy ta'lim muassasalarida integratsiya jarayonlarini rivojlantirishni boshqarishga barcha manfaatdor tuzilmalarning samarali o'zaro ta'siri orqali erishiladi va quyidagilarni nazarda tutadi: o'quv jarayonini ish beruvchilarning bitiruvchilarning malakasiga qo'yadigan talablariga muvofiq tashkil etish; mutaxassislarni tayyorlash sifatini ish beruvchilar bilan birgalikda tuzilgan test sinovlari asosida mustaqil ekspert komissiyalari tomonidan baholash; ijtimoiy sheriklar ishtirokida bitiruvchilarning malakaviy tavsifnomalarini sertifikatsiyalash; ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, birinchi navbatda, modulli-kompetentlik texnologiyalarini joriy etish; talabalar amaliyotini ishlab chiqarish sharoitida zamonaviy uskunalarda tashkil etish; ijtimoiy sheriklikning variativ shakllari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Бабанский Ю.К. “Оптимизация учебно-воспитательного процесса”. – Москва: Педагогика, 1988г.

Васильев В. В. “Дидактические основы интеграции образования, науки и производства”. – Москва: Просвещение, 2002 г.

Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. - T.: «Iqtisodiyot», 2012. -154-b. 5.

Ishmatov K. Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari. // «Ta'lim muammolari», 1999, 1-2 sonlar. -54-57-b. Давыдова, Н.Н. Развитие педагогического (образовательного) кластера в региональном образовательном пространстве / Н.Н.Давыдова, Б.М. Игошев, С.Л. Фоменко // Педагогическое образование в России. — 2015 — №11 —с-12

ЗНАЧЕНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА МЕЖДУ ВУЗОМ И ПРОИЗВОДСТВЕННЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МХ Самадова - Экономика и социум, 2023

Samadova M.X. Oliy ta'lim tashkiloti va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi samarali ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati va yo'nalishlari “Muallim ham uzliksiz bilimdandur” ilmiy-uslubiy jurnali 6-son. Nukus 2023, bet. 143-148.

MAXSUS MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARIDA TOVUSH MADANIYATI, ESHITUV IDROKI VA NUTQIY NAFASNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi

Alfraganus University Maxsus pedagogika: Logopediya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida nutqiy jarayonlarni rivojlantirish, xususan tovush madaniyatini shakllantirish metodikasi yoritilgan.

Unda bolalarning tovush talaffuzi, eshituv idroki va nutqiy nafasini rivojlantirishga yo'naltirilgan uslubiy yondashuvlar, didaktik o'yinlar va mashqlar tizimi tavsiflanadi. Ayniqsa, aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik eshituv, nutqiy nafas va artikulyatsiya jarayonlarining rivojlanishi, ular bilan olib boriladigan frontal va individual mashg'ulotlar metodik jihatdan bayon etilgan. Maqola logopedik amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali metodik yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Tovush madaniyati, maktabgacha ta'lim, logopediya, eshituv idroki, nutqiy nafas, fonematik eshituv, tovush talaffuzi, aqli zaif bolalar, maxsus pedagogika, didaktik o'yinlar, nutqiy mashqlar.

Аннотация: В статье рассматривается методика развития речевых процессов, в частности формирования звуковой культуры, в специальных дошкольных учреждениях. В нем описывается система методических подходов, дидактических игр и упражнений, направленных на развитие звукопроизношения, слухового восприятия и речевого дыхания у детей. В частности, методически описано развитие фонематического слуха, речевого дыхания и артикуляционных процессов у умственно отсталых детей дошкольного возраста, а также фронтальная и индивидуальная работа с ними. В статье приведены эффективные методические подходы, которые можно использовать в логопедической практике.

Ключевые слова: Звуковая культура, дошкольное образование, логопедическое лечение, слуховое восприятие, речевое дыхание, фонематический слух, звукопроизношение, умственно отсталые дети, специальная педагогика, дидактические игры, речевые упражнения.

Abstract: This article discusses the methodology for developing speech processes in special preschool institutions, in particular, the formation of sound culture. It describes methodological approaches, a system of didactic games and exercises aimed at developing sound pronunciation, auditory perception and speech breathing in children. In particular, the development of phonemic hearing, speech breathing and articulation processes in mentally retarded preschool children, frontal and individual classes with them are methodologically described. The article contains effective methodological approaches that can be used in speech therapy practice.

Keywords: Sound culture, preschool education, speech therapy, auditory perception, speech breathing, phonemic hearing, sound pronunciation, mentally retarded children, special pedagogy, didactic games, speech exercises.

Kirish. Nutqning tovush madaniyatiga doir bir qancha vazifalarni: tovush talaffuzi, sur'ati, diksiya, tasviriylilik va boshqalarni amalga oshirishdagi asosiy yo'l ishning frontal shaklidir. Bundan bolalar bog'chasining hamma guruhlarida foydalaniladi. Bu ish avvalo mashg'ulot shaklida amalga oshiriladi va unga har xil mazmundagi mashqlar kiritiladi.

Tovush talaffuzi, nutqda nafas olish, eshitish mashqlari har kuni olib boriladi. Ba'zi mashqlar nutq o'stirishga oid boshqa mashg'ulotlar jumlasiga kiritiladi.

Kichik guruhlarda bolalar bilan olib boriladigan ishlar ommaviy tarzda hamma bolalar bilan o'tkaziladi. Shuningdek, yakka tartibda ham olib boriladi. Bolalar bilan yil davomida undosh

tovushlardan p, b, m, n, t, d, q, g, f, v, n; sirg'aluvchi s, z, sh, j, ch; unli tovushlardan a, o, u, i, o', e larni talaffuzi nutq orqali nafas olish, eshitish idrokini, nutq apparatinining harakatini, nutq apparatini rivojlantiruvchi ishlar bilan olib boriladi.

Tovushlarni mustahkamlash mashqlarini boshqa mashg'ulotlarga qo'shib olib borib, uning tarkibiy elementi yoki maxsus qismi sifatida kiritish mumkin. Masalan: mashg'ulotlarning birinchi qismida "Qo'g'irchoqni uxlatamiz" didaktik o'yin o'ynalsa, ikkinchi qismida eshitish idrokini o'stiradigan mashqlar bajariladi. "Ovozidan top" o'yin o'ynaladi (4-5 daqiqa), eshitish nutqini, diqqat bilan eshitishni, nafas olishni, nutq apparatining harakatini rivojlantiruvchi mashqlar ertalabki, kechki soatlarda, sayr vaqtlarida o'tkaziladi.

O'rta guruhda qiyin tovushlarni talaffuz qilishga o'rganish maxsus mashg'ulotlari bir necha qismdan iborat, bir mazmunga birlashgan holda tuzib o'tkazish yaxshi natija beradi. Masalan: mashg'ulotlarning birinchi qismida bolalar oldiga o'quv vazifasi qo'yiladi. -sh tovushini aytishga o'rgatishda tovush artikulaatsiyasi ko'rsatiladi, tushuntiriladi va bolalarga mashq qildiriladi. Mashg'ulotlarning ikkinchi qismida esa bolalar shu tovushning talaffuzini so'zlarda (shamol, shar, eshik, mushuk, bosh, tosh, yo'ldosh) mashq qiladilar. Bu qism didaktik o'yin dramalashtirilgan hikoya, inssenirovka shaklida berilishi mumkin.

Nutqning tovush madaniyati ustida ishlash katta va tayyorlov guruhlarida davom ettiriladi.

Tizimli ravishda olib borilgan ishlar natijasida maktabga tayyorlov guruhidagi barcha bolalarda ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etadigan bo'lishlari lozim. Lekin shunga qaramay, katta va tayyorlov guruhlarida ham mashg'ulotlar hamma bolalar bilan frontal tarzda o'tkaziladi. Bunda maxsus mashg'ulotlarning maqsadi o'zgaradi. Bunda bolalar tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qiladilar va ularda nutqdagi tovush madaniyatining boshqa tomonlari (turli ovoz kuchidan, turli nutq sur'atidan foydalana bilish) tarbiyalanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarga turli nutq tovushlari: she'r o'qish, tez aytish, maqollar, suratlarni qayta hikoya qilish, ifodalash asosida tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qildirib boorish lozim.

Katta guruhlarda haftada 2-3 marta mashg'ulotlardan tashqari vaqtda jamoa bo'lib o'ynaladigan harakatli, nafas, eshitishni rivojlantiruvchi takroriy o'yinlar o'tkaziladi.

Katta guruhlarda frontal ishdan tashqari tovush talaffuzida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan yakka tarzda qo'shimcha mashg'ulotlar joriy qilinadi. Tekshiruvlar o'tkazilgach talaffuzdagi nuqsonlariga qarab bolalar guruhlariga ajratiladi. Masalan: Aziz, Malika, Dilbar "r" tovushini talaffuz eta olmaydilar. Tarbiyachi bu bolalar bilan haftada 2-3 marta qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazadi (ertalabki va kechki soatlarda). Bu mashg'ulotlarning har biri 10-12 daqiqa davom etadi.

Masalan:

To'g'ri gapirishni o'rganishning zarurligi haqida suxbat.

Tovush artikulyatsiyasini ko'rsatish va tushuntirish.

Shu tovushni talaffuz etishni bolalardan so'rash.

Eshituv idrokini shakllantirish. Nutqning tovush tomonini o'zlashtirishda eshitish boshqaruvchi analizator hisoblanadi. Fonematik eshituvning rivojlanishi bolaning ona tilidagi tovushlarni, ayniqsa, so'zning tovush tizimini tez va to'g'ri o'zlashtirib olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. So'zning tovush tarkibini to'g'ri idrok qilish uni to'g'ri eslab qolishning asosiy omillaridan biridir.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda esa fonematik idrok kech shakllanadi. Bolalar atrofdagi odamlar nutqidagi tovushlarni farqlay olmaydilar, yangi so'zlarni o'zlashtira olmaydilar, artikulyatsion jihatdan o'xshash tovushlarni yaxshi ajrata olmaydilar. Fonematik idrokning yaxshi shakllanmaganligi bir tovushni ikkinchi tovushga almashtirishga, so'zning tovush tarkibini analiz qilishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Maxsus tashkil qilingan mashg'ulotlarda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning fonematik idrokini shakllantirishda tovushlarni aniqlash, so'zdagi tovushlarni ajratish, sonini, o'rnini aniqlash ishlarini olib boorish lozim.

Eshituv idroki bolada erta rivojlanadi. 2-3 haftalik me'yorda rivojlanayotgan bolada nutqqa, ovozga nisbatan ba'zi bir terma reaksiya boshlanadi; 5-6 oylarda u intonatsiyaga, keyinchalik nutqning ohangiga e'tibor beradi. 2 yoshga yetganda ona tilidagi hamma tovushlarni eshitadi va uni bir-birida ajrata oladi. 2 yashar bolada eshitish nutqi tarkib topgan deb hisoblash mumkin, chunki u ona tilidagi hamma tovushlarni ajratadi, eshitish nutqining bunday darajada bo'lishi nutq orqali amaliy aloqa qilish uchun yetarlidir.

Tovushlarni analiz qilish yoki fonematik idrok qilish, so'zda qaysi tovush eshitilganligini va miqdorini aniqlash qobiliyatini tekshirish maqsadida hamma yosh guruhlarida eshituv idrokini tarkib toptirish ishi olib boriladi.

Eshitish diqqatini rivojlantirishda didaktik o'yinlar muhim ahamiyatga ega. Kichik guruhlarda eshituv idrokini tarkib toptirish mashg'ulotlarida musiqa asboblari, ovoz chiqaradigan o'yinchoqlardan foydalaniladi. Ular vositasida bolalar ovozining kuchi va xarakterini ajratishni o'rganadilar. Masalan: "Qayerda chalindi?" o'yinida bir bola ko'zini yumib, qay tomonda qo'ng'iroqning ovozi kelayotganini qo'li bilan ko'rsatishi kerak. Agar bola to'g'ri topsa tarbiyachi "To'g'ri!" degandan keyin ko'zini ochadi. Qo'ng'iroqni chalgan bola qo'lini ko'tarib, qo'ng'iroqni ko'rsatadi. Agar yanglishsa, toppish uchun unga yana bir marta imkon beradi, so'ng boshqa bola o'yinga chiqariladi. "Topchi nimani chaldilar?" o'yini ham keng tarqalgan o'yinlardan biridir. Katta guruhlarda eshitish idrokini o'stirish faqat shunga o'xshash o'yinlardangina emas, balki radio, audio eshittirish usulidan ham foydalaniladi. "Bir muncha tinchlik" o'yinini o'tkazib turish, uni "Kin ko'p eshitadi", "Xonada nima haqida gaplashayaptilar" degan mashqlar bilan almashtirib turish lozim. Bu mashqlar davomida alohida bolalarga eshitgan narsalarni talaffuz etishni taklif qilish mumkin (jo'mrakdan suv tomchilayapti, ko'chada mashina shovqini eshitildi, chumchuq chirqillayapti va boshqalar).

Nutq va so'zdagi tovushlarni idrok qilish va yaxshi tushunish uchun eshitish idrokini rivojlantiruvchi o'yinlar, masalan: "Men nima dedim, top" didaktik o'yini o'tkaziladi.

Maxsus pedagog bolalardan bir necha metr narida turadi, keyin bolalar eshitib topishlari uchun lozim bo'lgan so'z yoki jumlaning avval sekin, keyin shivirlab talaffuz etadi. Bolalarga o'yin qoidasi tushuntiriladi: "Men bir so'zni sekin aytaman, siz diqqat bilan eshiting va nima aytganimni toping. Men kimni chaqirsam, shu bola nima eshitganini aniq va baland ovoz bilan aytib beradi".

Kichik guruhlarda bu o'yin dastlab ko'rsatma materiallar bilan o'tkaziladi. Maxsus pedagog bolalar oldida turgan o'yinchoqlarning nomini sekin aytadi va bolalarga qiyin bo'lmagan topshiriq beriladi ("Dilbar qo'g'irchoqni kravatga yotqiz", "Aziz bayroqchani vazaga qo'y"). maxsus pedagog bu topshiriqlarni bolalarga qarab turib aytadi, bu esa bolalarni aytilgan so'zlarning artikulyatsiyasini ko'rib, tez topishlariga yordam beradi. Bir necha takrorlanishdan so'ng o'yin topshirig'i murakkablashtiriladi. Maxsus pedagog so'zni bolalarning orqasida turib talaffuz etadi, topshiriq bir marta aytiladi. 4-5 bola chiqib nima eshitganlarini aytadi, so'ng kim to'g'ri topgani aniqlanadi. Katta guruhlarda bu o'yin variantlari ancha murakkablashtirib o'tkaziladi.

Maxsus bolalarga eshitishi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan so'zni topishlarini taklif qiladi (Masalan: ko'k-ko'p, yil-yo'l, suv-sut, tuz-tus). "Men nima dedim, top" o'yini 3-7 daqiqa davom etadi.

Ovoz sur'atini farq qilish uchun turli variantlardagi o'yinlardan foydalaniladi. Masalan: "Topchi, kim chaqirdi?" degan o'yindan bolalar o'rtoqlarini ovozlaridan topadilar. Bolalarga qanday chaqirganligini (sekin, qattiq, tez, muloyim) aniqlash topshirig'i beriladi.

Maxsus pedagog o'yinda qo'llaniladigan so'zlarni oldindan tanlashi lozim. Tanlangan so'zlarning mazmuni bolalarga tanish bo'lishi, birinchi navbatda tanlangan so'zlar tovush tarkibi jihatidan qiyin bo'lmashligi, so'ng ovoz chiqarish (eshitish) jihatdan oson, lekin mazmuni har xil bo'lishi lozim.

Nutqda nafas olib nafas chiqarishni rivojlantirish. Nutqda nafas olib nafas chiqarishni rivojlantirish nutq bilan mahkam bog'langan. Nafas olish ikki xil bo'ladi: nutqsiz va nutqli.

Nutqsiz nafas o'z-o'zidan chiqadi. Bola nafas oladi va chiqaradi. Maktabgacha tarbiya

yoshidagi aqli zaif bolalarda nutqli nafas olish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar avvalo o'pkaning kichikligi va nafas muskullarining bo'shigiga bog'liqdir, bolalar nafasi chuqur emas, shuning uchun ular tez, keskin ko'p vaqt shovqinli nafas olib chiqaradilar, yelkalari keskin ko'tariladi, ularda har bir so'z oldidan, o'rtasidan nafas olish, nafas olib so'zlash kabi hollar uchraydi.

Nutqi tezlashgan bola entikadi, so'zning, jumlaning oxirini yamlab yuboradi. Muskullarning zaifligidan ko'pchilik bolalarda gavdaning holati noto'g'ri: bosh pastga egilgan, kiftlar oldinga chiqqan, ko'krak ichiga kirib ketgan bo'ladi.

Maxsus pedagogning vazifasi bolani nutq jarayonida to'g'ri nafas olishga o'rgatish va nutq davomida nafas olishda uchraydigan nuqsonlarni yo'qotib borishdir. Nutqsiz va nutqda nafas olish bir-biridan farq qiladi. Nutqsiz nafas olishda nafas olish bilan chiqarish vaqti barobar, tartibli navbatlashib turadi. Nafas burun orqali olinadi. Nutqda nafas olganda nafas olish vaqt jihatidan tez, nafas chiqarish nafas olishga qaraganda birmuncha uzun bo'ladi. Nafas ham og'iz ham burun orqali olinadi. Nutqda nafas olishning eng yaxshi turi diafragmali, quyi qovurg'a yordamida nafas olishdir (nafas olganda diafragma pastga tushadi va pastki qovurg'a ikki tomonga kengayadi, shuning uchun kiftlar ko'tarilmaydi).

Bolada avvalo tinch, shovqinsiz, kiftni ko'tarmay nafas olishni rivojlantirish lozim. Nutq vaqtida uzoq nafas chiqarish bolaning yoshiga mos bo'lishi kerak.

Kichik guruhlarda bola nafas chiqarish vaqtida 1-2 so'zdan iborat jumlani, o'rta va katta guruhda bola 3-4 so'zdan iborat jumlani talaffuz etishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni shoshmasdan so'zlashga, har bir jumlani so'zlab yoki har bir she'r misrasini aytib bo'lgandan so'ng nafasni rostlashga odatlantirish kerak. Nutqda nafas olishni rivojlantirish uchun bola yoshiga mos nafas oladigan o'yin va mashqlardan foydalanishi zarur.

Maxsus pedagog fiziologik to'g'ri, osoyishta nafas olish uchun bolalarga nafasni burundan olib, keyin og'izdan chiqarish maqsadga muvofiq ekanligini tushuntiradi. Mashq oldin bolalar jamoasi bilan keyin o'zlashtirish inkoniyati sust bolalar bilan yakka tartibda o'tkaziladi.

Quyidagi nafas mashqlari o'tkaziladi: pastaga puflash, yonib turgan shamni bir nafas chiqarishda o'chirish, issiq choyni puflash, olovni o'chirish.

Nutqiy nafasni takomillashtirish uchun quyidagi nafas- ovoz mashqlari taklif qilinadi: gulni hidlash va "Oh" deyish, qo'llarni isitish, sovun pufagini ishirish, yig'lash, shamol esyapti kabilarga taqlid qilish.

Kichik guruhlarda bolalarga juda yoqadigan sovun ko'pigini uchirish, par, yupqa, rangli qog'ozlarni puflab uchirish o'yinlari o'tkaziladi. Bunday o'yinlarni o'tkazgan vaqtda bolalarni nafas olganda yelka qismlarini ko'tarib yubormasliklariga e'tibor berish lozim. Bunday nafas oladigan o'yinlarni uch daqiqadan ortiq o'tkazmaslik va o'yin vaqtida dam berib borishga e'tibor berib borish kerak.

Katta guruhlarda qo'llarni ohista yuqoriga yelka barobarida ko'tarish – nafas olish, sekin-asta qo'llarni pastga tushirib "s-s-s" deb nafas chiqarish mashqlari o'tkaziladi. Bolalar "s-s-s-s" tovushini to maxsus pedagog to'xtatgunga qadar cho'zib aytadilar.

Nutqda nafas olish va nafas chiqarishni rivojlantirishga o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlardan namuna keltiramiz.

"Bu qachon bo'ladi» o'yini.

Logoped doskaga yilning to'rt faslini tasvirlovchi rasmni osib qo'yadi. Har bir fasl tasvirini tagida qog'ozdan yasalgan cho'ntakchalar bo'lib, unga u yoki bu faslda bo'ladigan hodisa va voqealarni tasvirlovchi kichik-kichik rasmlarni solib qo'yish mumkin ("Bolalar qorbobo yasayapti", "O'g'il bolalar qushlar uchun uyalar osishyapti", "Qizlar guldastalar tayyorlashyapti", "Sarg'aygan barglar to'kilyapti" va boshqalar). Tarqatma materiallarni "Yil fasllari" degan lotodan yoki turli jurnallardan, kitoblardan tanlab olish mumkin.

Tarbiyachi bolalarni navbatma-navbat chaqirib bittadan rasm beradi. Bola stol oldiga kelib,

qo'lidagi rasmni bolalarga ko'rsatadi va logoped tomonidan berilgan savolga javob beradi. Masalan: "Bolalar darvoda qachon cho'miladi?" (Bolalar daryoda yozda cho'miladi). Bola savolga to'g'ri javob berib bo'lgach, rasmni tegishli yil faslining tagidagi qog'oz cho'ntakka solib qo'yadi.

Merodik qo'llonma: tarbiyachi o'yinni boshlashdan avval bolalarga shunday deydi, har bir so'zdan keyin to'xtalib, bo'lib-bo'lib gapirmaslik kerak. Agar bola tarbiyachi bergan savolga to'g'ri javob bera olmasa, yoki bo'lib-bo'lib gapirsa, tarbiyachi to'g'ri nutq namunasini beradi. So'ngra bola takrorlaydi.

Xulosa Ushbu maqolada logopedik ishning muhim yo'nalishlari — tovush madaniyati, eshituv idroki va nutqiy nafasni rivojlantirish — izchil va asosli tarzda yoritilgan. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalaridagi aqli zaif bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlashda frontal va individual mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish, didaktik o'yinlar va maxsus mashqlar orqali bola faoliyatini rag'batlantirish, nutqiy nafas, artikulyatsiya va eshituvni sinxron rivojlantirish metodik jihatdan eng muhim yo'nalishlar sifatida ajralib turadi. Bu maqola logopedlar, maxsus pedagoglar va maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari uchun amaliy yordamchi qo'llanma sifatida katta ahamiyatga ega.

Foydalaniladigan adabiyotlar

Xamidova M.P., Ayupova M.Y. Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. Toshkent. 2009.

Ayupova M.Y. Logopediya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. Toshkent. 2008.

Axmedova X.A., Razbayeva E.M. Nutq ostirish metodikasi.

Mo'minova L.R. Bolalarni logopedik tekshirish va o'qitish. -T.: O'qituvchi, 1992.

Rahmonova V.S. Maxsus pedagogika. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2004.

Shomahmudova R.Sh., Mo'minova L.R. Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalar nutqidagi nuqsonlarni tuzatish. -T.: O'qituvchi, 1993.

FIZIKANI TABIIY FANLARARO ALOQADORLIKDA O'QITISHNING DIDAKTIK JIHATLARI

Tugalov Farxod Qarshiboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, "Fizika va uni o'qitish metodikasi" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizikani tabiiy fanlararo aloqadorlikda o'qitishning didaktik jihatlari bayon qilingan. Unda fizikani matematika, kimyo, biologiya va geografiya fanlari bilan aloqadorlikda o'qitish yoritilgan. Turli fanlarda qo'llaniladigan metodlarning umumiylikni fanlararo aloqadorlik ta'minlashi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlari: fanlararo aloqadorlik, fundamental fan, fizika qonunlari, bilim, ko'nikma, malaka, tabiiy fanlar, klassifikatsiya, materiya, energiya, ilmiy dunyoqarash.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ В МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ СВЯЗИ

Тугалов Фарход Каршибоевич

доцент кафедры «Физика и методика ее преподавания» Джизакского государственного педагогического университета, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Аннотация. В данной статье изложены дидактические аспекты преподавания физики в междисциплинарной связи. В ней освещается преподавание физики во взаимосвязи с математикой, химией, биологией и географией. Показано, что междисциплинарная связь обеспечивает общность методов, используемых в различных науках.

Ключевые слова: междисциплинарная связь, фундаментальная наука, законы физики, знания, умения, навыки, естественные науки, классификация, материя, энергия, научное мировоззрение.

DIDACTIC ASPECTS OF TEACHING PHYSICS IN INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS

Tugalov Farkhod Karshiboyevich

Djizak State Pedagogical University, Associate Professor of the Department of "Physics and Methods of Teaching It", Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Annotation. This article discusses the didactic aspects of teaching physics in an interdisciplinary context with natural sciences. It highlights the integration of physics with subjects such as mathematics, chemistry, biology, and geography. The article demonstrates how interdisciplinary connections ensure the commonality of methods used across different subjects.

Keywords: interdisciplinary connection, fundamental science, laws of physics, knowledge, skills, competence, natural sciences, classification, matter, energy, scientific worldview.

Fizika umumiy ma'noda tabiat haqidagi fandır. U modda (materiya) va energiyani, shuningdek, materiyaning harakatini boshqaradigan tabiatning asosiy o'zaro ta'sirini o'rganadi. Fizikani ba'zan boshqa tabiiy fanlar (biologiya, geologiya, kimyo, geografiya va boshqalar) kabi "fundamental fan" deb ham atashadi. Ular faqat fizika qonunlariga bo'ysunadigan moddiy tizimlarning ma'lum bir sinfini tavsiflaydi.

Fan rivojining zamonaviy bosqichi fanlararo aloqadorlikning tobora ortib borishi va o'zaro kirib borishi bilan tavsiflanadi. So'nggi yillarda fizika, biologiya, psixologiya, matematika, radioelektronika va boshqa fanlar ma'lumotlaridan tirik organizmlarni o'rganishda muhandislik-

texnikaviy masalalarni yechishda foydalanadigan bionika fani paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan 60110700-Fizika va astronomiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablarida bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari, kasbiy vazifalari, kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan [1].

Shuningdek, 60110700-fizika va astronomiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini maqsadli tayyorlash tizimini yaratishda fizika o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish uchun ehtiyoj bor. Bu borada "Fizika o'qitish metodikasi" fanida o'tiladigan mavzularda, xususan, "Fizika kursining boshqa o'quv predmetlar bilan o'zaro aloqasi" mavzusida fizika o'qitishda fanlararo aloqalarning roli, fizika ta'limi asosida integrativ kurslarning yaratilishiga keng ma'noda e'tibor qaratilgan [2].

Fanlararo aloqadorlikning didaktik jihatlari. Fanlararo aloqadorlikning obyektiv ko'rinishi umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika o'qitish jarayonida ham o'z ifodasini topadi. Buni nafaqat ilmiy tamoyili, balki umumiy o'rta ta'lim maktab fizika kursi oldida turgan vazifalar ham talab qiladi. Xususan, boshqa tabiiy fanlar bilan aloqani o'rnatmasdan va ochib bermay turib ilmiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin emas.

Fanlararo aloqadorlik didaktik kategoriya bo'lib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv fanlarini o'zaro bog'langan va o'zaro bog'liq holda o'rganishda namoyon bo'ladi [3].

Fanlararo aloqadorlik quyidagilarni ta'minlaydi:

- tushunchalarni shakllantirishda asoslangan ketma-ketlik;
- bilim, ko'nikma, malakalarga qo'yiladigan talablarning birligi;
- boshqa tabiiy fanlarni o'rganishda olingan bilimlardan, fizika bilimlarini o'rganishda foydalanish;
- ta'lim parametrlari mazmunidagi asossiz takrorlanishlarni bartaraf etish;
- turli fanlarda qo'llaniladigan metodlarning umumiyligini ko'rsatish (bilimlarni umumlashtirish);
- dunyoning birligini ko'rsatuvchi tabiat hodisalari o'zaro bog'lanishlarini ochib berish;
- o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyorlash.

Fanlararo aloqadorlikni xronologik aloqalar hamda axborot aloqalar bo'yicha klassifikatsiyalash mumkin [4].

Xronologik aloqalar har bir fanning ehtiyojlariga ko'ra vaqt o'tishi bilan fanlarning izchil o'qitilishini ta'minlaydi.

Axborot aloqalar turli fanlarni o'rganishda ko'rib chiqiladigan tushunchalar, faktlar, qoidalar talqinining birligida namoyon bo'ladi.

Fanlararo aloqalarni amalga oshirish yo'llari:

- boshqa fanlarni o'rganishda olingan bilimlardan foydalanish;
- kompleks eksperimental ishlarni bajarish;
- kompleks ekskursiyalarni o'tkazish;
- umumlashtirilgan takrorlash.

Fizikani matematika bilan aloqadorlikda o'qitish. Zamonaviy fizika matematika bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Matematika nafaqat fizikaning tili, balki fikrlash va mantiq kabidir. Matematik metodlar fizikada eksperimental materiallarni qayta ishlashda ham, nazariyalarni ishlab chiqishda ham keng qo'llaniladi, ular tabiat sirlariga chuqurroq kirib borish imkonini beradi. O'z navbatida fizika ham matematikaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Fizika va matematika kurslari o'rtasidagi fanlararo aloqadorlik ushbu fanlarning har birini o'qitishning ilmiy darajasini oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun ular o'rtasidagi aloqadorlik ularni o'rganishning boshidanoq zarurdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining o'lchash malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda fizika o'qituvchisi, boshlang'ich sinf matematika darslarida maktab o'quvchilari uzunlik, vaqt, massa, harorat, o'lchov asboblarning shkalasi bo'linishini baholash tushunchasi,

harakat tezligi haqidagi dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lganligini, hisobga olishi kerak [5].

Ilmiy, o'quv va uslubiy adabiyotlarda fizik kattalik tushunchasiga turli xil ta'riflar berilgan. Biroq, barcha ta'riflar uchun ikkita umumiy xususiyatni ajratib ko'rsatish mumkin:

Fizik kattalik deganda o'rganilayotgan obyektning miqdoriy xarakteristikasi tushuniladi;

Fizik kattalikning ta'rifi uni u yoki bu tarzda o'lchash imkoniyati bilan chambarchas bog'liq.

Fizika va matematika o'rtasidagi aloqadorlikning muhim shakli fizik mazmunli matematik masalalarni yechishdir. Yagona uslubiy yondashuv va talablarni ishlab chiqish uchun ushbu masalalarning mazmuni va ularni yechish metodlarini matematika o'qituvchisi fizika o'qituvchisi bilan kelishib olishi kerak. Bunda o'quvchilarning fizik kattaliklar birliklarini belgilash bilan amallarni bajarish qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Fizika darslarida bo'lgani kabi matematika darslarida ham matematik va fizik kattaliklarning bir xil ta'rifiga, qoidalarning bir xil tahririga, nazariyalar, grafik material va bilimlarni loyihalashda bir xil talablarga kelish kerak.

Fizikani kimyo bilan aloqadorlikda o'qitish. Fizika va kimyo ko'pincha bir-birini to'ldiradi, chunki bu fanlar bo'yicha o'tiladigan darslarda tabiatdagi bir xil hodisalar turli yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqiladi. Bu yerda dolzarb, kontseptual va nazariy fanlararo aloqalar to'liq namoyon bo'ladi. Fizika va kimyo uchun umumiy bo'lgan eng muhim tushunchalar qatoriga quyidagilar kiradi: materiya, massa, og'irlik, energiya, molekula, atom. Asosiy qonunlar ham keng tarqalgan: energiyaning saqlanishi va o'zgarishi, elektr zaryadlarining saqlanishi.

Fizika va kimyo o'rtasidagi eng muhim nazariy fanlararo aloqalar bir xil nazariyalarni o'rganish bilan bog'liq: molekulyar-kinetik, atom tuzilishi nazariyasi va boshqalar [2].

Fizika va kimyo o'qitish o'rtasidagi aloqadorlikning muhim shakllari: fizik-kimyoviy yoki kimyoviy-fizikaviy masalalarni yechish, kompleks ekskursiyalar o'tkazish, fizika va kimyo fanidan ko'ngilochar kechalar o'tkazish, fizika va kimyoni o'rganish uchun zarur bo'lgan ko'rgazmali qurollarni ishlab chiqish.

O'quvchilarning kimyo darslarida oladigan amaliy ko'nikmalarini hisobga olish va ulardan foydalanish kerak: laboratoriya qurilmalari bilan ishlash ko'nikmalari, o'lchovlar, hisoblash ishlarini bajarish, formulalarni keltirib chiqarish.

Fizikani biologiya bilan aloqadorlikda o'qitish. Fizikaning biologiya bilan o'zaro aloqasi qadimiy va samaralidir. U ayniqsa, keyingi o'n yilliklarda biofizika, agrofizika, bionika kabi fanlar paydo bo'lgandan keyin kengaydi. Bu fanlararo aloqadorlik tegishli o'quv fanlarini o'rganishda o'z ifodasini topdi.

Fizika va biologiya o'rtasidagi bog'liqlik umumiy va xususiy o'rtasidagi bog'liqlik sifatida talqin qilinishi mumkin. Biologiyadan olingan bilimlar faqat fizik qonunlar doirasidagi bilimlarni kengaytirib, o'quvchilarga tabiatning birligini tushunishga yordam beradi. Bunga biologiyada fizika metodlarini qo'llash bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish ham yordam beradi [6].

Fizikaning biologiya bilan aloqadorligi uchta jihatga ega:

Tirik organizmlarda fizika. Fizika darslarida turli mavzularni o'rganishda biologik jarayonlar oqimida fizik jarayonlarning rolini ko'rsatadigan misollar keltiriladi.

Bionika. Tirik organizmlarda amalga oshirilgan ko'plab tamoyillar fizikaga asoslangan zamonaviy texnik qurilmalarda keng qo'llaniladi.

Ekologiya. Fizika qonunlari tabiatda insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq holda sodir bo'ladigan jarayonlar bilan bog'liq. Bunday faoliyatning salbiy oqibatlarini bartaraf etishda, tabiatni muhofaza qilish uchun fizika qonunlari haqidagi bilimlardan foydalanish kerak.

Fizikani geografiya bilan aloqadorlikda o'qitish. Geografiya kursida olingan bilimlardan fizikani o'qitishda foydalanish kerak. O'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab savollar dastlab geografiya darslarida o'rganiladi, keyinroq fizika darslarida qo'llaniladi. Geografiya kursida namlik, energiya, minerallar almashinuvini o'rganish muhim bo'lib, bu fizika kursida suvning agregat o'zgarishini o'rganishga yordam beradigan misoldir. Atmosfera bosimi, kompas yo'nalishi kabi masalalarni

o'rganish bir-biri bilan bog'liq.

Xulosa. Fizika va astronomiya yo'nalishi talabalariga "Fizika o'qitish metodikasi" fani bo'yicha o'tiladigan darslarda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishni tizimlashtirishga, binobarin, bilimlarning chuqurligi va mustahkamligini ta'minlashga, o'quvchilarga olamning yaxlit manzarasini tushuntirishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'qitish va tarbiyalash samaradorligi ortib, turli fanlar bo'yicha darslarda olingan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zaro tatbiq etish imkoniyati ta'minlanadi. O'quv fanlari ma'lum ma'noda bir-biriga yordam bera boshlaydi. Fanlararo aloqadorlikning izchillik tamoyili o'quv-tarbiyaviy jarayonini yanada takomillashtirishning muhim zaxiralarini o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 60110700-Fizika va astronomiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari.-Toshkent. 2021 yil 25 avgust.

Tugalov F.Q. Fizikani o'qitishda fizikaning tabiiy fanlar bilan fanlararo integratsiyasini amalga oshirish metodikasi// Fan va jamiyat. Ilmiy-uslubiy jurnal. – Nukus. –2022. – 2-son.–Б. 133–134.

Mirzaxmedov B., G'ofurov N. va boshqalar. Fizika o'qitish nazariyasi va metodikasi Toshkent, 2010 yil.

Турышев И.К. и др. Межпредметные связи физики. – М.: Просвещение, 1992 г.

Djo'rayev M., Sattorova B. Fizika va astronomiya o'qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2015 yil.

Усова А.В. Методика преподавания физики. М.: Просвещение, 1998 г.

RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARI MUHITIDA DASTURLASH TILLARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

*Tursunov Mirolim Ahmadovich
Qarshi davlat texika universiteti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada dasturlash fanini o'qitishda raqamli darsliklarni imkoniyatlari tahlil qilindi. Hamda raqamli darsliklarda mavzuni taqdim etishda o'qituvchilarga nimalarni inobatga olishning muhim jixatlarini, avfzalliklari, imkoniyatlari, ma'lumatlarni taqdim etish usullari, pedagogik tenologiyalarning qo'llanilishi, hamda unda chatdan foydalanish haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Bundan tashqari raqamli darsliklarning ananaviy darsliklardan farqli jixatlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, raqamli darslik, mustaqil ta'lim, elektron axborot resurslari, veb-saytlar, veb texnologiyalar, chatlar.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКАМ ПРОГРАММИРОВАНИЯ В СРЕДЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ

*Турсунов Миролим Ахмадович
Каршинский государственный технический университет
Доктор педагогических наук, доцент*

Аннотация: В статье анализируется потенциал цифровых учебников в обучении программированию. В нем также представлены важные аспекты, которые учителям следует учитывать при представлении темы в цифровых учебниках, включая преимущества, возможности, методы представления информации, использование педагогических технологий, а также идеи и комментарии по использованию чата. Кроме того, обсуждались различия между цифровыми и традиционными учебниками.

Ключевые слова: современные информационные технологии, цифровизация, цифровой учебник, самостоятельное обучение, электронные информационные ресурсы, сайты, веб-технологии, чаты.

MODERN METHODS OF TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES IN THE ENVIRONMENT OF DIGITAL EDUCATIONAL PLATFORMS

*Tursunov Mirolim Ahmadovich
Karshi State Technical University
Doctor of Philosophy (PhD) in pedagogical sciences, associate professor*

Abstract: This article analyzes the possibilities of digital textbooks in teaching programming. It also presents important aspects of what teachers should take into account when presenting the topic in digital textbooks, their advantages, possibilities, methods of presenting information, the use of pedagogical technologies, and the use of chat in them. In addition, it discusses the differences between digital textbooks and traditional textbooks.

Keywords: modern information technologies, digitization, digital textbook, independent learning, electronic information resources, websites, web technologies, chats.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning barcha sohalarda keng qo'llanishi natijasida, ushbu sohaning asosini tashkil etuvchi kasblarga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Ushbu sohalardan ayrimlarini sanab o'tamiz dasturiy ta'minot ishlab chiqish, ma'lumotlar bazasi va

ma'lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik, tarmoq texnologiyalari, sun'iy intellekt va robototexnika va boshqalar.

Ushbu sohalar ichida dasturiy ta'minotlar ishlab chiqish alohida o'rin tutadi. Hozirgi kunda yoshlarning ushbu sohaga oid bilimlarni egallashga bo'lgan talablari kundan kunga ortib bormoqda. Sifatli dasturiy ta'minotlarga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga ortib uning takomillashib borishini talab etmoqda. Bunday jarayonlar mutaxassislardan kreativ fikrlashni, chuqur bilim, ko'nikma va malakani talab etadi. Ushbu sifatlarni bo'lajak mutaxassislarda shakllantirish uchun ta'lim tizimini isloh qilish yo'llari, aralash ta'lim tizimidan foydalanish usul va vositalari, yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish yangi metodlarini ishlab chiqish uni amaliyotga tadbqiq etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli ta'lim platformalarida o'quv materiallarini taqdim etishning психологик-педагогик назариялари bo'yicha ilmiy izlanishlar olib brogan olimlar Y.A.Komenskiy, L.V.Zankov, Y.K.Babanskiy, I.Y.Lerner, V.P.Maksakovskiy va boshqalar. hamda o'qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini loyihalashning nazariy asoslari A.G.Asmolova, V.P.Bespalko, V.V.Lapteva, M.P.Lapchika, V.M.Polonskogo, B.YE.Starichenko, B.S.Gershunskogo, I.G.Zaxarova, YE.S. Polat, I.V. Robert, A.V.Xutorskoy, A.I.Arkipova, S.P.Grushevskiy, T.L.Shaposhnikova va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Asosiy qism. Oliy ta'lim tizimida yillar davomida fanning nazariy va amaliy materiallarning ketma-ket taqdim etilish usul va metodlari shakllanib kelgan. Bunday an'anaviy ta'lim tizimi o'zini oqlab, maktab va universitetlarda qo'llanilib kelinmoqda. Biroq bunday yondashuvlardan foydalanib zamonaviy axborot texnologiyalariga oid fanlarni o'qitishda sezilarli kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda.

Dasturlash fanidan mavzu bo'yicha nazariy materiallar oddiy usulda taqdim etish tinglovchilar uchun zerikarli hisoblanadi. Mavzularni raqamli darsliklardan hamda o'yin tenologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish o'quv jarayonlarga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun xizmat qiladi. Nazariy ma'lumotlarni bir xil topshiriqlar orqali takrorlash yetarli emas. Materiallarni har xil ko'rinishdagi hayotiy misollar bilan takrorlash talabalar uchun tushunarli hamda eslab qolish hamda turli xil muammolarni tushunib hal qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Dasturlashda, nazariyani amaliyot bilan uyg'unlashtirish juda muhim. Bundan jarayon esa talabalarda ijodiy va kreativ fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari raqamli ta'lim muhiti talabalarga fani o'zlashtirish natijalarini yanada mustahkamlashga, mustaqil ishlashlarini tashkil etish va bajarilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi:

- uqituvchining innovatsion faoliyati asosida raqamli ta'lim muhitidan foydalangan xolda o'qitishning zamonaviy metodlari, shakllari, usullarini, vositalarini yaratish va ulardan foydalanish;
- talabalar tomonidan raqamli ta'lim muhitida taqdim etilayotga o'quv va ilmiy adabiyotlarni mustaqil o'rganish; mavzu buyicha referatlar, mustaqil ishlarni tayyorlash; mavzu buyicha jadval va diagrammalar tuzish;
- talabalar mavzu buyicha ma'lumotlarni qidirish, taxlil qilish va ma'lumotlarni taxliliy qayta ishlash;
- talabalar mutaxassislik faoliyatning tarkibiy qismlariga tegishli masala (muammo)lar yuzasidan ijobiy qaror qabul qilish va ularning turli ko'rinishdagi modellarini yaratish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi [6,134].

Dasturlash faning o'qitilishi talabalrga zamonaviy axborot texnologiyalar vositalari bilan tanishish, algoritmik fikrlash, tizimli yondashuv kabi ko'nikmalarni shakllantirishga, rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Hayotiy masalalarni yechish orqali talabalar muammolarga mustaqil yondashishni, sinovlardan qo'rqqmaslikni, xatolardan saboq chiqarishni, ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantirishga erishadilar.

Dasturlashni o'qitishga mo'ljallangan raqamli darsliklar dasturini yaratishda ko'plab omillarni hisobga olish zarur: o'quv dasturining mazmuni, fanning dolzarbligi, fanning o'quv soatlari

va boshqalar tashkil etadi. Raqamli darsliklarni ishlab chiqishda doimiy rivojlanishda bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalarni dasturiy va texnik vositalarni inbatga olgan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa dasturlash tillari, dasturlash vositalari va metodologiyalari doim o'zgarib takomillashib bormoqda. Shularni inobatga olgan holda fan bo'yicha taqdim etilayotgan ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan eskirmasligi uchun, doimiy ravishda yangilanib borilishi shart. Shunday ekan, o'qituvchi o'zining o'quv materiallarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqishi, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab borishi va raqamli darslik mazmunini zamonga mos holda yangilab borishi lozim[5].

Raqamli darsliklarning taqdim etilayotgan amaliy materiallar faqat nazariy ma'lumotlarni takrorlasa, talabalar masala (muammo)larga mustaqil yechim topishga o'rganmaydilar. Tallabalar katta natijalarga esa ijodkorlik va moslashuvchanlik orqali erishiladi. Real hayotdagi masala (muammo)lar bir xil bo'lmaydi – ular turlicha va o'zgaruvchan. Shuning uchun raqamli darsliklar ham dinamik, moslashuvchan bo'lishi lozim[3,66].

Har bir mavzu bo'yicha taqdim etilayotgan ma'lumotlar talabalar uchun aniq va amaliy maqsadga ega bo'lishi zarur. Mavzu boshida o'qituvchi o'tilayot (taqdim)gan mavzuni real hayotdagi tadbirini tushuntirib berishi, mavzuni to'liq o'zlashtirish natijasida talabalar qanday yutuqlarga erishish mumkinligini ko'rsatib berishi lozim. Buday yondashuv o'tilayotgan mavzuga nisbatan talabalarning motivatsiyani oshiradi va o'zlashtirish darajasini kuchaytiradi [2, 644].


Dasturlashni endi boshlagan ko'plab talabalarda umumiy holatlar va qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bunday qiyinchiliklarning oldini olish, samarali va sifatli ta'limni tashkil etishda juda muhim. Buning uchun talabalarni dasturlashga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, dasturlash orqali qanday natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatish muhimdir. Bunday yondashuv orqali talabalar bilim olish jarayonini shunchaki o'rganish emas, balki kelajakdagi imkoniyatlar dunyosiga yo'l sifatida qabul qiladi.

Raqamli darsliklardan foydalanib talabalarni interaktiv, faol ta'lim jarayoniga jalb etish uchun imkoniyat yaratiladi. Buning natijasida talabalar passiv tinglovchi (ishtirokchi) emas, balki mavzu bo'yicha taqdim etilayotgan materiallarni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etuvchi, savol javob muhokomalarida qatnashuvchi, o'zining fikrlarini erkin bayon etishni, qo'yilgan masalalarni mustaqil yechish uchun etarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. O'qituvchilardan esa fanga nisbatan talabalarning qiziqishini uyg'otish, undagi tabiiy qiziqishlarni hamda erishgan kichik yutuqlarni qo'llab – quvvatlash orqali ta'lim olish samaradorligini bir necha barobar oshirish mumkin. Ayniqsa, qo'yilgan amaliy, laboratoriya, mustaqil ish topshiriq (muammo)larni talabalar tomonidan mustaqil (lekin o'qituvchi rahbarligida) yechimlarini topganida, o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlashga va o'ziga bo'lgan ishonchini ortirishiga olib keladi[1, 17].

Elektron darslik talabalarga nafaqat fan bo'yicha yangi, balki oldin taqdim etilgan materiallarni takrorlash va chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Elektron darslik tarkibiga kiruvchi testlar, turli xil amaliy topshiriqlar, pedagogik o'yin texnologiyalar, talabalarga o'z natijalarini tekshirish tahlil qilish, to'plangan ballarini hisoblash va o'zlariga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari ushbu elektron darslikda har bir talaba bilan alohida ishlash imkoniyati mavjud. Elektron darslikdan har bir foydalanuvchi login parol bilan tizimga kirib foydalanishi esa o'qituvchiga talabalar tomonidan qilingan harakatlarni kuzatish, urinishlar sonini ko'rib borish, har bir topshiriqqa sarflangan vaqtni kuzatish, shuningdek, talabaning ayrim topshiriqlarni bajarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tahlil natijalariga qarab talabalarga tavsiyalar berish imkoniyati mavjud [4,84]. Bundan tashqari, o'zi ishlab chiqqan yechimlarini kursdoshlari (raqamli darslikdan foydalanuvchi boshqa ishtirokchilar) bilan raqamli darslikda taqdim etilgan chat tizimi orqali muhokama qilish, ishtirokchilar bilan tajriba almashish va yangi g'oyalarni, usullarni birgalikda topish, murakkab masalalarni jamoa bo'lib ishlash talabalarni faollikka undaydi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli darsliklarda taqdim etilayotgan har bir mavzu bo'yicha suhbatlarni tashkil etish - bu

zamonaviy ta'limning tizimining interaktiv va samarali usullaridan biri bo'lib, o'quv jarayonida hamda mavzuni o'zlashtirishda quyidagi imkoniyat va qulayliklarni taqdim etadi: <https://selfedu.uz/> raqamli darslik ta'lim platformasida tashkil etilgan maxsus chat tizimi orqali talabalar mavzu yuzasidan fikr va mulohazalar almashish imkoniyati yaratilgan. Talabalar mavzuga oid o'z savollarini berishi, boshqa ishtirokchilar fikr, mulohazalarini o'qishi va birgalikda muhokama qilishlari mumkin. Murakkab vazifalarni birgalikda yechish, o'z fikr va mulohazalarni erkin bayon etish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bundan tashqari ham fikr ishtirokchilarni birlashtirish, o'zini qiziqtirgan savollarni yechimini topsih, faqat shu mavzuga oid svol va muhokomalarni o'qish va tahlil qilish imkoniyatin beradi. Mavzu bo'yicha tashkil etilgan chatlarning o'qituvchilarga birqancha imkoniyatlar yaratadi. Talabalar mavzuni o'zlashtirish bo'yicha duch kelayotgan muammolarni bilish, tahlil qilish va ularga amaliy yordamlar berish, o'zlashtirish natijalarni tahlil qilib borish imkoniyatlarini yaratadi. Bundan tashqari keyingi mavzu bo'yicha materiallarni taqdim etishda chatdagi fikr va mulovazalarni inobatga olish imkoniyatini yaratadi (1-rasm).



1-rasm: Raqamli darslikda mavzu bo'yicha chatning tizimda ko'rinishi.

Xulosa. Raqamli darslikning innovatsion tuzilishi talabalarning intellektual rivojlanishi jarayoniga hamda nazariy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga, samarali ta'sir qiladi, raqamli darslikda qo'llanilgan chat orqali o'quv jarayonini interaktiv va jonli muloqotni tashkil etish, olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi, talabalarnig ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, guruh bilan ishlash va muloqot ko'nikmalarini oshirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli darslik platfomasi ta'limning uzviyligini ta'minlaydi, ayrim sabablarga ko'ra dars mashg'ulotlariga qatnasha olmagan talabalarga qoldirilgan darslarni mustaqil o'zlashtirish, imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarning bilim olishga bo'lgan talablarni qondirish asosida biron kasbni egalashda foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Tursunov M.A. Uzluksiz ta'limda mustaqil ta'lining o'rni va ahamiyati ("Axborot texnologiyalari" fanidan elektron ta'lim resurslarini yaratish misolida). Zamonaviy ta'lim № 2(99)-2021. 16-23-b.

2.Tursunov M.A. The importance of using electronic resources in education Academia: an international multidisciplinary research journal V. 11 2021-y. 642-646 p.

3. Abduqodirov A.A. va boshq. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya. - T.: O'zbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi "FAN" nashriyoti, 2009. - 145 s

4. Абдуразаков М. М. К вопросу подготовки будущего педагога к профессиональной деятельности в современной информационно-коммуникационной образовательной среде. // Информатика и образование. - 2011. - № 9. - С. 83-85.

5. Shodiyev Rizamat Davronovich, and Ergashev Nuriddin Gayratovich. "ANALYSIS OF EXISTING RISKS AND METHODS OF COMBATING THEM IN CLOUD TECHNOLOGIES". American Journal of Pedagogical and Educational Research, vol. 18, Nov. 2023, pp. 190-8, <https://www.americanjournal.org/index.php/ajper/article/view/1522>

Турсунов М.А. Талабаларнинг мустақил ишлари бажаришда электрон таълим ресурсларидан фойдаланиш. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш. – Ноқис, 2020. – №4. – Б. 134-137.

AXBOROT VA MEDIA MUHITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN INTERAKTIV METODLARNI QO'LLASH

Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Fakultetlararo chet tili kafedrası dotsenti v.b.,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot va media muhitida bo'ladigan ingliz til o'qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash, o'qituvchilarning o'quv jarayonida samarali qarorlar qabul qilishiga, muammolarni hal qilishga va o'quvchilar bilan muloqotda bo'lishga yordam beradi. Interaktiv metodlar, jumladan, guruhli muhokamalar, rolli o'yinlar va onlayn platformalardan foydalanish, o'qituvchilarga zamonaviy axborot manbalaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Ushbu maqolada, interaktiv metodlarning ta'lim jarayoniga qo'shadigan qiymati va o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirishdagi roli ko'rsatiladi. Shuningdek, mavzu doirasidagi amaliy misollar orqali bu metodlarning qanday qilib o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini yanada samarali qilishga e'tibor qaratiladi. Natijada, maqola axborot va media muhitida faoliyat yuritayotgan ingliz tili o'qituvchilari uchun innovatsion yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: Media muhit, axborot, tanqidiy fikrlash, interaktiv metodlar, kompetentlik, axborot xavfsizligi, axborot manbalari, globallashtirish, o'qitish jarayoni, metodologiya, innovatsiyalar, lingvistik bilim.

APPLICATION OF INTERACTIVE TECHNIQUES TO PROMOTE CRITICAL THINKING COMPETENCY OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS IN THE INFORMATION AND MEDIA ENVIRONMENT

Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna

*Acting Associate Professor of the Interfaculty Department of Foreign Languages of the
Termez University of Economics and Service, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical
Sciences*

Annotation: this article analyzes the importance of interactive techniques in developing the competence of critical thinking of English Language teachers who will be in the information and media environment. Critical thinking helps teachers make effective decisions in the learning process, solve problems, and interact with students. Interactive techniques, including group discussions, role-playing games, and the use of online platforms, provide teachers with effective access to contemporary information sources. This article highlights the value that interactive techniques add to the educational process and their role in enhancing teachers' critical thinking skills. Also, through practical examples, attention is paid to how these techniques make the pedagogical activity of teachers more effective. As a result, the article offers innovative approaches for English teachers operating in an information and media environment.

Keywords: Media environment, information, critical thinking, interactive methods, competence, information security, globalization, teaching process, methodology, innovation, linguistic knowledge.

ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ИНФОРМАЦИОННО-МЕДИА СРЕДЕ

Тожибоева Шохистахон Комилжоновна

И.о.доцента межфакультетской кафедры иностранных языков Термезского университета экономики и сервиса, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Аннотация: В данной статье анализируется значение интерактивных методов в развитии компетентности критического мышления будущих учителей английского языка в информационно-медиа среде. Критическое мышление помогает учителям принимать эффективные решения в процессе обучения, решать проблемы и взаимодействовать с учениками. Интерактивные методы, включая групповые обсуждения, ролевые игры и использование онлайн-платформ, позволяют учителям эффективно использовать современные информационные ресурсы. В этой статье показано значение, которое интерактивные методы добавляют в образовательный процесс, и их роль в улучшении навыков критического мышления учителей. Также на практических примерах делается акцент на том, как эти методы делают педагогическую деятельность учителей более эффективной. В результате статья предлагает инновационные подходы для учителей английского языка, работающих в информационной и медиа среде.

Ключевые слова: Медиа-среда, информация, критическое мышление, интерактивные методы, компетентность, информационная безопасность, глобализация, процесс обучения, методология, инновации, лингвистические знания.

Kirish. Globallashuv asrida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganish nafaqat lingvistik bilim egallash, balki turli axborot resurslarini xolis baholash, ko'p nuqtayi nazarli yondashuv bilan tahlil qilish, mustaqil va tanqidiy tafakkur yuritish kabi kompleks ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy jarayonlardagi turli ma'lumotlarni keng qamrovda tushunish va baholash zaruriyati ortib bormoqda. Bunda zamonaviy raqamli texnologiyalar, internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn OAVlar va turli interaktiv metodlardan foydalanish bo'lajak pedagoglarning tanqidiy fikr kompetentligini rivojlantirishda juda muhim o'rin tutadi. Tanqidiy fikrlash kompetentligi – bu shaxsning o'ziga kelib tushayotgan har qanday axborotga shubha bilan emas, balki dalil-isbot, xolis tahlil va turli manbalar bilan qiyosan yondashish qobiliyatidir. Xususan, ingliz tili yo'nalishidagi bo'lajak pedagoglar ko'p holatlarda xorijiy manbalardan foydalanishga, ingliz tilidagi matnlar, ilmiy maqolalar, videoroliklar, blogpostlar, ijtimoiy tarmoq xabarlarini tahlil qilishga majbur bo'ladi. Shu sabab, media muhitida hayot kechirayotgan davrda, bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish – zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Media savodxonlik – bu shaxsning media xabarlarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi, ularning manba ishonchliligini baholashi, manipulyatsion omillarni anglash va xolis xulosa qila olish ko'nikmasidir. Media savodxonlik bilan tanqidiy fikrlash o'zaro uzviy bog'liq, chunki har qanday media xabarni tahlil qilish – avvalo, tanqidiy fikr yondashuvini talab etadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari mustaqil ravishda xorijiy yangiliklar, maqolalar yoki bloglarda berilayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish, targ'ibot va reklama xabarlaridagi manipulyativ omillarni aniqlash, ijtimoiy tarmoqdagi soxta xabarlarni filter qilishga qodir bo'lsa, nafaqat shaxsiy xavfsizlik, balki kasbiy mahoratini ham yuksaltirishlari mumkin.

Bugun “axborot xurujlari” (informatics urushlar) va “feyk yangiliklar” (fake news) fenomeni butun dunyoda dolzarb muammoga aylangan. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi:

Turli axborot xurujlari oldida media-savodxonlik namunasini ko'rsatishi, shuningdek,

o'quvchilarga ham dalil-isbotga asoslangan yondashuvni o'rgatishi;

Biror mavzu bo'yicha xorijiy manbalardan ma'lumot izlash jarayonida ishonchli sayt, ilmiy jurnallar, rasmiy idoralar nashrlariga asoslanish, shubhali blog yoki manipulyatsion saytlarni farqlash malakasini rivojlantirishi;

Media munozaralarda to'g'ri argument keltirish, qarama-qarshi fikrlarni xolis baholash kabi ko'nikmalarni tarbiyalash bilan shug'ullanishi lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: "Tanqidiy fikrlash" atamasi bugungi kunda pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa kabi ko'plab fanlarda keng o'rganilmoqda. John Dewey tanqidiy fikrni "refleksiv tafakkur" deb izohlagan bo'lib, u shaxsning ma'lum bir dalil yoki xabarga nisbatan shunchaki "ishonish" yoki "inkor qilish" bilan cheklanmay, balki analitik savollar berish, muqobil manbalarni solishtirish, dalillarni izchillikda tizimga solish orqali xulosa chiqarishni taqozo etadi[1]. Jean Piaget esa bola aqliy rivojlanishi nazariyasida shaxsning tanqidiy fikr yuritish qobiliyati faol ijtimoiy muloqot, muammoli vaziyatlarni sinovdan o'tkazish, muqobil qarashlarni o'rganish orqali shakllanishini e'tirof etadi[2].

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi uchun tanqidiy fikrning ahamiyati. Bugungi axborot va media muhiti turli siyosiy, ijtimoiy, madaniy ko'rinishdagi xabarlar bilan to'yingan. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi bu muhitda chet tilidagi manbalar, maqolalar, videoroliklar bilan tez-tez ishlaydi, o'z o'quvchilari bilan ham ushbu manbalarni o'rganadi. Agar pedagogda tanqidiy fikrlash yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, u xorijiy adabiyot yoki internet resursidagi manipulyatsion, feyk, noto'g'ri axborotni tezda farqlay olmaydi. Natijada o'quvchilar ongiga ham xato ma'lumotlar joylashishi mumkin. Shu bois tanqidiy fikrga ega bo'lgan ingliz tili o'qituvchisi:

Xorijiy manbalar (ilmiy maqolalar, bloglar, ijtimoiy tarmoq kontentlari)ni chuqur tahlil qiladi, so'ng o'quvchilarga filtrlangan, xolis axborotni ulashadi.

Bahs-munozarali mavzular (masalan, siyosat, madaniyat, ijtimoiy muammolar)da turli taraflarning nuqtayi nazarini ko'rib chiqib, dalillarga asoslangan xulosalar qiladi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tanqidiy savollar berishga o'rgatadi[3]. Bunday o'qituvchining dars jarayonlari zamon talablariga javob berib, o'quvchilar uchun ham manba ishonchligini tekshirish, turli dalillarni qiyoslash, xulosalar chiqarish kabi noan'anaviy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Axborot va media muhiti hozirda global tus olgan. Faol internet foydalanuvchilari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari ham ijtimoiy tarmoqlarda turli mavzulardagi xabarlar bilan uchrashadi, turli blogerlarning postlarini, xorijiy yangiliklar saytlarini, YouTube'dagi video darslar yoki turli ma'ruzalarga ko'zi tushadi. Bularning barchasi tanqidiy fikrga asoslangan holda o'qituvchi tomonidan saralanishi, tahlil qilinishi, so'ng o'quvchilarga mos shaklda tavsiya etilishi mumkin. Shu sababdan, media muhit bo'lajak o'qituvchi uchun doimiy ravishda "tahlil maydoni"ni yaratuvchi omil bo'lib qoladi. Interaktiv metodlar – ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro o'zaro faol muloqotini tashkil etish, mustaqil fikrlash, ijodiy vazifa bajarish, guruhli tahlil va bahs-munozaralar yordamida o'quv jarayonini olib borishga asoslangan usullar majmuidir. Bu metodlar an'anaviy "ma'ruza + savol-javob" ko'rinishidan farqli o'laroq, o'quvchilarni jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Interaktiv metodlarning asosiy tamoyillari: Faollik: O'quvchi passiv tinglovchi emas, balki turli mashq, topshiriqlar, guruhli ish, bahs yoki loyiha ishtirokchisi.

Hamkorlik: Juftlikda yoki guruh bo'lib ishlash, o'zaro muloqot qilish, birgalikda xulosa qilish.

Turli manbalar: Dars jarayonida matn, video, audio, infografika, blogpost, ijtimoiy tarmoq xabarlari kabi resurslardan foydalangan holda masalaning turli qirralari o'rganiladi.

Refleksiya: Har bir mashg'ulot yoki bosqich yakunida "Men nimani o'rgandim?", "Qanday savollar tug'ildi?", "O'zimda qanday tanqidiy o'zgarishlar bo'ldi?" singari o'z-o'zini baholash jarayonlari.

Tanqidiy fikr va interaktiv metodlar uyg'unligi. Interaktiv metodlar kishilarda tanqidiy fikrni tabiiy tarzda shakllantiradi, chunki bu metodlarda:

Turli nuqtayi nazarlar o'rtaga tashlanadi;
 O'quvchilar turli rol yoki guruhda o'z dalillarini himoya qilishadi;
 Qizg'in bahs-munozarada qarshi dalillar, isbot, manipulyatsiyaga qarshi raqamli ma'lumotni tekshirish kabi jarayonlar amalga oshiriladi;

O'quvchilar mustaqil xulosa chiqarish uchun aniq mas'uliyatga ega bo'ladilar. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari bunga alohida ehtiyoj sezadilar, chunki chet tili darslarida ham lingvistik, ham madaniy, ham ijtimoiy-siyosiy mavzular ko'tarilishi mumkin va tanqidiy fikrlash usulidan foydalangan holda o'quvchilarga shu mavzularni chuqur o'rganish imkoniyati yaratiladi.

Axborot va media muhiti sharoitida tanqidiy fikr orasidagi bog'liqlik. Media savodxonlik – bu shaxsning media xabarlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi, ularning manba ishonchliligini baholashi, manipulyatsion omillarni anglash va xolis xulosa qila olish ko'nikmasidir[4].

Axborot xurujlari sharoitida bo'lajak o'qituvchining roli. Bugun "axborot xurujlari" (information urushlar) va "feyk yangiliklar" (fake news) fenomeni butun dunyoda dolzarb muammoga aylangan. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi:

Turli axborot xurujlari oldida media-savodxonlik namunasini ko'rsatishi, shuningdek, o'quvchilarga ham dalil-isbotga asoslangan yondashuvni o'rgatishi;

Biror mavzu bo'yicha xorijiy manbalardan ma'lumot izlash jarayonida ishonchli sayt, ilmiy jurnallar, rasmiy idoralar nashrlariga asoslanish, shubhali blog yoki manipulyatsion saytlarni farqlash malakasini rivojlantirishi;

Media munozaralarda to'g'ri argument keltirish, qarama-qarshi fikrlarni xolis baholash kabi ko'nikmalarni tarbiyalash bilan shug'ullanishi lozim.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrini rivojlantirishda interaktiv metodlar. Quyida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan eng asosiy interaktiv metodlar sanab o'tiladi.

Debate club – ko'p yillardan beri dunyodagi ilg'or ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan, ayniqsa, ingliz tili amaliyotida keng tarqalgan usul. Bu usulda talabalarning ikki yoki undan ortiq guruhi muayyan mavzu bo'yicha qarama-qarshi pozitsiyalarni himoya qiladi. Bunda: Dalillarni to'plash, manbalar ishonchliligini baholash, ma'lumotlarni saralash jarayonlari amalga oshiriladi. Jarayon davomida tanqidiy savollar berish, qarshi guruh dalillarini inkor qilish yoki rad etish uchun ishonchli dalillar keltirish talab etiladi. Ishtirokchilar og'zaki nutq, hissiyotni boshqarish, auditoriyani ishontirish, muqobil manbalarni topa olish kabi ko'nikmalarni o'rganadi[5]. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari debate klublar orqali chet tilida ham axborotni tahlil qilish, o'z fikrini himoya qilish, turli ijtimoiy yoki madaniy masalalarda argument keltirish malakasiga ega bo'ladilar. Ayniqsa, ular kelajakda o'quvchilarga ham debate texnikasini o'rgatish orqali dars jarayonida tanqidiy tafakkur muhiti yaratishlari mumkin.

Keys-stadi (Case-study) usuli. Keys-stadi – real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni (keysni) guruhda yoki individual tartibda tahlil qilish metodidir. Bu metod bo'yicha:

Muammo bayoni: O'qituvchi talabalarga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy yoki o'quv jarayoniga oid biror keysni taklif etadi.

Ma'lumotlar to'plash: Talabalar keysdagi dalillar, statistika, manbalar, qarama-qarshi fikrlarni o'rganishadi.

Muqobil yechimlar topish: Har bir guruh yoki ishtirokchi keysga bo'lgan turli nuqtayi nazarlarni baholaydi, eng optimal yoki ilmiy jihatdan to'g'ri deb o'ylagan yechimlarni taklif etadi.

Himoya: Yakuniy natijada har bir guruh yoki talaba o'z qarashlarini bahs-munozara orqali himoya qiladi, savollarga javob beradi. Bu jarayonda "ingliz tili o'qituvchisi" sifatidagi bo'lajak mutaxassis nafaqat ma'lumotlarni grammatik tomondan tahlil qiladi, balki ularning ishonchliligi, muallifga xos manipulyatsiya, turli qarama-qarshi dalillarni izlash, muqobil manbalar keltirish, xulosa yasash kabi tanqidiy tahlil jarayonlarini amalda bajaradi.

Rolli o'yin (Role-play) va dramatizatsiya. Rolli o'yin – o'quvchilar yoki talabalar ma'lum

rollarni ijro etadigan jarayon. Masalan, bir talaba jurnalist, boshqasi siyosatchi, yana boshqasi blogger, yana kimdir notiq yoki tinglovchi rolini bajarishi mumkin. Ular o'z rollariga ko'ra o'zaro muloqot qiladi, ma'lumotni himoya qilish, savol berish, dalil keltirish jarayonida turli nutqiy va tanqidiy tafakkur elementlarini hayotga tatbiq etishadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari ushbu jarayon orqali: Ingliz tilida turli rolda so'zlash, fikr bayon etish, bahsga kirishish ko'nikmasini oshiradi. Faqat lingvistik mahorat emas, balki ma'lumotni baholash, turli dalillarni topish, manipulyatsiyaga qarshi turish, xulosa qilish kabi tanqidiy fikr unsurlarini rivojlantiradi.

“Brainstorming” (aqliy hujum) va “Fishbone” metodlari. Brainstorming – o'quvchilardan ma'lum muammo bo'yicha tezkor fikrlar, g'oyalar, savollar, takliflarni so'rash, ularni cheklamagan holda ro'yxat qilish, so'ng saralash va baholash. Bu jarayonda talabalar: Turli hissa qo'shadi, shu jumladan kutilmagan g'oyalar aytishi mumkin;

Keyinchalik o'sha g'oya va savollar tanqidiy ko'z bilan saralanib, asosli yoki asossizligi tahlil qilinadi.

“Fishbone” (baliq skleti) metodida asosiy muammo baliq umurtqa to'qimasi sifatida yoziladi, sabablari “suyaklar”ga, oqibatlar boshqa “suyaklar”ga ajratiladi. Talabalar sabablarga qarshi dalillar, muqobil fikrlar, yechim variantlarini ham shu “suyaklar”da belgilaydi. Bu metod vizual ko'rinishda tanqidiy tahlilni samarali tashkil qilish imkonini beradi[6].

Ingliz tili o'qituvchilarida tanqidiy fikr rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlar qo'llash rejasi. Quyida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun mo'ljallangan dars yoki mashg'ulot rejasining namunaviy shakllaridan biri keltiriladi:

Mavzu: “Global issiqlik muammosi to'g'risidagi turli manbalardagi ma'lumotlarni taqqoslash”.

Motivatsiya bosqichi (5 daqiqa): O'qituvchi ekologik muammo haqida qisqa video rolikni namoyish etadi.

Asosiy tushuntirish (15 daqiqa):

“Global warming” bo'yicha bitta ilmiy maqola (ingliz tilidagi) taqdim etiladi.

Boshqa manbada esa muammoni inkor qiluvchi xabar keltiriladi.

O'qituvchi “Ikki manba o'rtasidagi qarama-qarshilik qayerdan kelib chiqadi? Qaysi dalillar mustahkam?” deya savol tashlaydi.

Guruhli ish (15 daqiqa): Talabalar 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo'linib, har bir guruhga manbalar bo'yicha tahlil topshirig'i beriladi. “Muallif kim, ishonchlilik darajasi, statistika manbasi, manipulyatsion uslublar bormi, qarama-qarshi dalillar qanday?”

Bahs-munozara (15 daqiqa): Guruhlar o'z topilmalarini himoya qiladi. Boshqa guruhlar savol beradi. O'qituvchi xolis hakam vazifasini o'taydi.

Refleksiya (10 daqiqa): Har bir talaba “Bu ikki manbaga ilgari qanday yondashgan bo'lardim, endi esa nimani aniqladim?” kabi savollarga javob yozadi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi xulosa qiladi: turli manbalarni taqqoslash tanqidiy fikrlash bazasi ekanini uqtiradi.

Axborot va media muhitida tanqidiy fikrni shakllantirishda rivojlantirish omillari va to'siqlar. Rivojlantirish omillari

Turli manbalar bilan ishlash: Bitta manbaga tayanmasdan, qarama-qarshi dalillarni ham solishtirish odati.

Doimiy feedback: O'qituvchi yoki guruhdoshlar fikrni doimiy ravishda baholab, “Bu dalilingizga yana manba qo'shish kerak”, “Qarshi dalillarga ham e'tibor bering” singari maslahatlar berishlari.

Savollar berishga rag'batlantirish: “Nima uchun?”, “Qanday asosga ko'ra?”, “Muqobil yechim bormi?” kabi savollar mashg'ulotning ajralmas qismiga aylanishi.

To'siqlar

Passivlik: Ba'zi talabalar interaktiv metodlarga nisbatan sust munosabatda bo'lishi, “o'qituvchi gapirsin, men eshitaman” degan passiv yondashuvga ega bo'lishi mumkin.

Texnik cheklovlar: Onlayn interaktiv metodlar qo'llashda internet sifatining pastligi, platformadan to'g'ri foydalana olmaslik.

Vaqt cheklovi: Har bir darsda an'anaviy ma'ruza bilan cheklanmay, interaktiv metodlarga vaqt ajratish zarur. To'g'ri rejalashtirilmasa, dasturiy mavzular kechikishi mumkin.

Baholash subyektivligi: Tanqidiy fikrlash darajasini adolatli baholash qiyin bo'lishi, mezonlar yaxlit ishlab chiqilmagan bo'lsa, o'quvchining real holati noto'g'ri aniqlanishi mumkin.

Xulosa. "Axborot va media muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish uchun interaktiv metodlarni qo'llash" mavzusining ahamiyati shundaki, zamonaviy raqamli davrda chet tili o'qituvchisi nafaqat til bilishi, balki turli xabar, maqola, blogpost, ijtimoiy tarmoq kontentlari ichida zarur, xolis, ishonchli manbalarni topa olish, manipulyativ yoki feyk xabarlardan o'zini himoya qilish, shu bilan birga o'quvchilariga ham ana shunday tanqidiy tafakkurni singdira olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Interaktiv metodlar – debate, keys-stadi, rolly o'yin, brainstorming, onlayn forumlar – shunday kompetentlikni shakllantirishda eng samarali yo'llardan biri ekani maqolada nazariy va amaliy dalillar bilan asoslab berildi. Tajriba natijalariga ko'ra, doimiy ravishda interaktiv mashg'ulotlarda ishtirok etgan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari axborotga nisbatan shubha bilan emas, balki dalil va muqobil manbalar orqali yondashish, savol berish, xulosa qilishdagi mustaqillik, bahsda qarama-qarshi fikrni eshitish kabi malakalarni ko'proq namoyish etishi aniqlandi. Shunday ekan, pedagogik oliy ta'lim bosqichida tanqidiy fikrni rivojlantirish, ayniqsa media muhit bilan bo'g'liq bo'lgan mavzularda, bo'lajak o'qituvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun strategik ahamiyatga ega. Zamonaviy maktabda ingliz tilidan ta'lim beruvchi har qanday ustoz raqamli asrning sinovlariga tayyor bo'lishi, xolislik, dalilga asoslanish, manipulyativ axborotga qarshi immunitet va o'quvchilarni xuddi shunday tarbiyalash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Baxtiyrovna, Najmutdinova Gulnozaxon. "Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishdagi muammolar". tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar 1.8 (2025): 23-26.

Huitt, William, and John Hummel. «Piaget's theory of cognitive development.» Educational psychology interactive 3.2 (2003): 1-5.

Kalendarova, Z.K. "O'quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta'minlashda dars materiallarini tanlash". university research base (2024): 17-23.

Mo'minova Madina. "Raqamli mediakompetentlik: ilmiy asoslari, tarkibiy qismlari va rivojlanish omillari". Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования 4.6 (2025): 100-102.

Johnson, Blake R., et al. «A scoping review for debate-style journal clubs in health professional education.» American Journal of Pharmaceutical Education 87.6 (2023): 100064.

Urunova Shaxlo Rafikovna. «Kasbiy ingliz tili o'qitishda interaktiv metodlar va texnologiyalar». Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.5 (2024): 235-240.

UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM MAKONINI MODELLASHTIRISH VA LOYIHALASH

Umarov Lutfillo Murodilloyevich

Qashqdaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik jarayonda talabalarning amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlashning pedagogik mexanizmlari keltirilgan. Bundan tashqari, «uzluksiz kasbiy ta'lim makoni» tushunchalari asosida muallif uzluksiz kasbiy ta'lim makonini modellashtirish va loyihalash tamoyillari, jarayoni, mazmuni va texnologiyalarini tadqiq etgan.

Shuningdek, tayyorgarlik o'zgaruvchan dunyoda ishlashga, nostandart xarakterdagi muammolarni hal qilishga tayyor bo'lish imkoniyati, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, shu jumladan, raqamli texnologiyalar sharoitida innovatsion xususiyat, raqamli texnologiyalarga ega bo'lish, davr talablarga muvofiq ravishda yangi zamonaviy sharoitlarga moslashish, nostandart mazmundagi muammolarni hal qilishning mohiyati aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: amaliy faoliyat, texnik tizimlar, axborot texnologiyalari, iyerarxik yondashuv, didaktik ta'minot, raqamli ta'lim, innovatsion faoliyat, raqamli ta'lim muhiti, pedagogik mexanizmlar va boshqalar.

МОДЕЛИРОВАНИЕ И ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПРОСТРАНСТВА НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Умаров Лутфилло Муродиллоевич

Доцент Кашкадарьинского центра педагогического мастерства

Аннотация. В статье представлены педагогические механизмы определения уровня готовности студентов к практической деятельности в педагогическом процессе. Кроме того, на основе концепции «пространства непрерывного профессионального образования» автором исследованы принципы, процесс, содержание и технологии моделирования и проектирования пространства непрерывного профессионального образования.

Также в нем отражена суть подготовки к работе в изменяющемся мире, способность быть готовым к решению задач нестандартного характера, подготовка к профессиональной деятельности, включающая инновационность в контексте цифровых технологий, владение цифровыми технологиями, адаптация к новым современным условиям в соответствии с требованиями эпохи, решение задач нестандартного характера.

Ключевые слова: практическая деятельность, технические системы, информационные технологии, иерархический подход, дидактическое обеспечение, цифровое образование, инновационная деятельность, цифровая среда обучения, педагогические механизмы и др.

MODELING AND DESIGNING A CONTINUING VOCATIONAL EDUCATION SPACE

Umarov Lutfillo Murodilloyevich

Associate Professor of the Kashkadarya Regional Pedagogical Skills Center

Abstract. This article presents pedagogical mechanisms for determining the level of students' readiness for practical activity in the pedagogical process. In addition, based on the concepts of «space of continuous professional education», the author studied the principles, process, content and technologies of modeling and designing a space of continuous professional education.

Also, preparation is reflected in the ability to work in a changing world, to be ready to solve problems of a non-standard nature, preparation for professional activity, including the innovative nature in the conditions of digital technologies, the possession of digital technologies, adaptation to new modern conditions in accordance with the requirements of the era, the essence of solving

problems of non-standard content.

Keywords: practical activity, technical systems, information technologies, hierarchical approach, didactic support, digital education, innovative activity, digital educational environment, pedagogical mechanisms, etc.

Kirish (Introduction). Mazkur tadqiqot ishimiz jarayonida talabalar ya'ni bo'lajak pedagoglar kadrlar malakasi darajasi ko'rsatkichlarini aniqladik, baholash tizimini va o'qituvchi hal qila olishi kerak bo'lgan vazifalar ro'yxatini ishlab chiqildi. Shuning bilan birga, ular alohida ta'kidlashdi uzluksiz kasbiy talim sohasidagi asosiy va qo'shimcha kompetensiyalar ajratib ko'rsatildi. Raqamli texnologiyalar sharoitida oliy o'quv yurtlarining turli yo'nalishdagi talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgalik darajasini tashxislash quyidagilarni: kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning muayyan darajasida kompetensiyalarni shakllantirishni aniqlash; tashxislashni amalga oshirish mazmunan tayyorlash; maqsadlarga mos keladigan tashxislash shakllari va metodlarini tanlash; tashxislash muolajalarini amalga oshirish va aks ettirish kabilarni o'z ichiga oldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Muallif uzluksiz kasbiy ta'lim makonini modellashtirish doirasida «pedagogik tizim» tushunchasiga oid turli ilmiy yondashuvlarni ko'rib chiqdi. Olimlar ushbu tushunchani quyidagicha talqin qiladilar:

yirik pedagoglarning ilmiy va amaliy faoliyati xususiyati sifatida (Y.A. Komenskiy, A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy va boshqalar);

ta'lim yoki kasb-hunar maktablarining pedagogik tizimi sifatida (A.P. Belyayeva, N.Y. Batishev, YE.V. Bondarevskaya, YE.V. Tkachenko);

muayyan ijtimoiy sharoitlarda pedagogik faoliyatning umumiy bahosi sifatida;

uzluksiz ta'lim tizimi sifatida (N.K. Sergeyev, A.M. Novikov, V.V. Arnautov, B.S. Gershunskiy, I.P. Pastuxova).

Modellashtirilayotgan makonning pedagogik tizim sifatidagi asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

kasbiy faoliyatga tayyorgarligi tashxislashni o'rganadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Amalga oshirilayotgan har bir dastur uchun kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida biz o'quv fanlari doirasida shakllanishi kerak bo'lgan "Davlat ta'lim standarti"ga muvofiq kompetensiyalarni va faqat amalga oshirilayotgan dastur uchun xarakterli bo'lgan maxsus (shakllangan) kompetensiyalar aniqlandi[2,150].

Pedagogik modellashtirishning ta'rifi:

Uzluksiz kasbiy ta'lim makonini modellashtirish va yaratish, bu jarayonga konseptual asoslar, metodologik qarorlar va eksperimental sinovlar kiritilgan. Bu esa kasbiy ta'lim muassasalari makonidagi yopiqlikni bartaraf etish, talabalarning kasbiy kompetensiyasini va ularning ijodiy hamda innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirish imkonini beradi.

Modellashtirishning asosiy tamoyillari:

uzluksizlik,

tizimlilik,

butunlik,

integratsiya,

fundamentallik,

ko'p yo'nalishlilik va ko'p darajalilik,

innovatsionlik,

ochiqlik,

moslashuvchanlik.

Tashkiliy-pedagogik asoslarni modellashtirish

Modellashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

barcha ta'lim darajalari uchun ta'lim standartlari,

resurs ta'minoti tizimi (kadrlar, ilmiy, metodik, moddiy va moliyaviy jihatlar), an'anaviy va innovatsion texnologiyalarni bilish (interaktiv, masofaviy va boshqalar), ta'lim muassasalari bo'lmagan tizimlar bilan hamkorlik (turli shakllarda).

Amaliyat shuni ko'rsatadiki, uzluksiz kasbiy ta'lim makonini modellashtirish va uni amalga oshirish imkoniyatlarining samaradorligi quyidagilarga bog'liq:

O'quv tezligini va kasbiy ta'lim darajasini tanlashdagi variativlik. Bu shaxsning ma'lum bir ta'lim va rivojlanish darajasiga yetishiga yordam beradi.

Bir vaqtning o'zida bir nechta mutaxassislik malakani olish imkoniyati. Bu esa shaxsning istaklari va mintaqaning ehtiyojlariga mos keladigan individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish imkonini beradi[3,86].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Talabalarni kelgusidagi kasbiy ta'lim faoliyatga tayyorgarlik turli yo'nalishdagi ixtisoslik talabalarida butun o'qish davrida shakllantirilishini ta'kidlab, bo'lajak kadrlarni ishimizda axborot texnologiyalari kursini iyerarxik o'qitish sharoitida ta'limning barcha bosqichlarida kompetensiyalarni shakllantirishga tashxislash maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi.

Modellashtirish muallifning tadqiqot sohasidagi faoliyatiga aylanib, yangi metodologik bilimlarni olish va tizimlashtirish imkonini yaratdi. Ushbu jarayonda modellashtirish tushunchasining qo'llanish doirasi kengayib bordi, chunki modellashtirish yo'nalishlari, uni amalga oshirish shakllari, ishtirokchilar soni va natijalarni umumlashtirish shakllari bosqichma-bosqich kengaydi. Tadqiqotda «pedagogik modellashtirish», «pedagogik loyihalash», «pedagogik model» tushunchalari oliy ta'lim xususiyatlari asosida aniqlashtirildi.

Eng yuqori pedagogik samara modellashtirish jarayonining mohiyatini tushunish, uni amalga oshirish texnologiyalarini bilish hamda modellashtirilayotgan obyekt xususiyatlarini hisobga olish orqali erishiladi. Modellashtirish usuli empirik va nazariy yondashuvlarni birlashtirib, tajriba va ilmiy mantiqiy konstruksiyalar hamda nazariy abstraksiyalarni uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Pedagogik modellashtirish nazariy bilimlarni amaliyotga joriy etish, yangi pedagogik faoliyat mazmunini shakllantirish va yangi pedagogik amaliyotni yaratish asosida amalga oshirildi. Modellashtirishning amaliy ahamiyati uning deskriptiv, prognostik va normativ vazifalari bilan ta'minlanadi.

Pedagogik modellashtirishning qiyinligi uning ko'p omilliligi va pedagogik obyektlarning o'zgaruvchanligi bilan bog'liq. Shu sababli modellashtirishning asosiy tamoyillari professional ta'limning tipologik xususiyatlari bo'lib, ular yalabalarga oliy ta'limi bilan bir qatorda boshqa yo'nalish va darajadagi kasbiy ta'lim olish imkonini beradi[4,180].

Modellashtirishda asosiy metodologik tamoyil – pedagogik maqsadlar, vazifalar va yondashuvlarni integratsiya qilish, pedagogik ma'lumotlarni tizimlashtirish va haqiqiy ilmiy-pedagogik natijalarni olishdan iborat. Uzluksiz kasbiy ta'lim modellashtirilishi innovatsion faoliyat orqali amalga oshirildi. U davlat ta'lim standartlarini joriy etish, yangi axborot va pedagogik texnologiyalar, ta'lim-kasbiy dasturlar va o'quv fanlarini kiritish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini faollashtirish, modellashtirilgan makon uchun o'quv-metodik va o'quv dasturlarini ishlab chiqish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

modellashtirilgan makonning tizimlashtirilishi, kengayishi va chuqurlashishi,

yangi ishtirokchilarning qo'shilishi,

modellashtirish algoritmini ishlab chiqish va uni boshqa oliygohlar tomonidan joriy etish.

Shu sababli, tadqiqotning navbatdagi asosiy tushunchalar guruhi «tizim», «hududiy tizim», «pedagogik tizim», «uzluksiz kasbiy ta'lim tizimi» kabi atamalardan iborat. B.S. Gershunskiyga ko'ra, uzluksiz ta'lim tizimi – bu rasmiy (davlat) va norasmiy ta'lim muassasalarini qamrab oluvchi yaxlit tizim bo'lib, u jamiyatning davlat-ijtimoiy ta'lim salohiyati va ta'lim imkoniyatlari doirasini belgilaydi. Har bir inson butun umri davomida mazkur tizimdan foydalanishi mumkin.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda tizimga oid turli tushunchalar mavjud: «didaktik tizim»,

«ta'lim tizimi», «maktab – ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida», «ta'lim tizimi», «ta'lim makoni» va boshqalar.

Tadqiqot tahlili D.A. Novikov fikrini asosiy nuqtai nazar sifatida tan olib, tizimning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi:

obyektning murakkabligi,

uning yaxlitligi,

tizimning yuqori darajadagi element sifatida ishlay olishi.

Shu asosda, uzluksiz kasbiy ta'lim makonini modellashtirish umumiy maqsad, vazifalar, funksiyalar va muvofiqlashtirilgan aloqalarni o'z ichiga olgan, hamkorlikdagi faoliyatni tahlil qilish imkonini beradigan model sifatida belgilandi.

Tashkiliy-struktur jihatdan uzluksiz kasbiy ta'lim makoni talabalarning innovatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim imkoniyatlarini yaratadi va ular tomonidan ixtiyoriy tarzda foydalanilishi mumkin[5,120].

Muallif uzluksiz kasbiy ta'limni ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida ta'riflaydi, u ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalarini birlashtirish hamda integratsiya qilishga qaratilgan. Bu tizim ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, yangi ijtimoiy-ta'limiy ustuvor yo'nalishlarni, kasbiy ta'limni olish usul va shakllarini izlash, ularni turli institutsional shakllarda amaliy joriy etish kabi maqsadlarga erishishni ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mazkur tadqiqot ishimizda raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning kasbiy faoliyatning davr talablariga muvofiq ravishda zamonaviy turiga tayyorligi monitoringi iyerarxik yondashuv asosida o'qitishning turli darajalarida amalga oshirildi. Turli davrlarda talabalarning turli yo'nalishdagi ixtisoslik guruhlarida tadqiqotda ishtirok etdilar.

Tinglovchilarning barcha guruhlarida monitoring tabiiy sharoitda amalga oshirildi. Tajriba sinov davomida mazkur tadqiqot ishimizda bo'lajak pedagogik kadrlarning texnik tizimlardagi uzluksiz ta'lim tizimi makonini o'qitishda innovatsion faoliyatga tayyorligini monitoring qilish modeli ni ishlab chiqildi, bu tadqiqotda bo'lajak pedagoglarning uzluksiz kasbiy ta'lim tizimi sharoitida davr talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun ishlatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ergashev Nuriddin G'ayratovich. Uzluksiz ta'lim sharoitida muxandislar malakasini oshirishni rivojlantirishning metodik shartlari. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558, Volume 1, Issue 2, July 2022, 54-59 b. www.rnasav.com.

Asqarov A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. –T.: 2017. –250

Шахмарова Р.Р. Непрерывное образование – основа развития личности в современном обществе / Международный научно-исследовательский журнал. №05 (59), Часть 2. Май. – с. 85-87.

Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: Дисс....канд.пед.наук. -С.: 2004. -190 с.

Jo'rayev R., Yuldashev M., Rahmonqulova N., Bahromov A., Zokirov A. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish. O'quv-metodik qo'llanma. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2014, –160 b.

Olimov Q.T. va boshqalar. Kasb ta'limi metodikasi. Darslik. "Fan texnologiyalari nashriyoti". –T.: 2016. 328 b.

DIDACTIC SYSTEM OF DISTANCE LEARNING

Umarova Muqaddas Muxtarovna

Associate Professor, Doctor of Philosophy in Psychology, Kokand State University (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada masofaviy o'qitishning didaktik tizimi, uning asosiy tushunchalari va zamonaviy ta'lim jarayonlaridagi o'rni ko'rib chiqiladi. Masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarning uyg'unlashuvi, interaktiv usullar va baholash mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif, talabalarda mustaqil o'qish malakasini rivojlantirish va interaktiv o'qitishni yo'lga qo'yish orqali o'quv jarayonining sifatini oshirish usullarini ko'rsatib beradi. Shuningdek, masofaviy ta'lim modelining hozirgi zamon talablari va istiqbollari haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: masofaviy o'qitish, didaktik tizim, interaktiv usullar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, baholash mexanizmlari, mustaqil o'qish, pedagogik yondashuv

Аннотация: В данной статье рассматривается дидактическая система дистанционного обучения, а также её основные понятия и роль в современных образовательных процессах. Анализируется значение информационно-коммуникационных технологий и педагогических подходов, а также интерактивных методов и механизмов оценивания в процессе дистанционного обучения. Автор показывает пути повышения качества учебного процесса путём развития у студентов навыков самостоятельного обучения и внедрения интерактивного преподавания. Кроме того, делается вывод о современных требованиях и перспективах модели дистанционного обучения.

Ключевые слова: Дистанционное обучение, Дидактическая система, Интерактивные методы, Информационно-коммуникационные технологии, Механизмы оценивания, Самостоятельное обучение, Педагогический подход

Annotation: This article examines the didactic system of distance learning, focusing on its fundamental concepts and its role in contemporary educational processes. It analyzes the significance of information and communication technologies, pedagogical approaches, as well as interactive methods and assessment mechanisms in distance education. The author outlines strategies for enhancing the quality of the learning process by cultivating students' independent study skills and integrating interactive teaching methods. Furthermore, the paper draws conclusions about the current requirements and future prospects of distance learning models.

Keywords: Distance learning, Didactic system, Interactive methods, Information and communication technologies, Assessment mechanisms, Independent study, Pedagogical approach

Distance learning, also referred to as online learning or e-learning, has seen substantial growth in recent decades. The global expansion of the internet, along with the increasing reliance on digital technologies, has paved the way for educational institutions and learners worldwide to adopt new forms of teaching and learning. This paper explores the didactic system of distance learning, considering its conceptual underpinnings, methodological approaches, and practical applications. It also provides insights into the current trends and challenges in deploying distance learning models, with a particular focus on designing and implementing effective instructional strategies.

Distance learning can be defined as an educational process in which the majority of the instruction occurs when the students and the instructors are not in the same place. This implies that teaching and learning are mediated by various electronic channels, including learning management systems, video conferencing tools, and educational software. The didactic system underpinning distance learning is built on a pedagogical framework that aims to transfer knowledge, develop skills, and foster critical thinking in learners through technological means. These systems must

be carefully designed to ensure that learners receive not only informational content but also the necessary support to develop problem-solving skills, collaborative abilities, and a sense of engagement with the course material.

One of the central aspects of the didactic system in distance learning is the concept of learner autonomy. Independent study forms a backbone of effective distance learning programs. Learners are encouraged to become active participants in their own education, controlling their pace, time, and place of study. This shift in responsibility demands that students develop self-regulatory abilities such as self-discipline, time management, and goal setting. Instructors, on the other hand, transition into the role of facilitators and guides, providing structured content, timely feedback, and motivational support. The didactic approach hence emphasizes the importance of designing content in a way that provokes inquiry, stimulates curiosity, and encourages deep engagement with learning resources.

A critical component of a robust distance learning environment is the use of information and communication technologies (ICT). In modern distance education, technology is not merely a supplementary tool but the main channel through which instruction, interaction, and assessment take place. Video conferencing software, virtual classrooms, and discussion forums serve as conduits for synchronous and asynchronous communication. Through these platforms, educators can host virtual lectures, conduct live discussions, and organize collaborative group projects. At the same time, asynchronous tools—such as recorded video lectures, discussion boards, and email—permit students to learn at their convenience while still staying connected to the instructor and peers. This blending of synchronous and asynchronous methods allows for a more flexible and learner-centered approach, aligning well with the principles of constructivist pedagogy that underpin many distance learning models.

The effectiveness of distance learning heavily relies on the design of instructional materials. In a face-to-face classroom, instructors can adapt their teaching strategies on the spot in response to student feedback. However, in a distance context, materials must be carefully curated and structured in advance. Multimedia elements—videos, audio recordings, animations, and interactive simulations—provide dynamic ways to illustrate complex ideas. Well-prepared study guides, reading assignments, and case studies help learners connect theory to practice. Quality instructional design ensures that all these elements integrate seamlessly, leading to coherent lessons that engage learners cognitively and emotionally. Thus, the didactic system in distance education requires deliberate, learner-focused planning of course content and delivery methods.

Assessment in distance learning likewise demands careful consideration. Traditional testing methods, such as closed-book exams administered in a physical classroom, may not always be feasible in a purely virtual environment. Instead, distance learning opens the door to alternative assessment forms, such as project-based tasks, portfolios, collaborative assignments, and self-reflective journals. These methods not only gauge learners' understanding of the material but also promote critical thinking, creativity, and practical application of concepts. Online quizzes and proctored examinations remain a valuable option for evaluating certain learning outcomes, but they must be supplemented with varied forms of assessment to capture the full spectrum of student learning. This holistic approach to assessment aligns well with modern didactic principles that view evaluation as a continuous, multi-faceted process rather than a one-time event.

Despite its promise, distance learning also faces a series of challenges that can affect its didactic efficiency. One major hurdle is the digital divide, referring to unequal access to devices, internet connectivity, and technological literacy. Learners from underprivileged backgrounds may struggle to benefit from distance learning opportunities if they lack stable internet connections or the necessary hardware. Additionally, the absence of face-to-face interaction can lead to feelings of isolation or reduced motivation among students who thrive in more social learning environments. Overcoming these difficulties involves strategic planning at the institutional level, including offering technical support, providing training on digital literacy, and facilitating virtual communities that

foster belonging and interaction. Another challenge stems from the need for educators to adapt their teaching methods. Delivering instruction online calls for different classroom management strategies, a rethinking of assessment practices, and new approaches to student engagement. Not all instructors are immediately equipped to tackle these demands, emphasizing the importance of faculty development programs and training in pedagogy and digital tools.

Nevertheless, the future of distance learning appears highly promising. The Covid-19 pandemic, for instance, accelerated the global shift to online and blended education, driving innovations in software platforms, teaching methods, and curriculum design. As a result, many educational institutions discovered new pathways to make learning more flexible and accessible, allowing them to reach broader student populations, including adult learners, working professionals, and individuals from remote regions. Emerging technologies, such as artificial intelligence and virtual reality, are likely to further refine the didactic system of distance education. AI-driven adaptive learning software can personalize content based on an individual student's pace, style, and performance, while virtual reality can simulate immersive learning experiences otherwise impossible in a traditional classroom setting. These developments could reshape the structure of distance learning, making it more interactive and learner-centered than ever before.

From a didactic perspective, one of the key strengths of distance learning is its capacity to foster self-directed learning and lifelong learning habits. Unlike more traditional pedagogical approaches that may encourage passive reception of information, effective distance education nudges students to become active seekers of knowledge. This methodology encourages learners to set personal objectives, assess their own progress, and explore subject matter beyond formal course requirements. Over time, these habits can cultivate higher-order thinking skills and nurture a spirit of inquiry that extends well past the completion of any single course. By positioning learners at the center of the educational process, the distance learning model aligns well with broader shifts in global education policies that emphasize competencies such as critical thinking, communication, and problem-solving.

In conclusion, the didactic system of distance learning is a multifaceted construct that demands thoughtful planning, solid technological infrastructure, and pedagogical strategies attuned to the virtual environment. While challenges such as the digital divide and lack of in-person contact can limit its effectiveness, well-designed distance learning programs can offer meaningful, high-quality educational experiences. By combining self-directed learning, interactive teaching methods, and diverse assessment strategies, distance learning can rival—and in many cases, surpass—traditional classroom-based models. As technology continues to evolve, the didactic framework of distance education will likely grow even more sophisticated, opening new avenues for personalized instruction and expansive learning communities. It is incumbent upon educational institutions, policymakers, and instructors to embrace these possibilities and work collaboratively to refine distance learning systems that meet the diverse needs of the learner population. By so doing, distance learning can fulfill its potential not only as a stopgap in crisis situations but as a mainstay of modern education, expanding access and opportunity for all.

REFERENCES

- Moore, J. L., Dickson-Deane, C., & Galyen, K. E-Learning, Online Learning, and Distance Learning Environments: Are They the Same? // *The Internet and Higher Education*. – 2011. – Vol. 14. – No. 2. – P. 129–135.
- Anderson, T., & Dron, J. Three Generations of Distance Education Pedagogy // *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*. – 2011. – Vol. 12. – No. 3. – P. 80–97.
- Garrison, D. R. *E-Learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice*. – New York: Routledge, 2017. – 180 p.
- Simonson, M., Zvacek, S., & Smaldino, S. *Teaching and Learning at a Distance: Foundations of Distance Education*. – Charlotte: IAP, 2019. – 335 p.
- Bates, A. W. *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning for a Digital Age*. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2019. – 526 p.

ASSESSING CRITICAL THINKING SKILLS IN COMMUNICATIVE CLASSROOMS: TOOLS AND TECHNIQUES

Urishev Abdumajid Ikromovich,
Teacher of Uzbekistan State World Languages University

Annotation: The development of critical thinking (CT) has emerged as a vital component of language education, particularly within Communicative Language Teaching (CLT) frameworks that emphasize learner interaction, meaning-making, and problem-solving. However, assessing CT skills in communicative classrooms remains a pedagogical challenge, often due to the abstract nature of critical thinking and the focus on fluency over cognitive depth. This article investigates a range of tools and techniques suitable for evaluating CT in EFL/ESL settings grounded in CLT principles. Drawing on classroom-based observations, teacher interviews, and literature review, the study identifies effective assessment practices, including analytical rubrics for discussions and debates, reflective writing tasks, critical incident analysis, peer-assessment strategies, and performance-based assessments integrated with communicative tasks. The findings highlight the importance of aligning assessment with both language and thinking outcomes, ensuring tasks are authentic, learner-centered, and cognitively engaging. Furthermore, the study underscores the need for clear rubrics, scaffolding, and teacher training to ensure reliability and validity in CT assessment. Implications are discussed in terms of classroom implementation, teacher education, and curriculum design. The article contributes to the ongoing effort to harmonize language proficiency development with critical thinking instruction in communicative language learning environments.

Keywords: critical thinking, communicative language teaching, assessment, EFL, performance-based tasks, language education

ОЦЕНКА НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В КОММУНИКАТИВНЫХ КЛАССАХ: ИНСТРУМЕНТЫ И МЕТОДЫ

Уришев Абдумажид Икромович,
Преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация: Развитие критического мышления (КМ) становится важным элементом языкового образования, особенно в рамках коммуникативного подхода (КП), который акцентирует внимание на взаимодействии обучающихся, осмыслении и решении проблем. Тем не менее, оценка КМ в коммуникативных классах остаётся педагогической проблемой, во многом из-за абстрактности самого понятия и ориентации КП на беглость речи, а не на глубину мышления. В данной статье рассматриваются инструменты и методы оценки КМ в условиях преподавания английского как иностранного, основанного на принципах КП. На основе наблюдений в классе, интервью с преподавателями и анализа литературы, в работе выделены эффективные практики оценки, включая аналитические рубрики для обсуждений и дебатов, задания на рефлекссию, анализ критических инцидентов, стратегии взаимной оценки и задания, основанные на выполнении коммуникативных задач. Результаты подчеркивают необходимость согласования оценивания с языковыми и когнитивными результатами, обеспечивая подлинность заданий и вовлечённость студентов. Также акцентируется важность чётких критериев, предварительной подготовки и профессионального развития преподавателей для обеспечения надёжности и валидности оценки КМ. Обсуждаются педагогические и методические последствия для преподавания и проектирования учебных программ.

Ключевые слова: критическое мышление, коммуникативное обучение, оценивание, преподавание английского языка, практико-ориентированные задания, языковое образование

KOMMUNIKATIV DARSLARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI BAHOLASH: VOSITALAR VA USULLAR

*O'rishev Abdumajid Ikromovich,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi*

Tizimlar o'zaro ta'sirga kirishganda o'zgaruvchan subyekt-obyekt munosabatlari paydo bo'ladi, bu esa boshqaruv tizimining paydo bo'lishini bildiradi. Bu boshqaruv tizimining mavjudligini o'zaro munosabatlarning paydo bo'lishi bilan belgilaydi;

Yuqoridagi nazariyaga asoslanib, boshqaruv davrining bosqichlarini sxematik tarzda jadval ko'rinishida taqdim etish mumkin.

1-jadval

Boshqaruv siklining bosqichlari

Bosqich	Boshqaruv bosqichlari tavsifi
Strategik maqsad. Maqsadlar daraxti	1. Strategik natijaning bashorat qilinishi mumkin bo'lgan, ammo amalga oshirib bo'lmaydigan ideal yo'nalish. Bu fundament bilimlarga tegishli bo'lib, texnologiyalashtirilmaydi va maqsadli natijalarni aniqlashda ideal yo'nalish sifatida xizmat qiladi.
Maqsadning operatsion va taktik darajaga bo'linishi	2. Maqsadning bo'linishi natijasida u operatsion va taktik darajalarga tushiriladi. Bu bosqichda texnologik operatsiyalarni qo'llash va taktik darajadagi maqsadlarni amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.
Ideal tizim modeli	3. Ta'lim tizimi tarkibi, tuzilmasi va ishlash funktsiyalarini aniqlash va modellashtirish.
Real tizim modeli	4. Tizim maqsadlarini amalga oshirishda algoritmlar, usullar, shakllar va vositalarni qo'llash. Bu bosqichda o'quvchilar intellektual, ma'naviy-ma'rifiy va kasbiy rivojlanishlari amalga oshiriladi.
Natijani tahlil qilish	5. Ta'lim va tarbiya natijalari o'lchanadigan va o'lchanmaydigan ko'rsatkichlar bilan baholanadi. O'lchanadigan natijalar: «kirish» va «chiqish»da maqsadlarning aniq ifodasi. O'lchanmaydigan natijalar: 1. Tizimni boshqarish mahorati; 2. Natijani kafolatlaydigan texnologiyalardan foydalanish; 3. Bir xil sharoitlarda turli ijrochilarning natijalarini solishtirish; 4. Refleksiya.

Ta'lim muassasalari amaliyoti davlatning navbatdagi normativ va ideologik hujjatlari, ta'lim to'g'risidagi hukumat qarorlari bilan rivojlanish bosqichlariga mos ravishda strategik jihatdan to'g'rilanadi. Kelajak uchun shaxsning rivojlanishi va davlatimizning ijtimoiy tizimi uchun strategik ta'lim yo'nalishi aniqlangan: "Tarbiya maqsadi — bu jamiyat va alohida tarbiyachilar

intiladigan ideal bo'lib. dasturiy vazifa — hamma tomonlama rivojlangan, uyg'un shaxsni shakllantirish — jamiyat va maktabning intilish maqsadi sifatida qaralishi kerak".

Strategik maqsadlar haqida: Strategik maqsadlar jamiyat rivojlanishiga bog'liq bo'lib, ular ilm-fan darajasi bilan belgilangan va ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida majburiy qabul qilinishi kerak. Chunki har qanday boshqa tizim singari tarbiya tizimining ham asosiy xususiyati aniq shakllantirilgan maqsaddir. Agar bu maqsad o'lchovlar asosida natijaning darajasini aniqlashga imkon beradigan shaklda bo'lmasa, bunday tizimni nazariy jihatdan qurish va amalda amalga oshirish mumkin bo'lmaydi.

Jadvalda ko'rsatilgan boshqaruv siklining har bir bosqichi ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun muhim yo'nalishlarni ko'rsatadi. Strategik darajadan boshlab, real tizimdagi natijalar va ular o'lchovlari yordamida aniq va o'lchanadigan maqsadlar va natijalarni belgilash zarurati ta'kidlanadi.

Yuqoridagi tahlil asosida biz kelajakda muhandis-dasturchi bo'ladigan talabalarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiya natijalarini oshirish uchun ta'lim tizimini boshqarishni tizimlashtirish zarur, deb hisoblaymiz. Buni amalga oshirish uchun quyidagilarni hisobga olish muhimdir:

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Har bir darsda pedagog dunyoqarash maqsadini amalga oshiradi, bu maqsad mavzuning mazmuni bilan belgilanadi va axloqiy kategoriyada ifodalanadi.

Har bir pedagog maqsad qo'yish texnologiyasini egallashi kerak, ya'ni strategik, operativ va taktik maqsadlarni belgilashni bilishi zarur. Ilmiy fanlarni o'rganish jarayonida tarbiya tizimida maqsad qo'yish quyidagilarni nazarda tutadi:

Shaxsiy jihatni belgilash — bu ma'lum bir axloqiy kategoriya bo'lib, uni ishlashning yakuniy operatsiyasi "maqsadlar daraxtini" tuzishdir. Bu daraxtda axloqiy ma'nodagi ijobiy tamoyillar va yomonlikka qarama-qarshi bo'lgan tamoyillar (axloqiy antipodlar) keltirilgan. Ushbu operatsiya o'quv tizimida va ijtimoiy-madaniy hayotda erkin maqsad tanlash uchun axborot maydonini yaratadi.

Operatsion maqsad — bu strategik maqsadning shu darajada bo'linishidirki, u amaliyotga tatbiq etilishi mumkin. Shaxsiy maqsad qo'yishda bu bo'linish har bir ijobiy komponentda va axloqiy antipodlarda axborotiy, motivatsion va operatsion jihatlarining ajratilishini ta'minlaydi.

Agar boshqaruv tizimining tuzilmasi haqida gapiradigan bo'lsak, u har bir boshqaruv siklining bosqichida amalga oshiriladi va tizimlarning o'zaro maqsadlari bilan moslashadi. Boshqaruv texnologiyasi sinxron o'zaro ta'sirni ta'minlaydi.

Ta'lim yaxlitligini ko'rib chiqib, quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

Mazmuniy-ta'limiy va dunyoqarash maqsadlari pedagogik faoliyat natijalarini ta'minlaydi. Darslarda talabalar intellektual va ma'naviy-ma'rifiy potentsiallarini rivojlantiradilar, bu esa fan sohasidagi bilimlarni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. O'quv tizimidagi subyektlar maqsadlarni amalga oshirish usullaridan foydalanib, bilim va xulq tizimlarini modellashtiradilar.

Subyektlarning o'z-o'zini rivojlantirish maqsadiga asoslangan yondashuv oliy ta'lim tizimida o'zaro ta'sirni o'rnatish imkonini beradi. Bu o'zaro ta'sir ishtirokchilarning individual harakatlarining oddiy qo'shilishi asosida emas, balki kelishilgan xatti-harakatlar asosida amalga oshiriladi. Bunday hamkorlik o'z-o'zini tashkil etish jarayonlarini ifodalaydigan hodisadir.

Ta'lim yaxlitligining sinxronlashuvi subyektlarning intellektual va ma'naviy-ma'rifiy sifatlarini o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan xulq tartibini yaratish orqali amalga oshiriladi. Natijada, tizim va subyektlarning uyg'un rivojlanish imkoniyati yuzaga keladi.

Kelajakda muhandislar-dasturchilarni tayyorlashda kasbiy boshqaruv maqsadlari subyektning o'z-o'zini rivojlantirish sifatlarini rivojlantirish bilan bog'liq holda shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Boshqaruv jarayonlari siklining bosqichlariga muvofiq bu sifatlar shakllanadi va rivojlanadi. Biz kasbiy faoliyatni subyekt sifatida muhandisni-dasturchini — ijodkor va boshqaruvchi sifatida qaraymiz, u o'zini va kelajakdagi kasbiy mehnat tizimini boshqaradi.


Shunday qilib, biz talabalarning ma'naviy-ma'rifiy sifatlarini o'z-o'zini rivojlantirish

subyektlari sifatida shakllantirish boshqaruv texnologiyasi operatsiyalarini ochib berdik.

Maqolamizda ilg'or xorijiy modellarni tahlil qilamiz.

Vaziyatli yondashuvda eng to'la holda boshqaruv faoliyati va tashkiliy muhitning o'zaro aloqalari ahamiyatliligi aks etadi, bu innovatsion jarayonni ta'lim muassasasining kasbiy yo'nalishidagi faoliyat kontekstidan olib qarashga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, aynan mana shu yondashuv innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim muassasasini boshqarish faoliyatini tadqiq qilish asosiga qo'yilishi mumkin bo'lib hisoblanadi. Vaziyatli yondashuvning markaziy tushunchasi bo'lib vaziyat, ya'ni, berilgan qisqa vaqt davomida tashkilotga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatadigan holatlar yoki omillarning aniq to'plami hisoblanadi. Ta'lim muassasasini boshqarishni amalga oshirish davomida optimallashtirilishi talab qiladigan tizim sifatida vaziyatning ajratib ko'rsatilishi va ijtimoiy jarayonlarning borishini vaziyatli tahlil qilish ham tadqiqotchilik, ham izlanishlar borasida juda mahsulodor bo'lib chiqadi. Bu shu bilan bog'liqlik, "vaziyat" atamasi pedagogik jamoa a'zolari faoliyatining haqiqiy holatlari jamlanmasini bildiradi va obyektiv mavjudlik maqomiga ega bo'ladi. Mana shu holatga bog'liq holda muammoli vaziyat tushunchasi orqali boshqaruv sotsiologiyasida juda keng tarqalgan inson xulq-atvorining obyektiv va subyektiv omillarini ajratish bartaraf etiladi.

F.Fidlarning vaziyatli modeliga mos holda ta'lim menejeri faoliyatining muvaffaqiyatliligi uchun asosiy moment bo'lib hal qilayotgan vazifalar tipi (uning odatiyligi, talqin qilish va tuzilmalashning aniqligi), lavozim vakolatlari tuzilmasi (ta'lim menejeri boshqaruvining legitimligi va hajmi), "menejer-tobe kishi" tizimidagi munosabatlar (tobe kishilar namoyon qiladigan loyallik, ularning o'z rahbariga ishonchi va menejer shaxsining ijrochilar uchun jozibadorligi) kabi parametrlar orasidagi nisbat bilan namoyon bo'ladi. Vazifalar aniq talqin qilingan, ta'lim menejerining lavozim vakolatlari sezilarli bo'lgan hollarda uning o'z qo'l ostidagi kishilar bilan munosabatlari qulay holda bo'ladi.



1-rasm. Fidlarning o'zgaruvchan vaziyatli modeli

F.Fidler garchi har bir vaziyatga o'z rahbarlik faoliyati mos keladigan bo'lsada, lekin ta'lim menejerining faoliyati umuman olganda doimiy bo'lib qoladi deb hisoblaydi. U kishi o'z menejerlik faoliyatini vaziyatga moslashtira olmasligi haqidagi farazdan kelib chiqqanligi uchun menejerni barqaror rahbarlik faoliyatiga eng yaxshi tarzda mos keladigan vaziyatlarga tushirib ko'rishni

taklif qiladi. Bu vaziyat olg'a suradigan talablar orasidagi lozim bo'lgan darajadagi muvozanatni ta'minlaydi va bu o'z navbatida yuqori unumdorlik va qoniqish hissiga olib keladi.

XULOSALAR

Maqolada ilg'or xorijiy modellar tahlil qilindi: Fidlarning o'zgaruvchan vaziyatli modeli, Xersli-Blanshar, Vrum-Yetton boshqaruv modellari va Deming sikli. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni boshqarishni takomillashtirish asosida talabalarning kasbiy-kompetensiyalarini shakllantirish modelini ishlab chiqishda Deming siklidan foydalanish lozimligi aniqlandi. Ta'lim muassasasini boshqarishni amalga oshirish davomida optimallashtirilishi talab qiladigan tizim sifatida vaziyatning ajratib ko'rsatilishi va ijtimoiy jarayonlarning borishini vaziyatli tahlil qilish ham tadqiqotchilik, ham izlanishlar borasida juda mahsulodor bo'lib chiqadi. Bu shu bilan bog'liqki, "vaziyat" atamasi pedagogik jamoa a'zolari faoliyatining haqiqiy holatlari jamlanmasini bildiradi va obyektiv mavjudlik maqomiga ega bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli —Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3765586>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli —Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>.
3. Qodirov B.Q. O'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish // International conference on modern medicine and issues of ecological management. Belgium, 12.10.2022. – 37-39 p.
4. Uzaqov N.H. Oliy talimda manaviy marifiy ishlarni raqamli boshqarishda pedagogik texnologiyalaridan foydalanish // Scholar, 1(31), 28.11.2023. – P. 93–96. <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/5330>
5. Uzaqov N.H. Innovative educational technologies in digital education // Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 20.11.2023.- P. 342–346. <http://erus.uz/index.php/er/article/view>.

OG'IR ATLETIKADA KO'KRAKDAN SILTAB KO'TARISH MASHQINI O'RGATISH USLUBIYATI

Xodjayev Anvar Zakirovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, og'ir atletika nazariyasi va uslubiyati kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada og'ir atletika sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning musobaqa faoliyatida qo'llaniladigan mashqlaridan biri ko'krakdan siltab ko'tarish mashqini bajarish texnikasiga o'rgatish uslubiyati va izchilligi orasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ko'krakdan siltab ko'tarish, texnika, musobaqa faoliyati, musobaqa mashqi, o'rgatish uslubiyati.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ УПРАЖНЕНИЮ РЫВОК ОТ ГРУДИ В ТЯЖЕЛОЙ АТЛЕТИКЕ

Ходжаев Анвар Закирович

Доцент кафедры теории и методики тяжелой атлетики Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы взаимосвязи между методикой и последовательностью обучения технике выполнения одного из упражнений, используемых в соревновательной деятельности спортсменов, занимающихся тяжелой атлетикой, - рывка с груди.

Ключевые слова: Рывок с груди, техника, соревновательная деятельность, соревновательное упражнение, методика обучения.

METHODOLOGY OF TEACHING THE BACKLIFT IN WEIGHTLIFTING

Khodzhaev Anvar Zakirovich

Associate Professor of the Department of Theory and Methodology of Weightlifting, Uzbek State University of Physical Culture and Sports, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract: This article discusses the interrelationship between the methodology and sequence of teaching the technique of performing the chest snatch, one of the exercises used in the competitive activities of athletes engaged in weightlifting.

Keywords: Breaststroke, technique, competition activity, competition exercise, training methodology.

Kirish. Og'ir atletikada musobaqa mashqlari tezkor-kuch sifatini talab etuvchi mashqlardan iborat bo'lib, unda belgilangan og'irliklarni qisqa muddatda harakat elementlarni bajarish bilan avval dast ko'tarish so'ngra siltab ko'tarish bajariladi.

Siltab ko'tarish ikkita mustaqil harakatlardan iborat bo'lib, birinchisi ko'krakga ko'tarish, ikkinchisi ko'krakdan siltab ko'tarish hisoblanadi.

Adabiyotlarda ko'krakga ko'tarish 9 ta faza, ko'krakdan siltab ko'tarish 11 ta faza keltirib o'tilgan. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ko'krakga ko'tarish mashqi 7 ta fazadan va ko'krakdan siltab ko'tarish mashqi 8 ta fazadan iborat bo'ldi. Ko'krakdan siltab ko'tarish mashqini takroriy bajarilganda 10 ta fazani qabrab oladi.

Siltab ko'tarish mashni bajarishga o'rgatish uchun qabul qilingan tartib asosida avval ko'krakga

ko'tarish so'ngra ko'krakdan siltab ko'tarishga o'rgatiladi. ko'krakdan siltab ko'tarish uslubiya ko'krakga ko'tarish, dast ko'tarish keyin ko'krakdan siltab ko'tarish harakatlariga o'rgatish ketma-ketligida tavsiya qilamiz.

Ko'krakdan siltab ko'tarish mashqi aslida musobaqalarda dast ko'tarish, ko'krakga ko'tarish harakatlaridan so'ng charchoq fonida bajariladi. Ko'krakdan siltab ko'tarish dast ko'tarish mashqi kabi koordinasion murakkab mashqligini inobatga olib, Tadqiqotimiz natijalariga tayangan holda ko'krakga ko'tarish va dast ko'tarish mashqlarini harakatlariga o'rgatilgandan keyin ko'l va oyoq harakatlarini alohida o'rgatish tamoyili asosida bajarish tavsiya qilamiz. Bu ketma ketlik murakkab harakatlarni to'g'ri va tez qabul qilish muddatini qisqartirishga xizmat qiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Ko'krakdan siltab ko'tarish mashqiga o'rgatish ketma-ketligi

t/r	Topshiriqlar		Meyor
1.	Qo'llar harakati:		
	1.1.	Dastlabki holatni qabul qilish (Start)	----
	1.2.	Tik holatdan (d.x.) temir cho'pni yuqoriga ko'tarish;	3 yondashishda 4 marta
	1.3.	Temir cho'pni shvung usulida yuqoriga ko'tarish;	3 yondashishda 4 marta
	1.4.	Temir cho'pni shvung usulida siltab ko'tarish.	3 yondashishda 4 marta
2.	Oyoqlar harakati:		
	2.1.	Predmetsiz (shtanga) oyoqlarni qaysi usulida tashlash;	3-4 yondashishda 4-6 marta
	2.3.	Predmet (shtanga) bilan oyoqlarni qaysi usulida tashlash.	3-4 yondashishda 4-6 marta
3.	Yuqoriga siltab ko'tarish (qo'l va oyoq harakati)		
	3.1.	Bosh orqasida siltab ko'tarish;	3 yondashishda 4 marta
	3.2.	Ko'krak ustidan siltab ko'tarish.	3 yondashishda 4 marta
4.	Ko'krakdan siltab ko'tarish		
	4.1.	Ko'krakdan siltab ko'tarish	3-4 yondashishda 2-3 marta

Jadvalda ko'krakdan siltab ko'tarish mashqini o'rgatishda avval qo'l harakatini so'ng oyoq harakatlarini bajarish ketma-ketligi berib o'tilgan.

Ko'llar harakatida temir cho'pni tik holatdan yuqoriga ko'tarish, shvung usulida yuqoriga ko'tarish, shvung usulida siltab ko'tarish, oyoqlar harakatida predmetsiz va predmet bilan oyoqlarni qaysi usulida tashlash, siltab ko'tarishda bosh orqasida hamda ko'krakdan siltab ko'tarish mashqlarini bajarilish ketma ketligi yoritib berilgan.

Ko'krakdan siltab ko'tarishda ko'llar harakatiga o'rtagish. Ko'krakdan siltab ko'tarish mashq harakatiga o'rgatishda ko'p hollarda shtanga grifi bilan to'liq mashqni bajartirishadi. Ammo harakat tassavuridaga har bir shug'ullanuvchilar uchun individual yondoshuv asosida elementlarni parametr bo'yicha mos ravishda harakatiga o'rgatilmasa, kelgusida og'ir vaznlarga o'tganda birinchi ko'yilgan hato harakatlar namayon bo'laveradi. Shu bois, shug'ullanuvchilarga tana turidan kelib chiqib, to'g'ri harakatga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Oldinga ko'yilgan maqsadga erishish uchun avval ko'krakdan siltab ko'tarish mashqini dastlabki holatini qabul qilishdagi talablarga e'tibor beriladi.

Dastlabki holat – tayoqcha yoki temir cho'pni (yoki shtanga) siltab ko'tarish kengligida (maxsus belgi yoki kengroq) ushlab, tik (belni biroz ichkariroq, ko'krak qafasi biroz oldinga, tosni biroz orqaga va qo'llar bukilib, tirsaklar yelka kengligidan kengroq bo'lib, ko'krak oldida gorizontaal chiziqda) holatda ko'krak ustiga (yelkaga) qo'yib turamiz. Oyoqlar yelka kengligida yoki biroz kengroq, oyoq uchlari esa biroz tashqariga qaratilgan bo'lib, bosh esa oldinga iyak esa biroz yuqoriga qaratilgan bo'lishi lozim.



1-rasm. Ko'krakdan siltab ko'tarishdagi dastlabki holat

1. Tik holatdan (d.x.) temir cho'pni yuqoriga ko'tarish.

Tyemir cho'pni yelkalarga qo'yib dastlabki holatni qabul qilingandan so'ng o'rta tezlikda ko'llarni yuqoriga ko'tariladi.

Bajarilishi. D.h.dan keyin temir cho'p yoki tayoqchani qo'llar yordamida vertikal chiziqda yuqoriga ko'tarish paytda, bosh biroz orqaga bukilib, shtanga o'tgach bosh o'z holatiga qaytadi (shtanga yo'liga halaqit qilmasligi uchun). Temir cho'p yoki tayoqni to'liq ko'targach, qo'llar tik turadi. Oyoqlar joyidan siljimaydi, temir cho'p yoki tayoqni sekin tushirayotib, boshni biroz orqaga olib ko'krakka qabul qilib olinadi. 3 yondashishda 4 martadan bajariladi. Mazkur mashqni mukammal o'rganib (o'zlashtirib) olgandan so'ng keyingi mashqga o'tiladi.

2. Temir cho'pni shvung usulida yuqoriga ko'tarish.

Dastlabki holat – yuqoridagi d.h.ni inobatga olib, shtanga yelkada turadi.

Bajarilishi. D.h.dan keyin 10-5 sm o'tirib turib, oyoqlar uchiga chiqib, temir cho'p yoki tayoqchani qo'llar yordamida vertikal chiziqda oyoqlar yordamida yuqoriga irg'itib (shvung usulida) yuqoriga ko'taramiz.

3. Temir cho'pni shvung usulida siltab ko'tarish.

Dastlabki holat – yuqoridagi d.h.ni qabul qilanadi.


Bajarilishi. D.h.dan keyin temir cho'p yoki tayoqcha bilan biroz o'tirib turib, oyoqlar uchiga chiqib, yuqoriga irg'itib, yuqoriga sakrab oyoqlarni yonga tashlab (shvung usulida) siltab ko'taramiz.

Ko'krakdan siltab ko'tarishda oyoqlar harakatiga o'rgatish.

1. Predmetsiz (shtanga) oyoqlarni qaysi usulida tashlash

Dastlabki holat – oyoq kaftlari parallel bir chiziqda joylashadi, qo'llar pastda, qomatni tik ushlab shart emas. Boshni pastga qaratib, oyoq harakatini nazorat qilinadi.

Bajarilishi. Rasmda keltirilgan ko'rsatmaga binoan (oldingi oyoqni bir oyoq kafti oldinga biroz yonga, oyoq kaftining uchi biroz tashqariga qaratilgan, orqa oyoqning bir yarim oyoq kafti orqaga, biroz yonga, tovon biroz tashqariga) biroz yuqoriga sakrab, oyoqlarni qaychisimon tashlaymiz. Bu harakatni sportchining o'zi boshini egib nazorat qilishi shart (2-rasmga qarang).




2-rasm. Ko'krakdan siltab ko'tarish mashqida oyoqlarni tashlash tartibi

Eslatma: - Oldingi oyoqni tanlash uchun yuqoridagi belgiga (bola bo'yidan bir yarim balandlikdagi bayroqqa) balandlikka bir oyoqda deysinib, qo'li bilan tekkizishga harakat qiladi. Qaysi oyoq bilan deysinib yuqoriroq sakrasa, o'sha oldingi oyoq etib tanlanadi;

- «X-HarRlat» ko'rilmasi mavjud bo'masa unda oldinga va orqaga oyoqlarning tushish joyini taxtasupaga bo'r bilan chiziqlar bilan belgilanib qo'yiladi;

- Oyoqlarni qaychi usulida tashlanganda avval muvozanatni orqa oyoqqa yuklab oldingi oyoqni d.x. qaytaradi keyin orqa oyoq d.x. qaytadi.



3- rasm. Ko'krakdan siltab ko'tarish mashqida oyoqlarni tashlash tartibi

Eslatma: - Oldingi oyoqni tizza bo'g'imida 100-105 gradus atrofida yoki oldingi oyoqni bukkanda (biroz boshni egib), tizza bo'g'imi ustidan oyoq uchlari ko'rinishi kerak; - Oyoqlarning tashlagandan so'ng murabbiy nazorat qilishi lozim yoki o'sha holatda, (d.h.ga qaytishdan oldin) sportchi boshini egib ko'rib olishi mumkin.

2. Predmet (shtanga) bilan oyoqlarni qaysi usulida tashlash.

Dastlabki holat – temir cho'p yelkada oyoq kaftlari parallel bir chiziqda joylashadi, bosh biroz

oldinga egiladi (oyoq harakatini nazorat qilish) qomatni tik ushlash shart emas.

Bajarilishi. D.h. keyin qo'llarni harakatga keltirilmay (temir cho'p yelkada) biroz tizzalarni bukib, yuqoriga sakrab oyoqlarni tashlaymiz (oyoqlarning kafti belgilangan chiziqqa joylashishiga e'tibor berish lozim).

Ko'krakdan siltab ko'tarishda oyoq va qo'llar harakatiga o'rgatish.

1. Bosh orqasida siltab ko'tarish.

Dastlabki holat – tik holatda turamiz. Temir cho'p yelkada oyoq kaftlari parallel bir chiziqda joylashadi, bosh biroz oldinga egiladi (temir cho'pni yuqoriga ko'tarish vaqtida boshning orqasiga urib olmaslik uchun)

Bajarilishi. D.h. keyin tizzalarni biroz bukib, yuqoriga ko'taraygan paytda bir vaqtning o'zida qo'llarni temir cho'p bilan yuqoriga ko'taramiz va oyoq kaftlarini qaychisimon tashlaymiz (oyoqlarni kafti belgilangan chiziqqa joylashishiga e'tibor berish lozim).

2. Ko'krakdan siltab ko'tarish.

Dastlabki holat – tik holatda turamiz. Temir cho'p ko'krakda (yelkalarining old qismida) oyoq kaftlari parallel bir chiziqda joylashadi, bosh biroz orqaga egiladi iyak biroz yuqori va orqaga olinadi.

Bajarilishi. D.h. keyin tizzalarni biroz bukib, yuqoriga ko'tarayotgan paytda bir vaqtning o'zida qo'llarni temir cho'p bilan yuqoriga ko'taramiz va oyoq kaftlarini qaychisimon tashlaymiz (oyoqlarni kafti belgilangan chiziqqa joylashishiga e'tibor berish lozim). Temir cho'pni yuqoriga siltab ko'tarayotgan zaxoti temir cho'pga yo'l berish maqsadida iyakni yuqoriga ko'tarib temir cho'pni harakatiga xalaqit qilinmaydi.

3. Siltab ko'tarish.

Ko'krakga ko'tarishdagi dastlabki holatdan boshlanib (ko'krakga ko'tarish mashqi), so'ng ko'krakdan siltab ko'tarish mashqi bajariladi.

Tadqiqotimizda shug'ullanuvchilar tamonidan ko'krakdan siltab ko'tarish mashqini o'rgatish jarayonida texnik mahorat aniqlash sifatida harakat trayektoriyasini 2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

2-jadval

Ko'krakdan siltab ko'tarishdagi harakat malakasi ishonchligi
(har bir shug'ullanuvchining o'rinishlar soni umumiy 25 ta)

Harakatlar nomi				Shtangani harakat yo'nalishining trayektoriya turlari		
				A	B	V
Ko'llar harakati	1.	D.h. dan yuqoriga ko'tarish	son	4	1586	12
			%	0.2	99.1	0.7
	2.	Shvung usulida yuqoriga ko'tarish	son	94	1436	70
			%	5.9	89.7	4.4
	3.	Shvung usulida siltab ko'tarish	son	116	1402	82
			%	7.2	87.6	5.1
Oyoq va qo'llar harakati	1.	Bosh orqasidan siltab ko'tarish	son	94	1379	127
			%	5.9	86.2	7.9
	2.	Ko'krakdan siltab ko'tarish	T	son	105	1354
			G	%	6.6	84.6
			N	son	947	140
			G	%	59.2	8.7
						32.1

Izoh: TG- tajriba guruhi; NG- nazorat guruhi.

Ko'krakdan siltab ko'tarish mashqini o'rgatish jarayonida tajriba guruhida alohida ko'llar harakati, oyoqlar harakati hamda ko'llar va oyoqlar harakati bo'yicha o'rgatish uslubi asosida mashg'ulotlar olib borilgan. Ammo, jadvalga predmet va predmetsiz oyoqlar harakatlarini o'rgatish jarayonida shtangani ko'tarilish harakat trayektoriyasi yo'qligi sababli kiritilmagan. Nazorat guruxi esa an'anaviy usulda mashg'ulotlar olib borgan.

Jadvalda ko'rinib turibdiki tajriba guruhining shug'ullanuvchilari ko'krakdan siltab ko'tarish mashqini o'rgatishda avvalam bor qo'llar harakati o'rgatish bosqichida dastlabki holatdan (siltab ko'tarish kengilgida) yuqoriga ko'tarish harakatida shtanga vertikal og'irlik marqaz chizig'i bo'ylab harakatlanishi umumiy 1600 ta harakatdan 1586 (99.1 %) tasi B guruhga to'g'ri keldi. Vertikal og'irlik marqaz chizig'idan oldinga harakatlanish trayektoriya guruhida - 4 (0.2 %) ta, vertikal og'irlik marqaz chizig'idan orqaga harakatlanish V guruhga, - 12 (0.7 %) ta bajarilganligini ko'rishimiz mumkin. Tajriba guruhidagi shug'ullanuvchilar shtangani yuqoriga ko'tarishda yuqori tezlik harakatda bajarmaganligi sababli bunday yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishdi. Shu jumladan har bir harakat trener tamonidan muvozanatni saqlab, qo'llarni to'g'ri bajarilishini nazorat qilindi.

Shvung usulida yuqoriga ko'tarish mashqida B guruhda - 89.7 %,

A guruhda - 5.9 % hamda V guruhda - 4.4 % ko'rsatkich bilan yakunlashdi.

B guruhda dastlabki holatdan yuqoriga ko'tarish harakatiga nisbatan - 9.4 % kamayganini ko'ramiz, bu esa yuqoriga ko'tarish mashqiga oyoqlar harakati ya'ni, dastlabki holatdan biroz o'tirib, oyoqlar kuchi yordamida yuqoriga irg'itish harakati ko'shilganligi tufayli bazi bir shug'ullanuvchilar og'irlik muvozanatini (markazi) oyoq uchlariga o'tkazgani (tayangani) va irg'itishdan so'ng yuqoriga ko'tarish jarayonida ko'llarini orqaga o'tkazganligi sabab bo'ldi.

Shvung usulida siltab ko'tarish mashqida B guruhda - 87.6 %, A guruhda - 7.2 %, V guruhda - 5.1 %ni tashkil etdi. Bu erda ham shvung usulida siltab ko'tarish jarayonida yuqorida takidlaganimizdek muvozanatni yo'qotish, oyoq va qo'llarni harakatlarini o'zgarishi, shuningdek, irg'itish bilan tayanchli va tayanchsiz shtanga ostiga o'tirish hamda shtanga ostiga o'tirishda qayd qilish fazalari bilan bajarilishini inobatga olgan holda B guruhda - 2.1 %ga,

A guruhda - 1.3 %ga, V guruhda - 0.7 %ga o'rgarganini ko'ramiz.

Ko'l harakatini o'zlashtirib olgandan keyin oyoqlar va qo'llar harakatlarini birgalikda bajarish vazifasida avval bosh orqasidan siltab ko'tarish mashqi bajarilganda B guruhda - 1.4 %ga kamaygani, A guruhda

- 1.3 %ga kamaygani hamda V guruhda - 2.8 %ga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa bosh orqasidan siltab ko'tarish mashqini bajarish ko'krak ustidan siltab ko'tarish mashqidan bajariligi osonroq bo'lganligi sababli vertikal og'irlik marqaz chizig'idan orqaga harakatlanishi trayektoriyasida foiz ko'rsatkichini oshishiga olib keldi.

Ko'krakdan siltab ko'tarish mashqida B guruhda - 84.6 %, bosh orqasidan siltab ko'tarish mashqiga nisbatan - 1.6 % kamaygani, A guruhda - 6.6 %, bosh orqasidan siltab ko'tarish mashqiga nisbatan 1.6 %, V guruhda - 8.8 %, bosh orqasidan siltab ko'tarish mashqiga nisbatan - 0.9 %ga oshgani kuzatildi.

Nazorat guruhida B guruhda - 8.7 %, A guruhda - 59.2 % hamda

V guruhda - 32.1 % ko'rsatkichga ega bo'lishdi. Ko'p hollarda trenerlar ko'krakdan siltab ko'tarish harakatini siltab ko'tarish mashqi bilan birga bajartirishadi. Bu esa ko'krakdan siltab ko'tarish mashqi murakkabligini inobatga olgan holda qo'llar hamda oyoqlar harakatini alohida o'rgatishga e'tiborsizlik mazkur mashqni mukammal to'g'ri o'zlashtirishga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu bois ham, nazorat guruhining shug'ullanuvchilari ko'krakdan siltab ko'tarish mashqida vertikal og'irlik marqaz chizig'i bo'ylab harakatlanish guruhida tajriba guruhiga nisbatan - 75.9 %ga, Vertikal og'irlik marqaz chizig'idan oldinga harakatlanish guruhida - 52.6 %ga, vertikal og'irlik marqaz chizig'idan orqaga harakatlanish guruhida - 23.3 %ga yomon ko'rsatkichga ega bo'lishdi.

Ko'krakdan siltab ko'tarish mashqi ham shtanga ostiga o'tirish balanligidan kelib chiqib, uni ko'tarilish balanligini ta'minlash lozim, aks holda shtanga ostiga o'tirishda qayd qilish uchun tiksaklarni yoyish va tizzi bug'imlarni bukilishi to'liq yoki xadidan tashqari bukilib qolish holatini keltirib chiqaradi. Bu esa mashqni oxirigacha bajarishda og'ir vaziyatlarni paydo qiladi. Ko'krakdan siltab ko'tarish mashqini texnik jihatdan to'g'ri bajarilganligi texnik mezonlar bo'yicha 3-jadvalda ko'rib chiqamiz.

3-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhning tadqiqot guruhlararo ko'krakdan siltab ko'tarish harakatida texnik mahoratini aniqlovchi mezon ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlili

Tadqiqot guruhlari	Shtangani ko‘tarish balandligi (%)	Shtanga ostiga o‘tirishda qayd qilish balandligi (%)	Shtanga ostiga o‘tirishda qayd qilishda oyoq kaftlarini oralig‘i		Shtanga ostiga o‘tirishda qayd qilishda tizza bug‘imini bukilish burchagi	
			Uzunligi (sm.)	Eni (%)	oldi oyoq (gradus)	orqa oyoq (gradus)
Ko‘krakdan siltab ko‘tarish						
Nazorat guruhi	109.9±	110.4±	53.1±	102,3±	147.3±	39.7±
Tajriba guruhi	107.0±	109.9±	55.2±	109.5±	144.3±	46.5±
farqi	1.9	1.6	2.1	7,2	3.0	6.8

Izoh: -TB- tadqiqot boshida, TYA-tadqiqot yakunida; -Tadqiqot shug'ullanuvchilarining bo'y balandligi o'rtacha ko'rchatkichda NG- 172 sm, TG 170 sm. nisbatan olingan; -Shtanga ostiga o'tirishda qayd qilish fazasida oyoqlar kaftining kengligi yelka kengligidan kelib chiqib, hisoblanadi.

Jadvalda ko'rinib turibdiki, nazorat guruhida tajriba guruhiga nisbatan texnik mezon bo'yicha o'sish ko'rsatkichlari nisbiy. Tajriba guruhida shtanga ostiga o'tirishda qayd qilish fazasini erkinlik bilan bajarish uchun yondashuv yaratib, bunda tayan doirasi va tizzi bo'g'imlarni beomexanik tavsiflar asosida bajarishgan.

Shtanganiko'tarilishbalandligigashtangaostigao'tirishdaqaydqilishbalandligigasolishtirganda nazorat va tajriba guruhida shtangani qayd qilish balandligi shtangani ko'tarish balandligidan yuqoriroq ko'rsatkiga ega bo'lganini ko'ramiz. Buning sababi, BTG shug'ullanuvchilari ko'krakdan siltab ko'tarish mashqini mahorat bilan bajarish shakllanmaganligi, ular irg'itish fazasidan so'ng shtanga ostiga o'tirish fazalarida ko'llarning mushak kuchi (tirsaklar) yordamida shtangani yuqoriga ko'tarishga harakat qilishadi. Aslida ko'tarilgan shtanga balandligiga mos ravishda shtanga ostiga o'tirishda qayd qilinadi. Ushbu harakatlar yuqori malakali sportchilarda

kuzatiladi. Ushbu tayyorgarlik bosqichidagi og'ir atletikachilarda tayyorgarlik darajasi ortib borgan sari bu harakat o'z o'zidan yo'qolib ketadi. Aksincha shtangani og'irligi oshib borgan sari shtangani ostiga o'tirish fazalarini bajarish uchun ko'proq shtanga ostiga o'tirish harakat qilishadi bu esa tizza bug'im burchak graduslari oshib borishi olib keladi.

Shtanga ostiga o'tirishda qayd qilishda tayanch sifatida oldi va orqa oyoqlarni oralig'ini kattaligi sportchining tanasi harakatga kelishini oldini oladi. Jadvalda ko'rinib turibdiki, nazorat guruhida tayanch doirasi tajriba guruhiga nisbatan kichik, bu esa shtanga ostiga o'tirishda qayd qilish fazasida yonga og'ishga olib kelishi mumkin. Shu tariqasida oldingi va orqa oyoqlarni vertikal chiziqdan qay darajada tashlash ham muhim, ask holda oldin yoki oyoqlarni etarlicha tashlanmasa shtangani qayd qilishda texnik hatolikga, ko'p hollarda shtangani turishib qo'yishga ham olib keladi. Oldingi yoki orqa oyoqlarni to'g'ri uzunlikda tashlansama, tizza bug'imlaridagi notug'ri bukulishlar og'irlik markazini siljishiga olib keladi.

Xulosa. Og'ir atletikada musobaqa mashqlarning texnik harakatlarini to'g'ri va mukammal egallash kelgusida shug'ullanuvchi tamonidan og'ir vazndagi musobaqa mashqlarini qiyinchiliksiz bajarishda as qotadi.

Og'ir atletikada ko'p hollarda shug'ullanuvchilarga harakat bo'yicha murakkab mashq dast ko'tarish mashqidan boshlashadi. Shug'ullanuvchining texnik tayyorgarligining boshlang'ich bosqichida dast ko'tarish mashqining texnik elementlarini o'zlashtirish, shu tariqasida shtanganing yo'nalish traektoriyasi, og'irlik markaz chizig'i bo'ylab muvozanatni saqlagan holda mashqni bajarish bir qancha qiyinchilarga duch keladi. Og'ir atletika musobaqa mashqlarini bajarishda belgilangan og'irlik bilan tanlangan mashqni talablariga muvofiq ya'ni o'ziga xos egiluvchanlik, oyoqlarni bo'y balandligidan kelib chiqib joylashishi, bel va qo'llarni, shuningdek, gavdani tik ushlab bilan mashqni dastlabki holatdan chiqish, og'irlik markazini saqlagan holda tos-son bug'imiga tortib uni irg'itib yuqoriga ko'tarish ancha qiyinchilikni olib keladi. Ushbu harakatni osondan qiyin harakatga o'tish tamoyili asosida emas, balqi qiyin harakatdan boshlashga ko'nikib qolishgan. Shu bois, shug'ullanuvchi dast ko'tarish mashqini o'rgatish boshidan ko'p hatoliklarga yo'l qo'yadi va mushak xotirasiga yozib oladi. Bu esa kelgusida texnik harakatini sayqalashtirilgandan so'ng ham og'ir maksimal vaznlarda mushak xotirasiga yozib olingan harakat namayon bo'ladi.

Yuqoridagi jadvallardagi ko'rsatkichlarga tayanib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida musobaqa mashqlarini texnik jihatdan to'g'ri bajarishga o'rgatish uslubiyatimiz bugunki kunda eng samarador uslubiyat ekanligiga xulosa qilsak mubolag'a bo'lmaydi.

Qo'llanilgan adabiyotlar.

Bayazitov K.F. Повышение спортивно-педагогического мастерства в тяжелой атлетике. Т, 2011.

Vorobyev A.N. Тяжелая атлетика: Учеб. для ин-тов физ. культуры. –Изд. 4-йе/Под ред. А.Н. Воробьева. –М.: ФИС, 1988.

Dvorkin L.S., Podgotovka yunogo tyajeloatleta. -M 2006.

Dvorkin L.S. учеб, Тяжелая атлетика, методика подготовки юного тяжелоатлета. 2-изд., М.«Юрайт»-2017 г.

Dvorkin L.S., Тяжелая атлетика Том 1, Том 2.; 2-изд., М.«Издательство Юрайт»-2017 г.

TIRIK ORGANIZMLARDA SODIR BO'LADIGAN BIOLOGIK JARAYONLARNI FIZIK QONUNIYATLAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Xudayberdiyev Botir Abduraxmanovich,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali Tabiiy-Ilmiy gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ish tirik organizmlarda sodir bo'ladigan biologik jarayonlarni fizik qonuniyatlar asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Unda biologiya va fizika fanlari integratsiyasini ta'minlash orqali o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, biologik jarayonlarning fizik asoslarini tushuntirishga xizmat qiladigan pedagogik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Ishda organizmlardagi issiqlik almashinuvi, qon aylanishi, nafas olish, energiya almashinuvi va boshqa jarayonlarning fizik qonuniyatlarga asoslangan izohlanishi muhokama qilingan. Ushbu metodika o'quvchilarda fanlararo tafakkurni rivojlantirish va biologik jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: Gidrodinamik model, qon, o'qitish maqsadi, pedagogik yondashuv, ijodiy topshiriq, xulosa chiqarish, analiz, sintez, xulosa qilish.

Абстракт. Данная научная работа посвящена разработке методики обучения биологическим процессам, происходящим в живых организмах, на основе физических законов. В ней рассматриваются педагогические подходы, которые служат укреплению знаний студентов и объясняют физические основы биологических процессов путем обеспечения интеграции биологических и физических наук. В работе обсуждалась трактовка теплообмена, кровообращения, дыхания, энергетического обмена и других процессов в организмах на основе физических законов. Этот метод позволяет студентам развить междисциплинарное мышление и получить более глубокое понимание биологических процессов.

Ключевые слова: Гидродинамическая модель, кровь, образовательная цель, педагогический подход, творческое задание, вывод, анализ, синтез, вывод.


Abstract. This research paper is devoted to the development of a methodology for teaching biological processes occurring in living organisms based on physical laws. It examines pedagogical approaches that serve to strengthen students' knowledge and explain the physical foundations of biological processes by integrating biological and physical sciences. The paper discusses the interpretation of heat exchange, blood circulation, respiration, energy exchange and other processes in organisms based on physical laws. This method allows students to develop interdisciplinary thinking and gain a deeper understanding of biological processes.

Keywords: Hydrodynamic model, blood, educational goal, pedagogical approach, creative task, conclusion, analysis, synthesis, inference.

Kirish. Tirik organizmlar dunyosi o'ziga xos murakkablik va go'zallik bilan to'la. Ular o'zaro bog'langan biologik jarayonlar orqali hayotiy faoliyatlarini amalga oshiradilar. Ushbu jarayonlar ko'plab fizik qonuniyatlarga asoslanadi, bu esa biologiya va fizika fanlari o'rtasidagi muhim aloqani namoyon etadi. Tirik organizmlarda sodir bo'ladigan jarayonlar, masalan, metabolizm, energiya almashinuvi, hujayra respiratsiyasi va fotosintez kabi jarayonlar, fizik qonuniyatlar bilan to'liq bog'liqdir. Ushbu maqolada biologik jarayonlarni fizik qonuniyatlar asosida o'qitish metodikasi ko'rib chiqiladi. O'qitish jarayonida talabalarga biologik jarayonlarning asosiy tamoyillari va ularning fizik asoslari haqida chuqur tushuncha berish muhimdir. Bu yondashuv nafaqat biologiya fanini o'rganishni yengillashtiradi, balki talabalarning ilmiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

A.Y. Gerd (1841-1888) maktab o'quvchisi birinchi navbatda evolyutsion ketma-ketlikda joylashtirilgan katta hajmdagi faktik materiallarni o'rganishi va shundan keyingina o'qishning oxirida darvinizmni o'zi uchun "Kashf etishi" kerak deb hisoblardi. Bugungi kunga qadar biologiyada narsalar shunday turibdi [8]. Odamlar qabul qilgan tovushlarni balandligi, tembri va qattiqligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Ana shu har bir sub'yektiv bahoga tovush to'lqinining aniq fizikaviy xarakteristikasi mos keladi. O.Frank taklif etgan qon yuradigan tomirlar sistemasining gidrodinamik modelini ko'rib o'tamiz. Bu model yetarlicha oddiy bo'lishiga qaramasdan, qonning zarb hajmi (bitta sistola davomida yurak qorinchasi tomonidan otib chiqarilayotgan qonning hajmi) bilan, qon aylanish sistemasi markazidan uzoqda joylashgan qismlarining gidravlik XO qarshiligi va arteriyalardagi bosimning o'zgarishlari orasidagi bog'lanishni amalga oshirishga imkon beradi. Qon aylanish sistemasi arterial qismi elastik rezervuar kabi modellashtiriladi

Qon elastik rezervuarda bo'lgani sababli uning ixtiyoriy paytdagi hajmi p bosimga quyidagi munosabat orqali bog'langan:



1-rasm. Qon aylanishining mexanik modeli

Bu yerda R-rezervuarning elastikligi (hajmi bilan bosim orasidagi proporsionallik koeffitsiyenti); V_0 - rezervuarning bosim bo'lmagandagi ($p=0$) hajmi. Formulani differensiallab, quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$\frac{dV}{dt} = k \frac{dp}{dt}$$

Qon yurakning elastik rezervuarga (arteriyaga) kiradi, qon oqishining hajmiy tezligi Q ga teng. Qon elastik rezervuardan, chetki qismlarga (arteriolalar, kapillyarlarga) Q_0 hajmiy tezlik bilan oqib chiqadi. Faraz qilaylik, chetki sistemalarning gidravlik qarshiligi o'zgarmas bo'lsin. Bu elastik rezervuarning chiqish qismiga mahkamlangan — qattiq naycha qo'yish orqali modellashtiriladi [9].

Bilim darajasini aniqlashda biz V.P Bespalkoning tizimidan hayratga tushamiz. Barmoqsiz, Bu ularning assimilyatsiyasining to'rtta darajasini ajratib turadi:

1. "Tanish": bilim tan olish darajasida o'zlashtiriladi, o'quvchi xabardor bo'ladi. o'rganilayotgan materialning mazmuni haqida, elementar darajadagi masalalarni yecha oladi o'qituvchining yordami bilan;

2. "Ko'paytirish": bilim uni qo'llash uchun yetarli darajada o'zlashtirilgan masalalar yechish, talaba mustaqil ravishda elementar va yetarli darajada;

3. "Evristik faoliyat": mantiqiy zanjirlarni qurish qobiliyati, xulosalar chiqarish va nostandart masalalarni mustaqil hal qilish.

4 "Ijodiy faoliyat": ijodiy va muammoli muammolarni hal qilish qobiliyati vazifalarni bajarish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish [10].

Fanni o'qitishda belgilangan kompetentsiyani shakllantirishni ta'minlash Integral ta'lim loyihasi quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi kerak:

1) dizayn topshirig'i;

2) dan iborat matematik komponent matematikada nazariy tamoyillarni qo'llash;

3) tabiiy fan komponenti, matematik model loyihaning amaliy qismini tashkil qiladi. Shunday qilib, tavsiya etilgan usullarni qisman tasniflash mumkin qidirish usullari va ulardan mustaqil foydalanish maqsadga muvofiqdir talabalarning sinfdagi darslarga tayyorgarlik ko'rishda ham, darsda ham ishi da hisobotlar tayyorlash bosqichida mustaqil ishning ijodiy turlari talabalar ilmiy-texnikaviy konferensiyalari, raqobatbardosh ilmiy ishlar va loyihalar [11].

O'qitishning maqsadi, mazmuni, shakllari va usullari, vositalari bilan o'qitishning metodik tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ta'lim vositalari ma'lum bir tabiatga ega ob'yektlar sifatida tushuniladi, o'quv muhitini shakllantirish va o'qituvchi tomonidan qo'llaniladi hamda o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonida qo'llanilish imkoniyatlarini ochib berishga katta omkoniyat yaratadi [12].

M.V.Polonskiy mezonlar yordamida baholashning ikki turini ajratadi: shakllantirish va aniqlash. Formativ baholash o'tkaziladi oraliq aniqlash uchun butun o'quv jarayoni davomida bilimlarni egallash va kompetentsiyani rivojlantirish darajasi. Yordamida ushbu turdagi baholash natijalari, o'qituvchi har biri bo'yicha ma'lumotlarni oladi talaba, qo'llanilgan usul va usullarning samaradorligi haqida, mumkin ishingizni sozlang. Yakuniy baholash yakunida amalga oshiriladi semestr yoki bo'lim va o'qituvchining ishini umumlashtirish uchun xizmat qiladi va talabalar, bo'limni baholash, darajani aniqlash uchun malakalarni rivojlantirish mumkinliklarini ta'lidlaydi [13]. Biz raqamlarni yozish qoidalarini o'z ichiga olgan ma'lumotnomalarni ishlab chiqdik standart shakl, asosiy fizik konstantalar, asosiy birliklar o'lchovlar va boshqa ma'lumotnomalar, matematika bo'yicha qisqacha ma'lumotlar [14].

Bugungi kundagi tadqiqotlar quyidagi farazlarga asoslanadi. 1. Litseyda fizik, kimyoviy va biologik bilimlarning integral o'zaro ta'siri yuqori darajada yaxlitligi ta'minlanadi, agar:

mazmunni ishlab chiqishda, tabiiy fanning asosiy, qo'shimcha va asosiy mazmunining yaxlitligini ta'minlovchi, qoniqarli shaxsiy yondashuvga tayanadi. shaxsning kognitiv imkoniyatlari va yo'nalishini hisobga olgan holda ehtiyojlari;

integratsiyaning nazariy asoslari, jumladan, funktsiyalari, mazmuni, rasmiylashtirilgan jihat va faoliyati belgilangan. tendentsiyalar, yo'nalishlar, turlar, turlar, darajalar va shakllarning ma'lum bir ierarxiyasida ifodalanishini ta'minlaydigan, shartlar, g'oyalar, tushunchalar, qonuniyatlar, tamoyillar, texnologiyalar va prognozlar o'rtasidagi munosabatlarning mantiqiy tuzilishini ochib beradigan, shuningdek, faoliyatni tartibga soluvchi aspekt. litsey ta'limi mazmuni integratsiyasini amalga oshirish;

2. Litseyda tabiatshunoslik ta'limi mazmunini integratsiyalash o'quvchilarning tabiatshunoslik hodisalari, qonunlari, nazariyalari, dunyo rasmlarini ongli ravishda o'zlashtirishiga hissa qo'shadi va tabiatshunoslikni rivojlantirishga yordam beradi. fikrlash, xulq-atvor yo'nalishini shakllantirish va shu bilan tayyorlash tabiiy fanlar universitetida o'qish uchun, agar:

biologik tur mazmunining vertikal o'zaro ta'sirini integratsiyalashning amaliy modeli ishlab chiqilgan bo'lib, unda sub'yekt ichidagi, sub'yektlararo, fanlararo, kompleks va faoliyatga asoslangan bilim va ko'nikmalar sintezini ta'minlaydi;

nazariy masalalarni hal qiluvchi sintezlangan "Biofizika" fanini ta'lim mazmuni tarkibiga kiritish. O'quv faoliyatining turli shakllarida fanlararo umumlashtirish;

talabalarning o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatining tuzilishi tabiatshunos olimning faoliyatini yetarli darajada aks ettiradi va shaxsning o'zini o'zi belgilashi va o'zini namoyon qilishi sharoitida, turli shakllar orqali shakllanadi. individual va jamoaviy hamkorlik;

o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda rivojlanishni ta'minlaydigan faol o'quv muhitini yaratishga yordam beradigan texnologiyalardan foydalaning talabalarning tabiatshunoslik aqliy faoliyati [15].

A. S. Kraskoning takidlashicha darsliklarni hamda undagi mavzularning ketma-ketligini shunday joylashtirish uchun asos integratsiyalashgan bo'lishi kerakligini ko'radi, bu fanlararo bo'g'liqlik darslarning barcha turlari taqdim etiladi:

ma'ruza;
amaliy;
laboratoriya va kurs dizayni [16].

I.Y. Lernerining ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha quydagi xulosalarga kelindi an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda foydalanishning (tushuntirish-illyustrativ, reproduktiv, muammoli, qisman bo'yicha qidiruv, tadqiqot o'qitish didaktik ilgarilash usuli, davomida yo'naltirish usuli integrativ muammolarni hal qilish va integral loyihalar usuli) imkonini beradi o'quv mashg'ulotlarini talabalar maksimal 110 ta oladigan tarzda tashkil qilish integrativ matematik amallarni samarali o'zlashtirgan va o'zlashtirilgan bilimlar katta ahamiyat kasb etadi [17].

Xulosa. Biologik jarayonlarni fizik qonuniyatlar asosida o'qitish metodikasi talabalarga biologiyaning asosiy tamoyillarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar biologik jarayonlarning murakkabligini va ularning fizik asoslarini o'zaro bog'lash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa kelajakda ilmiy tadqiqotlar olib borishda, ekologik muammolarni hal etishda va innovatsion yechimlar ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Biologiya va fizika o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, o'qituvchilarga zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash orqali talabalarining qiziqishini oshirish va ularning bilimlarini chuqurlashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, biologik jarayonlarni fizik qonuniyatlar asosida o'qitish metodikasi nafaqat ta'lim jarayonini boyitadi, balki kelajak avlodni ilm-fan sohasida yanada muvaffaqiyatli bo'lishiga tayyorlaydi.

Adabiyotlar

Колягин, Ю.М. Учись решать задачи / Ю.М.Колягин, В.А.Оганесян. – М.: Просвещение, 1980. – С. 5–7.

Колягин Ю. М. Учебные математические задания творческого характера // Роль и место задач в обучении математике / Под ред. Ю. М. Колягина. – М.: Просвещение, 1973. –С.112.

Хаминов, Бурхон Тургунович, and Маликахон Жалолова. «Modulli ta'lim tizimining yaratilish tarixi va ta'lim samaradorligidagi o'rni.» Science Promotion 1.1 (2023): 261-263.

Baratov J. Uzluksiz ta'lim tizimida fizika o'qitishda nostandart topshiriqlardan foydalanish. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 <https://zienjournals.com> Date of Publication: 25-11-2023. –P 53-60.

Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishda nostandart topshiriqlarning roli va ahamiyati./ Ijtimoiy- gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – T.: № S/5 (3)-2023. 272-277-b.

Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li, The use of non-standard tasks in teaching physics in the system of continuing education. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development Volume-23, December, 2023 ISSN (E): 2754-9291.

Гнеденко Б. В. Формирование мировоззрения учащихся в процессе обучения математике / Б. В. Гнеденко. — М.: Просвещение, 1982. — 144 с. — (Б-ка учителя математики).

Коджаспирова Г. М. Коджаспиров А. Ю. Педагогический словарь: для студентов высших и средних педагогических учебных заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 176 с.

Bazarbayev M.I., Mullajonov I. va boshq. Biofizika, Darslik. Toshkent. 2018.

Беспалько, В.П. Образование и обучение с использованием компьютеров(педагоги третьего тысячелетия) / В.П. Беспалько. – М.: изд-во Московского психолого-социального института, 2002. – 352с.

Задорожная О. В. Проектирование комплекса учебных проектов в 228 процессе обучения математическому анализу в университете : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / Ольга Владимировна Задорожная ; [Место защиты: Нижегород. гос. ун-т им. Н.И. Лобачевского]. – Б.м., 2011. – 237 с.

Средства обучения математике : сб. статей / сост. А. М. Пышкало. – Москва : Просвещение, 1980. – 208 с.



Полонский, М.В. Оценка качества Научно-педагогических исследований / М.В. Полонский. – М.: Педагогика, 1987. – 144с.

Гордиенко, Т.П. Учебные материалы по курсу общей физики для студентов всех специальностей / Т.П. Гордиенко, Е.В. Глобина. – Севастополь: Рибест, 2008. – 64с.

Старченко, Сергей Александрович.

Теоретические основы интеграции содержания естественнонаучного образования в лицее : автореферат дис. ... доктора педагогических наук : 13.00.02 / Челябинский гос. пед. ун-т. - Челябинск, 2000. - 40 с.

Красько А. С. Преподавание инженерной дисциплины по дистантной технологии : научное издание / А. С. Красько // Дистанционные образовательные технологии. – Томск : ТУСУР, 2004. – С. 136-141.

Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения / И. Я. Лернер. – Москва : Педагогика, 1981. – 185с.

PEDAGOGIK TA'LIMDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK AMALIYOT – TALABALARDA AKSIOLOGIK MUNOSABAT RIVOJLANISHINING USTUVOR OMILI SIFATIDA

Xushnazarova Ma'mura Nodirovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

ORCID: 0000-0001-8643-7729

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika ta'limda ijtimoiy pedagogik amaliyotning talabalarda aksiologik munosabatlarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot ta'lim jarayonida shaxsning kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qilib, uning qadriyatlar tizimi va faoliyat motivlarini mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy pedagogik amaliyot, kasbiy bilim, shaxsiy sifatlar, innovatsion shakl, metod, aksiologik munosabat, qadriyatlar tizimi, faoliyat motivlari, aksiologik mezon, kasbiy kompetentlik.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРАКТИКА В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ - КАК ПРИОРИТЕТНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЦЕННОСТНОЙ УСТАНОВКИ У СТУДЕНТОВ

Хушназарова Маъмура Нодировна

Кокандский государственный педагогический институт, доктор философии в педагогических науках (PhD), доцент

Аннотация: В данной статье подчеркивается значение социально-педагогической практики в формировании ценностных отношений у студентов педагогического образования. Социально-педагогическая практика служит развитию профессиональных и личностных качеств человека в образовательном процессе, укрепляет его систему ценностей и мотивы деятельности.

Ключевые слова: социально-педагогическая практика, профессиональные знания, личностные качества, инновационная форма, метод, ценностная установка, система ценностей, мотивы деятельности, аксиологический критерий, профессиональная компетентность.

SOCIAL PEDAGOGICAL PRACTICE IN PEDAGOGICAL EDUCATION - AS A PRIORITY FACTOR FOR THE DEVELOPMENT OF AXIOLOGICAL ATTITUDE IN STUDENTS

Khushnazarova Mamura Nodirovna

Kokand state pedagogical institute, PhD in pedagogical sciences, associate professor

Annotation: This article highlights the importance of social pedagogical practice in the formation of axiological relations in students in pedagogical education. Social-pedagogical practice serves to develop professional and personal qualities of a person in the educational process, strengthens his value system and motives of activity.

Key words: social pedagogical practice, professional knowledge, personal qualities, innovative form, method, axiological attitude, value system, motives of activity, axiological criterion, professional competence.

KIRISH. Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ijtimoiy-pedagogik amaliyot orqali talabalarda nafaqat nazariy bilim va ko'nikmalar, balki ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik ta'lim jarayonida aksiologik

munosabat, ya'ni shaxsning qadriyatlar tizimiga asoslangan faoliyat motivlari shakllanishi muhimdir. Aksiologik munosabatlarni rivojlantirish orqali talaba o'z kasbiga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashadi, bu esa kelajakda uning kasbiy kompetentligini mustahkamlaydi. Bugungi kunda ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida isloh qilish jarayoni O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida ham ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Ushbu konsepsiyada yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni yangi sifat darajasiga olib chiqish, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion shakl va usullarni joriy etishga alohida urg'u berilgan.

Pedagogik ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish shaxsning kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, ijtimoiy-pedagogik amaliyot talabalarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlash va to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rgatishda samarali vosita sifatida ko'zga tashlanadi. Bunda talabaning aksiologik munosabati, ya'ni shaxsiy qadriyatlar tizimi asosida motivatsion faoliyat olib borishi va jamiyatda o'z kasbiy vazifalarini mas'uliyat bilan bajarishi ta'minlanadi.

Ijtimoiy-pedagogik amaliyot orqali talabalarining nafaqat kasbiy bilimlari, balki ularning shaxsiy dunyoqarashi ham shakllanadi. Bu jarayonda insonparvarlik va ijtimoiy hamjihatlikka asoslangan ta'lim usullari qo'llanilib, yosh mutaxassislarning nafaqat bilimli, balki axloqan yetuk shaxs sifatida kamol topishi ta'minlanadi. Shu bois, maqolada ijtimoiy-pedagogik amaliyotning talabalarda aksiologik munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati, uning kasbiy kompetentlikni oshirishdagi roli va innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi chuqur tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili pedagogik ta'limda ijtimoiy pedagogik amaliyotning talabalarda aksiologik munosabat rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Aksiologiya, qadriyatlar nazariyasi sifatida, ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy pedagogik amaliyot talabalarining qadriyatlar tizimini shakllantirishda va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Turg'unov Mirjalol Mirzahamdamning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ta'limiy qadriyatlar shaxsga ilmiy-nazariy bilimlarni berish, unda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash va uning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega[2; 236-238-b]. Bu jarayonda talabalarining o'z qadriyatlarini anglashlari va ularni amaliy faoliyatda qo'llashlari muhimdir.

Shuningdek, Mardonov Sh. va Mardonov F. tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham aksiologiya ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Ularning fikricha, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda qadriyat yo'nalishi va gumanistik paradigma muhim rol o'ynaydi[3; 1329-1333-b]. Bu yondashuv talabalarga shaxsga gumanistik yondashuvning mohiyatini tushunish, uning shaxsiy rivojlanishdagi rolini anglash imkonini beradi.

Hamdamova M. esa o'quvchilarda aksiologik ongini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslarini o'rganib, xalq og'zaki ijodi vositasida bu jarayonni amalga oshirishning samarali usullarini taklif etadi. Bu usullar talabalarining ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limni insonparvarlashtirish tadbirlari talabalarining o'z ixtisosliklari bo'yisha bilimlari orqali ham, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda gumanitar fanlar orqali, umuman, madaniy, ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shakllangan ko'nikma va malakalarida samimiylilik, haqqo'ylik, odamgarshilik, imon-e'tiqod kabi sof insoniy sifat va fazilatlarining ustun bo'lishini ta'minlashga, bo'lajak mutaxassisning o'z kasb-hunari bo'yisha faoliyatida o'zining mas'ul ekanligini chuqur his etishini tarbiyalashga qaratilgandir[4; 43-44-b].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy pedagogik amaliyot

talabalarda aksiologik munosabat rivojlanishining ustuvor omili sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga, ularning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagogik ta'limda ijtimoiy pedagogik amaliyotning ahamiyatini oshirish va uni yanada rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, ijtimoiy pedagogik amaliyot talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon orqali talabalar o'zlarining shaxsiy qadriyatlarini anglab yetadilar va ularni amaliy faoliyatda qo'llashni o'rganadilar. Bu esa ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, pedagogik ta'limda ijtimoiy pedagogik amaliyotning ahamiyatini oshirish va uni yanada rivojlantirish zarur.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aksiologik munosabatning ijtimoiy-pedagogik amaliyot orqali rivojlanish dinamikasi. Aksiologik munosabat – shaxsning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga bo'lgan ijobiy munosabati, ularning hayotiy faoliyatida muhim tamoyil sifatida shakllanishi hisoblanadi. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot esa talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun real hayotiy vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarini qo'llash imkonini beruvchi jarayon sifatida ta'riflanadi. Ushbu amaliyot talabalarda nazariy bilimlarni real tajribalar bilan bog'lash orqali aksiologik munosabatni rivojlantirishda asosiy vositalardan biridir.

Ijtimoiy-pedagogik amaliyotning dinamikasi quyidagi omillarga asoslanadi. Birinchidan, amaliyot jarayonida talabalar turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqotda bo'lib, ularning qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi holatlar bilan yuzlashadilar. Masalan, maktab yoki boshqa ijtimoiy muhitlarda bolalar bilan ishlash talabalarga rahmdillik, sabr-toqat va mehribonlik kabi ijobiy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ikkinchidan, ijtimoiy amaliyotning davomiyligi va muntazamligi aksiologik munosabatlarni mustahkamlaydi, chunki bu jarayonda talabalar o'z munosabatlarini tahlil qilish va qayta shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu dinamik jarayon aks ettiruvchi doimiy refleksiya va o'z-o'zini baholash orqali amalga oshadi[5; 76-78-b].

Talabalarning shaxsiy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot talabalarning shaxsiy qadriyatlar tizimida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Dastlabki bosqichlarda talabalar ko'pincha o'z bilim va ko'nikmalarini nazariy jihatdan qabul qilsalar, amaliyot davomida ular qadriyatlarning hayotiy ahamiyatini chuqur anglay boshlaydilar. Masalan, ijtimoiy loyihalarda qatnashish talabalarni insonparvarlik va mas'uliyatlilik kabi ijtimoiy qadriyatlarni qadriga yetishga undaydi. Amaliyot jarayonida talabalarda hamjihatlik, hamkorlik, hamdardlik kabi fazilatlar shakllanadi, bu esa ularning shaxsiy qadriyatlar tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Amaliyotga asoslangan ta'limning ijobiy natijalari va talabalarning ijtimoiy moslashuv darajasiga ta'siri. Amaliyotga asoslangan ta'limning ijobiy natijalari ko'p qirrali bo'lib, ular nafaqat talabaning nazariy bilimini oshirish, balki shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish bilan ham bog'liqdir. Bunday ta'lim shakli talabalarni mustaqil faoliyat yuritishga, amaliy bilimlarni real hayotda qo'llashga o'rgatadi. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot talabalarning ijtimoiy moslashuv darajasini oshiradi, ya'ni ular turli xil ijtimoiy muhitlarda o'zlarini erkin his qilib, samarali faoliyat yuritish imkoniga ega bo'ladilar.

Talabalar amaliyot davomida real vaziyatlarda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularga kelgusida mehnat bozoriga kirishda, jamoalarda ishlashda va ijtimoiy muhitga moslashishda katta yordam beradi. Amaliyotda faol ishtirok etgan talabalar o'z tengdoshlari bilan taqqoslaganda o'ziga bo'lgan ishonch darajasining yuqori ekanligi kuzatiladi. Shuningdek, bunday talabalar turli xil ijtimoiy rollarni bajarishga tayyor bo'lib, boshqalar bilan hamkorlik qilish va muloqotda bo'lishda yuqori natijalarga erishadilar.

Pedagogik ta'limda ijtimoiy pedagogik amaliyot talabalarda aksiologik munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon talabalarning ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Aksiologik munosabatlar - bu qiymatlar va ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini anglashga asoslangan munosabatlar bo'lib, ular ta'lim jarayonida

quyidagi omillar orqali rivojlanadi:

1. Amaliy tajriba: Talabalar real hayotiy vaziyatlarda ishtirok etish orqali ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtiradilar. Ijtimoiy pedagogik amaliyotlar, masalan, volontyorlik, jamoat ishlarida ishtirok etish, talabalarga o'zaro yordam va hamdardlikni rivojlantirishda yordam beradi[6; 498-491-b].

2. Refleksiya (O'z-o'zini anglash): Talabalar o'z tajribalarini tahlil qilib, o'z qadriyatlari va boshqalar bilan munosabatlarini anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni oshirishga olib keladi[7; 55-59-b].

3. Hamkorlik va jamoaviy ishlash: Ijtimoiy pedagogik amaliyotlar talabalarni bir-biri bilan hamkorlik qilishga, fikr almashishga va muammolarni birgalikda hal qilishga undaydi. Bu esa ularning ijtimoiy qadriyatlarini mustahkamlashga yordam beradi[8; 13-16-b].

4. Qadriyatlarga asoslangan ta'lim: Ta'lim jarayonida qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyat haqida ma'lumot berish, talabalar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga yordam beradi.

5. Tadqiqot va innovatsiyalar: Talabalar o'z sohalarida tadqiqotlar olib borib, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishlari mumkin. Bu ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi[9; 42-49-b].



1-shakl. Pedagogik ta'limda ijtimoiy pedagogik amaliyot talabalarda aksiologik munosabatlarni rivojlantirishdagi omillar.

Ijtimoiy pedagogik amaliyotlar orqali talabalar nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ijtimoiy qadriyatlarni ham o'zlashtiradilar, bu esa ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, ijtimoiy-pedagogik amaliyot orqali talabalarda rivojlangan aksiologik munosabat ularning kelajakdagi ijtimoiy va professional muvaffaqiyatlarining asosi bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, pedagogik ta'limda ijtimoiy pedagogik amaliyotlar talabalarda aksiologik munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy amaliyotlar orqali talabalar real hayotiy tajribalarni o'zlashtirib, ijtimoiy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon, ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi[10; 424-428-b].

Ijtimoiy pedagogik amaliyotlar, talabalarni o'zaro hamkorlik qilishga, jamoaviy ish olib borishga va ijtimoiy masalalarni hal qilishga undaydi. Refleksiya va tadqiqotlar yordamida talabalar o'z aksiologik munosabatlarini chuqurroq anglab, ijtimoiy mas'uliyatni his qilishadi. Natijada, bu jarayonlar talabalarni nafaqat bilim va ko'nikmalar bilan, balki ijtimoiy qadriyatlar bilan ham ta'minlaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy pedagogik amaliyotlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, talabalarining ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga, hamdardlik va o'zaro yordam kabi qadriyatlarni o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni (<https://lex.uz/ru/docs/-4545884>)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni (<https://lex.uz/ru/docs/-4545884>)

2. Turg'Unov Mirjalol Mirzahamdami O'G'Li (2024). Talabalarni aksiologik yondashuv va elektron ta'lim asosida kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. *Science and innovation*, 3 (Special Issue 22), 236-238. doi: 10.5281/zenodo.10982248

3. Sh. Mardonov, & F. Mardonov (2022). Pedagogik otmalarda talabalarni tayyorlashda aksiologik mo'ljali. *Science and innovation*, 1 (B7), 1329-1333. doi: 10.5281/zenodo.7311543

4. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish texnologiyasi). – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 43 b. (224)

5. Jo'Rayeva Nigora Maxmudjonovna, and M.A.Esonova. «Xalq pedagogikasi tarixiy va ijtimoiy tajriba mahsuli» *Science and innovation*, vol. 3, no. Special Issue 31, 2024, pp. 76-78. doi:10.5281/zenodo.11198296

6. Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi. (2023). O'quvchilarda tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10115448>

7. Feruzbe, A. (2023). Talim-tarbiya jarayonlarining ijtimoiy pedagogik va psixologik asoslar. *Research and Publication*, 1(11), 55-59.

8. Turg'unboyev, K., Tolipov, M., & Oxunov, I. (2008). *Ijtimoiy pedagogika asoslari. o'quv qo'llanma*, Toshkent, "Fan va texnologiya".

9. Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. *Pedagogik aksiologiya. (o'quv qo'llanma)* -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 184 bet.

10. Qurbonova Baxtixon Qo'Chqarbayevna. «Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini kengaytirish» *Science and innovation*, vol. 3, no. Special Issue 26, 2024, pp. 424-428. doi:10.5281/zenodo.11058543

11. M.N.Xushnazarova. The need to use the experience of foreign countries regarding the improvement of the pedagogical conceptual mechanism of volunteer activities. *Journal of Advanced Zoology*. Volume 44. issue-2 Year 2023 Page 3765-3771.

12. M.M.Umarova Unveiling the physiological basis and specificity of memory in preschool children. *International Journal of Pedagogika* Vol 4 No 03 2024 91-96

TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA FIZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Yusupova Dildora Uktamovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti fiziologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot oliygohlarida fiziologiya fanining o'qitilishida interfaol o'qitish usullaridan samarali foydalanish lozim ekanligi ko'rsatilib o'tilgan. Zamonaviy interfaol o'qitish usullari talabalarining o'zlashtirish va bilish ko'rsatkichlarini ko'tarilishiga olib keladi. Shuningdek talabalarining o'z ustilarida ishlashlariga, o'qituvchi- talaba munosabatining yengillashishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida talabalar tomonidan fanning o'zlashtirilish ko'rsatkichini ko'taradi.

Kalit so'zlar: Interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, mental xarita, inovatsion faoliyat, ma'ruza, kichik guruhlar, liberal yondashuv, animatsiya, sintez.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИОЛОГИИ В МЕДИЦИНСКИХ УНИВЕРСИТЕТАХ

Юсупова Дилдора Уктамовна

Преподаватель физиологии Самаркандского государственного медицинского университета

Абстрактный. В статье показана необходимость эффективного использования интерактивных методов обучения при преподавании физиологии в медицинских вузах. Современные интерактивные методы обучения способствуют повышению уровня знаний и усвоения знаний студентами. Это также способствует тому, что учащиеся работают над собой и облегчают отношения между учителем и учеником, что, в свою очередь, повышает уровень освоения предмета учащимися.

Ключевые слова: Интерактивные методы, информационные технологии, ментальная карта, инновационная деятельность, лекция, малые группы, либеральный подход, анимация, синтез.

ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING PHYSIOLOGY IN MEDICAL UNIVERSITIES

Yusupova Dildora Uktamovna

Teacher of Physiology at Samarkand State Medical University.

Abstract. This article shows the need for effective use of interactive teaching methods in teaching physiology in medical universities. Modern interactive teaching methods lead to an increase in students' mastery and knowledge. They also lead to students working on themselves, facilitating the teacher-student relationship, which in turn increases the students' mastery of the subject.

Keywords: Interactive methods, information technology, mental map, innovative activity, lecture, small groups, liberal approach, animation, synthesis.

Kirish (Introduction). Oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish belgilab qo'yilgan. O'zbekistonning Bolonya jarayoni ta'lim tizimiga qo'shilishi unga dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan oliy ta'lim sohasidagi aloqalarni yanada kengaytirishni ta'minlaydi va mamlakat ta'lim tizimining xalqaro miqyosidagi reytingini oshishiga olib keladi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fiziologiya fanini o'qitish jarayoniga innovatsion

texnologiyalarni tatbiq etish yo'llarini ishlab chiqish bu davt talabidir.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fiziologiya fanini o'qitish jarayoni, izlanishlar davomida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarga fiziologiya fanini o'qitish davomida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga doir ishlanmalar, metodik tavsiyalar tayyorlandi. Ushbu metodik tavsiyalar tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fiziologiyani o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ma'lumki, ta'lim jarayoni talabalarning bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo'g'rilgan o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi sanaladi. Boshqacha aytganda, ta'lim mazmunining o'qitish metodlari yordamida o'zlashtirilishiga erishishdir.

Interfaol inglizcha interakt so'zidan olingan bo'lib, inter-hamkorlikda harakat qilmoq ma'nosini bildiradi. Interfaollik deganda o'qituvchining va talabaning hamkorlikda yoki kompyuter bilan muloqoti, o'zaro ta'sir ko'rsatish rejimida ishlashi tushuniladi.

Interfaol o'qitish – bu avvalo dialog tarzda o'qitish, muloqot jarayonida barcha ishtirokchilar tomonidan hamkorlikda muammolarni hal etilishidir. Interfaol o'qitishning asosiy mohiyati – o'qitish jarayonida barcha talabalar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqea va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo'llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi.

O'quv materialini o'rganish, muammoni hal etish bo'yicha turli variantdagi yechimni tavsiya etishga asoslangan bilish jarayonida o'quvchilarning hamkorligi har bir talabaga, guruh muvaffaqiyati uchun o'z ulushini qo'shishga, ular o'rtasida fikr, axborot va tajriba almashinuviga zamin tayyorlaydi. Ushbu hamkorlik samimiy, qulay ijtimoiy psixologik, o'zaro yordam muhitida sodir bo'lganligi uchun, talabalar nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, balki o'zining bilish faoliyatlarini rivojlantiradi, uni yuqori darajaga ko'tarib, hamkorlikka kirishishga imkon beradi. O'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash jarayonida talabalarning o'zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqoza etadi, bunda talabalar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir talaba uchun ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etishga kirishib ular o'rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishlash va hamjihatlik vujudga keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta talabaning ustunlik qilishi, uning o'z fikrini o'tkazishiga yo'l qo'yilmaydi. Interfaol usullar qo'llanilganida talabalar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o'rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini egallaydi.

O'qitish metodlari talabalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Bu ularning asosiy funksiyalari sanaladi, shuningdek, mazkur metodlarning undovchi, rag'batlantiruvchi, uyushtiruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalari ham mavjud. O'qitish metodlari yagona ta'lim jarayonining ikkita subyekti bo'lgan o'qituvchining pedagogik va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini uyg'unlashtiruvchi, hamkorligini ta'minlovchi faoliyat usulidir. O'qitish metodlari o'qitishning moddiy vositalari bo'lgan darslik, ko'rgazmali, didaktik va tarqatma materiallar bilan uzviy bog'langandir. O'qitish metodlari aniq o'qitish usullaridan tarkib topadi va pedagogik jarayonga qo'llaniladi. O'qitish metodlari o'zaro bog'langan faoliyat usullari sifatida darsning barcha bosqichlari, tashkiliy qism, talabalarning bilish motivlarini faollashtirish, yangi mavzuni o'rganish, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, olingan natijalarni tahlil qilish, uy vazifasini berishda foydalaniladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Fiziologiyani o'qitishda aksariyat hollarda ko'rgazmali metod yetakchi o'rinni egallaydi, boshqa metodlar unga bo'ysunadi yoki singib ketadi. Inson

faoliyati metodlarining o'zgarishi, o'qitish metodlarining boyishiga va yangilanishiga olib keladi. Didaktikada o'qitish metodlarini tasniflash munozarali masala bo'lib, tasniflash turli asoslar bo'yicha amalga oshirilgan.

Tibbiyot oliygohlarida fiziologiya fanini o'qitishni quyidagi guruhlariga bo'lishni tavsiya qilamiz:

O'qitishning og'zaki metodlari (hikoya, suhbat, o'quv ma'ruzasi).

- o'qitishning ko'rgazmali metodlari;
- o'qitishning amaliy metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanish metodlari;
- o'qitishning mantiqiy metodlari;
- mustaqil ishlash metodlari;
- o'qitishda talabalar faoliyatini rag'batlantirish va asoslash metodlari;

o'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari. O'qitishning og'zaki bayon metodlari guruhi. O'qitishning og'zaki bayon metodlari qo'llanilganda o'qituvchining so'zi talabalarining bilim olishlari uchun asosiy manba hisoblanadi, ya'ni o'qituvchi talabalarga so'zlar vositasida bilim beradi, talabalar faoliyatini eshitish, fikr yuritish, berilgan savollarga javob topishga yo'naltiradi. Shuning uchun o'qituvchining so'zi oddiy axborot bo'lmasdan, balki ishonchli, asoslovchi, talabalarining faoliyatini faollashtiruvchi ta'sir kuchiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchining yorqin, hissiyotli, dalillarga asoslangan, mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan, ko'rgazmali hikoya, suhbat, ma'ruzalari hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Og'zaki metodlar qisqa muddatda katta hajmdagi o'quv materialini talabalar ongiga yetkazish, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ularni hal etish yo'llarini ko'rsatish, talabalarining nutqini rivojlantirish imkonini yaratadi. Og'zaki metodlarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi, o'qituvchining nutq madaniyatini egallaganlik, jumladan, nutqning ravonligi, ovoz kuchi, intonatsiya, axborotlarning obrazlilik, ishonchlilik, asoslovchi, isbotlovchi, emotsiyali, shaxsiy munosabat bilan yo'g'rilganlik darajasiga, axborot texnologiyalari asosida yaratilgan elektron darsliklarda ovoz, animatsiya, harakatlarning uyg'unlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Og'zaki bayon metodlari guruhi o'z ichiga suhbat, hikoya, ma'ruza metodlarini oladi. Hikoya metodi talabalarga o'quv materialini yaxlit holda savollar berib, uzmasdan bayon etishni nazarda tutadi. Yangi mavzu mazmunida yangi tushunchalar, ilmiy axborot ko'p bo'lgan taqdirda, shuningdek, o'qituvchi o'quv materialini yuzasidan faol suhbat o'tkazish imkonini bo'lmagan, izohlash va tushuntirishi lozim bo'lgan, o'quv materialining hajmi katta bo'lib, uni dasturda belgilangan vaqtda o'rganish zarur bo'lgan hollarda hikoya metodidan foydalanadi. Hikoya metodidan darsning qaysi bosqichida foydalanishiga ko'ra hikoya metodining didaktik maqsadi turlicha bo'ladi. Hikoya metodini qo'llashning samaradorligi o'qituvchining dars rejasini puxta tuzishi, mavzu mazmunini yoritishning eng izchil yo'lini tanlashi, ko'rgazmali vositalar, tarqatma va didaktik materiallarni to'plashi, bayonning tegishli darajadagi ko'tarinki ruhini ta'minlashni taqozo etadi. Hikoya metodining tarkibiga quyidagi metodik uslublar kiradi. O'quv materialini jonli, obyektlarga xos xususiyatlarni bayon qilish, axborotning ilmiyligi, izchilligi, tushunarlilik, nutqning ravonligi va ifodaliligi uslubi. Suhbat metodi o'qituvchining talabalar tomonidan yangi mavzu mazmunidagi qonuniyat, tushuncha va atamalarining izchillikda faol o'zlashtirishini ta'minlovchi puxta o'ylangan savollar vositasida ishlashini nazarda tutadi. Suhbat metodi yordamida talabalarining avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari faollashtiriladi, tizimga solinadi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi va yangi o'rganilayotgan tushuncha bilan o'zaro aloqadorligi yoritiladi. Shuni qayd etish kerakki, talabalarining avval o'zlashtirgan bilimlari asosida yangi mavzuni savollar yordamida o'zlashtirish imkonini beradigan mavzular suhbat metodi vositasida o'rganish tavsiya etiladi. Suhbat metodi talabalarining nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatish, talabalarining avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari, hayotiy tajribalaridan foydalanib, qator savollar yordamida yangi bilimlarni o'zlashtirish, mazkur bilimlardan amaliyotga qo'llashni anglab olishiga zamin tayyorlashni ko'zda tutadi. Suhbat

metodi talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchungina emas, balki ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, nutqini rivojlantirish, taqqoslash, tahlil qilish, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirishga yordam beradi. Suhbat metodining samaradorligi o'qituvchining mavzu mazmunni mantiqiy tugallangan qismlarga ajratish, har bir qism bo'yicha savollar zanjirini tuzish, dars davomida mazkur savollardan o'z o'rnida foydalanish, sinf talabalarining bilish faoliyatini faollashtirish va savollarga javob topishga yo'llashi, har bir talabaning rag'batlantirishi, talabalarning esa o'z fikrini lo'nda va qisqa bayon etish, dalillash ko'nikmalarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'quv ma'ruzasini metodidan o'quv materialining hajmi katta, mantiqiy tuzilishi murakkab, tushuncha va atamalarga boy bo'lgan hollarda foydalaniladi.

O'quv ma'ruzasini metodidan foydalanilganda quyidagi talablarga e'tibor qaratish lozim:

1. Ma'ruza mazmuni chuqur ilmiy, g'oyaviy va mantiqiy ketma-ketlikda ko'rgazma vositalarga asoslangan holda bayon etilishi.

2. Talabalar uchun tushunarli, hissiyotga boy va sodda tilda yoritilishi.

3. Talabalarning yoshlik va ruhiy holatlarini hisobga olgan holda 15-20 minutdan so'ng qisqa mustaqil ish yoki savol-javob o'tkazish, talabalarning bilish faoliyati faollashgandan so'ng davom ettirilishi lozim.

Ta'lim jarayonida o'quv ma'ruzasini qo'llash o'qituvchidan jiddiy tayyorgarlik ko'rishni talab etadi va u:

- dars mavzusi, maqsadi va dolzarb muammolarni aniqlashi;
- tanlangan mavzu bo'yicha darslik, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan tanishishi;
- talabalarning yosh va psixologik xususiyatlari hamda qiziqishlarini hisobga olgan holda ma'ruza rejasi, mazmunini tuzishyuqori samara beradigan o'qitish vositalari va metodlarini tanlashi kerak.

Ma'ruzaning muvaffaqiyatli o'tishi, avvalo talabalarning o'quv-bilish faoliyati qanday tashkil etilganligiga bog'liq. Unda talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradigan ko'rgazma vositalari – O'TV, multimedialar, tabiiy, tasviriy jihozlar va boshqa o'qitish vositalaridan foydalanish hamda ma'ruza davomida talabalar uning rejasi, mazmunini qisqa yozib olishi, savollarga javob topishga erishishi o'qituvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozimi; O'qituvchining ma'ruzasini mazmuni va talabalar faoliyatining tashkil etilishiga ko'ra induktiv yoki deduktiv ravishda tuzilgan bo'lishi mumkin. Ma'ruza induktiv tuzilganda, avval talabalar hodisa va obyektlar bilan tanishtirilib, keyin umumiy xulosa keltirib chiqariladi. Deduktiv ma'ruzada esa buning aksi bo'ladi, ya'ni, avval umumiy tushunchalar beriladi, keyin obyektlar va hodisalar yordamida uning mazmuni ochib beriladi. Mazkur metod tarkibiga o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, muammolarni qo'yish, obyektlarni aniqlash, taqqoslash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, talabalarning diqqatini jalb qilish uslublari kiradi.

Ko'rgazmali metodlar guruhi. O'qitish jarayonida ko'rgazmali metodlarning qo'llanilishi, o'quv materialini mazmunidan kelib chiqqan holda obyektlar va hodisalarni hissiy idrok etish, ularni taqqoslash, o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash, umumlashtirish, sintezlash, xulosa yasashga imkon beradi. Ko'rgazmali metodlar o'qitish jarayonida og'zaki, amaliy, mantiqiy, muammoli metodlar bilan uyg'un holda qo'llaniladi.

Masalan, talabalarga ko'rgazma asosida o'quv materialini o'rganish bo'yicha topshiriqlar o'qituvchi tomonidan og'zaki beriladi. Topshiriqlarni bajarish jarayonida ko'rgazmalilik amaliy metodlar bilan birikib ketadi, darsda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarni hal etishda muammoli metodlar bilan mujassamlashtirib ketadi. O'qitish jarayonida ko'rgazmali metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanishning quyidagi afzalliklari mavjud:

- talabalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, aqliy faoliyat usullarni egallash;

- o'rganilayotgan nazariy masalalarni aniqlashtirish, darsda bevosita kuzatish imkoni bo'lmagan hodisa va jarayonlarni modellashtirish;

•biologik obyektlarni kuzatish, ular ustida tajribalar o'tkazish, olingan nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash, o'rganilgan hodisalarni sxema, jadvallar asosida aniqlashtirish va tasniflash imkonini beradi.

Fiziologiyani o'qitishda foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar sirasiga quyidagilar kiradi:

- tabiiy va tirik obyektlar – tirik tabiat burchagida boqiladigan hayvonlar va h.k;
- real obyektlarni aks ettiruvchi maxsus tayyorlanadigan tasviriy vositalar – jadvallar, sxemalar, rasmlar, modellar, mulyajlar va boshqalar;
- ko'rgazmalilikning shartli-ramziy vositalari – biogeografik oblastlarning kartalari, globuslar;
- o'qitishning texnik vositalari – o'quv kinofilmi, diafilm, diapozitivlar, videolavhalar va h.k.o'qitishning multimediali vositalari – raqamli ta'lim texnologiyalar asosidagi ta'lim dasturlari, elektronversiya va darsliklar, ovoz, animatsiya, dinamik harakat va uch ko'lamli tasvirni o'zida mujassamlashtirgan multimedialar va h.k. Amaliy metodlar guruhi. Talabalarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, o'quv va mehnat, ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, hayotga tayyorlash, kasbga yo'llash imkonini beradi. Ushbu metod o'qitish jarayonida ko'rgazmali, muammoli, og'zaki metodlar bilan uyg'unlashgan holda qo'llaniladi. Talabalar tomonidan bajariladigan amaliy ishlar bilim manbai bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun o'kituvchi amaliy ishlarning maqsadini aniqlashi, maqsadga erishish uchun zarur bo'ladigan ko'rgazmali vositalarni tanlashi, o'quv topshiriqlarini aniq tuzishi lozim. Amaliy ishlarni bajarish uchun beriladigan o'quv topshiriqlari mazmunan aniq, ixcham, tushunarli va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bu metodlar guruhiga tabiiy obyektlarni tanib olish va aniqlash, kuzatish, biologik tajribani tashkil etish va o'tkazish kabi metodlar kirib, ular mos holda, obyektlarni tanib olish va aniqlash, kuzatish va tajribalar o'tkazish, talabalarga amaliy ishning borishini bayon qilish, amaliy ishlarni bajarish rejasini tuzish, amaliy ish topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish, topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, amaliy ish, kuzatish va tajribalarni yakunlash va rasmiylashtirish uslublaridan iborat bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tabiiy obyektlarni tanib olish va aniqlash metodi biologiyani o'qitishda yetakchi mavqeiga ega, chunki Fiziologiya darslarida inson organizmi o'rganiladi. Buning uchun o'kituvchi yetarli darajadagi tarqatma va didaktik materiallar, gerbariyar, majmualari tayyorlangan bo'lishi va ulardan o'z o'rnida samarali foydalanishi lozim. Mazkur metoddan faqat darslardagina emas, balki darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va ekskursiyalarda ham keng qo'llaniladi.

Kuzatish metodi – bu tirik organizmlarda boradigan jarayonlar va tabiat jismlarida sodir bo'ladigan hodisalarni talabalarining maqsadga muvofiq holda idrok etishi hisoblanadi. Bu metodda talabalarining kuzatishi bo'yicha to'plangan ma'lumotlari bilim manbai sanaladi

Fiziologiyani o'qitish amaliyotida turli xil o'qitish metodlari qaror topgan. Biroq ushbu ancha muhim belgilarga qarab ularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- a) talabalar bilim oladigan manbalar;
- b) talabalar faoliyatining xarakteri;
- v) o'qitish jarayonida talabalar faoliyatining xarakteri.

Bu uch belgi o'rgatish va o'rganishni bir butun jarayon sifatida tushunishdan kelib chiqadi. Bunda o'qituvchining (o'rgatuvchining) va talabaning (o'rganuvchining) faoliyatlari o'zaro bog'langan va taqazo qilingan, bilim manbalari esa o'qituvchining faoliyati bilan o'zaro chambarchas bog'lanishda bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Астапов, В. М. Нейропсихология. Строение и нарушения центральной нервной системы. Атлас: учебное пособие для вузов / В. М. Астапов, Ю. В. Микадзе. — 9-е изд., испр. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 57 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-10813-2. — Текст: электронный // ЭБС Юрайт [сайт]. — URL: : <https://urait.ru/bcode/431564>

2. Богданов А. В. Физиология центральной нервной системы и основы адаптивных форм поведения: учебник для вузов / А. В. Богданов. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 351 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-11381-5. — Текст: электронный // ЭБС Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/445189>

3. Джумаева С.А., Хайруллаева М.Х. Педагогические инновации в современной системе образования // Научные исследования. — 2019. — С.12-14.

4. Yusupova D.U. “ Ta’lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: dolzarbligi, muammolari va istiqbollari” mavzusidagi ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. Qarshi 2024 y.

5. Yusupova D.U. “ Talabarning klinik tafakkurini rivojlantirishda simulyatsion yoki imitatsion metodlardan foydalanishning afzalliklari”. Mug‘allim 2023.

6. Yusupova D.U. “ Primeneniye metoda- kazustiki v meditsinskom obrozovaniye”. Mug‘allim 2023.

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING ILMIY-FALSAFIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi
Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada hozirgi davrda dunyoda shiddat bilan kechayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot ta'limga, xususan, oliy ta'lim tizimiga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo qilayotganligi, har qanday mamlakatning kelgusi istiqboli undagi raqobatbardosh kadrlarning yuksak ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish salohiyatiga bog'liqligi, bo'lg'usi kadrlarning ilmiy-falsafiy va ijodiy faoliyatining asosida shakllanishi ularning kelgusi faoliyatining yuksak gumanistik xarakter kasb etishining eng muhim sharti va asosi bo'lib, talabalarda ilmiy-falsafiy dunyoqarashini shakllanishi va rivojlanishida falsafa fanidan oqilona foydalanishning pedagogik jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: bo'lgusi kadr, falsafa fani, ilmiy-falsafiy, dunyoqarash, madaniyat, fan, global muammolar, savodxonlik, innovatsion g'oyalar.

Аннотация. В статье рассматривается, как стремительное развитие науки и технологий в современном мире требует повышенного внимания к системе образования, особенно к высшему образованию. Подчёркивается, что будущее любой страны во многом зависит от способности формировать конкурентоспособные кадры с высоким уровнем научно-философского мировоззрения. Формирование такого мировоззрения, основанного на научно-философской и творческой активности, является важнейшим условием становления гуманистического характера будущих специалистов. Также в статье анализируются педагогические аспекты рационального использования философии как учебной дисциплины для формирования и развития мировоззрения у студентов.

Ключевые слова: будущие кадры, философия, научно-философское, мировоззрение, культура, наука, глобальные проблемы, грамотность, инновационные идеи.

Annotation. The article discusses how the current era of rapid scientific and technological advancement necessitates increased attention to education, particularly higher education. It emphasizes that the future prospects of any nation largely depend on the ability to develop a highly competitive workforce with a profound scientific and philosophical worldview. The formation of such a worldview, grounded in scientific-philosophical and creative activity, serves as a crucial foundation for the development of a deeply humanistic character in future professionals. The article further examines the pedagogical aspects of effectively utilizing philosophy as a discipline in shaping and nurturing this worldview among students.

Key words: future personnel, philosophy, scientific and philosophical, worldview, culture, science, global problems, literacy, innovative ideas.

KIRISH. Davlat ta'lim standartining bosh maqsadi oliy ta'lim muassasasi bo'lajak o'qituvchilarining bilim olish davrida yetarli falsafiy malaka va muayyan bilimlar bazasini shakllantirish orqali jahon standartlariga javob beradigan kadrlarni tarbiyalashdir. Kuchli salohiyatli kadrlarni yetishtirishning asosiy omili yuksak pedagogik faoliyat va jarayonni tashkil qilishdir. Har bir davlat o'z rivojlanish darajasi va milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimini shakllantiradi va uni yuqori saviyada tashkillash uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtiradi. Bugungi kunda jamiyatimizdagi asosiy muammolardan biri ta'lim tizimini isloh qilish, xorij tajribasini o'rganish va olib kirish, milliy tadqiqotlar orqali yangicha pedagogik jarayonni tashkil qilishdir. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning

birinchi darajali vazifamiz, deb bilamiz».

Ushbu tadqiqot ishi ham milliy ta'lim tizimini isloh qilish negizida yuksak ilmiy-falsafiy dunyoqarashini va bo'lajak pedagoglarni tarbiyalashning pedagogik jihatlarini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot ishi bo'lajak o'qituvchilar ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirishda falsafa ta'limi asosidagi ta'lim-tarbiya va pedagogik jarayonning samaradorligini aniqlashni maqsad qilgan. Zero, «Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi».

Disseratsiya ishi doirasida tajriba-sinov ishlarining umumiy maqsadi bo'lajak pedagoglarni ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirishda, falsafa ta'limi misolida tahlil qilish, ularda falsafiy dunyoqarash, tanqidiy tafakkur va mantiqiy xulosa chiqarish, analitik tahlil ko'nikmalarini shakllantirishning samarali metod va vositalarini pedagogik amaliyotda sinab ko'rishdan iborat.

Tadqiqot muammosiga oid ilmiy-nazariy va amaliy-pedagogik manbalarni o'rganish natijasida shakllantirilgan ilmiy xulosalar, amaliyotni kuzatish natijalari, tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy g'oyalarning samaradorlik darajasini eksperimental sharoitda sinab ko'rish maqsadida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Amalga oshirilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida "Falsafa" fanini o'qitishda bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirishda qo'llanadigan metodika, tashkiliy shakl, ta'lim metodlari va vositalarining sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rganish asosidagi qiyosiy samaradorlik aniqlandi.

Shuningdek, tajriba-sinov ishlari davomida, "Falsafa" fanini o'qitishda bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tekshirildi; olib borilgan ilmiy tadqiqot davomida qo'lga kiritilgan nazariy natijalarining amaliy ahamiyati o'rganildi va baholandi; tajriba-sinov uchun maxsus tashkil etilgan o'quv faoliyati kuzatildi, tahlil qilindi, kamchiliklar aniqlanib, bartaraf etildi; tadqiqotning ilmiy natijalari yuzasidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida "Falsafa" fanini o'qitishda bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu tajriba-sinov ishlari metodikasini ishlab chiqish uchun falsafiy metodlar ko'proq foydalaniladigan darslari kuzatildi; respondent talabalar bilan savol-javob, so'rovnomalar, suhbat o'tkazildi; ilg'or pedagogik tajribalar o'rganildi; tajriba - sinov materiallari amaliy darslarda sinovdan o'tkazildi.

"Falsafa" fanini o'qitishda bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan topshiriqlardan foydalanish asosida amalga oshirildi. Ushbu tadqiqot uchun xarakterli bo'lgan turli mazmundagi va turli ko'rinishdagi ilmiy-falsafiy bilimlar asosida o'quv materiallarining mazmuni boyitildi. Bunda, turli mazmundagi va ko'rinishdagi ilmiy-falsafiy bilimlarni o'zlashtirish asosida ularni integrasiya qilish, axborotlarning imitatsiyalarini yaratish va interpretasiya qilishga o'rganishlari nazorat qilib borildi.

Tadqiqotning yakunida "Falsafa" fanini o'qitishda bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlanganlik darajasi dinamikasi ko'rsatildi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlarida ilgari surilayotgan ilmiy farazlarning to'g'riligi aniqlab berildi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda izchillik, uzviylik, xususan, o'rganilishi lozim bo'lgan axborotlarning bir-biriga aloqadorligiga alohida e'tibor qaratilib, informasion texnologiyalarga asoslangan darslarda eksperiment doirasida tadqiq etilayotgan o'quv materiallari sifatida beriladigan axborotlarning bo'lajak pedagoglarning imkoniyatlariga mosligi amaliyotga tatbiq qilgan holda aniqlandi. Mazkur tadqiqotchilik faoliyati quyidagi yo'nalishlarda tashkil etildi:

Respublikamizning tajriba-sinov ishlari olib borilgan Farg'ona davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Andijon davlat pedagogika institutida bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirishga asos bo'luvchi "Falsafa" fani bo'yicha o'quv dasturlari, ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlarni targ'ib etib borish, ishlab chiqilgan o'quv va metodik ta'minotni samarali tatbiq etish

yuzasidan umumiy tayyorgarlik ishlarini olib borish;

tadqiqot ishi davomida olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan birinchi bosqich talabalari uchun «Falsafa» fani o'quv dasturi asosida qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish. Bunda, bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirishga doir topshiriqlardan foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalarni taqdim etish va amalda sinab ko'rish.

Ushbu tadqiqot ishida ilgari surilgan farazni nazariy asoslash bilan birga uni amaliy faoliyatda tajriba-sinov orqali isbotlash ham zarur. Shuning uchun oliy ta'lim jarayonida o'tkazilgan tajriba sinov va anketa so'rovnomalarining natijalarini tahlilini keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Falsafa» fanini o'qitishda bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirishga doir tadqiqot ishimiz 3 bosqichdan iborat bo'lib, 2022-2025-yillar (2022-2023, 2023-2024, 2024-2025-o'quv yillari) da tashkil qilindi va o'tkazildi.

Birinchi bosqich – izlanuvchi–ta'kidlovchi (tashxis va bashorat qilish) bosqichida pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishga tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotning o'rganish obyektiga «Falsafa» fanini o'qitishda bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirishning o'quv-uslubiy ta'minotini yaratishga doir huquqiy-meyoriy manbalar, pedagogik va metodik adabiyotlar, darsliklar va raqali texnologiyalarning ta'siri, imkoniyatlari va ahamiyati o'rganilib tahlil qilindi.

Tadqiqotning ikkinchi - shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish metodikasi - tashkil etiladigan darclar mazmuni, shakl, metodlari izlanuvchi-ta'kidlovchi bosqich natijalari asosida takomillashtirildi. Shakllantiruvchi bosqichda o'quv materiallari sifatida taqdim etiladigan axborotlar tizimlashtirildi, mashqlar tanlanib tahlil qilindi.

Uchinchi bosqichi – yakuniy bosqichda tadqiqotning tajriba-sinov natijalari umumlashtirilib, tanqidiy tahlil qilinib, tadqiqot maqadadi va ilmiy farazning hamda ishlab chiqilgan metodikalarning acoclanganligi o'quv jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy-metodik ishlanmalar acocida tekshirilib ko'rildi. Tadqiqotning bu jarayonida tajribada sinab ko'rilgan ilmiy-metodik tavsiyalarning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, ularni takomillashtirish yo'llarini belgilash borasida maqsadli ishlar olib borildi.

OTM nomi	Ko'rsatkichi	Tajriba guruhlarida				Nazorat guruhlarida			
		T.b.	%	T.o.	%	T.b.	%	T.o.	%
FarDU, TDPU va AnDPI (473 nafar talabaga nisbatan)	A'lo	31	14,6	47	24,9	27	13,1	41	15,4
	Yaxshi	74	31,5	124	47,6	67	31,1	72	32,8
	Qoniqarli	136	53,9	70	27,6	138	55,8	119	51,9

Yuqoridagi tajriba – sinov ishlarida olingan natijalarning samaradorligini aniqlash va ilgari surilgan gipotezani isbotlash hamda tajriba natijalarini qayta ishlashda matematik statistika usullaridan foydalaniladi. Bizning tadqiqot ishimizda ushbu maqsadni amalga oshirishda tajriba

va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirishlar yuqoridagi mezonlar bo'yicha Styudent, Fisher va Pirson metodlari yordamida matematik-statistik tahlil etildi.

Tajriba-sinov ishlarini matematik-statistik tahlil qilishdan maqsad o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari asosida o'qitish samaradorligini baholash hamda bilish darajasini baholash koeffitsiyentlarini topishdan iborat.

Tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish va samaradorligini bahorlash uchun 473 nafar respondent-talaba tanlab olindi. Shundan tajriba guruhii 241 nafar va nazorat guruhi esa 232 nafar talabani tashkil etdi.

действуя, его мышление наглядно - действенное. Оперирова предметами на основе знания отдельных их свойств, ребенок уже в начале второго года жизни может решать определенные практические задачи.

Следующий этап связан с овладением речи окружающих. «Развитие мышления ребенка совершается, таким образом, в двух планах - непосредственно в действенном плане и в плане речевом. Оба этих плана, конечно, взаимодействуют и взаимопроникают друг в друга. Развитие мышления в действенном плане, все более разумное оперирование вещами является и предпосылкой и результатом речевого мышления; обуславливая развитие речевого мышления, все более разумная практическая деятельность ребенка в свою очередь развивается под его воздействием» С.Л.Рубинштейн.

Слова, которыми овладевает ребенок, являются для него опорой для обобщений. Они очень быстро приобретают для него общее значение и легко переносятся с одного предмета на другой. Первые детские обобщения носят генерализованный характер: ребенок одним и тем же словом обозначает несколько разнородных предметов, в которых он уловил какое-либо внешнее сходство. Так, полуторагодовалый мальчик словом «кис-кис» называл кошку, пушистого щенка и все меховые вещи. Признаки, на основе которых дети обобщают, это чаще всего цвет, звучание, форма и т. д., это признаки наиболее выделяющиеся, привлекающие произвольное внимание.

На следующем этапе развития мышления ребенка он может назвать один и тот же предмет несколькими словами. Это явление наблюдается у детей в возрасте около двух лет и свидетельствует о формировании такой умственной операции, как сравнение. В дальнейшем на основе операции сравнения начинают развиваться индукция и дедукция, которые к трем - трем с половиной годам достигают уже достаточно высокого уровня развития.

Если в начале речь ребенка вплетена в действие, то позже она предваряет его. Ребенок сначала скажет, что он будет делать, затем сделает. Это означает, что представление о действии предшествует действию и тем самым направляет и регулирует его. Регулирующая роль образа перестраивает наглядно - действенное мышление в наглядно - образное.

Дальнейшее развитие мышления выражается в изменении соотношения между действием, образом и словом. В решении задачи все большую роль играет слово. Однако до семилетнего возраста мышление детей остается конкретным.

Таким образом, существенной особенностью мышления ребенка является то, что его первые обобщения связаны с действием. Ребенок мыслит действуя. Другая характерная особенность детского мышления - его наглядность. Наглядность детского мышления проявляется в его конкретности. Ребенок мыслит, опираясь на единичные факты, которые ему известны и доступны из личного опыта или наблюдений за другими людьми.

При достижении ребенком школьного возраста отмечается прогрессирующий рост мыслительных возможностей ребенка. Круг понятий все более расширяется и включает в себя все больше новых знаний. В этот период развития осуществляется переход от конкретных ко все более абстрактным понятиям, содержание понятий обогащается: ребенок познает многообразие свойств, признаков предметов, явлений, а также их связи между собой; он узнает, какие признаки являются существенными, а какие - нет. От более простых, поверхностных связей предметов и явлений школьник переходит ко все более сложным, глубоким, разносторонним.

В процессе формирования понятий происходит развитие мыслительных операций. Школа учит ребенка анализировать, синтезировать, обобщать, развивает индукцию и дедукцию. Под воздействием школьного обучения развиваются необходимые качества мыслительной деятельности. Знания, приобретенные в школе, способствуют развитию широты и глубины мысли учащихся. С окончанием школы у человека сохраняется возможность развития мышления. Однако динамика этого развития и ее направленность зависят только от него самого.

С.Л.Рубинштейн, изучая поэтапное развитие мышления, пришел к выводу, что «... развитие мыслительной деятельности начинается с «возраста вопросов», который может быть отнесен к дошкольному периоду, что развитие эмпирического рассудочного мышления типично для учащегося средней школы». В тоже время, «...высшие ступени, развиваясь, не вытесняют низших, а преобразуют их. Когда развивается теоретическое мышление, то ни сенсомоторное (наглядно - действенное), ни наглядно -образное мышление, конечно не исчезают, а преобразуются, совершенствуются, сами поднимаются на высшую ступень. Между ними создаются многообразнейшие, сложные, от случая к случаю индивидуально варьирующие взаимоотношения. Внутреннее противоречие и борьба между передовыми, только еще нарождающимися формами мышления и уже отмирающими формами, господствующими на предыдущей стадии, проходит через всю историю развития мышления».

«Дошкольное детство - это пора жизни, когда перед ребенком все более открывается окружающий его мир человеческой деятельности. В своей деятельности, прежде всего в своих играх, которые теперь вышли за узкие пределы манипулирования с окружающими предметами и общения с непосредственно окружающими людьми, ребенок проникает в более широкий мир, осваивая его в действенной форме. Он овладевает предметным миром как миром человеческих предметов, воспроизводя человеческие действия с ним» А.Н.Леонтьев .

Мышление ребенка связано с его знаниями. И к шести годам его умственный кругозор уже достаточно велик. В исследованиях, проведенных Н.Н.Поддьяковым и его сотрудниками, выявлены данные относительно знаний, которые формируются у детей в дошкольном возрасте. Были обнаружены две противоречивые тенденции.

В процессе мыслительной деятельности происходит расширение объема и углубление четких, ясных знаний об окружающем мире. Эти стабильные знания составляют ядро познавательной сферы ребенка.

В процессе мыслительной деятельности возникает и растет круг неопределенных, гипотетических, не совсем ясных знаний, выступающих в форме догадок, предположений, вопросов. Эти развивающиеся знания являются мощным стимулятором умственной активности детей. В ходе взаимодействия этих тенденций неопределенность знаний уменьшается - они уточняются, проясняются и переходят в определенные знания.

Решая задачи, устанавливая связи и отношения между предметами, старший дошкольник использует те же формы мыслительной деятельности, что и взрослые: наглядно - действенную, наглядно - образную, словесно -логическую.

Наглядно - действенное мышление, осуществляемое путем реального действия с предметами, связанное с предметной деятельностью и направленное на ее обслуживание, является первичным и возникает еще в раннем возрасте. Но старший дошкольник может прибегать к этому виду мышления, если перед ним встает задача, для решения которой у него нет опыта и знаний, либо их крайне мало.

Сюжетно - ролевые игры, особенно игры с правилами, стимулируют развитие мышления, в первую очередь наглядно - образного мышления.

«Игра - источник развития и создает зону ближайшего развития. Действие в воображаемом поле, в мнимой ситуации, создание произвольного намерения, образование жизненного плана, волевых мотивов - все это возникает в игре и ставит ее на высший уровень развития, возносит ее на гребень волны, делает ее девятым валом развития дошкольного возраста, который возносится всей глубиной вод, но относительно спокойных» Л.С.Выготский.

Его становление и совершенствование зависят от развитости у ребенка воображения. Сначала ребенок приобретает способность просто механически замещать в игре одни предметы другими, придавая предметам - заместителям не свойственные им по природе, но определяемые правилами игры новые функции. На втором этапе предметы непосредственно

замещаются их образами, и отпадает необходимость практического действия с ними.

Главное в развитии мышления в дошкольном возрасте - это дальнейшее совершенствование наглядно - действенного мышления на базе развивающегося воображения; улучшение наглядно - образного мышления на основе произвольной и опосредованной памяти; начало активного формирования словесно - логического мышления путем использования речи как средства постановки и решения интеллектуальных задач.

«Образное мышление - основной вид мышления дошкольника. Возможность переходить к решению задач в уме возникает благодаря тому, что образы, которыми пользуется ребенок, приобретают обобщенный характер, отображают не все особенности предмета, ситуации, а только те, которые существенны с точки зрения решения той или иной задачи» В.С.Мухина.

При соответствующих условиях обучения образное мышление становится основой для усвоения старшими дошкольниками обобщенных знаний. К таким знаниям относятся представления об отношении части и целого, о связи основных элементов конструкции, составляющих ее каркас, о зависимости строения тела животных от условий их жизни и др. Обобщенные знания имеют большое значение для развития самого мышления - образное мышление само совершенствуется в результате использования этих знаний при решении разнообразных познавательных и практических задач. Приобретенные представления о существенных закономерностях дают ребенку возможность самостоятельно разбираться в частных случаях проявления этих закономерностей.

Постепенно представления ребенка приобретают гибкость, подвижность, он овладевает умением оперировать наглядными образами: представлять себе предметы в разных пространственных положениях, мысленно изменять их взаимное расположение. Модельно - образные формы мышления достигают высокого уровня обобщенности и могут приводить детей к пониманию существенных связей вещей. Но эти формы остаются образными формами и обнаруживают свою ограниченность, когда перед ребенком возникают задачи, требующие выделения таких свойств, связей и отношений, которые нельзя представить наглядно, в виде образа. Эти задачи требуют развития логического мышления.

Словесно - логическое мышление ребенка, которое начинает развиваться в конце дошкольного возраста, предполагает уже умение оперировать словами и понимать логику рассуждений.

Речь непосредственно связана с развитием мышления, как в своей планирующей функции, так и в функции образования понятий. Как говорил Л.С.Выготский: «...язык является орудием мысли и, больше того, язык является орудием закрепления опыта». Речь как универсальная знаковая система играет особую роль в развитии абстрактного и логического мышления. Абстракция является необходимой составной частью всякого мышления, тем воспитанным в процессе развития личности приемом, который является необходимым условием и орудием его мышления.

Именно логическое абстрактное мышление позволяет ребенку оторваться от воспринимаемого им конкретного предмета и выделить из него соответствующие, общие для целого ряда предметов признаки, а также установить причинно - следственную связь.

Развитие словесно - логического мышления у детей проходит в несколько этапов. На первом ребенок усваивает значения слов, относящихся к предметам и действиям, научается ими при решении задач, а на втором этапе им познается система понятий, обозначающих отношения, и усваиваются правила логики рассуждений.

Н.Н.Поддьяков специально изучал, как идет у детей дошкольного возраста формирование внутреннего плана действий, характерных для логического мышления, и выделил шесть этапов развития этого процесса от младшего до старшего дошкольного возраста:

Ребенок еще не в состоянии действовать в уме, но уже способен с помощью рук, манипулируя вещами, решать задачи в наглядно - действенном плане, преобразуя соответствующим образом проблемную ситуацию.

В процесс решения задачи ребенком уже включена речь, но она используется им только для названия предметов, с которыми он манипулирует в наглядно-действенном плане.

Задача решается в образном плане через манипулирование представлениями объектов.

Задача решается ребенком по заранее составленному, продуманному и внутренне представленному плану. В его основе память и опыт, накопленные в процессе предыдущих попыток решения подобного рода задач.

Задача решается в плане действий в уме с последующим выполнением той же самой задачи в наглядно - действенном плане с целью подкрепить найденный в уме ответ и далее сформулировать его словами.

Решение задачи осуществляется только во внутреннем плане с выдачей готового словесного решения без последующего обращения к реальным, практическим действиям с предметами.

Таким образом, пройденные этапы и достижения в совершенствовании мыслительных действий и операций полностью не исчезают, а преобразуются, заменяются новыми, более совершенными. Мыслительная деятельность уже в дошкольном возрасте функционирует на основе системности. В ней представлены и при необходимости включаются в работу все виды и уровни мышления: наглядно - действенное, наглядно -образное и словесно-логическое (понятийное).

Выводы:

1. Мышление - это высший психический процесс опосредованного и обобщенного отражения действительности, вид умственной деятельности, заключающейся в познании сущности вещей и явлений, закономерных связей и отношений между ними. Это высшая ступень познания человеком действительности. Мышление - это своего рода деятельность, имеющая свою структуру и виды. Мышление подразделяют на теоретическое (понятийное и образное) и практическое (наглядно - образное и наглядно -действенное). Все виды мышления тесно взаимосвязаны и зависят от задач деятельности, требующих то одного, то другого, а то и совместного проявления всех видов.

2. Развитие мышления происходит поэтапно. На основе наглядно-действенной формы мышления складывается наглядно-образная форма мышления. Образное мышление - это основной вид мышления дошкольников. Логическое мышление формируется позднее, на основе образного. Высшие формы мышления, развиваясь, не вытесняют низшие, а преобразуют их. Когда развивается теоретическое мышление, то ни наглядно -действенное, ни наглядно-образное не исчезают, а преобразуются, совершенствуются, сами поднимаются на высшую ступень развития.

Мыслительная деятельность уже в дошкольном возрасте функционирует на основе системности. В ней представлены и при необходимости включаются в работу все виды и уровни мышления.

3. По результатам психодиагностического обследования дошкольников старшей группы было выявлено, что к пяти годам у детей сформировано на должном уровне наглядно-

действенное и наглядно-образное мышление, развивается и логическое мышление. Дети оперируют понятиями; способны находить сходства и различия, систематизируют и группируют объекты по различным основаниям (умственные операции анализа и обобщения); в словесных рассуждениях выражают результаты собственного опыта. По показателям проведенных обследований по методике «Исключение лишнего», «Нелепицы» и методике «Вырежи фигуру» видно, что результаты исследования наглядно-действенного мышления немного ниже, чем результаты исследования образно-логического мышления.

Это объясняется тем, что к началу старшего возраста у детей еще малый опыт работы с ножницами.

ЛИТЕРАТУРЫ

Аллахвердов В.М., Богданова С.И. и др. Психология: учебник. – М.: ТК Велби, изд-во Проспект, 2004. – 752 с.

Валлон А. Психическое развитие ребенка. – М.: Просвещение, 1967. – 190 с.

Веккер Л.М. Психика и реальность. Единая теория психических процессов. – М.: Смысл, 1998. – 685 с.

Венгер Л.А. Развитие познавательных способностей в процессе дошкольного воспитания. – М.: «Педагогика», 1986. – 225 с.

Венгер Л.А., Холмовская В.В., Дьяченко О.М. и др. Диагностика умственного развития дошкольников. – М.: Педагогика, 1978. – 248 с.

Выготский Л.С. Мышление и речь. / Ред. Г.Н. Шелогурова. – 5-е изд., испр. – М.: Лабиринт, 1999. – 480 с.

Гальперин П.Я., Эльконин Д.Б. К анализу теории Ж. Пиаже о развитии детского мышления. / В кн.: Дж. Флейвелл. Генетическая психология Жана Пиаже. – М., 1967. – 621 с.

Люблинская А.А. Вопросы мышления детей. – СПб.: Государственный педагогический институт им. А.И. Герцена, 1992. – 247 с.

Мухина В.С. Факторы, определяющие психическое развитие. // Возрастная психология: феноменология развития, детство, отрочество: Учебник для студ. вузов. – 4-е изд. – М.: Академия, 1999. – 456 с. 51

Новосёлова С.Л. Развитие мышления в раннем возрасте. – М.: Педагогика, 1978. – 160 с.

Обухова Л.Ф. Детская (возрастная) психология. – М., 1996. – 420 с.

Пиаже Ж. Избранные психологические труды. – М.: Педагогика, 1969. – 540 с.

Развитие ребенка. // Пер. с англ. М.С. Роговина; под ред. А.В. Запорожца, Л.А. Венгера. – М.: Издательство «Просвещение», 1968. – 192 с.

Эльконин Д.Б. Психическое развитие в детских возрастах: Избранные психологические труды. // Под ред. Д.И. Фельдштейна. – М.: Институт практической психологии, 1999. – 155 с.

QORAQALPOQ XALQ MILLIY CHOLG'ULARI ASOSIDA O'QUVCHI-YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH - DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Otarbaev Daniyar Azatbaevich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali «Xalk ijodiyoti» kafedrası o'qituvchisi

Mazkur maqolada qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulari asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish - dolzarb pedagogik muammo sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, Qoraqalpoq milliy cholg'ulari asosida maxsus o'quv dasturlar ishlab chiqilishi kerakligi, ta'lim muassasalarida milliy cholg'u guruhlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash muhimligi alohida e'tirof etib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulari, o'quvchi-yoshlar, qiziqish, iqtidori, qobiliyat, ijro mahorati, axloqiy fazilat, yuksak ma'naviyatli, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash, tafakkur, tovush tembri, tovushlar baland-pastligi, ritm xilma-xilligi, garmoniya tuzilishlari, interval va akkordlar tuzilishi.

РАЗВИТИЕ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ И МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ КАРАКАЛПАКСКОГО НАРОДА – КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Отарбаев Данияр Азатбаевич

Преподаватель кафедры «Народное творчество» Нукусского филиала Узбекского государственного института искусств и культуры

В статье анализируется развитие духовной культуры учащейся молодежи на основе национальных музыкальных инструментов каракалпакского народа как актуальная педагогическая проблема с научно-теоретической точки зрения. В статье также особо отмечается необходимость разработки специальных учебных программ, основанных на каракалпакских национальных инструментах, а также важность поддержки деятельности национальных музыкальных ансамблей в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: Каракалпакские национальные инструменты, учащаяся молодежь, интерес, талант, способность, исполнительское мастерство, нравственная добродетель, высокая духовность, знающий, находчивый, духовно и физически здоровый, широкий кругозор, мышление, тембр звука, высота звуков, ритмическое разнообразие, гармонические структуры, интервально-аккордовая структура.

DEVELOPMENT OF SPIRITUAL CULTURE OF STUDENTS AND YOUTH BASED ON NATIONAL INSTRUMENTS OF THE KARAKALPAK PEOPLE – AS AN IMPORTANT PEDAGOGICAL PROBLEM

Otarbaev Daniyar Azatbaevich

Teacher of the Department of Folk Art of the Nukus branch of the Uzbek State Institute of Arts and Culture

The article analyzes the development of spiritual culture of student youth based on national musical instruments of the Karakalpak people as a pressing pedagogical problem from a scientific and theoretical point of view. The article also highlights the need to develop special educational programs based on Karakalpak national instruments, as well as the importance of supporting the activities of national musical ensembles in educational institutions.

Key words: Karakalpak national instruments, student youth, interest, talent, ability,

performance skills, moral virtue, high spirituality, knowledgeable, resourceful, spiritually and physically healthy, broad outlook, thinking, timbre of sound, pitch, rhythmic diversity, harmonic structures, interval-chord structure

Shiddatli virtuallashish jarayoni kuchayotgan bir davrda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kreativ nuqtai nazardan yondashish muhimligini ko'rsatmoqda.

Chunki Yangi O'zbekiston yoshlarini jamiyat talablariga mos ravishda voyaga etkazish, ularni qiziqish va iqtidori, qobiliyat va ijro mahoratini aniqlab bo'sh vaqtlarini mazmunli va unumli tashkil etish, odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega vatanparvar yoshlarni etishtirish yangicha, tizimli yondashuvni talab qiladi.

Bugungi kun tarbiya nazariyasida o'quvchi-yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish pedagogik zaruriyati nimada, mazkur masalalar echimida qanday ishlar amalga oshirilmoqda, ma'naviy tarbiyaning mazmuni nimalardan iborat degan haqli savolga duch kelamiz.

Ayni vaqtda mamlakatimizda o'quvchi yoshlarni ajdodlarning musiqa merosi bilan tanishtirish, ularni musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash, yoshlarni jismoniy, intellektual va ma'naviy kamolotga etkazishda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 02.02.2022 yildagi PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish masalalariga alohida urg'u berilgan. [1]

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 14 avgustdagi 3907-sonli qarorida o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, musiqa san'atida yoshlar o'rtasida xalqimiz ma'naviyatini, milliy istiqloq g'oyasini targ'ib qilishga, bugungi islohotlarning mohiyatini yoritishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etish masalalarining alohida e'tirof etilganligi bejiz emas.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, uzluksiz ta'lim tizimining quyi bosqichlaridanoq musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida «Hayotimga hamrohdir cholg'u» shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish, o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqishlariga ko'ra milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish bo'yicha amaliy to'garaklar tashkil etish, musiqa va san'at maktablarida "Ustoz-shogird" munosabatlarini yanada takomillashtirish, yoshlar o'rtasida hofizlik san'atini namoyish etishning pedagogik jihatlariga alohida e'tiborni qaratish muhim sanaladi.[1]

Davlatimiz rahbarining mazkur Qarori Qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulari asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish - dolzarb pedagogik muammo ekanligini, bu borada qilinishi kerak bo'lgan talaygina muammolar va echimini kutayotgan vazifalar mavjudligini ko'rsatib turibdi.

Qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulari asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish masalalari hukumatimizning madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash orqali siyosiy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy, badiiy-diniy, huquqiy hamda estetik qarashlari ifodasidan keng foydalanish tendentsiyalari borasida olib borayotgan quyidagi ustuvor yo'nalishlarida o'z aksini topganligi ayni haqiqatdir:

o'quvchi-yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, qiziqishlariga ko'ra milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish malakalarini takomillashtirish;

o'quvchi - yoshlarni milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalarini tarkib toptirish sifatini oshirish;

ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarni amaliy to'garaklarga jalb etish (amaliy to'garaklarni

olib borish hisobi «Elektron kundalik» dasturi orqali amalga oshirishga erishish, hamda har chorakda to'garak ishtirokchilarining hisobot koncertlarini tashkil qilish) uchun munosib shart-sharoitlar yaratish;

Qoraqalpoq hududining o'ziga xos musiqiy folklori namunalari yordamida o'quvchilar orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'ri kenglik va millatlararo totuvlik ruhiyatini mustahkamlash.

Shuningdek musiqa fani mazmuni butunlay qayta ishlab chiqildi mazkur fan uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkazish, hamda milliy an'analarni, qadriyatlarni chuqur o'rganish yosh avlodning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab quyildi. Bilamizki, musiqa darslarida o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishda uni haqiqiy ta'lim-tarbiya vositasiga aylanishida zamonaviy pedagogning kreativ potentsiali yuqori bo'lishi talab etiladi. [5]

Musiqa san'atining o'ziga xos kasbiy xususiyatlari: tovush temбри, tovushlar baland-pastligi, ritm xilma-xilligi, garmoniya tuzilishlari, interval va akkordlar tuzilishidagi rang-baranglik, dinamik tus asosida ta'lim jarayonini tashkil etish ijobiy samaradorlikka erishishga shuningdek musiqiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi.[6]

Shunga ko'ra, o'quvchilarda xalq cholg'u asboblari, musiqa san'atiga muhabbat uyg'otib xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, qo'shiqchilik, ijrochilikka doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga ikkinchidan, Qoraqalpoq xalq milliy cholg'ularini o'rganish asosida ijodiy mahorat, estetik did kamol topadi, fikrlash darajasi kengayadi. Uchinchidan, musiqa san'ati yosh avlodni ma'naviy madaniyatini tarbiyalashga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulari asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda quyidagi tarkibiy komponentlar muhim o'rin tutadi:

- Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos musiqiy bezaklari, qochirimlari, cholg'u ijrosi, hofizlik an'analari, jirovchilik, baxshichilik san'ati, kuylash uslublari bilan ijro maktabini o'zida mujassam etgan boy milliy madaniy merosidan foydalanib o'quvchi-yoshlar ma'naviy axloqiy qarashlarini zamonaviy talablar uyg'unligida shakllantirish;

- o'tgan hayotdan saboq beradigan Qoraqalpoq millatining tarixi, urf-odati, an'anasi, hayotiy qadriyatlarini ma'naviy merosi, madaniy boyliklarini o'rganish orqali, o'quvchi yoshlarda umuminsoniy va milliy demokratik qadriyatlarga sodiqlik, millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni rivojlantirish;

- "Yosh maqomchilar", «Xalq cholg'ulari ijrochilari» ko'rik-tanlovlarida iqtidorli o'quvchilar ishtirokini ta'minlash;

- Qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulari asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish jarayoniga yangicha, tizimli yondashish (xalq og'zaki ijodi; mutaffakkir va allomalarning o'g'itlari; milliy qadriyatlar; boy ma'naviy meros) pedagogik psixologik mexanizmlarini o'rganish.

Alohida e'tirof etish lozimki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa fanidan o'qitish samaradorligini oshirishda ajdodlarning musiqa merosini, qoraqalpoq mumtoz san'ati hamda jahon adabiyotining buyuk badiiy namunalariidan foydalanish o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashiga ham bevosita daxldordir.

Yoshlar ma'naviy olami va madaniy saviyasini shakllantirish masalalari bir qator etuk pedagog olimlarimiz A.Musurmanova, M.Kuronov, X.Ibraimov, O.Jamoldinova, J.Bazarbaev, Z.Kurbanniyazova, N.M.Nagmetovalar tomonidan o'rganib chiqilgan. Mazkur ilmiy tadqiqotlarda o'quvchi -yoshlar ma'naviy dunyosini boyitishda xalqimizning azaliy an'analari, qadriyatlari, udumlari, marosim va qadriyatlaridan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga egaligi qayd etilgan.

M.Quronov ilmiy izlanishlarida, ma'naviyatsizlik "kasali", axloqsizlik "epidemiya" har

qanday bakteriologik qurolga qaraganda ko'proq "ruhiy vayronalik" keltirishi haqida kuyinib gapiradi. [00]

A.Musurmonovning fikricha, o'quvchi yoshlar ongida xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, sabr-toqat, adolat, ma'rifat, insonparvarlik, mehnatsevarlik tuyg'ularini har bir yosh ongiga singdirish talab etiladi. Yoshlar ongiga mazkur yuksak axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni singdirishda ularning qiziqishi, intilishi, mayli, orzu-uylari, qobiliyati, malaka va ko'nikmalari muhim rol o'ynaydi. [4; 108 b].

Biz A.Musurmanova fikrlariga qo'shilgan holda, o'quvchi yoshlar ma'naviy dunyosini boyitishda musiqaning rolini, ayniqsa milliy musiqa asboblariidan taralayotgan kuy navo yordamida ma'naviy-madaniy immunitetini boyitishga ta'sir ko'rsatadigan indikatorlarni o'rganib chiqib, ularni quyidagi mazmunda tasnif etdik:

- Qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulari asosida yoshlar ongi va qalbida ilmiy, ma'naviy - axloqiy, siyosiy, sog'lom diniy e'tiqodni uyg'un shakllantirish;

- musiqa fanlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchi - yoshlarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetençiyalar, bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar turkumlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

- o'quvchilarni milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslarga jalb etish ularni milliy madaniyatni rivojlantirish, masalalariga jiddiy e'tibor qaratish;

- ma'naviy-ma'rifiy tarbiya negizida yoshlarda mafkuraviy immunitet va milliy o'zlikni anglashni shakllantirish kabilarga alohida e'tibor berish.

Q.Ayimbetov, U.Aleuov, T.Adambaeva, A.Allamuratov, D.Allanazarov, J.Bazarbaev, A.Bekimbetova, S.Bahodirova, K.Mambetov, Z.Qurbaniyazova, P.Paluaniyazov, M.Pazilova, S.Romanova, S.Saytbekova, R.Torejanoval, T.Utebaev, N.M.Nagmetova singari Qoraqalpog'iston Respublikasi olimlarning ilmiy izlanishlarida qoraqalpoq xalqining milliy an'analari, urf-odatlarini, komil insonni tarbiyalash masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan tahlil qilingan. [5;6;;7;11;]

Demak, yoshlarni ma'naviy madaniy jihatdan voyaga etkazishda nafaqat qoraqalpoq xalqining musiqiy tili, ohangi, urf-odatlarini, qadriyatlarini, balki musiqiy cholg'u asboblariida jiroflanayotgan ifodalangan ezgulik g'oyalariga hurmat-ehtirom, sog'lom turmush tarzi, mehr-oqibat, o'z eri, tarixi, madaniyati bilan mag'rurlanish, mustahkam imon-e'tiqod, kuchli oriyat, pok vijdon, halol mehnat, yaxshilik, sadoqatli bo'lish kabi insoniy fazilatlar tarbiyalash mumkin.

Musiqa sohasi bo'yicha olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar, kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini etarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda.

Alohida e'tirof etish lozimki, musiqani sevmagan inson bo'lmasa kerak, har bir individual shaxsda musiqani tinglash, o'zgacha xirgoyi qilish, raqs tushishga bo'lgan moyillik bo'ladi, bizning pedagogik vazifamiz esa o'quvchilarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirishda Qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulariga bo'lgan qiziqishini va bilimlarini oshirishga erishishimiz muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan yondashganda Qoraqalpoq xalq cholg'u san'ati – xalqning yuz yillar davomida shakllanib kelgan ma'naviy merosi ekanligini, bugungi kunda globallashuv, axborot oqimi va ommaviy madaniyat ta'sirida yoshlarning milliy qadriyatlardan uzoqlashuv xavfi mavjud ekanligini inobatga olib, milliy cholg'u san'atini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish,

o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga qarab baxshichilik san'ati yo'nalishida baxshilar, oqinlar va jirov ijrochilarining respublika festivaliga ishtiroklarini ta'minlash, musiqa asboblari (dutor, qobiz, gijjak, shanqobiz, sagat siyaqti cholg'ular) tarixi va o'ziga xos jihatlariga yoshlarni qiziqitirib, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulari asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish yuzasidan bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ilmiy kuzatishlarimiz natijasida aytishimiz mumkinki, Qoraqalpoq milliy cholg'ulari tarbiyaviy va ma'naviy funkciyaga ega bo'lishiga qaramasdan, ular ta'lim tizimida etarlicha qo'llanilmayapti.

Yoshlarda milliy cholg'ularga nisbatan qiziqish pastligi, ularning ma'naviy-estetik dunyoqarashida cholg'u san'atining o'rni kamligi, o'quvchi-yoshlarda Qoraqalpoq milliy cholg'u san'atiga nisbatan hurmat, qiziqish uyg'otish va ularning ma'naviy madaniyatini yuksaltirish muhimligini ko'rsatmoqda. Shuningdek Qoraqalpoq cholg'u asboblari va kuylarini ta'lim tizimiga integratsiya qilish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali yoshlarda milliy merosga muhabbat uyg'otish, ta'lim muassasalarida milliy musiqa darslarining mazmun-mohiyatini boyitish, milliy qadriyatlarni tarbiya vositasi sifatida o'rganuvchi ilmiy ishlanmalar, bugungi yoshlar diqqatini o'ziga jalb qiladigan mutaxassislar fikrlari, amaliy pedagogik tajribalar yordamida "TIKTOK"lar yaratish dolzarb pedagogik muammo ekanligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda milliy cholg'u san'ati orqali yoshlarda faxr tuyg'usi, milliy o'zlik, ma'naviy barkamollik shakllantirish uchun Qoraqalpoq milliy cholg'ulari asosida maxsus o'quv dasturlar ishlab chiqilishi kerak, ta'lim muassasalarida milliy cholg'u guruhlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan milliy musiqa festivallarini yo'lga qo'yilishi bo'lajak muallim va tarbiyachilarni milliy merosga asoslangan innovatsion usullarda tarbiyalash muhim ijtimoiy pedagogik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 02.02.2022 йилдаги ПҚ-112-сон Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. LEX.UZ – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 31 декабр 2019 йилдаги “Ўзлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори, (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й.).

3. Мусурмонова О. Юқори синф талабалари маънавий маданиятини ривожлантиришнинг шакл ва методлари. – Тошкент: Фан. 1995. - 108 б

4. Тажимуратов А «Қарақалпақ халық қосықлары». Нөкис «Қарақалпақстан» баспасы 1965. –3-21 б.

5. Утебаев Т.Т Қорақалпоғистонда XX аср иккинчи ярми XXI аср бошида таълим-тарбиявий фикрларнинг ривожланиши. (монография) Нукус. “Билим” нашриёти. 2015. – 104-105 б.

6. Moyanov I.J. Qoraqalpoq xalq musiqasi asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning xususiyatlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2019.

7. Бекимбетова А.А Қорақалпоқ халқ педагогикасида ёшларга ақлий тарбия бериш анъаналари. П.ф.н.илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Т., 2010. – 20 – б.

8. Баҳадырова С. “Қарақалпақ қандай халық” Ташкент 2017.

9. Мамбетов К. “Ерте дәуірдегі қарақалпақ әдебияты” “Билим” баспасы Нөкис 1992. – 243 б.

10. Мамбетов К. “Шығыс әдебияты тарихы” “Билим” баспасы Нөкис 1993. – 207 б.

11. Палуаниязов П.Қ. История музыкальной культуры Каракалпакстана (1925-1950 г) Автореферат дисс. канд. ист. наук, Нукус, 2003.

12. Сайтбекова С.С Использование исполнительского мастерства каракалпакского народа в воспитании школьников; Дисс. канд, пед наук-Т; Ташкентский государственный университет мировых языков Т, 2010. – 68-80 с.

13. Сайтбекова С. О жанрах каракалпакских песен // Вестник-М, 2005. №1 стр 65-72.

14. Торежанова Р.У. Традиций эстетического воспитания молодежи в каракалпакской народной педагогике. Диссертация канд. пед. наук. –Т 2007. – 118 с.

TEATR VA KINO SAN'ATI UYG'UNLIGI: OBRAZ YARATISH JARAYONIDAGI UMUMIYLIK VA FARQLAR

Xamidova Shoirra Sotimboevna,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,

"Teatr san'ati" fakulteti, "Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrası dotsenti

Аннотация. Ushbu maqolada teatr va kino san'ati o'rtasidagi metodik, texnik va estetik jihatdan uyg'unlik, xususan, obraz yaratish jarayonidagi o'xshashlik va farqlar tahlil qilinadi. Aytib o'tilishicha, aktyor ijrosining sahnadagi va kameradagi talablari turlicha bo'lsa-da, har ikki san'at turida obrazga kirish, xarakter ochish, emotsional holatni ifodalash kabi asosiy tamoyillar o'xshashdir. Shu bilan birga, teatr jonli tomosha san'ati bo'lsa, kino vizual montaj va texnik vositalarga asoslangan, bu esa obraz yaratish jarayoniga sezilarli farq olib kiradi. Maqolada teatr va kino aktyorligining o'ziga xos jihatlari misollar bilan yoritilgan.

Калит so'zlar: teatr, kino, obraz yaratish, aktyorlik san'ati, sahna, kamera, emotsional ifoda, xarakter, dramatik san'at

Кириш. San'at insoniyat ma'naviyatining yuksak ko'zgusidir. Teatr va kino san'ati esa inson ruhiy olamini, ichki kechinmalarini eng chuqur ifodalay oladigan vositalardandir. Har ikki san'at turi tomoshabinga obrazlar orqali fikr, g'oya, ruhiy holat va qadriyatlarni yetkazadi. Obraz yaratish esa san'atkor — aktyorning asosiy vazifasi hisoblanadi. Mazkur maqolada teatr va kinodagi obraz yaratish jarayoni solishtirilib, ularning umumiyligi va farqlari ko'rib chiqiladi.

Teatr va kinodagi obraz yaratishning umumiy jihatlari

1. Psixologik tayyorgarlik

Teatr va kino san'atida obraz yaratish jараёни аввало актёрнинг ички дунёси, рухий ҳолати ва интеллектуал даражасига боғлиқ. Ҳар қандай рольга киришдан олдин актёр муайян психологик тайёргарликдан ўтади. Бу жараён ўз ичига образни тўлиқ англаш, унинг рухий кечинмаларига тушуниш, унинг ички дунёси билан ҳамоҳанг бўлишни олади. Станиславский томонидан ишлаб чиқилган "Ролга кириш", "Ички монолог", "Фантазия ва тасаввур" методлари бу жараёнда катта аҳамият касб этади.

Актёр образни фақатгина ташқи ҳаракатлар орқали эмас, балки ички ҳолати орқали ҳам яратади. Масалан, у ўзи ижро этаётган қаҳрамоннинг эмас, балки ўзининг ҳаётидаги воқеликни тасаввур қилиб, шу орқали туйғу ва ҳиссиётларни табиий ифода этишга ҳаракат қилади. Театрда бу жараён репетиция давомида бўлиб ўтса, кинода эса ҳар бир дубл олдидан актёр шу ҳолатга кириб, ўз ҳиссий оламини қайта тиклаши керак бўлади.

Шунинг учун ҳам ҳар икки соҳада актёрдан юқори рухий барқарорлик, эмоционал хотира, тасаввур қилиш қобилияти ва рухий мушоҳада талаб этилади.

2. Obrazga xizmat qilish

Актёрлик сан'атида энг муҳим тамойиллардан бири — ***"Образга хизмат қилиш"*** дир. Бу — шахсий намоён қилиш эмас, балки сахнадаги ёки экрандаги қаҳрамоннинг ички ва ташқи дунёсига итоат этиш деганидир.

Театрда актёр сахнада реал вақтда ўз қаҳрамонини томошабинга етказади. Унинг барча ҳаракатлари, сўзлари ва ҳиссиётлари — образни мукамал етказиш учун хизмат қилади. Шундай қилиб, у реал ҳаётдан чиқиб, муваққатан бошқа шахсга айланади.

Кинода ҳам шундай. Лекин бу ерда актёр камера олдида ишлаётгани боис, ҳар бир ҳаракат, ҳар бир мимика ва ҳатто кўз ифодаси ҳам аҳамият касб этади. Шунда актёр ўзини эмас, балки ролни намоён этади — бу образга хизмат қилишнинг юксак намунаси.

Умумий жиҳат сифатида айтиш мумкинки, ҳар икки соҳада ҳам актёр шахсан ўзи эмас, балки ижодий жараёнда яратаётган образ орқали томошабинга маълум бир ғоя, фикр, эмоционал ҳолатни етказишни мақсад қилади.

3. Harakat va emotsiya uyg'unligi

Актёр образини томошабинга етказишда жисмоний ҳаракатлар, мимика, интонация, овоз тембри, кўз қараши каби элементлар муҳим ўрин тутди. Театрда бу элементлар кенг қамровда бўлиши талаб қилинади, чунки сахна масофаси томошабин билан алоқани чеклайди. Шу боис, ҳаракатлар ва мимика кенг ва равшан бўлиши лозим.

Кинода эса, камера томошабиннинг кўзини ифода этади. У юздаги ҳар бир майда ифодани, мимикани ёки кўздаги ҳаяжонни тасвирлаб беради. Шу сабабли, киноактерликда ҳар бир ҳаракат эҳтиёткорлик билан бошқарилади, уларнинг ортиқча бўлиши экранда сунъий кўринади.

Бироқ, ҳар икки ҳолда ҳам ҳаракат ва ҳиссиёт бир-бирига мувофиқ бўлиши шарт. Юракдан келган ҳиссиёт фақат табиий ҳаракат билан ифода топади. Масалан, қайғу ҳолатида актёр нафақат йиғлашни, балки кўз қаришини, елка пастлашини, нафас олишдаги ўзгаришларни ҳам намоён этади. Бу табиийлик образ кучини оширади.

Шундай қилиб, ҳар икки санъат турида жисмоний ва ҳиссий ифода уйғунлиги — актёрлик маҳоратнинг асосий жиҳатларидан биридир.

4. Rejissyor bilan ishlash

Актёр ижросининг яна бир умумий жиҳати — режиссёр билан ҳамкорликда ишлаш ҳисобланади. Театрда режиссёр спектакльнинг умумий ғояси ва сахнавий ечимини ишлаб чиқади, актёр эса шунга мос равишда ўз ролини бунёд этади.

Кинода ҳам шундай — ҳар бир кадрдаги ҳаракат, интонация, ҳатто актёрнинг қараш бурчаги ҳам режиссёр томонидан бошқарилади. Кинода бу алоҳида аҳамиятга эга, чунки монтаж жараёнида актёр ижроси қисмларга бўлиниб, кадрлар орқали қайта йиғилади.

Режиссёр билан яқин ҳамкорлик — актёрнинг ижодий салоҳиятини тўлиқ намоён этишга ёрдам беради. Актёр ўз ролида режиссёр концепциясини тўла ҳис этиши ва ифода қилиши керак. Бу умумий эстетик натижага эришишда муҳим роль ўйнайди.

Юқорида келтирилган тўрт жиҳатдан аён бўладики, театр ва кино санъати ўртасидаги фарқларга қарамай, образ яратишдаги умумий методологик ва ижодий тамойиллар бир-бирини тўлдиради. Актёр ҳар икки муҳитда ҳам образни тўла англаб, унга психологик ва жисмоний тайёргарлик билан ёндашиши лозим. Унинг ҳаракатлари, ҳиссиётлари ва режиссёр билан ижодий алоқаси образ кучини белгилайди. Шу боис, замонавий актёр ҳар икки санъат турининг қонун-қоидаларини чуқур билиши зарур.

Teatr va kinodagi obraz yaratishning farqli jihatlari

Театр ва кино — инсон туйғу ва ҳиссиётларини ифодалашнинг икки ноёб йўналиши сифатида ўз вазифасини бажаради. Уларда образ яратиш жараёни умумий тамойилларга эга бўлса-да, кўп жиҳатдан фарқлидир. Айниқса, актерлик ижроси, техник воситалар, аудитория билан алоқа, вақт, реаллик даражаси ва ўзаро таъсир шакли борасида сезиларли фарқлар кузатилади. Қуйида ушбу фарқлар атрофлича таҳлил қилинади.

1. Ijro muhiti va auditoriya bilan aloqa

Театр санъати — бу тўғридан-тўғри, жонли ижродир. Актер ва томошабин ўртасидаги масофа жисмоний бўлса ҳам, руҳий жиҳатдан улар ўзаро боғлиқ ҳолда бўлади. Актер сахнада туриб, ҳар бир ҳаракати ва интонацияси билан аудиториянинг реал вақтдаги ҳиссий ҳолатига таъсир ўтказади. Бу доимий руҳий алоқа актёрдан тинимсиз диққат, ҳиссиётни тўла назорат қилиш ва образни бир маромда ушлаб туришни талаб қилади.

Кинода эса актёрнинг ижроси камера орқали қайд этилади. У томошабин билан бевосита эмас, ортиқчалик воситалари орқали мулоқот қилади — яъни оператор, монтажчи, режиссёр ва техник воситалар орқали. Бу эса актерга маълум даражада эркинлик берса-да, жонли алоқа имконини чеклайди. Монтаж ёрдамида ижро энг таъсирли шаклга келтирилади, лекин бу актёр учун томошабиннинг реал вақтидаги муносабатини ҳис қилиш имконини йўқ қилади.

Шунинг учун, театр актёри ҳар бир спектаклда янги “энергия” билан ишлаши лозим бўлса, киноактёр мукаммал дублни яратиш учун ички тўпланган энергияни қисқа вақт ичида ифода этиши керак.

2. Ijro uslubi

Театрда актёрлик ижроси кенг ҳаракатларга, чуқур интонацияга ва таъбирга бой мимикага таянади. Бу сахна масофаси туфайли образни томошабинга етказиш учун зарур. Актёрнинг ижроси сахнада «катта» кўринишда бўлиши керак, чунки аудитория томонидан қаҳрамоннинг ҳиссий ҳолатини узоқдан англаш талаб этилади.

Кинода, аксинча, камера ҳар бир ҳаракатни яқиндан тасвирлагани боис, инсон туйғуси ва ҳаракатлари табиий, реал, кам ҳаракатли бўлиши талаб этилади. Агар театр сахнасидаги кўлнинг кенг силкиниши нормал ҳисобланса, киноэкранда у sun'iyлик деб баҳоланиши мумкин. Шу боис, киноактерлик “ичдан чиққан” ҳиссиётга, кўз ифодаси, нафас олишдаги нозик ўзгаришларга таянган ижрони талаб қилади.

Кино ва театр ўртасидаги бу ижро усулидаги фарқ актёрдан адаптация қобилиятини талаб қилади: бир сахнада образни “сахнавий” тарзда, бошқа сахнада эса “экранбоп” тарзда намоён этиш керак бўлади.

3. Vaqt va tafsilotlar

Театр спектакли — бу бир маротабадаги тўлиқ ижродир. Актер сахнада бошидан охиригача образни узлуксиз, реал вақтда намоён этади. Бу узлуксизлик актёрдан образнинг ички динамикасига бутунлай кириб боришни, характерни тўлиқ сақлашни талаб қилади. Унинг ҳаракати, ҳиссиёти, овози ва эмоциялари спектакль давомида узвий боғланиб бориши керак.

Кинода эса бир хил сахна бир неча марта, турли кунларда ва турли бурчаклардан суратга олиниши мумкин. Бу актёрдан юқори даражадаги ихчам хотира, интизом, ва ҳиссий барқарорликни талаб қилади. У бир неча кундан кейин ҳам, аниқ бир ҳаракат ёки туйғуни такрор равишда англаб ва ифода эта олиши керак.

Шу нуқтаи назардан, кино актёри «эпизодлар» асосида ишлайди, ҳар бир кадрда юқори даражадаги таъсирни бериши лозим. Бу актёрдан рольни нафақат тўғри тушуниш, балки аниқ ҳиссий “қайта ишлаб чиқиш” қобилиятини талаб қилади.

4. Texnik imkoniyatlar

Кино санъати техник жиҳатдан анча кенг имкониятларга эга. Монтаж, саундтрек, йоритиш, кадр танлови, визуал эффектлар ва грим орқали образни янада таъсирчан кўринишга келтириш мумкин. Масалан, биргина кўз ёши ёки кўз қариши махсус яқин кадрда намоён этилиб, кучли ҳиссий таъсирга эришилади.

Театрда эса бу каби техник имкониятлар чекланган. Барча таъсирни актернинг жисмоний ва ҳиссий маҳоратлари, сценография, жонли овоз ва ҳаракатлар таъминлайди. Театрда техник эффектлардан кўра, жонли ифода ва контакт устувор ҳисобланади.

Шу сабабли, кино актиёри техник воситалар ёрдамида образни кучайтирса, театр актёри барча драматик таъсирни ўз қобилияти орқали намоён этади.

Йиғилган барча таҳлиллардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, театр ва кинода образ яратиш жараёни турлича усуллар, муҳит ва техник шароитларга эга бўлса-да, ҳар иккаласи актёрдан юксак профессионал маҳоратни талаб қилади. Театр актёри жонли ижро маҳоратига, юксак сахнавий кучга эга бўлиши лозим бўлса, кино актёридан ҳиссий барқарорлик, ҳаракат назорати ва табиийлик талаб қилинади.

Замонавий актёр ҳар икки майдонда фаолият олиб бориши учун, уларнинг фарқларини тўлиқ англаши ва ўз ижросини мутаносиб равишда мослаштириш қобилиятига эга бўлиши лозим. Театр ва кино санъати — бир-бирини тўлдирадиган ва бойитадиган ижодий маконлардир.

Xulosa. Teatr va kino san'atlari bir-birini boyitadigan, ammo o'ziga xos tamoyillarga ega bo'lgan turli yo'nalishlardir. Ularning obraz yaratish jarayonidagi umumiy jihatlari — aktyorning

ruhiy holat, xarakter, va dramatik kuch orqali obrazga jon kiritishidir. Farqlari esa ijro texnikasi, auditoriya bilan aloqa shakli va vositalar bilan bog'liqdir. Har ikki san'at turini o'rgangan aktyor ko'p qirrali va kuchli ijodkorga aylanadi. Shu sababli teatr va kinoni uyg'un o'rgatish, nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'zlashtirish zamonaviy aktyor tayyorlashda muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stanislavskiy K.S. «Akterlik mahoratining asoslari». – Moskva: Iskustvo, 1989.
2. Meyerxold V.E. «Teatr va texnika». – Moskva: GITIS, 2003.
3. Yunusova M. «Teatr va kinoda aktyorlik mahoratlari». – Toshkent: San'at, 2018.
4. Nazarov J. «Kino rejissurasi va aktyorlik». – Toshkent: Ijod, 2019.
5. Mamarasulov A. «San'at nazariyasi va amaliy jihatlari». – Toshkent: Madaniyat, 2017.
6. Barabanov P.A. «Kinosan'atda obraz va dramaturgiya». – Sankt-Peterburg: Lenizdat, 2010.
7. Xodjaev A. «Teatr psixologiyasi». – Toshkent: Fan va texnika, 2020.
8. Uspenskiy V. «Ekrandagi harakat». – Moskva: VGIK, 2005.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. «Aktyorlik mahoratidan o'quv qo'llanma». – Toshkent: 2022.
10. Barsam R. «Looking at Movies: An Introduction to Film». – New York: W. W. Norton & Company, 2016.
11. Cohen R. «Acting Power». – London: Routledge, 2002.
12. Bogart A. «A Director Prepares: Seven Essays on Art and Theatre». – London: Routledge, 2001.

РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТИДАН Фойдаланган ҳолда ўзгарувчан ток занжиридаги кучланишлар резонансини визуализация қилиш

*Захидова Мавлюда Абдукаримовна, Гиясова Зухра Рахматуллаевна,
Ўзбекистон миллий университети. Профессор, ф-м. ф. д.
Ўзбекистон миллий университети тадқиқотчиси*

Аннотация: Мазкур мақола физика таълимида рақамли технологияларнинг дидактик салоҳиятини таҳлил этишга бағишланган. Замонавий таълим тизимида рақамли технологияларнинг ўрни ва афзалликлари кўриб чиқилиб, уларнинг ўқув жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқишдаги аҳамияти асослаб берилган. Тадқиқот доирасида ўзгарувчан ток занжирида кучланишлар резонанси ҳодисасини ўргатишда Desmos график калкулятори каби рақамли воситалардан фойдаланишнинг амалий жиҳатлари таҳлил қилинган. Desmos калкулятори қўлланилишининг талабалар томонидан мавзунини чуқур ўзлаштириш, фаол ўрганиш муҳитини яратиш, амалий кўникмаларни ривожлантириш, таълим жараёнини қизиқарли ва самарали таъкил этиш, шунингдек, билимларни баҳолаш ва тезкор фикр-мулоҳаза олиш имкониятларини таъминлаш каби афзалликлари кўрсатиб ўтилган. Ушбу тадқиқот натижалари физика таълимида рақамли технологиялардан самарали фойдаланиш йўллари аниқлаш ва ўқув жараёнини такомиллаштиришга хизмат қилади.

Калит сўзлар: графиклар, рақамли технологиялар, физика, кучланишлар резонанси, амплитуда, фазалар фарқи, актив қаршилик, резонанс частота

ВИЗУАЛИЗАЦИЯ РЕЗОНАНСА НАПРЯЖЕНИЙ В ЦЕПИ ПЕРЕМЕННОГО ТОКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ДИДАКТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Захидова Мавлюда Абдукаримовна, Гиясова Зухра Рахматуллаевна,
д.ф-м.н., профессор. Национальный университет Узбекистана,
научный исследователь Национальный университет Узбекистана,*

Аннотация: Данная статья посвящена анализу дидактического потенциала цифровых технологий в обучении физике. Рассмотрены роль и преимущества цифровых технологий в современной системе образования, обоснована их значимость в качественном преобразовании учебного процесса. В рамках исследования проанализированы практические аспекты использования цифровых инструментов, таких как графический калькулятор Desmos, при изучении явления резонанса напряжений в цепи переменного тока. Отмечены преимущества применения калькулятора Desmos, в частности, углубленное усвоение темы студентами, создание активной учебной среды, развитие практических навыков, организация интересного и эффективного образовательного процесса, а также обеспечение возможности оценки знаний и получения оперативной обратной связи. Результаты данного исследования способствуют определению путей эффективного использования цифровых технологий в обучении физике и совершенствованию учебного процесса.

Ключевые слова: цифровые технологии, физика, резонанс напряжений, амплитуда, разность фаз, активное сопротивление, резонансная частота

VISUALIZATION OF VOLTAGE RESONANCE IN AN ALTERNATING CURRENT CIRCUIT USING THE DIDACTIC POTENTIAL OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Zakhidova Mavlyuda Abduraimovna, Giyasova Zuhra Rakhmatullaevna,

d. of ph-m., Professor, National University of Uzbekistan

scientific researcher, National University of Uzbekistan

Abstract: This article is devoted to the analysis of the didactic potential of digital technologies in physics education. The role and advantages of digital technologies in the modern education system are considered, and their importance in the qualitative transformation of the educational process is substantiated. Within the framework of the study, the practical aspects of using digital tools, such as the Desmos graphing calculator, in the study of the phenomenon of voltage resonance in an alternating current circuit are analyzed. The advantages of using the Desmos calculator are noted, in particular, the in-depth assimilation of the topic by students, the creation of an active learning environment, the development of practical skills, the organization of an interesting and effective educational process, as well as ensuring the possibility of assessing knowledge and obtaining prompt feedback. The results of this study contribute to identifying ways to effectively use digital technologies in physics education and improve the educational process.

Keywords: digital technologies, physics, voltage resonance, amplitude, phase difference, active resistance, resonant frequency

Бугунги кунда фан ва техниканинг мисли кўрилмаган суръатларда ривожланиши физика фанининг жамият ҳаётидаги ўрнини тобора мустаҳкамлаб бормоқда. Табиатнинг фундаментал қонунларини ўрганишга йўналтирилган физика фани нафақат бошқа табиий фанларнинг ривожланишига асос бўлибгина қолмай, балки замонавий технологияларнинг яратилиши ва тараққиётида ҳам муҳим рол ўйнайди. Шу боис, таълим тизимида физика фанини сифатли ва самарали ўқитиш ўқувчиларнинг илмий дунёқарашини шакллантириш, уларда мантикий фикрлаш, муаммоларни мустақил ҳал этиш ва тадқиқотчилик каби муҳим кўникмаларни ривожлантиришнинг зарурий шартидир [1].

Аммо шуни таъкидлаш жоизки, анъанавий ўқитиш усуллари ҳар доим ҳам ўқувчиларнинг диққатини тўлиқ жалб қилавермайди ва уларнинг фаол иштирокини таъминлашда етарли бўлмаслиги мумкин. Бундан ташқари, физика бўйича лаборатория машғулотларини замонавий талаблар даражасида ташкил этиш учун зарур бўлган ускуналар ва материалларнинг етишмаслиги ҳам ўқув жараёнига ўзининг салбий таъсирини кўрсатиши мумкин.

Ушбу мақоланинг мақсади физика фанини ўқитиш жараёнида рақамли технологияларнинг мавжуд дидактик имкониятларини ҳар томонлама очиб бериш ва улардан ўқув жараёнида самарали фойдаланиш йўллари кўрсатишдан иборат бўлиб, бу иш аввал бу борада қилинган ишларимизнинг [2-3] мантикий давомидир.

Замонавий таълим тизимида рақамли технологияларнинг кенг қўлланилиши ўқув жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқмоқда. Ушбу технологияларнинг дидактик имкониятлари кўп қиррали бўлиб, ўқитувчилар ва талабалар учун бир қатор афзалликларни тақдим этади. Бунинг исботи сифатида биз ушбу мақолада ўзгарувчан ток занжирида кучланишлар резонанси деб аталувчи мавзунини ёритишда рақамли технологияларнинг дидактик имкониятидан фойдаланишга ҳаракат қиламиз.

Резонанс ходисаси радиотехника ва электротехникада асосан электр сигналларни филтрлашда, яъни жуда кўп сигналлар орасидан керакли сигнални кучайтириб ажратиш олишда ишлатилади. Ушбу мавзунини ўқитиш жараёнида Desmos калкуляторининг дидактик имкониятларидан фойдаланиш орқали бир қатор ижобий натижаларга эришиш мумкин:

Desmos кучланишнинг частотага боғлиқлигини кўрсатувчи резонанс эгри чизиқларини


аниқ ва интерактив тарзда чизиш имконини беради;

занжир элементларининг (индуктивлик, сиғим, қаршилик) қийматлари ўзгариши билан резонанс эгри чизиғининг шакли ва жойлашуви қандай ўзгаришини реал вақтда кузатиш мумкин. Бу талабаларга ҳар бир параметрнинг резонанс ҳодисасига таъсирини интуитив тушунишга ёрдам беради.

талабалар Desmos интерфейси билан ишлаш, функцияларни киритиш, графикларни таҳлил қилиш орқали математик ва визуал кўникмаларини ривожлантирадилар.

Ўқув жараёнида рақамли технологиялардан фойдаланиш, дарсларнинг самарадорлигини ошишига олиб келишига шубҳа қилмаса ҳам бўлади. Бунинг учун ундан қаерда, қачон ва қай даражада фойдаланиш кераклигини билиш керак, чунки ундан кўр кўрона дуч келган жойда фойдаланиш ҳамма вақт ҳам кутилган натижаларни бермаслиги мумкин. Аввало мазкур ишда биз кучланишлар резонанси мавзуси бўйича амалий машғулотларда рақамли технологиялардан фойдаланиш орқали яхшигина натижаларга эришиш мумкинлиги устида тўхталиб ўтамиз. Дастлаб мавзунинг назарияси устида қисқача тўхталиб ўтсак фойдадан холи бўлмайди деб ўйлаймиз.

Кучланишлар резонансини ўзгарувчан ток манбаига ўзаро кетма-кет уланган бирор C сиғимли конденсатор ва актив қаршилиги R га, индуктивлиги L бўлган индуктив ғалтакдан ташкил топган электр занжирда кузатиш мумкин (1-расм).



1-расм. Ўзгарувчан ток занжири

Занжир параметрларини аниқлашнинг энг осон усулларида бири бу вектор диаграммалар усулидир. Бунинг учун актив қаршиликдан, конденсатордан ва индуктив ғалтакдан ўтувчи ток кучи I нинг тебранишлари билан улардаги кучланишлар тебранишлари орасидаги фазалар фарқини билиш керак бўлади. R, C ва L лар ўзаро кетма-кет улангани сабабли улардан ўтувчи кучланишларининг қийматлари бир хил бўлади ва улар бирдай фазада тебранади:

$$I = I_0 \sin(\omega t) \quad (1)$$

Лекин кучланиш тебранишларининг ток кучи тебранишларига нисбатан фазалар фарқи турлича бўлади [4-5]:

Актив қаршиликда ток кучи ва кучланиш бирдай фазада тебранади;

Конденсатордаги кучланиш тебранишлари ток кучи тебранишларидан фаза бўйича $\pi/2$ га орқада қолади;

Ғалтакдаги кучланиш тебранишлари ток кучи тебранишларидан фаза бўйича $\pi/2$ қадар олдинда бўлади.

Юқорида айтилганларни эътиборга олиб бу элементлардаги кучланиш тебранишлари учун қуйидагиларни ёзса бўлади:

$$U_R = U_{OR} \sin(\omega t) \quad (2)$$

$$U_C = U_{OC} \sin(\omega t - \pi/2) \quad (3)$$


$$U_L = U_{OL} \sin(\omega t + \pi/2) \quad (4)$$

Бу тенгламалардаги U_{OR} , U_{OC} ва U_{OL} лар мос равишда R, C ва L лардаги кучланишларнинг амплитудавий қийматларидир. Ўзгарувчан ток учун Ом қонунидан

фойдаланиб кучланишларнинг амплитудавий қийматларини қуйидаги кўринишда ифодалаймиз:

$$U_{OR}=I_0 R; U_{OC}=I_0/\omega C; U_{OL}=I_0 \omega L$$

$$U_{OR} = I_0 R; \quad U_{OC} = \frac{I_0}{\omega C}; \quad U_{OL} = I_0 \omega L$$



2-расм. Вектор диаграмма

Кучланишлар тебранишларнинг амплитудаси U_{OR} ни аниқлаш учун 2-расмда тасвирланган вектор диаграммадан фойдаланамиз. Актив қаршиликдаги кучланиш тебранишлари ток кучи тебранишлари билан бир йўналишда бўлгани сабабли вектор диаграммада уларнинг йўналиши мос тушади. U_{OL} ва U_{OC} ларнинг йўналишлари ток ўқига тик йўналган бўлади. C ва L даги кучланишлар қарама қарши фазода тебрангани учун улардаги умумий кучланиш амплитудасини қуйидаги кўринишда ифодаласа бўлади:

$$U_{CL}=U_{OL}-U_{OC}=I_0 (\omega L-1/\omega C) \quad (6)$$

Пифагор теоремасидан фойдаланиб (2 – расмга қаранг) натижавий кучланиш тебранишларининг амплитуда қиймати учун қуйидагини оламиз:

$$U_O=\sqrt{U_{OR}^2+(U_{OL}-U_{OC})^2}=I_0 \sqrt{R^2+(\omega L-1/\omega C)^2} \quad (7)$$

бу ерда U_{OR} -умумий кучланиш актив ташкил этувчисининг амплитуда қиймати; $U_{CL}=(U_{OL}-U_{OC})$ - умумий кучланиш реактив ташкил этувчисининг амплитуда қиймати. 2-расмдан фойдаланиб, ток ва кучланиш тебранишлари орасидаги фазалар фарқини ҳам топса бўлади

$$\tan \varphi = (\omega L - 1/\omega C)/R \quad (8)$$


U_O ва φ ларнинг қийматлари маълум бўлса, у ҳолда умумий кучланишнинг тебранишлари учун ушбу ифодани ёзса бўлади:

$$U=U_O \sin(\omega t + \varphi) \quad (9)$$

Ўзгарувчан ток учун Ом қонунини ток ва кучланишнинг фақат амплитудавий қийматлари учун қўллаш мумкин бўлганлиги сабабли, (7) ифодадан фойдаланиб занжирнинг умумий қаршилигини топиш мумкин:

$$R_u=U_O/I_0=\sqrt{R^2+(\omega L-1/\omega C)^2} \quad (10)$$


Олдиндан шу нарсани қайд қилиб ўтиш лозимки, занжирда резонанс юз берганда ток кучи ва кучланиш тебранишлари орасидаги фазалар фарқи 0 га тенг бўлади (3-расм); занжирнинг тўлиқ қаршилиги минимал бўлади; энг муҳими индуктив ғалтакдаги (ёки конденсатордаги) кучланишнинг амплитуда қиймати U_O дан бир неча баробар катта бўлиб қолади.




3- расм. Ток кучи ва кучланиш тебранишлари орасидаги фазалар фарқининг тебранишларнинг частотаси ω га боғлиқлиги

Агар тебранишларнинг частотаси ω ни ошира борсак, занжирнинг умумий қаршилиги R_{Σ} , ток кучи I_0 , фазалар фарқи φ , шунингдек индуктив ғалтакнинг ва конденсаторнинг реактив қаршиликлари ва кучланишлари ўзгаради. Частота ўзгарганда юз берадиган жараёнларни тўлақонли тасаввур қилиш учун Desmos графикли калкуляторидан фойдаланиб, мавзуга оид баъзи бир графикли масалаларни кўриб чиқамиз. 4-расмда индуктив ($R_L = \omega L$) ва сизим ($R_C = 1/\omega C$) қаршилигининг ω га боғлиқлиги келтирилган.

4-расм. Индуктив (R_L) ва сизим (R_C) қаршилигининг тебраниш частотаси ω га боғлиқлиги






5-расм. Умумий қаршиликнинг циклик частотага боғлиқлиги

5-расмда эса умумий қаршиликнинг циклик частотага боғлиқлиги келтирилган. 3-расмда графиклар кесишадиган нуктага, 4-расмда эса графикнинг минимумига мос келадиган частоталар бир хил бўлиб, бу частоталар резонанс частота дейилади ва бу частота занжирнинг хусусий тебранишлар частотасига тенг бўлади:

$$\omega_0 = 1/\sqrt{LC} \quad (11)$$

Бў частотада ток ва кучланиш тебранишлари орасидаги фазалар фарқи нолга тенг бўлади, индуктив ғалтакдаги кучланишнинг амплитуда қиймати эса максимал бўлади (6-расмга қаранг). 5-расмдаги графикларга резонанс эгри чизиқлари дейилади. Резонанс частотадаги кучланишнинг қиймати актив қаршилик камайиши билан ортиб боради.



6-расм. Резонанс эгри чизиқлари

Резонанс частотада конденсатор ва индуктив ғалтакдаги кучланишларнинг амплитуда

қийматлари бир хил бўлади. Аммо улар қарама-қарши фазада тебранганлиги учун уларнинг йиғиндиси нолга тенг бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, Desmos графикли калкуляторидан фойдаланиш кучланишлар резонанси мавзусини ўқитишда қуйидаги муҳим натижаларга олиб келиши мумкин:

- Талабаларнинг мавзунини чуқурроқ ва яхшироқ тушуниши.
- Фаол ва интерактив ўрганиш муҳитини яратиш.
- Амалий кўникмаларни ривожлантириш.
- Ўқитиш жараёнини янада қизиқарли ва самарали қилиш.
- Тушунишни баҳолаш ва тезкор фикр-мулоҳаза олиш имкониятини яратиш.

Анъанавий усуллар ёрдамида юқоридаги графикларни чизиш жуда кўп вақт олади. Рақамли технологиялар асосида эса бу графикларни жуда қисқа вақт ичида олиш мумкин. Бундан ташқари олинган графиклардан маъруза дарсларида ҳам фойдаланса бўлади.

Адабиётлар

Муртазоев, А. С. (2022). Дидактические возможности использования цифровых технологий в образовательном процессе. International conferences, 1(2), 54–58. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/189>

Zaxidova M.A. Giyasova Z.R Masalaning umumiy yechimidan xususiy yechimiga o'tish //«Fan va jamiyat» 2022 (№3) ISSN 2010-720X ,35-37 betlar

Р.М. Абдуллаев, М. А. Захидова, З.Р. Гиясова. Новые эффективные методы для решения графических задач по физике // “Касб-хунар таълими” илмий -услугий амалий, маърифий журнали 2024 йил № 11, ISSN 2010-7498, 182-187 стр.

N.Sh.Turdiyev va boshq., 2018, Fizika 11-sinf. © “Niso Poligraf” nashriyoti

Калашников, Сергей Григорьевич. Электричество : учебное пособие для студентов физических специальностей высших учебных заведений / С. Г. Калашников. — Изд. 6-е, стер. — Москва : Физматлит, 2008. — 624 с. : ил., табл. : 22 см.; ISBN 978-5-9221-0900-0 (В пер.)

KASBIY MOSLASHUV VA KASBIY FAOLIYAT MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILLARI

*Shodiyeva Rayxon Saydullaevna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Yosh mutaxassislar yangi jamoaga kirib kelganlarida ularda birinchi navbatda muassasa faoliyatiga nisbatan moslashuv ko'nikmasi asta-sekinlik bilan shakllana boshlaydi. Korxona faoliyatida yangi kirib kelgan mutaxassislar uchun shu korxonaning nizomi, odat va qadriyatlariga moslashish ko'nikmasi paydo bo'la boshlaydi. Rivojlanish jarayonida korxona doimiy ravishda yangi kadrlarga muhtoj bo'lib: korxonaning kelajagi bu mutaxassislarning qanchalik professional, malakali va faol ekanligiga bog'liq, chunki inson kapitali uning asosiy qadriyatidir. Yosh mutaxassislar imkon qadar tezroq samarali ishlashni boshlashlari uchun moslashish choralarini ko'rish kerak bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: kasb, kasbiy faoliyat, kasbiy moslashuv, boshlang'ich, tayyorgarlik, moslashish bosqichlari.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Шодиева Райхон Сайдуллаевна,
Соискатель Ташкентского государственного педагогического университета им.
Низами*

Аннотация: По мере вхождения молодых специалистов в новый коллектив у них постепенно начинают формироваться навыки адаптации, прежде всего к деятельности учреждения. В деятельности предприятия у вновь поступающих специалистов начинает формироваться навык адаптации к уставу, привычкам и ценностям этого предприятия. В процессе своего развития предприятие постоянно нуждается в новых кадрах: от того, насколько профессиональны, квалифицированы и активны эти специалисты, зависит будущее предприятия, ведь человеческий капитал является его главной ценностью. Необходимо будет принять меры по адаптации, чтобы молодые специалисты как можно скорее начали работать эффективно.

Ключевые понятия: профессия, профессиональная деятельность, профессиональная адаптация, начальные, подготовительные, этапы адаптации.

THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF PROFESSIONAL ADAPTATION AND PROFESSIONAL ACTIVITY

*Shodiyeva Raykhon Saydullaevna,
Researcher of the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

Abstract: As young professionals join a new team, they gradually begin to develop adaptation skills, primarily to the activities of the institution. In the company's activities, newly enrolled specialists begin to develop the skill of adapting to the charter, habits and values of this enterprise. In the process of its development, the company constantly needs new personnel: the future of the company depends on how professional, qualified and active these specialists are, because human capital is its main value. Adaptation measures will need to be taken so that young professionals can start working effectively as soon as possible.

Key concepts: profession, professional activity, professional adaptation, initial, preparatory, stages of adaptation.

Korxona faoliyati samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida tashkilotning yosh mutaxassislarini moslashtirish jarayoni zamonaviy jamiyatning eng muhim ijtimoiy-psixologik muammolaridan biri yosh mutaxassislarni moslashtirish muammosidir. Moslashuvning har xil turlari mavjud: – biologik; – shaxsiy; – ijtimoiy-psixologik, psixologik.

Yosh mutaxassisning kasbiy moslashuvi - bu faoliyatga o'ziga xos "kirish", shaxsning kasb talablariga ko'nikishi, mehnat faoliyatini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan qoidalar, an'analar va xatti-harakatlar normalarini o'zlashtirishi jarayonidir. Kasbiy faoliyat zamonaviy inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Insonning kasbiy martabasining uyg'un rivojlanishi uning qanchalik muvaffaqiyatli moslashuviga bog'liq. Ma'lumki, ishning birinchi yillari eng qiyin hisoblanadi, chunki shaxsning kasbiy moslashuvi sodir bo'ladi va shaxsning kasbiy rivojlanishida kuzatiladi.

"Moslashish" atamasini birinchi marta 19-asrda G.Obert kiritgan. U so'nggi lotincha "adaptatio" (moslashish) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, biologiya fanlarida turli hayot shakllari evolyutsiyasini tasvirlash uchun keng qo'llanilgan. Keyinchalik moslashish jarayoni ko'plab fanlar, jumladan, psixologiya tadbqiqot obyekti sifatida aylandi.

"Moslashish" tushunchasini talqin qilishda ikkita yondashuv mavjud [1]. Bir tomondan, moslashish ichki dinamik jarayon sifatida, inson tanasining o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga moslashishini ta'minlaydigan ma'lum bir xususiyat sifatida qaraladigan bo'lsa, boshqa tomondan, moslashishni tashkiliy va boshqaruv choralari tizimi sifatida aniqlash mumkin, uning maqsadi mutaxassislarning korxona faoliyatiga kirishishini osonlashtirishdir.

A.V. Siomichev moslashishni "o'zgargan mavjudlik sharoitida individual va shaxsiy fazilatlarini inson hayoti va faoliyatiga moslashtirish jarayoni" deb ta'riflaydi. Bundan tashqari, u moslashish - bu "yangi ijtimoiy muhitga kirish, guruh ichidagi munosabatlarni o'rnatish, ta'limning yangi shakllariga moslashish qiyinchiliklarini engish" deb ta'kidlaydi [2].

A.L.Matskevichning ta'kidlashicha, moslashish - bu "shaxsning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri, shaxsning faollik darajasiga qarab, atrof-muhitni shaxsning ehtiyojlari, qadriyatlari va ideallariga muvofiq ravishda o'zgartirishga olib keladigan jarayon bo'lib, shaxsning atrof-muhitga qaramligining ustunligi" [3].

A.A. Nalchadjyan moslashishni ijtimoiy-psixologik jarayon deb hisoblaydi, agar qulay bo'ladigan bo'lsa, shaxsni moslashish holatiga olib keladi [4].

A.Y.Kibanov esa moslashuv bilan bog'liq quyidagi ta'rifni beradi: "Mutaxassislarning mehnatga moslashuvi - bu mutaxassisni ishlab chiqarish jarayoniga bosqichma-bosqich yangi kasbiy, psixofiziologik, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-maishiy va ijtimoiy-ma'rifiy xususiyatlarni kiritish asosida mutaxassis va tashkilotning o'zaro moslashuvi" [5].

Bizning fikrimizcha, moslashish - bu mutaxassisning tashkilot va uning yangi mehnat majburiyatlari bilan tanishish jarayoni, shuningdek, insonning ish joyiga va jamoaga faol moslashish jarayoni degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Moslashuv va moslashish tushunchasini ajratib ko'rsatish kerak. Moslashuvchanlik deganda biz shaxsning umumiy moslashish qobiliyati, ma'lum bir jamiyatning me'yorlari va qadriyatlarini belgilash orqali jamiyatda mavjud bo'lgan talablar va baholash mezonlariga moslashish qobiliyatini tushunamiz.

Ishga kirishda mutaxassis ma'lum bir tashkilotning ijtimoiy-psixologik va kasbiy munosabatlar tizimida faol ishtirok etadi, u uchun yangi ijtimoiy rollar, me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, shaxsiy maqsadlarini tashkilotning maqsad va vazifalari bilan muvofiqlashtiradi, mehnat jamoasi, shu bilan o'z xatti-harakatlarini ushbu tashkilotlarning xizmat ko'rsatish nizom va qoidalariga bo'ysundirib boradi.

Yosh mutaxassislarni yangi korxona faoliyatiga moslashuvi, asosan, quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

-birinchi bosqich-tayyorgarlik. Ushbu bosqichda yosh mutaxassislarning faoliyatida noaniqliklar

kuzatiladi. Chunki ularda ko‘pincha nima kutayotganini bilmasligidan qo‘rquv hissi bilan ishga keladi. Bu bosqichda yosh mutaxassislarda hayot stereotiplarining o‘zgarishi, o‘rganish va boshqalar bilan munosabarga yangi dunyoqarashning shakllanishi bilan birga keladi.

-ikkinchi bosqich-moslashish jarayonining boshlanishi debhisoblash mumkin bo‘lgan boshlang‘ich psixologik stress bosqichi. Bu bosqichda inson resurslarining ichki safarbarligi mavjud bo‘lib, ular keyinchalik o‘zgargan mavjud sharoitda aqliy faoliyatning yangi darajasini tashkil etish imkoniyati paydo bo‘ladi. T.I.Popova shaxs moslashuvining quyidagi bosqichlarini ko‘rsatib beradi:

-boshlang‘ich bosqich, ya’ni shaxs yoki guruh o‘zlari uchun yangi ijtimoiy muhitda o‘zini qanday tutishi kerakligini anglab etib, yangi muhitning qadriyatlar tizimini tan olishga va qabul qilishga hali tayyor bo‘lmaydilar va bu jarayon ularda oldingi qadriyatlar tizimiga rioya qilishga intilish hissining ustunligini ta’minlaydi;


-shaxs, guruh va yangi muhit bir-birining qadriyatlar tizimi va xulq-atvor namunalariga o‘zaro tolerantlikni namoyon qilish bosqichi [6].

Yosh mutaxassislarning kasbiy faoliyatga moslashish jarayonini jadallashtirish muammosiga e’tibor qaratilar ekan birinchi navbatda mutaxassislarning shaxsning individual psixologik xususiyatlariga diqqat qaratish muqasadga muvofiq. Yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuv jarayonini diagnostika qilish jarayonida kuzatish, tahlil qilish kabi usullardan foydalanish orqali mutaxassislarning individual psixologik xususiyatlarini o‘rganib ularni moslashuviga yordam berish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Moslashuv jarayonini muvaffaqiyati quyidagi jihatlar bilan chambarchas bog‘liq:

- mutaxassisning guruh faoliyatida ishtirok etishi;
- yuqori ijtimoiy mavqe va guruh tomonidan ijobiy hissiy qabul qilish;
- qaror qabul qilishda mustaqillik, o‘z fikrini himoya qila olish ko‘nikmasi;
- yuqori darajadagi kommunikativlik xususiyatlari;
- kasbiy faoliyat doirasida mavjud ehtiyojlarini qondira olish ko‘nikmasi;
- psixosomatik farovonlik hissi va shaxsining samarali faoliyati uchun zarur bo‘lgan boshqa mezonlarning faoliyati bevosita yosh mutaxassislarni kasbiy moslashuvini jadallashtirishga yordam beradi.

Yosh mutaxassislarning moslashuv davri odatda tashkilotda o‘rnatilgan moslashish dasturiga qarab uch oydan olti oygacha davom etadi. Bu 1-rasmda ko‘rsatilgan bir qator sabablarga ko‘ra mutaxassisning tashkilotni tark etishiga sabab bo‘luvchi omillar.



1-rasm. Moslashuv davrida yosh mutaxassislarni korxonada faoliyatini tugatishga sabab bo'luvchi sabablar

Yuqoridagi rasmda keltirilgan potentsial tahdidlar bilan bog'liq holda, mutaxassislarni moslashtirishning roli oshadi:

- kasbiy ma'noda (o'zining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini ochib berish va amaliyotda qo'llashda);
- tashkiliy jihatdan (tashkilotning asosiy maqsad va vazifalari, shuningdek, mutaxassis ishlaydigan bo'lim haqida g'oyani shakllantirishda);
- ijtimoiy nuqtai nazardan (mutaxassisning tashkilotga sodiqlik va sadoqat hissini rivojlantirishda).

Mutaxassislarni moslashtirish dasturini tashkil etuvchi maxsus protseduralar to'plami xavflarni kamaytirishga va ish boshida yuzaga keladigan muammolarni minimallashtirishga yordam beradi. Bunga erishish uchun tashkilot mutaxassislarni moslashtirish jarayonini boshqaradi.

Moslashuv jarayonini boshqarish moslashuv jarayoni va vaqtini belgilovchi omillarga faol ta'sir ko'rsatish, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni kamaytirishdir. Moslashish jarayonini rejalashtirayotganda, tashkilotning mavjud imkoniyatlaridan (xususan, mehnat sharoitlari, mehnatni tashkil etish, ish vaqti va boshqalar) va mutaxassisni o'zgartirish bo'yicha cheklovlardan (muayyan qobiliyatlarni rivojlantirishda, yomon odatlardan xalos bo'lishda va boshqalardan) kelib chiqish kerak.

Shuningdek, mutaxassisning yangi va oldingi ish joyi, yangi va oldingi kasbining o'ziga xos xususiyatlari o'rtasidagi farqlarni hisobga olish kerak, chunki ular yangi ish joyida mutaxassisning kasbiy moslashuviga jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mutaxassislarning yangi ish joyiga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlash uchun maxsus ishlab chiqilgan moslashish dasturi qo'llaniladi. U umumiy dasturni ham, maxsus dasturni ham o'z ichiga olishi mumkin. Umumiy moslashish dasturi butun tashkilotga tegishli va quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi:

- tashkilotning umumiy g'oyasi (tarix, an'analar, me'yorlar va standartlar, faoliyat turlari, maqsadlar va ustuvorliklar, tashkiliy tuzilma, yuqori boshqaruv to'g'risidagi ma'lumotlar);
- tashkiliy siyosat (kadrlar siyosati va kadrlarni tanlash tamoyillari, ishga joylashish muddatlari

va shartlari, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish sohalari, kasaba uyushmalarining vazifalari, tijorat sirlarini saqlash siyosati);

- mehnatga haq to'lash (mehnatga haq to'lash shakllari, dam olish kunlari va qo'shimcha ish haqini to'lash, bonuslar);

- qo'shimcha imtiyozlar (sug'urta turlari, kasallik nafaqalari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari, ish joyida o'qitish imkoniyatlari, imtiyozli kreditlar);

- mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik (birinchi tibbiy yordam ko'rsatish joylari, ish joyidagi ehtiyot choralari, yong'in xavfsizligi qoidalari, baxtsiz hodisalarda o'zini tutish qoidalari).

Umumiy moslashish dasturiga qo'shimcha ravishda, mutaxassis ishga qabul qilingan bo'lim yoki ma'lum bir ish joyiga tegishli masalalarni o'z ichiga olgan maxsus moslashish dasturi mavjud bo'lib, ushbu dastur quyidagi savollarni o'z ichiga oladi:

- bo'lim funksiyalari (maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari, tuzilmasi, faoliyat yo'nalishlari, boshqa bo'limlar bilan aloqalari);

- mehnat vazifalari va majburiyatlari (joriy ish va kutilayotgan natijalarning batafsil tavsifi, ish kuni va jadvalining davomiyligi, bajarilgan ish sifati va kutilayotgan natijalar standartlari);

- faqat ma'lum bir ish turiga yoki ma'lum bir bo'linmaga xos bo'lgan tartiblar, qoidalar, qoidalar (baxtsiz hodisalarda xatti-harakatlar, xavfsizlik qoidalari, baxtsiz hodisalar haqida xabar berish);

- bo'lim mutaxassislarning taqdimoti.

Mutaxassislarni moslashtirish dasturlarini ishlab chiqishda moslashuv omillarini, ya'ni moslashish jarayonining borishi, vaqti, sur'ati va natijasiga ta'sir qiluvchi shartlarni hisobga olish muhimdir. Omillar ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan obyektiv va mutaxassisning shaxsiyati bilan bog'liq subyektiv omillarga bo'linadi.

Muvaffaqiyatli moslashish shartlariga quyidagilar kiradi:

- mutaxassislarning moslashuv jarayonini boshqarishning yaxshi ishlab chiqilgan mexanizmi;
- tanlash va moslashtirish jarayonida mutaxassislarni baholashda shaffoflik va mantiqiylik;
- ushbu tashkilotda ishlashning nufuzi va jozibadorligi;
- mutaxassislarning motivatsion munosabatlarini amalga oshirish imkonini beruvchi ishni tashkil etish xususiyatlari;

- tashkilotda kadrlar tayyorlash tizimining moslashuvchanligi;

- jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlim, uning xususiyatlari va o'rnatilgan qadriyatlar tizimi;

- mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari (psixologik xususiyatlari, yoshi, oilaviy ahvoli va boshqalar).

Bizning fikrimizcha, to'g'ri ishlab chiqilgan va tashkil etilgan moslashish dasturi bilan, shuningdek, tashkilot tomonidan barcha omillarni hisobga olgan holda moslashish jarayonini samarali boshqarish bilan mutaxassislarning qisqa vaqt ichida ular yangi ish joyiga va jamoaga moslasha oladilar va maksimal samaradorlik bilan ishlay boshlaydilar.

Shu ma'noda aytish mumkinki, yosh mutaxassislarni yangi jamoaga moslashuvini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari nomli tadqiqot ishimizda yosh mutaxassislarning muvaffaqiyatli kasbiy moslashuvini amalga oshirishda eng avvalo ulardagi kasbiy bilim, ko'nikma va shaxsiylik sifatlariga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'lib, kelajakda korxona faoliyatida yetuk mutaxassis kadrlarning yetishib chiqishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Зайцева Т.В., Зуб А.Т. Управление персоналом: учебник / Т.В. Зайцева, А.Т. Зуб. – М.: ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М, 2013. – 336 с.

2. Сиомичев А.В. Психологические особенности адаптации студентов в сфере познания и общения в вузе / А.В. Сёмичев. // Абстрактный. Кандидат наук. пс. н. – Л., 1985. – 17 с.

3. Психологическое обеспечение профессиональной деятельности: теория и практика / Под ред. проф. Г.С. Никифорова. – СПб.: Речь, 2010. – 816 с.
4. Налчаджян А.А. Психологическая адаптация: механизмы и стратегии / А.А. Налчаджян. – 2-е изд., переработанное. и добавить – М.: Эксмо, 2010. – 368 с.
5. Кибанов А.Я. Основы управления персоналом: Учебник. – 2-е издание, переработанное. и добавить. – М.: ИНФРА-М, 2014. – 447 с.
6. Попова Т. И. Психологические проблемы адаптации студентов к университетским условиям // Внедрение Санкт -Петербургского университета. Серия 6: Философия, политология, социология, психология, право, международные отношения. - 2007. – с.22.

TEKNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHINTALABALARINING TEXNIK-KONSTRUKTORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

*Shodiyeva Sitora Ulug'bek qizi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Respublikamizda bugungi kunga kelib ta'lim jarayoni uchun mo'ljallangan ko'plab dasturiy ta'lim vositalari ishlab chiqilib, ularga elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, elektron kutubxonalar, elektron kataloglar, elektron o'quv metodik majmua kabi turli dasturiy ta'lim vositalarini misol qilib keltirish mumkin. O'quv jarayonida dasturiy vositalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishga doir bo'lganlari dasturiy vositalar va bundan faqat o'quv jarayoniga doir bo'lganlari dasturiy ta'lim vositalari deb qo'llaniladi. Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarni texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish modeli o'quv-metodik va didaktik ma'lumot bo'lib, tarkibida o'quv jarayonini ta'minlash vazifasini bajaruvchi o'quv va o'qitish metodikasiga doir ma'lumotlar mavjuddir.

Kalit so'zlar: Texnik-dizayn, kompetensiya, salohiyat, kasbiy kompetensiya, kasbiy faoliyat, qobiliyat, faoliyat, ko'nikma, dizayn, modellashtirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКО-КОНСТРУКТОРСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ПО НАПРАВЛЕНИЮ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Шодиева Ситора Улугбек кизи,
аспирант Бухарского государственного университета*

Аннотация: В нашей стране на сегодняшний день разработано множество программных образовательных средств, таких как электронные учебники, электронные учебные пособия, электронные библиотеки, электронные каталоги, электронные методические комплексы и другие виды программных образовательных средств, предназначенных для учебного процесса. В образовательном процессе программные средства включают в себя: средства для организации и управления образовательным процессом и образовательные средства, предназначенные только для учебного процесса. На базе программных образовательных средств разработана модель развития технико-конструкторской компетенции студентов, которая представляет собой учебно-методическую и дидактическую информацию, содержащую данные о методике учебного процесса и обучении, направленные на обеспечение учебного процесса.

Ключевые слова: Технический дизайн, компетенция, потенциал, профессиональная компетенция, профессиональная деятельность, способности, деятельность, навыки, дизайн, моделирование.

IMPROVEMENT OF THE MODEL FOR DEVELOPING TECHNICAL-DESIGN COMPETENCY OF STUDENTS IN THE FIELD OF TECHNOLOGICAL EDUCATION

*Shodiyeva Sitora Ulug'bek kizi,
PhD student at Bukhara State University*

Annotation: In our country, numerous educational software tools have been developed for the educational process, including electronic textbooks, electronic study guides, electronic libraries, electronic catalogs, and electronic educational methodical collections, among others. In the educational process, software tools include those related to organizing and managing the educational process and those specifically designed for educational purposes. Educational

software tools form the basis of a model for developing students' technical and constructivist competencies, which serves as an educational, methodological, and didactic resource. This model contains information related to educational processes and teaching methodologies that aim to support and enhance the educational process.

Keywords: Technical design, competency, potential, professional competency, professional activity, ability, activity, skill, design, modeling.

“Texnologik ta’lim” yo‘nalishidagi mutaxassis kadrlar bilim darajasi, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi sifatli ta’lim jarayonining mahsuli hisoblanadi.


Jahon taraqqiyotiga mos yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida yoshlarni konstruktorlik va texnika sohasida ta’lim olishlari uchun tizimli ishlar olib borilmoqda. Oliy ta’lim sohasidagi islohotlar, asosan, oliy ta’limga bo‘lgan talabni oshirish va ta’lim sifatini yuqori darajaga olib chiqishga qaratilgan. Bu jarayonda oliy ta’lim muassasalari talabalarining texnik-konstruktorlik bo‘yicha malakalarini oshirish, amaliy tajriba olishlariga imkoniyat yaratish, shuningdek, o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish muhim o‘rin tutadi. Dars mashg‘ulotlarini o‘tkazishda innovatsion yondashuvlar, dasturiy ta’lim vositalardan foydalanish, ayniqsa, amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash j o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Dasturiy ta’lim vositalari asosida talabalarni texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda masofali ta’lim – talabalar konstruktorlikka oid qo‘shimcha bilim olishi uchun mutaxassislik fanlarni o‘qitishda keng foydalaniladi. Dasturiy ta’lim asosida o‘qitishning muhim xususiyatlaridan yana biri bu o‘qituvchi va talabaning bir-birlaridan muayyan masofada turib, vaqt tejab, dars jarayonini erkin amalga oshirish mumkinligini anglatadi. Bunda ta’lim jarayonlarining barcha bosqichlari darsturiy ta’lim vositalari asosida amalga oshiriladi. Keyingi vaqtlarda amalga oshirilayotgan darsturiy ta’lim vositalari orqali masofadan o‘qitish talabalarga o‘quv materiallarining asosiy qismini yetkazib berish va global tarmoqning texnikaviy va dasturiy vositalaridan foydalangan axborotlarni yetkazishdir.

60112300 – Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarini mutaxassislik fanlar bo‘yicha dasturiy ta’lim vositalari asosida texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish modeli mazmunan takomillashtirildi. Ushbu model, bo‘ljak texnologiya fani o‘qituvchisini texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan yangicha yondashuvni ifodalaydi. Modelning asosiy tarkibiy qismlari quyidagi komponentlardan tashkil topgan: “Maqsad”, “Tashkiliy”, “Mazmun”, “Natija” (2.1-rasmga qarang).

Dasturiy ta’lim vositalari asosida talabalarni texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish modeli komponentlari quyidagicha tavsiflanadi:

1-rasm. Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarni texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli



Maqsad komponent

Malaka talablari: Oliy ta'lim muassasalarining 60112300 – Texnologik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning malakalariga qo'yiladigan minimal talablar asosida kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi izohlangan.

Model maqsadi: talabalarni, ya'ni texnik-konstruktorlik kompetentligi rivojlangan bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchisi bilimi darajasini dasturiy ta'lim vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish asosida o'qitishdan iboratdir.

Modelda dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarni texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishdan maqsad, bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarini ilg'or pedagogik yondashuvlar va tamoyillarga asoslanib kreativ fikrlovchi pedagog sifatida shakllantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik, tashkiliy-metodik xususiyatlari o'rganildi.

"Texnologik ta'lim" yo'nalishida o'qitiladigan mutaxassislik fanlardan dars mashg'ulotlarining dasturiy o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlarda ob'yektlar konstruksiyasini tuzish orqali talabalarning mustaqil-ijodiy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayon o'quv materiallarini zamonaviylik, interaktivlik, vizuallik, tizimlilik, individuallik, ijtimoiy sog'lom muhitni yaratish, mustaqillik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi kabi tamoyillarga asoslanadi.

Talabalarning innovatsion sifatlarini rivojlantiruvchi metod, shakl, vosita va texnologiyalarning maqsadli va izchil qo'llanilishi, shuningdek, dasturiy ta'lim vositalari asosida ularning texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish, elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish qobiliyatlarini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Tashkiliy komponent

Kredit-modul tizimi – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

O'quv-metodik va didaktik ta'minot – "Texnologik ta'lim" yo'nalishining o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha tayyorlangan (darslik, elektron darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy majmua) orqali talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish maqsadga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu materiallardan maqsadli va samarali foydalanish orqali talabalarning mustaqil ishlash, innovatsion fikrlash va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar ta'minlanadi.

Yondashuvlar – "Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabalarini texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning (Mantiqiy, evristik, integrativ, tanqidiy, kreativ, innovatsion) yondashuvlar asosida amalga oshirildi.

Tamoyillar - umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan ta'lim jarayonining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi qoidalar va qonunlardir. Ular talabalar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlashga yordam beradi. Ta'lim tizimlari, odatda, ikki asosiy toifaga bo'linadi: o'qituvchiga yo'naltirilgan va talabaga yo'naltirilgan ta'lim. O'qituvchiga yo'naltirilgan ta'lim tizimida, ta'lim jarayoni va o'quv dasturlari o'qituvchi va oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan standartlarga asoslanadi. Bu tizimda talabalar uchun nimani, qanday usulda o'rganish kerakligi aniq belgilangan bo'lib, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari ko'p holatda e'tiborga olinmaydi. Ta'lim jarayoni markazlashtirilgan va qat'iy nazorat ostida tashkil etiladi. O'qituvchi bilimning yagona manbai sifatida qaraladi, va bu tizimda talabalar mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini ifoda etish yoki muammolarni tanqidiy tahlil qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishda cheklovlariga duch kelishadi. Natijada, talabalar o'zlariga qarorlar qabul qilishda va ijodiy fikrlashda erkinlikka ega bo'lmaydi.

Mazmun komponent

Ta'lim shakllari – Auditoriyada: jamoaviy, guruhli, yakka tartibda: ta'limning maqsadi, vositasi, natijasi, o'rni hamda ta'lim subyektlari ishtirokiga ko'ra farq qiladigan dras soatlarining didaktik tavsifi. Dars, seminar mashg'uloti, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, o'yin, nazariy yoki amaliy mashg'ulot dars shakli vositasida qayd etilib, tadqiq qilindi va tavsiflandi. [63; 149-155-b.](Shadiyevaniki)

O'quv-metodik va didaktik ta'minot – "Texnologik ta'lim" yo'nalishining o'quv rejasidagi fanlar katalogi bo'yicha (Darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma, o'quv-uslubiy majmua) maqsadga muvofiq resurslardan samarali foydalanish asosidagi mazmun izohlangan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O'quv-metodik va didaktik ta'minotning nomi va mazmuni

№	Nomi	O'quv-metodik va didaktik ta'minot mazmuni
1	Darslik	Malaka talablariga muvofiq fan dasturi mazmunini barcha mashg'ulotlar bo'yicha to'liq qamrab olgan bo'lib, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik talablarga javob beradigan fanning mavzulari to'liq yoritilgan, o'zlashtirilishiga qaratilgan nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba-sinovlarni qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.
2	O'quv qo'llanma	Malaka talablariga tayangan holda fan dasturining mazmunini mashg'ulot turlarining kamida bittasini yoki bir nechtasini qamrab olgan o'quv nashri.
3	Metodik qo'llanma	Biror bir fanning mavzularni samarali o'qitish metodikasiga qaratilgan qo'shimcha topshiriqlar va darsni qiziqarli tashkil etishiga oid metodik ko'rsatmalar berilgan, ta'lim vositalardan foydalanish usullari aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri hisoblanadi.
4	O'quv-uslubiy majmua	O'quv reja va dasturlarga muvofiq, pedagogik-psixologik, didaktik, metodik, estetik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va darslikning multimediali ilovalarini o'z ichiga oladigan manba.
5	Dasturiy vositalar	Ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha (Elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, elektron o'quv-uslubiy majmua, audio vizual materiallar, animatsiyalar) talabalarni tasavur qilish imkoni bo'lmagan mavzular bo'yicha tayyorlangan 3D animatsiyalar, talabalarni mustaqil ta'lim olishini yanada kengaytirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish maqsadida audio va vizual materiallar, axborotlarni aks ettirish nazariyasi, virtual reallikni loyihalash xususiyatlari, matematik modellashtirish, kompyuter muhitini his qilish psixologiyasi, didaktikaning asosiy tamoyillariga tayangan holda dasturlash asosida ishlab chiqilgan elektron manbalar.
6	Elektron darslik	Fan dasturining mazmunini to'liq qamrab olgan didaktik, estetik talablarga javob beradigan, metodik, pedagogik-psixologik, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan dasturlash asosida ishlab chiqilgan darslikning elektron manbasi.
7	Elektron o'quv	Fan dasturining mazmunini mashg'ulot turlarining kamida

Metodlar – Texnik - konstruktorlik kompetentligi rivojlangan bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilari quyidagi innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanish samarali imkoniyatlarga ega ekanligini e'tirof etish mumkin: "Constructive Design" (Konstruktiv loyiha) "Design Thinking" (Dizayn fikrlash) va "Work in small groups" (Kichik guruhlarda ishlash) metodilari. Ushbu innovatsion ta'lim metodlari talabalarda kredit-modul tizimi asosida malakalarini rivojlantirish va jamoaviy faol ishlashni tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Baholash me'zoni: Talabalar quyidagi me'zoni asosida baholandi:

Ijtimoiylik – (ijtimoiy ong, jamiyatdagi o'z o'rnini tushunish, uning muammolari va ta'lim tizimidagi islohotlardan xabardorlik, shuningdek, jamoada ishlash va guruhdagi ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish qobiliyati).

Kommunikativlik – (pedagogik muloqotga kirishuvchanlik, ta'lim jarayonida o'z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalash, pedagogik etika va o'quvchilar bilan ijobiy muloqot o'rnatish).

Intellectuallik – (kasbiy salohiyat, dunyoqarash, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash, o'z sohasida innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish va mavjud muammolarni hal qilish qobiliyati).

Axborotlilik – (axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, turli manbalardan ma'lumotlarni izlash, yig'ish, tahlil qilish va qayta ishlash, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlash va qo'llash). Bu mezonlar talabalarning har tomonlama rivojlanishini va o'quv faoliyatida erishgan yutuqlarini keng qamrovli baholashga imkon yaratadi, shuningdek, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga tayyorligini o'lchaydi.

Texnik – konstruktorlik kompetentligi rivojlangan bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab jarayon hisoblanib, ushbu jarayonni amalga oshirishda, ta'lim jarayoning modelini takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zhuraev A.R. "Berlin Studies" – Transnational journal of science and humanities. Vol.2 Issue 1.5 Pedagogical sciences. 2022. Pg, 842-848.
2. Zhuraev A.R. "Development of the Future Creativity of Future Technology Teachers on the Basis of an Innovative Approach "Central asian journal of theoretical and applied sciences". Vol. 3 No. 11, 2022 y. Pg, 39-42.
3. A.R. Jo'rayev, Z.D.Rasulova "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini elektron ta'lim resurslardan foydalanib tashkil etish imkoniyatlari "Pedagogik akmeologiya". Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2022 y. Maxsus son. Buxoro sh. 240-246 b.
4. A.R. Jo'rayev, O.O.Xalloqova "Texnologiya darslarini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish "Pedagogik akmeologiya". Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2022 y. Maxsus son. Buxoro sh. 271-278 b.
5. A.P. Жураев, Н.Ш.Шадыева "Совершенствование электронного программного и методического обеспечения учебного процесса по профильным предметам "Ilm sarchashmalari". Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. 2022 y. № 11 . Urganch sh. 111-115 b.
6. A.R. Jo'rayev, X.A.Turayev "Chizma geometriya va muhandislik grafikasini "ubiquitous learning" texnologiyasi asosida o'qitish metodikasi "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar". Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2022 y. № 11. Buxoro sh. 211-217 b
7. A.R. Jo'rayev, F.X. Baychayev, U.I. Bahranova "Fizika fanidan kon-metallurgiya sanoatiga oid kasbiy yo'naltirilgan masalalarni shakllantirish. UzMU xabarlar. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2022 y. № 1/12/1. Toshkent sh. 66-68 b.
8. A.R. Jo'rayev, N.Sh. Shadiyeva, A.M. Shoyimov "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalarining o'rni. UzMU xabarlar. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2022 y. № 1/12/1. Toshkent sh. 168-171 b.
9. A.R. Jo'rayev, N.Sh. Shadiyeva "Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarning geografik

obyektlarni 3D loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modeli “Pedagogik mahorat”. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 2 / 2023-yil. Buxoro sh. 149-155 b.

10. 10. A.R. Jo‘rayev, O.O. Xalloqova “Zamonaviy yondashuvlar asosida texnologiya darslarini tashkil etish zarurati “Pedagogik mahorat”. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 2 / 2023-yil. Buxoro sh. 69-75 b.
11. A.R. Jo‘rayev, A.N. Murtazoyev, Z.O. Latipova “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga oid kompetentligini rivojlantirishda mobil ilovalarni ishlab chiqish “Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў”. Ilmiy-metodik jurnal № 2 / 2023-yil. Nukus sh. 342-350 b.

TA'LIM MENEJMENTIGA "QUTADG'U BILIG" ASARIDAGI BOSHQARUV FALSAFASINI INTEGRATSIYA QILISH IMKONIYATLARI

Shoyimova Shoirra Sanakulovna,

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot
instituti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u Bilig" asarida ilgari surilgan boshqaruvga oid falsafiy g'oyalar tahlil qilinib, ularni zamonaviy ta'lim menejmenti nazariyasi bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Asarda tasvirlangan rahbarlik fazilatlarini, adolat, maslahat va xalq bilan muloqot kabi tamoyillar bugungi ta'lim tizimidagi boshqaruv strategiyasini takomillashtirishda muhim nazariy manba bo'la olishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: boshqaruv falsafasi, ta'lim menejmenti, rahbarlik sifati, strategik boshqaruv, qadriyatlar.

ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕГРАЦИИ ФИЛОСОФИИ УПРАВЛЕНИЯ ИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КУТАДГУ БИЛИГ» В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ

Шойимова Шоира Санакуловна,

*Доктор философии по педагогический наук (PhD). Ферганский медицинский институт
общественного здравоохранения*

Аннотация. В данной статье анализируются философские идеи управления, выдвинутые в работе Юсуфа Хос-гаджиба «Кутадгу Билиг», и рассматриваются возможности их гармонизации с современной теорией управления образованием. Научно обосновано, что такие принципы, как лидерские качества, справедливость, консультирование и общение с общественностью, описанные в работе, могут стать важным теоретическим ресурсом для улучшения стратегии управления в современной системе образования.

Ключевые слова: философия управления, Управление образованием, качество руководства, стратегическое управление, ценности.

OPPORTUNITIES FOR INTEGRATING THE MANAGEMENT PHILOSOPHY FROM THE WORK «QUTADGHU BILIG» INTO EDUCATIONAL MANAGEMENT

Shoyimova Shoirra Sanakulovna,

*Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD). Fergana Public Health Medical
Institute Annotation*

Annotation. This article will analyze the philosophical ideas of Management, which were put forward in the work of Yusuf Khos Hajib «Qutadgü Bilig», and consider the possibilities of harmonizing them with the theory of modern educational management. It is scientifically substantiated that the principles described in the work, such as leadership qualities, Justice, advice and communication with the people, can be an important theoretical resource in improving the management strategy in today's educational system.

Keywords: philosophy of management, educational management, quality of leadership, strategic management, values.

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy o'zgarishlar, raqobat va innovatsiyalar sharoitida samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bugungi ta'lim menejmenti jarayonlarida rahbar shaxsining intellektual salohiyati, axloqiy qadriyatlari va strategik fikrlash qobiliyati muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy-madaniy merosimizda ifodalangan boshqaruvga oid fikrlarni qayta o'rganish va ularni hozirgi ta'lim menejmenti bilan uyg'unlashtirish

dolzarb masalalardan biridir. Xususan, XI asrda yozilgan “Qutadg‘u Bilig” asarida ilgari surilgan rahbarlik va boshqaruvga oid fikrlar nafaqat o‘z davrining davlat siyosati, balki bugungi ta’lim boshqaruvi uchun ham muhim g‘oyaviy manba bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada mazkur asardagi boshqaruv tamoyillari zamonaviy ta’lim menejmenti paradigmasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. “Qutadg‘u bilig” asari – Sharq mumtoz adabiyotining nodir durdonalaridan biri sifatida nafaqat adabiy, balki siyosiy, ma’naviy-axloqiy va boshqaruv falsafasi jihatidan ham chuqur ilmiy ahamiyatga ega. Undagi rahbar va jamiyat munosabatlariga oid g‘oyalar, bugungi kun ta’lim boshqaruvi tizimi bilan uyg‘unlashtirilganda, samarali menejment strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘la oladi. Mazkur asardagi boshqaruv konsepsiyalari ustida bir qator olimlar izlanishlar olib borgan. Jumladan, T. Jalolov, H. To‘raqulov, S. Turaqulov kabi tadqiqotchilar “Qutadg‘u bilig”dagi siyosiy tafakkur, davlatni boshqarish, adolatli hukmdor obrazi kabi g‘oyalarni tahlil qilganlar. Ular asarni siyosiy-nazariy va ma’naviy-ma’rifiy manba sifatida o‘rganib, undagi g‘oyalarni bugungi ijtimoiy hayot bilan bog‘lashga harakat qilganlar. Boshqa tomondan, ta’lim menejmenti, strategik rejalashtirish va ta’limda samarali boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish sohasida Sh.Olimov, M.Jo‘rayev kabi olimlarning ishlari alohida o‘rin egallaydi. Ular ta’lim tizimida samaradorlik, yetakchilik, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish yo‘nalishida tadqiqotlar olib borganlar. Shuningdek, sharq mumtoz merosidagi boshqaruv tafakkurini zamonaviy ta’lim va rahbarlik madaniyati bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha nazariy tahlillarni ilgari surganlar.

“Qutadg‘u bilig” asaridagi boshqaruv falsafasini ta’lim menejmentiga integratsiya qilish bo‘yicha bevosita kompleks tadqiqotlar hanuzgacha cheklangan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishga oid alohida tarkibiy qismlarda olib borilgan tadqiqotlar mavjud. Mazkur maqola ushbu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirib, yangicha ilmiy qarashlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

“Qutadg‘u bilig” asarining 31-bobi: rahbarlik fazilatlari va ularning ta’lim menejmenti uchun ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu bob “Beklikka loyiq bek qanday bo‘lishini aytadi” nomi bilan mashhur bo‘lib, unda rahbarlik masalasi atroflicha yoritiladi. Bu bobda davlat boshqaruvi, jamiyat taraqqiyoti va adolatli siyosat yuritishda yetakchining, ya’ni bekning tutgan o‘rni, shaxsiy fazilatlari va axloqiy-ruhiy kamoloti haqida fikr yuritiladi. Yusuf Xos Hojib ushbu bo‘limda rahbar shaxsiga qo‘yiladigan talablarni badiiy-falsafiy uslubda asoslab beradi. Bob an’anaviy savol-javob shaklida davom ettiriladi: Elig (ya’ni, hukmdor Kuntug‘di) o‘z vaziri O‘gdulmishdan rahbar shaxs qanday fazilatlarni o‘zida mujassam etmog‘i lozimligi haqida so‘raydi. Savollar chuqur ijtimoiy mazmunga ega bo‘lib, rahbarning barcha qatlam vakillariga nisbatan adolatli, mas’uliyatli va samarali siyosat yuritish olishi, xalq farovonligini ta’minlashi, davlat obro‘sin oshirishi hamda o‘zidan abadiy iz qoldirishi zarurligini ta’kidlaydi. O‘gdulmishning javoblarida beklik – chin ma’noda barkamol shaxsiga xos kasb ekani alohida urg‘u bilan ko‘rsatiladi. Bek bo‘lish uchun inson quyidagi fazilatlarni o‘zida shakllantirgan bo‘lishi lozim: aql-zakovat, bilimdonlik, saxovat, botirlik, vafodorlik, adolatparvarlik, sabr, to‘g‘riso‘zlik, xushfe’llik, ziyraklik, hushyorlik, mohirlik va boshqalar. Shuningdek, rahbar besh illatdan – shoshqaloqlik, ochko‘zlik, jaholat, buzuq fe’llilik va yolg‘onchilikdan yiroq bo‘lishi lozimligi qat’iy ta’kidlanadi.

“Agar, – deydi O‘gdulmish, – arslon itlarga bosh bo‘lsa, itlar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlar kabi bo‘lib qolishi mumkin”. Ushbu hikmatda rahbarning sifati va qobiliyatlari jamoaning umumiy holati va muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ifodalangan. Ya’ni, agar kuchli, jasur va dono rahbar (arslon) hatto zaifroq jamoaga (itlarga) boshchilik qilsa ham, ularning ruhini ko‘tarib, ularni kuchli va muvaffaqiyatli guruhga aylantirishi mumkin. Agar zaif va qobiliyatsiz rahbar (it) hatto kuchli va salohiyatli jamoaga (arslonlarga) boshchilik qilsa, ularning salohiyatini pasaytirib, ularni zaiflashtirishi mumkin. Bu hikmat rahbarning sifati va qobiliyatlari jamoaning muvaffaqiyati va samaradorligiga qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. Sifatli rahbarlik jamoani rivojlantiradi, noto‘g‘ri rahbarlik esa uni

zaiflashtiradi.

Asarda boshqaruv mustahkam bo'lishi uchun zarur bo'lgan to'rt asosiy omil ham ilgari suriladi: kuchli lashkarga (ya'ni jamoaga), ushbu jamoani saqlash uchun boylikka (bilim va resurslarga), boylikni to'plash uchun badavlat (ma'naviy), farovon xalqqa, bunday xalqqa ega bo'lish uchun esa adolatli siyosat yuritishga ehtiyoj bor.

Yusuf Xos Hojib bu fikrlar orqali rahbarlik fazilatlarini nafaqat o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayoti, balki umumiy insoniy qadriyatlar kontekstida ko'rsatadi. Asardagi bek obrazi shartli timsollardan biri bo'lib, rahbarga qo'yilgan talablar har qanday shaxsga qo'yilishi mumkin bo'lgan yuqori axloqiy-me'yoriy mezonlar sifatida talqin etilishi mumkin. Bu jihatlar ayniqsa bugungi ta'lim tizimi uchun dolzarbdir. Zero, ta'lim muassasalarini samarali boshqarish, unda adolatli va ilg'or rahbarlik tamoyillarini joriy etish bugungi kunda alohida ilmiy va amaliy e'tiborni talab qilmoqda.

1. «Qutadg'u Bilig» asarida boshqaruv falsafasi: umumiy ko'rinish.

«Qutadg'u Bilig» asari — Sharq mumtoz adabiyotida davlat boshqaruvi, axloq, odil rahbarlik haqida ilk siyosiy-falsafiy asardir. Dostonda to'rt asosiy qahramon bor. Ularning har biriga ramzan muayyan bir ezgu tushuncha – ma'naviy qadriyatning timsoli yanglig' qaralib, alohida ma'no-mazmun yuklatilgan. Kuntug'di (chiqqan Quyosh) – elig, ya'ni hukmdor. U adolat ramzi bo'lib kelgan. Oyto'ldi (to'lgan Oy) – vazir. U baxt va davlat ramzi hisoblanadi. O'gdulmish (aqlga to'lgan) – vazirning o'g'li. U aql va zakovat ramzi yanglig' tasvirlangan. O'zg'urmish (uyg'ongan) – vazirning qarindoshi. U asarda qanoat, ofiyat, ya'ni sog'lomlik ramzi sifatida qalamga olingan.

Bu g'oyalar bugungi kunda ta'lim tashkilotlarini boshqarishda, rahbar va pedagog kadrlarni tayyorlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu to'rtlik boshqaruvda strategik fikrlashning uyg'un modelini beradi. Davlat rahbari adolatga asoslanib hukmronlik qiladi, siyosiy kuch (saodat) esa ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Donishmandlik (aql) strategik qarorlar asosidir, mehnat esa ularni amalga oshiradigan irodaviy kuchdir.

2. Zamonaviy ta'lim menejmentida qadriyatlar va rahbarlik modeli

Ta'lim menejmenti — bu faqatgina tashkiliy boshqaruv emas, balki insoniy munosabatlar, qadriyatlar, motivatsiya va madaniy muhitni shakllantirish tizimidir. Zamonaviy menejmentda transformatsion rahbarlik, strategik rejalashtirish va muvofiqlashtirish, emotsional intellekt va kommunikatsion madaniyat, tashabbuskorlik va jamoani ilhomlantirish kabi jihatlar ustuvor hisoblanadi. Bu xususiyatlar «Qutadg'u Bilig»da ilgari surilgan rahbarlik fazilatlarini bilan uyg'unlashadi. Masalan, maslahatga tayanish, xalq bilan muloqot, axloqiy poklik, haqgo'ylik — zamonaviy ta'lim rahbarining muhim kompetensiyalaridan hisoblanadi.

3. Integratsiya qilish imkoniyatlari: nazariy va amaliy yondashuv

«Qutadg'u Bilig» asari g'oyalarini ta'lim menejmentiga integratsiya qilishda quyidagi yondashuvlar muhim:

konseptual integratsiya – ta'lim rahbarlik modeli va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish;

kurikulum asosida integratsiya – pedagogika va menejment dasturlariga «Sharqona boshqaruv madaniyati» modulini kiritish;

etik kodeksga integratsiya – rahbarlar uchun «axloqiy mezonlar» asosida qadriyatlar tizimini ishlab chiqish;

amaliy loyihalar orqali integratsiya – ta'lim tashkilotlarida qadriyatga asoslangan boshqaruv modellarini sinovdan o'tkazish.

Strategik qarorlar va maslahat tizimi. Asarda ko'plab muloqotlar maslahat shaklida qurilgan bo'lib, bu rahbarning strategik qarorlar qabul qilishida keng fikrlash, tajribaga tayanish, va donishmandlikni qadrlash zarurligini ko'rsatadi. Kuntug'di (hukmdor) muhim masalalarda O'gdulmis (maslahatchi) bilan maslahatlashadi, bu esa zamonaviy «kollegial boshqaruv» tamoyiliga juda yaqin. Misol: «Maslahat bilan ish qilsa, mushkul ochilar.» Bu yondashuv bugungi

menejmentdagi SWOT tahlil, risklarni baholash, jamoaviy qaror qabul qilish strategiyalariga uyg'un keladi.

Etik va axloqiy boshqaruv tamoyillari. Asarda boshqaruv faqat siyosiy kuch emas, balki axloqiy mas'uliyat deb talqin qilinadi. Rahbar o'z xalqiga adolat bilan muomala qilishi, o'zini nazorat qilishi va odob-axloq me'yorlariga rioya qilishi lozim. Bu tamoyillar bugungi kunda korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) tushunchasi bilan uyg'un. "Agar xalqni ko'ngli bo'lsa to'q va xursand – demak, hukmdor adolat bilan ish yuritgan."

Kadrlar siyosati va strategik rejalashtirish. "Qutadg'u bilig"da vazirlar, amaldorlar, maslahatchilar tanlanishida ularning aqliy salohiyati, axloqiy pokligi, tajribasi, ijtimoiy mas'uliyati e'tiborga olinadi. Bu zamonaviy boshqaruvda kompetensiyalarga asoslangan tanlov, insonga yo'naltirilgan liderlik tamoyillariga to'la mos tushadi. "Aql bilan tanla vazirni, aks holda davlat yiqilar."

Asardagi boshqaruv g'oyasi	Mazmuni / Tavsifi	Zamonaviy ta'lim menejmentidagi muvofiqligi	Integratsiya qilish imkoniyatlari
Adolat (Kuntug'di obrazida)	Jamiyatda adolatni qaror toptirish, boshqaruvda halollik va to'g'rilik	Ta'lim jarayonida adolatli baholash, ochiq muloqot va shaffoflik	Baholash tizimini isloh qilish, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida ishonch muhitini shakllantirish
Aql va donishmandlik (Oyto'ldi obrazida)	Rahbar har bir qarorni aql bilan, donolik asosida qabul qilishi lozim	Strategik rejalashtirish, tahlil va tahliliy fikrlash zarurati	Ta'lim rahbarlarining tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish kurslari
Davlat va tartib (O'gdulmish obrazida)	Ijtimoiy tartib, muvozanat va boshqaruv tizimi muhim	Maktab yoki universitet boshqaruv tizimini izchil yuritish	Ta'lim muassasalari uchun ichki tartib va intizomni kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish
Qanoat va mehnat (O'zg'urmish obrazida)	Kamtaliklik, fidoyilik va mehnat bilan yuksalish	Ta'lim jarayonida o'zini rivojlantirishga intilish va fidoyilik	Motivatsion dasturlar, o'qituvchilarning mehnatini e'tirof etish tizimi
Mas'uliyat va halollik	Har bir rahbar o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi kerak	Ta'lim rahbarlari va o'qituvchilarining etik mas'uliyati	Etik kodekslar asosida monitoring tizimini joriy qilish
Muloqot va maslahat	Qarorlar maslahat bilan, jamoaviy fikr asosida qabul qilinadi	Jamoaviy boshqaruv, kollegiallik prinsipi	Pedagogik kengashlar, ota-ona, o'quvchi fikrlarini hisobga olish tizimi
Bilim va ma'rifat	Bilim eng ulug' qadriyat, jamiyat taraqqiyotining asosi	Ta'lim tizimining asosiy maqsadi – bilim berish	Innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish, doimiy malaka oshirish tizimi

Turkiy adabiyotning yuksak namunalaridan biri bo'lgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u Bilig" asarida rahbarlik, adolat, maslahat, qanoat kabi boshqaruvga oid tamoyillar chuqur falsafiy

yondashuvda bayon etilgan. Asarda keltirilgan hikmatli soʻzlar rahbar shaxsining fazilatlari va davlat boshqaruvida tutgan oʻrni haqida muhim mulohazalarni beradi. Avvalo, adolatli boshqaruvning jamiyat hayotidagi oʻrni alohida taʼkidlanadi. “Boshliq eliga toʻgʻrilik va adolat koʻrsatsa, u barcha tilak va orzulariga yetadi” degan hikmatda rahbarning adolat asosida ish yuritishi jamiyat farovonligi va taraqqiyotining garovi ekani koʻrsatiladi. Adolat – boshqaruvning poydevori boʻlib, u xalq ishonchini oshiradi va davlatning barqarorligini taʼminlaydi. Rahbar shaxsining fazilatlari xususida esa quyidagicha hikmat keltirilgan: “Podshohning soʻzi rost boʻlsa, uning amri ham rost boʻladi; soʻzi yolgʻon boʻlsa, amri ham yolgʻon boʻladi”. Bu fikr rahbarning soʻzlari va amallari oʻrtasidagi uygʻunlik zarurligini taʼkidlaydi. Rostgoʻylik rahbar imijini mustahkamlaydi, uning ishonchliligini oshiradi va jamiyatda sogʻlom boshqaruv muhitini shakllantiradi. “Qutadgʻu Bilig”da rahbar va xalq oʻrtasidagi munosabatlarga ham katta eʼtibor qaratilgan. “Xalqdan uzoq boʻlgan podshoh, yovga yaqin boʻladi” degan ibora rahbarning xalq bilan yaqin boʻlishi zarurligini ifodalaydi. Bu fikrga koʻra, xalq bilan doimiy muloqotda boʻlgan rahbar nafaqat oʻz siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshiradi, balki xavfsizlik va barqarorlikni ham taʼminlaydi. Shuningdek, asarda maslahatlashuvning boshqaruvdagi oʻrni ham yuksak qadrlanadi: “Maslahatda baraka bor, yolgʻiz fikrda xato boʻlishi mumkin”. Bu fikr rahbarning qaror qabul qilishda yakka fikrga tayanmasligi, balki keng jamoatchilik bilan maslahatlashuvi muhimligini koʻrsatadi. Maslahatlashuv xatolarning oldini oladi, kengroq fikrlar asosida toʻgʻri va oqilona qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, rahbarning ichki dunyosi, sabr va qanoat fazilatlari ham alohida tilga olinadi. “Koʻp istagan hech narsaga erishmaydi, qanoat qilgan esa hech narsadan mahrum boʻlmaydi” degan hikmat rahbar uchun ochkoʻzlik va sabrsizlikning zararli oqibatlarini ochib beradi. Qanoatli va sabrli rahbar oʻz faoliyatini bardavom va muvaffaqiyatli olib boradi. Ushbu hikmatlar Yusuf Xos Hojibning rahbarlik va boshqaruv borasidagi chuqur falsafiy qarashlarini aks ettiradi. Asarda rahbarning adolatli, rostgoʻy, xalqparvar, maslahatga ochiq, qanoatli va sabrli boʻlishi davlatning barqarorligi va xalqning farovonligiga xizmat qilishi taʼkidlanadi.

XULOSA. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu Bilig” asarida ilgari surilgan boshqaruv falsafasi bugungi taʼlim menejmenti tizimi uchun oʻzining dolzarbligini yoʻqotmagan. Undagi adolat, maslahat, aql-zakovat, xizmatga sadoqat kabi gʻoyalar, hozirgi zamonaviy boshqaruv tamoyillari bilan uygʻunlashgan holda, milliy taʼlim rahbarlik modelini shakllantirishda mustahkam nazariy asos boʻla oladi. Asardagi rahbarlikka oid falsafiy yondashuvlar zamonaviy taʼlim menejmenti konsepsiyalari bilan uygʻunlashgan holda, rahbar maʼnaviyatini shakllantirish va uni boshqaruv tizimiga integratsiya qilishda muhim manba boʻla oladi. Maqolada ilgari surilgan tahlil va tavsiyalar taʼlim boshqaruviga yangicha, qadriyatga asoslangan yondashuvlarni tatbiq etishda ilmiy va amaliy yoʻl xaritasi boʻlib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

Davron, X. “Qutadgʻu bilig” va maʼnaviy yetakchilik: adabiy-falsafiy tahlil”, Adabiyot va madaniyat, 2020. №3, 31–36.

Hasanov, M. K. “Taʼlimda innovatsion menejment yondashuvlari”, Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2022. №4, 12–19.

Jalolov, T. Qutadgʻu bilig va siyosiy tafakkur rivoji. Toshkent: Fan nashriyoti. 2015.

Joʻrayev, M. Oliy taʼlim tizimida strategik boshqaruv. Toshkent: Innovatsiya. 2021.

Karimov, I. A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Maʼnaviyat. 1997.

Mahkamova, D., “Taʼlim tizimida strategik menejment”, Toshkent, 2021.

Mintzberg H. Strategic Management: Concepts and Cases. Pearson, 2019.

Nazarov Q. “Qutadgʻu bilig”da ijtimoiy-siyosiy fikr. – Toshkent: Fan, 2005.

Olim S., Ahmedov S., Qoʻchqorov R. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinf uchun darslik-majmua. Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2014

Olimov, Sh. Ta'limda menejment: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'qituvchi. 2018.

Robbins S.P., Coulter M. Management. Pearson Education, 2021.

To'raqulov, H. Sharq mumtoz merosida davlat boshqaruvi tamoyillari. Samarqand: Ilm ziyo. 2017.

Turaqulov, S. "Mumtoz adabiyotda rahbarlik madaniyati va uning zamonaviy talqini", Sharq merosi ilmiy jurnali, 2019. №2, 45–52.

Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. O'zbek tili tarjimasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2010.

www.edu.uz – O'zR talimi rasmiy sayti

www.pedagog.uz – O'zR pedagogika ta'lim muassasalari portali

www.ziynet.uz – ta'limiy portal

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TANQIDIY FIKRLASH

Chinalieva Aÿjasmal Baxitjanovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Tanqidiy fikrlash — bu zamonaviy pedagog uchun muhim metodologik vosita bo'lib, o'quv jarayonida dolzarb muammolarni aniqlash, tahlil qilish, xulosalash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar, mashg'ulot shakllari va metodik tavsiyalar bayon etilgan. Shuningdek, pedagogik ta'limda tanqidiy fikrlashni o'rgatishning samaradorlik omillari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, pedagogik kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, metodik yondashuv, muammoli vaziyat, tahlil qilish, o'qituvchi tayyorlash, innovatsion ta'lim. Tanqidiy fikrlash muloqot madaniyatini o'stiradi va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish natijasida har bir rejali o'quv jarayonining didaktik ta'minoti e'tiborga olinadi, tahsil oluvchi o'quv materialini qanday o'zlashtirayotgani doimiy monitoringi ishlab chiqiladi, ta'lim jarayonidagi muammolarning yechimini topishga harakat qilinadi. Mohir pedagog o'quv jarayonida tug'iladigan qiyinchiliklarni boshqalardan ko'ra yaxshiroq tushunadi.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlashlarini shakllantirish shunday uslubiy xizmatni talab etadiki, bunda yoshlarning shaxsiyatiga zarar keltirmaslik, ularning pedagogik dahlsizligini ta'minlash hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar orqali ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish lozim bo'ladi. Demak, O'zbekiston davlatining har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati yosh avlodning mustaqil fikrlashi, keng bilimi, tarbiyasi va umumiy madaniyatining shakllanganlik darajasiga bog'liq. Shu sababli, jamiyatimizdagi barcha yoshlarda erkin mushohada qilish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish lozimligi ijtimoiy ehtiyoj kasb etadi.

O'quvchilarga tanqidiy fikrlash uchun eng avvalo, ularning o'zlari mas'ul ekanliklarini anglatish lozim. Pedagogning vazifasi tanqidiy fikrlashni rag'batlantirib turuvchi muhitni yaratishdangina iborat bo'ladi.

Tanqidiy fikrlashni paydo qilish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

- o'quvchida o'ziga xos nuqtai-nazarni paydo qilish;
- bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;
- murakkab muammolarni yechish mahorati;
- dalillarga asoslangan holda bahslashishga odatlantirish;
- yagona fikrni ishlab chiqish uchun o'zaro hamkorlikda ishlash mahorati;
- o'quvchilarda mavjud bo'lgan bilimlar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qay darajada xizmat qilishini aniqlash.

O'quvchilarni faol o'ylash jarayoniga kiritish, muammoli vaziyatni yechish, mantiqiy jarayonlarni oqilona hal etishga o'rgatish bilim o'zlashtirishda ijobiy natijalarga olib kelishi muqarrar.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson narsa emas. Bu muayyan yosh davrida tugallanishi va unutilishi mumkin bo'lgan masala ham emas. Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo'llar yo'q. Biroq, o'qitish shartlarining muayyan to'plami borki, uning yordamida tanqidiy fikrlovchilarni tarbiyalash mumkin. Jumladan, quyidagi shartlarga alohida e'tibor berish zarur:

1. Tanqidiy fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish;
2. O'quvchilarga fikrlash imkoniyatini berish;
3. Turli g'oya va fikrlarni qabul qilish;

4. O'quv jarayonida o'quvchilarning faol qatnashishlariga imkon berish;
5. O'quvchilarni tanqidiy mulohaza yuritishga qodir ekanligiga ishonitirish.

Shu bilan birga, o'quvchilar:

1. O'z-o'ziga ishonchni rivojlantirib, o'z g'oya va fikrlarining qimmatini tushunishlari kerak;
2. Ta'lim jarayonida faol qatnashishlari lozim;
3. Turli fikrlarni hurmat bilan eshitishlari kerak;
4. O'z mulohazalarini shakllantirishga tayyor bo'lishlari yoki undan o'zlarini tiyishlari lozim.

Tanqidiy fikrlash xususiyatlari quyidagilar:

- tanqidiy fikrlash- bu mustaqil fikrlashdir;
- axborot- tanqidiy fikrlashning boshlanishidir;
- tanqidiy fikrlash savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi;
- tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;
- tanqidiy fikrlash-ijtimoiy fikrlashdir.

Birinchidan, tanqidiy fikrlash- bu mustaqil fikrlashdir.

Boshlang'ich sinflarda mashg'ulot tanqidiy fikrlash tamoyillari bo'yicha yaratilar ekan, har bir ishtirokchi boshqalarnikidan mustasno holda o'zining g'oyasi, qadriyatlarini baholashi va ishonchiga ega bo'ladi. Demak, fikrlash yakka tartibli harakterga ega bo'lgandagina, uni tanqidiy fikrlash deb atash mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z aqli, fikrlashi va eng murakkab savollarga ham o'zlari javob topa olish erkinligiga ega bo'lishi kerak. Qanday fikrlash zarurligini har bir o'quvchi o'zi uchun o'zi hal qiladi. Shunday qilib, mustaqillik tanqidiy fikrlashning eng muhim jihatlaridan biridir.

Ikkinchidan, axborot tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim o'quvchini tanqidiy fikrlashga undovchi motiv bo'lib hisoblanadi. Murakkab fikrni yaratish uchun anchagina «xom ashyo»- dalillar, g'oyalar, matnlar, nazariyalar, ma'lumotlar, konsepsiyalarni qayta ishlash zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan har qanday yoshdagilar ham tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishadi, hatto birinchi sinf o'quvchilarida ham hayotiy tajriba va bilimlar mavjud bo'ladi. Bolalarning fikrlash qobiliyatlari o'qitish natijasida yanada takomillashib boradi. Hatto juda yosh bolalar ham tanqidiy fikrlash va butunlay mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega. Aynan tanqidiy fikrlash tufayli odatdagi bilish jarayoni alohidalik va anglashuvchanlik, uzviylik va samaradorlik kasb etadi.

Uchinchidan, tanqidiy fikrlash, savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o'z tabiatiga ko'ra qiziquvchandir. Biz biron-bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qandaydir tarixiy obidani ko'rar ekanmiz, bizda uning ichkarisiga kirish istagi paydo bo'ladi. «Barcha hayvonot olamida,- deb yozadi kimyogar va faylasuf Mikael Poloniy,- uning eng sodda shakli bo'lgan chuvalchangdan, ehtimol hatto amyobadan boshlab, biz abadiy ehtiyotkorlik harakatini, ehtiyojni bevosita qondirishga bog'liq bo'lmagan izlanuvchanlik faoliyatini: har qanday jonli mavjudotni o'z atrofini aql-zakovat bilan nazorat qilishga intilishini kuzatamiz»[106, 56]. Qiziquvchanlik har qanday tirik mavjudotning ajralmas xususiyatidir. Bu xususiyat yosh bolalarda ayniqsa quchli bo'ladi. Biroq, har qanday bosqichdagi haqiqiy bilish jarayoni o'quvchining muammoni hal qilishi, o'zining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlaridan paydo bo'lgan savollarga javob izlashi bilan belgilanadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, o'quvchilar to'qnashishi mumkin bo'lgan muammolar doirasini aniqlashi, so'ngra esa, o'quvchilarni bu muammolarni o'zlari mustaqil ravishda shakllantirishlariga tayyorlashi zarur. Tanqidiy fikrlash tufayli o'qitish aniq maqsadga yo'nalgan, mazmunli faoliyatga aylanishi hamda

bu faoliyat davomida o'quvchilar haqiqiy aqliy ish bajarib, hayotiy muammolarni hal qilishga qodir bo'lishlari lozim. Ularni dalillar asosida matnlarni tahlil qilishga, teng kuchli nuqtai-nazarlarni taqqoslab hamda jamoa imkoniyatlaridan foydalanib, o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob topishga undash ta'limni texnologik yondashuvlar asosida qurishga zamin yaratadi.

To'rtinchidan, tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlovchi kishi muammoning o'z shaxsiy yechimini topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. O'quvchi boshqa qarorlar bo'lishi mumkinligini ham tan olishi mumkin, lekin o'zi tanlagan qaror boshqalarnikiga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Har qanday ishonchli dalil uch asosiy qismdan iborat bo'lib, tasdiqlash-dalil markazi, uning mazmuni bo'lib hisoblanadi (ba'zan u tezis, asosiy g'oya yoki qoida deb yuritiladi). Tasdiqlash bir necha dalillar bilan mustahkamlanadi. Dalillarning har biri o'z navbatida isbotlar bilan mustahkamlanadi. Statistik ma'lumotlar, matn parchasi, shaxsiy tajriba, umuman olganda, ushbu ishonchli dalillarni isbotlashga yordam beruvchi va muhokamaning boshqa ishtirokchilari tomonidan tan olinishi mumkin bo'lgan barcha g'oyalardan isbotlovchi sifatida foydalanish mumkin. Ishonchli dalillarning yuqorida qayd qilingan barcha qismlari tasdiq, dalil va isbotlash negizida, uning to'rtinchi qismi bo'lgan asos turadi. Asos- bu muayyan yo'naltiruvchi boshlang'ich nuqta bo'lib, u notiq uchun ham, yoki yozuvchi va uning muxlislari uchun umumiy hisoblanadi.

Ishonchli dalillar, unga qarama-qarshi dalillarni mavjud bo'lishi, ularni giperbolik tarzda (oshirib ko'rsatilishi), yoki qabul qilinishi mumkinligini ham hisobga olgandagina o'z samarasini ko'rsatadi. Boshqacha nuqtai nazarlarning tan olinishi ishonchli dalillarning ta'sir kuchini yanada oshiradi. O'ta ta'sirchan dalillar bilan qurollangan tanqidiy fikrlovchi kishi, hatto katta obro'ga ega bo'lgan fikrga ham qarshi tura oladi, amaliyotda bunday kishining fikrini o'zgartirish mumkin emas.

Beshinchidan, tanqidiy fikrlash- ijtimoiy bo'lib hisoblanadi (har bir inson ijtimoiy organizmdir). Har qanday fikr, agar u boshqalar bilan o'rtoqlashilgandagina o'tkirlashadi yoki faylasuf Xanna Arendt yozganidek:

«...kimningdir huzurimda bo'lishi, meni barkamollikka erishtiradi»[35, 119]. Bahslashuvda, o'qiganimizda, muhokamada ishtirok etganimizda, e'tiroz bildirganimizda, boshqalar bilan fikr almashganimizda, biz o'z nuqtai nazarimizni aniqlashtiramiz va uni chuqurlashtiramiz, shuning uchun ham o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishni mo'ljallagan o'qituvchi o'z mashg'ulotlarida juftlikda yoki guruhlarda ishlashning turli shakllaridan samarali foydalanishga intiladilar. Umuman olganda, tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayoni o'quvchi shaxsini konstruksiyalashga nisbatan anchagina keng ma'nodagi vazifalarni hal qiladi.

Tanqidiy fikrlash (boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida) yozma ishda yaqqolroq namoyon bo'ladi. "Yozuvda,-deb ta'kidlaydi S.S. G'ulomov fikrlash jarayonini kuzatish mumkin bo'ladi va bu o'qituvchi uchun ham qulaylik yaratadi. Yozayotgan o'quvchi doimo faol bo'ladi. U doim mustaqil fikrlaydi va bunda u o'zida mavjud bo'lgan barcha bilimlardan foydalanadi. U o'z fikrini mustahkamlash uchun yetarli darajadagi ishonchli dalillarni qatorlashtirib tashlaydi. Bundan tashqari u o'z tabiati jihatidan ijtimoiy harakterga ega bo'ladi. Chunki, xat yozuvchi, uni o'qiydiganga mo'ljallab yozadi. O'quvchi uchun eng qimmatlisi - o'qituvchining uning ishiga qiziqishi va unga hurmat bilan qarashi, o'z fikrlari to'g'risida sinfdoshlari, boshqa o'qituvchilar, ota-onalar va hatto notanish kishilar bilan o'rtoqlashish imkoniyatiga ega bo'lganligidir" [191,36]. Shunday ekan, yozishni tanqidiy fikrlashning eng muhim vositasi deb hisoblash mumkin. Tanqidiy fikrlash asoslari uch bosqichdan iborat bo'lib, ular: ilm o'rganishga qiziqish uyg'otish, ya'ni motivatsiya hosil qilish, o'zlashtirilgan bilimlarni idrok qilish hamda ularni mushohada qilish (refleksiya)dir.

Tanqidiy fikrlash motivatsiya bosqichidan boshlanadi, uning davomida o'quvchilarning fanga nisbatan qiziqishi uyg'onadi, zarur savollar tug'iladi va bilimlarni egallash uchun falsafiy

kategoriya «sabab» shakllanadi. Shundan keyingina o'zlashtirilgan bilimlarning ma'nosini anglash, idrok etish bosqichida o'quvchilar yangilikni izlash uchun rag'batlanadilar. Bolaning refleksiya bosqichi ta'lim jarayonining kulminatsiyasi bo'lib hisoblanadi. Uning davomida o'quvchilardan o'z bilimlarini umumlashtirish, bilib olgan narsalarni bungacha bilgan narsalari bilan taqqoslash, ularning savollariga javoblarni qay darajada olganiga qarab baholash (va zaruratga qarab yangi savollarni shakllantirish), egallangan bilimlarni o'zga muammolarga nisbatan qo'llash, tayyor axborot haqida mushohada yuritish, munozara qilish va tug'ilgan g'oyani himoya qila olish kabilar uchun zamin yaratiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning erkin mushohada yuritishlari uchun, avvalambor motivatsiya bosqichining ahamiyati kattadir, unda yangi bilimlar, o'zi mustaqil tanlagan maqsad uchun intilish anchagina kuchli bo'ladi. Motivatsiya bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, kichik maktab yoshidagi o'quvchi mazkur mavzu to'g'risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o'z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko'rib chiqiladigan mavzu haqida o'ylashga majbur etadi.

O'quvchilar yangi bilimlarini oldin bilgan va tushunganlar kontekstida qabul qilsa, unda bilim o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Agar axborot o'quvchiga oldingi bilimlar bilan bog'lanmasdan taqdim etilsa, u tez xotiradan yo'qoladi.

Ta'lim jarayoni - yangi bilimlarni avvaldan ma'lum bo'lgan axborot bilan bog'lash jarayoni ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangi tasavvurlari ilgarigi bilimlari va tasavvurlari asosida kengayadi. O'quvchilarga ilgarigi bilim va tasavvurlarini sintez qilishga yordam berish didaktikada muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivatsiya bosqichining ikkinchi maqsadi- o'rganilayotgan axborotni tezkorlik bilan idrok etishga qiziqishni kuchaytirishdan iboratdir, chunki ta'lim- intilish talab etadigan intensiv faoliyatdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi axborotni ongli, puxta tushunishlari va yangi ma'lumotga tanqidiy yondashishlari uchun ta'lim jarayonida faol qatnashishlari kerak. O'quvchi belgilangan maqsad asosida o'ylab, fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash orqali faollashadi. Bilimlarni namoyish qilish (o'ziga va sherigiga) og'zaki yoki yozma nutq yordamida, faol fikrlash orqali sodir bo'ladi. Shunday qilib, o'quvchilarga yangi axborotni avval bilganlari bilan samarali bog'lashga imkoniyat yaratish, ularda tanqidiy fikrlashga o'rgatishga zamin tayyorlaydi.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

MIGRATSIYA FEMINIZATSIYASI FENOMENINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK KONTEKSTDA TADQIQ ETILISH JABHALARI

Axmedova Dildora Olimjonovna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti, “International school of finance technology and science” instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrası dotsenti, Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Xalqaro migratsiya bugungi kunda zamonaviy ko‘rinish kasb etmoqda. Buning sababi og‘ir jismoniy mehnat ta‘lab qilmaydigan sohalarning rivojlanishi va migratsiyaning feminizatsiyalashuvi natijasida ayollar migratsiyasi rivojlanib borishidir. Migrant erkaklar migratsiya jarayonida asosiy faoliyati qurilish, ishlab chiqarish, yuk tashish va boshqa sohalar hisoblanadi. Migrant ayollar esa bugungi kunda maishiy xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat olib bormoqda. Hozirda rivojlangan davlatlarda ayol migrantlarga talab yuqoriligi sabab ayollar migratsiyasi rivojlanishda davom etmoqda. Shuningdek, ayollar migratsiyasining sababiga ko‘ra bir nechta yo‘nalishlarga ega. Jumladan mehnat migratsiyasi, nikoh migratsiyasi, ta‘lim migratsiyasi va kasb migratsiyasi kabi. Maqolada migratsiya feminizatsiyasining ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar doirasida o‘rganilishi bo‘yicha tadqiqotlar sharhi bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: migratsiya feminizatsiyasi fenomeni, demografik o‘zgarishlar, shaxslararo munosabatlar, maqsad, jarayon, hayot mazmuni yo‘nalganligi, mehnat motivi, emotsional o‘zgarishlar, assimilyatsiya, akkulturratsiya.

АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ФЕНОМЕНА МИГРАЦИОННОЙ ФЕМИНИЗАЦИИ В СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНТЕКСТЕ

Аннотация: Международная миграция сегодня приобретает современные формы. Это связано с развитием отраслей, не требующих тяжелого физического труда, и феминизацией миграции, что приводит к росту женской миграции. Основными видами деятельности мужчин-мигрантов в процессе миграции являются строительство, производство, судоходство и другие отрасли. Сегодня женщины-мигранты работают в сфере домашних услуг. В настоящее время женская миграция продолжает расти из-за высокого спроса на женщин-мигрантов в развитых странах. У женщин также есть несколько маршрутов в зависимости от причины миграции. Включая трудовую миграцию, брачную миграцию, образовательную миграцию и профессиональную миграцию. В статье представлен обзор исследований по изучению феминизации миграции в рамках социально-психологических исследований.

Ключевые слова: феномен феминизации миграции, демографические изменения, межличностные отношения, цель, процесс, смысловая ориентация, трудовая мотивация, эмоциональные изменения, ассимиляция, аккультурация.

ASPECTS OF RESEARCHING THE PHENOMENON OF FEMINIZATION OF MIGRATION IN THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONTEXT

Annotation: International migration is taking on a modern form today. This is due to the development of industries that do not require heavy physical labor and the development of women's migration as a result of the feminization of migration. The main activities of migrant men in the migration process are construction, production, freight transportation and other sectors. Migrant women today work in the field of household services. Currently, due to the high demand for female

migrants in developed countries, female migration continues to develop. Also, there are several directions for the cause of women's migration. Such as labor migration, marriage migration, educational migration and professional migration. The article reviews studies on the study of the feminization of migration within the framework of socio-psychological research.

Keywords: migration feminization phenomenon, demographic changes, interpersonal relationships, goal, process, life meaning orientation, work motivation, emotional changes, assimilation, acculturation.

Kirish (Introduction). Migratsiya oqimlarining feminizatsiyasi, ya'ni migrantlarning umumiy sonida ayollar ulushining oshishi ekspertlar tomonidan xalqaro mehnat migratsiyasi rivojlanishining eng yangi bosqichining o'ziga xos xususiyati sifatida e'tirof etilmoqda. Bu ko'p jihatdan globallashuv jarayonlari bilan birga keladigan jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Bandlik tuzilmasida xizmat ko'rsatish sohasining ortib borayotgan ustunligi rivojlangan davlatlarning xizmat ko'rsatish sohasida malakasiz mehnatda band bo'lgan migrant ayollarga bo'lgan ehtiyojini shakllantiradi [1].

Hozirda BMTning statistik ma'lumotlariga muvofiq dunyo miqyosida aholi ko'chish intensivligi nazorat qilib bo'lmay darajada kuchaygan. Insoniyat tarixining turli davrlariga nisbatan dunyo aholisining katta qismi o'zi tug'ilgan davlatda emas, ko'chib borgan davlatlarda muqim o'rnatilmoqdalar. So'nggi ma'lumotlarga muvofiq, xalqaro miqyosda 2019 yilda migrantlar soni 272 mln. ga yetdi. 2000 yilda bu ko'rsatkich 173 mln. ni tashkil etgan edi. Qisqa vaqtda ushbu ko'rsatkich 100 mln. ga oshganligi esa xalqaro ekspertlarni tashvishlantirmoqda [2].

Ayollar migratsiyasini rivojlanishi ijtimoiy jamiyat hayotida qarovsiz farzandlar, qariya otalarni, ajrimlar, yod qadriyatlarini o'zlashtirish, xulq-atvorini o'zgarishi va nizoli oilalar sonini ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu kabi muammolar ayollar migratsiyasini ijtimoiy-psixologik tadqiq etilish zaruratini hosil qilmoqda. Jahonda ayollar migratsiyasi qashshoqlik, gender tengsizlik, moliyaviy faravonlik xohishi kabi sabablar bilan bir qatorda ijtimoiy frustratsiya (hozirgi holatidan qoniqmaslik) ayollarga imkoniyatlarni ortishi, gender rollarni tenglashishi, karyeraga intilishi kabilar ayollarning erkinlikka, mustaqillikka intilishini ortib borishiga motiv vazifasini bajarmoqda [3].

Metodlar (Methods). Mehnat migratsiyasi zamonaviy voqelikning muhim xususiyati bo'lib, u butun xalqaro iqtisodiy tizimning holati va rivojlanish istiqbollari va alohida mintaqalar va mamlakatlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Mehnat migratsiyasining ijobiy jihatlari sifatida xorijiy mamlakatlardan mehnat migrantlarini ko'chirilishi tufayli ular kelib chiqqan mamlakatlarda kambag'allik darajasi pasaymoqda, savdo, qurilish, qishloq xo'jaligi va turli xil xizmatlar ko'rsatish rivojlanmoqda, ishsizlik kamaymoqda, tadbirkorlik faoliyati kuchaymoqda, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, shuningdek, tadbirkorlik ham rivojlanmoqda.

Mehnat migratsiyasining ijobiy jihatlari bilan birga salbiy jihatlarni keltirib o'tish lozim. Mehnat migrantlarini qabul qilgan mamlakatda migrantlarning huquqlarining buzilishi va ularning mehnatga oid huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy mexanizmlarni ishlashidagi defunksiyalar, ishchi kuchini ta'minlovchi donor davlatlarda esa malakali mehnat resurslari kamayishi, ish topishda yuzaga keladigan turli xil qiyinchiliklarni kelib chiqishi, pensiya ta'minoti bilan bog'liq ijtimoiy muammolar ortib borishi, mehnat migratsiyasi tufayli oilalarning parchalanishi, mehnat migrantlarining salomatligini ta'minlash masalalarini e'tiborsiz qolishi mehnat migrantlarining hayotida turli ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mehnat migrantlarining ish davomida, ekspluatatsiya qilish, ish uchun lozim bo'lgan sharoit va to'lov tartibini buzilishi, sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish eng dolzarb muammolari deb ta'kidlash mumkin. Xorijiy mamlakatlardagi migrantlar ko'pincha mamlakatdagi huquq-tartibot idoralari qilga da'volari doim ham qoniqtirilmayligi davlat mehnat tashkilotining va tub aholining radikal vakillari o'rtasida irqiy va milliy muvofiqlashtirishdan aziyat chekadilar.

Aholiko'chishining har qanday turi anchamurakkab va ziddiyatli jarayon sanaladi. Ko'chayotgan kishilar ushbu jarayonda qaror qabul qilish, hududiy ko'chish va moslashish bosqichini boshidan kechirsalar, tegishli davlatlarning vakolatli organlari oldiga yangi vazifalarni ko'ndalang qo'yadi. Xususan, migratsion jarayonni boshqaruvchi ikki tomon (jo'natuvchi va qabul qiluvchi davlatlar) ning iqtisodiyotida foyda va zarar, talab va taklif o'rtasidagi muvozanatning mustahkamlanishi yoki buzilishi kuzatiladi. Alohida olingan oilalarda migratsiya moliyaviy ahvolni yaxshilasa-da, oilaning katta yoshli a'zolari doimiy ish bilan bandligi tufayli bolalar tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanilmaydi. Natijada, migrantlar farzandlari orasida deviantlikka moyillik xatari oshadi. Davlat miqyosida ommaviy, tartibsiz migratsiyalar bois, uning siyosiy, demografik va iqtisodiy oqibatlarini qatorida sanitar-epidemiologik vaziyat yomonlashadi [4].

Bugungi kunda xalqaro migratsiya ichki migratsiyaga nisbatan kuchli oqimlarni hosil qilib, bir tomondan norasmiy mehnat migratsiyasi ulushi oshib borsa, ikkinchi tomondan, majburiy tashqi migratsiya saldosi o'smoqda. Natijada, qabul qiluvchi mamlakatlar, migrantlarning nisbatan o'z qatlamlari sanalgan ayollar va bolalarni joylashtirish va ular uchun zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratib berishda moliyaviy muammolarga duch kelmoqda.

Tashqi yoki xalqaro migratsiyaning asosiy sababi oylik maosh miqdoridagi keskin farq bo'lib, bir xil kvalifikatsiya talab qilinadigan ish faoliyati uchun boshqa davlatda yuqori maosh olish imkoniyati yaratiladi. Ayrim sohalarida mutaxassislar tanqisligi esa, malakali kadrlarni chetdan jalb qilish maqsadida oylik maosh miqdorining o'sishiga olib keladi. Natijada, tashqi migratsiyada malakali mutaxassislar oqimi ko'paydi. Xuddi shunday shartlar asosida bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlarda intellektual salohiyatli mutaxassislarning rivojlangan davlatlar (AQSh, Kanada, G'arbiy Yevropa) ga ko'chib ketish tendensiyasi kuchaymoqda. Xalqaro darajada migrantlarni qabul qiluvchi davlatlar AQSh, Yevropa davlatlari, Lotin Amerikasi, Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari, JAR, Isroil kabi davlatlar bo'lib, ushbu davlatlarda ishchi kuchiga bo'lan ehtiyojning deyarli 70%i migrantlar hisobidan to'ldiriladi. Jahon mehnat bozorida ishchi kuchini yetkazib beruvchi davlatlar ro'yxatida esa Hindiston, Pokiston, Jazoir, Meksika, Irlandiya, Turkiya va MDH davlatlarining ulushi katta. Aholining bir mintaqa (davlat, mamlakat) dan ikkinchisiga ko'chib o'tishi O.D.Vorobyova fikricha: «Kishilarning yashash joyini doimiy yoki vaqtinchalik o'zgartirishi bo'lib, ushbu jarayon ijobiy yoki salbiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi». Bu ma'noda, migratsiya insoniyat paydo bo'lgan davrlardan boshlab kechayotgan ommaviy jarayon sanaladi. Migratsiya bois, dastlab Afrika qit'asida paydo bo'lgan insoniyat butun dunyoga tarqaldi [5].

Har qanday ilmiy kategoriya qatori ijtimoiy hodisa sifatida migratsiyaning xos tushunchalariga mavjud. Xususan, bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib o'tgan kishilar – migrantlar deyilsa, boshqa davlatga chiqib ketganlar – emigrantlar sanaladi. Ma'lum davlat hududiga kirib kelganlar esa immigrantlar kategoriyasiga mansub bo'ladi. Emigrant va immigrantlar ulushi o'rtasidagi tafovut migratsion saldoni hosil qiladi. Migratsiya jarayon sifatida quyidagi komponentlardan tashkil topadi. Migratsiya turlari ichida mehnat migratsiyasining ahamiyatini oshib borishi bilan bir qatorda uning feminlashuvi ilmiy tadqiqot ishlarini «Women in Development» (Xotin-qizlar rivojlanishda) yondashuvi doirasida yanada jadallashuviga xizmat qildi. Ushbu yondashuvga muvofiq xotin-qizlarning xalqaro migratsion almashinuvdagi roli globallashuvning chuqurlashib borishi, iqtisodiy taraqqiyot va bandlikning ayollarga xos sohalarini shakllanishi bilan bog'liq [6].

Natijalar (Results). Migratsiya jarayoni va migrantlar faoliyatini o'rganishga e'tibor berilayotgan bo'lsa-da, ayollar migratsiyasi migratsiyaning kam o'rganilgan yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Bunga sabab ayollarning hamon orqa fonda qolayotganligidir. Ayollar migratsiyasining motivlari geografik joylashuviga, mamlakatiga va ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra turlicha, ammo ularning maqsadlarida umumiylik mavjudligini D.R. Peskova, B.O. Abreular o'z ilmiy ishlarida yoritishgan. Tadqiqotchilar moddiy qiyinchiliklar, uy-joy olishga ehtiyoj, qashshoqlik, ish joyining yetarli emasligi, maoshlarni kamligi hamda farzandlar yoki yaqinlarining betobligi kabilarni ayollar migratsiyasi motivi sifatida keltirishgan.

Shu bilan birga tadqiqotchilar ayollarning har qanday sabab tufayli mehnat migratsiyasini


amalga oshirish ijobiy natijadan ko‘ra salbiy natijaga olib kelishini takidlashgan. Hozir ayollar orasida ommalashayotgan migratsiya turlaridan bir bu – nikoh migratsiyasidir. Rossiyalik psixologlar, O.V.Mitina va V.Petrenkolar “Rossiyada nikoh migratsiyasini ommalashish motivi bu chet ellik kuyov moddiy erkinlik olib keladi”, – deb shakillanib qolgan stereotiplar ekanini aniqlashdi. Nikoh migratsiyasi motivlari sifatida tadqiqotchilar quydagilarni ko‘rsatishgan. Kafolatlangan turmush darajasi, turmush o‘rtog‘ining martabasidan foydalanib muammolarni yechish istagi, xavfsizlik va barqarorlikka ega bo‘lish kabilar. Bu davrda mehnat migratsiyasining gender muammolari ilmiy munozaralar kun tartibdagi dolzarb masalaga aylandi. Xususan, T.I.Zaslavskaya jamiyatda sodir bo‘layotgan sotsietal transformatsiyalar, J.A. Zayonchkovskaya MDH davlatlarida migratsion vaziyatlarda xotin-qizlarning ijtimoiy holatini o‘rgandi. V.A.Ionsev ushbu ijtimoiy hodisani o‘rgangan tadqiqotlarning kontent-tahlili asosida 17 ta ilmiy maktab, kamida 45 ta ilmiy yo‘nalish, nazariya va konsepsiyalarni turkumladi. Bu davrga kelib, iqtisodiy - 5 ta, sotsiologik - 5 ta, sof migratsion – 4 ta, demografik - 3 ta, tarixiy - 2 ta konsepsiya yaratildi. Shuningdek, ushbu turkumdan migratsiyaning tipologik, siyosiy va hokazo yondashuvlari joy oldi.

Zamonaviy jamiyatlarda global migratsion jarayonlar ko‘lamining oshib borishi bilan migratsiya oqimining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, migrantlar ijtimoiy tarkibi, uning dunyo miqyosida global iqtisodiyotni o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarini ilmiy o‘rganish dolzarbligi oshib boradi. Shuni e’tiborliki, ilm-fan dunyosida migratsion asosan yosh erkaklar tortilganligi haqidagi bir yoqlama fikrlar shakllandi. Ammo XX asrning oxirida ushbu jarayonda gender muvozanat o‘rnatildi. Ye.Tyuryukanova ko‘rsatishicha bunga quyidagi 3 omil sabab bo‘ldi:

- 1) migratsiya sohasidagi qonunchilik;
- 2) migrantlarni qabul qiluvchi davlatlarda ishchi-migrantlar faoliyatida gender talablarning oshib borishi;
- 3) migratsiyaning “donor-davlat”larida gender munosabatlardagi o‘zgarishlar. Ushbu omillar yig‘indisi migratsion oqimlarda ayollar ulushini oshirib yubordi. Natijada, ayol migrantlar jami migrantlar sonining deyarli yarmisini tashkil etib, jahon hamjamiyati tomonidan migrant ayollar mehnati ulkan iqtisodiy foyda keltirayotganligi tan olinmoqda. Xalqaro mehnat migratsiyasida shakllangan gender yondashuvda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi ijtimoiy-jinsiy tafovutdan kelib chiqildi. Bunda, S.Chant ishlari diqqatga sazovor bo‘lib, u o‘z tadqiqotlarida turli mamlakatlarda gender va migratsiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatib berdi [7].


A.Fizaskl global dunyoda migratsiyaning feministik istiqbollarini Yevropa davlatlari tajribasi o‘rgandi. B.Anderson esa odam savdosidan jarlanuvchilarning aksariyati ayollar ekanligi, ularning mehnatidan noqonuniy foydalanish barobarida fohishalikka jalb etilishi kabi sotsial oqibatlarga alohida e’tibor qaratadi. Demak, ushbu tadqiqotlar mehnat migratsiyasining gender xususiyatlarini nazariy-metodologik o‘rganish jarayonini yanada jadallashtirdi. Mehnat migratsiyasining jinsiy kesimdagi tafovutlari bilan bir qatorda uning xotin-qizlar taqdirida achchiq iz qoldirayotgan ijtimoiy oqibatlari chuqur o‘rganilib boshlandi [8].

Muhokama (Discussion). Migratsiyaga chiqib ketgan xotin-qizlarning vatanda qolgan farzandlarining ijtimoiy-psixologik holati haqida so‘ralganda mahalla faollari javobiga ko‘ra bolalardagi yolg‘izlik hissi 12%, o‘qish faoliyati susayganligi 21,3%, bolalarning xulq-atvorida og‘ishlar 30 %, agressivlik holati 22 %, odatiy tarzda baxtiyor hayot kechirayotgan bolalar 9,3%, bolalar ekspluatatsiya qilinishi 4%, qaramog‘ida qolgan insonlar tomonidan zo‘ravonlikka uchrashi 1,3% ni tashkil etgan. Bundan, migratsiya bolalarning ijtimoiy-ruhiy holatiga jiddiy ta’sir o‘tkazayotganligini ko‘rish mumkin. Bu holat turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi va bolalarning shaxsiy rivojlanishi hamda ijtimoiy integratsiyasiga to‘sqinlik qiladi.



1-rasm. Sizningcha vakolatli organlarni tashqi migratsiyani boshqarishda jamoatchilik bilan aloqalar yo'lga qo'yilganligini qanday baholaysiz?

Ekspertlardan vakolatli organlar migratsiyani boshqarishda jamoatchilik bilan aloqalar darajasini qay holatda ekanligini baholash bo'yicha ma'lumot so'ralganda 14% ekspertlar a'lo darajada degan bo'lsa, 32% ekspertlarning fikricha jamoatchilik bilan aloqalar yaxshi darajada o'rnatilganligini ta'kidlagan. Bu ko'rsatkich aloqalarning ko'p hollarda samarali bo'lganini, biroq hali ham yaxshilanishi mumkinligini ko'rsatadi. 38% ekspertlarning fikricha qoniqarli darajada ekanligi ko'rsatilgan. Bu, ehtimol, resurslarning yetishmasligi yoki amaliyotda ba'zi qiyinchiliklar mavjudligini bildiradi. Qoniqarsiz deb baholangan aloqalar 16% tashkil etdi. Bundan migratsiyani boshqarish jarayonida jamoatchilik bilan aloqalar asosan qoniqarli darajada ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, a'lo darajani oshirish va qoniqarsiz darajadagi muammolarni kamaytirish uchun, migratsiyani boshqarishda jamoatchilik bilan aloqalar sohasida muayyan strategiyalar yoki jamoatchilik bilan hamkorlik usullari qayta ko'rib chiqilishi zarurligini ko'rsatadi.



2-rasm. Sizningcha tashqi migratsiyani boshqarishda vakolatli organlarning jamoatchilik bilan aloqalarini takomillashtirish uchun qanday mexanizmlarni qo'llash lozim?

Mahalla faollariga sizningcha tashqi migratsiyani boshqarishda vakolatli organlarning

jamoatchilik bilan aloqalarini takomillashtirish uchun qanday mexanizmlarni qo'llash lozim degan savolga ekspertlar xotin-qizlarning 17,3% kasbga yo'naltirish, 29,3% ish o'rni bilan ta'minlash, 29,3% faqat shartnoma asosida ishga yuborish, 20% ijtimoiy muhofazani kuchaytirish va 4% oilaviy munosabatlarni yaxshilash kerak degan javoblar olindi. Bundan ekspertlarning fikricha, migratsiyani boshqarishda eng ta'sirchan mexanizmlardan biri bo'sh ish o'rinlari yaratish va shartnoma asosida ishga yuborish hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy kasbga yo'naltirish, oilaviy munosabatlarni yaxshilash sohasida qo'shimcha strategiyalar ishlab chiqish talab etiladi. Ushbu yo'nalishlardagi mexanizmlarni rivojlantirish migratsiya jarayonlarini yanada samarali boshqarishga yordam beradi.

Xulosa (Conclusion). Migratsiyaga tayyorgarlik ko'rayotgan ayol albatta ko'chib o'tayotgan davlatini urf-odatini, an'analarini, qadriyatlar tizimini, tilini o'rganishga harakat qiladi. Ko'chib o'tish maqsadiga ko'ra rejalar tuzadi. Natijada ayol migratsiyadagi ideal o'zini ongida yaratadi. Migratsiya jarayonida esa shunchalik tafovut katta bo'lishi mumkinki ongidagi "Ideal men va haqiqiy meni" o'rtasida chalkashlik yolg'izlik hissi paydo bo'ladi. Kelajagi haqida salbiy ta'ssavlilar paydo bo'ladi. Hozirgi kun haqida o'ylay olmaydi. O'ziga ishonchni va haqiqiy o'zligini yo'qota boshlaydi. Bu jarayon har bir migrantda yuz bermasligi mumkin. Asosan birinchi bor migratsiyaga borayotgan va melanxoliyaga moyil shaxslarda ko'proq va kuchliroq kuzatiladi. Streessli vaziyatlarda inson imkoniyatlarni yoki erishilayotgan natijalarni past baholashga moyilligi oshadi. Ko'ngilsizliklarni esa katta deb hisoblaydi. Bu insonning shaxsiyati bilan bog'liq jarayon bo'lgani bois psixologik xizmat doirasida ishlash samara beradi.

Ayollar migratsiyasida psixologik muommolar bilan bir qatorda quydagilarni ham keltirib o'tish joizdir. Ayollarning odam savdosi, jismoniy va jinsiy zo'rovonlikka uchrashi ayollar migratsiyasining eng xavfli muommolaridan biri sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Yashirin, noqonuniy migratsiya esa bu omillarni kuchaytirib yubormoqda. Ayniqsa bugungi kundagi dunyodagi vaziyat urushlar, siyosiy va ekologik beqarorlik ayollarni majburiy migratsiyaga undamoqda. Bu kabi muommolar global hisoblanib, dunyo hamjihatligi orqali bu muommolar o'z yechimini topishi mumkin. Migratsiya xohishini kam rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar orasida ortishi migratsiya uchun yaratilgan huquqiy va institutsional infratuzilmalar hammaning ham xohishini amalga oshirishni taminlay olmaydi. Natijada nazoratsiz noqonuniy migratsiya yo'nalishi rivojlanishi ortib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

Ионцев В.А. Международная миграция населения. / Социологические исследования. - 1998. - № 6. - С.7-11. Миграция населения. Выпуск 1. Теория и практика исследования. Приложение к журналу Миграция в России. – Москва., 2001. – С. 18.

Тюрюканова Е. Глобализация международной миграции: роль женщин. - Москва., 2002. - С. 77.

Тюрюканова Е.В. Женская трудовая миграция // Россия: 10 лет реформ. Социально-демографическая ситуация. - М., 2002. - С. 64-80.

Towards a Framework for the Analysis of Gender-Selective Migration. / S. Chant // Gender and migration in developing countries. / Ed. by S. Chant. - L.: Belhaven Pr., 1992. -P. 1-29.; Chant S. Conclusion: Towards a Framework for the Analysis of Gender-Selective Migration. / S. Chant // Gender and migration in developing countries. / Ed. by S. Chant. - L.: Belhaven Pr., 1992.-P. 1-29.

Митина О.В., Петренко В.Ф. Кросс-культурное исследование стереотипов женского поведения (Россия-США) // Вопросы психологии. - 2000. - №1.

Пескова Д. Р., Абреу Бастос О. П. Причины, риски и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне // Фундаментальные исследования. 2014. № 11, гл. 3. С. 596-600.

Рязанцева. С.В, Сивоплясова С. Ю. Брачное поведение женщин-мигранток из стран Центральной Азии. Женщина в российском обществе 2021. Специальный выпуск. С. 136-149.

Ходжиев Н.Ф. Изучение социально-психологических факторов формирования профессионального стресса у трудовых мигрантов Научно-исследовательский институт медицины труда имени академика Н.Ф. Измерова, Россия, 105275, г. Москва, пр. Буденного, 31.

Холматова Н «Непредсказуемость состояния транснациональной миграции в условиях пандемии COVID-19: Проблемы возвратной миграции женщин в Кыргызстане и Таджикистане» 2020 г с 2-3.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI KAFEDRA MUDIRLARI FAOLIYATIGA HOKIMIYATDAN MASOFALANISH INDEKSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TA'SIRI

*Mamatqulova Kimyoxon Abduljalilovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, p.f.f.d., (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida kafedra mudirlari faoliyatida hokimiyatdan masofalanish indeksi (HMI)ning ijtimoiy-psixologik ta'siri tahlil etilgan. G.Xofstede nazariyasi asosida tuzilgan so'rovnoma orqali 572 nafar professor-o'qituvchining fikrlari o'rganilib, rahbar-xodim munosabatlaridagi psixologik masofa, ochiq muloqot va tashabbusni qo'llab-quvvatlash darajasi baholangan. HMIning yuqori va past darajasining ijtimoiy oqibatlari hamda uni pasaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch tushunchalar: hokimiyatdan masofalanish indeksi, kafedra mudiri, ijtimoiy-psixologik muhit, rahbarlik munosabatlari, Xofstede shkalasi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ИНДЕКСА ДИСТАНЦИИ ОТ ВЛАСТИ НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЗАВЕДУЮЩИХ КАФЕДРАМИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. Статья посвящена анализу социально-психологического влияния индекса дистанции от власти (ПДИ) в деятельности заведующих кафедрами. На основе опроса 572 преподавателей по шкале Хофстеде исследованы отношения между руководителями и коллективом, уровень открытого общения и участия в управлении. Выделены последствия высокого ПДИ и предложены пути снижения индекса.

Ключевые слова: индекс дистанции от власти, заведующий кафедрой, социально-психологическая среда, шкала Хофстеде.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL IMPACT OF THE INDEX OF DISTANCE FROM POWER ON THE ACTIVITIES OF HEADS OF DEPARTMENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. The article explores the socio-psychological impact of the Power Distance Index (PDI) in the work of university department heads. Based on a Hofstede-based survey of 572 faculty members, the study evaluates leadership-staff relations, openness, and initiative. It highlights the effects of high PDI and provides recommendations for its reduction.

Keywords: Power Distance Index, department head, socio-psychological environment, Hofstede scale.

Oliy ta'lim muassasalarining kafedra mudirlari faoliyati ko'p hollarda rasmiy lavozimdan tashqarida, noan'anaviy rollar, ko'p darajali munosabatlar va ko'plab shaxsiy-psixologik omillar ta'siri ostida amalga oshadi. Bu jarayonlarda rahbarlik munosabatlarini to'g'ri yo'naltirish va iyerarxik tizimni samarali tarzda boshqarish kafedra faoliyatining barqarorligi, muvozanati va ijtimoiy-psixologik muhiti uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Kafedra mudiri faoliyatini ijtimoiy-psixologik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'plab omillar hokimiyatdan masofalanish indeksi omiliga ham bevosita bog'liq.

Ijtimoiy psixologiya va ta'lim menejmentida rahbar-xodim munosabatlarini chuqurroq anglash va tahlil qilishda hokimiyatdan masofalanish indeksi (Power Distance Index) muhim ilmiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu indeks G.Xofstede tomonidan taklif etilgan bo'lib, jamiyat va tashkilotlarda hokimiyat (vakolat)ning tengsiz taqsimlanishiga shaxslar qanday

munosabatda bo'lishi, rahbar bilan bo'ladigan muloqotning shakli va darajasi, qaror qabul qilish jarayonida xodimlarning ishtirok darajasini ifodalaydi. hokimiyatdan masofalanish indeksi (keyingi o'rinlarda HMI) yuqori bo'lgan holatlarda rahbarlik markazlashgan, buyruqbozlikka moyil, muloqotda yopiq bo'ladi. Aks holda, ya'ni indeks past bo'lganda, rahbar-xodim munosabatlarida tenglik, ochiq muloqot, hamkorlik va psixologik xavfsizlik ustuvor bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasasidagi kafedra mudirining HMI ko'rsatkichi – faqat tashkiliy tizimning bir qismi emas, balki uning shaxsiy psixologik fazilatlari, jamoa bilan o'zaro aloqasi, tashkilotning madaniy muhiti va umumiy boshqaruv falsafasi ta'sirida shakllanuvchi ko'p qirrali dinamik tizimdir. Ushbu ko'rsatkich rahbarning rahbarlik uslubi, kadrlar salohiyatini rivojlantirishga munosabati, xodimlarning tashabbusini qo'llab-quvvatlashi va umumiy ish muhitining ochiqlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, ushbu maqola davomida hokimiyatdan masofalanish indeksi tushunchasining nazariy asoslari, uning kafedra mudirlarining faoliyatida amaliy namoyon bo'lishi, psixologik va sotsiomadaniy jihatlari ilmiy tahlil qilinadi. Ushbu tahlil bizga rahbarlikda adaptiv va ishtirokchi modellarning afzalliklarini ochish, akademik muhitda shaxslararo ishonch va hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

HMIga ilmiy ta'rif beradigan bo'lsak, u tashkilot yoki jamiyatda hokimiyat va vakolatlarning tengsiz taqsimlanishini jamiyat a'zolari qanday qabul qilishi va ushbu tengsizlikka nisbatan qanday psixologik munosabat bildirishini aks ettiruvchi ijtimoiy-psixologik ko'rsatkichdir.

Mazkur indeks G. Xofstede tomonidan madaniy o'lchovlar nazariyasida taklif etilgan bo'lib, u individlar va jamoalarning quyidagi xususiyatlarini o'lchashda qo'llaniladi:

- rahbarlik va itoat munosabatlarini qanday qabul qilishi;
- hokimiyatga so'zsiz itoat qilishga moyillik darajasi;
- rahbar va xodim o'rtasidagi muloqotning ochiqligi yoki cheklanganligi;
- ijtimoiy-ierarxik tizimga bo'lgan ichki ruhiy munosabat [1].

Psixologiya nuqtayi nazaridan HMI shaxsning rahbar bilan o'zaro munosabatidagi kognitiv, emotsional va bixevioral reaksiyalar tizimini namoyon etadi. Ushbu indeks rahbarning shaxs sifatida qanday qabul qilinayotganini, fikr bildirish, bahs qilish, teng muloqot qilish imkoniyati mavjud yoki mavjud emasligini aks ettiradi. Masalan, yuqori HMI darajasidagi muhitda shaxs rahbari “qasddan uzoq turishi lozim bo'lgan shaxs” sifatida qabul qiladi, bu esa psixologik masofaning kuchayishiga olib keladi. Shu ma'noda “HMI – bu shaxsning hokimiyat manbasi bilan psixologik aloqasidagi emotsional va ijtimoiy masofa darajasini aniqlovchi psixologik indikator” [2].

HMI butun xalq madaniyatiga taaluqli Madaniy indeks sifatida ham qaraladi. Mazkur o'rinda HMI xalqning o'z madaniy darajasida umumiy yetakchiga nisbatan qarashlarini ham ifodalaydi. HMI yuqori bo'lgan madaniyatlarda rahbarlik qat'iy, markazlashgan va buyruqbozlikka asoslangan bo'ladi. HMI past bo'lgan jamiyatlarda esa yetakchilik demokratiya, faoliyatda faol ishtirok va teng muloqotga asoslanadi [3].

HMI ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan kam tadqiq etilgan bo'lsada, mamlakatimizda ushbu tushunchaga berilgan ayrim ta'riflar uchraydi. Jumladan, yurtimizda birinchilardan bo'lib Sh.Yu. Rajabov “Hokimiyatdan masofalanish indeksi oliy ta'lim muassasalarida etakchilikning ochiqlik darajasi, xodimlar ishtirokini rag'batlantirish, hamkorlik muhitini shakllantirishga ta'sir qiluvchi psixologik indikator hisoblanadi” [4], deya o'zining ilmiy ta'rifini bergani diqqatga sazovordir.

HMI ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan kam tadqiq etilgani, ushbu tushunchaga berilgan ta'rif va yondashuvlar kamligini inobatga olgan holda mazkur o'rinda ushbu tushunchaga quyidagi mualliflik ta'rifini berishni lozim topdik: “Hokimiyatdan masofalanish indeksi (HMI) - bu, hokimiyat (vakolat)ga nisbatan psixologik munosabat, muloqot erkinligi, shaxslararo masofa va boshqaruvdagi tengsizlikka jamiyat va shaxs qanday munosabatda bo'lishini ifodalovchi madaniy-psixologik ko'rsatkichdir”.

Ta'kidlash kerakki, HMI indeksi faqat boshqaruv iyerarxiyasini belgilab beruvchi indikator emas, balki insonning kognitiv mexanizmlari va ijtimoiy faollik darajasini ham aniqlovchi

psixologik ko'rsatkich hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasidagi kafedra mudirining HMI ko'rsatkichiga ta'siri uning shaxsiy fazilatlarini, xususan emotsional intellekt, kognitiv vositachilik qobiliyati va institutsional ishonchni shakllantirish malakasi bilan chambarchas bog'liq. Agar rahbar empatik, ochiq muloqotga tayyor, mas'uliyatli bo'lsa, u HMI ni past darajada ushlab tura oladi va jamoa o'rtasida ishonch muhitini shakllantiradi [5]. Bu jarayonning aksi sifatida rahbar shaxs boshqaruvda ichki psixologik zaxiralarga tayana olmasa, u avtoritar boshqaruv uslubiga o'tib, qaror qabul qilishda yakkalikka, muloqotda cheklovlar va tanqidiy fikrlardan himoyalanişga harakat qiladi. Bu esa jamoaning ijtimoiy-psixologik muhitida HMI ni ortib ketishi va kadrlar o'rtasidagi ishonchni susayishiga olib keladi.

HMI yuqori bo'lgan muhitda shunday holatlar kuzatiladi:

Tanqidiy fikrlash kamayishi;

Tashabbusizlik va ijodiy passivlik;

Qaror qabul qilishda ishtirok darajasining pastligi;

Psixologik distansiya va kommunikativ uzilishlar;

Ijtimoiy masofa hissi va emotsional depersonalizatsiya.

Ta'kidlash kerakki, mazkur yo'nalishda amalga oshirayotgan tadqiqotimizga qadar O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari (jumladan, kafedralar)da an'anaviy boshqaruv uslubi, uning natijasida HMI ning yuqori bo'lish ehtimoli mavjud edi. Mazkur ehtimolni aniqlash uni ilmiy-psixologik manzarasini (raqamlarda) yaratish ushbu maqolaning asosiy vazifasi sifatida qaraldi.


Shunga ko'ra, tadqiqot davomida "Hokimiyatdan masofalanish indeksini amaliy baholash uchun Hofstede shkalasi" (Hokimiyatdan masofalanish indeksi (Power Distance Index) Geert Hofstede tomonidan ishlab chiqilgan. U "Cultural Dimensions Theory" (1980–2001) doirasida madaniyatlararo boshqaruvni tahlil qilishda ushbu indeksdan keng foydalangan. HMI rahbar va jamoa o'rtasidagi hokimiyat masofasini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi) asosida o'rganilishlar amalga oshirildi (1-jadval):

1-jadval. "Hokimiyatdan masofalanish indeksini amaliy baholash uchun Hofstede shkalasi"

№	Mezon	1 ball (HMI past)	5 ball (HMI yuqori)
1	Qaror qabul tartibi	Jamoaviy, fikrlar asosida	Rahbarning yakka qarori asosiy
2	Muloqot tarzi	Erkin, tenglik asosida	Rasmiy, ierarxik
3	Fikr bildirish imkoniyati	Bemalol fikr bildiriladi	Fikr bildirish cheklangan
4	Rollar va mas'uliyatlar	Delegatsiya mavjud	Barchasi rahbarda jamlangan
5	Rahbarning ta'siri	Qonun va nizomlar asosida	Shaxsiy ta'sir kuchli
6	Tashabbusni qabul qilish	Rag'batlantiriladi	Jazo yoki tanqidga olib keladi
7	Hokimiyatga munosabat	Rahbar – jamoaning bir qismi	Rahbar – alohida maqom
8	Ishonch muhiti	Ishonch va tenglik asosida	Qo'rquv va ehtiyotkorlik mavjud

Mazkur shkala bo'yicha har bir mezon kesimida berilgan 1–2 ball: HMI past (“HMI past darajada bo'lsa, rahbar va jamoa o'rtasida ishonch va faol muloqot yuzaga keladi. Yuqori darajada esa shaxsiy tashabbus susayadi va ijtimoiy masofa oshadi”) [6] – erkin muloqot, jamoaviy qarorlar, tenglik asosidagi boshqaruvni; 3 ball: Oraliq holat – muvozanatli boshqaruvni; 4–5 ball: HMI yuqori (“yuqori HMI – rahbar va xodim o'rtasidagi ta'sirning vertikal darajasi bo'lib, u jamoada qaror qabul qilish, muloqot madaniyati va mas'uliyatni qanday taqsimlashda o'zini namoyon etadi”) [1] – markazlashgan boshqaruv, buyruqbozlik, iyerarxiya ustuvorligini anglatadi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalaridagi kafedra mudiri lavozimida bo'lmagan 572 nafar OTM professor-o'qituvchining fikri HMI ni amaliy baholashning Hofstede shkalasi asosida ishlab chiqilgan amaliy so'rovnoma asosida o'rganilganda (quyidagi diagramma 572 nafar respondent tomonidan har bir mezon bo'yicha berilgan o'rtacha ballarni 1 dan 5 gacha bo'lgan shkala asosida aks ettiradi) natijalar quyidagicha ekani ma'lum bo'ldi (1-rasm):



1-rasm. O'zbekiston OTM kafedralarining ijtimoiy-psixologik muhitida hokimiyatdan masofalanish darajasi

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, baholash mezonlarining ko'pchiligi (maksimal 5 ballga nisbatan) 70% dan yuqori foizda bo'lib, bu ko'rsatkichlar OTM kafedralarida rahbar va jamoa o'rtasidagi masofa katta ekanligini bildiradi. Ayniqsa, “Qaror qabul qilish”, “Buyruq uslubi”, “Mas'uliyat taqsimoti” kabi mezonlarda yuqori baholar rahbarlikda markazlashuv va iyerarxiyaga urg'u berilayotganini anglatadi.

Shuningdek, “Ijtimoiy masofa” va “Rahbar ta'siri” mezonlari ham yuqori foizlarda bo'lib, bu esa OTM kafedralarida rahbarning jamoadan uzoq turishi va qarorlar qabul qilishda shaxsiy omillarning ustuvorligini bildiradi.

Ma'lumki, kafedralar barcha oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va pedagogik yadrosi sanaladi. Kafedralarda ijtimoiy-psixologik muhitning og'irligi, jumladan HMI ni yuqoriligi ushbu “yadro”da psixologik zo'riqish va parchalanish muammolarini yuzaga chiqishi, akademik samaradorlikni pasayib ketishiga olib keladi. Bizningcha, ushbu muammolarni bartaraf etish ya'ni, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalaridagi kafedralar faoliyatida HMI ni pasaytirish uchun quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Ular:

- jamoaviy qaror qabul qilish va maslahatlashuv madaniyatini rivojlantirish.
- muloqot erkinligini oshirish va professor-o'qituvchilarning tashabbuslarini rag'batlantirish.
- HMI darajasini pasaytiruvchi rahbarlik kompetensiyalari (masalan: empatiya, ochiqlik, fikr

almashinuv kabilar)ni rivojlantirish.

- HMI monitoringi uchun muntazam ichki so'rovnoma va kuzatuv tizimini joriy etish.

Yuqoridagi tavsiyalar rahbar va jamoa o'rtasida ishonchli, ochiq va demokratik muhitni shakllantirishga yordam beradi, bu esa OTMlarning akademik samaradorligini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasasi kafedra mudirlari faoliyatiga hokimiyatdan masofalanish indeksining ijtimoiy-psixologik ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarni asosida xulosa qiladigan bo'lsak, birinchidan, Oliy ta'lim muassasasi kafedralarida HMI ichki muhit, rahbarlik samaradorligi va akademik jamoa psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kompleks psixologik determinant hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich rahbar va jamoa o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakli, fikr bildirish va tanqidiy yondashuv erkinligi, tashabbusni qo'llab-quvvatlash darajasi hamda qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatlarini belgilaydi;

Ikkinchidan, tahlillar shuni ko'rsatdiki, HMIning yuqori muhitida jamoada ijtimoiy masofa, hissiy befarqlik, tashabbus etishmasligi va depersonalizatsiya holatlari kuchayadi. Aksincha, past HMI sharoitida ishonchli, ochiq va kooperativ (hamkorlikka asoslangan) rahbarlik modeli shakllanadi, bu esa innovatsion faoliyat, kasbiy o'sish va ichki motivatsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, rahbar shaxsining psixologik xususiyatlari (emotsional intellekt, empatiya, kommunikativ madaniyat, refleksiya), tashkilotdagi madaniy muhit va strukturaviy yondashuvlar HMI darajasiga bevosita ta'sir qiladi. HMI ning optimal boshqaruvi orqali rahbarlikning insonparvar, ishtirokchi va muvozanatli modeli shakllantiriladi;

Uchinchidan, O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalaridagi kafedralarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar bilan o'tkazilgan sotsiologik va psixologik so'rovlar shuni ko'rsatdiki, HMI darajasi o'rtachadan yuqori bo'lib, ularga ko'ra rahbarlar ko'p hollarda yakka qaror qabul qiladi, xodimlar esa ehtiyotkor, kam tashabbus ko'rsatuvchi va formallikka moyildir. Bu esa xalqimiz ruhiyatidagi madaniy kodda mavjud bo'lgan vertikal iyerarxiyalarning psixologik ildizlarini aks ettiradi. Xususan, HMI bo'yicha 572 nafar professor-o'qituvchilar ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotlarda: "Qarorlar qabul qilishda ishtirok", "Tashabbusga erkinlik" bo'yicha ballar esa pastroq (3.6–4.0) chiqqani yuqoridagi xulosaning ilmiy asoslari hisoblanadi;

To'rtinchidan, empirik izlanishlar va ilmiy-nazariy asoslarga ega tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalaridagi kafedralarda rollar taqsimoti va vakolatlar aniq, lekin qarorlar qabul qilinishida asosan rahbar yakka o'zi faoliyat yuritadi. Tashabbus ko'rsatgan xodimlar yetarlicha rag'batlantirilmaydi, bu esa tashabbuskorlikning pasayishiga olib keladi. Ochiq muloqot, fikr bildiruvchi mexanizmlar mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy ta'siri cheklangan bo'lib, bularning barchasi jamoadagi HMI darajasining yuqoriligini anglatadi.

O'zbekiston OTMlaridagi kafedralarning ijtimoiy-psixologik muhitida HMIning pasaytirish uchun bizningcha, quyidagi vazifa (tavsiya)larni amalga oshirish lozim bo'ladi:

1. Kafedra rahbarlari uchun emotsional intellekt va empatik aloqani rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar tashkil etish orqali rahbar va xodimlar o'rtasidagi psixologik masofani qisqartirish;

2. Har chorak yoki yarim yillikda OTMlardagi kafedra kesimida HMI monitoringi o'tkazish: so'rovnoma va kuzatuvlar asosida rahbarlik uslubini baholash tizimini ishlab chiqish;

3. Fakultet va kafedralarda ochiq majlislar, fikr almashuv sessiyalarini doimiy tashkil etish borish orqali qarorlar qabul qilishda jamoa ishtirokini kuchaytirish;

4. Oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlar va HR bo'limlari orqali rahbar-xodim o'rtasida feedback mexanizmini yo'lga qo'yish;

5. Rahbarlik faoliyatida subyektiv xavfsizlikni oshirish. Buning uchun rahbarlarga mavqeyini qo'rqitish yoki zo'ravonlik bilan emas, balki ishonch va hamkorlik asosida oshirishga o'rgatish;

6. Har bir hodimning subyektivligini tan olish va rag'batlantirish yo'li bilan jamoada HMIning pasaytirish va shu orqali innovatsion va tashabbuskor pedagogik muhitni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

Hofstede, G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. 2001. p. 83–90.

Спиваковская В.А. Психология управления. 2016. – Юрайт, с. 139.

Thomas, D.C., & Peterson, M.F. Cross-Cultural Management: Essential Concepts. 2017. – Sage, p. 147.

Rajabov Sh.Yu. Oliy ta'limda pedagogik etakchilik psixologiyasi. – T.: Iste'dod. 2022. – B. 204–207.

Goleman D. Emotional Intelligence. – Bantam Books, 1995. pp. 135–168.

Thomas D., Peterson M. Cross-Cultural Management. 2017.

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA MOBIL MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Eshnaev N.J.,

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Psixologiya kafedrası dotsenti
<https://orcid.org/0009-0006-6832-6543>

Annotatsiya: Innovatsion ta'lim muhitining jadral rivojlanishi mobil mutaxassislarni tayyorlashga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni har tomonlama tushunishni taqozo etadi. Ushbu maqolada innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak mutaxassislarning moslashuvi, motivatsiyasi va kasbiy malakasini shakllantiradigan asosiy psixologik va ijtimoiy omillarni o'rganadi. Shuningdek, innovatsion ta'limda mobil o'quv jarayonini rivojlanishini rag'batlantirishda ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik omillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-psixologik omillar, mobil mutaxassislar, innovatsion ta'lim muhiti, professional mobillik, raqamlashtirish, moslashuvchanlik, psixologik barqarorlik, hamkorlikda o'rganish.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ МОБИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: Стремительное развитие инновационной образовательной среды требует комплексного понимания социально-психологических факторов, влияющих на подготовку мобильных специалистов. В статье рассматриваются основные психологические и социальные факторы, формирующие адаптацию, мотивацию и профессиональные навыки будущих специалистов в инновационной образовательной среде. Также выделены факторы социально-психологической подготовки в стимулировании развития мобильного процесса обучения в инновационном образовании.

Ключевые слова: Социально-психологические факторы, мобильные специалисты, инновационная образовательная среда, профессиональная мобильность, цифровизация, адаптивность, психологическая устойчивость, совместное обучение.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF TRAINING OF MOBILE SPECIALISTS IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract: The rapid development of the innovative educational environment requires a comprehensive understanding of the socio-psychological factors affecting the training of mobile specialists. This article examines the main psychological and social factors that shape the adaptation, motivation and professional competence of future professionals in the context of innovative education. Also, factors of socio-psychological preparation in stimulating the development of the mobile learning process in innovative education are highlighted.

Key words: Socio-psychological factors, mobile professionals, innovative educational environment, professional mobility, digitization, flexibility, psychological stability, collaborative learning.

Innovatsion ta'lim muhitining paydo bo'lishi kasbiy tayyorgarlik landshaftini o'zgartirdi va mobil mutaxassislarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni chuqur tushunishni talab qildi. Ilg'or texnologiyalar va dinamik pedagogik yondashuvlar integratsiyasi bilan tavsiflangan bu muhitlar talabalardan moslashuvchanlik, chidamlilik va uzluksiz ta'lim jarayonlari bilan faol ishtirok etishni talab qiladi.

Ushbu kontekstda muhim tarkibiy qism texnologik o'z-o'zini samaradorligi bo'lib, shaxsning texnologiyadan foydalangan holda vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatiga ishonchi sifatida aniqlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiya bilan oldingi tajriba, texnologik treningda ishtirok etish va ijtimoiy ishonchlar texnologik o'z-o'zini samaradorligini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi. Masalan, katta tajribaga ega va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitga ega bo'lgan shaxslar yuqori darajadagi texnologik o'z-o'zini samaradorligiga ega bo'lish ehtimoli ko'proq bo'lib, bu ularning innovatsion ta'lim sharoitlariga moslashish qobiliyatini oshiradi.[1]

Ijtimoiy-iqtisodiy holat (IIH) ta'lim natijalarini shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, IIH darajasi past bo'lgan uy xo'jaliklaridagi bolalar ko'pincha yuqori IIH darajasidagi hamkasblariga qaraganda akademik ko'nikmalarni sekinroq rivojlantiradi. Bu esa kognitiv rivojlanish, tahliliy yondashuv va ijtimoiy-emotsional qayta ishlashda nomutanosiblikka olib keladi. Ushbu ta'lim muammolari innovatsion va texnologik jihatdan ilg'or o'quv muhitida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan uzoq muddatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, mobil ta'lim platformalarining qabul qilinishi ta'lim tajribasiga yangi yondashuvlarni kiritdi. Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasiga asoslangan tibbiyot fanlar matematika va informatika ta'lim yo'nalish talabalarining mobil ta'limni qabul qilish omillari shuni ko'rsatdiki, munosabat va qabul qilingan xatti-harakatlar nazorati talabalarning faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu innovatsion ta'lim sharoitlarida samarali o'rganishni osonlashtirish uchun o'quvchilarda ijobiy munosabatni shakllantirish va ularning mobil texnologiyalardan foydalanish qobiliyatiga ishonchini oshirish muhimligini ta'kidlaydi.[2]

Texnologik malakadan tashqari, ta'limdan qoniqish kabi ijtimoiy-psixologik omillar universitet tajribasi sifatini baholashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sifati va talabalarning oliy ta'limdan qoniqish darajasi ta'lim usullariga ta'sir qiladi va ta'lim muassasalari innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Innovatsion ta'lim muhitida mobil mutaxassislarni tayyorlashga ijtimoiy-psixologik omillar, jumladan texnologik o'z-o'zini samaradorligi, ijtimoiy-iqtisodiy holat, mobil ta'limga bo'lgan munosabat va ta'lim tajribasidan qoniqishning murakkab o'zaro ta'siri, ta'sir qiladi. Ushbu omillarni har tomonlama tushunish mutaxassislarni dinamik va texnologik jihatdan ilg'or professional ta'lim landshaftlarda rivojlanishga tayyorlaydigan samarali ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mobil mutaxassislarni innovatsion ta'lim muhitida tayyorlashga ijtimoiy-psixologik omillarning murakkab o'zaro ta'siri mavjud. Mavjud adabiyotlarning keng qamrovli tahlili texnologik o'zini-o'zi samaradorligi, ijtimoiy-iqtisodiy holat, mobil ta'limga munosabat va ta'lim tajribasidan qoniqish kabi bir qancha asosiy omillarni ochib beradi.

Shaxsning texnologiyadan foydalangan holda vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatiga bo'lgan ishonchi sifatida tavsiflangan texnologik o'z-o'zini samaradorligi innovatsion ta'lim sharoitlariga moslashishning muhim omili sifatida aniqlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yuqori darajadagi texnologik o'z-o'zini samaradorligiga ega bo'lgan shaxslar raqamli ta'lim vositalari bilan samarali shug'ullanish ehtimoli ko'proq va shu bilan ularning ta'lim natijalarini oshiradi. Masalan, informatika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarining mobil ta'limni qabul qilishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganuvchi tadqiqot shuni ko'rsatdiki, munosabat va idrok etilgan xatti-harakatlarni nazorat qilish talabalar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, ijobiy munosabatni shakllantirish va talabalarning mobil texnologiyalar bilan shug'ullanish qobiliyatiga ishonchini oshirish muhimligini ta'kidlaydi.[3]

Mobil ta'limga bo'lgan munosabat mobil mutaxassislarni tayyorlashga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omildir. Oliy ta'limda mobil ta'lim bo'yicha tizimli adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, mobil ta'limga ijobiy munosabat faollikni oshirish va ta'lim natijalarini yaxshilash

bilan bog'liq. Ko'rib chiqishda ijobiy munosabatni shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirish uchun foydalanuvchilarga qulay va talabalarning ehtiyojlariga mos keladigan mobil ta'lim tajribasini loyihalash muhimligi ta'kidlandi.

Ta'lim tajribasidan qoniqish universitet ta'lim sifatini baholash bilan bog'liq. Universitet ta'limidan qoniqishning ijtimoiy-psixologik omillarining rolini baholagan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talabalarning qoniqish darajasi ularning ta'lim sifati haqidagi tasavvurlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqotda ta'lim muassasalari talabalarning qoniqish va qabul qilinadigan sifatini oshirish uchun innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligi ta'kidlandi.

Ushbu tadqiqot innovatsion ta'lim muhitida mobil mutaxassislarni tayyorlashga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish uchun aralash usullardan foydalanadi. Tadqiqot loyihasi tekshirilayotgan hodisalarni har tomonlama tushunishni ta'minlash uchun miqdoriy va sifat usullarini birlashtiradi.

Tadqiqotda innovatsion ta'lim muhiti joriy etgan matematika va informatika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar o'rganilgan. Namuna turli xil ijtimoiy-iqtisodiy asoslar, texnologik malaka darajalari va fanlar bo'yicha kompetentlikni ta'minlash uchun tabaqalashtiriladi.

Miqdoriy ma'lumotlar texnologik o'z-o'zini samaradorligini, mobil ta'limga bo'lgan munosabatni va ta'lim tajribasidan qoniqishni o'lchaydigan standartlashtirilgan so'rovnomalar yordamida to'plandi. Buning uchun texnologik o'z-o'zini samaradorligi shkalasi, mobil o'rganishga munosabat shkalasi va talabalarning ta'lim tajribasidan qoniqish shkalasi qo'llaniladi. Ushbu asboblarda oldingi tadqiqotlarda yuqori ishonchlik va haqiqiylikni ko'rsatdi.

Ishtirokchilarning tajribalari va idroklari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lish uchun yarim tizimli intervyular va fokus-guruh muhokamalari orqali sifatli ma'lumotlar to'planadi. Suhbat va munozaralar innovatsion ta'lim muhitlari bilan shug'ullanishning qiyinchiliklari va yordamchilari, ijtimoiy-iqtisodiy holatning o'rganish tajribasiga ta'siri va mobil mutaxassislarni tayyorlashni yaxshilash bo'yicha takliflar bilan bog'liq mavzularni o'rganadi.

Miqdoriy ma'lumotlar tavsiflovchi va inferensial statistika yordamida tahlil qilinadi. Ta'riflovchi statistika o'zgaruvchilarning markaziy tendentsiyalari va tarqalishini umumlashtiradi, inferensial statistika, shu jumladan ko'p regressiya tahlillari esa mobil mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik omillar va natijalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi.

Innovatsion ta'lim muhitida mobil mutaxassislarni tayyorlashga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- Moslashuvchanlik va chidamlilik: Ishtirokchilar innovatsion ta'lim muhitlarini boshqarishda moslashish va psixologik chidamlilik zarurligi;

- Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash va hamkorlik: hamkorlikda o'rganish va tengdoshlarni qo'llab-quvvatlashning ahamiyati mobil ta'lim platformalari bilan samarali hamkorlikni ta'minlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lishi;

- Kirish uchun to'siqlar: Ilg'or texnologiyalarga kirishning cheklanganligi va raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi kabi muammolar, ayniqsa ITH darajasidan past bo'lgan ishtirokchilar orasida mavjudligi.

Tadqiqot texnologik o'z-o'zini samaradorligi, mobil ta'limga bo'lgan munosabat, ta'lim tajribasidan qoniqish va mobil mutaxassislarning innovatsion ta'lim muhitida tayyorgarligini shakllantirishda ijtimoiy-iqtisodiy maqomning muhim rolini ochib beradi. Mazkur ilmiy mulohazalar mobil mutaxassislarni tayyorlash darajasini oshirishga qaratilgan maqsadli tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun qimmatli natijalar beradi.

Sifatli ma'lumotlar moslashuvchanlik va chidamlilik, tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash va hamkorlik va kirish to'siqlari kabi mavzularni ajratib ko'rsatish orqali miqdoriy natijalarni boyitadi. Ishtirokchilar innovatsion ta'lim muhitida navigatsiya qilishda moslashuvchanlik va psixologik barqarorlik zarurligini ta'kidlab, bu xususiyatlar dinamik ta'lim kontekstlarida muvaffaqiyatga

erishish uchun juda muhim degan fikrni tasdiqlaydi. Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda o'rganishning ahamiyati mobil ta'lim platformalari bilan samarali hamkorlik qilishning muhim yordamchilari sifatida paydo bo'ldi. Aksincha, ilg'or texnologiyalardan foydalanishning cheklanganligi va raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, xususan, IIH darajasidan past bo'lgan ishtirokchilar orasida muhim to'siqlar sifatida aniqlandi.

Ushbu tadqiqot natijalari bir nechta amaliy ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari texnologik o'z-o'zini samaradorligini oshirishga qaratilgan maqsadli tadbirlarni amalga oshirishlari kerak, masalan, texnologik jalb qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish va keng qamrovli o'quv dasturlarini taklif qilish. Foydalanuvchilar uchun qulay va aniq foydali bo'lgan mobil ta'lim platformalarini loyihalash mobil o'rganishga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirishi mumkin. Yuqori sifatli ta'lim va mustahkam qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ta'minlash talabalarning qoniqishini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Texnologik resurslardan adolatli foydalanish va qo'llab-quvvatlash orqali IIH bilan bog'liq nomutanosibliklarni bartaraf etish inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Ushbu tadqiqot innovatsion ta'lim muhitida mobil mutaxassislarni tayyorlashga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarning murakkab o'zaro ta'sirini yoritib beradi. Maqsadli tadbirlar va ijtimoiy tashabbuslari orqali ushbu omillarni hal qilish orqali ta'lim muassasalari o'quv dasturlari samaradorligini oshirishi va barcha talabalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta'lim muhitida mobil mutaxassislarni tayyorlashga ta'sir qiluvchi muhim ijtimoiy-psixologik omillarni ilmiy jihatdan o'rganish ijtimoiy zarurat ekanligi yana bir bor isbotlandi. Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, texnologik o'z-o'zini samaradorligi, mobil o'rganishga bo'lgan munosabat, ta'lim tajribasidan qoniqish va ijtimoiy-iqtisodiy holat (IIH) odamlarning mobil-mutaxassis rollariga tayyorligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, oldingi tajriba va treninglar bilan qo'llab-quvvatlanadigan yuqori texnologik o'zini-o'zi samaradorligi odamlarning mobil yondashuv va texnologiyalardan samarali foydalanishga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bundan tashqari, mobil ta'limga ijobiy munosabat, birinchi navbatda, qabul qilingan foydalilik va foydalanish qulayligi bilan bog'liq bo'lib, intuitiv va foydali raqamli ta'lim platformalariga bo'lgan ehtiyojni ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, ta'lim tajribasidan qoniqish ta'lim sifati va institutsional qo'llab-quvvatlash xizmatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yaxshi tuzilgan ta'lim dasturlarining ahamiyatini kuchaytiradi. Biroq, texnologiya va raqamli resurslardan foydalanishdagi nomutanosiblik, ayniqsa IIH darajasi past bo'lgan shaxslar o'rtasida, o'z-o'zini samaradorligi va mobil o'rganishga munosabatiga ta'sir qiladigan muammo bo'lib qolmoqda.

Amaliy nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot ta'lim muassasalari texnologik savodxonlikni oshirish, foydalanuvchilarga qulay mobil ta'lim platformalarini ishlab chiqish va raqamli resurslardan teng foydalanishni ta'minlash bo'yicha strategiyalarni amalga oshirishi kerakligini ko'rsatadi. Ushbu ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olgan holda, mobil mutaxassislar uchun o'quv dasturlarini optimallashtirish mumkin, bu esa innovatsion ta'lim muhitida yanada samarali malaka oshirish va ishchi kuchini tayyorlashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Chakraborti, M.; Gupta, P.; Sharma, R. Mobil ta'limni qabul qilishning ijtimoiy-psixologik omillari. J. Educ. Technol. 2022, 39 (4), 22–34.

Tursunov, A.; Namozov, B. Mobil o'quv platformalari va ularning ta'limdan qoniqishga ta'siri. J. Educ. Mobil texnologiyalar. 2022, 19 (3), 58–71.

Rahmonov, T.; Ismoilov, U.; Bekmurodov, R. Masofaviy ta'lim muhitida texnologik o'z-o'zini samaradorligining roli. J. Educ. Psixol. 2023, 58 (2), 112–128.

Jalilov, A.; To'xtaev, S.; Zaynidinov, E. Mobil ta'limda innovatsion pedagogik usullar. Int. J.

Pedagog. Innov. 2021, 7 (1), 5–18.

Siddiqov, M.; Yo'ldoshev, N. Ijtimoiy-iqtisodiy holatning talabalarning elektron ta'limga jalb etilishiga ta'siri. ta'lim. Soc. Psixol. J. 2020, 12 (2), 45–56.

Pevzner, V.; Nasirov, Z. Raqamli savodxonlik va mobil mutaxassis malakalarini rivojlantirish. Int. J. Raqam. O'rganing. 2023, 29 (4), 105–118.

Maksimov, D.; Hamdamov, S. Mobil ta'limda motivatsiya va texnologiyani qabul qilish o'rtasidagi bog'liqlik. J. Technol. ta'lim. 2021, 35 (6), 22–38.

Rahimov, R.; Sattarov, I.; Shukurov, T. Oliy ta'limda mobil ta'lim samaradorligini baholash. Hisoblash. ta'lim. 2022, 56 (7), 79–92.

G'ofurov, A.; Karimov, D. Markaziy Osiyoda mobil ta'limni qabul qilishdagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etish. J. Educ. Dev. 2023, 34 (5), 43–57.

Yusupov, R.; Zulfiqorov, A. Mobil texnologiyalar orqali o'quv tajribalarini oshirish: ijtimoiy-psixologik nuqtai nazar. J. Innov. ta'lim. Technol. 2021, 14 (3), 121–136.

EMOTSIONAL INTELEKTNI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI SUN'IY INTELEKT DASTURLARI

Yarmatov Raximboy Baxramovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada emotsional intellekt tushunchasi, uning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt dasturlarining emotsional intellektni rivojlantirishdagi o'rni o'rganiladi. Turli sun'iy intellekt asosidagi dasturlar, chatbotlar va o'quv platformalari orqali insonlarning emotsional qobiliyatlarini rivojlantirish, hissiyotlarni tushunish, boshqarish va o'zaro muloqotni samarali yo'lga qo'yish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada ilg'or xorijiy va mahalliy tadqiqotlar, dasturiy ta'minot misollarida sun'iy intellekt vositalarining emotsional intellektga ijobiy ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Emotsional intellekt, sun'iy intellekt, hissiy ong, chatbot, mashinaviy o'rganish, raqamli psixologiya, virtual yordamchi, hissiy analiz.

Annotation. This article analyzes the concept of emotional intelligence and its role and importance in human life. It also examines the role of modern technologies, particularly artificial intelligence programs, in developing emotional intelligence. The article highlights the potential of various artificial intelligence-based programs, chatbots, and educational platforms to enhance individuals' emotional abilities, understand and manage emotions, and establish effective communication. The article also discusses the positive impact of artificial intelligence tools on emotional intelligence through advanced foreign and local research and software examples.

Keywords. Emotional intelligence, artificial intelligence, emotional awareness, chatbot, machine learning, digital psychology, virtual assistant, emotional analysis

